Биринчидан, “Иқтисодиёт назарияси” фанини иккига – “Иқтисодиёт асослари” ва “Иқтисодий назария” фанларига ажратиб, Ўзбекистонда ҳам “Иқтисодий назария” фанини тиклаш лозим. Масалан, Россияда бизнинг “Иқтисодиёт назарияси” каби “Теория экономика” фани йўқ, лекин алоҳида “Иқтисодий назария” (“Экономическая теория”) ва “Иқтисодиёт” (“Экономика”) фанлари бор. “Иқтисодиёт назарияси” фанининг предмети ҳаддан ташқари кенг ва хилма-хил, уни тўлиқ камраб олиши ва ҳар бир элементининг моҳиятига чуқур кириши қийин. Мантикнинг “тушунча мазмуни билан ҳажми (моҳияти) нинг тескари нисбати” **қонунига кўра**, предметнинг мазмуни қанча кенг бўлса ҳажми (моҳияти) шунча тор, саёз бўлади. Бундай ҳолат нафақат мазкур фан, балки барча иқтисодий фанлар тараққиётига салбий таъсир кўрсатиши турган гап. Бундан ташқари, бизда кўпинча, хусусан, бир тилдан бошқасига таржима қилганда, “иқтисодиёт назарияси” ва “иқтисодий назария” тушунчалари алмаштириб юборилади. Ҳолбуки, улар жиддий фарқ қиладилар: биринчисида **хусусийлик** белгиси устувор бўлиб, иқтисодий тизимнинг аниқ бир типидир – асосан миллий иқтисодиётни ўрганишига урғу берилади, иккинчисида эса **умумийлик** белгиси

устувор бўлиб, глобаллик хусусиятига урғу берилади. “Иқтисодий назария” барча типдаги иқтисодий тизимларнинг энг муҳим ҳодиса, жараёнларининг умумий фундаментал томонларини ўрганади, унинг умумийлаштириш даражаси юқори ва фалсафага яқин бўлади ва шу боис барча хусусий иқтисодий фанлар, шу жумладан, “Иқтисодиёт асослари” фани учун ҳам фундаментал назарий, фалсафий, методологик асос бўлиб хизмат қилади. Булар эса “Иқтисодий назария” ишлаб чиққан фундаментал қонунлар, назариялар, хулосалар, таклифларни иқтисодий ҳаётда қўллаш йўллари ва имкониятларини ўрганадилар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқадилар, уларнинг умумийлаштириш даражаси нисбатан пастроқдир. “Иқтисодий назария” ва “Иқтисодиёт асослари” мустақил фанлар сифатида ўз предмети чегараси доирасида уни тўлиқроқ қамраб олиб, унга чуқурроқ сингиб, унинг янги қирралари ва имкониятларини очиб беришга қодир бўлади.

Иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Бугунги замон барча соҳалар қаторида илм-фанни ҳам янги босқичга кўтаришни талаб қилмоқда”⁵⁾ деган сўзидан ҳамда жадаллашиб бораётган ижтимоий-иқтисодий ҳаёт ва иқтисодий ислоҳотлар илгари сураётган янги вазифалардан иқтисодий фанларни ҳам янги сифат даражасига кўтариш зарурати келиб чиқади. Бу – иқтисодий фанлар ўзини ўзи тадқиқ қилиб, ўз моҳиятининг янада чуқурроқ қатламларига сингиб, янги хоссалари, алоқалари, муносабатларини очиб, янги қонунлари, қонуниятлари, принципларини шакллантириб, янги функциялари ва имкониятларини аниқлаб, улардан фойдаланишни йўлга қўйиш демакдир. Аммо бу фанлараро муаммо бўлиб, уни иқтисодий билимлар билан бир қаторда фалсафий-методологик билимларни ҳам етарли даражада эгаллаб олган иқтисодиёт фанлари бўйича **фалсафа докторлари** амалга оширишлари мумкин.

Учинчидан, иқтисодий фундаментал тадқиқотларни жадаллаштириб, уларни юқори босқичга кўтариш зарур. Фундаментал тадқиқотлар амалий тадқиқотлар ва илмий ишланмалар яратиш, иқтисодий фанларни янги сифат босқичига кўтариш учун асос ҳисобланади. Фундаментал тадқиқотлар натижасида очилган қонунлар ва қонуниятлар, шакллантирилган принциплар, қоидалар, хулосалар ва назариялар асосида амалий тадқиқотлар ва илмий ишланмалар амалга оширилади, улар иқтисодий фанлар мазмун-моҳиятида инқилобий ўзгаришлар содир этишлари мумкин. Шунинг учун фундаментал тадқиқотларни замон талабларига мувофиқ ривожлантирмай туриб, амалий тадқиқотлар ва илмий ишланмаларни кенгайтириш, иқтисодий фанларни ҳам янги сифат босқичига кўтаришнинг иложи бўлмайди. Бизнингча, фундаментал тадқиқотларни зарур даражада ташкил этиш, йўналтириш, жадаллаштириш учун Ўзбекистон Фанлар Академияси таркибида алоҳида “Иқтисодиёт” илмий-тадқиқот институтини ташкил этиш ҳамда етакчи иқтисодий олиқ таълим муассасаларида фундаментал тадқиқотларни замон талаблари даражасига кўтариш ва жадаллаштириш мақсадга мувофиқдир.

Тўртинчидан, барча иқтисодий ўқув фанлари ва дастурлари, ўқув адабиётларига **“Фаннинг фалсафий асослари”** деган махсус мавзу киритиш ҳамда илмий ишлар, диссертацияларнинг фалсафий асосларига эътиборни жиддий кучайтириш лозим. Иқтисодий борлиқ, фан (тадқиқот) объекти ва предметини илмий ўрганиш, тушуниш ва ўзлаштириш унинг фалсафий асослари ривожига боғлиқ. Иқтисодий фан (тадқиқот) нинг фалсафий асослари ҳам унинг муҳим таркибий қисми бўлсада, уларга етарли даражада эътибор берилмагани оқибатида уларнинг ривожланиши ва ўз вазифаларини бажаришида қолоқлик кўзга ташланмоқда. Таниқли файласуф И.Кант: олим, яъни тадқиқотчи, изланувчи “...нарсаларга бошқа кишилар нуқтаи назари билан қараши учун унга яна бирга кўз керак”, агар унда **“фалсафий кўз бўлмаса”**, у бир кўзли маҳлуқ каби бўлиб қолади, деб таъкидлаган⁶⁾. Бу – иқтисодий фан (тадқиқот) учун иқтисодий билимлар қанчалик зурур ва муҳим бўлса, фалсафий билимлар ҳам шунчалик зурур ва муҳим деган гап. Замон талаблари, хусусан диссертация ҳимоя қилган тадқиқотчиларга **фалсафа доктори** илмий даражасини берилиши фан (тадқиқот) нинг фалсафий асосларини ҳам янги босқичга кўтаришни тақозо этади. Акс ҳолда **фалсафа доктори даражасини оладиган** тадқиқотчи, изланувчи, ўқитувчи ҳақиқатан ҳам шу даражага мувофиқ бўлиши қийин. Бу масалада ЎР Олий Аттестация Комиссияси ва диссертация ҳимоя қилинадиган илмий кенгашлар ўз ҳиссаларини қўшишлари ва тадқиқотчилар масъулиятини ошириш ҳам зарур бўлади.

БИЛИМЛАР ИҚТИСОДИЁТИ ШАРОИТИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ БИТИРУВЧИЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ МОДЕЛЛАРИ

Жаҳондаги ижтимоий-иқтисодий тизимлар ва алоҳида мамлакатларнинг тараққиёти кўп жиҳатдан мавжуд ва самарали фаолият кўрсатаётган олий таълим муассасаларида мутахассислар тайёрлашнинг сифати ҳамда тайёрланаётган кадрларнинг касбий малака даражаси, шу билан бирга уларнинг шахсий хусусиятларига боғлиқлиги жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари тажрибасидан кўришиб турибди. Олий таълим муассасалари томонидан юқори малакали, билимдон, турли вазиятларда шароитида мустақил қарорлар қабул қилиш қобилиятига эга мутахассисларнинг тайёрланиши, бир томондан, битирувчилар фаолият кўрсатаётган соҳа ва тармоқларнинг динамик ривожланишини таъминласа, иккинчи томондан, мутахассислар тайёрланаётган олий таълим муассасаларининг халқаро ёки мамлакат даражасидаги нуфузини белгилаб беради.

Олий таълим муассасаларининг инсоният тараққиётининг ўтган даврларидаги ривожланиши давомидаги ўзгариш қонуниятларини ўрганган ҳолда олий таълим тизимида рақобатбардош кадрлар тайёрлаш моделларини қуйидаги моделларга ажратиш мақсадга мувофиқ (1-расм):

1. Немис классик университети (Гумбольдт) модели. Ушбу модель дастлабки ўрта аср университетларидан бир қатор ўзига хос жиҳатлари билан фарқланиб, XIX асрда илмий тадқиқот университетининг прототиپига айланди.

Немис классик университети моделининг асосчиси Вильгелм фон Гумбольд (1767-1835 йй.) классик университетнинг дастлабки университетлардан фарқланувчи 4 та асосий функцияси – билимларни ишлаб чиқиш, тўплаш ва сақлаш, узатиш ва тарқатиш функцияларини асослаб берди ва ушбу модель негизида ташкил этилган университетлар фаолиятида кўрсатиб ўтилган функцияларнинг амал қилишини кўриш мумкин.



1-расм. Университет моделларининг турлари ва рақобатбардош кадрлар тайёрлаш хусусиятлари¹

¹ Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилган.

Гумбольдт университети моделининг тайёрланаётган мутахассисларнинг сифати ва рақобатбардошлик даражаси ҳам моделдаги асосий функциялардан келиб чиқиб, таълим хизматларини амалга ошириш жараёнида талабаларни замонавий янгиликларга йўналтириш билан илмий тадқиқот ва таълим жараёнларининг интеграциялашувига эришиш орқали таъминланиши назарда тутилади. Яъни талаба таълим олиш жараёнида ўз мутахассислиги доирасида илмий тадқиқотлар олиб боради, тадқиқот натижаларини амалиётга жорий этади ҳамда яратилган янгиликдан олинган даромад тақсимотида иштирок этади.

Бу тизим, бир томондан, таълим тизимига тадқиқот жараёнини самарали интеграциялаш орқали тайёрланаётган мутахассисларнинг касбий компетенцияларини инновацион асосга кўчириш орқали битирувчининг рақобатбардошлигини шакллантирса, иккинчи томондан, тайёрланаётган мутахассисларнинг салоҳиятини иш берувчилар орасида кўрсатиш билан университетнинг имижини оширади, учинчидан, таълим ва тадқиқот жараёнида яратилган янгиликларни тижоратлаштириш орқали тадқиқотчи ва университет учун даромадларни таъминлайди. Гумбольдт университети моделининг асосий элементлари бугунги кунда ҳам Германия ва Европанинг айрим университетлари фаолиятида яққол сезилиб туради. Ушбу модель асосида фаолият юритган университетларнинг аксарият салоҳиятли битирувчилари кадрлар буюртмачилари томонидан ҳали университетни битирмасдан туриб ишга олиниб, таълимни бевосита амалиёт билан бирга давом эттирганлиги Гумбольдт моделининг тайёрланаётган кадрлар рақобатбардошлиги борасида сезиларли устунликларга эга бўлганлигини кўрсатади.

2. Тадқиқот университетининг неоклассик “политехник” (француз) модели. Ушбу модель XIX асрнинг охирида университетларнинг таълим модели биринчи илмий инқилоб натижасида илм ва таълимни бирлаштирувчи тадқиқот университетларига трансформациялашuvi жараёни натижасида Франция (Париж университети)да шаклланиб, университетларнинг мутахассислар тайёрлаш жараёнига классик ёндашувнинг бирмунча ўзгариши натижасида пайдо бўлди¹.

“Политехник” университет модели олий таълим муассасаларида мутахассисларни кўплаб йўналишларда тайёрланиши, университетларнинг фундаментал йўналишларда ихтисослашuvi концепциясини инкор этиши билан классик университет моделидан фарқланади. Ушбу модель асосида фаолият кўрсатувчи олий таълим муассасаларида тор ихтисосликлар бўйича мутахассислар тайёрланиб, талабаларнинг инновацион фаолиятга жалб этилиши таълим жараёнидан алоҳида ҳолдаги лойиҳалардаги иштироки билан кузатилади. Университетнинг асосий фаолиятидаги таълим жараёнида мутахассислар стандарт талаблар доирасида тайёрланишини кўзда тутса, илмий тадқиқот жараёнига иқтидорли ва янгиликларга интилувчан сараланган талабаларнинг жалб этилиши билан амалга оширилади.

“Политехник” университет моделини бугунги кунда “Университет 2,0” концепцияси асосида фаолият олиб боровчи дунёнинг кўплаб университетларида амал қилаётганлиги кузатилади.

3. “Тадбиркорлик университети” модели. Ушбу модель XX асрнинг 40-йилларида олий таълим муассасаларининг таълим ва инновациялар бозорида эркин фаолиятга интилиши натижасида шаклланиб, унинг асосий хусусияти *таълим, илмий ва инновацион-тадбиркорлик вазифаларини бир вақтнинг ўзида ҳал этишга қаратилганлигидир*.

“Замонавий университет жамиятнинг фаол, серқирра ва самарали фаолият юритувчи институти бўлиб, бундай олий таълим муассасаларида академик таълим олиш билан бир қаторда битирувчиларнинг тадбиркорлик фаоллигини ҳам рағбатлантириш лозим, бу ўз навбатида университетнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши маркази бўлишига имкон яратади”².

Тадбиркорлик университети тарихи Калифорнияда (XX асрнинг 40 йилларининг охири 50 йилларнинг бошларида) Кремний водийсининг яратилиши билан бошланади. Бунинг асосий мақсади Массачусетс технологиялар университети билан бизнес ўртасидаги ҳамкорликни йўлга қўйиш бўлган. Европада тадбиркорлик шаклидаги биринчи университет 1994 йилдан Халмерс университети (Гётеборг) ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Олий таълим муассасаларининг инсоният таракқиётининг ўтган даврларидаги ривожланиши давомидаги ўзгариш қонуниятларини ўрганган ҳолда олий таълим тизимида рақобатбардош кадрлар тайёрлаш моделларини немис классик университети

¹ Тазарбеков К.А. К разработке «Дорожной карты трансформации университета «Туран» в инновационно-предпринимательский университет». Тезисы. – Алматы: Университет «Туран», 2016. –С. 4.

² Самойленко К.А. Перспективы развития инновационно-предпринимательских университетов: http://ir.znau.edu.ua/bitstream/123456789/1983/1/Nauk_chut_2014_3_177-182.pdf.

(Гумбольдт) модели, неоклассик “политехник” университет модели ва “Тадбиркорлик университети” моделларига ажратиш мақсадга мувофиқ.

Мамлакатимизда шаклланган олий таълим тизимида фаолият кўрсатаётган университетларда тайёрланаётган мутахассисларнинг рақобатбардошлигини оширишда дунёнинг олий таълим тизими ривожланган мамлакатлари ҳисобланган АҚШ, Исроил, Европа Иттифоқи (Испания) ҳамда Россия каби мамлакатларида шаклланган тажрибалар ва рақобатбардошликни ошириш моделларидан ҳудудий ва миллий хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни. Тошкент ш., 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон).
2. Очилов А.О. Юқори малакали кадрлар тайёрлашни бошқариш самарадорлигини ошириш: икт. фан докт. дисс... – Тошкент, 2019. – 244 б.
3. Galán A., Ángeles González-Galán M., Rodríguez-Patrón P. Faculty evaluation in Spain. The national system and sub-national divergence// Revista de Educacion. 2014. P. 136-164.
4. Барлуков А.М. Трудоустройство выпускников как показатель качество образования // Научный руководитель. 2017. №2 (20). С. 48-54.
5. Борисова А.А., Тимофеева А.Ю. Конкурентоспособность выпускников ВУЗов: факторы-детерминанты и методика диагностики / «ВУЗы и кадровый потенциал региона», №2, 2017. – С. 89-101.

Равшан ХИДОЯТОВ

Жиззах политехника институти

«Иқтисодиёт ва менежмент» кафедраси и.ф.н.доцент.

Зайниддин ТЎХТАЕВ

ТТЙеСИ 1-босқич Тайанч докторант

zayniddintoxtayev9@gmail.com

ИҚТИСОДИЁТИМИЗНИНГ ТАРАҚҚИЁТИГА ХОС ЗАРУРИЙ ЖИХАТЛАР

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йилнинг 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишида “Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавийдир. Биз янги Ўзбекистонни барпо этишга қарор қилган эканмиз, иккита мустақкам устунга таянишимиз. Биринчиси - бозор иқтисодиётига асосланган кучли иқтисодиёт. Иккинчиси, аждодларимизнинг бой мероси ва миллий кадрларга асосланган кучли маънавият”¹, - деб таъкидлаган эди.

Ҳақиқатан ҳам биз тараққий этган демократик давлатлар қатори халқаро ҳамжамиятда муносиб ўринни эгаллашимиз керак. Бунинг учун фақат меҳнат қилиш, хом-ашёларга эга бўлишнинг ўзи етмайди. Энди биз иқтисодий тараққийда илгарилаб кетган мамлакатлардаги одамлар билан суҳбатлашганда ўз фикрларимизни ҳимоя қила олишимиз ва керак бўлса ўзимизнинг жозибадор фикрларимиз билан уларни ром этишимиз керак. Бу хусусиятларнинг барчаси муомала маданиятининг таркибий қисмлари ҳисобланади.

Ҳалигача кўпчилигимиз буйруқ беришга ва бажаришга ўрганиб қолганмиз. Йиғилишларда нутқдаги зўравонлик муомала нормасига айланиб қолган. Натижада бемаъни топшириқлар бериш, ёлғон гапириш, иш ўрнига бемаъни ҳужжатлар тузиш, сифатсиз махсулотлар ишлаб чиқариш оддий ҳолга айланиб қолган.

Иш жойидаги ва кўчадаги муомала уйга кўчади. Натижада оила аъзолари ўртасида “табiiй” хушмуомалалик йўқолади. Уйдаги муомала ўз навбатида таъсирини иш жойига ўтказида. Оқибатда жамиятдаги барча дағалликлар ва унинг салбий иллатлари ана шундай тарзда айланиб юраверади. Эндиликда бундай кўпол муомала иш бермайди. Одоб - ишлаб чиқаришнинг, бутун иқтисодиётнинг асосий омилларидан бирига айланиши керак.

¹ “Халқ сўзи” 2021 йил 20 январь

Ривожланган мамлакатларда бахслашиш, сўзлашиш маданиятига алоҳида эътибор берилиб, алоҳида назариялар яратилган. Иқтисоднинг ривожланишига ёрдам берадиган амалиёт вужудга келтирилган. Масалан, АҚШ, Англия, Германия, Франция ва бошқа кўплаб мамлакатларда тинглашни, суҳбатлашни ишончнинг бир қисми, деб қарайдилар.

Шунинг учун ҳам биздаги бўлажак мутахассислар ўз соҳаларини мукамал билиш билан бирга, эгаллаган лавозимлари ўзлари билан тенг ёки паст бўлган одамларнинг фикрига, ҳатто у баъзан ҳато бўлса ҳам ҳурмат билан қарашга ўрганиши лозим. Базан олий ўқув юртларида айрим ўқитувчилар талабалар чалкаш фикр айтиб қолса, ҳеч нарса билмайсиз, деб уни тўхтатиб қўяди. Раҳбарлар ҳам қўл остидаги ходимларнинг фикрларини тўла тинглашга тоқат қила олмайди. Натижада икки томон ўртасида норозилик пайдо бўлади. Бу норозилик эса ўз тасирини ишлаб чиқаришга ўтказди.

Улар бир-бирини тушунмаслиги натижасида ишлар нотўғри, базан чалкаш бажарилади. Оқибатда бутун иқтисодга салбий таъсир ўтказилади. Биз кўпинча иқтисодиётимизда учрайдиган баъзи нуқсонларни фақат тузумдан, сиёсатдан ахтарамиз. Лекин муомала маданияти бу масалаларда катта ўрин эгаллашини кўпчилигимиз ўйлаб ўтирмаймиз. Кўпчилик раҳбарлар сўз бойлигига эга бўлмаганлиги сабабли, ҳеч қаерда нотиклик санъатидан сабоқ олмаганлиги учун билган нарсаларини ҳам амаллаб, лўнда қилиб айтишни билмайдилар. Натижада, биз суҳбатдошга ишончни шакиллантира билмаймиз. Бу – иқтисодда катта йўқотиш ҳисобланади.

АҚШда иқтисодиёт учун мутахассислар тайёрлайдиган барча олий ўқув юртларида нотиклик санъати асосий фан сифатида ўқитилади. Шунинг учун ҳам у ерда нотиклик санъатини билмайдиган раҳбарлар йўқ ҳисоби экан.

Маълумки АҚШ иқтисодиёт тармоқлари соҳасидаги кўплаб ишбилармон раҳбарлар Ўзбекистонга катта қизиқиш билан қарамоқдалар. Улар Дейли Карнегининг дўст орттириш, ўзига ишонттира билиш, хавотир олмасдан яшаш тўғрисидаги илмий-амалий тавсияларини эгаллаганлар. Биз билан муомалада ана шу позицияда туриб мулоқатда бўладилар. Шунинг учун бизнинг раҳбарлар ҳам ўзларига Карнеги тизимларини сингдирмоғи лозим.

Хорижий мамлакатларда деҳқонларимизнинг маҳсулотларига харидор ҳамма вақт топилади. Харидорни маҳсулотдан ташқари, жозибали муомала маданияти ҳам чорлайди.

Бугун давр ўзгарди, одамлар ўзгарди, Учинчи реннесанс пойдеворини куришга киришдик, демак шундай экан, ўзимизда боодоблик туйғусини ривожлантирмоғимиз лозим, акс ҳолда орттирган ҳурматимизни бой бериб қўйишимиз ҳам мумкин. Дунё халқлари тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, боодоблик ёрдамида бакириб-чакириш, зўравонлик билан амалга ошмаган режаларини удалаш мумкин.

Ҳар доим биз ютуқларга эришишда кўпроқ истеъдодни юқори қўямиз. Лекин ҳамма ҳам истеъдодли бўла олмаслиги мумкин. Аммо кишилар билан хушмуомала бўлишга кўпчиликни ўргатиш қийин эмас. Янги Ўзбекистон шароитида шу мақсадга интилиш борлиги бизни қувонтиради, албатта.

Республикамизда иқтисодиётимиз учун кадрлар тайёрлайдиган ўқув юртларида касб этикаси-муомала одобини ўргатишга алоҳида эътибор берилмайди. Бизнинг назаримизда давр талабидан келиб чиқиб бу масалага эътиборни кучайтириш лозим. Яъни, олий ўқув юртларида хушмуомалалик мутахассисликнинг таркибий қисми сифатида ўқитилиши керак.

Қисқача хулоса шундан иборатки, муомала маданияти миллатимизнинг фазилатларидан бирига айланиши керак. Шунда иқтисодий ҳаётимиз бировларнинг ҳимматига боғлиқ бўлиб қолмай гуркираб яшнайд.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” 2020 йил 30 декабрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 –сонли Фармони. // “Халқ сўзи”, 8 февраль 2017 йил.
3. Р.Норқулов “Иқтисоднинг маънавий илдиэлари” “Иқтисод ва ҳисобот” журнали 1993 йил № 11-12 сони

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ ОШИРИШ

Жаҳон амалиётида хизматлар соҳасини инновацион ривожлантириш барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда долзарб илмий-амалий аҳамият касб этади. Жаҳон банки маълумотларига кўра, “Covid-19” пандемиясига қадар бўлган даврда, яъни 2019 йилда тараққий этган мамлакатлар яппи ички маҳсулоти ҳажмида хизматлар кўрсатиш соҳасининг улуши ўрта ҳисобда 74 фоизни, хизмат кўрсатишда банд бўлганлар жами иқтисодийётда банд бўлганларнинг 70-75 фоизини ташкил этган. “Covid-19” пандемияси шароитида 2020-йилда 1,2 триллион АҚШ долларига баҳоланган таълим хизматларининг глобал бозори 2027-йилга келиб 1,9 триллион АҚШ долларини ташкил этади ва 2020-2027 йилги таҳлил давридаги CAGR — умумий йиллик ўсиш суръати 6,6 фоизга ошади. Ҳисоботда таҳлил қилинган сегментлардан бири бўлган бошланғич ва ўрта мактаблар 7,7% умумий йиллик ўсиш суръати ўсиб, таҳлил даври охирига келиб 952,2 миллиард АҚШ долларига етиши кутилмоқда. Пандемия ва ундан келиб чиққан иқтисодий инқирознинг бизнес оқибатларини таҳлил қилгандан сўнг, коллежлар, олий таълим муассасалари ва касб-хунар мактаблари сегментидаги ўсиш кейинги 7 йиллик давр учун қайта кўриб чиқилиб, умумий йиллик ўсиш суръати 5,7% га ўзгартирилди. Аини пайтда ушбу сегмент жаҳон таълим хизматлари бозорининг 47,6% ни ташкил қилади .

Ҳозирда жаҳон миқёсида олий таълим тизимида кадрлар тайёрлаш сифатини оширишнинг минтақавий жиҳатларини эътиборга олган ҳолда янада такомиллаштириш борасида кенг қўламдаги илмий тадқиқот ишлари амалга оширилмоқда. Бу борада турли шарт-шароитлар билан тафовутланувчи минтақаларда олий маълумотли кадрлар тайёрлашнинг инновацион моделларини яратиш, иқтисодийётнинг юқори малакали мутахассисларга нисбатан тез ўзгариб боровчи эҳтиёжини кадрлар тайёрлашнинг мавжуд имкониятлари ҳамда салоҳияти билан мувофиқлаштириш муаммолари тадқиқига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Таъкидлаш керакки, минтақаларда кадрлар тайёрлашнинг сифати ва салоҳиятини инновацион-инвестицион механизмларини моделлаштириш ҳамда прогнозлаш жараёнларини янада такомиллаштириш бу борадаги муҳим илмий тенденциялардан ҳисобланади.

Ўзбекистонда кейинги йилларда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар жамиятда туб сифат ўзгаришларини ҳамда яқин истиқболда барқарор ривожланишни таъминлаш имконини берадиган глобал рақобатбардошликка эга олий таълим тизимини шакллантиришни талаб этмоқда. Хусусан, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққийёт стратегиясининг тўртинчи устувор йўналишида ҳам глобал рақобатбардошликка эга олий таълим тизимини шакллантириш бўйича «...олий таълим билан қамров даражасини 50 фоизга етказиш ва таълим сифатини ошириш, салоҳиятли олий таълим муассасаларини QS ва THE халқаро рейтингларига киришга мақсадли тайёрлаш» мақсад ва вазифалари белгиланган. Ушбу мақсад ва вазифаларни амалга ошириш учун олий таълим муассасалари фаолиятида “глобал рақобатбардош университет” (WCU) мақомини шакллантирувчи “муҳим рақобатбардошлик индикаторлари” (КСІ) ҳамда таълим хизматлари сифати кўрсаткичлари асосида олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини баҳолаш механизми бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Таълим хизматларининг рақобатбардошлиги муаммоси хорижий ва маҳаллий иқтисодчиларнинг кўплаб ишларида кенг ўрганилган. Таълимнинг иқтисодийётдаги ўрни, таълим муассасалари рақобатбардошлигининг асосий омиллари Ғарб иқтисодчиларидан М.Э.Портер, Ж.В.Ривкин, Т.Страйк, Ж.Тайлор, А.Парасураман, В.А.Зейтамл, Л.Л.Берри, К.К.Ган, С.В.Кек ва бошқа хорижий олимлар томонидан ўзларининг фундаментал асарларида кенг ўрганилган.

Яқин хориж мамлакатларида таълим хизматлари соҳасини ривожлантиришнинг ташкилий-услубий жиҳатлари, олий таълим муассасаларида хизматлар сифатини оширишда илғор хориж амалиётдан фойдаланиш истиқболлари, олий таълим хизматлари сифатига таъсир этувчи омиллар ва уларни баҳолаш услубиёти, ушбу соҳанинг олий таълим муассасаларининг рақобатбардошлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари И.А. Иличенко, О.В. Сагинова, В.В.

Глушенко, Л.Г. Миляева, И.А. Ефимова, Л.А. Камалова, Е.Райкова каби иқтисодчи олимлар томонидан тадқиқ этилган.

Ўзбекистонда мустақиллик йилларида олий таълим тизимининг ҳолати, ривожланиш тенденциялари, уларни бошқариш ва молиялаштиришнинг айрим жиҳатлари, таълим хизматлари бозори хусусиятлари ва самарадорлигини ошириш масалалари Г.Ахунова, Х.Алимджанов, А.Вахабов, С.Гулямов, Э.Имамов, М.Саидов, Б.Кальметов, А.Кучаров, Э.Сейтхалилов, Ш.Қурбонов, Г.Қосимов, Д.Набиев, Р.Усмонова, Ш.Захидова, А.Эралиев, А.Эшбаевларнинг илмий ишларида тадқиқ этилган.

Бироқ, иқтисодчи-олимлар томонидан амалга оширилган тадқиқотларда олий таълим муассасалари рақобатбардошлигини таъминлашда таълим хизматлари сифатини оширишга таъсир қилувчи омилларни аниқлаш ва баҳолаш механизмлари масалаларига алоҳида, мустақил мавзу сифатида тадқиқ этилмаган. Шунингдек, бугунги кунда олий таълим хизматлари бозорида хусусий секторнинг ривожланиши натижасида олий таълим муассасалари ўртасидаги рақобатда таълим хизматлари сифатини оширишга таъсир қилувчи омилларларнинг устуворлик даражаларини аниқлаш ва баҳолаш бўйича усулларни ишлаб чиқиш зарурати туғилмоқда.

Олий таълим муассасаларнинг рақобатбардошлигини таъминлаш ғояларини ишлаб чиқишда ва тадқиқотнинг илмий янлигини асослашда рақобатбардошлик дастаги тушунчасини жорий этиш асосланган бўлиб, диссертацияда “рақобатбардошлик дастаги” атамасига “бозор муносабатлари субъекти учун барқарор рақобатдош устунликларни яратишга ва рақобатбардош салоҳиятини мустаҳкамлашга ёрдам берувчи ўзига хос комбинацияларни шакллантириб, ташқи рақобат муҳитидан ресурсларни жалб қилиш механизми” – деб, таъриф берилди.

Рақобатбардошлик дастагини қўллашнинг стратегик мақсади олий таълим муассасалар ўртасидаги рақобатбардош ҳамкорликни кучайтириш шароитида унинг тузилмасини ўзгартириш орқали ўз рақобатбардош салоҳиятини ошириш учун шарт-шароитларни таъминлашдан иборат.

Ташқи рақобат муҳитидан муайян ташкилий, иқтисодий ва бошқарув фаолияти орқали жалб қилинган ресурслар узоқ муддатли барқарор рақобатдош устунликларни шакллантириш ва ривожлантириш учун шарт-шароитларни таъминлайдиган олий таълим муассасаси фаолиятининг стратегик муҳим йўналишларини ривожлантиришга йўналтирилади. Диссертация ишида олий таълим муассасасининг рақобатбардош стратегияси турини танлашда муаллифнинг рақобатбардош дастаги услубини қўллашдан фойдаланилган.


“Олий таълим муассасаси рақобатбардошлиги” иқтисодий тушунча сифатида хизмат кўрсатиш бозорида рақобат стратегияларини амалга ошириш асосида университет тузилмасини барқарор илмий, технологик ва таълимни ривожлантириш эҳтиёжларини қондириш хусусиятига эга эканлиги аниқлаб, унинг шаклланиши рақобатбардошлик концептуал ёндашувлари эволюциясининг учта босқичларида асослаб берилди (1-расм).

Рақобатбардошлик назарияси олий таълим муассасалари рақобатбардошлик ёндашуви моҳиятини асослашда **“рақобатбардошлик дастаги (competitive lever)”** тушунчасини илмий муомалага киритиш нуқтаи назаридан янада ривожлантирилди.

Ҳозирги вақтда таълим хизматлари сифатини баҳолашнинг кўплаб усуллари мавжуд. Улардан биринчиси, 1985 йилда А. Парасураман, В. Зейтамл ва Л. Берри хизматлар сифатидаги камчиликларни баҳолаш моделини ишлаб чиқдилар. Ушбу моделнинг ўзига хослиги шундаки, унда таълим хизматлари сифатига қўйиладиган талаблар мавжуд. Шу билан бирга, модел истеъмолчининг хизматлар сифатидан норозилигига асос бўлган кейинги камчиликларни баҳолашга имкон беради.

Таълим хизматлари сифатини баҳолашнинг иккинчи усули – SERVQUAL модели бўлиб, у ҳам А.Парасураман, В.Зейтамл ва Л.Берри томонидан тақлиф қилинган. Модел 5 та гуруҳга бирлаштирилиши мумкин бўлган 22 жуфт саволларни ўз ичига олган сўровномани ўз ичига олади


Стокгоlm Иқтисодиёт мактаби ходимлари томонидан ишлаб чиқилган истеъмолчиларнинг қониқиш индексини ҳисоблаш методологияси амалиётда кенг қўлланила бошланди. Ушбу техниканинг ўзига хос хусусияти омилларни аниқлаш ва мижозларнинг қониқиши ва содиқлиги сабабларини баҳолаш учун интервью усулидан фойдаланишдир.



1-расм. Олий таълим муассасалари рақобатбардошлиги концептуал ёндашувларнинг шаклланиш босқичлари¹

Мазкур ёндашувларини қиёсий таҳлили кўрсатдики, уларда олий таълим муассасаси рақобатбардошлигини таъминлаш инobatга олинмайди ва таълим хизматларининг сифат босқичлари (назорат, таъминот, умумий сифат менежменти) ва жараёни (фаолиятга, жараёнга, тизимга йўналтирилганлиги)ни баҳолаш имконини бермайди.

Тадқиқот иши жараёнида олий таълим муассасаларида сифат бошқарув моделлари асосида таълим хизматлари сифатини ошириш механизми GAPs модели асосида илмий хулосалар асослаб берилган (2-расм).



2-расм. Олий таълим муассасаларида таълим хизматлари сифатини оширишнинг GAPs модели таснифи²

2-расмдан кўриниб турибтики олий таълим муассасаларида таълим хизматлари сифатини оширишнинг GAPs моделининг ўзига хослиги шундан иборатки, унда ОТМда сифат бошқариш фаолиятини TQMнинг асосий тамойил ва унсурларига таянади. Хорижий амалиётда кенг қўлланиб келинаётган EFQMнинг тўққизта йирик мезони олий таълим тизимига мошлатирилган TRIS-

¹ Манба: Илмий-тадқиқот натижаларига асосан муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

² Манба: Илмий-тадқиқот натижаларига асосан муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

EFQM модели асосида Ўзбекистон шароитига мослаштирилди. Унинг “Имкониятлар” ва “Натижалар” гуруҳидаги йирик мезонлар ўқув-методик ва инновацион, илмий-тадқиқод, инсон ресурслари, -молиявий иқтисодий, ижтимоий, бошқарув потенциали, маркетинг воситалари каби мезонлари киритилиб таълим хизматлари сифатини баҳолашга мослаштирилди.

Сифат таъминоти тизимининг биз таклиф қилаётган модели Европа ва МДХ ОТМларида қўлланилган сифат бошқаруви моделларга асосланади ва ўз эҳтиёжларимизга мослаштирилди. EFQM моделига асосланган Олий таълим муассасаларида таълим хизматлари сифатини оширишнинг GAPS модели Янги Ўзбекистон шароитига татбиқ қилиш ОТМларда таълим сифатини таъминлашда юқори самара беради ҳамда таълим хизматлари сифатини баҳолаш учун самарали механизм ҳисобланади.

**Raimova Muborak Djurayevna,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchusi,
el.manzil: raimova-64@mail.ru**

**Bo'ronov Tohir,
QarshiDU, Marketing ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi**

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISH TRANSFORMATSIYASIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari (MHXS) - bu tashqi foydalanuvchilarga iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun muhim bo'lgan, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash qoidalarini belgilaydigan standart va sharhlar majmuasidir .

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning tatbiq etilishi hisobning yagona usullarini qo'llash orqali kompaniyalarni ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, manfaatdor tomonlarga korxonaning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot berish va kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Kompaniyalarning xalqaro bozorlarga chiqishi, shuningdek, salohiyatli investorlarni jalb qilishda MHXSga muvofiq moliyaviy hisobot tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi va u hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

MHXSni qabul qilish va unga muvofiq hisobot taqdim etish global bozorda yagona moliyaviy axborot almashish muhitini yaratadi. Bu jarayon o'z navbatida, axborot shaffofligi, hisobdorlik va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, MHXS qo'llanishi bozor likvidligi yaxshilanishi, kapital bozorlarining rivojlanishi, qimmatli qog'ozlar bozorlarida savdolar ko'lamining kengayishi, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishiga olib keladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ushbu ijobiy natijalarga erishish uchun MHXSni milliy bozorda samarali tatbiq etish chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

MHXSni tatbiq etish bo'yicha Yevropa davlatlarining tajribasini o'rganish va ushbu jarayondagi muammolar va istiqbollarni adolatli baholash O'zbekistondagi kompaniyalarning MHXSga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish jarayoniga o'tish davrida katta imkoniyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4611-sonli Qaroriga ko'ra aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab, buxgalteriya hisobi yuritilishini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab, moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashga o'tdi.[1]

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashda tashkilotlar buxgalterlariga MHXS standartlarining mazmuni va tub mohiyatini tushunish hisobotlarni to'g'ri shakllantirish uchun xizmat qiladigan asosiy omillardan biridir.

Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bogliq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan, International Accounting Standards Board (IASB), American Institute of Certificate Public Accounting (AICPA), Institute of Charter Accounting in England and Welles (ICAEW), Pricewaterhouse Coopers, Deloitte & Touche, KPMG, Nottingham Trent University (Buyuk Britaniya), Xalqaro Vestminster universiteti (Buyuk Britaniya),

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti (O'zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

MHXSlarni birinchi marta qo'llashda yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni transformatsiya qilishdan oldin muhit, shart-sharoit va ma'lum tayyorganlik ishlari olib borilishi shart. Masalan,

✓ mamlakatda moliya, pul-kredit, soliq, mehnat qonunchiligi dunyo standartlariga uyg'un bo'lishi,

✓ iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar, budget tizimi, bank tizimlari va jamoat fondlarida (foyda olishni maqsad qilib qo'yishi va qo'ymasligidan qat'i nazar) buxgalteriya hisobi bo'yicha alohida standartlarni bo'lishini ko'zda tutmasdan, balki yagona standartlar tizimini yaratish, qaysiki undagi qoidalar barcha turdagi kompaniya va tashkilotlarga bir xil mazmunda qo'llanilishiga erishish,

✓ mamlakatda professional buxgalterlar instituti tashkil etish, uning vakolati doirasida sertifikatli buxgalter va auditorlarning professional malakasini oshirish, SAR va CIPA sertifikatlarining keng joriy qilinishini kengaytirish,

✓ buxgalterlarni chet ellarda malaka oshirishini, chet tillarini o'rganishi (IELTS), amaliyotchi buxgalterlarda buxgalteriya hisobi bo'yicha xalqaro dasturlarda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish,

✓ kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standart talablariga muvofiqlashtirish,

✓ buxgalterlarni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish, ularning etika qoidalariga rioya qilishini ta'minlash,

✓ kompaniyalarda hisob siyosatini mukammallashtirish, uni moliyaviy hisobot tamoyillariga to'liq rioya qilgan holda tuzilishi hamda chinakkam hisob loyihasi bo'lishi, shuningdek kompaniyada xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishchi schetlar rejasini ishlab chiqishga erishish.

Har qanday islohotning to'g'ri, o'z vaqtida yuritilishi kadrlar masalasiga, ularning sifatiga bog'liq. Mutaxassislarni xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash orqali, MHXSga o'tishni jadallashtirishga va moliyaviy hisobotlarning shaffofligi ta'minlanishiga erishiladi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha jahonning muvaffaqiyatli tajribalarini ommalashtirish hamda sohaga oid oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish yuzasidan buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirishga ham ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli Qarori / <https://lex.uz>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilda 26-yanvarda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi 38-sonli qarori <https://www.lex.uz>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga yushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 507-sonli qarori / <https://www.lex.uz>

Muxtarov Shavkat Kadirovich
BuxDU, Iqtisodiyot kafedrası tayanch doktoranti
E-mail: muxtarov.sh67@gmail.com

HUDUDLARDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH JARAYONLARINI BAHOLASH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni talablariga muvofiq tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadi ko'zda tutilgan. Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasani xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish,

bunda mazkur oliy ta'lim muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilangan.

Bugun yangi O'zbekiston jahon hamjamiyati safida o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilib, yoshlarning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, ularning qobiliyat va iste'dodini yuzaga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda gapirganda yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy ta'lim muassasalari soni 177 taga yetganini alohida ta'kidlash joiz.

Shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va tizimida oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarga 2021-yil 1-fevralga qadar 2030-yilgacha xalqaro reytinglarda 2 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 500 ta o'rindagi, 8 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatiga kiritish uchun tegishincha "2+500" va "8+1000" loyihalarini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmonida oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-sentyabrga qadar har bir hududda nodavlat, jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida kamida bittadan oliy ta'lim tashkilotini tashkil qilish vazifasi yuklatilgan. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini iqtisodiy tizim sifatida boshqarish ushbu tizimning murakkabligidan kelib chiqadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishning iqtisodiy bo'lmagan usullaridan foydalanishi yangi institutsional sharoitlarga moslashish yo'llarini topishga to'sqinlik qiladi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasasini boshqarishning turli bo'g'inlarida samaradorlikni baholashning sodda, qulay va egiluvchan uslublari yetarli emas. Bunday sharoitda iqtisodiy diagnostika mexanizmi oliy ta'lim muassasalarini yangi bozor sharoitlarga moslashtirish muammolarini hal etadi. Chunki, iqtisodiy diagnostika tamoyillariga asoslangan boshqaruv noto'g'ri qarorlarni oldini olish rejimida faoliyat ko'rsatadi. Iqtisodiy diagnostika turli darajadagi muammolarni aniqlaydi, majmualni tahlilni amalga oshiradi va oqilona qarorga kelishni ta'minlaydi hamda o'zining imkoniyatlari kengligi va istiqbolligi bilan ajralib turadi. Oliy ta'lim muassasasi boshqaruv jarayoni samaradorligini majmualni baholash bozor subyektlarida qiziqish uyg'otadi va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlarda tashkilot moliyaviy holatini tahlil qilishda likvidlik ko'rsatkichlari, majburiyatlarning ta'minlanganligi koeffitsiyentlari, to'lovga qobillik koeffitsiyentlari, rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblab chiqishni va tarmoqdagi o'rta ko'rsatkichlar bilan taqqoslash kabi iqtisodiy diagnostikani amalga oshirishning ilmiy-amaliy jihatlari tadqiq etilgan[1]. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari rahbar xodimlari uchun talabalar bilan ishlash, o'qitish va baholash tizimini takomillashtirish, sifat jarayonlari, natija va xulosalarini tahlil qilish kabi amaliy maslahatlarga boy bo'lgan tadqiqotlar olib borilgan[2]. Oliy ta'limda sifatni boshqarish va uni kafolatlash bir-biri bilan bog'liq jarayon ekanligi ta'kidlangan[3].

MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonalar salohiyatining iqtisodiy diagnostikasi majmualni tadqiqot vositasi sifatida boshqaruv qarorlarini tayyorlash va ularning bajarish ustidan nazoratni tashkil etish uchun axborot beradi[4]. Iqtisodiy diagnostika taqqoslashga asoslangan bo'lib, tahlildagi kabi birlamchi axborotlardan foydalanadi va iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan[5]. Korxonaning iqtisodiy salohiyatini diagnostika qilish shakli majmualni o'rganishni, ya'ni iqtisodiy salohiyatning barcha tarkibiy qismlarini bir vaqtda o'rganishni ifodalaydi [6].

O'zbekistonda mehnat va oliy ta'lim xizmatlar bozorlarini modellashtirish xorij tajribasi[7], oliy o'quv yurtlari inson kapitalini boshqarishda baholash masalalari [8], ta'lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini baholashdagi yondashuvlar va usullar[9], oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish yo'llari [10] va boshqa oliy ta'limni boshqarish masalalariga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy ishlarning aksariyat qismi oliy ta'lim marketingi va menejmentini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi va mehnat bozori bilan uzviy bog'liqligi tadqiq etilgan.

Iqtisodiy diagnostika har bir oliy o'quv yurtdagi tashkiliy va iqtisodiy boshqaruv jarayonlari olib borilishining muhim elementidir va axborot-tahliliy ta'minotning tarkibiga kiradi. Boshqaruvning mazmuni axborotni qayta ishlash, tizim elementlarining maqbul xilma-xilligini davom ettirish, cheklovlariga rioya etish, elementlarning o'zaro bog'liqligini tartibga solish va o'zgartirishdan iborat.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan tadqiq etilayotgan obyektga nisbatan diagnoz qo'yish uning strategik boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish, erkin raqobat va bozor munosabatlari sharoitida

yashovchanligini mustahkamlash maqsadlarida amalga oshiriladi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan tadqiq etilayotgan obyektga nisbatan diagnoz qo'yish uning strategik boshkaruv faoliyati samaradorligini oshirish, erkin raqobat va bozor munosabatlari sharoitida yashovchanligini mustahkamlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

OTM faoliyatining iqtisodiy diagnostikasi axborotni qayta ishlashga asoslanadi. Bunda axborotni qayta ishlashga qo'llanilayotgan usullar obyektidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali ifodalanayotgan jarayonlarning turli sifat xususiyatlarini inkor etmasligi lozim, va aksincha, shu jihatlarga bog'liq holda muammolarni aniqlab berishi zarur. Ta'kidlash lozimki, OTMda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarning sifat jihatlari ta'lim jarayonlari maqsadiga qanchalik darajada erishilayotganligining tavsifi bo'lib ham xizmat qiladi. Umumlashtirilgan holda ta'riflasak, iqtisodiy diagnostikaning maqsadi xo'jalik qarorlarini (boshqaruv, moliyaviy, tashkiliy) axborot bilan ta'minlash va asoslab berishdan iborat bo'lib, natijada u ta'limning zarur sifatiga erishishga qaratilgan bo'ladi.

- Iqtisodiy diagnostikaning maqsadlaridan biri OTMning strategik boshkaruv rivojlanish tendensiyalari haqida xulosa berishdir. Bunda diagnostika olib borishda quyidagi asosiy tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- kuzatilayotgan obyekt bilan monitoring tizimining o'zaro monandligi. Iqtisodiy diagnostikada qo'llanayotgan ko'rsatkichlar tizimi o'rganilayotgan obyektning asosiy xususiyatlarini haqqoniy aks ettirishi lozim;

- iqtisodiy diagnostikani olib borishning quyi bosqichlarda bajarilayotgan tamoyillar keyingi bosqichlarda ham umumiyashtirish mumkin bo'lishi, biron bir bo'limda bajarilayotgan tamoyillar natijalari boshqa bo'limlar bilan taqqoslanuvchan bo'lishi lozim;

- iqtisodiy diagnostikani olib borishga tizimli yondashishi zarur, uni majmualari ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

- Diagnostika uchun qo'llayotgan ko'rsatkichlar tizimi muayyan talablarga javob berishi lozim.

Jumladan:

- iqtisodiy diagnostikada qo'llanilayotgan ko'rsatkichlar OTMning attestatsiyasi va akkreditatsiyasida qo'llanilayotgan ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi, ko'rsatkichlar o'zaro aloqadorligi va bir-biridan kelib chiqishi lozim;

- tahlilda foydalanilayotgan ko'rsatkichlar davlat statistikasi ko'rsatkichlari tizimiga ham mos bo'lishi, yetarli ko'lamlarga ega bo'lishi va bir xil talqin etilishi zarur;

- ko'rsatkichlarni va ular asosidagi tahlil natijalarini obyektiv realikka zid emasli nuqtayi nazaridan tekshirib ko'rish imkoniyati bo'lishi lozim;

- qo'llanilayotgan ko'rsatkichlar ma'lumotlarni olish vaqti nuqtayi nazaridan va boshqa zarur belgilar bo'yicha sinxronlashtirilishi, obyekt joriy holati mohiyatini aks ettirishi lozim.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va tizimida oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarga 2021 yil 1 fevralga qadar 2030 yilgacha xalqaro reytinglarda 2 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 500 ta o'rindagi, 8 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatiga kiritish uchun tegishincha "2+500" va "8+1000" loyihalarini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmonida oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda 2021 yil 1 sentyabrga qadar har bir hududda nodavlat, jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida kamida bittadan oliy ta'lim tashkilotini tashkil qilish vazifasi yuklatilgan.

Oliy ta'lim muassasalarining mavzuga oid muammolari va ularni tizimli bartaraf etish, muassasalarda oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oqilona tashkil etish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, muassasalar reytingi, imiji, mavqei, jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish, professor-o'qituvchilarni ilmiy-pedagogik salohiyatini va bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalalari Prezidentimizning hujjatlari [1-10]da, Vazirlar Mahkamasining qarorlari [11-12]larida o'z aksini topgan. Bu normativ hujjatlarda belgilangan vazifalar tegishlilikiga dissertatsiya tarkibiga kiritilgan va tadqiq etilgan. YE.V. Yekimovalarning ma'lumotlariga ko'ra 2003 yildan boshlab universitetlarning umumjahon reyting tizimini ishlab chiqishga kirishilgan. ARWU – Academic Ranking of World Universities reyting tizimida 2003 yildan Shanxay universiteti tomonidan 300 ta universitet tahlil qilingan, "The Times Higher Education" jurnalida 2004 yilda Britaniyaning "TSL Education LTD" tashkiloti, shu yili 16000-20000 ta universitetning tahlilini o'tkazuvchi Webometrics – Ranking Web of World Universities reyting tizimi Ispaniyada, 500 ta eng kuchli universitet tahlil qilinayotgan Performanse Ranking of Scientific Papers for

World Universities tizimi 2007 yildan Tayvan Respublikasida, 3000-6000 ta universitet tahlil qilinadigan The World University Ranking tizimi 2010 yildan Britaniyada faoliyat ko'rsatib kelmoqda [13].

Olimlarning ta'kidlashicha, "...universitetlarning birinchi xalqaro reyting tizimi 1997 yilda "Asia Week" jurnali tomonidan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi eng yirik universitetlar reytingini ishlab chiqish bilan boshlangan" [14]. Shuningdek, "Dunyoda yetarlicha katta OTMlari reytinglari mavjud. 1980 yildan boshlab AQShda OTMlarining milliy reytinglari chop etila boshlandi.

Bu borada D.A. Shtyxnoning "World University Rankings" reytingida dunyoning yaxshi universitetlarini baholash olti mezon asosida amalga oshiriladi:

1. Akademik reputatsiya (40%). Bu ko'rsatkich ilmiy faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchilar, shuningdek, universitetlar rahbarlarining o'z sohalari bo'yicha dunyoning qaysi o'quv yurtlarida yuqori darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi haqida so'rovlarga asoslangan.

2. Ish beruvchilar o'rtasidagi reputatsiya (10%)

3. O'qituvchilar tarkibining talabalar soniga nisbati (20%)

4. Iqtiboslanish indeksi (20%)

5. Xorijiy talabalar hissasi (5%)

6. Xorijiy o'qituvchilar hissasi (5%) [15].

An'anaviy ravishda olingan takliflar tizimlashtirilganda, asosan, dunyoda eng kuchli 1000 ta OTM safiga, O'zMU va SamDUni eng kuchli 500 ta OTM tarkibiga kiritishda OTMda faoliyat ko'rsatuvchi professor-o'qituvchilarning oylik maoshlarini oshirish, qabul komissiyasi ishini yuqori shaffoflik darajasida tashkil etish, bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha davlat granti asosida qabul ko'rsatkichlarini ko'paytirish, OTMga da'vogarlariga ilmiy daraja va ilmiy unvonlarni berish vakolatini taqdim etish, OTMga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, OTMning xorijiy OTMlari bilan transformatsiyalashuvini yo'lga qo'yish, oylik maoshlari va ish o'rni saqlangan holda ilmiy darajali (ilmiy unvonli) professor-o'qituvchilarni rivojlangan mamlakatlarning birinchi top-300 talik ro'yxatidagi OTMlariga xizmat safarlariga, xorijiy professor o'qituvchilar ishtirokida o'tkazilgan tanlovlar natijasi asosida O'zbekistonlik talaba (magistrant)larni o'qishga yuborish taklifi ilgari surilganligi e'tirof etildi.

O'zbekistonning oliy malakali kadrlari vakillari – respondentlar o'zlari ishlab turgan OTMning nufuzi yuqori bo'lishidan manfaatdor, shuningdek, hozirgi kunda eng kuchli OTMlardan hisoblanuvchi O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetining dunyodagi eng kuchli 500 ta OTM tarkibiga kiritilishiga ham befarq emas. Vaholanki, bunday nufuzga, etirofga va reyting ko'rsatkichiga ega bo'lgan OTMda faoliyat ko'rsatuvchi professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar O'zbekistonning boshqa soha va yo'nalishlarda taraqqiyot indeksi ko'rsatkichlarini oshirilishiga mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga, aholi farovonligini oshirilishiga va yoshlarimizning kelajagi ta'minlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Zero, amaldagi Nizom talablariga muvofiq, OTMlari reytingini aniqlash indikatorlari belgilangan va ular asosida OTMlari reytinglari hisoblanib, har yilda bir marta e'lon qilinayotgan bo'lsa-da bu reyting tizimiga ba'zi o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, OTMlari raqobatbardoshlik darajasini aniqlovchi omillar guruhini taklif etish tadqiqot ishining vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ван Хорн К.Н. Основы управления финансами. – М.: Финансы и статистика, 1996. – С. 92.

2. Brown S., Pill R., Brenda S. 500 Tips for Quality Enhancement in Universities and Colleges. London: Kogan Page, 1997. – p. 164.

3. Radford J., Raaheim K., Williams R., de Vries P. Quantity and Quality in Higher Education. London and Bristol, Pennsylvania: Jessica Kingsley Publishers, 1997.– p. 196.

4. Войтоловский Н.В., Калинина А.П., Мазурова И.И. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. – М.: Юрайт, 2013. – С. 48.

5. Стринковская А.С. Экономическая диагностика. – Омск: СибАДИ, 2017. – С. 5.

6. Парушиной Н.В. Экономический анализ. – М.: КноРус, 2013. – С. 9.

7. Режапов Х.Х. Меҳнат ва олий таълим хизматлар бозорларини моделлаштириш хориж тажрибаси// Ж. "Иқтисодий ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2017.

http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/10_X_Rejapov.pdf

8. Салимов А.А. Олий ўқув юртлари инсон капиталини бошқаришда баҳолаш масалалари// Ж. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020.

http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11_Salimov.pdf

9. Қаҳҳоров О.С. Таълим муассасалари бошқарувининг самарадорлигини баҳолашдаги ёндашувлар ва усуллар// Ж. "Иқтисодий ва инновацион технологиялар" илмий электрон

журнали. №1, январ-феврал, 2017.

http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/16_O_Qahhorov.pdf

10. Тешабоев Т.З. Олий таълим тизимида инновацион фаолиятни ахборот технологиялари асосида такомиллаштириш йўллари// Ж. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018.

http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/28_Teshabayev.pdf

11. G'iyosov I.K. The theoretical features of the organization of the strategic management accounting in business// J. ISJ Theoretical & Applied Science. – Philadelphia (USA): 09 (77), pp. 260-266 (Scopus ASCC: 2308). <http://s-o-i.org/1.1/TAS-09-77-46>

Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
bahronovashahodat@gmail.com

IQTISODIYOT SOHASIDA ZAMONAVIY KADRLAR TAYYORLASH VA SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI

Mustaqil yurtimizda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda mamlakatimiz aholisi ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy bilimini oshirish hamda insonparvarlik g'oyalari asosida yangicha fikrlaydigan har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Yuqorida zikr etilgan ishlarni amalga oshirishda iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Iqtisodiy ta'lim kishilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga tashkiliy pedagogik faoliyat va ma'lum maqsadni ko'zlab amalga oshiriladigan ish tizimidir. Iqtisodiy ta'lim jarayonida kishilar iqtisodiyotni samarali tashkil etish, ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish, amaldagi xo'jalik yuritish tartibqoidalari haqida tasavvurga ega bo'ladilar va qator iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtiradilar.

Iqtisodiy fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalaridan foydalanib kadrlarni tayyorlash tavsiya etilmoqda.

Murakkab iqtisodiy jarayonlar davrida jahon hamjamiyatida o'zimizning munosib o'rnimizni egallashimiz iqtisodiy jihatdan barqarorlikka erishishimiz uchun yuqori potentsialga ega, salohiyatli kadrlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Buning uchun O'zbekistonda bir qator iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, Yangi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”sida Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun zarur omillar atroficha keltirib o'tilgan. Ushbu islohotlarni amalga oshirishda mamlakat yosh va malakali kadrlar kuchiga tayanadi.



Zamonaviy iqtisodchi kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlaridan keng foydalangan holda shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi, yuksak malakali kichik mutaxassislarning iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarining shakllantirilishi

mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak.

Talabani mustaqil, ijodiy va muloqot kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan ta'limning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

-ta'lim jarayoni ilmiy jihatdan asoslangan qonuniyatlarga tayangan holda tashkil etiladi;

- talaba bilan taqdim etilgan axborotlar orasida aloqadorlik vujudga keladi;

- mazkur texnologiyaning yo'nalishlari, talabani fikrlash va muloqotga undaydi;

- har bir o'quv vaziyati, o'quv daqiqasida o'qituvchi muloqotga undovchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi;

- bo'lajak mutaxassislarining mustaqil, ijodiy va muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun, asosan, o'z ustida ishlash tavsiya qilinadi;

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati har doimgidan ham kuchayib bormoqda. Bu holatni esa quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- birinchidan, mutaxassis fan-texnika, ishlab chiqarish sohasi bo'yicha keng ko'lamli puxta tizimli bilimga ega bo'lishi,

- ikkinchidan, ish o'rni, sharoiti, texnika va texnologiya o'zgarishiga tez moslashuvchan bo'lishi lozim. Bundan tashqari xomashyo materiallaridan, energiya, vaqt va shu kabilardan imkon qadar unumli hamda ijodiy foydalanishi zarur. Bir so'z bilan aytganda, mutaxassis yuqori darajada iqtisodiy bilimga ega bo'lishi zarur.

Shuning uchun, oliy ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini shaklan va mazmunan isloh qilish, uning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl va usullari samaradorligini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o'rnida, iqtisodchi kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun bir qancha takliflarni amalga oshirish mumkin.

1. Amaliy tayyorgarlikni oshirish: iqtisodiy ta'limning asosiy muammosi - nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut. Shu sababli, talabalarni real vaziyatlarni boshqarish uchun jihozlanishini ta'minlash uchun amaliy mashg'ulotlar hajmini amaliy mashg'ulotlar, amaliyotlar va tashqi loyihalar orqali oshirish muhimdir.

2. Soha mutaxassislari bilan hamkorlik: Talabalarga real amaliyot darslarini taqdim etishi va sanoatda iqtisodiy tamoyillar qanday qo'llanilishini ko'rsatib berish uchun soha mutaxassislarini jalb etish.

3. O'quv dasturlarini yangilash: O'quv dasturlari sohadagi so'nggi tendensiyalar va o'zgarishlardan xabardor bo'lish uchun muntazam ravishda yangilanib turishi kerak. Bu yangi ko'nikmalarni shakllantirishga va talabalarni paydo bo'ladigan ish imkoniyatlariga tayyorlashga yordam beradigan yangi tanlovlar, kurslar va seminarlarni kiritishni o'z ichiga olishi mumkin.

4. Texnologiya integratsiyasi: Iqtisodiyot sohasida texnologiyaning yuksalishi bilan fakultet a'zolari yangi texnologiyalarni o'qitish usullariga kiritishlari kerak. Simulyatsiya vositalari, ma'lumotlar tahlili va dasturiy ta'minotga asoslangan modellardan foydalanish nazariy va amaliy tushunchalarni o'rgatishda foydali bo'lishi mumkin.

5. Uzlüksiz o'qituvchilar malakasini oshirish: Iqtisodchi kadrlar tayyorlash sifati o'qituvchilar tarkibining sifatiga bog'liq. Demak, o'qituvchilarning so'nggi tendentsiyalari va o'qitish metodologiyalaridan xabardor bo'lishlariga imkoniyat yaratish, o'qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish dasturlari amalga oshirilishi talabalarning o'qishini samarali boshqarish qobiliyatini beradi. Kurslarni o'rgatish va ustozlik qilish uchun eng yaxshi soha mutaxassislarini yollash talabalarga eng yaxshilaridan o'rganishga va iqtisodiy tushunchalarda birinchi o'rinda turishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son farmoni www.lex.uz;
2. B.Isamuxammedov "Malakali iqtisodchi kadrlar tayyorlash sifatini oshirish".
<https://tsue.uz>

Шадыева Н.Т.

*Бух. ИТИ, магистр 1 курс магистратуры
факультета Международная экономика и менеджмент
(по регионам и направлениям деятельности)
по СОП (Совместной образовательной программе в сотрудничестве)
с Белгородским государственным
национальным исследовательским университетом РФ*

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПОДГОТОВКИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КАДРОВ

Для Республики Узбекистан развитие науки является первостепенной ступенью к благосостоянию страны и устойчивого развития государства.

Не зря Конституция Республики Узбекистан особо подчёркивает государственную заботу о научном и техническом развитии общества.

В концепции развития науки до 2030 г. Утверждённой указом президента республики Узбекистан от 29.10.2020 г *УП - 6097, отдельно указаны проблем развития науки. Решения данных проблем влияет на экономических рост государства.

Президентом определены важнейшие задачи дальнейшего комплексного развития системы высшего образования, в том числе особое внимание уделено на повышение подготовки экономических кадров :

- установление каждым ВУЗом партнёрских отношений с ведущими профильными зарубежными учреждениями;

(в свою очередь помогающий сверять и преобразовать определённые пункты подготовки кадров)

- формирование целевых параметров подготовки кадров, оптимизация направлений с учётом перспектив развития регионов и отраслей экономики;

- создание и внедрение учебных пособий нового поколения, обеспечение высших образовательных заведений профильной литературой, в том числе на основе переводов новейших зарубежных материалов, регулярное обновление фондов информационно-ресурсных центров;

- неуклонное повышение уровня и качества профессионального мастерства педагогов;

- укрепление научного потенциала высших образовательных учреждений, усиление интеграции вузовской науки с академической с повышением её эффективности и результативности;

- усиление духовно-нравственного содержания высшего образования;

- дальнейшее укрепление материально-технической базы ВУЗов;

- оснащение высших образовательных учреждений средствами современных информационно-коммуникационных технологий.

Реализация программы призвана кардинально совершенствовать и повысить уровень высшего образования, укрепить и модернизировать материально-техническую базу ВУЗов, оснастить их современными лабораториями и средствами информационно-коммуникационных технологий.

Высокую значимость Постановления подчёркивает тот факт, что впервые на уровне законодательного акта Президента страны утверждены отдельно по каждому высшему образовательному учреждению адресные программы развития, предусматривающие конкретные параметры и показатели.

Принятое Постановление является важным шагом совершенствования учебно-образовательной системы Узбекистана в целом.

С переходом во внешне-экономическую политику необходим анализ по системе показателей, отражающих различные стороны и аспекты повышения качества подготовки экономических кадров.

Среди задач экономического развития одной из главных является обеспечение страны высококвалифицированными кадрами рабочих и специалистов. К подготовке нужных кадров следует приступить заранее.

Важнейшим связующим звеном в решении этой задачи становится вопрос о взаимосвязи между образовательным и квалифицированным уровнем образованных.

Для достижения указанной цели в работе решаются следующие задачи:

- вначале представлен краткий анализ причин и условий необходимости повышения качества подготовки экономических кадров;

- следом раскрываются пути развития повышения качества подготовки экономических кадров в Узбекистане так на примере Бух.ИТИ тесно сотрудничают по подготовке кадров с высшеучебными заведениями: Малазии, Индонезии, Таджикистана, России (Казань, Белгород, Белорусия) и т.д. , где проходят подготовку наши студенты.

- затем будут раскрываться определённые направления развития экономики Узбекистана и вопросы кадрового и научно-технического образования.

В каждой изложенной части приведены решения и меры, предпринятые руководством Узбекистана в рамках поддержания экономическому росту и повышению экономического благосостояния населения данной страны. Методологическую основу исследования составили целостный и исторический методы, метод сравнения, а также статистический и контент анализ.

Своевременное обеспечение отраслей и сфер экономики Узбекистана высококвалифицированными и конкурентноспособными специалистами дает возможность государству подниматься в экономических рейтингах на мировом уровне. Так наблюдая за данными можно сделать вывод и увидеть экономическую картину развитие Узбекистана на мировом рынке.

По данным рейтинга сильные показатели Узбекистана на мировом уровне в следующих индикаторах:

- «Число выпускников в области науки и техники» - 6-е место;
- «Валовое накопление основного капитала» - 6-е место;
- «Рост производительности труда» - 7-е место.

Решения этих проблем дает возможность в дальнейшем развитии, росте и устойчивого положения экономики Узбекистана.

Литература

1. <https://mininnovation.uz/ru/news/post-865>
2. <https://lex.uz/uz/docs/4545887?ONDATE=18.03.2022>
3. <https://lex.uz/acts/19769>

Ташматов Шараф Урокбоевич
СамИСИ ўқитувчиси,
sh.tashmatov@gmail.com

ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БОШҚАРИШ МАСАЛАЛАРИ

Инновацион иқтисодиёт янги ғояларни ишлаб чиқариш ва уларни амалиётга жорий этиш салоҳиятига эга бўлган кадрларни талаб этади. Бу эса, олий таълим сифатига бевосита боғлиқдир. Таълим сифати самарали касбий фаолиятга лаёқатли, илмий-техник тараққиёт шароитларига тез мослашувчи, ўз соҳасига оид технологияларни биладиган, касбий вазифаларни ечишда олган билимларини қўллаш оладиган кадрларни тайёрлашнинг зарурий даражасини таъминлашни англатади.

Илмий-инновацион фаолият олий ўқув юртлари томонидан кўрсатиладиган таълим хизматларнинг рақобатбардошлигини оширишда, Ўзбекистоннинг интеллектуал салоҳиятини шакллантиришда, шунингдек, мамлакатимизнинг жаҳон хўжалигига интеграциялашувида ҳал қилувчи рол ўйнайди.

Университетлар илмий фаолиятининг бош вазифаси фан ва таълим ўртасида узвий боғлиқликни таъминлаш, олимлар ва профессор-ўқитувчиларнинг илмий салоҳиятини максимал ривожлантириш, аниқ вазифаларни бажаришга фандаги фундаментал ва устувор йўналишларининг мақсадли қўллаб-қувватлаш воситаларини қаратишдир. Таълимнинг фундаменталлиги касбий эгилувчанликнинг, бутун касбий фаолият давомида бозор ўзгаришларига мослашувчанликнинг асоси ҳисобланади¹.

Биргина таълим сифати устидан тўлиқ давлат назорати қўллаш орқали таълим хизматларига бўлган замонавий талабларни қондириш ва таълим муассасаларида сифат менежментининг замонавий тамойилларини тўла амалга ошириш мушкул. Шу сабабли таълим сифатини ошириш масаласини ҳал қилиш учун олий таълим муассасаларининг ўзлари сифат менежментининг замонавий тамойилларини жорий этишдан манфаатдор бўлишлари лозим.

Қўллаб хориж ва миллий корхоналар тажрибаси шуни кўрсатадики, умумий менежментнинг таркибий қисми бўлган сифат менежменти тамойилларини жорий қилиш ҳозирги шароитда бошқарув тизимини такомиллаштиришнинг энг самарали воситаси бўлиб хизмат қилади.

Бизнингча, олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва сифат менежменти тамойиллари ҳамда усулларини жорий қилиш билан боғлиқ бўлган асосий муаммоларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- профессор-ўқитувчиларда таълим сифатини яхшилашга бўлган мотивациянинг йўқлиги;
- олий таълим муассасаларининг малакали профессор-ўқитувчиларга, айниқса, юқори малакали кадрларга бўлган талабининг етарлича қондирилмаётганлиги;
- ўқув жараёни учун замонавий ўқув лабораториялари ва ўқув-методик базанинг етишмаслиги;
- кўпчилик талабаларда тўлақонли ва сифатли билим, кўникма ҳамда малақа олишига мотивациянинг етарли эмаслиги;

¹ Тараненко Л. Н. Оценка и пути повышения конкурентоспособности высшего учебного заведения: магистерская диссертация / Л. Н. Тараненко. Уральский федеральный университет имени первого Президента России Б. Н. Ельцина, Институт экономики и управления, Кафедра экономики и управления на металлургических и машиностроительных предприятиях. — Екатеринбург, 2023. — 120 с. — Библиография.: с. 112-120 (73 назв.).

- олий таълим муассасаларидаги бошқарувнинг барча даражаларида малакали менежерларнинг етишмаслиги;
- таълим сифатини яхшилашга қаратилган турли хил ўзгаришлар профессор-ўқитувчилар томонидан ижобий қабул қилинмаслиги;
- олий таълим муассасаларида сифат менежменти тамойиллари ва усуллари жорий қилиш бўйича зарурий методик кўрсатма ва таклифларнинг йўқлиги.

Таълим сифатини ошириш зарурияти қатор ўзига хос омиллар билан шарт қилиб қўйилган. Энг аввало, уларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

- мамлакатимиз иқтисодиётининг барқарор ўсиши, сўзсиз, бу сифатли таълимга талабнинг ўсишига олиб келмоқда;
- таълим хизматлари бозорида рақобатнинг кучайиши;
- олий таълимга бўлган талабларнинг ошиши.

Ҳозирги кунда иқтисодиётнинг барча тармоқларида ижодкор, ташаббускор, юқори салоҳиятли мутахассисларга талаб ортмоқда. Улар нафақат ностандарт шароитларда қарор қабул қилишни билиши, балки ўз-ўзини ривожлантира олиши зарур. Бу хислатлар интенсив илмий-техник тараққиёт шароитида ўта муҳимдир. Айнан шунинг учун таълим жараёнининг энг аҳамиятли вазифалари этиб қуйидагилар белгиланган: а) фундаментал тайёргарликни таъминлаш; б) талабаларни мутахассисликлари бўйича замонавий билимлар билан қуроллантириш; в) талабани таълим олишга ўргатиш; г) талабани ижод қилишга, яратувчанликка ўргатиш¹.

Таълим хизматлари сифати олий таълимда Европа сифат кафолатлари ассоциациясининг (ENQA) стандартлари ва директивлари талабларига мос келиши лозим.

Қўйилган мақсадга олий таълим муассасаси қуйидагилар ёрдамида эришиши мумкин:

- илмий-тадқиқот ва таълим жараёнлари бирлигини таъминлаш, юқори малакали илмий-педагогик кадрларни тайёрлаш;
- педагогик таркибни касбий шунингдек, стратегик менежмент ва сифат менежменти соҳасидаги малакасини доимий равишда ошириш;
- таълим жараёнининг ўқув-методик ва моддий-техник таъминоти сифатини узлуксиз яхшилаш, ўқитишга замонавий ахборот технологияларини жорий қилиш;
- истеъмолчилар ва шериклар билан барқарор ўзаро манфаатдор алоқаларни ўрнатиш ва қўллаб-қувватлаш;
- доимий сифат мониторинги тизимини шакллантириш.

Олий таълим муассасасига нисбатан ташқи манфаатдор томонларнинг талабларини таҳлил қилиб шуни такидлаш мумкинки, улар таълим муассасалари томонидан кўрсатиладиган таълим хизматлари ва мутахассислар тайёрлаш даражаси (битирувчининг билим ва маҳорати) каби кўрсаткичларга тегишли. Ички жараёнларда бевосита қатнашувчи томонлар (ходимлар ва талабалар) учун талаблар хизмат кўрсатишнинг ички ва ташқи объектларига тааллуқли ва олий таълим муассасаси фаолиятининг юқори натижаларига эришишга қартилгандир. Шундай қилиб, ташкилот мақсадлари манфаатдор томонларнинг умумий талабларига йўналтирилган бўлиши лозим, олий таълим муассасасининг ички сифат менежменти тизими қўйилган мақсадларга эришиш учун шароити яратиши керак.

Шундай қилиб, сифат менежменти тизимида яратиладиган сифатни режалаштириш механизми олий таълим муассасасининг асосий мақсадлари ва миссиясини бажаришнинг муҳим шартига айланади, олий таълим муассасаси бошқарув фаолияти самарадорлиги тўғрисидаги ишончли ахборотлар ҳисобига уни комплекс баҳолашнинг объектив бўлишини таъминлайди, таълим жараёнининг таълим стандартларига мос бўлишига кўмаклашади.

¹ Фролова Е. В., Рогач О. В. Цифровые технологии как фактор повышения конкурентоспособности образовательных услуг в условиях распространения онлайн-обучения // Информатика и образование. – 2022. – Т. 37. – №. 3. – С. 46-54.

Muxitdinov Abduvaxob Abduvalievich
Jizzax Politehnika Instituti,
“Muhandislik va kompyuter grafikasi”
kafedrası assistenti
Email: a.muxitdinov1987@gmail.com

MONITORING TIZIMI – IQTISODCHI KADRLAR TAYYORLASHDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISHNING ASOSI SIFATIDA

O'zbekistonda xorijiy davlatlardan farqli ravishda tizimli tarzda sifatni yaxshilash uchun OTM professor-o'qituvchilari faoliyatini monitoring qilish ishini yo'lga qo'yilganligi boshqa davlatlarga nisbatan respublikaning ta'lim tizimidagi sifatni yaxshilash borasidagi yondashuvlar ko'lamining kengayib borayotganligidan dalolat beradi.

Monitoring tushunchasi – ingliz tilidan - *monitoring*, lotin tilidan- *monitor* so'zlaridan olingan bo'lib, eslatuvchi, kuzatuvchi, nazoratlovchi, tekshiruvchi degan ma'nolarni anglatadi. Umumiy holatda ma'lumotlarni kompleksli tekshirish: yig'ish, tahlil etish, shu to'plangan ma'lumotlarni qayd etish, saqlash hamda ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi¹.

Monitoringning maqsadi ta'lim muassasalari va boshqaruv organlarining mazkur sohaga doir qabul qilingan hukumat qarorlarini amalga oshirish, ta'lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish, professor-o'quvchilarning bilim sifatini oshirish bilan bog'liq faoliyatlarini o'rganish va tahlil etish hamda bu borada muassasalar, jamoalarga amaliy yordam berishdan iboratdir.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Oliy ta'limda monitoring tizimi quyidagi vazifalarni o'ziga jamlagan:

- monitoring obyektlari yo'nalishini tanlash;
- har bir yo'nalish bo'yicha diagnostik baza yaratish;
- natijalarni umumlashtirilgan holda tahlil qilish va boshqaruv qarori qabul qilish.

Adabiyotlarni o'rganish, shuni ko'rsatadiki, monitoring turlarga bo'linadi. Ya'ni: *didaktik monitoring* negizida o'qitish natijalarini kuzatib borish mavjud bo'lsa, *tarbiyaviy monitoring* tarbiya jarayonining har xil tomonlarini kuzatish, bunda o'quv jarayoni qatnashchilarining munosabatlarning aloqa tizimini, o'zaro ta'sirlari tasnifini inobatga oladi. *Boshqaruv monitoringi* – tizimning har xil darajadagi boshqaruvida munosabatlarning o'zaro ta'sirini kuzatish: rahbar-pedagoglar jamoasi; rahbar-o'quvchilar jamoasi; rahbar – ota-onalar jamoasi; rahbar - ta'lim muassasasidagi tashqi muhit; pedagog-pedagog; pedagog-o'quvchi; pedagog - oila kabilarni inobatga oladi. *Ijtimoiy-psixologik monitoring* – shaxsiy, jamoa - guruh munosabatlar tizimini kuzatish, jamoa, guruhda psixologik muhit tasnifini o'rganishni maqsad qilib oladi.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining tashkil etishda monitoringning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Axborot beruvchi; Undovchi; Shakllantiruvchi; Tuzatuvchi.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini monitoring qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Me'yoriy-boshlang'ich; Analitik-diagnostik; Faoliyatli-texnologik; Oraliq-diagnostik; Yakuniy diagnostik.

Monitoringni quyidagi yo'nalish va obyektlari mavjud:

1. Fanning o'quv rejasi bo'yicha erishilgan yutuqlar (o'qish va o'qitish darajasi); psixologik rivojlanganlik; sog'lik; shaxsning ijtimoiylashuvi, moslashuvchanligi, tarbiyasi; jismoniy rivojlanganlik. o'qitish monitoringining motivatsiyasi.

Monitoringni amalga oshirish mexanizmlari:

1. Talabalar, ota-onalar va ish beruvchilarning ta'lim muassasasidagi ta'lim jarayonidan qoniqishini o'rganish; 2.Ta'lim oluvchi shaxsini, uning ta'lim olish imkoniyatlari va sog'ligini o'rganish²; 3.Ta'lim oluvchilarni fanlar bo'yicha bilim darajalariga taxsis qo'yish.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini monitoring qilish bo'yicha yangicha me'zonlarga ehtiyoj bor.

¹ OTF va IVning “Oliy ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari faoliyatini o'rganish mezonlari” 2015 yil 15 oktabrdagi 399-sonli buyrug'i

² В.Б. Бобров Современные проблемы науки и образования. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. - 20.02.2012. URL: <http://gtmarket.ru/laboratory/basis/5091>

Professor-o'qituvchilar faoliyatining samaradorligining monitoringining mohiyati va turlari tahlilidan shunday xulosa kelib chiqadiki, faoliyatni monitoringi majmuaviy ravishda o'zaro bog'liq va o'zaro bir-biriga ta'sir etuvchi komponentlar yordamida olib borilishi hamda o'quv yili davomida olingan natijalar elektron tizimga kiritilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur tadbiring muvaffaqiyati uchun professor-o'qituvchilar faoliyatini reyting baholash loyihasini ishlab chiqish va joriy etish, jarayonning texnologiyaga asoslanganligini ta'minlashni inobatga olgan holda, yangi olingan natijalarni tahlilini takomillashtirish imkoniyatini berishi lozim.

Ta'lim muassasalari, shu jumladan, professor-o'qituvchilar tashqi attestatsiyasi va o'z-o'zini attestatsiyalash deyarli barcha xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladi. Har ikki tur attestatsiya o'z afzallik va kamchilik tomonlariga ega bo'lgan holda, bir-birini to'ldiradi va ta'lim muassasasi haqida to'liq tasavvur beradi.

Xulosa qilib aytganda, "Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari faoliyatini o'rganish me'zonlari" ning elektron tizimini joriy etish piravord natijada ta'lim sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga, boshqaruv usullarini yaxshilashga, mehnatga haq to'lashni takomillashtirishga yordam berishi kerak. Bu jarayon ko'p urinish yoki mablag' talab qilmaydi, ammo qisqa muddat ichida yuqori natijani ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. OTF va IV ning "Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari faoliyatini o'rganish me'zonlari" 2015 yil 15 oktabrdagi 399-sonli buyrug'i.

2. В.Б. Бобров Современные проблемы науки и образования. // Электронная публикация: центр гуманитарных технологий. - 20.02.2012. URL: <http://gtmarket.ru/laboratory/basis/5091>

Нигора РАСУЛОВА,
мустақил тадқиқотчи,
Тошкент давлат иқтисодийёт университети
nrasulova8779@gmail.com

ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

1. Кириш.

Жаҳонда олимлар томонидан Ўзбекистонда экологик таълим сифатини оширишнинг асосий йўналишларини аниқлаш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, экологик таълимнинг меъёрий-ҳуқуқий асосларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш бўйича қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Бу жараёнда экологик таълимнинг иқлим ўзгаришларига таъсирини аниқлаш, табиат ва туризм ўртасидаги мувозанатни сақлаш, экологик таълимни ривожлантириш моделини ишлаб чиқиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бунда миллий иқтисодийётдаги экологик таълимнинг улуши ва экологик таълимнинг иқлим ўзгаришларига қарши курашишдаги самарасини аниқлаш муҳим масалалар қаторига киритилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида" ги ПФ-60-сон Фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 майдаги "Ўзбекистон Республикасида Экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тақдирлаш тўғрисидаги" ги 434-сон қарори ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда Ўзбекистонда экологик таълим сифатини оширишнинг асосий йўналишларини тадқиқ этишда муайян даражада хизмат қилади.

Шу туфайли Ўзбекистонда экологик таълим сифатини оширишнинг асосий йўналишларининг назарий-услубий ва амалий жиҳатлари бўйича илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш долзарб масала ҳисобланади.

Ўзбекистонда экологик таълим сифатини оширишнинг асосий йўналишлари – экологик таълимни жамиятнинг барча бўғинларида ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади, шунингдек нафақат мамлакатда, балки минтақада биохилма-хилликни сақлашда муҳим аҳамият касб этади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Ўзбекистонда экологик таълим сифатини оширишнинг асосий йўналишларининг назарий, услубий ва ташкилий масалалари хорижлик Е.Боо, Х.Цебаллос-Ласкурейн, В.Адриана, А.Алонсо, А.Огле, А.Аминян, Х.Аяла, В.Брамвелл, Б.Лейн, Р.Батлер, Ж.Кукиер, Е.Маттеус каби олимлар томонидан атрофлича ўрганилган. Жумладан, экологик таълим сифатини оширишнинг асосий

йўналишларининг назарий, услубий ва ташкилий масалалари хорижлик Н.Д.Неустроев, Л.И.Григорьева, А.Н.Неустроева каби олимлар томонидан атрофлича ўрганилган.¹

3. Тадқиқот методологияси.

Тадқиқот ишини бажаришда кузатиш, маълумотларни тўплаш, умумлаштириш, гуруҳлаш, таққослаш, маҳаллий ва хорижий олимларнинг Ўзбекистонда экологик таълим сифатини оширишнинг асосий йўналишлари соҳасидаги иқтисодий муносабатлар ва унинг экологик туризм хизматлар соҳасига таъсири, муаммолар ва уларнинг ечимларига бағишланган тадқиқотлари, соҳани тартибга солувчи қонунлар, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни ўрганиш асосида пандемия ва бошқа бир қатор омилларни экологик туризмни ривожлантиришга таъсири, муаммолар ва уларнинг ечимларига қаратилган хулоса ва таклифлар шакллантирилган.

4. Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.

Жаҳонда иқтисодийнинг хизмат кўрсатиш соҳаси таркибида экотуризм хизматларини ривожлантириш соҳасидаги илмий тадқиқотларнинг таҳлиliga кўра 2027 йилга бориб жаҳон экотуризм бозори ҳажми 2020 йилдаги 351 000 миллион АҚШ долларида 878 760 миллион АҚШ долларига етиши ва 2021-2027 йиллар мобайнида ўртача 14% ўсиши башорат қилинмоқда.²

5. Хулоса ва таклифлар.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан Ўзбекистонда экологик таълим сифатини оширишда инновацион рақамли платформаларни татбиқ этишнинг долзарб масалалари билан боғлиқ муаммоларни бартараф этишга қаратилган ечимлари таклиф этилди:

Таълим ҳамда экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасидаги давлат бошқаруви органлари ўртасида экологик таълим тизимини такомиллаштириш борасидаги амалий ҳамкорлик етарли даражада йўлга қўйилмаган;

Экологик таълим соҳасида ўқитувчиларнинг фаолиятини методик жиҳатдан таъминловчи ўқув материаллари, шу жумладан, экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасига оид ўқув қўлланмалари, ўқувчи ва талабалар учун зарур дарсликлар етарли эмас;

Таълим дастурлари тўлиқ қайта кўриб чиқишга муҳтож, жумладан, улар республикада сўнгги вақтларда экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида амалга оширилган ислохотлардан келиб чиқиб тубдан такомиллаштирилиши лозим.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида Экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-434 Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.05.2019 й.

2. Н.Д.Неустроев, Л.И.Григорьева, А.Н.Неустроева. Экологическое образование и воспитание школьников в условиях природной среды. <https://cyberleninka.ru/article/n/ekologicheskoe-obrazovanie-i-vospitanie-shkolnikov-v-usloviyah-prirodnoy-sredy>

3. O.D.UTEGENOV. Ekologik ta'limni rivojlantirish – o'zbekiston ekologik siyosatining ustuvor yo'nalishi. <https://inlibrary.uz/index.php/development-science-education/article/download/18411/19120/20820>

3. globenewswire.com

4. <https://plus-one.ru/manual/2021/08/24/chto-takoe-ekoturizm-sovremennaya-konceptsiya-zelenogo-turizma>

Shoyev Alim Xalmuratovich
katta o'qituvchi Guliston davlat universiteti
alim_shoev@mail.ru

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISH ORQALI KADRLAR TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Zamonaviy dunyoda aksariyat mamlakatlar jamiyat hayotining barcha jabhalarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda insonparvarlik tamoyiliga amal qiladi. Ushbu tamoyilning yo'nalishlaridan biri - nogironlarning tegishli ta'lim egallashida huquq va erkinliklarini amalga oshirishdir. Bunday vaziyatda ta'lim sifati bo'yicha eng maqbul ta'lim shakli bu inklyuziv ta'limdir. Oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi o'quv jarayoni amaliyotiga inklyuziya kirib keldi.

¹ Н.Д.Неустроев, Л.И.Григорьева, А.Н.Неустроева. Экологическое образование и воспитание школьников в условиях природной среды. <https://cyberleninka.ru/article/n/ekologicheskoe-obrazovanie-i-vospitanie-shkolnikov-v-usloviyah-prirodnoy-sredy>

² globenewswire.com

Alohida ehtiyojli bolalarni tarbiyalash mamlakatimizning asosiy vazifalaridan biridir. Bugun jamiyatimiz o'z oldiga nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu jarayonning barcha bo'g'inlarida ularning to'laqonli ta'lim olish imkoniyatini amalda qo'llash vazifasini qo'ygan. Bizning fikrimizcha, bu vazifani amalga oshirishning eng maqbul va samarali yo'nalishi aynan inklyuziv ta'limdir. Inklyuziv ta'lim - bu tirik organizm, tirik jarayon bo'lib, u o'qituvchilar va ota-onalar tomonidan o'quv jarayoniga ijodiy yondashishni nazarda tutadi. Chunki har bir bola o'ziga individual yondashishni talab qiladi, har bir inson bilim olish va jamiyatda o'z qobiliyatini namoyon eta olish huquqiga ega¹.

Bugungi kunda O'zbekistonda 700 mingdan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar istiqomat qiladi, ularning 100 mingdan ortig'i 16 yoshgacha bo'lgan shaxslardir (Respublika Oliy Majlisi Senati ma'lumotlari bo'yicha). So'nggi yillarda respublikamizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza sohasida davlat darajasida qator ijobiy islohotlar amalga oshirildi. Aytishimiz mumkinki, keyingi yillarda respublikamizda nogironlar huquqlarini himoya qilish borasida samarali ishlar olib borildi. Darhaqiqat, qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlari nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat hayotining barcha jabhalariga jalb etishga xizmat qilishi kerak, bu esa yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida muhim ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

2022-yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi aholisi soni 36 million kishiga yetdi, ularning 60 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Respublika statistik ma'lumotlariga ko'ra, Respublikada rasmiy ro'yxatga olingan nogironlar mamlakat umumiy aholisining 2,1 foizini tashkil qiladi.²

Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'limni joriy etishga quyidagilar to'sqinlik qilmoqda:

- Binolar arxitekturasi va binolarga tutashgan inshootlar infratuzilmasi nogironlarni tayyorlashga moslashtirilmagan;
- O'zbekistondagi aksariyat oliy o'quv yurtlarining o'quv binolari to'rt qavatli va undan yuqoriroqdir, ammo mintaqaviy sharoitda hisobga olsak, ularning ko'pchiligida liftlar yo'q, borlarda esa lift ishlamaydi va tegishli talablarga javob bermaydi (ta'mirtalab), bu o'z navbatida tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan nogironlarni bino bo'ylab harakatlanishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;
- Mamlakat oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari keskin oshishi munosabati bilan ko'pchilik universitetlar o'quv xonalari fondining yetishmasligiga duch kelmoqda, buning natijasida dars jadvalini tartiblash va bir guruh talabalarining darslarini o'tkazish uchun auditoriyani o'zgartirishga to'g'ri keladi. Har bir juftlik kesimida talabalar turli qavatlarda joylashgan auditoriyalarda o'qitishga to'g'ri kelmoqda. Bunday vaziyatda baland zinapoyalar va panduslarning yo'qligi nogironlar aravachasidagi talabalarga binoga kirish va harakatlanish uchun jiddiy to'siqdir;
- Respublikamizning ko'pgina oliy o'quv yurtlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun mo'ljallangan maxsus o'quv va o'quv adabiyotlarining yetishmasligi yoki yo'qligi;
- O'zbekistonda inkluziya borasida oliy ta'lim tizimining o'ta jiddiy muammosi ta'lim muassasalarining yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligidir;
- Respublikamizdagi ko'plab oliy o'quv yurtlarining umumiy foydalanish joylari (oshxona, kutubxona, hojatxona) nogironlar ehtiyojlariga moslashtirilmagan, maxsus uskunalar bilan jihozlanmagan, bu esa imkoniyati cheklangan talabalarining ushbu joylardan foydalanishini qiyinlashtiradi;
- Mamlakat oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining aksariyati nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish bo'yicha maxsus malakaga ega emas;

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi davrida nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish imkoniyatlarini amalga oshirishni hisobga olgan holda respublika ta'lim tizimini isloh etish o'zining shakllanish bosqichida va har tomonlama davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning turmush sharoiti, ta'lim-tarbiya olishi uchun sharoit yaratish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, nogironligi bo'lgan shaxslarning yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish bo'yicha qonunchilik bazasi yaratilgan. Jumladan: 2020–2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish,

¹ Махмудходжаева Л.С., Архангельская Е.Г. «Перспективы совершенствования системы инклюзивного образования в республике Узбекистан» https://inlibrary.uz/index.php/industry_4/article/view/3580

² В программу переписи населения не включили вопросы об инвалидности, Gazeta.uz. 3 марта 2020 г. <https://www.gazeta.uz/ru/2020/03/03/disability-questions/>

ularning hayot sifati va darajasini oshirishni qamrab olgan 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'limning inklyuziv shaklini rivojlantirish va samarali tatbiq etish maqsadida, bizningcha, quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiyasi qoidalari va tamoyillariga muvofiq ta'limning inklyuziv modeli uchun huquqiy bazani takomillashtirish; umume'tirof etilgan xalqaro tavsif va vositalar asosida nogironlar bilan bog'liq statistika va ma'lumotlarni yig'ish tizimini uyg'unlashtirish;
- yangi binolar va inshootlarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, ularning me'moriy va rejalashtirilgan rivojlanishini nogironlarning ehtiyojlari va talablariga moslashtirish;
- ta'limning inklyuziv modelida bevosita ishtirok etuvchi pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;
- Respublika va alohida hududlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, nogironlarga g'amxo'rlik ko'rsatish va ularni rehabilitatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ijtimoiy xizmatlarning faol ishtirokida inklyuziv ta'limning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini monitoring qilish tizimini shakllantirish, xalqaro standartlar va me'yorlarga muvofiq o'qitish va ishga joylashtirish;

Ushbu tavsiyalarning hayotga tatbiq etilishi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha isloh qilish konsepsiyasida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish va ta'lim muassasalariga inklyuziv ta'limni samarali integratsiyalash, moslashtirish va rivojlantirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Kazakova Dilnoza Bobirovna

Buxoro Davlat Universiteti magistranti
@kazakovadilnoza830@gmail.com

TURISTIK YO'NALISHLAR UCHUN PROFESSIONAL KARLAR TAYYORLASHDA DAVLAT TA'LIM STANDARTLARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Bugungi kunda turizm dunyoning ko'plab mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning eng daromadli tarmoqlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish va turizm salohiyatini oshirish bo'yicha ko'plab amaliy ishlar qilindi. Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash choratadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'rta istiqbolda turizmni rivojlantirish bo'yicha Kontsepsiyasini hayotga tatbiq etish choralari to'g'risida»gi qarorini¹ hamda Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni² bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Qarorga ko'ra, turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, turizm tarmog'ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish maqsadida, shuningdek, 2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlariga muvofiq 25 ta yo'nalish tasdiqlandi.

Mamlakatimizda ta'lim va tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu Yuneskonning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir". Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida ta'lim va tarbiya sohasi turli sohalarga tadbiq qilina boshlandi. Hamda kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iborat. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli nomini olgan mazkur dasturning asosiy tarkibiy qismi quyidagilardan iborat bo'ladi:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Sh.Mirziyoyevning PF-4861 sonli "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 02.12.2016(<https://lex.uz/docs/-3077025>)

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (<https://lex.uz/docs/-3077025>)

Shaxs. U kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisidir.

Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rishni kafolatlaydi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi, tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

Davlat va jamiyat. Ular kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat va jamiyat quyidagilarga kafolat beradilar:

Fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlari ro'yobga chiqarilishiga; majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishga; davlat grantlari yoki pullik-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim olish huquqiga; davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga; ta'lim oluvchilarni o'qishi, ularning turmush va dam olish shart-sharoitlarini yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga; ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga; sog'liq va rivojlanishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim olishiga. uzluksiz ta'lim.

Bu malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni ildam tayyorlanishi uchun zarur shartsharoitlar yaratadi.

Fan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi pedagogik va axborot texnologiyalari ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq fan sohasida:

- tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi, kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish, o'rganish va foydalanish uchun kerakli ilmiy natijalar jamlanadi;

- oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;

- kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-tadqiqot jihatidan ta'minlash infrastrukturasi vujudga keltiriladi, ta'limning axborot tarmoklaridan foydalanish maqsadida bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasi shakllantiriladi;

- mamlakatimiz ilm-fanning jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo'ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutukdar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuvi amalga oshiriladi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga dahldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi.
4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi; 2014 y., 4-son, 45-modda.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017, 48 b.
6. Q.X.Abduraxmonov va N.Q.Zokirova Mexnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013, 536, b.

Muxitdinov Abduvali Burxanovich
Jizzax Politehnika Instituti,
"Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail: a.muxitdinov1966@gmail.com

IQTISODCHI KADRLAR TAYYORLASH BO'YICHA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Har qanday ta'lim muassasasi rahbari OTM ni bitiruvchilarini jahon hamjamiyati kesimida raqobatbardoshligini ta'minlash negizida rivojlangan mamlakatlardan andoza olishi va ularning ko'rsatkichlaridan foydalanishlari zarur. Mazkur ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilar kiradi.

1. ISO 9004 "Sifat tizimi". Sifatni boshqarish tizimi elementlari. Rahbariy qoidalar" da korxonalarda sifatni boshqarishga oid 20 element va uni qo'llash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Rahbar o'z korxonasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu standart tavsiyalari asosida sifatni boshqarish elementlarini tanlab olishi mumkin.

Ta'lim sifati bo'yicha Yevropa standarti. Boloniya Deklaratsiyasi va Boloniya jarayoni - oliy ta'limda yagona Yevropa tizimini vujudga keltirish maqsadida Yevropa davlatlari ta'lim tizimini bir-biriga yaqinlashuvi va moslashish jarayonidir. Boloniya jarayonining rasmiy boshlanish vaqti 1999 yil 19 iyunda Yevropaning 29 davlati tomonidan Boloniya deklaratsiyasini qabul qilinishi hisoblanadi.

Boloniya jarayonining asosiy maqsadi:

- Yevropada yagona oliy ta'lim tizimini vujudga keltirish, jahonda Yevropa oliy ta'lim tizimini faollashtirish;

- Yevropaning barcha oliy ta'lim muassasalariga kirishga keng yo'l ochish;

- Yevropa oliy ta'lim tizimining sifati va mavqeini yanada oshirish;

- Professor-o'qituvchilar va talabalar mobilligini rivojlantirish;

- Boloniya deklaratsiyasiga a'zo davlatlar oliy ta'lim tizimida barcha akademik darajalar va boshqa ixtisosliklarni mehnat bozori talablari asosida bir xil shakllantirish hisobiga bitiruvchilarni muvaffaqiyatli ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish.

Deklaratsiya quyidagi 7 ta asosiy tamoyillarni o'z ichiga olgan:

1. Bir xil akademik daraja va diplom ilovasini berish orqari Yevropa fuqarolarini ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshirish, Yevropa oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash.

2. Oliy ta'limda ikki pog'onali (siklli) o'qitishni yo'lga qo'yish: tayanch (dastlabki) oliy ta'lim (undergraduate) va bitiruvchi (graduate). Birinchi sikl kamida 3 yil davom etishi ko'zda tutilgan va bakalavr darajasini beradi. Ikkinchi sikl magistr darajasini olish bilan yakunlanadi.

3. Talabalarining katta hajmda mobilligini ta'minlash maqsadida sinov birliklarini yagona Yevropacha tizimini tadbiq etish.

4. Talabalarining mobilligini rivojlantirish. Transmilliy ta'lim standartini o'rnatish.

5. Taqqoslanadigan me'zonlar va uslubiyotlarni ishlab chiqish maqsadida sifatni ta'minlash uchun Yevropa hamjamiyatiga ko'maklashish.

6. Ta'lim sifatining ichki nazorat tizimini tadbiq etish va OTM faoliyatini tashqi baholashga talabalar hamda ish beruvchilarni jalb etish.

7. O'quv rejalarini, OTM lararo hamkorlik, mobillik va hamkorlik o'quv dasturlari, amaliy tayyorlov va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni rivojlantirish orqali oliy ta'limda Yevropacha an'analarni yuzaga kelishiga ko'maklashish².

Yevropa oliy ta'lim tizimi kelajagini aniqlaydigan tamoyillar ichida quyidagi 3 ta omil asosiy o'rin egallaydi:

1. Ikki pog'onali (siklli) oliy ta'limni tadbiq etish (bakalavr, magistr).

2. Sinov birliklarini ko'chirish va to'ldirishga imkon beruvchi Yevropa kredit tizimi (ECTS) ni joriy etish.

3. Oliy ta'lim muassasalari va oliy ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalash jarayonini Yevropacha an'analarga moslash.

¹ Стандарт ISO 9000:2000.: – Режим доступа: <http://ISO 9000 2000. narod.ru>

² Хайреца А.А. Интеллектуальный маркетинг как инструмент повышения конкурентоспособности ВУЗ а <http://www/e-rej.ru/articles/2007/Наyretz.pdf> интернет журнал маълумотлари асосида муаллиф томонидан такомиллаштирилди.

Boloniya jarayoni tamoyillari ta'lim dasturlarini qiyoslash muammosini hal etishga qaratilgan ECTS (Yeuropean Credit Transfer Syestem) ta'lim natijalarini baholash tizimini ishlab chiqish va qo'llash, akademik mobillikni oshirishga ko'maklashishni nazarda tutadi. ECTS quyidagi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan:

- talabalariga chet ellarda o'qishga yordam berish;
 - bir oliy o'quv yurtidan ikkinchisiga o'qishni ko'chirganda o'qish natijalarini taqqoslash va qayta to'ldirishni ta'minlash;
 - chet el oliy o'quv yurtlari o'quv rejalariga tezkor kirish va akademik tan olishni ta'minlash.
- OTM ECTS tizimini joriy etishi uchun quyidagilarni amalga oshirishi talab etiladi:
- o'quv rejalarining aniq va tushunarligini ta'minlaydi (o'quv jarayoni to'g'risida to'liq ma'lumotlarni batafsil bayon etadi);
 - akademik ixtisoslik (daraja) ni tan olinishida ko'maklashadi.
 - o'quv rejasida kurslar tarkibini, talabning o'quv yuklamasini va o'qish natijalarini aniq ifodalaydi.
 - o'zining mustaqilligini saqlaydi hamda talabning o'qish natijalariga oid qabul qilingan qarorlari uchun to'liq javob beradi.

ECTS Yevropa Komissiyasi ERASMUS dastur loyihasining dastlabkisi sifatida yuzaga kelgan bo'lib, undan ko'zlangan maqsad Yevropa hamjamiyatiga a'zo davlatlar oliy ta'lim tizimida barcha ta'lim natijalarini akademik jihatdan tan olishni qo'llab-quvvatlashdir. 1992/93 akademik yillardan boshlab - Yevropa hamjamiyatiga a'zo davlatlar va Ozod Yevropa savdo assotsiatsiyasi (EFTA) doirasida ta'lim natijalarining tan olinishi talabalariga o'z tahsillarini boshqa davlatlar oliy o'quv yurtlarida davom ettirishga imkoniyat yaratdi va talabalar mobilligini rivojlanishiga sharoit yaratdi.

ECTS o'z tuzilishiga ko'ra to'rtta asosiy qismni o'z ichiga oladi:

- axborot ta'minoti;
- bitim;
- kredit tizimi;
- akademik yilda talaba to'plagan kreditlar yig'indisini aniqlash.

O'zbekistonda ta'lim sifatining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash, maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Hay'atining 2003 yil 28 maydagi 5/6-son va 2003 yil 5 avgustdagi 7/3 -son qarorlari qabul qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Стандарт ISO 9000:2000.: – Режим доступа: [http:// ISO 9000 2000. narod.ru](http://ISO 9000 2000. narod.ru).
2. Хайрес А.А. Интеллигент маркетинг как инструмент повышения конкурентоспособности ВУЗа. <http://www/э-rej.ru/articles/2007/Hayretz.pdf> internet jurnal ma'lumotlari asosida muallif tomonidan takomillashtirildi.

Isanov Abdumajit Parmanovich

Jizzax Politexnika Instituti

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrası assistenti

Email: isanov1972@mail.ru

IQTISODCHI KADRLAR TAYYORLASHDA OTM PROFESSOR-O'QITUVCHILARI VA RAHBAR XODIMLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA ULARNING KASBIY KOMPETENTLILIGI

OTM larda rahbar va pedagog kadrlar ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va mazkur tizimni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha belgilangan vazifalar hamda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va uning huquqiy asoslari, pedagoglar va talabalar jamoasining faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, boshqaruv faoliyati va uning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy tushunchalari va tamoyillari kabi qator tushunchalarga ega bo'lishi zarurligi alohida ta'kidlanishi darkor.

Bizning fikrimizcha, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari va rahbar xodimlarining bilimi, ko'nikma va malakalari darajasini baholash me'zonida baholashning alohida ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

1. **Kvalifikatsiya** – bu rahbarning pedagogika sohasidagi bilimi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishi, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari hamda xodimlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari, mutaxassisligi hamda kasbiga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy me'yor va talablarni bilishi, shuningdek, bo'lajak mutaxassis kvalifikatsiyasi hamda ta'lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari yo'nalishida tushunchalarga ega bo'lishi.

2. **Kasbiy mahorat** – bu mavjud yagona pedagogik talablar asosida, pedagogik xodimlar hamda talabalarning imkoniyatlarini o'rganib, ularni hisobga olgan holda, jamoani shakllantirish, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamoa oldida turgan vazifalarni bajarishda mavjud muammolarni va masalalarni hal etish yo'llarini ko'rsatishi¹; jamoatchilik tashkilotlarini tuzish va ularni boshqarish ishlariga jalb etishi; o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish asosida pedagogik xodimlar bilan ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishi, tanqid va o'z-o'zini tanqid zaruriyatini hisobga olgan holda ularning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishi, tartib-intizomni va uyushqoqlikni saqlashi; boshqaruv faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilashi; jamoa faoliyati hamda pedagogik xodimlarning faoliyatini baholash me'zonlarini ishlab chiqish yo'nalishlaridagi ijtimoiy-psixologik ko'nikma va malakalardan iborat.

3. **Faoliyat unumdorligi** – bu ta'lim oluvchilarning davlat ta'lim standartlari asosidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari².

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, OTM professor-o'qituvchilari va rahbar xodimlari ta'lim sifatini baholashda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olishi, shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy me'zonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular rahbarning boshqaruv yo'nalishida kompetentligini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari va rahbar xodimlarining kasbiy kompetentligini ikki tizim, ya'ni bilishi zarur bo'lgan tushunchalar va o'zlashtirishi zarur bo'lgan ko'nikmalar orqali ifodalanayotganini, aniqrog'i rahbarlarda shakllanishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar orqali tavsiflanayotganini inobatga olib, OTM professor-o'qituvchilari va rahbar xodimlari ta'lim muassasasida hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish, pedagog xodimlarni kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirish, ma'naviy boyitish hamda intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan qulay ta'limiy muhitni barqarorlashtirishi zaruriyatidan kelib chiqib, OTM professor-o'qituvchilari va rahbar xodimlari kasbiy kompetentligining quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'z faoliyati va ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini tahlil qilish va obyektiv baholashga xizmat qiluvchi reflektiv ko'nikmalar;
- o'z faoliyati va o'zaro munosabatlar jarayonidagi xatti-harakatlarining natijalarini hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tayyorgarligini his etishni ifodalovchi oldindan ko'rish ko'nikmalari;
- boshqaruv jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarda subyektlar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasi;
- muloqotga oson kirishish ko'nikmasi;
- kommunikativ kompetentlik, ya'ni turli sharoitlarda insonlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan o'zaro ta'sir ko'rsatish ko'nikmasi;
- axborotlar to'plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish ko'nikmasi;
- o'zini-o'zi boshqarish va shaxsiy rivojlantirish ko'nikmasi va h.k.

Demak, OTM lari professor-o'qituvchilari va rahbar xodimlarining kasbiy kompetentligi ularning ta'lim muassasasi faoliyatini ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik, pedagogik qobiliyati va ko'nikmasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi deb aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шамова Т.И., Давыденко Т.М. Управление образовательным процессом в адаптивной школе. – М.: Новая школа, 2001. – 384 с.

Sharifxo'jaev M., Abdullaev Y. Menejment: Darslik. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2001. – 702 b.

¹ Шамова Т.И., Давыденко Т.М. Управление образовательным процессом в адаптивной школе. – М.: Новая школа, 2001. – 384 с.

² Sharifxo'jaev M., Abdullaev Y. Menejment: Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 702 b.

Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich
Jizzax Politehnika Instituti
“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi mudiri,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Email: muhitdinaynaqulov@mail.ru

IQTISODCHI KADRLAR TAYYORLASH SIFATINI KOMPETENTLI YONDASHUV DOIRASIDA BAHOLASH MAZMUNI

Tadqiqotlarda keltirilishicha, ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va ta'lim sifatini baholash jarayonida rahbarlar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur: faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, qaror qabul qilish; vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mutaxassislarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash; ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini tashkil etish; moddiy-texnik va zamonaviy ilmiy-uslubiy resurslar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi va ijtimoiy munosabatlarining uzluksiz aloqasini ta'minlash; ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilishini ta'minlash; DTS talablarini amaliyotda qo'llash va uning monitoringini olib borishni tashkil etish; ta'lim muassasasining rivojlanish moyilligi va o'zgarish su'ratini aniqlash uchun pedagog xodimlar va talabalar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborotlar to'plash va tahlil qilish; ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash, lavozimlar bo'yicha davlat talablari asosida kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish; rahbar hodimlarning innovatsion faoliyat natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish; qabul qilingan qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish¹.

Mazkur keltirilgan tom ma'nodagi fikrlarda professor-o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalari, qobiliyati va fazilatlarini, fidoyiligi va shaxsiy sifatleri bo'yicha tabiiy holda quyidagi mavjud talablar albatta o'z ifodasini topgan bo'lishi lozim.

– mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish tamoyillarini bilish;

– Vatanga sadoqat va vatanparvarlik tuyg'ulariga ega bo'lish;
– mas'uliyat, intizom, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik va ijtimoiy faollik sifatlariga ega bo'lish;
– jamoada mehnatga nisbatan ishtiyoqni va sog'lom psixologik muhitni shakllantirish;
– zamonaviy rahbar imidjini shakllantirish bo'yicha rahbarning o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy jihatdan takomillashtirishi:

– vaziyatga to'g'ri baho berish va siyosiy jihatdan sergak bo'lish;
– rahbarlikning ish uslublarini bilish va amaliyotda qo'llash;
– boshqaruv faoliyatining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish;
– rahbar kadrlarning kreativ salohiyatini baholash me'zonlarini bilish;
– boshqaruv nizolarini samarali hal etish;
– hodimlar bilan munosabatlarni samarali tashkil etish va guruhni maqbul boshqarish;
– mehnat qonunchiligi va uning huquqiy asoslarini bilish;
– oliy ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish va ular asosida ish yuritishni tashkil qilish²;

– muntazam ravishda boshqaruv malakasini oshirishga, yangi bilimlarni egallashga tayyor bo'lish;
– shaxsga psixologik tavsifnoma berish, jamoadagi va o'zidagi psixologik holatlarni tahlil qilish;
– muzokaralar olib borishda yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lish;
– turli xil vaziyatlarni obyektiv baholash, maqbul qarorlar qabul qilish va ijro natijalarini nazorat qilish;

– oliy ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlarini tahlil qilish, yashirin zahiralarni aniqlash, muammolarni topish va ularni samarali yechish³;

– innovatsiyalarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qilish hamda oliy ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini tahlil qilish va baholash;

– iqtisodiy tuzilmalarning moliyaviy faoliyatini nazorat va tahlil qilish;

¹ Aynakulov M.A., Siddiqov M.Yu. Kompetentli yondashuv doirasida ta'lim sifatini baholash – J.: 2018 – 86 bet

² Aynakulov M.A., Bayzaqova D.F, Rasulova Sh. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishning innovatsion texnologiyasi. - J.: 2018 – 106 bet

³ Управление качеством образование // Под ред. М.М.Поташкина. – М.: Педагогическое общество России, 2001. – 448 с

– oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi sharoitlarni oldindan bilish va baholay olish;

– boshqaruv faoliyati asoslari va tadbirkorlik xususiyatlarini bilish;

– jamoani boshqarishga nisbatan psixologik tayyorgarlikka ega bo'lish;

– ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish va fikrlarini yozma hamda og'zaki ravishda ravon ifoda qilib berish;

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amalda qo'llay bilish;

– chet tillardan birortasida so'zlashuv nutqi malakasiga ega bo'lish.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va rahbar kadrlari quyidagi yo'nalishlarda kompetentlikka ega bo'lishi lozim. 1) Huquqiy kompetentlik; 2) Boshqaruv kompetentligi; 3) Axborot kompetentligi; 4) Kommunikativ kompetentlik.

Jarayonga asoslangan indikatorlar:

1. *Natijalarga erishish jarayoni bo'yicha* (outcome process indicators):

– fuqarolik mas'uliyati va axloqiy (ma'naviy) munosabat;

– sport va boshqa sohalarida ishtirok etish, muvaffaqiyatga erishish;

– ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalar, ta'lim muassasasi va jamiyatga xizmat ko'rsatishga tayyorlik;

– bosim va muammolarni bartaraf eta olish qobiliyati; akademik muvaffaqiyat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aynakulov M.A., Siddiqov M.Yu. Kompetentli yondashuv doirasida ta'lim sifatini baxolash. – J.: 2018 – 86 bet

2. Управление качеством образование // Под ред. М.М.Поташкина. – М.: Педагогическое общество России, 2001. – 448 с

3. Aynakulov M.A., Bayzaqova D.F, Rasulova Sh. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishning innovatsion texnologiyasi. - J.: 2018 – 106 bet.

Baxtiyorova Nigina Ulag`bek qizi
BuxDU, "Raqamli iqtisodiyot" mutaxassisligi
1-kurs magistranti

IJTIMOY MEDIA MARKETING XIZMATLARI VA ULARDAN OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Ijtimoiy media marketingi - bu ijtimoiy media platformalari orqali mahsulot va xizmatlarni ilgari surish jarayoni bo'lib, kundan kunga ushbu turdagi marketing tobora ommalashib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar butun dunyo bo'ylab 3 milliarddan ortiq faol foydalanuvchilarga ega. Korxonalar ijtimoiy mediadan brend xabardorligini oshirish, yangi mijozlarni qo'lga kiritish, mavjud mijozlar bilan bog'lanish va brendga sodiqlikni shakllantirish uchun foydalanadilar.

Ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, korxonalariga o'z mijozlaridan qimmatli fikr-mulohazalarni olish, shuningdek, ularning afzalliklari va ehtiyojlari haqida ma'lumotlar olish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar kompaniyalarga mahsulot va xizmatlarini yaxshilashga yordam beradi, bu esa o'z navbatida mijozlarni saqlab qolish va daromadni oshirishga yordam beradi.

Bozorda raqobatbardosh bo'lish uchun ijtimoiy media marketingidan foydalanish juda muhimdir. Shuningdek, u brendlarga mijozlar bilan shaxsiy aloqa o'rnatish va brendga sodiqlikni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy media marketingidan foydalanishning turli usullari mavjud. Umumiy usullardan biri maqsadli auditoriyangizni qiziqtiradigan kontent yaratishdir. Ushbu kontent ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari orasida mashhur bo'ladigan fotosuratlar, videolar, matn yoki audio yozuvlar shaklida bo'lishi mumkin.

Yana bir usul - ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli auditoriyaga ko'rsatiladigan reklama kampaniyalarini yaratish. Bu Facebook reklamalari, Instagram reklamalari yoki LinkedIn reklamalari bo'lishi mumkin.

Shuningdek, savollar va sharhlarga javob berish, tanlovlar yoki aksiyalarni o'tkazish, shuningdek, maqsadli auditoriyaga qayta yo'naltirish orqali mijozlar bilan muloqot qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga arziydi.

Zero, ijtimoiy media marketingining mohiyatini tushunish bozor talablarini qondirish, daromadni oshirish va kuchli brend yaratishga intilayotgan har qanday biznes uchun zarur texnologik qadamdir.

Bundan tashqari, ijtimoiy media marketingi kompaniyalarga brend xabardorligini oshirishga va potentsial mijozlar bilan bog'lanishga yordam beradi. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning asosiy qismlaridan biridir va shuning uchun ular biznes marketingi uchun katta imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar mijozlarga xizmat ko'rsatish va aloqani yaxshilashga yordam beradi, bu global yoki shunchaki kichik, ammo yuqori texnologiyali kompaniya uchun muhim bo'lishi mumkin.

Va nihoyat, ijtimoiy media marketingi yangi mijozlar va etakchilarni topishning samarali vositasi bo'lishi mumkin. Kontentni optimallashtirish va foydalanuvchilar bilan muloqotni yo'lga qo'yish orqali kompaniyalar o'z auditoriyasini va natijada sotishni yaratishi mumkin.

Umuman olganda, ijtimoiy media marketingi zamonaviy biznesda muhim rol o'ynaydi. Bu kompaniyalarga mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatish, ularga o'z mahsulotlari va xizmatlari haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etish, brend xabardorligini oshirish va daromadni oshirish imkonini beradi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ijtimoiy media marketingi kompaniyalarga o'z kompaniyalarining samaradorligini o'lchash va tahliliy ma'lumotlarga asoslangan mijozlar bilan munosabatlarni o'rnatishni osonlashtiradi. Bu kompaniyalarga real vaqtda eng samarali va samarali ishlash imkonini beradi.

Ijtimoiy media marketingining asosiy afzalliklaridan biri uning turli xil biznes turlariga qulayligi va moslashuvidir. Aksariyat ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, reklama kompaniyalarini yaratish va yuritish uchun vositalarni taqdim etadi, bu esa ijtimoiy media marketingini qulay va ulardan foydalanishni osonlashtiradi.

Ijtimoiy media marketingining o'ziga xos xususiyatlari

№	Xususiyatlar	Tasniflanishi
1	Auditoriyani qamrab olish	Ijtimoiy media kompaniyalarga mijozlarda ishonchni mustahkamlaydigan mahsulot va xizmatlarni ilgari surishda interfaol yondashish imkonini beradi.
2	Kontent formatlarining xilma-xilligi	ijtimoiy platformalar ko'pincha matn, tasvir, video, audio, interaktiv o'yinlar va h.k. kabi auditoriya e'tiborini jalb qilishga yordam beruvchi keng ko'lamli kontent formatlarini taklif qiladi.
3	Shaxsiylashtirish uchun ajoyib imkoniyat	Ijtimoiy tarmoqlar kompaniyalarga kontentni va maqsadli reklamani foydalanuvchilarning qiziqishlari va xatti-harakatlariga muvofiq shaxsiylashtirish imkonini beradi.
4	Auditoriya bilan real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniyati	chat xonalari va boshqa aloqa vositalari orqali kompaniyalar auditoriya bilan tezkor muloqot qilishlari va mijozlar so'rovlari va muammolariga tezkorlik bilan javob berishlari mumkin.
5	Natijalarni kuzatish	Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarning xatti-harakati va marketing kompaniyalari natijalari haqida ko'plab ma'lumotlarni taqdim etadi, bu esa reklama strategiyalarining optimallashtirish imkonini beradi.
6	Xarajatlar kamligi	Ijtimoiy media juda samarali bo'lishi mumkin va mahsulot va xizmatlarni ilgari surish uchun muhim salohiyatga ega bo'lishi mumkin, ammo ijtimoiy media marketing xarajatlari boshqa reklama kanallariga qaraganda ancha past bo'lishi mumkin.
7	Ko'proq foydalanish imkoniyati	Ijtimoiy tarmoqlar butun dunyo bo'ylab ko'pchilik foydalanuvchilarga ochiq, bu esa kompaniyalarga o'z bozorini kengaytirish va turli mamlakatlardan auditoriyani jalb qilish imkonini beradi.
8	Doimiy evolyutsiya	ijtimoiy tarmoqlar doimiy ravishda rivojlanib, yangi formatlar, funksiyalar va vositalarni taklif etadi, ular mahsulotni saqlab qolish va yangi mijozlarni jalb qilishga yordam beradi
9	Kontent ustida ishlash zarurati	kompaniyani ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilish doimiy ravishda tomoshabinlar e'tiborini tortadigan qiziqarli va foydali kontent yaratish zarurati bilan bog'liq.
10	Cheklangan nazorat	Kompaniya ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilarning sharhlari va sharhlari ustidan to'liq nazoratga ega emas. Shu sababli, fikr-mulohazalarni va brend obro'sini boshqarish uchun vakolatli strategiyaga ega bo'lish muhimdir.
11	Axborotning katta hajmi	ijtimoiy tarmoqlar katta hajmdagi axborot, doimiy yangiliklar oqimi va dinamik muhit bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy media marketingining muvaffaqiyati kompaniya o'z auditoriyasini qanchalik yaxshi tushunishiga va ular bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish uchun ijtimoiy mediadan foydalanishiga bog'liq bo'lishi mumkin. Ijtimoiy media marketingining yuqoridagi xususiyatlari tufayli kompaniya o'z mahsulot va xizmatlarini ilgari surishda katta muvaffaqiyatlarga erisha oladi.

Ijtimoiy media marketing xizmatlaridan foydalanish oliy ta'lim muassasalari uchun foydali bo'lishi mumkin, chunki bu ularga hozirgi va bo'lajak talabalar bilan yaxshiroq bog'lanish, ularning onlayn mavjudligini yaxshilash va dasturlari uchun ko'proq ko'rinish yaratish imkonini beradi.

Ijtimoiy media marketingidan foydalanishning bir usuli ta'lim muassasalari uchun ijtimoiy tarmoq sahifalarini yaratishdir. Bu muassasaga ta'lim muassasida bo'layotgan yangiliklar, voqealar va tadbirlar haqida ma'lumot oladigan ko'plab obunachilarni olish imkonini beradi.

Onlayn marketing kampaniyalarini o'tkazish uchun ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalanish mumkin. Bu talabalarga muassasa bilan muloqot qilish va undan foyda olish imkonini beruvchi reklama, tanlov yoki so'rov bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardagi reklama ham samarali reklama usuli bo'lishi mumkin. Aksariyat ijtimoiy tarmoqlar demografik ma'lumotlarga asoslangan maqsadli reklamalarni taklif qiladi, bu esa maqsadli auditoriya aniqroq kirish imkonini beradi.

Oliy o'quv yurtlari uchun ijtimoiy media marketingidan foydalanishning yana bir usuli - ta'sir qiluvchi marketingdan foydalanish. Bu sizning muassasangizni reklama qilish uchun ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab muxlislarga ega bo'lgan odamlar bilan ishlashni anglatadi. Siz o'z muassasangizni reklama qilish va vakillik qilish uchun bloggerlar, ilmiy bloglar, o'qituvchilar va ma'ruzachilar, taniqli professorlar va boshqa fikr yetakchilarini jalb qilishingiz mumkin.

Ijtimoiy media marketingi yordamida oliy ta'lim muassasalar o'z auditoriyasini kengaytirishi, ko'plab yangi talabalarni jalb qilishi, shuningdek, o'quvchilari uchun noyob kontent yaratishi mumkin. Bu orqali ular talabalar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishlari, shuningdek, o'tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi talabalar bilan yanada muvaffaqiyatli va uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o'rnatishlari mumkin.

Bundan tashqari, ijtimoiy media marketingi institutlarga onlayn obro'sini kuzatishda yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlar monitoringi yordamida siz talabalar va keng jamoatchilikning muassasangiz haqida qanday fikrda ekanligini bilib olishingiz, shuningdek, ularning savollariga javob berishingiz va mijozlaringizning mamnunligi haqida qayg'urishingiz mumkin.

Ijtimoiy media marketingidan foydalanish oliy ta'lim muassasalarga o'z reklama kampaniyalarini yanada dinamikroq o'tkazishga, raqobatchilarni kuzatib borishga va ijtimoiy media faoliyatini tahlil qilishga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlarni chuqur tahlil qilish orqali muassasa qaysi marketing vositalari eng yaxshi ishlashini, reklama kampaniyalarini qanday yaxshilashni aniqlashi mumkin, shuningdek, eng faol foydalanuvchilar bilan qaysi daqiqalar ko'proq rezonanslashayotganini aniqlashi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ijtimoiy media marketingidan foydalanish oqilona va tartibli bo'lishi kerak. Maqsadli auditoriyani, ijtimoiy tarmoqlar va tematik yo'nalishlarni tanlashni, kontentning mosligini va yana ko'p narsalarni hisobga olish kerak. Marketing kampaniyalari o'ziga xos va ota-onalar va talabalar uchun jozibador bo'lishi kerak. Ijtimoiy tarmoqdagi xavfsizlik, keyinchalik ijtimoiy hamjamiyatlarni yaratish va saqlash, jamoalarda inqirozli vaziyatlarni to'xtatish va boshqalar haqida unutmang.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy media marketing xizmatlaridan foydalanish talabalarni jalb etish va muassasalar nufuzini oshirishda yuqori salohiyatga ega. Shu bilan birga, ijtimoiy media marketingi nafaqat ijtimoiy tarmoqda akkauntni ro'yxatdan o'tkazish, balki malakali va samarali ishlatilishi kerak bo'lgan murakkab vosita ekanligini unutmang.

Ijtimoiy tarmoqlarning har birining xususiyatlarini o'rganish, maqsadli auditoriya ehtiyojlarini tushunish, asosiy ko'rsatkichlarda ishonchli tendentsiya va auditoriyani jalb qilish - bularning barchasi ijtimoiy tarmoqlarda marketing kampaniyalarini o'tkazishda hisobga olinishi kerak. Talabalarining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligiga e'tibor qaratish, ularni muhokama va muloqotga undash ham oliy ta'lim muassasalari uchun muvaffaqiyatli ijtimoiy media marketingining muhim qismidir.

Ko'pgina oliy ta'lim muassasalari talabalarni jalb qilish, ularning imidjini yaxshilash va xabardorligini oshirish uchun ijtimoiy media marketing xizmatlaridan foydalanadi. Mana bir nechta misollar:

1. Jorjtaun universiteti - Instagram-dan o'z kampus hayotini namoyish qilish, talabalar yutuqlarini namoyish qilish va yangi talabalarni jalb qilish uchun foydalanadi.

2. Emori universiteti – Instagram, Facebook, Twitter va LinkedIn'da yangiliklar, dastur yangilanishlari va talabalar yutuqlari bilan bo'lishish uchun faol.

3. Florida universiteti - Facebook-dan o'z kampus hayotini namoyish qilish, sport o'yinlari va musiqa tadbirlarini translatsiya qilish, loyihalar va ommaviy ma'ruzalar bilan bo'lishish uchun foydalanadi.

4. Oklahoma shtat universiteti - kampusdagi yangiliklar va voqealarni baham ko'rish, talabalar va professor-o'qituvchilarni sharaflash va onlayn ochiq kunlarni o'tkazish uchun Facebook, Twitter va Instagramdan foydalanadi.

5. Los-Anjelesdagi Kaliforniya universiteti – yoshlar auditoriyasini qamrab olish, ularning loyihalari, tadqiqotlari va yutuqlarini namoyish etish hamda talabalar madaniyatini baham ko'rish uchun Snapchat, Instagram va YouTube'dan faol foydalanadi.

6. Merilend universiteti - ishga da'vogarlarini jalb qilish va amaliyot o'tash, shuningdek, professor-o'qituvchilar va bitiruvchilarning yutuqlari haqida ma'lumot tarqatish uchun LinkedIn'dan faol foydalanadi.

7. Oregon shtati universiteti – Facebook, Twitter, Instagram va LinkedIn'dan yangi talabalarni jalb qilish, universitet ishi haqida ma'lumot almashish va talabalar shaharchasi hayotini ko'rish uchun foydalanadi.

8. Texas universiteti – Instagram'dan o'zining xalqaro dasturlarini namoyish qilish, ko'rishlarni tashkil qilish va bo'lajak voqealar haqida ma'lumot almashish uchun foydalanadi.

9. Virjiniya universiteti - yangi talabalarni jalb qilish va onlayn faoliyat orqali o'z brendini targ'ib qilish uchun Facebook, Twitter va Instagramdan foydalanadi.

10. Vashington universiteti Instagram va Twitter'dan talabalarni jalb qilish va ularning tadqiqotlari va yutuqlarini namoyish qilish uchun foydalanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy media marketingi oliy ta'lim muassasalariga o'z brendini targ'ib qilish, yangi talabalarni jalb qilish va ularning imidjini yaxshilashga yordam beradigan samarali vositadir. Ijtimoiy media marketingi, shuningdek, universitetlarga talabalar, o'qituvchilar va bitiruvchilar bilan aloqada bo'lish, shuningdek, yangi platformalar orqali o'z auditoriyasini kengaytirish imkonini beradi. Shuningdek, u potentsial yetkazib beruvchilar va homiylar bilan o'zaro hamkorlik qilishga yordam beradi, bu esa ta'lim muassasalarining moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam beradi.

Biroq, ijtimoiy media marketingidan foydalanganda, oliy o'quv yurtlari nima joylashtirgani va o'z brendini Internetda qanday taqdim etishi haqida ehtiyot bo'lishlari kerak. Irqiy yoki siyosiy tashviqot kabi salbiy jamoatchilik fikrini keltirib chiqaradigan kontentdan qochish va maxfiylik standartlariga rioya qilish kerak. Universitetlar jamiyat tomonidan salbiy qabul qilinadigan hodisalarga duchor bo'lmaslik uchun o'z xodimlari va talabalarini ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha etarli tayyorgarlik va tajriba bilan ta'minlashi kerak.

Eng muvaffaqiyatli ijtimoiy media marketing strategiyalari universitetlar tomonidan turli kontent orqali amalga oshiriladi. Ushbu tarkib professorlarning ma'ruzalari, loyihalari, universitet haqidagi guvohliklari, talabalarni ishga qabul qilish kampaniyalari va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy media marketingi oliy o'quv yurtlari uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu vosita universitetlarga o'z imidjini yaxshilashga, auditoriyani kengaytirishga, yangi talabalarni jalb qilishga va eng muhimi doimo raqobatbardosh bo'lib qolishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khurramov O. K., Kasimova H. J. The main advantages of internet marketing and differences from traditional marketing //Мировая наука. – 2019. – №. 4 (25). – С. 65-68.
2. Навруз-зода Б. Н., Хуррамов О. К. Роль информационных технологий в цифровом туризме //International scientific review of the problems of economics, finance and management. – 2020. – С. 22-35.
3. Tairova M., Xurramov O., Odinaeva N. An important role of internet marketing in digital tourism //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
4. Kayumovich K. O., Gulyamovich D. I., Khudoynazarovich S. A. Information and information technologies in digital tourism //Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia. – 2020. – С. 32.
5. Хуррамов О. Особенности использования маркетинговых инструментов в социальных медиа //Alatoo Academic Studies. – 2016. – №. 2. – С. 236-249.
6. Khurramov O. K. The convenience of electronic marketing in tourism industry //Теория и практика современной науки. – 2019. – №. 5. – С. 35-38.

Уразов Садулла Шодиевич
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
“Менежмент” кафедраси доктаранти
e-mail: urazov.sadulla28@gmail.com

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАЛАРИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ ОШИРИШ МУҲИМ ОМИЛ СИФАТИДА

Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш бугунги куннинг асосий долзарб масалаларидан биридир¹. Таълим-бу инсон фаолиятининг барча соҳаларига янги технологияларни жорий этиш, рақобатбардошлиликни ошириш, турмуш даражасини кўтаришнинг муҳим шартига айланиб бормоқда. Олий таълимнинг ижтимоий масъулияти кўп жиҳатдан ҳар бир инсоннинг тез ўзгарувчан меҳнат бозорида харидоргир бўлиб қолиши, ривожланиб бораётган инновацион иқтисодиётда тўлақонли иштирок этиши ва шу йўл билан ўз фаровонлигини ҳамда умуман жамият фаровонлигини таъминлаш имконини берадиган малакавий ва ижтимоий кўникмалар олишидан иборатдир².

Президентимиз ёшлар билимига, таълим хизматлари сифатига эътибор берар экан: **“Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз”³**, -дея таъкидлайди. Республикамизда олий ва ўрта махсус касб-хунар таълим тизимини замонавий талаблар даражасига олиб чиқиш йўналишида амалга оширилаётган кенг қўламли ишлардан бири таълим хизматларини жадал суръатлар билан ривожлантириш ва жаҳон олий таълим тизимига, шу жумладан, мамлакатимиз таълим тизимига ҳам янгидан-янги, талаб даражасидаги рақобатбардош мутахассислар тайёрлашга қаратишдан иборатдир.

Таълим ва кадрларни касбий тайёрлаш сифатига таъсир этувчи омиллар таҳлил қилар эканмиз энг аввало таълим хизматларининг сифатини муҳокама қиламиз. Умуман олганда олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълим соҳасида сифат кўп қиррали концепция ҳисобланади. У таълим соҳасидаги барча функция ва фаолият турлари: ўқув ва академик дастурлар, илмий тадқиқот ва стипендиялар, мутахассис ходимлар билан тўлиқ таъминланганлик, таълим олувчилар, бинолар, моддий-техника базаси ва жиҳозларни, жамият ва академик муҳим фаровонлиги йўлидаги барча ишларни қамраб олиши керак.

Таълим хизматлари тизимини бошқаришда кадрларни касбий тайёрлаш таълим сифатининг асосий якуний сифатидир, бу қўйидагиларни ўз ичига олади:

-инсонлар: профессор-ўқитувчилар таркиби, таълим олувчилар, ўқув-ёрдамчи фаолият ходимлари, маъмурий ходимлар ва б.;

-технологиялар: педагогик, тарбиявий, информациявий, бошқарув, назорат қилувчи ва б.;

-моддий-техникавий таъминот: бинолар, жиҳозлар, лаборатория ва амалиёт базаси ва б.;

-меъёрий-ҳуқуқий ва ўқув-методик таъминот;

-рағбатлантиришлар ва асослар;

Ташқи таъсир омиллари: бозор иқтисодиёти талаблари, корхоналар, жамият ва давлат.

Таълим тизимининг юқорида келтирилган таркибий унсурлари устунлик қилувчи омиллар мажмуини белгилайди, булар таълим ва ходимларни касбий тайёрлаш сифатига таъсир этади.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш КОНЦЕПЦИЯСИ” тўғрисидаги ПФ-5847-сонли Фармони

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

³ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. 14- б.

Профессор-ўқитувчилар таркиби билан боғлиқ омиллар: касбий малака, психологик-педагогик тайёргарлик, маънавий-маърифат ва маданият, асослаш ва рағбатлантиришлар, таълим олувчилар билан ҳамкорлик даражаси. Ўзбекистон Республикасида таълим хизматлари кўрсатишда давлат асосий мавқега эгадир. Давлат таълим хизматлари асосий таклиф кўрсатувчи бўлса, талаб томонидан асосий истеъмолчи ўқишни истовчи ёшлар бўлиб ҳисобланади. Давлат таълим муассасаларида ҳам қўшимча равишда пуллик таълим хизматларини кўрсатилади. Бундан ташқари, субъектлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш вазифасини ҳам бажаради. Таълим тизимини ислоҳ қилишнинг учинчи босқичида вужудга келтирилган узлуксиз таълим тизимининг сифатини ошириш устувор вазифа бўлиб ҳисобланади. Давлат таълим хизматлари ва инсон капиталини шакллантиради. Инсон капитали мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг асосий омилларидан биридир. Шу туфайли инсон капиталининг шаклланишига катта аҳамият берилмоқда.

Давлат таълим стандарти (ДТС)да белгиланган омиллар- ўқув режалари ва фанлар дастурини, ўқув-методик таъминот, моддий-техникавий таъминот, малакавий амалиёт ва бошқалар таъсир этади.

Таълим хизматлари соҳасида вужудга келадиган иқтисодий муносабатлар ижтимоий-иқтисодий тавсифга эга бўлиб, улар кўпроқ даражада таълим хизматлари динамикасини аниқловчи омиллар билан боғлиқдир. Таълим хизматларини кўрсатувчи олий ўқув юртларининг ўқув дастурлари меҳнат бозори талабларига мос бўлиши, талабалар эса уни тўлиқ ўзлаштиришдан манфаатдор бўлишлари лозим. Таълим хизматларининг истеъмолчиси ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаси бўлиб ҳисобланади, улар ўртасидаги муносабатлар меҳнат бозори орқали амалга оширилади. Яхши меъёрий-ҳуқуқий асос-яхши ташкил этилган ўқув-тарбия жараёни ва уни бошқаришнинг асосидир.

Таълим, фан ва ишлаб чиқариш уйғунлашуви билан боғлиқ омиллар: ўқув жараёнида малакали мутахассислар, фан ва техниканинг замонавий моддий-техникавий базасидан фойдаланиш, уларнинг муаммоларини ҳал этишда иштирок этиш билан боғлиқ. Таълим, фан, ишлаб чиқаришнинг уйғунлашуви-рақобатбардош иқтисодиёт гаровидир.

Таълим муассасаси ва унинг бўлинмаларини ташкил этиш ва бошқариш билан боғлиқ омиллар: бошқариш тизими, бошқариш усули ва услуги, раҳбарнинг индивидуал, жамоавий-руҳий сифатлари. Бошқарув фаолияти ўз мазмун ва тавсифига кўра меҳнат жамоаси ҳаётида ахлий-тартибий аҳамият касб этади.

Бозор иқтисодиёти рақобат муҳити ва истикболлари белгилайдиган омиллар таъсир этади: корхона эҳтиёжи ва манфаатлари, меҳнатни моддий ва маънавий рағбатлантириш, ижтимоий муҳофаза.

Хулоса қилиб шуни айтиш жоизки, таълим ва ходимларни касбий тайёрлаш сифати муаммоларига тизимли ёндашиш зарур. Омиллар бутун мажмуини улар боғлиқлиги ва алоқадорлигида, бир занжирнинг ҳалқалари сифатида бошқариш зарур. Мазкур занжирдан бирор ҳалқа(омил) ёки ҳалқалар (омиллар)нинг тушиб қолиши таълим хизмати сифатини такомиллаштиришда узилиш содир бўлишига олиб келади. Шунинг учун омиллар мажмуини инновацион иқтисодиёт шаклланаётган бир шароитда, корхона, жамият ва давлат белгилайдиган талаб чегарасида тутиб туриш таълим хизматлари сифатини такомиллаштиришнинг асосий вазифаси ҳисобланади.

Султанова Нигина Уткуровна
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таянч докторанти
SULTANOVA-NIGINA@LIST.RU

ЧАКАНА САВДО ХИЗМАТ КўРСАТИШ КОРХОНАЛАРНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШДА КАДРЛАРНИНГ ЎРНИ

Кириш. Илмий-техника тараққиётининг миллий иқтисодиётларга таъсири кучайиши, интеграция жараёнлари, рақобатнинг ижтимоий фойдали фаолиятнинг янги соҳаларига тарқалиши ва унинг тобора кескин характерга эга бўлиши шароитида рақобатбардошлик жаҳон миқёсидаги ҳодисага айланди.

Республикамиз ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг ҳозирги босқичида ҳам тараққиёт стратегиясининг бош масаласи бўлиб, барқарор ва жадал суръатлар билан иқтисодий ўсишни таъминлаш ҳисобланади. Бу жараённинг асосини ташкил этувчи омиллар сифатида бир қатор

чакана савдо хизматлари корхоналари рақобатбардошлиги, инвестицияларнинг мақсадли шакллантирилиши ва улардан самарали фойдаланиш кабиларни ажратиб кўрсатиш мумкин.

Таҳлил ва натижалар. Чакана савдо корхонасининг рақобатбардошлиги кўп қиррали тушунча бўлиб, нафақат товарларнинг сифат ва нарх параметрларини ўз ичига олади, балки бошқарув даражасига, молиявий оқимларни бошқаришнинг мавжуд тизимига, унинг фаолиятининг инвестицион ва инновацион таркибий қисмларига ҳам боғлиқ. Бундан ташқари, рақобатбардошликка маълум бир бозорда ривожланаётган вазият, корхонанинг бозорнинг бошқа иштирокчиларига нисбатан рақобат даражаси, техник жиҳозлар, инновациялар даражаси, ходимларнинг мотивацияси ва малакаси, молиявий барқарорлик каби омиллар ҳам таъсир қилади.

Корхонанинг рақобатбардошлигини аниқлаш анча мураккаб жараён бўлиб, у ўз фаолиятини бозор шароитида амалга ошириш ва шу билан бирга ишлаб чиқаришни илмий-техникавий такомиллаштириш, ходимларни рағбатлантириш ва маҳсулот сифатини юқори даражада сақлаш учун етарли фойда олиш қобилиятини назарда тутати.

Савдо корхонасининг рақобатбардошлигини шакллантириш унинг рақобат устунликлари тизимига асосланади. Менежмент ва маркетинг соҳасидаги мутахассислар “рақобат устунликлари” тушунчасини турлича изоҳлайдилар. Бизнинг фикримизга кўра эса, “рақобат устунликлари” бу чакана савдо корхонаси ходимларининг ўзига хос фазилатлари ёки уларнинг комбинацияси бўлиб, маълум бир корхонанинг бошқа субъектларини вақт ичида мижозларга ўзаро таъсир қилиш бўйича ғалаба қозониш имконини беради. Ж.Ж.Ламбен рақобат устунликларини ички ва ташқи томонларга ажратади.¹ Ташқи рақобатдош устунлик маълум даражада корхонага боғлиқ, ички устунлик эса деярли тўлиқ корхона раҳбарияти томонидан белгиланади. Савдо корхонасининг ички муҳити шартлари корхона бошқарув тизими орқали тартибга солинади ва қуйидаги муваффақиятнинг асосий омилларини ўз ичига олади: жойлашув, логистика ва технология; ассортимент ва товар сиёсати; бозорда товарларни сотиш шаклларида фойдаланиш; нарх сиёсати; сотишдан олдинги ва кейинги хизматни ташкил этиш; бозорда товарларни илгари суришни ташкил этиш; ходимларни бошқариш; молиявий оқимларни бошқариш; фаолият кўламига сармоя киритиш; ахборот оқимини бошқариш.

В.Е.Ульченкова меҳнат, капитал ва технология каби ишлаб чиқаришнинг асосий омиллардан ташқари, замонавий даврда кадрлар салоҳиятини, илмий-техника тараққиётининг ривожланиш даражасини ҳам ҳисобга олиш муҳим деб ҳисоблайди.²

Чакана савдо корхоналари рақобатбардошлигининг ички омилларидан бири кадр омиллари бўлиб, у меҳнат потенциалини тавсифловчи компонентни ташкил қилади.

Рақобат курашида ғалабага фақат рақобат стратегияларининг самарадорлиги, менежернинг эришиш мумкин бўлган мақсадларни қўйиш қобилияти, компаниянинг барча соҳаларида янги ноанъанавий ечимларни излашни рағбатлантириш қобилияти туфайли эришиш мумкин.

Хулоса ва таклифлар. Замонавий шароитда номаълум харидорга тушунарсиз маҳсулотни таклиф қилиб, бозорда кўр-кўрона ҳаракат қилиш ҳеч қандай самара бермайди. Демак, маркетинг стратегияси муваффақиятнинг муҳим таркибий қисми бу инсон омили, яъни раҳбарнинг қобилияти ва маҳоратидир. Ушбу стратегияни амалга оширишнинг икки босқичи мавжуд:

- рақобатчилардан фарқлаш стратегияси;
- мижозларга эътибор қаратиш стратегияси.

Чакана савдо хизмати мураккаб жараён бўлиб, савдо ходимлари томонидан қуйидаги гуруҳларга бирлаштирилган алоҳида хизмат турлари амалга оширилса мақсадга мувофиқ бўлади:

1) маҳсулотларни сотишдан олдин тайёрлаш; кенг ассортиментни шакллантириш; товарларни истеъмолчиларга намойиш қилиш; маҳсулотларни қабул қилиш, сақлаш ва жойлаштириш; товарларнинг чакана савдоси; истеъмолчи билан ҳисоб-китобларни амалга ошириш;

2) харид қилиш вақтида харидорларга танловда ёрдам бериш; телефон орқали буюртмаларни қабул қилиш ва қайта ишлаш; товарларни етказиб бериш; товарларни кредитга сотиш; сотувдан кейинги мижозларга хизмат кўрсатиш (масалан, мижознинг уйида техник жиҳатдан мураккаб товарларни ўрнатиш, мебел йиғиш ва бошқалар);

¹ Ламбен Ж.Ж. *Стратегический маркетинг. Европейская перспектива*. СПб: Наука. 2000. 589 с.

² Ульченкова В. Э. Влияние инновационных факторов на темпы экономического роста России [Текст]: автореф. дисс. канд. экон. наук: 08.00.01/ В.Э. Ульченкова. - Москва, 2007.—27 с.

3) истеъмол товарлари, уларнинг ишлаб чиқарувчилари ва техник хусусиятлари, дўконлар томонидан кўрсатиладиган қўшимча хизматлар ҳақида харидорларни хабардор қилиш ва маслаҳат бериш; реклама тадбирлари: товарларни намойиш қилиш;

4) истеъмолчиларга қўшимча қулайликлар тақлиф қилиш; харидорларнинг дам олиш жойларини шакллантириш; она ва бола хонаси хизматлари; сотиб олинган товарларни сақлашга қабул қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ламбен Ж.Ж. Стратегический маркетинг. Европейская перспектива. СПб: Наука. 2000. 589 с.
2. Ульченкова В. Э. Влияние инновационных факторов на темпы экономического роста России [Текст]: автореф. дисс. канд. экон. наук: 08.00.01/ В.Э. Ульченкова . - Москва, 2007.—27 с.
3. Райс Джонстон У. Тактический менеджмент [Текст] / У. Райс Джонстон. – пер. с англ. под ред. Л.Н. Ковалик. – СПб: Питер, 2001. – 672 с.
4. Попов С.А. Стратегическое управление: 17 - модульная программа для менеджеров "Управление развитием организации". Модуль 4 [Текст] / С.А. Попов. – М.: Инфра-М, 2000. – 304 с.
5. Курочкин А.С. Операционный менеджмент [Текст] / А.С. Курочкин // Межрегиональная академия управления персоналом. – К.: МАУП, 2000. – 144 с.

О‘rinova Durдона Botir qizi
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich
UrDU “Iqtisodiyot” fakulteti “Turizm va mehmonxona
xo‘jaligini boshqarish” kafedrasini o‘qituvchilari
e-mail: durdona.u@urdu.uz
e-mail: shuhrat.qurbanbayev@mail.ru

TURIZM TA'LIMI SIFATINI OSHIRISH BO'YICHA RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH


Bugungi kunda O‘zbekistonda ijtimoiy soha rivojlanishi, aholining real daromadlari oshishi, xalq faravonligi uchun katta islohatlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun oliy ta’limni o‘rni katta ekanini alohida ta’kidlagan va O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Jumladan, kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish, “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan professor-o‘qituvchilarning Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarida stajirovka o‘tashi belgilangan¹. Shuningdek, bu borada oliy ta’lim muassasalaridan ham o‘ziga xos islohotlarni amalga oshirish talab qilinadi. Bunda esa xalqaro tajribalarni o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Davlatning turizm ta’limida tutgan o‘rni beqiyos hisoblanadi. Davlat va tadbirkorlik subyektlari sifatli kadrlarni tayyorlashda hamkorlikda ishlashlari lozim². Tadbirkorlik subyektlari turizm sohasidagi kadrlarni asosiy iste’molchisi hisoblanadi va sifatli kadr ta’minotidan eng ko‘p manfaat oluvchi tomon deyishimiz mumkin. Kadrlar ta’minotchisi esa oliy ta’lim maskanlaridir. Shuning uchun davlat, tadbirkorlik subyektlari va oliy ta’lim hamkorlikda ishlashlari natijasida sifatli kadr tayyorlash imkoni mavjud. Buni amalga oshirish uchun quyidagi PEP tizimidan (public, education, private) yani davlat, oliy ta’lim va tadbirkorlik subyektlari hamkorlikidan foydalaniladi³ (1-rasm).

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son

² Aleksandra Vujko and Tamara Gajić (2014) The government policy impact on economic development of tourism: Review Economics of Agriculture 3/2014 UDC: 35.073.1:338.48

³ Astrid Dickinger and Karl Wöber (August 2009) Designing the Ideal Undergraduate Program in Tourism: Expectations from Industry and Educators: Journal of Travel Research



1-rasm. PEP stukturasi¹

Bunday turdagi tizimni foydali ishlashi uchun tamonlarni o'zlarini bajarishi kerak bo'lgan majburiyatlari va xuquqlarini bilishlari kerak bo'ladi. Sifatli kadr ta'minoti universitetlar tomonidan ta'minlansa ham unga bo'lgan asosiy ehtiyoj ish beruvchilar tomonidan bo'ladi², ya'ni davlat va xususiy tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Turizm sohasi bo'yicha esa davlat yaratayotgan ish o'rinlariga nisbatan tadbirkorlik subyektlarini ulushi juda katta, shuning uchun tadbirkorlik subyektlarni ishchiga bo'lgan talablari kadrlar tayyorlashda muhim hisoblanadi. 1-jadvalda turizm sohasida sifatli kadr tayyorlash uchun tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan.

1-jadval

Turizm sohasi uchun PEP tizimi asosida belgilangan vazifalar³

Tashkilotlar	Vazifalar
Davlat	<ul style="list-style-type: none"> - oliy talim muassasalariga moddiy va ilmiy mustaqillik berish; - professor-o'qituvchilarni rivojlangan davlatlarida stajirovka o'tashi uchun moddiy ta'minotga ko'maklashish; - tadbirkorlik subyektlari talablari asosida ta'lim yo'nalishlarini tashkil etish; - chet tillarni o'rganishni rag'batlantirish uchun subsidiyalar taqdim etish; - turizm fanlarini chuqurroq o'rganishni rag'batlantirish uchun fan olimpiyadalari o'tkazishni moddiy va moliyaviy tashkillashtirishga ko'maklashish; - turizm sohasi bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlarni sharhini universitetlarda keng targ'ib qilish;
Oliy ta'lim	<ul style="list-style-type: none"> - sifatli ta'limni tashkil etish; - professor-o'qituvchilar uchun ish sharoitni sifatli tashkil etish; - kadrlarga bo'lgan talabni o'rganish va ish beruvchilarni talabidan kelib chiqqan holda fan dasturlarini yaratish va shular asosida o'qitishni tashkil etish; - kadrlar sifatini oshirish uchun tadbirkorlik subyektlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish; - omadli va yuqori muvoffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan talabalar o'rtasida uchrashuvlar tashkil etish; - tadbirkorlarni qiynayotgan muammolar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish va yechimlar taklif qilish;
Tadbirkorlik subyektlari	<ul style="list-style-type: none"> - biznesni rivojini sifatli kadrlar belgilashini tushunish; - oliy ta'lim muassasalariga kadrlarni sifatli tayyorlash bo'yicha takliflarni berish; - oliy ta'lim bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

¹ Astrid Dickinger and Karl Wöber (August 2009) Designing the Ideal Undergraduate Program in Tourism: Expectations from Industry and Educators: Journal of Travel Research asosida muallif ishlanmasi.

² Wallace B. Donham (May, 1935) The Relationship of Business Education to Government and Industry: The Journal of Educational Sociology

³ Manbaa muallif ishlanmasi

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlashda, davlat, oliy ta'lim muassasalari va tadbirkorlik sub'ektlarining o'zaro integratsiyalashuvi muhim zaruriyat hisoblanadi. Shuningdek, fan, ta'lim va ishlab chiqarishni o'zaro uyg'unlashuvi asosida, PEP tuzilmasidagi belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi, turizm sohasida kadrlar sifatini ta'minlashining muhim garovi hisoblanadi.

Уразов Садулла Шодиевич

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти,
“Менежмент” кафедраси доктаранти,
e-mail: urazov.sadulla28@gmail.com

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАЛАРИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Иқтисодиёт соҳаларига инновацион омилларни жалб қилиш натижасида, дунё аҳолисининг соҳалар бўйича бандлиги ҳам шаклланиб, йилдан йилга ўзгариш тенденцияларига эга бўлиб бормоқда. Тадқиқотларимиз кўрсатмоқдаки, дунё аҳолисининг 26,3 фоизи ёшлардан иборат. Шунини алоҳида қайд этиш жоизки, дунё миқёсида хизмат кўрсатиш соҳасида банд бўлган аҳолининг сони энг юқори бўлиб, 2022 йил бошига 23,5 фоизни ташкил қилмоқда. Иқтисодий-ижтимоий ҳаётнинг риводланиши ва такомиллашуви натижасида аста-секинлик билан мазкур соҳанинг улуши янада ўсиб бориши кузатилади. Бандлик бўйича иккинчи ўринда қишлоқ хўжалиги ташкил қилмоқда. Унинг улуши жорий йилда 19,4 фоизни ташкил қилади.

Шунини алоҳида қайд этиш жоизки, дунё аҳолисининг озиқ-овқат билан таъминланиши, айрим саноат корхоналарининг хомашё билан таъминланиши ҳам бевосита қишлоқ хўжалигига боғлиқ. Шу туфайли ушбу соҳада банд ходимлар сони сақланиб қолади. Бироқ, мазкур соҳага инновацион технологияларни ва ғояларни жалб қилиш натижасида ҳозирги ҳажмдан ҳам кўпроқ қишлоқ хўжалик маҳсулотини камроқ иш кучи билан ҳам етказиб бериш мумкин. Шу туфайли мазкур соҳада банд аҳолининг дунё аҳолиси таркибида улуши секинлик билан камайиб бориши ҳам мумкин.

Дунё миқёсида ёши катталарнинг улуши ошиб бормоқда. 2015 йилда уларнинг улуши 7,9 фоизни ташкил қилган бўлса, бугунги кунга келиб, мазкур кўрсаткич миқдори 8,1 фоизга етди. Бу дунё аҳолисининг соғлом турмуш тарзига ўтиши муносабати билан кўпайиб бориш тенденциясига эга бўлади.

Бугунги кунда ишсизлар сони дунё миқёсида 6,0 фоизни ташкил қилади. Ушбу даража узок йиллардан буён сақланиб келмоқда. Аммо охириги пайтларда камайиш тенденциясига ҳам эга бўлмоқда. Дунё аҳолисининг бандлигини ташкил қиладиган аҳоли қатлами асосан тадбиркорлар бўлиши лозим. Аммо ҳозирги кунда уларнинг улуши барча банд аҳоли таркибида атиги 5,5 фоизни ташкил қилади. Жамият ривожланиши билан ушбу кўрсаткич миқдори ҳам ошиб бориши лозим.

Қишлоқларга саноатни киритиб, уларни шаҳарга айланттириш керак

Дунё аҳолисининг қитъалардаги жойлашуви бўйича қарайдиган бўлсак, аҳолининг асосий қисми Осиё мамлакатларида жойлашган. Яъни, 60 фоиз, ёки 4,7 млрд. киши Осиёда яшар экан. Ушбу ҳудудда асосан мусулмон динига мансуб аҳоли яшайди. Бу минтақада аҳоли сонининг кўпайиши кузатилмоқда. Шу туфайли келажакда ҳам мазкур ҳудуд аҳолиси сони ошиб боради. Худди шундай ҳолат Африка қитъасида ҳам рўй бериши мумкин. Аммо бу қитъада яшайдиган аҳолининг иқтисодий аҳоли етарли даражада эмас. Бу ерда туғилиш кўп бўлгани билан, болалар ўлими кўплиги туфайли аҳолининг кескин ўсиши кузатилмаслиги табиий. Қолган қитъаларда аҳолининг оз миқдорда ўсиши эвазига уларнинг умумий аҳоли сони камайиш рўй бериши тайин.

Ҳозирги пайтда глобал миқёсда аҳолининг шаҳарларда яшаши кўпайиб бормоқда. Йигирманчи асрда аҳолининг асосий қисми тарихан қишлоқларда яшаган бўлса, бугунги кунга келиб уларнинг улуши бирмунча камайди ва шаҳар аҳолиси кўпчиликни ташкил қилмоқда. Бугунги кунда шаҳар аҳолиси дунё аҳолисининг 51 фоизини ёки 4 млрд. нафарини ташкил қилмоқда. Қишлоқ аҳолиси мос равишда 49 фоизни ёки 3,8 млрд. кишини ташкил қилмоқда. Шунини эътироф этиш жоизки, ривожланган мамлакатларда шаҳар аҳолисининг улуши катта. БМТнинг ҳисоботи бўйича келажакда аҳоли сони ўсиши шаҳар аҳолиси ўсиши ҳисобига юз беради.

“2030 йилда шаҳарлар аҳолиси умумий аҳолининг 60 фоизини, 2050 йилда 68 фоизини ташкил қилади”¹. Ўзбекистонда шаҳар аҳолисининг улуши 50,6 фоизни, қишлоқ аҳолиси эса 49,4 фоизни ташкил қилади². Аммо Самарқанд вилоятида шаҳар аҳолисининг улуши 36,9 фоизни, қишлоқ аҳолиси 63,1 фоизни ташкил қилмоқда³. Демак, вилоятнинг кўпчилиги қисми қишлоқларда истиқомат қилади. Қишлоқда яшовчи болаларнинг сони 5,47 млн.ни ташкил қилиб, уларнинг улуши 53,7 фоизни ташкил қилади. Мос равишда шаҳарда яшовчиларнинг сони 4,71 млн.ни ташкил қилади ва уларнинг улуши 46,3 фоизга тенг. Бундан кўриниб турибдики, келажакда ҳам вилоятда қишлоқ аҳолиси кўпчилиги ташкил қилади.

Мазкур ҳолат келажакда шаҳар аҳолисининг кўпайишини тақозо қилади. Аммо бу ўзимизнинг хусусиятларимиздан келиб чиқиб, қишлоқдан шаҳарга кўчиб келиш эвазига эмас, қишлоқларга саноатни киритиб, уларни шаҳарга айлантириш эвазига шаҳар аҳолисини кўпайтириш мақсадга мувофиқ.

Миллий иқтисодиёт барқарорлиги

Таъкидлаш жоизки, Тараққиёт стратегиясида бошқа устувор вазифалар билан бир қаторда, миллий иқтисодиёт барқарорлигини таъминлаш, иқтисодиёт тармоқларининг барқарор ўсишига эришиш, рақамли иқтисодиётни драйвер соҳага айлантириш, инвестиция муҳитини яхшилаш, молиявий ресурсларни кўпайтириш, тадбиркорликни ривожлантириш, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан юксалтириш, экспорт салоҳиятини ошириш чоралари кўзда тутилган.

Шу билан бирга, мамлакатда иқтисодиётнинг барча тармоқлари, жумладан, энергетика, саноат, машинасозлик, тоғ-кон саноати, қишлоқ хўжалиги кабиларда барқарор юқори ўсиш суръатларини таъминлаш ҳисобига келгуси беш йилда аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулотни 1,6 баробар ошириш, 2030 йилга бориб, аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромадни 4 000 долларга етказиш мақсад қилинган. Яна бир асосий мақсад, бу макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш соҳасида йиллик инфляция даражасини 2023 йилгача 5 фоизга босқичма-босқич пасайтиришдан иборат. Ўз навбатида, инфляция даражасини 2022 йилда 9 фоизгача, давлат бюджети тақчиллигини эса ЯИМга нисбатан 3 фоизга пасайтириш кўзда тутилмоқда.

Саноат сиёсатида белгиланган ислохотларга эътибор қаратадиган бўлсак, Ўзбекистон бундан буён миллий иқтисодиётнинг барқарорлигини таъминлаш ва саноатдаги ишлаб чиқариш ҳажмини 40 фоизга ошириш орқали ялпи ички маҳсулотда саноат улушини оширишда давом этишини кўришимиз мумкин. Тўғри, бу осон иш эмас. Лекин, бунинг учун сермаҳсул тармоқлар белгиланган бўлиб, ҳар бири ўзининг мақсадли кўрсаткичларига эга. Хусусан, олтин ишлаб чиқариш ҳажмини 26 фоизга, кумуш ишлаб чиқаришни 42 фоизга ошириш, мис ва қора металлдан тайёрланган маҳсулотларни ишлаб чиқаришни 2 баробарга кўпайтириш мақсадида металлургияда йирик инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш шулар жумласига киради. Шунингдек, кимё саноатида ишлаб чиқарилган маҳсулотлар ҳажми кимё ва геокимёвий саноатни ривожлантириш ва табиий газни қайта ишлаш даражасини 8 фоиздан 20 фоизгача етказиш ҳисобига 2 миллиард АҚШ долларини ташкил этади. Бундан ташқари, келгуси беш йилда қурилиш материаллари ва тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқаришни 2 баравар, чарм-пойабзал маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмини 3 баравар, фармацевтика маҳсулотларини ишлаб чиқаришни 3 баравар, электротехника саноатида юқори қийматли маҳсулотлар ишлаб чиқаришни 2 баравар, экспорт ҳажмини 3 баравар, мебель ишлаб чиқариш ҳажмини 2,8 бараварга ошириш кўзда тутилган. Дунё миқёсидаги глобал муаммолардан бири дунё аҳолисининг овқатланиш даражаси билан боғлиқ. “БМТ бош котибининг биринчи ўринбосари Амина Муҳаммаднинг маълум қилишича, охириги 25 йилда ўта ночор шароитда яшовчи одамлар сони анча қисқарган, оналар ўлими кўлами 40 фоизга пасайган, одамлар умр кўриши давомийлиги анча ошган”⁴. Ночор аҳоли қатлами барча муаммолар билан биргаликда тўйиб овқатланиш имкониятига ҳам тўлиқ эга эмас. Дунё аҳолисининг 21фоизи кўп овқат ейдиганлар категориясига кирар экан. Бу 1,6 млрд. кишини ташкил қилади. Дунё аҳолисининг 63 фоизи (4,9 млрд.) қанча хоҳласа, шунча ейиш имкониятига эга аҳоли қатламини ташкил қилади. Аммо 1,3 млрд. нафар аҳоли тўйиб овқатланиш имкониятига эга эмас. Уларнинг аксарият қисми очарчиликдан азият чекмоқда. Бундай шароитда айрим мамлакатларда кўплаб озиқ-овқат маҳсулотлари исроф бўлмоқда.

¹ <https://kun.uz/news/2019/04/02/bmt-sayyoramiz-aholisi-sonini-malum-qildi>

² <https://kun.uz/news/2018/01/15/uzbekiston-doimij-aolisi-soni-malum-kilindi>

³ @Zarnews_uz

⁴ <https://kun.uz/news/2019/04/02/bmt-sayyoramiz-aholisi-sonini-malum-qildi>

Озиқ-овқат хавфсизлиги

Дунё миқёсида озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш учун унинг истеъмолини меъёрлаштиришга, тежамкорликка амал қилишга киришиш ва бу масалага катта аҳамият бериш лозим. “Бугунги кунда биргина Ўзбекистонда ҳар йили 3 миллион тонна озиқ-овқат маҳсулотлари чиқиндига айланмоқда. Тошкент шаҳрида ҳар куни 2 тоннага, йилига 730 тоннага яқин нон маҳсулоти чиқиндига ташланади. 2019 йилда дунёда 1,64 миллиард тонна озиқ-овқат чиқиндига айланган. Қайд этилишича, йўқотилаётган озиқ-овқат маҳсулотларининг фақатгина 25 фоизи бутун дунёдаги очлик муаммосини тўлиқ ҳал қилиши мумкин”¹.

Шуни эътироф этиш жоизки, дунё аҳолисининг 48 фоизи ёки 3,7 млрд. нафари озиқ-овқатдан муаммоси бўлмасада, камбағаллик даражасида истиқомат қилади. Агар халқаро меъёрлар асосда қарайдиган бўлсак, дунё аҳолисининг 2022 йил 1 январь ҳолатига бир суткада истеъмол даражаси 2 АҚШ долларида кам бўлган камбағаллик чегарасидаги аҳоли сони 3,7 млрд. кишини ёки умумий аҳолининг 48 фоизини ташкил қилади. Бу камбағаллик чегарасидаги аҳоли қатлами ҳисобланади. Бир суткада яшаш даражаси 2 АҚШ долларида кўп бўлган, камбағаллик чегарасидан чиқиб яшаётган аҳоли 4,1 млрд кишини ёки дунё аҳолисининг 52 фоизини ташкил қилади. Камбағаллик чегарасидан чиқаётган аҳолининг улуши йилдан-йилга ошиб бормоқда. Аммо камбағаллик чегарасидаги аҳоли қатламининг улуши кўплигича қолмоқда.

Бу ҳолатларга қўшимча тарзда бугунги кунда экологик муаммолар кундан-кунга кўпайиб бормоқда. Юзага келган демографик тенденциялар аҳолининг жадал кўпайишига олиб келмоқда. Аҳолининг дунё миқёсида кекса ёшдагилар улушининг ошиши ва урбанизация жараёнлари жиддий экологик, иқтисодий ва ижтимоий муаммолар келтириб чиқараяпти. Булар бир томондан тараққиётнинг янги имкониятлар очаётган бўлса, иккинчи томондан турли муаммоларни кўндаланг қилиб қўймоқда. Хусусан, аҳоли сонининг ўсиши шу асосда иқтисодий ўсишга эришиш, ишлаб чиқариш ва истеъмол кўламининг ошишини тақозо қилади. Бу эса ўз навбатида, атроф-муҳитнинг ифлосланиши, ичимлик суви танқислиги муаммоси билан боғлиқ. Тоза ичимлик сувини истеъмол қиладиган аҳоли сони дунё аҳолисининг 87 фоизини ёки 6,8 млрд. кишини ташкил қилади. Шунингдек, тоза ичимлик суви истеъмол қилиш имкониятига эга бўлмаган аҳолининг сони ҳам кам эмас. Улар 1млрд. кишидан иборат бўлиб, дунё аҳолисининг 13 фоизини ташкил қилмоқда.

Кўчада яшаётган одамлар

Дунё аҳолисига назар ташлайдиган бўлсак, аҳолининг фаровонлигини таъминлаш билан боғлиқ айрим муаммолар ҳамон сақланиб қолмоқда. Булардан бири – ўз имкониятларини инобатга олмаган ҳолда исталмаган ҳомиладорликлар кўплигида намоён бўлмоқда. DSW мутахассисларининг таъкидлашича, аҳоли ўсишининг жадал давом этаётгани сабабларидан бири – исталмаган ҳомиладорликлар кўплиги ҳисобланади. Чунки кўплаб ҳудудларда, айниқса учинчи давлатларда аёллар ва қизларнинг эрки ўзида эмас. Таъкидланишича, дунёдаги ҳар бешинчи ҳомиладорликдан иккитаси исталмаган ҳисобланади. “DSW маълумотларига кўра, бу борада оғир вазият Африканинг Саҳрои Кабирдан жанубидаги ҳудудда юзага келган. Бу ерда охириги йилларда туғруқ даражаси камайганига қарамай, ҳамон бир аёлга ўртача 4,4 бола тўғри келади, ваҳоланки, дунё бўйича бу кўрсаткич 2,4 болани ташкил қилади. БМТ маълумотларига кўра, бунинг натижасида ушбу минтақа аҳолиси сони 2050 йилга келиб ҳозирги 1,3 млрд. кишидан 2,5 млрд. кишига етади”².

Бундай кескин ва асосиз кўпайишлар бир қатор муаммоларни келтириб чиқаради. Дунё аҳолисининг бир қисми ҳамон ўз уйига ҳам эга эмас. Ўзларининг уйларида яшайдиган аҳоли сони 6 млрд. кишини ёки дунё аҳолисининг 77 фоизни ташкил қилса, ўз уйига эга бўлмаган аҳоли сони 1,8 млрд. кишига ёки дунё аҳолисининг 23 фоизига тенг. Тадқиқот натижаларидан шундай хулоса қилиш мумкинки, дунё миқёсида аҳолининг сони кўпайиб бормоқда. Бу бир қанча ижобий ҳолатлар билан бирга глобал муаммоларни ҳам келтириб чиқаради.

Биринчидан, ҳозирги пайтда дунё миқёсида аҳоли сони ўсиши, унинг қариши, туғиш даражаси пасайиши ҳамда жадал урбанизация билан бирга кечмоқда. Дунё аҳолисининг 1/4 қисмидан ортиқроғи ёшлардан иборат. Уларга ёши катталарни қўшиб ҳисобласа, 1/3 қисмдан кўпроқни ташкил қилади. Агар буларга ишсизларни ҳам қўшиб ҳисоблайдиган бўлсак, дунё аҳолисининг 40,4 фоизи (26,3+8,1+6,0) фақат истеъмолчи ролида эканлигини кўриш мумкин.

¹ https://t.me/Kun_Xabarlari_official | <https://t.me/+aNpbAuWpwxw2YjRi>

² <https://kun.uz/news/2019/04/02/bmt-sayyoramiz-aholisi-sonini-malum-qildi>

Иккинчидан, моддий неъмат ишлаб чиқариш билан дунё аҳолисининг 36,1 фоизи (19,4 кишлоқ хўжалиги +11,2 саноат +5,5 тадбиркорлик) шуғулланади холос. Дунё миқёсида хизмат кўрсатиш соҳасида банд бўлган аҳолининг сони энг юқори бўлиб, таҳлил даврига 23,5 фоизни ташкил қилмоқда. Иқтисодий-ижтимоий ҳаётнинг ривожланиши ва такомиллашуви натижасида аста-секинлик билан мазкур соҳанинг улуши янада ўсиб бориши кузатилади.

Учинчидан, алоҳида бандлик бўйича иккинчи ўринда кишлоқ хўжалиги ташкил қилмоқда. Унинг улуши 19,4 фоизни ташкил қилади. Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, дунё аҳолисининг озиқ-овқат билан таъминланиши, айрим саноат корхоналарининг хомашё билан таъминланиши ҳам кишлоқ хўжалигига боғлиқлиги инобатга олинса, мазкур соҳани янада ривожлантириш лозим бўлади. Фикримизча, ушбу соҳада банд ходимлар сони сақланиб қолади. Бироқ, мазкур соҳага инновацион технологияларни ва ғояларни жалб қилиш натижасида ҳозирги ҳажмдан ҳам кўпроқ кишлоқ хўжалик маҳсулотини камроқ иш кучи билан етказиб беришга эришиш йўллари кўриш лозим бўлади. Зеро, мазкур соҳада банд аҳолининг дунё аҳолиси таркибида улуши секинлик билан камайиб бориши ҳам мумкин.

Тўртинчидан, йигирманчи асрда аҳолининг асосий қисми кишлоқларда яшаган бўлса, бугунги кунга келиб, уларнинг улуши бирмунча камайиб, шаҳар аҳолиси кўпчиликни ташкил қилмоқда. Ҳозирги пайтда дунё аҳолисининг 51 фоизи ёки 4 млрд. нафари шаҳарда, кишлоқда эса 49 фоиз ёки 3,8 млрд. кишини яшамоқда. Шуни эътироф этиш жоизки, БМТнинг ҳисоботи бўйича, келажакда аҳоли ўсиши шаҳар аҳолиси ҳисобига юз беради. 2030 йилда шаҳарлар аҳолиси умумий аҳолининг 60 фоизини, 2050 йилда 68 фоизини ташкил қилиши тахмин қилинмоқда. Ўзбекистонда шаҳар аҳолисининг улуши 50,6 фоизни, кишлоқ аҳолиси эса 49,4 фоизни ташкил қилмоқда.

Башарият доимий ўзгаришда, янгиланишда

Умуман олганда, даврларнинг ўтиши, замонларнинг алмашиши натижасида дунё, коинот, табиат, инсоният ва бутун башарият доимий ўзгаришда, янгиланишда давом этиб келмоқда. Ҳозирги кунда дунё миқёсида ҳар куни қандайдир бир янгилликлар юзага келмоқда, дунёнинг иқтисодий-ижтимоий ҳаётида жадал ривожланиш босқичлари кузатилмоқда. Шу билан бирга, интеграция ва глобаллашув жараёни ҳам ўзининг ижобий ва салбий омиллари билан тезлашиб бормоқда. Бундай шароитда ҳар бир мамлакат дунё майдонида ўзининг эзгу-мақсадларига эришмоқ учун муттасил олдинга интилиши, ҳаётни ва тафаккурни ислоҳ қилиши, янгиланиш, яратувчанлик руҳи билан яшашга одатланиши лозим. Айнан Янги Ўзбекистонни барпо қилиш, учинчи Ренессанс талаблари дунё миқёсида оламшумул ютуқларни қўлга киритишни тақозо қилади. Бу борада мамлакатимизда улкан вазифаларни бажариш йўлида кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. – 464 бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги № ПФ-60 сонли Фармони.
3. Ускинова З.. Жаҳон мамлакатлари. – Т.: Адабиёт учқунлари. 2015.
4. Раҳматов Лазиз. Дунё мамлакатлари: Австралиядан Ҳиндистонгача. – Т.: “Yangi kitob” 2019. – 848 бет.

Абдувоҳидов Абдумалик Маҳкамович
Иқтисод фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
abdumalik1957@mfil.ru

ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШ – ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Бугунги кунда жаҳоннинг етакчи мамлакатларида рақамли технология иқтисодиётнинг ажралмас қисми сифатида давлат томонидан мунтазам равишда қўллаб-қувватланмоқда. Мамлакатимизда ҳам ялпи ички маҳсулот таркибида инновацияларнинг улушини оширишда, рақобатбардош дифференсация қилинган сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқаришда ва аҳолига хизмат кўрсатиш сифатини оширишда рақамли иқтисодиёт муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Рақамли технологияларнинг ривожланишида, энг аввало, давлат ва хўжалик органлари, маҳаллий давлат органлари жойларда ахборот тизимлари ва ресурсларини, дастурий таъминот ва электрон хизматларни жорий қилинишини аниқлаб олиш керак. Интернетнинг миллий сегментини, рақамли медиа-контентни ташкилий, моддий-техник ва иқтисодий қўллаб-қувватлаш орқали ривожлантириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш, хавфсиз ва «ақлли шаҳар» учун «ақлли тизим»ларни ишлаб чиқиш, малакали кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш [1] муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ушбу мавзу жуда кенг қамровли бўлиб, у кўпгина олимлар томонидан ўрганилган. Жумладан, Watanabe, Chihiro & Naveed, Kashif & Tou, Yuji & Neittaanmäki, Пеккалар томонидан ушбу мавзу турли илмий ишларда чуқур таҳлил қилинган. Муаллифларнинг “Measuring GDP in the digital economy: Increasing dependence on uncaptured GDP” [2] номли мақоласида таҳлил олиб борилган. Watanabe, Chihiro & Tou, Yuji & Neittaanmäki, Пеккаларнинг «A new paradox of the digital economy – Structural sources of the limitation of GDP statistics» [3] номли мақоласида эса «интернет бизни мисли кўрилмаган хизматлар ва қулайликлар билан таъминлаган ҳолда бизнесни ва кундалик ҳаётимизни тубдан ўзгартирди. Gasparyiene, Ligita & Remeikiene, Риталарнинг «Economic and Demographic Characteristics of the Subjects, Operating in Digital Shadow Economy» [4] номли мақоласи рақамли иқтисодиётда фаолият юритувчи субъектларнинг иқтисодий ва демографик хусусиятларини назарий ва эмпирик аниқлашга қаратилган.

Бугунги кунда республикамиз АКТ соҳасидаги энг жадал ривожланаётган мамлакат сифатида тан олинган. 2017 йилда Халқаро Электр алоқа иттифоқи маълумотларига кўра, 2016 йил билан таққосланганда мамлакатимиз АКТни ривожланиш индекси бўйича саккиз поғонага кўтарилиб, 95 ўринни эгаллади. 2016 йилда республика ЯИМда АКТ секторининг улуши 2,6 % ни ташкил этди. АКТ таркибида юқори улуш хизматлар соҳасига тўғри келади.

Мамлакат иқтисодиётида алоқа ва ахборотлаштиришнинг улуши телекоммуникация тармоғига аҳолининг техник имкониятларини таъминлаш, уларнинг асосида сифатли хизмат кўрсатиш, рақамли телефон алоқа ва телевидение тизимларга тўлиқ ўтиш орқали эришилади. «Ахборот ва алоқа» иқтисодий фаолиятнинг бир тури сифатида Ўзбекистон Ресубликаси ЯИМнинг 2,5 % ни ташкил этади.

2017 йилда алоқа хизматлари ҳажми 7168,1 млрд. сўмни ташкил этиб, 2016 йилга нисбатан 28,5 % га ўсди (амалдаги нархларда). Энг катта ҳажм мобил алоқа хизматлари (3881,0 млрд. сўм); маълумотлар узатиш тармоғи, шу жумладан Интернет (1808,8 млрд. сўм); шаҳарлараро, халқаро телефон алоқаси хизматлари (911,1 млрд. сўм) эгаллайди.

Алоқа хизматларининг умумий ҳажмида аҳолига кўрсатилган хизматлар улуши 71,2% ни ташкил этди. 2017 йилда аҳолига кўрсатилган алоқа хизматлари ҳажми 5104,7 млрд. сўмни ташкил этди, 2016 йилга нисбатан эса бу кўрсаткич 25,1% га (амалдаги нархларда) ошди.

Тадқиқот давомида ЯИМнинг ўсишига мобил алоқа абонентлари сони ва илмий-техника харажатларига ажратмаларнинг ўсиши регрессион таҳлил қилинди. Ушбу таҳлил регрессия усулида бўлиб, 2000-2016 йиллардаги мамлакатимизнинг кўрсаткичларини ўз ичига олган.

Кўп корреляция коэффиценти R (бир нечта R) R квадратининг ижобий квадрат илдизидир (кўп ўлчов коэффиценти, Қолдиқ тарқалиши ва R квадратини аниқлаш коэффиценти). Ушбу статистикалар ўзгарувчан регрессияни (яъни, бир нечта мустақил ўзгарувчини кўллаш) амалга ошираётганда ўзгарувчилар ўртасидаги муносабатни тавсифлашда фойдалидир.

Кўп корреляция коэффиценти қарам ва ўзгармас ўртасидаги муносабатларнинг яқинлигини тавсифлайди. 0 дан 1 га фарқ қилади. Бизнинг статистик таҳлилимизда корреляция коэффицети 0,59 ни ташкил этди. Кўп корреляция коэффицентининг аҳамияти Фишер F -тест столида тасдиқланган.

Бизнинг таҳлилларида F 0,09 ни ташкил этади. Бу кузатилган ўзгарувчилар ва ўзгармас ўртасидаги боғлиқлик жуда заифлигидан далолат беради. Яъни, илмий-техника харажатларининг ЯИМ ўзгаришидаги таъсири пастлигидандир. Бунга асосий сабаб мамлакатимизда рақамли иқтисодиётнинг ривожланишига тўсқинлик қилаётган қуйидаги муаммоларнинг мавжудлигидир: мамлакатда интернет тезлигининг юқори эмаслиги; масофавий хизматларга нисбатан аҳоли ишончининг пастлиги (қоғоз қитанциялар ва бошқа шунга ўхшаш хужжатларга ўрганиб қолганлиги); аҳоли малака даражасининг рақамли тизимга ўтишга тайёр эмаслиги ва бошқалар.

Юқоридаги муаммоларни ечиш мақсадида қуйидаги ишларни амалга ошириш зарур деб ҳисоблаймиз:

Биринчидан, «Рақамли иқтисодиётга ўтиш тўғрисида»ги Давлат дастурини қабул қилиш лозим.

Иккинчидан, аҳолининг барча қатламлари учун рақамли тизимдан фойдаланиш дастурини ишлаб чиқиш лозим.

Учинчидан, мамлакатимиз иқтисодиёти учун муҳим бўлган ишлаб чиқариш ҳамда инновацион фаолиятнинг давлат бюджетидан молиялаштириш ҳажми ошириш керак.

Тўртинчидан, рақамли технологияларнинг ҳаёт тарзига айланишининг давлат томонидан қўллаб-қувватланиши, хизмат кўрсатиш ҳамда ишлаб чиқариш тизимида рақамли технологиялар фаол қўлланилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Lex.uz (2018). Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On Measures for Further Improvement in the Area of Information Technologies and Communications" of February 18, 2018 № 5349 [Electronic resource]: www.lex.uz Watanabe, Chihiro & Naveed, Kashif & Tou, Yuji & Neittaanmäki, Pekka (2018) // Measuring GDP in the digital economy: Increasing dependence on uncaptured GDP // Technological Forecasting and Social Change // Volume 137, December 2018, Pages 226-240.

2. Watanabe, Chihiro & Tou, Yuji & Neittaanmäki, Pekka (2018) // A new paradox of the digital economy - Structural sources of the limitation of GDP statistics // Technology in Society // Volume 55, November 2018, Pages 9-23.

3. Gasparenienė, Ligita & Remeikiene, Rita (2016) // Economic and Demographic Characteristics of the Subjects, Operating in Digital Shadow Economy // Procedia Economics and Finance // Volume 39, 2016, Pages 840-848.

4. State Statistics Committee data (2018). www.stat.uz.

**Тангриберган Досчанов Т, УрДУ
профессор, иқтисодиёт фанлари доктори
e-mail: Tangribergan.D@urdu.uz**

ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА МИНТАҚА АГРОБИОКИМЁВИЙ ХИЗМАТЛАР ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Жаҳон аҳолиси сони жадал ўсиб бориши, уларнинг озиқ-овқатга талаби, айниқса гўшт ва сўт маҳсулотларига эҳтиёжи ошиши билан бир даврда аҳоли жон бошига тўғри келадиган ер ва сув ресурслари ҳажмининг нисбий камайиши ва бу пасайишнинг давом этиши аҳолининг озиқ-овқат билан таъминланиши ва уларни етиштиришда ресурслардан самарали фойдаланишни давримизнинг муаммоси сифатида қаралмоқда. Инсониятнинг бу муҳим иқтисодий-ижтимоий муаммосини ҳал қилишнинг асосий йўлларида бири бу инновация ва ахборот технологияларига асосланган агрохизматлар, хусусан замонавий агробиокимёвий воситаларни ишлаб чиқаришни ва агробиокимёвий хизматларни такомиллаштириш деб қаралади.

Бугунги кунда инновацион кишлок хўжалиги бундай ижтимоий-иқти-содий муаммоларни ҳал қилишнинг асосий омилларидан бири бўлиб соҳани рақамлаштириш, агрохизматлар сифати ва ҳажмини, хусусан кишлок хўжа-лиги маҳсулотлари миқдорини бевосита оширишга асос бўлган агробио-кимёвий воситаларни самарали фойдаланиши таъминлайдиган замонавий агробиокимёвий хизматлар ҳажми ва сифатини оширишга хизмат қиладиган такомиллашган ташкилий, иқтисодий, ижтимоий механизми ҳисобланади. Бундай ўткир муаммолар аҳоли сони нисбатан тез ўсаётгани, шу билан бирга чекланган ер, сув ресурслари ҳам янада камаётган янгиланаётган Ўзбекистон учун ҳам хос бўлмоқда ва унинг кишлок хўжалигида озиқ-овқат етиштириш-да инновацион, рақамли технологиялар ёрдамида агробиокимёвий хизматлар самарадорлигини ошириш ўта долзарблигини ва зарурлигини кўрсатади.¹

Мамлакатимизда 2030 йилга бориб агрокимё масулотларини ишлаб чи-қариш 4,5 баробарга, шу жумладан, минерал ўғитлар 2 баробар (1,2 млн. тон-надан 2,4 млн. тоннагача) маҳсулот экспортини 4 баробарга ошириш бўйича “Йўл харитаси” тасдиқланган.² Бу устувор вазифаларни самарали бажариш ўз навбатида юқоридаги белгилаб ўтилган муаммоларни бартараф этишда асосий омил бўлиб хизмат қилади. Шунингдек, фермер, деҳқон хўжаликлар ва кишлок хўжалиги

¹ Досчанов Т.Д., Маткаримов И.Б. Инновацион ривожланиш шароитида агробиохимикатларни қўллаш ва агрокимё хизматлари иқтисодий-экологик механизмини такомиллаштириш масалалари. “Хоразм Маъmun академияси”. 2021-2-сон. 236-240 бетлар

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида кимё саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 25.10.2018 йилдаги ПҚ-3983-сонли қарори

маҳсулотларини етиштирувчи субъектларнинг агробιο-кимёвий хизматдан ва воситаларидан фойдаланиш даражасини ошириб бориш замонавий қишлоқ хўжалиги агротехнологияларининг таркибий қисми бўлиб ҳисобланади. Шу сабабли инновацион ва рақамли технология-лар ёрдамида агробιο-кимёвий восита ва хизматлар сифати ва самарадорлиги-ни ошириш имкониятларини алоҳида аҳамиятга эга. Унинг асосийларини қуйидаги чизмада кўриб ўтамыз (1-расм).




1-расм. Инновацион ва рақамли технологиялар ёрдамида агробιο-кимёвий воситалар ва хизматлар сифатини ва самарадорлигини ошириш имкониятлари

Дастлаб агробιο-кимёвий воситалари ва хизматларини ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини ошириш талаб қилинади, чунки амалиётда унинг ижтимоий самарадорлик кўрсаткичларига алоҳида эътибор қаратил-майди ва уни ўлчаш учун зарурий маълумотлар базаси ва аниқ баҳолаш усуллари ишлаб чиқилмаган. Шу сабабли инновацион ва рақамли технологияларни кенг қўллаш мамлакат қишлоқ хўжалигини экологизациялаш ва аҳолини озик-овқат хавфсизлигини таъминлашда зарур ижтимоий-иқтисодий воситасига айланиши лозим.

Агробиохизматлар ҳолатини таҳлили асосида улар фаолиятини самарали ташкил қилиш бўйича изланишлар ҳамда инновацион ва рақамли техноло-гиялар ёрдамида агробιο-кимёвий воситалар, хизматлар сифати ва самара-дорлигини ошириш имкониятларини ҳисобга олган ҳолда ушбу жараёнда қатнашувчи субъектларни аниқлаш ва улар ўртасидаги самарали ҳамкорлик-ни такомиллаштириш ва бошқаришни шакллантиришда ихтисослашган кластерни барпо қилиш ва ривожлантиришнинг илмий услубий асосларини яратиш зарур.

Тадқиқот натижаларига асосланган ҳолда минтақада агробиокимё во-ситаларини қўллаш ва хизматларининг ўзаро боғлиқ ва изчил фаолиятини таҳлил қилиш асосида вилоят агробиокимёвий хизматлар кластери таркиби-ни шакллантириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилди (2-расм).



2-расм. Хоразм вилояти агробиокимёвий хизматлари кластери ядроси ва унинг таркиби

Агробиокимё тизимига кластер ёндашуви асосида унинг асосий ядроси, ёрдамчи ва қўллаб-қувватловчи субъектлари бўлган инфратузилмавий таш-килот ва идоралар, хусусан бу хизматлар бевосита истеъмолчилар (фермер, деҳқон хўжаликлари ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етказувчи ташки-лотлар)дан иборат ихтисослашган агробиокимёвий тизими кластери таркиби шакллантирилди.

Бундай кластерни ташкил қилиш, унинг сифати ва самарадорлигини ошириб бу агробиокимёвий хизматлар бош истеъмолчилари бўлган фермер ва деҳқон хўжаликларининг кластер хизматидан фойдаланишга бўлган ман-фаатдорлигини оширишга хизмат қилиш билан бирга аҳоли истеъмоли учун зарур экологик соф маҳсулотлар ишлаб чиқаришга хизмат қилади. Вилоятда агробиокимё хизматлари ҳажми ҳамда уларни ташкил қилишда муҳим бўлган омилларни кейинги йиллардаги ривожланиш тенденцияларини ҳисоб-га олган ҳолда асосли прогноз қийматлари ишлаб чиқилиши истиқболда минтақа агробиокимёвий воситалар ва хизматлари кластерининг бу муҳим иқтисодий-ижтимоий ва ҳуқуқий-ташкилий масалаларини мувоффақиятли ҳал қилинишини таъминлайди.

Эргашев Р.Х.
ҚарМШИ профессори, и.ф.д.

ДОРИВОР ЎСИМЛИК ЕТИШТИРИШДА КЛАСТЕР ТИЗИМИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Доривор ўсимликларни етиштириш ва самарадорлигини ошириш муҳим вазифалардан бири бўлиб ҳисобланади. Маълумки дунё миқёсида фармацевтика корхоналарида ишлаб чиқарилаётган дори воситаларининг тахминан 50% и доривор ўсимликлар хомашёсидан тайёрланмоқда. Дунёнинг кўп мамлакатларида фармацевтика саноатини жадаллик билан ривожланиши бундай корхоналарнинг доривор ўсимликлар хом ашёсига бўлган талабни кескин ортишига сабаб бўлмоқда. Шу жиҳатдан ушбу соҳани ривожлантиришни таъминлаш, доривор ўсимликларни етиштиришда хизматлар самарадорлиги ва сифатини ошириш, фермер ва деҳқон хўжаликларида кўрсатиладиган хизматларнинг халқаро андозаларга мос турларини

такомиллаштириш ва диверсификация қилиш, иқтисодийнинг ўсишида доривор ўсимликларни улушини мунтазам ошириб бориш ўта муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикасида доривор ўсимликлар хусусан, ёввойи ҳолда ўсувчи каврак ўсимлигини табиий захираларини аниқлаш ва уларни асраш, уларнинг қайта тикланишини таъминлаш, маданий усулда каврак плантацияларини яратиш ҳамда қайта ишлаш корхоналари ва уй хўжаликлари ўртасида кооперацияни йўлга қўйиш, кавракдан олинадиган хом ашёни қайта ишлаш ҳамда тайёр ва ярим тайёр маҳсулот сифатида экспорт кўрсаткичларини кўпайтириш, шунингдек, соҳага инвестицияларни кенг жалб қилиш бугунги кунда долзарб вазифалардан биридир.

Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари ҳудудларида ўсувчи, маҳаллий тилда сассиқ коврак сўнгги йилларда йўқолиб кетиш хавфи вужудга келганлиги сабабли, 2019 йилда «Қизил китоб»га киритилган.

Коврак елим-смоласи қадимдан Эрон, Афғонистон, Покистон ва Ҳиндистонда тайёрланиб, ишлатилиб келинади. Қўшни республикалар, хусусан Тожикистонда бир неча йиллардан бери тайёрланмоқда. Бизнинг республикамизда эса коврак елимини тайёрлаш расман 2006 йилдан бошланди. Бунда давлат ўрмон хўжаликлари билан бир қаторда фермер хўжаликлари ва айрим хусусий тадбиркорлар фаолият кўрсатиб келмоқдалар (1-жадвал).

Ҳозирги даврда ўсимлик хом ашёларидан тайёрланадиган ҳамда инсон организми учун зарарсиз, инсон иммунитетини кўтарадиган табиий дори-

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида 2022-йилда Каврак доривор ва зиравор ўсимлигини экилиши ва ишлаб чиқариш кўрсаткичлари

№	Ҳудудлар	Доривор ва зиравор		Шундан Каврак	
		га	тн	га	тн
1	Қорақалпоғистон Республикаси	1447	11576		
2	Андижон вилояти	15,8	10,8		
3	Бухоро вилояти	153,6	109,06	32,6	3,26
4	Жиззах вилояти	3039	1914,2	502	50,2
5	Қашқадарё вилояти	8156	1211,21	7452	745,2
6	Навоий вилояти	41,5	35,25		
7	Наманган вилояти	201	172,5		
8	Самарқанд вилояти	161	163,1	14	1,4
9	Сурхондарё вилояти	1385	165,5	1343	134,3
10	Сирдарё вилояти	171	1348,5		
11	Тошкент вилояти	788	364,1065	421	42,1
12	Фарғона вилояти	195	242,24	26,4	2,64
13	Хоразм вилояти	53	11,8	40	4
Жами		15 807	17 324	9 831	983

дармонларга бўлган эҳтиёж кун сайин ортиб бормоқда. Бу ҳол шифобахш ўсимликлардан кенгрок фойдаланишни тақозо этади. Бундан ташқари доривор ўсимликларни етиштириш яхшигина даромад манбаи бўлиб ҳам ҳисобланади. Етиштирилган доривор ўсимликларни хом ашё ҳолида сотиш билан уни қайта ишлаб, тайёр маҳсулот кўринишида истеъмолчига етказиб бериш ўртасидаги молиявий тафовутни мойчечак мисолида кўриш мумкин.

Мойчечак дунёда энг кўп тарқалган доривор ўсимликлар сирасига киради. Чунки у инсон соғлиги учун жуда фойдалидир. Шунингдек, мойчечак етиштириш иқтисодий жиҳатдан ҳам самарали бўлиб яхши даромад келтиради. Ҳосилдорлиги курук тўпгули 3-4 ц/га, уруғи 0,8-1 ц/га ни ташкил қилади. Асосан Европада, Жанубий Сибирда, Кавказ ва Ўрта Осиёда учрайди. Кўпгина мамлакатларда, шу жумладан, Ўзбекистоннинг Тошкент, Наманган вилоятларидаги доривор экинлар етиштириладиган хўжаликларда доривор мойчечакнинг бир неча турлари экилади. Мойчечак таркибида 0,8 % эфир мойи, кумаринлар, флавоноидлар, каротин ва бошқа моддалар бор.

Мойчечак нафақат тиббиёт соҳасида балки косметик воситалар тайёрлашда ҳам хом ашё сифатида жуда кенг қўлланилади.

Қашқадарё вилоят ўрмон хўжалиги бошқармаси тизимидаги давлат ўрмон хўжаликлари бўйича доривор мойчечак ўсимлигининг умумий ер майдони 2022 йилда 2017 йилга нисбатан қарийб 2,93 гектарга ёки ўртача ҳисобда 71,9 % га ошган.

Айниқса, бутун дунёда вирусли-инфекцион касалликлар авж олган ҳозирги даврда ўсимлик хом ашёларидан тайёрланадиган ҳамда инсон организми учун зарарсиз, инсон иммунитетини кўтарадиган табиий дори-дармонларга бўлган эҳтиёж кун сайин ортиб бормоқда. Бу ҳол шифобахш ўсимликлардан кенгроқ фойдаланишни тақозо этади. Бундан ташқари доривор ўсимликларни етиштириш яхшигина даромад манбаи бўлиб ҳам ҳисобланади. Тажрибалар шуни кўрсатдики, маданий ҳолда 1 гектар валериана илдизи етиштириш учун 11 млн. сўм сарфланиб, 50 млн. сўм даромад олинар экан. Бунда соф фойда 39 млн. сўмни ташкил этади. Маданий ҳолдаги тожик ковраги етиштириш учун эса 45 млн. сўм сарфланиб, 63 млн. сўм даромад олинади. Соф фойда эса 18 млн. сўмдан иборат бўлади. Коврак ширасини қайта ишлаб, ярим тайёр маҳсулот шаклида, шунингдек қайта ишланган қизилмия илдизи экстрактини ярим тайёр маҳсулот кўринишида 180 млн. АҚШ долларигача экспорт қилиш мумкин.

Мамлакатимизда доривор ўсимликлар етиштириш фермер хўжаликлари ва қишлоқ жойлардаги аҳолининг томорқасида шартнома асосида амалга оширилади. Шартномада етиштирилган доривор ўсимликларни бугунги бозор талабидан келиб чиқиб, келишилган нархларда сотиб олишни кластер ўз зиммасига олади. Бунда кластер томонидан доривор ўсимликларнинг қайсидир турини экиш истагини билдирган фермер ва томорқа эгалари ушбу доривор ўсимликлар уруғлари, экиш ва парваришлаш агротехникаси тўғрисидаги услубий-амалий қўлланмалар билан таъминланади.

Доривор ўсимлик кластер тизимининг асосий вазифаси қуйидагилардан иборат:

- доривор ўсимлик етиштирувчилар билан етиштирилган маҳсулотни харид қилиш бўйича шартномалар тузиш, уларни уруғлик, минерал ўғитлар, техника, ёқилғи ва бошқа воситалар билан таъминлаш;
- ихтисослаштирилган ҳудудларда доривор ўсимликларни етиштириш, уруғликлар ва кўчатлар тайёрлаш, босқичма-босқич замонавий доривор ўсимликлар плантациялари ташкил этиш;
- доривор ўсимликларни етиштириш ва уруғчилигини ташкил этишда илғор илм-фан ютуқларини қўллаш;
- доривор ўсимликлар етиштириш ва уларни қайта ишлаш бўйича халқаро ташкилотлар билан ўзаро фаол ҳамкорлик қилиш ва соҳага босқичма-босқич инновацион ечимлар (ноу-хау) жорий этиш;
- доривор ўсимликлар етиштириш ва уларни қайта ишлашга хорижий компанияларнинг инвестициялари ҳамда илғор технологияларини жалб қилиш;
- доривор ўсимликлар ва улардан олинадиган дори-дармон маҳсулотларга бўлган ички бозор талабини қондириш ҳамда уларни экспорт қилиш;
- тажриба ва маълумотларнинг доимий алмашинувини ташкил этиш орқали ушбу йўналишдаги хорижий илмий-тадқиқот марказлари билан ҳамкорликни йўлга қўйиш, халқаро тадқиқот дастурлари, анжуманлар ва симпозиумларда иштирок этиш.

Доривор ўсимлик етиштирувчилар билан маҳсулотни харид қилиш бўйича шартномалар тузиш, уларни уруғлик, минерал ўғитлар, техника, ёқилғи ва бошқа воситалар билан таъминлаш, ихтисослаштирилган ҳудудларда доривор ўсимликларни етиштириш, уруғликлар ва кўчатлар тайёрлаш, босқичма-босқич плантациялар ташкил этиш кластер-кооперациянинг асосий вазифалари сирасига киради.

Демак, доривор ўсимликлар кластер фаолиятида илм-фан ва ишлаб чиқариш жараёнларининг интеграциялашуви ўз ифодасини топади. Деҳқон ернинг тилини тушунади, ўсимлик етиштиришнинг ҳалқона ва синалган усуллари биланади. Кластерлар зиммасига доривор ўсимликларни етиштириш ва уруғчилигини ташкил этишда илғор илм-фан ютуқларини қўллаш, халқаро ташкилотлар билан ўзаро фаол ҳамкорлик қилиш ва соҳага босқичма-босқич инновацион ечимлар (ноу-хау) жорий этиш, хорижий компаниялар инвестициялари ҳамда илғор технологияларини жалб қилиш каби масалалар ҳам қамраб олади.

Ундан ҳам қувонарлиси, кластер доривор ўсимликлар ва улардан олинадиган маҳсулотларга бўлган ички бозор талабини ўрганиш билан бирга экспорт қилишда ҳам деҳқонга қўмакчи бўлади.

Доривор ўсимликлар кластерлари, уларни етиштирувчилар ва қайта ишловчилар 2023 йил 1 январга қадар мамлакатимизда ишлаб чиқарилмайдиган қуйидаги маҳсулотларни олиб келаётганда божхона божларини тўлашдан озод қилинади:

- хом ашё, шу жумладан маданий плантациялар барпо этиш учун уруғ ва кўчатларни, ускуналар ҳамда махсус техникаларни;
- фитобарлар учун вендинг автоматларини – имтиёзлар берилиши ҳисобидан бўшайдиган маблағларни ишлаб чиқаришни техник қайта жиҳозлаш ва модернизация қилишга мақсадли йўналтирган ҳолда.

Доривор ўсимликлар кластер - бу географик жихатдан бир ҳудуд (ёки минтака)да жойлашган ҳамдабир ёки бир нечта мустакил юридик ва жисмоний шахслар томонидан бозор (ихтиёрийлик) тамойиллари асосида ўзаробирлашиб ишлаб чиқаришнинг замонавий технологияларидан фойдаланган ҳолда дориворўсимликларни етиштириш ва кўпайтириш ёки шартнома асосида хом ашёни сотиб олишдан уни дастлабки қайта ишлаш, улардан олинадиган турли хилдаги юқори кушилган кийматга эга бўлган бирламчи ва иккиламчи махсулотларни ишлаб чиқариш ва чуқур қайта ишлаш, кадоклаш, саклаш, ташиш ва сотиш, уругчилик ишлариниривожлантириш, ягона технологик занжирда кушилган кийматни яратувчи янги хужалик юритиш тизимини шакллантириш усули, - деб айтиш мумкин.

Содда қилиб айтганда, доривор ўсимликлар кластер, бу — ягона технологик занжирга бирлаштирилган корхоналар мажмуи сифатида бирлашади. Мазкур янги тузилма инновацион иктисодиётга утишнинг муҳим босқичи саналади. Чунки бу ерда хом-ашёни қайта ишлашнинг барча босқичидан утиб, экспортбоп тайёр махсулотлар тайёрлаш имконияти юзага келади.

Бундай тизим барпо килувчи, янги тузилманинг асосини «хом-ашё таъминоти - қайта ишлаш - тайёр маусулот - сотиш» жараёнларининг интеграциялашган бирлашмаси ташкил этади.

Доривор ўсимлик етиштирувчи ўрмон, фермер, дехкон хўжаликлари, томорка ер эгалари, қайта ишлаш дори-экстракт корхоналари, хизмат курсатувчи банклар, таъминот ва хизмат курсатиш инфратузилмалари, илмий-тадқиқот ва тажриба конструкторлик бюрolari, технопарклар, тадбиркорликни ривожлантириш булими ва бошқа манфаатдор субъектларни бирлаштиради. Бунинг учун муайян туман (ҳудуд)да агрокластер шакллантириш имкониятлари билан боғлиқ масалаларни ҳал этиш зарур. Шунингдек, мавжуд шарт-шароитлар ва тускинлик килувчи омилларни аниқлаш, агрокластер тузилмаси ва фаолиятининг бошқа ташкилий-ҳуқуқий хужалик шаклларида фарқларини ҳамдаимкониятларини очиб бериш, агрокластерни шакллантириш босқичларини ишлаб чиқиш лозим .

Доривор ўсимлик кластер тизимини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари қўйидагича белгинанади ва таркибига қуйидаги хужалик юритувчи субъектларни киритишимиз мумкин:

- ✓ доривор ўсимликлар етиштиришга ихтисослаштирилган фермер ва дехкон хўжаликлари ҳамдатоморка ер эгалари;
- ✓ доривор ўсимликлар хом ашёларини қайта ишлаш корхоналари;
- ✓ доривор ўсимликларни саклаш ва қуритиш, моддий-техника таъминоти, уруғлик ташкилотлари, лабораториялар;
- ✓ доривор ўсимликларни реклама қилиш, маркетинг хизмати ва сотиш билан шугулланувчи ташкилотлар;
- ✓ илмий-тадқиқот ва тажриба конструкторлик ишланмалари билан шугулланувчи инновацион тузилмалар, инвестицион фондлар, технопарклар, тадбиркорликни ривожлантириш билан шугулланувчи тузулмалар ва бошқалар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20-майдаги ПФ-139 –сонли “Доривор ўсимликлар хом ашё базасидан самарали фойдаланиш, қайта ишлашни қўллаб-қувватлаш орқали қўшимча киймат занжирини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20-майдаги ПҚ-251-сонли “Доривор ўсимликларни маданий ҳолда етиштириш ва қайта ишлаш ҳамда даволашда улардан кенг фойдаланишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 апрелдаги ПҚ- 4670 - сонли “Ёввойи ҳолда ўсувчи доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, маданий ҳолда етиштириш, қайта ишлаш ва мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

Abduvohidov Abdumalik Maxkamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Turizm va servis kafedrasini professori
abdumalik1957189@gmail.com
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti
amirbahodir@gmail.com


RAQAMLI IQTISODIYOTDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Bugungi raqamli iqtisodiyotda uning asosiy texnologiyalari tobora ortib borayotgan global iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hodisaning ta'siri ko'lamini ortiqcha baholab bo'lmaydi, chunki jahon iqtisodiyotining aksariyat yirik tarmoqlari allaqachon raqamli vositalar, mexanizmlar va platformalardan foydalanish bilan bog'liq. Savdo, biznes va mijozlar o'rtasidagi global iqtisodiy aloqalar, transchegaraviy to'lovlar - bularning barchasini va yana ko'p narsalarni bugungi kunda qulay va ishlatish uchun qulay raqamli vositalar, onlayn platformalar va ilovalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shu asosda raqamli iqtisodiyotning eng qimmatli resursi ma'lumotlar bo'lib, ularni jo'natish va qayta ishlash hajmi yildan-yilga barqaror oshib bormoqda. Birgina 2019 yilda dunyo qo'shimcha 47 zettabayt (1 ZB = 1 milliard terabayt) ma'lumot yaratdi, bu 1997 yildagi butun internetdan (88 terabayt) 534 million marta ko'pdir¹. Agar hozirgi tendentsiya davom etsa, biz 2025 yil davomida yaratilgan 175 zettabaytdan ortiq ma'lumotni ko'ramiz va 2035 yilgacha o'sish ko'rsatkichi 1-rasmda keltirib o'tilgan.

Axborotning ko'pligi sharoitida To'rtinchi sanoat inqilobining eng dolzarb texnologiyalaridan biri (raqamli iqtisodiyotga asoslangan) bulutli yechimlar bo'lib, bugungi kunda odatiy va innovatsion vazifalarni amalga oshirishda sezilarli tejashga erishish imkonini beradi. Bulutli xizmatlar butun dunyo bo'ylab milliardlab foydalanuvchilar va mijozlarga ega bo'lgan doimiy ortib borayotgan ma'lumotlar hajmiga javobdir. Bugungi kunda raqamli makonda allaqachon 5 milliarddan ortiq odam mavjud va bu ko'rsatkich 2025 yilga kelib 6 milliardga (dunyo aholisining 75 foizi) oshishi mumkin³⁴.

Ma'lumotlar miqdori



1-rasm. Dunyo bo'ylab ma'lumotlar hajmining o'sishi

Bunday sharoitda biz qurilmalarda saqlanadigan ma'lumotlar foizi sezilarli darajada kamayganini va bulutli saqlash yechimlariga faol o'tishni ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon asosan kompyuterlardan mobil qurilmalarga o'tishga o'xshaydi. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, agar 2010-yillarning boshida ma'lumotlarning 80-90 foizi an'anaviy ma'lumotlar markazlarida saqlangan bo'lsa, 2020 yilda bu ulush atigi

¹ A Cloud Timeline: U. S. Government's Modernization Journey“. Amazon Web Services. <https://aws.amazon.com/ru/blogs/publicsector/a-cloud-timeline-u-s-governments-modernization-journey/>

² Fuscaldo, D. "Stripe Now Has a Valuation of \$35 Billion“. <https://www.forbes.com/sites/donnafuscaldo/2019/09/19/stripe-now-has-a-pre-money-valuation-of-35-billion/#40d65e1562e6>

³ Reinsel D., Gantz J., Rydning J. The Digitization of the World. From Edge to Core. URL: <https://www.seagate.com/files/www-content/our-story/trends/files/idcseagate-dataage-whitepaper.pdf>

⁴ Half-Yearly Review Shows \$150 billion Spent on Cloud Services and Infrastructure / Synergy Research Group. URL: <https://www.srgresearch.com/articles/half-yearly-review-shows-150-billion-spent-cloud-servicesand-infrastructure>

50 foizni tashkil etadi¹. bulutli yechimlardan foydalanish individual foydalanuvchi darajasida ham, yirik yetakchi kompaniyalar darajasida ham ko'plab afzalliklarga olib kelishi mumkin. Bu yerda biz bunday yechimlarning sezilarli darajada kengaytirilishini, shuningdek, ortiqcha quvvatni tejash imkonini beruvchi yuqori darajadagi moslashuvchanlikni, olingan ma'lumotlarni tijorat maqsadlarida qayta ishlash qobiliyatini, miqyosda tejamkorlik va ishonchlilikni qayd etishimiz mumkin. Kompaniyaning o'ziga tegishli bo'lgan infratuzilmadan foydalanganda bunday yaxshilanishlar mumkin bo'lmaydi. Ilgari, bulutli yechimlarni tijorat mijozlari o'rtasida faol tarqatish bosqichi boshlanishidan oldin, ko'plab kompaniyalar o'zlarining infratuzilmasini qurish, shuningdek, malakali operatorlar tomonidan xizmat ko'rsatish uchun katta moliyaviy resurslarni sarflashlari kerak edi. Bu, shuningdek, masalan, 10 kishidan iborat jamoaga imkon beruvchi bulutli yechimning bir turi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, tadqiqotlar asosida biz raqamli texnologiyalar va ayniqsa bulutli yechimlarni joriy etishni rag'batlantirish bo'yicha kompleks institutsional siyosat zarurligini ta'kidlashimiz mumkin. Maqolada keltirilgan misollarga asoslanib, biz ayniqsa dinamik o'zgaruvchan zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu yondashuv makro va mikro darajada raqobatbardoshlik va samaradorlikni oshirishning muhim omiliga aylanishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin.

Bulutli texnologiyalarning bir hizmati asosida ma'lumotlarni tartibga solish, mijozlarga qulay tarzida yetkazib berish, istalgan joyda va istalgan vaqtda ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini beradi

Adabiyotlar ro'yhati

1. A Cloud Timeline: U. S. Government's Modernization Journey“. Amazon Web Services. <https://aws.amazon.com/ru/blogs/publicsector/a-cloud-timeline-u-s-governments-modernization-journey>.

К.Убайдуллаев

доктор экономических наук, профессор

Каракалпакского государственного университета.

Дастан Сабырбаев

Каракалпакского государственного университета.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ

Аннотация: В статье рассматриваются инвестиционные процессы в аграрном секторе, актуальность изучения вопросов теории и методологии, научное обоснование инвестиционного развития сельского хозяйства с учетом экологических условий, а также задачи и возможные результаты после их решения.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционная привлекательность, эффективность инвестиции.

Аннотация: Мақолада аграр сектордаги инвестицион жараёнлар, назария ва методология масалаларини ўрганишнинг долзарблиги, атроф-муҳит шароитларини ҳисобга олган ҳолда қишлоқ хўжалигини инвестициявий ривожлантиришнинг илмий асосланиши, шунингдек, уларни ҳал қилишдан кейинги вазифалар ва мумкин бўлган натижалар муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: инвестициялар, инвестицион фаолият, инвестицион жозибadorлик, инвестиция самарadorлиги.

Annotation: The article discusses the investment processes in the agricultural sector, the relevance of studying the issues of theory and methodology, the scientific justification for the investment development of agriculture, considering environmental conditions, as well as the tasks and possible results after their solution.

Key words: investments, investment activity, investment attractiveness, investment efficiency.

Эффективное развитие агропромышленного комплекса прямо связано с инвестиционным фактором: усилением инвестиционной деятельности, привлечением в аграрный сектор инвестиций из различных источников, определением их приоритетных направлений, рациональным использованием.

Инвестиционные процессы в сельском хозяйстве действуют по общим экономическим законам, но проявляются с учетом особенностей аграрного сектора, которые требуют всестороннего их анализа. В свою очередь, инвестиций в сельское хозяйство требует необходимость эффективного использования инвестиционных ресурсов.

¹ Whitney L. Moving to the cloud: Top challenges organizations face. URL: <https://www.techrepublic.com/article/organizations-face-multiple-challenges-tryingto-adopt-cloud-technology/>

Общеизвестно, что, инвестиционную деятельность сдерживают удорожание ресурсов, диспаритет цен, высокие налоги и процентные ставки на кредит, низкая эффективность производства, в том числе низкая эффективность самих инвестиций, недостаток собственных средств, накопившиеся долги и др.

В последние годы, в сельском хозяйстве отмечалась положительная динамика производственной и инвестиционной активности, но объемы инвестирования аграрного сектора по расчетам все еще недостаточны. Требуется улучшения материально-технического обеспечения сельского хозяйства, обновления изношенных основных фондов. Практика показывает, что совокупность разных факторов и воздействие каждого из них на инвестиционную деятельность неоднозначно. Изучение вопросов теории и методологии инвестирования сельского хозяйства, научное обоснование стратегии инвестиционного развития агропромышленного производства, учитывающей особенности функционирования хозяйствующих субъектов в экологических условиях РК актуальное значение

Известно, что, инвестиционная деятельность и повышение ее эффективности в сельском хозяйстве зависят от состояния теоретической базы, научно методических разработок, учета отечественной и зарубежной практики и опыта. При этом необходима дальнейшая разработка вопросов инвестирования в сельское хозяйство и повышения их эффективности с учетом экологической обстановки Приаралья, специфики, требований рынка к развитию отрасли и АПК, опыта других стран.

В дальнейшем в системе мер по развитию сельского хозяйства важнейшее значение имеет наращивание объемов инвестиций, так как, инвестиционные накопления и соответствующие производственно-технические ресурсы приводит к положительному сдвигу в сельском хозяйстве. За последние годы принятые меры способствует выходу сельского хозяйства на траекторию развития., при этом материальной основой его реализации являются инвестиции.

Нынешняя ситуация в сельском хозяйстве обуславливает необходимость совершенствования сложившихся и формирования новых механизмов привлечения инвестиций в аграрный сектор, так как, не полностью учитываются экологические, региональные особенности функционирования организационно-экономического механизма инвестиционной деятельности в АПК.

Исходя из вышеуказанных, для научного обоснования теоретических положений, инвестиции и инвестиционной деятельности в сельском хозяйстве, а, также для обосновании предложений по повышению их эффективности в Республике Каракалпакстан, требуется решение следующих основных задач: проведение анализа фактического состояния материально-технической базы и инвестиционной деятельности в сельском хозяйстве с оценкой тенденций происходящих изменений; анализировать основные направления использования инвестиций в Республике Каракалпакстан; выявить результативные формы и методы государственного воздействия на повышение эффективности инвестиционной деятельности в сельском хозяйстве на основе опыта зарубежных стран и обобщения отечественной практики; выявление условия повышения и эффективности инвестиций в сельское хозяйство РК; обоснование основных направлений инвестирования.

В результате исследования и решении выше отмеченных задач, можно иметь следующих положения: расширение потенциала источников инвестиций; выбор оценки эффективности инвестиций в сельское хозяйство; определение основных принципов, форм и методов формирования, а также основных направлений инвестиционной политики в сельском хозяйстве РК в зависимости от уровня их инвестиционной привлекательности и особенностей социально-экономического развития с учетом экологической обстановки Приаралья; определение результативных форм и методов государственного воздействия на привлечение инвестиций; оценить современное состояние и источники формирования инвестиций, а также, инвестиционной деятельности Республики Каракалпакстан; обоснование приоритетных направлений повышения эффективности использования инвестиций.

Таким образом, результаты исследований развивают научную основу для решения практических проблем в инвестиционной деятельности сельского хозяйства, будут способствовать инвестиционной привлекательности, повышению эффективности инвестиции.

Литература

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису, 28 декабря 2020 года

2. <https://lex.uz/uz/docs/5841077>, Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28.01.2022 г. №УП-60
3. <https://lex.uz/uz/docs/5939945>, «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий и дальнейшему улучшению уровня жизни населения Республики Узбекистан в 2022-2026 годах» от 4 апреля 2022 г. № 155

Тухлиев Искандар Суюнович
и.ф.д. СамИСИ “Туризм” кафедраси профессори

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЧКИ ТУРИЗМНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президенти раислигида мамлакатимиз туризм салоҳиятини ошириш масалалари муҳокамаси юзасидан видеоселектор йиғилишида 2023 йил Ватанимизнинг бой маданияти ва туристик салоҳиятини жаҳонга тарғиб қилиш йили бўлиши кераклиги алоҳида таъкидланди. Бу йил 7 миллион хорижий ва 15 миллион ички сайёҳларни жалб қилиш, соҳа экспортини 2,5 миллиард долларга етказиш имконияти борлиги кўрсатиб ўтилди.[1].

Ушбу вазифаларни амалга ошириш учун ҳозирги шароитда ички туризмни ривожлантириш, унинг ЯИМдаги улушини ошириш, аҳолини янги иш ўринлари билан таъминлаш, туризм ва меҳмонхона хўжалиги хизматларини рақамлаштириш, мазкур тармоқ тараққиётининг анъанавий моделидан, унинг инновацион моделига ўтиш лозимлигини тақоза қилмоқда.

Илмий адабиётлар ва амалий натижалар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, Ўзбекистоннинг ички туризм мажмуаси, яққол намоён бўлувчи минтақавий хусусиятга ва ҳудудий ихтисослашувга эга бўлиб, дастурий масалаларда назарда тутилган мезонларга мувофиқ ривожланмоқда.

Тадқиқотимизга кўра, мамлакатимиз туризм маҳсулотини ишлаб чиқишда, кирувчи ва ички туризм сегментларини, туризм турларидан айниқса зиёрат ва экотуризмни ривожлантиришда барча имконият-ларимиз бўйича нисбий устунликларга эгалгимизни кўрсатмоқда.

«Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!» ички туризмни ривожлантириш дастурининг дастлабки ишлаб чиқилишига Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 07.02.2018 йилдаги ПҚ-3514-сон қарори [2] билан асос солинган эди. Ушбу қарорда ҳудудларни барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим омилларидан бири сифатида ички туризмни жадал ривожлантириш, фуқароларни мамлакатимизнинг маданий-тарихий мероси ҳамда табиий бойликлари билан таништириш мақсадида «Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!» ички туризмни ривожлантириш дастурини амалга ошириш бўйича амалий чора-тадбирлар режаси тасдиқланган.

Шунингдек Президент томонидан 2021 йил 9 февраль куни «Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони [3] имзоланди. Ушбу Фармон асосида туризм соҳасида 2021/2022 ўқув йилидан бошлаб куйидагиларда магистратура мутахассисликларида кадрлар тайёрлаш тизими йўлга қўйилди:

«Ипак йўли» туризм халқаро университетида, Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Бухоро ва Термиз давлат университетларида: а) «зиёрат туризми»; б) «транспорт логистикаси»; в) «ижодий саноат» (creative industry) йўналишлари бўйича.

Умумий ва касб-хунар таълими муассасалари ўқувчилари, олий ўқув юрлари талабалари учун Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар маҳкамаси, вилоят ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари билан биргаликда “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!” дастури доирасида йирик корхона ва ташкилотларга индустриал туризм бўйича графиклар ишлаб чиқилиб, тасдиқланган. Ушбу графиклар асосида вилоят ҳокимликлари ҳамкорлигида ички туризм саёҳатлари ташкил этиб келинмоқда.

Мазкур йўналишда амалга оширилган ислохотлар ўз самарасини берди, бугунги кунда “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил” дастурининг фаол амалга оширилиши туризм индустриясини ривожлантиришга ижобий таъсир кўрсатмоқда. Маълумотларига кўра кириш туризмидаги хорижий сайёҳлар сони 2021 йилда режадаги 1,7 млн.нафардан амалда 1,9 млн нафарга, яъни бажарилиши 110,7 фоизга таъминланган. Туризм хизматлари экспорти режадаги 400,0 млн АҚШ долл.дан амалда 422,1 млн. долл., яъни 105,5 фоизга оширилиб бажарилганини кўрсатмоқда. Ички сайёҳларнинг сони 2021 йилда режадаги 7 500,0 минг нафардан, амалда 5 813,9 минг нафарга, яъни 77,5 фоизга бажарилган. Бунинг сабаби COVID-19 пандемияси мамлакатнинг туризм соҳасига

катта зарар етказди ва соҳанинг мақсадли кўрсаткичларига салбий таъсир қилди. Лекин ички сайёҳларнинг 2023 йил январь-июнь ойидаги амалдаги сони 5 011,7 минг нафар кўрсаткичи йилнинг охирида режадаги 4554,6 минг нафардан ошиб кетиши кутилмоқда.

Ўзбекистон ички туризм бозоридаги йўналишларидан бири бу маданий мерос ва тарихий объектлардан самарали фойдаланиш масаласи. Бу ҳақда Президентнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида қайд этилган бўлиб, мамлакатимизда 8 минг 200 дан ортиқ маданий мерос объектлари мавжуд, шундан атиги 500 таси туристик йўналишларга киритилган, Президентимиз Мурожаатномасида зиёрат ва анъанавий туризм йўналишларига киритилган объектлар сонини 800 тага етказиш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш зарурлигини таъкидлади [4]. Шу туфайли мамлакатни модернизациялаш босқичида туризм ва меҳмондўстлик индустрияси соҳасидаги ечимини кутиб турган масалалар қаторида янги йўналишлар бўйича туристик маршрутларни ишлаб чиқиш долзарб масала бўлиб турибди. Бугунги кунда Ўзбекистонда 784 та ислом зиёратгоҳи, 19 та христиан зиёратгоҳи ва 8 та буддавий маданий мерос объектлари мавжуд бўлишига қарамадан, 2021 йилда 577,8 минг нафар зиёратчига хизмат кўрсатилган бўлиб, шундан меҳмонхоналар ва шунга ўхшаш турар жойларга жойлаштириштирилган шахслардан аттиги 27,0 минг нафари зиёратгоҳларга ташриф мақсадида келгани аниқланди.

Ушбу ҳолат ҳозирги пайтда мамлакатимизга зиёрат мақсадида келган зиёратчиларга ислом ва бошқа динларга мансуб бўлган тегишли талабларга ва қулайликларга жавоб берадиган меҳмонхоналар ва шунга ўхшаш турар жойларнинг етишмаслигини ифодалайди. Шунингдек худудларда ҳали етарлича ўрганилмаган, сайёҳлар жалб этилмаган қадамжолар сонинг кўплиги ва улардан янада самарали фойдаланиш мақсадида Маданият ва туризм вазирлиги, Дин ишлари бўйича қўмитага 300 та маданий мерос объекти ва зиёратгоҳни реставрация қилиш вазифаси қўйилди.

Ички туризм бозорида “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил” дастурини амалга оширишда Шанхай ҳамкорлик ташкилоти (ШХТ) давлатлари билан туризм алоқаларини янада ривожлантириш устувор йўналиш бўлиб, сайёрамизнинг жами аҳолисининг 44 фоизини қамраб олган ШХТ худуди салоҳияти тўлиқ ишга солинмаган улкан туризм бозори ҳисобланади.

Ушбу туризм бозорида бир йилда ШХТ давлатларидан жами 250 миллионга яқин турист хорижда дам олиш учун кетишини, шу жумладан Ҳиндистондан 27 миллион, Хитойдан 155 миллион, Россиядан 20 миллион Қозоғистондан 206 минг ва Тожикистондан 31 минг туристларни ҳисобга олиб, биз барча кучларни бирлаштириб, ушбу оқимнинг аттиги 5 фоизини Ўзбекистонга жалб қила олсак, қўшимча равишда бир йилда 12,5 миллион хорижий туристларнинг ташрифини таъминлаш имкониятига эга бўлаемиз.

Ўзбекистонда ички туризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини инновацион ёндашувлар асосида такомиллаштириш бўйича таклиф қилинган мазкур тавсиялар ички туризмнинг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини оширишга қаратилган бўлиб, туризм инфратузилмасини такомиллаштириш, соҳада хизмат кўрсатиш сифатини ошириш, туристик маҳсулотларни диверсификациялаш ва туристик кластерларни шакллантириш механизмларини ишлаб чиқиш бўйича илмий тадқиқотлар олиб боришни тақоза қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 19-сентябрдаги мамлакатимизнинг ички ва ташқи туризм салоҳиятини янада ошириш чора-тадбирлари юзасидан ўтказилган йиғилишидаги нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/5552>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 07.02.2018 йилдаги ПҚ-3514-сон қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.02.2018 й., 07/18/3514/0672-сон
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 09 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмни янада ривож-лантириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6165-сон Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.02.2021 й.,
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январь куни Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси. №19.25.01.20.1-3 б. 6

Ochilov Akram Odilovich
Qarshi davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
e-mail: akram.oo@mail.ru
G‘aniyev Shaxzod Shuxrat o‘g‘li
QarDU “Inson resurslarini boshqarish”
magistratura mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.
e-mail: shaxzodganiev46@gmail.com

INNOVATSIYALAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ASOSIDA TUMAN (SHAHAR) HOKIMLIKLARI INSON RESURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar hamda Shahrisabz tuman hokimliklarining hozirgi kundagi inson resurslarini samarali boshqarish jarayonlarida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarga asoslangan tizimlardan foydalanish holati izohlanilib, bu boradagi xulosa va izlanishlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: shaffoflik, strategiya, innovatsiya, elektronlashish, raqamlashtirish, qo‘nimsizlik, analitik, intellekt, blokcheyn, smart, bulut texnologiya, mobil qurilma.

Ilmiy tadqiqot ishida obyekt sifatida tanlangan Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar hamda Shahrisabz tuman hokimliklarining hozirgi kundagi inson resurslarini samarali boshqarish, ish faoliyat unumdorligini oshirishga qaratilgan, sohada shaffoflikni ta‘minlaydigan, korrupsion holatlarning oldini oladigan, amalda qo‘llanilib kelayotgan innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarga asoslangan tizimlari o‘rganildi. O‘rganilish jarayonlarida asosan 2 ta masalaga e‘tibor qaratildi. Birinchisi bu yo‘nalishdagi mavjud strategiyani o‘rganish, ikkinchisi o‘rganishlar asosida ushbu yo‘nalishdagi strategiyani ishlab chiqish, amalda qo‘llashning ahamiyatini oshirish masalalari. Ilmiy izlanishning yangiligi sifatida ikkinchi masalaga asoslangan holda sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan, inson resurslarini boshqarish samaradorligini oshiradigan, innovatsiya hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi strategiyani ishlab chiqish maqsad sifatida olingan.

Demak dastlab birinchi masalaga, ya‘ni inson resurslarini boshqarish yo‘nalishidagi mavjud strategiyani o‘rganish yuzasidan olib borilgan izlanishlarni bayon etamiz. Bu boradagi normativ-huquqiy asos sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni¹ni olish mumkin. Bu Farmonda inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan, ixtisoslashgan ta‘limni rivojlantirish hamda IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirish, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

O‘rganishlar asosida ushbu yo‘nalishdagi strategiyani ishlab chiqish, amalda qo‘llashning ahamiyatini oshirish masalasi. Tadqiqot obekti sifatida tanlab olingan Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar hamda Shahrisabz tuman hokimliklarining inson resurslarini boshqarilish tizimlarini o‘rganish asosida quyidagi muammolar aniqlandi:

1. Shahrisabz shahar va tuman hokimlari ijro hokimiyatining dastlabki katta bo‘g‘inlari hisoblanishi sababli ish yuklamasi ko‘pligi, bunda xodimlar ish vaqtidan tashqari vaqtda ham ishlashiga to‘g‘ri keladi.

2. Garchi sohada elektronlashish va raqamlashtirish ishlari olib borilayotgan bo‘lsa-da, bu tizim to‘liq joriy etilmagan hamda hozircha o‘zining to‘laqonli samarasini bergani yo‘q.

3. Ba‘zi bo‘limlarning ish faoliyati ish joyidan tashqarida, ya‘ni dalada, joylarda, qurilish obektlarida va hokazo joylarda bo‘lganligi sababli ularning ish faoliyati va intizomiga munosib baho berish murakkab.

4. Ish hujjatlari hozirgacha asosan qog‘oz hujjatlarga asoslangan. Bu ko‘p sarf-xarajat va ovvoragarchilikni, mehnat vaqtini ortiqcha sarflanishiga olib keladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli o‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. 05.10.2020 yil 5 oktyabr.. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

5. Xodimlarning ish kayfiyati past, bunga sabab, ish yuklamasi ko'pligi hamda o'z mehnatiga munosib haq to'lanmaganligidadir. Moddiy rag'batlantirish, mukofotlash ko'ngildagidek emas, mehnat ta'tillari ham shu ahvolda.

6. Asosiy ishni ko'pincha quyi bo'g'in xodimlari bajaradi. O'rta bog'in rahbarlarining barchasi ham birdek salohiyatli emas.

7. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi juda kuchli yo'lga qo'yilgan.

8. Xodimlar mehnati har doim ham munosib baholanmaydi, kasbiy o'sish va rivojlanish kam.

9. Kadrlar qo'nimsizligi mavjud va bu ham ish faoliyatini to'laqonli yuritilishiga salbiy ta'sir etadi. Ya'ni yangi xodim kelib toki yangi ishga ko'nikib, yetarlicha tajriba to'plagunga qadar ancha vaqt o'tib ketadi. Bu paytda o'sha xodimning ish yuklamasi boshqa bir xodimga yuklanadi.

Yuqoridagi tahlillar, ma'lumotlar, o'rganilish natijalaridan kelib chiqib, shuningdek aniqlangan muammolarni hal etilishi ko'zlangan holda, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida tuman (shahar) hokimliklari inson resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishning yangicha strategiyasini ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida inson resurslarini boshqarishda innovatsiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribalari juda yuqori, garchi bu borada kamchiliklar bo'lsada. Bu mamlakatlarning inson resurslarini boshqarish jarayonlari inson resurslarini boshqarishda turli xil zamonaviy-raqamli analitik usullar, sun'iy intellekt, blokcheyn, smart tizim va texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, bulut texnologiyalari, mobil qurilmalar orqali faoliyatga asoslanmoqda. Mamlakatimizda ham aynan inson resurslarini boshqarishda mana shu kabi turli xil dasturlar, zamonaviy-raqamli analitik usullar, sun'iy intellekt, blokcheyn, smart tizim va texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, bulut texnologiyalari, mobil qurilmalar orqali faoliyatni tashkil etish joiz ekan, biz ularni nazariy jihatdan o'rganib chiqishimiz, yurtimiz mintaliteti va sharoitiga moslashtirishimiz, foydalanuvchilar uchun eng qulay optimal yechimlarni qo'llashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli o'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. 05.10.2020 yil 5 oktyabr.. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2. <https://e-qaror.gov.uz/> - yagona elektron tizimi

3. www.stat.uz sayti

4. www.google.com – qidiruv portali

**Абдуллоев Аслиддин Жунайдуллоевич
Бухоро давлат унверситети “Иқтсодиёт”
кафедраси мудири профессор и.ф.ф.д**

КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ НЕГИЗИДА ХУДУДИЙ АГРОКЛАСТЕРЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ ИЛМІЙ – МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Мамлакатимиз иқтисодиётида амалга оширилаётган ислохотлар натижасида реал соҳаларни вертикал ва горизонтал институционал тузилмаларининг фаолияти такомиллаштирилиб, замонавий бозор тамойилларига мос янги маъмурий-бошқарув тузилмаси ва ижро-назорат аппарати шаклланди.

Қишлоқ хўжалиги соҳасида юзага келаётган янги тузилмалар таркибини кластерлар, логистика марказлари, консалтинг хизмати, ахборот-ресурс марказлари ташкил қилиб, уларнинг асосий фаолияти – соҳада бошқарув салоҳиятини мустаҳкамлаш, ишлаб чиқариш ва инфратузилма субъектлари ўртасида мустаҳкам иқтисодий муносабатларни ўрнатиш асосида ишлаб чиқариш самарadorлигини ошириш ҳисобланади.

Маълумки, фермер хўжаликлари ўз фаолиятлари давомида агросаноат мажмуасига кирадиган турли инфратузилма субъектлари – тайёрлов, қайта ишлаш, таъминот, иш бажариш ва хизмат кўрсатишга ихтисослашган корхоналар билан ўзаро шартнома асосида иқтисодий-ҳуқуқий муносабатда бўладилар

Бугунги кунда фермер хўжаликлари тармоғида қўйидаги муаммолар, жумладан: фермер, унинг мутахассислари, ишчи-ходимларининг қишлоқ хўжалиги хом ашё маҳсулотларини етиштириш бўйича касбий маҳорати, малака ва билимларининг етишмаслиги; тупроқ унумдорлиги юқори, экинлар парвариши қўлай ва юқори ҳосилдорликка эришиш мумкин бўлган ер

участкаларида илмий-амалий асосланган мақбул усулда экинларни жойлаштириш ва ихтисослаштиришни ижобий ҳал қилинмаганлиги; фермерхўжаликларида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоб-китобни қонун талаблари даражасида юритилмаслиги; фермер хўжаликлари моддий-товар ресурсларини шартномага мувофиқ етказиб беришда томонларнинг жавобгарлиги ва масъулиятининг пастлиги; тармоқни молиялаштириш, жумладан иш ҳақи, кўрсатилган хизматлар ва бажарилган ишлар бўйича белгиланган тўловларни ажратилмаслиги; фермер хўжалиги раҳбарини ваколати, вазифалари, мажбуриятлари ва жавобгарлиги меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган даражада бажарилмаслиги ёки фермер томонидан масъулиятни ҳис қилинмаслиги ҳисобланади.

Юқоридаги ҳолатлар натижасида фермер хўжаликлари ва инфратузилма субъектлари ўртасида шартнома мажбуриятларини бажарилмаслиги доимий равишда дебитор-кредитор қарздорликларни юзага келтиради.

Юқорида қайд қилинган муаммо ва камчиликларни хўжалик субъектлари ўртасида ҳақиқий кооперация муносабатлари - замонавий манфаатли ҳамкорлик муносабатларини шакллантириш ва ривожлантириш асосида босқичма-босқич ҳал этиш мумкин.

Бозор муносабатлари шаклланаётган даврда кооперация ва кооператив муносабатлар сиёсий, ҳуқуқий, ижтимоий, иқтисодий, экологик ва демографик ўзгаришлар жараёнида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини бозор тамойиллари асосида ривожлантиришнинг асосий омили ҳисобланиб, соҳани доимо барқарор ўсишини таъминлайди, ҳар бир фермер, хусусий тадбиркор, инфратузилма субъекти ва умумий ҳолатда, умумкооператив корхона жамоасининг моддий манфаатларини ўзида мужассамлаштиради.

Шунинг учун, ривожланган ва ривожланиш босқичидаги давлатларда агросаноат мажмуасини ривожлантиришнинг илғор тажрибаларига мувофиқ, мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ва узлуксиз ўсишига, агросаноат мажмуаси соҳаларини мутаносиб равишда ривожлантиришга эришиш мақсадида мавжуд салоҳиятларни кооперация муносабатларида бирлаштириб, кластер асосида фаолият кўрсатишларини таъминлаш ҳисобланади.

Европа мамлакатлари, АҚШ, Канада, Жанубий Корея, Хитой каби давлатлар, шунингдек сўнгги йилларда МДХ давлатлари қишлоқ хўжалигида амалга оширилаётган илғор тажрибаларга кўра, алоҳида бир ҳудудда ёки чегарадош ҳудудларда аниқ бир турдаги қишлоқ хўжалиги товар маҳсулотларини етиштиришга ихтисослашган фермер хўжаликларини бозор муносабатларида самарали фаолиятини таъминлаш учун “қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш, таъминот, иш бажариш, қайта ишлаш, тайёрлаш, сақлаш, сотиш ва бошқа йўналишда қатъий масъулият, замонавий бошқариш, ишлаб чиқариш ва истеъмол фаолиятларини мувофиқлаштириш, ўзаро амалий ёрдам, уйғунлашган ҳамкорлик тамойиллари ва демократик ижро тизими асосланган кластер тузилмалари” ташкил қилиниб, улар таркибидаги хўжалик субъектлари ўртасидаги алоқалар кооперация муносабатлари асосида йўлга қўйилмоқда.

Республикамизда ушбу йирик тадбир бошлангандан сўнг ўтган икки йил ичида Ўзбекистон Республикаси Президенти ва ҳукуматининг махсус қарорларига мувофиқ, Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда 76 та ихтисослашган пахта-тўқимачилик¹ ва 47 та мева-сабзавотчиликка кластерлари² фаолият кўрсатмоқда ҳамда уларга 60 фоиздан ортиқ қишлоқ хўжалиги майдонлари бириктирилган.

Мева-сабзавот кластерларига 13,5 минг гектар ер майдони ажратиб берилиб, улар ихтиёрида 15,9 минг тонна сигимидаги музлаткич омборхоналар, 7810 тонна саралаш, 800 тонна калибрлаш, 4 та замонавий лаборатория, 119,8 минг тонна мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш, 23201 тонна мева-сабзавотни саралаб-қадоқлаш цехлари мавжуд бўлиб, 1046 доимий, 1085 та мавсумий иш ўринлари ташкил этилган³.

Бундан ташқари бошоқли дон, экинлар уруғчилиги, пиллачилик, чорвачилик (гўшт, сут етиштиришга ихтисослашган) ва бошқа тармоқлар бўйича агрокластерлар ташкил қилинди ва бу жараён изчил давом этмоқда. Кластерлар таркибига кирадиган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини

¹ «Маҳсулотларимиз ташқи бозорда рақобатлаша олмапти» — Қишлоқ хўжалигидаги камчиликлар таҳлил этилди.
<http://www.uzfk.uz/news/view/380>

² Жамшид Ходжаев: 9 та устувор йўналишлар бўйича 30 дан ортиқ норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилади.
<http://www.agro.uz/uz/news/agro/zhamshid-khodzhaev-9-ta-ustuvor-y-nalishlar-b-yicha-30-dan-orti-normativ-u-u-iy-uzhzhatlar-ishlab-ch/>.

³ Жамшид Ходжаев: 9 та устувор йўналишлар бўйича 30 дан ортиқ норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилади.
<http://www.agro.uz/uz/news/agro/zhamshid-khodzhaev-9-ta-ustuvor-y-nalishlar-b-yicha-30-dan-orti-normativ-u-u-iy-uzhzhatlar-ishlab-ch/>.

етиштиришга ихтисослашган хўжалик субъектлари билан қўйидагича муносабат ўрнатилган: биринчи йўналиш бўйича – хусусий тадбиркорларга (хорижий ёки республикамиз фуқароси) ер бериш, яъни тадбиркорларга йирик майдорда экин майдонлари ажратиб берилди; иккинчи йўналиш бўйича – кластер раҳбари ўз ерига ҳам эга, шунингдек у атрофдаги фермерлар билан ҳамкорликда ишлайди ва учинчи йўналиш бўйича - ҳозирги пайтда энг кўп қўлланилаётган амалиёт – фермерлар билан фючерс шартномасини тузиб фаолият кўрсатаётган кластерлар.¹

Мамлакатимизнинг ҳар бир қишлоқ туманларида ташкил қилинаётган ихтисослашган кластерлар саноат корхоналарини сифатли қишлоқ хўжалиги ҳам ашё маҳсулотлари билан таъминлашда, мамлакатни экспорт салоҳиятини ошириш ва валюта тушумини кўпайтиришда муҳим ўринни эгаллайди.

Ихтисослашган агрокластерларни ташкил қилишдан асосий мақсад – кластер аъзолари фаолиятида юзага келаётган муаммоларни ҳамкорликда ва ўзаро келишилган ҳолда бартараф этиш, қишлоқ хўжалиги ҳам ашё маҳсулотларини ишлаб чиқаришини барқарор ўсишига эришиш, қишлоқ ҳудудларида кичик саноат корхоналарини ташкил қилиш ва қишлоқ хўжалиги ҳам ашё маҳсулотларини бирламчи қайта ишлаб, юқори қўшилган қийматли рақобатбардош тайёр маҳсулотларни ички ва ташқи бозорга сотиш, демократия тамойилларига асосланган шаффоф, ишончли ва адолатли муҳитни шакллантириш асосида кластерда юқори иш унумдорлигини ва ишчи-ҳодимлар меҳнатига ҳақ тўлаш даражасини оширишга эришиш ҳисобланади.

Кластер модели қишлоқ хўжалиги тармоқлари бўйича, масалан пахтачиликда тўлиқ ёпиқ ишлаб чиқаришни ўз ичига олади ва бу модель республикамизда биринчи марта қўлланилмоқда.

Бу борадаги илк йирик тадбирлардан бири Бухоро вилоятида замонавий пахта тўқимачилик кластери "Bukhara cotton textile cluster" МЧЖ қўшма корхонаси ташкил қилиниб,² кластер тасарруфига пахта ҳам ашёси ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш учун 8.0 минг гектар суғориладиган ер майдони ажратилган (2-расм).

Бухоро вилоятида пахтачилик кластерида замонавий ишлаб чиқариш - ижтимоий объектларини ишга туширилиши қишлоқ ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга ва бу янги тузилмада 1000 нафардан кўп янги ишчи ўринлари яратилди.

Республикамизда ихтисослашган кластерларни ташкил қилиниши:

- қишлоқ хўжалиги тармоқларига бозор иқтисодиёти тамойиллари ва замонавий шартнома муносабатларини жорий этилиши натижасида ҳам ашё ўрнига сифатли, замонавий ва рақобатбардош тайёр маҳсулотларни ишлаб чиқиш, ички ва ташқи бозорларга сотиш;

- пахтачилик ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда инновацион ишланмалар ва ресурстежамкор технологияларни жорий қилишни иқтисодий рағбатлантириш ҳамда ҳуқуқий жиҳатдан манфаатларини ҳимоя қилиш;


- хорижий инвесторлар иштирокида замонавий ихтисослашган кластерлар мажмуасини шакллантириш асосида ҳудудий тайёрлов ва қайта ишлаш корхоналарини модернизация қилиш, қишлоқ хўжалигининг тайёр маҳсулотларини экспорт ҳажминини кўпайтириш;

- яқин истиқболда мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ва уларни тўлиқ қайта ишлашни ривожлантириш натижасида тармоқларнинг самарадорлиги ва салоҳиятини янада ошириш;

- қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспортида замонавий брендни яратишда муҳим ўринларни эгаллайди.

¹ Ақтам Хайитов кластер тизими ҳақида: «Бизда бу борада аниқ конуннинг ўзи йўқ». <https://kun.uz/news/2019/09/11/aktam-xayitov-klaster-tizimi-haqida-bizda-bu-borada-aniq-qonunning-oz-i-yoq>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 майдаги ПҚ-2978-сонли "Бухоро вилоятида замонавий пахта тўқимачилик кластерини тузиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори. https://nrm.uz/content?doc=488639_2017_yil



1-расм. “VCT cluster” корхонаси таркибига кировчи “VCT cluster agrokompleks” корхонасининг ташкилий тузилмаси¹

¹Манба: “VCT cluster” корхонаси маълумотлари асосида А.Ж.Абдуллаев томонидан ишлаб чиқилган.

Бухоро вилоятида ташкил қилинган пахтачилик кластери бир нечта туман ҳудудларида пахта хом ашёсини етиштиришга ихтисослашган фермер хўжаликлари, тайёрлов, қайта ишлаш ва сотиш тизимидаги корхоналар, инфратузилма хизмати субъектларини кооперация асосида бирлаштириб, уларни ишлаб чиқариш, тайёрлов, қайта ишлаш ва сотиш жараёнларидаги ўзаро ҳамкорлигини мувофиқлаштиради.

Кластерга аъзо бўлган пахтачилик фермер хўжаликлари ва инфратузилма субъектлари ўртасида кооперация муносабатларини шакллантиришдан асосий мақсад – кластерга аъзолари фаолиятида юзага келадиган муаммоларни ҳамкорликда ва ўзаро келишилган ҳолда бартараф этиш, демократия тамойилларига асосланган шаффоф, ишончли ва адолатли муҳитни шакллантириш асосида юқори самарадорликни таъминлаш ҳисобланади.

Пахтачилик кластерида кооперация муносабатлари аъзо хўжалик субъектларининг сони, талаби ва бажариладиган вазифалари, режалаштирилган мақсад ва бошқа зарур хусусиятларни ўз ичига олади. Кластерда кооперация асосида ҳамкорлик қиладиган хўжалик субъектларининг ўзаро келишуви асосида кластер Кенгашини ташкил этишнинг намунавий тузилмаси ишлаб чиқилди (2-расм).

Кенгаш – бу алоҳида юридик шахс сифатида эмас, балки кластер аъзолари, ҳамкорликдаги хўжалик субъектларининг кооперациясидан иборат бўлиб, у кластерда кооперация муносабатларига асосланган фаолиятни бошқариш ва мувофиқлаштирувчи орган ҳисобланади.



-расм. Пахтачилик кластери кенгашининг ташкилий тузилмаси¹


Кенгаш ваколатига куйидаги вазифаларни киритилиши тавсия қилинади: фермерларга ер-сув табиий ресурслари салоҳиятидан самарали фойдаланиш, маҳсулот етиштиришни ихтисослаштириш, пахта экини навлари ва юқори нав уруғларини танлашда маслаҳат ва тавсиялар бериш; агротехник тадбирларни ўз вақтида сифатли бажарилишига кўмаклашиш; тижорат

¹Манба: 3-расм А.Ж.Абдуллаевнинг изланишлари асосида ишлаб чиқилган.

банкларидан кредит олишга амалий ёрдам кўрсатиш; пахта хом ашёсини харид қилиш учун ҳамкорликда мақбул механизмларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш; аъзолар маблағларини бирлаштириш ҳисобига тайёрлов, қайтаишлаш, сотиш ва хизмат кўрсатиш шохобчалари/корхоналарини ташкил қилиш; аъзоларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларини тегишли муассасаларда ҳимоя қилиш; аъзоларни ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар ва зарур турли ахборот маълумотлари билан таъминлаш ва бошқалар.

Кенгаш раиси кластерга аъзо хўжалик субъектларининг раҳбарлари/вакиллари иштирокида умумий йиғилишда сайланади. Кенгашга, шунингдек аъзо хўжалик субъектларидан (ёки хўжалик субъектлари гуруҳлари номидан) бир нафардан номзод аъзо этиб сайланиши мумкин.

Кластер кенгаши кластер Устави, ички иш юритиш, маҳсулот ишлаб чиқариш, таъминот, иш бажариш ва хизмат кўрсатиш бўйича тузилган шартномаларга мувофиқ жорий йилда олинishi кутилаётган йиллик фойданинг неча фоизини кластерга аъзо хўжалик субъектларига ажратилиши ва неча фоизини аъзоларнинг улушини ҳисобга олган ҳолда қайта тақсимлаш каби масалалар бўйича қарорлар қабул қилиши мумкин (3-расм).



3-расм. Кластерга аъзо хўжалик субъектлари ўртасида ўзаро кооперация муносабатларининг иқтисодий тузилмасининг лойиҳаси¹

¹Манба: 4-расм А.Ж.Абдуллаевнинг изланишлари асосида ишлаб чиқилган.

Мазкур муносабат пировард натижада етиштирилаётган пахта хом ашёси таннархини пасайтириш ва сотишдан олинаётган даромадларни кўпайтириш, ички ва ташқи бозордаги саноат корхоналарини сифатли пахта хом ашёси/ярим тайёр ёки тайёр маҳсулотлар, аҳолини эса озик-овқат маҳсулотларига бўлган талабини қондириш, ҳамкорликда табиий ва моддий-техника ресурсларидан самарали фойдаланишга эришилади.

Кластер кенгаши умумий йиғилишида қабул қилинган қарорлар, тавсиялар ва таклифлар аъзо бўлган хўжалик субъектлари томонидан бажарилиши шарт ҳисобланади. Кластер умумий йиғилишида аъзо пахтачилик фермер хўжаликларида йиллик пахта хомашёсини ишлаб чиқариш режаси, барча агротехнологик тадбирларга хизмат кўрсатиш, хом ашёни сақлаш, тайёрлаш, қайта ишлаш, ярим тайёр/тайёр маҳсулотларни ишлаб чиқариш, сотиш ва пировард натижада йиллик даромад суммаси тасдиқланади.

Юқорида билдирилган фикрлар ва йўналишларни умумлаштирган ҳолда пахтачилик кластери таркибидаги аъзо хўжалик субъектлари ўртасида кооперация муносабатларини ривожлантиришнинг иқтисодий самарадорлиги энг аввало қуйидаги кўрсаткичлар орқали ифодаланади:

биринчидан, ҳар бир аъзо - хўжалик субъектининг мулкый ҳуқуқлари, ер-сув, ишлаб чиқариш воситалари, етиштирилган маҳсулот, янгидан яратилган қўшимча қийматни ўзаро келишилган қисмига эгалик қилишни таъминланганлиги;

иккинчидан, ҳар бир аъзо - хўжалик субъектининг тадбиркорлик фаолиятини эркинлиги, пахта хом ашёсини етиштириш учун экин майдони таркиби белгилаш, белгиланган майдонда чигит экилишини мустақил амалга ошириш, агротехнологик ва бошқа зарур тадбирларни эркин белгилаш ва сифатли амалга оширишни таъминланиши;

учинчидан, ҳар бир аъзо учун хизмат кўрсатиш, таъминот ва иш бажариш бўйича тенг манфаатларни шакллантириш; етиштирилган маҳсулотларни қабул қилиш, тайёрлаш ва қайта ишлашда тизимли ички тадбирларни амалга ошириш; етиштирилган маҳсулотларга эркин баҳо белгилаш; ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотларни экспорт қилиш ва хорижий ҳамкорлар билан мустақил иқтисодий алоқа ўрнатиш; кластерни ривожлантириш мақсадида ички ва ташқи инвестицион лойиҳаларни эркин жалб қилиш;

тўртинчидан, ҳар бир аъзо хўжалик субъекти учун ресурслар ва хизматлар бозорида танлов эркинлигини яратиш; ички ва ташқи бозордан инновацион технологиялар ҳамда ресурстежамкор ишланмаларни эркин ва мустақил харид қилиш имкониятини яратилиши; кластер ичида хўжалик субъектлари учун рақобат муҳитини яратилиши билан асосланади.

Юқоридаги таҳлиллардан кўриниб турибдики, кластерларни самарали ва муваффақиятли фаолият кўрсатиши энг аввало қишлоқ хўжалиги товар маҳсулотларини ишлаб чиқарувчи хўжалик субъектлари ва агросаноат мажмуи корхоналари (АСМ) ўртасида иқтисодий - ҳуқуқий муносабатларни бозор тамойиллари асосида ўрнатилишига боғлиқ.

**Ахунова Шохиста Наманжановна-к.э.н.,
доцент кафедрсы экономика, ФерПи
эл.п.: shoxista1975@mail.ru**

**Туичиева Шохсанам-студентка 4 курса
направления Экономика, ФерПи
эл.п.: halikovnashoxsanam01@gmail.com**

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ ЗАНЯТОСТИ В ТРУДОВОМ РЫНКЕ НА ПРИМЕРЕ ДАННЫХ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Теоретическая часть

В современных условиях, когда страна ставит перед собой амбициозную цель быстрого перехода в группу стран с уровнем дохода выше среднего, проблема сокращения безработицы и увеличения уровня занятости становится крайне важной, поскольку без обеспечения инклюзивного роста производительности труда и реальных доходов населения, без расширения среднего класса достичь эту цель невозможно. Благодаря политике правительства, Узбекистан начал предпринимать решительные и значительные шаги к достижению этой цели. В последние годы в стране осуществляется планомерная работа по обеспечению занятости населения, созданию

благоприятных условий для трудоустройства нуждающихся слоев населения и созданию новых рабочих мест. Но как это повлияло на структуру рынка труда будем анализировать в ходе написания статьи. Для этого определим основных показателей раскрывающее картину состояния рынка труда.

Рынок труда характеризуется такими показателями, как численность экономически активного населения, численность людей, занятых в экономике и уровень безработицы. Эти данные составляют баланс трудовых ресурсов.

Баланс трудовых ресурсов — система показателей, отражающих численность и состав трудовых ресурсов, и их распределение на занятых, безработных и экономически неактивное население. Ниже приведён расчетный баланс основных показателей трудовых ресурсов Ферганской области за последнее четыре года (табл.1).

Таблица 1

Расчетный баланс основных показателей трудовых ресурсов Ферганской области за январь-декабрь 2019-2022 года.


Года	Экономически активное население	Занятые, всего	Уровень безработицы, в %
2019	1 644 762	1 492 546	9,3
2020	1 613 880	1 438 339	10,9
2021	1 648 796	1 483 302	10,0
2022	2 092 253	1 518 252	9,1

Для полного представления яркой картинке изменения уровня занятости за 2019-2022 гг., на основе таблицы построим диаграмму, показывающее динамику изменения численности экономически активного населения и при этом долю занятых на трудовом рынке Ферганской области (рис.1).

Рис. 1. Динамика занятости на трудовом рынке Ферганской области за последние годы.

Из диаграммы можем подвести следующие итоги о структуре рынка труда в Ферганской области:

1. Пандемия начавшееся в конце 2019 года привело к снижению численности экономически



активного населения и уровня занятости в 2020 году. Но, несмотря на это с 2021 года рынок труда начал оживляться.

2. Доля занятых за 2020 год составляло 81,9 % из численности экономически активного населения. Этот показатель за 2021 год изменился (увеличился) на 89,9 %. А в 2022 году снизился на 17,3 % и составлял 72,6 % от доли экономически активного населения;

3. Несмотря на увеличение численности экономически активного населения за 2022 год, число занятых в процентных отношениях ниже чем предыдущие годы почти на 18 %;
4. Причиной снижения уровня занятых может способствовать такие показатели как увеличение численности населения, увеличение числа занятых в неформальном секторе экономики, увеличение выехавших лиц за границы за поиском работы, а самое значительное нехватка квалифицированных кадров, что приводит к пустым вакантным местам на рынке труда и снижает уровень формальной занятости.

Из исследований статистических данных выявилось, что в общей численности населения за последнее четыре года значительного изменения не произошло, точно также и в численности трудоспособном слое населения. По официальным данным число мигрантов за последнее пять лет в стабильном состоянии и не может отрицательно повлиять на снижение числа занятых в регионе.

Из всего вышеуказанного сделаем вывод, что снижению уровня занятости в 2022 году способствовало развитие инновационной и цифровой среды в экономике, что привело к нехватке высококвалифицированных и конкурентоспособных кадров на трудовом рынке Ферганской области. Для решения проблемы занятости предложим некоторые рекомендации:

- ✓ сохранение и охрана человеческого ресурса, как наиболее важного элемента производительных сил каждой страны;
- ✓ перестройка кадровой политики и укрепление его на правовых основах;
- ✓ уделять особое внимание в сферу образования новых молодых специалистов, на котором через определённое время пойдут на, обновлённый мировыми требованиями, рынок труда, где существует жёсткая конкуренция и острые требования при выборе кадров-специалистов;
- ✓ использовать мировую методику при переподготовке специалистов.

Использованная литература

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 22.12.2017 г. № 1011. <https://lex.uz/uz/docs/3469431>
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 13.12.2018 г. № 1009. <https://lex.uz/docs/4104709>
3. А.Я. Кибанов. Основы управления персоналом. М.: ИНФРА-М, 2017.
4. С.Г. Ермолаева. Рынок труда: учебное пособие / — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015.
5. У.К. Мухторова, старший преподаватель Ташкентский финансовый институт (Узбекистан, г. Ташкент). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ И РЕГУЛИРОВАНИЕ РЫНКА ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ. Journal of Economy and Business, vol.4, part 1.

Салаев Санъатбек Камилович
УрДУ Иқтисодиёт кафедраси профессори
иқтисодиёт фанлари доктори, s_sanat@list.ru
Таджиев Бехзод Умиджанович
УрДУ Иқтисодиёт кафедраси доценти,
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори,
tadjievbekzod1985@bk.ru

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЯНГИ ИМКОНИЯТЛАРИ

Жаҳонда иқтисодиётни барқарор ривожлантириш, аҳоли бандлигини ошириш ҳамда камбағалликни қисқартиришда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик (КБХТ) алоҳида ўрин тутди. Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ОЕСД) маълумотларига кўра, Япония ва Хитой иқтисодиётида КБХТнинг ЯИМдаги улуши 60 фоизни, Францияда – 56 фоизни, АҚШ ва Буюк Британияда – 51 фоизни ташкил этади¹.

Мамлакатимиз иқтисодиётида 2022 йил якуни бўйича КБХТнинг мамлакат ЯИМдаги улуши 51,8 фоизни ташкил этди². Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясининг 2022-2026 йилларда учинчи ўстириш йўналиши

¹ <https://www.oecd.org>.

² Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. www.stat.uz

сифатида “тадбиркорлик фаолиятини янада кўллаб-қувватлаш, солиқ юкини камайтириш, бизнес муҳити ва зарур инфратузилма яратиш асосида миллий иқтисодиётни, унинг ўсиш суръатларини замон талаблари даражасида ривожлантириш”¹ зарурлиги белгиланиб, КБХТни янада ривожлантириш учун зарур имкониятлар давлатимиз тамонидан яратилтиб келинмоқда.

Охириги 3 йилдан бугунги кунгача назар соладиган бўлсак, Мухтарам Президентимиз тамонидан қабул қилинаётган қарор ва фармонлар мамлакатимизда тадбиркорлик муҳитини янада яхшилаш, аҳолини иш билан бандлигини тامينлаш ва даромадларини оширишга қаратилаётганлигини куришимиз мукин.

Қуйидаги 1-жадвалдан кўринадики, давлатимиз тамонидан тадбиркорлик ва кичик бизнесни кенг ривожланиши учун ниҳоятда катта имкониятлар яритилаб келинмоқда.

1-жадвал²

КБХТни ҳуқуқий ва молиявий кўллаб-қувватлаш, ривожланиш муҳитини янада яхшилаш бўйича қабул қилинган қарор ва фармонлар

№	Қарор ёки Фармон номи	Йили, сана ва сони	Стратегия ёки давлат дастури
1	«Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»	2020 йил 13 октябрдаги ПҚ-4862-сон қарори	2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси
2	«Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш давлат дастурлари доирасида амалга ошириладиган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»	2021 йил 27 мартдаги ПҚ-5041-сон қарори	2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси
3	«Мева-сабзавотчилик ва узумчиликда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш, кишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида деҳқон хўжалиқларининг улушини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»	2021 йил 23 ноябрдаги ПҚ-20-сон қарори	2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси
4	«Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устувор йўналишлари тўғрисида»	2021 йил 3 декабрдаги ПФ-29-сон Фармони	2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси
5	«Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ҳоким ёрдамчилари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»	2021 йил 3 декабрдаги ПҚ-31-сон қарори	2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси
6	«Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳузуридаги Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»	2021 йил 24 декабрдаги ПҚ-62-сон қарори	2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси
7	«Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш ва аҳолининг даромад манбаини кенгайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»	2021 йил 20 декабрдаги ПҚ-55-сон қарори	2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармони.

² <https://lex.uz/uz/> Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси

Iqtisodiy tadqiqotlarga asoslangan oliy ma'lumotli iqtisodchi kadrlarni tayyorlash: muammolar va innovatsion yechimlar

8	“Норасмий бандлик улушини қисқартириш ҳамда меҳнат ресурслари балансини замонавий ёндашувлар асосида шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида”	2022 йил 30 августдаги ПҚ-366-сон Қарори	2022-2026 йилларга мўлжалланган Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси	Янги таракқиёт
9	«Дехқон хўжаликлари ташкил этишни қўллаб-қувватлаш орқали аҳоли даромадларини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»	2022 йил 10 сентябрдаги ПҚ-373-сон қарори	2022-2026 йилларга мўлжалланган Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси	Янги таракқиёт
10	«Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида аҳолининг бизнес ташаббусларини қўллаб-қувватлашни янги босқичга олиб чиқишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»	2023 йил 31 январдаги ПҚ-39-сон қарори	2022-2026 йилларга мўлжалланган Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси	Янги таракқиёт

Юқоридаги 2020-2023 йилларда қабул қилинган қарор ва фармонлар тадбиркорлик муҳитини янада яхшилаш ва ушбу соҳани кенг ривожланиши учун янги катта имконият яратиб, аҳолини иш билан таъминлашга, янги иш ўринлари яратишга ҳамда ўз-ўзини иш билан банд қилишга замин яратиб келмоқда. Жумладан, 2022 йил 1 ноябрдан бошлаб қуйидаги 2-жадвалда кўрсатилган қўшимча яна 10 та фаолият тури ўзини ўзи банд қилган шахслар шуғулланиши мумкин бўлган фаолият (ишлар, хизматлар) турлари рўйхатига киритилди.

2-жадвал

Ўзини ўзи банд қилган шахслар шуғулланиши мумкин бўлган қўшимча фаолият (ишлар, хизматлар) турлари рўйхати¹

Т/р	Йўналиш номи
1.	Уй ҳайвонлари (қорамол, қўй, эчки, от ва бошқалар) бозорларида воситачилик хизмати
2.	Автомобиль бозорларида воситачилик хизмати
3.	Риэлторлик хизматини кўрсатиш (ижарага уй топиб бериш, уй сотиб олиш ва сотишга кўмаклашиш)
4.	Уйда сут ва сут маҳсулотларини қайта ишлаш ва сотиш хизмати
5.	Маиший буюмларни ижарага бериш хизмати (стол-стул, идиш-товоқ, асбоб-ускуна ва бошқалар)
6.	Гипс ва ганчдан буюмлар ясаш (уй жиҳозлари, эртақ қаҳрамонлари ҳайкалларини ясаш)
7.	Тош ва тош маҳсулотларидан ёдгорлик, сувенир ва декоратив буюмлар тайёрлаш
8.	Ёғоч маҳсулотларидан сават, нон маҳсулотлари учун махсус идиш ва бошқа буюмларни тўқиш
9.	Уй шароитида пилла етиштириш, шахсий томорқа ер участкасида тут меваси, ниҳоли ва кўчатини етиштириш, уйда ипак мато, ипак гилам тўқиш ва сотиш
10.	Кулолчилик

2023 йил 1 январдан бошлаб ўзининг шахсий томорқа ер участкасида 3-жадвалда кўрсатилган фаолият турлари билан шуғулланаётган фуқаролар томонидан йилига базавий ҳисоблаш

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Норасмий бандлик улушини қисқартириш ҳамда меҳнат ресурслари балансини замонавий ёндашувлар асосида шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2022 йил 30 августдаги ПҚ-366-сон Қарори.

микдорининг камида бир баравари микдорида ижтимоий солиқ тўланган тақдирда, улар расмий банд бўлган аҳоли тоифасига киритилади ва ушбу давр уларнинг меҳнат стажига қўшилади.

3-жадвал

Шахсий томорқа ер участкаларида юритиладиган қўшимча фаолият турлари рўйхати¹

Т/р	Йўналиш номи
1.	Чорвачилик (қорамол, қўй, эчки, от ва бошқалар)
2.	Иссиқхона
3.	Паррандачилик (бедана, курка, ғоз, ўрдак)
4.	Куёнчилик
5.	Асаларичилик
6.	Балиқчилик
7.	Боғдорчилик
8.	Лимончилик
9.	Гулчилик

Бизнинг фикримизча ўзини ўзи банд қилиб, норасмий бандлик улушини камайтириш тизимини шакллантиришга бўлган бундай ёндошув қуйидаги вазифаларни ҳал этишни кўзда тутади:

- ишлаб чиқаришни ва хизмат кўрсатишни ташкил этиш, тадбиркорликнинг ўз ўзини банд қилиш шаклини асослашни;
- ўз ўзини банд қилиш фаолият йўналишларини ташкил этиш ва амалга ошириш тамойилларини ишлаб чиқишни;
- ўз ўзини банд қилиш йўналишларига талаб катта бўлган жойларда ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш доираларини ташкил этиш йўналишларини белгилашни.

Юқоридаги ўтказган тадқиқотларимиздан келиб чиққан ҳолда фикримизча, давлатимиз тамонидан тадбиркорликни ривожланиши ва иш билан бандликни ошириш ҳамда норасмий бандликни камайтириш учун қабул қиланаётган қарор ва фармонлар, берилаётган имтиёзлар ва кенг имкониятлар мамлакатимизда кичик бизнес ва тадбиркорликни янада ривож топишига замин яратади.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида” ПФ-5953, 02.03.2020.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Норасмий бандлик улушини қисқартириш ҳамда меҳнат ресурслари балансини замонавий ёндашувлар асосида шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2022 йил 30 августдаги ПҚ-366-сон Қарори.

4. <https://lex.uz/uz/> Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. www.stat.uz
6. <https://www.un.org/ru/observances/micro-small-medium-businesses-day>.
7. <https://www.oecd.org>.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Норасмий бандлик улушини қисқартириш ҳамда меҳнат ресурслари балансини замонавий ёндашувлар асосида шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2022 йил 30 августдаги ПҚ-366-сон Қарори.

Курманов Н.А., PhD, профессор,
Евразийский национальный университет
им. Л.Н. Гумилева, Астана, Казахстан,
e-mail: Kurmanov_NA@enu.kz

Рахимбекова А.Е., PhD,
Esil University, Астана, Казахстан,
e-mail: rahim_asel@mail.ru

Сатбаева А.Ж., PhD,
«АО «Фонд развития промышленности»,
Астана, Казахстан,
e-mail: aizhan198@mail.ru

Алиев У.Ж., PhD,
Центр научных стратегических исследований,
Астана, Казахстан
e-mail: aliyev0901@gmail.com

Жагалбаев Б.Т.
Евразийский национальный университет
им. Л.Н. Гумилева, Астана, Казахстан
e-mail: bolatzhagalbayev@mail.ru

ОРГАНИЗАЦИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ОБРАБАТЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ КАЗАХСТАНА

В условиях нарастания неопределенности на внутреннем и внешних рынках, связанной с колебаниями цен на энергоресурсы, предприятия обрабатывающей промышленности нуждаются в новых подходах организации инновационной деятельности, основанных на современных инструментах исследования будущего – методологии Форсайта и технологического дорожного картирования. В основе многочисленных современных исследований инноваций и инновационной деятельности лежат передовые методы форсайта: прогнозирование, Дельфи, ретрополяция, разработка сценариев и дорожных карт, которые также используются в практической плоскости предприятий при формировании инновационной политики. Среди перечисленных методов форсайта передовым инструментом признано построение Дорожной карты инновационной деятельности предприятий, обеспечивающей сбор необходимых данных, их интерпретацию и способствующей к созданию научно-обоснованного знания о будущем. Во многом практическая направленность форсайта и дорожного картирования объясняет слабую методологическую базу в их реализации. Тем не менее следует отметить значимость теоретических и методологических разработок в этом направлении таких исследователей как: Матич Л.Ю., De Alcantara D.P., Geum Y., Hussein M., Kehl W., Wright G.

Для проведения исследования и построения дорожной карты организации инновационной деятельности предприятий обрабатывающей промышленности были отобраны 10 экспертов-представителей научного сообщества и 10 экспертов представителей бизнес-сообщества.

Основными методами проведения дорожного картирования организации инновационной деятельности предприятий обрабатывающей промышленности (ОП) Казахстана выступили: семинар, фокус-группа и экспертная панель, мозговой штурм, экспертные опросы.

В ходе проведения семинара с представителями экспертной сети были представлены результаты проведенного исследования в рамках научного проекта AP09058009 «Оценка и развитие механизмов стимулирования инновационной деятельности предприятий обрабатывающей промышленности в Казахстане на основе методологии форсайта и технологического дорожного картирования»: зарубежный опыт организации инновационной деятельности в сфере предпринимательства; результаты анализа организации инновационной деятельности на предприятиях ОП Казахстана. В ходе обсуждения результатов выявлены следующие ключевые проблемы в инновационной деятельности:

3 пакет	<p>26 февраля 2022 года начал действовать третий пакет санкций против России за вторжение на Украину. Этому послужило объявление председателя Еврокомиссии касающегося того, что резервы ЦБ РФ, которые находятся в банках стран «Большой семерки», замораживаются (половина резервов ЦБ). Также было сказано, что программа «золотые паспорта» для инвесторов из России отменяется. В продолжении пакета можно отметить отключение части российских банков от системы SWIFT, а именно: «Открытие», ВТБ, «Совкомбанк», «Новикомбанк», «Промсвязьбанк». Данные санкции поддержали ряд стран: ЕС, США, Великобритания, Фарерские острова и Канада. Следующие шаги последовали от Китая. Положено начало ограничений транзакций такими банками, как Industrial and Commercial Bank of China и Bank of China. Последствием послужило расширение от китайской валютно-торговой системы валютного коридора юаня к рублю вдвое. Швейцария также приняла участие во введении санкционного режима против России. Их банки получили запрет на принятие новых средств от физических и юридических лиц, которые вошли в санкционный список ЕС. Кроме того, норвежский пенсионный фонд заявил о выводе всех его активов из Российской Федерации (около 2,8 миллиарда долларов). Многие другие страны (например, Албания, Северная Македония, Монако и др.) тоже присоединились к протесту и мерам, выдвинутым против России.</p> <p>2 марта выдвинут новый запрет от Евросоюза на продажу, поставку, передачу и экспорт евро банкноту в РФ. Этим же числом Японией были заморожены активы некоторых банков (Совкомбанк, «Открытие», ВТБ и другие).</p> <p>Важным протестом против России также являются санкции Всемирного банка и банка инфраструктурных инвестиций Азии. Они заявили о прекращении всех своих программ как с Российской Федерацией, так и с Белоруссией. Следующий шаг был сделан 5 марта. Сингапур ввёл свой новый пакет санкций. Он включал в себя: заморозку активов и запрет сделок с ВТБ, ВЭБ.РФ, Промсвязьбанком и «Россией»; запрет операций и финансовых услуг в пользу правительства РФ, Банка России и организаций, связанных с ними; запрет финансовым учреждениям проводить любые операции с криптовалютами, которые могут позволить организациям из России обходить санкции.</p>
4 пакет	<p>Новая Зеландия заморозила активы «Промсвязьбанка» и еще 18 организаций, Австралия ввела санкции против 11 российских банков и госструктур: «Сбербанка», «Газпромбанка», ВЭБ, ВТБ, «Россельхозбанка», «Совкомбанка», «Новикомбанка», «Альфа-банка» и Московского кредитного банка, Фонда национального благосостояния и Министерства финансов России, Литва запретила вывозить в Россию и Белоруссию больше 60 евро наличными. Кроме того, физическим и юридическим</p>

лицам запретили продавать, передавать или экспортировать евро в Россию и Белоруссию.

Великобритания в свою очередь ввела санкции против 26 компаний из России и Белоруссии, среди которых: «Россельхозбанк», «Альфа-банк», «СМП банк», Уральский банк реконструкции и восстановления, Экспортное страховое агентство России (ЭКСАР).

Минфином США дал разъяснения к санкциям, введённым 15 апреля 2021 года, а именно запрет на прямую покупку долговых ценных бумаг у Центрального банка и Министерства финансов России, а также у Фонда национального благосостояния распространяется теперь и на транзакции по золоту. В финансовом секторе Швейцарии запреты касаются транзакций с определенными госпредприятиями

Повышение ключевой ставки имеет отложенный эффект. Новые кредиты будут выдаваться по более высоким ставкам. При этом проценты по вкладам для физлиц также увеличиваются. Повышение ключевой ставки никак не отразится на ранее выданных кредитах. Проценты останутся прежними. Одна из мер - повышение Центральным банком России ключевой ставки до 20%. На какой эффект рассчитывают специалисты? И как это отразится на рядовых гражданах¹? Ключевая ставка - это один из инструментов, который позволяет Центробанку контролировать курс рубля и влиять на экономику страны. Повышение ключевой ставки ЦБ, как правило, обусловлено желанием взять под контроль и снизить инфляцию. Однако вместе с тем высокая ставка несет и негативные последствия: покупательная способность населения и темпы развития экономики проседают². Последствия высокой ключевой ставки: высокие ставки по кредитам; высокие ставки по банковским депозитам; замедление экономики и производства; снижение покупательной способности; снижение инфляции.

ДИНАМИКА КЛЮЧЕВОЙ СТАВКИ ЦБ (% ГОДОВЫХ)

Источник: ЦБ.




Рисунок 1. Динамика ключевой ставки ЦБ России

При повышении ключевой ставки банки не предлагают рефинансирование, так как это невыгодно ни им, ни клиентам. При этом можно не переживать за то, что в старом банке повысят ставку - им запрещено повышать процентную ставку по кредитам в одностороннем порядке на законодательном уровне согласно ст. 29 ФЗ «О банках и банковской деятельности». В первую очередь ключевая ставка влияет на рынок облигаций. Если Центробанк ставку повышает, то старые облигации дешевеют, потому что новые обеспечивают их владельцам большую доходность. На стоимость акций ключевая ставка тоже влияет, и даже существенно. Если ставка снижается, то деньги дешевеют и их становится больше, инвесторы охотнее вкладывают их в рискованные активы - то есть в акции. Кроме того, при снижении ставки растет разница между доходностью облигаций и акций - доходность последних становится выше. Снижение процентных ставок также ведет к снижению цены национальной валюты, так как она становится доступнее. Падение национальной валюты, в свою очередь, ведет к тому, что инвесторы стремятся как можно быстрее избавиться от дешевеющих денег и вложить их в какие-либо активы - к примеру, в те же акции. Таким образом, низкая ключевая ставка положительно влияет на фондовый рынок. Высокая ключевая ставка, наоборот, повышает курс рубля и охлаждает интерес инвесторов к фондовому рынку.

¹ Результаты мониторинга максимальных процентных ставок кредитных организаций. - Текст : электронный // Банк России : [сайт]. - URL: http://www.cbr.ru/statistics/bank_sector/pdtko_sub/#a_96809link (дата обращения: 03.04.2022).

² Ставки выше ключевой. - Текст : электронный // Коммерсантъ : [сайт]. -URL: <https://www.kommersant.ru/doc/5270408?query=%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%B2%D0%BA%D0%B0> (дата обращения: 03.04.2022).

Мухаммедов Мурод Мухаммедович
Самарқанд иқтисодиёт ва
сервис институти профессори, и.ф.д.,
muhammedovmurod@rambler.ru,
Мухаммедова Зарина Муродовна
Самарқанд иқтисодиёт ва
сервис институти доценти, PhD
zarinamukhamedova@gmail.com

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ ЖАДАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЗАРУРАТИ

XX асрнинг охириги йилларида жаҳон иқтисодиётида вужудга келган асосий концепция – бу постиндустриал жамиятга ўтиш концепцияси бўлди ва ҳозир ҳам ўтиш жараёни узлуксиз давом этмоқда. Унинг асосида жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини илгари сурадиган турли хил назариялар ва қарашлар ётади. Ижтимоий ишлаб чиқариш таркибида хизмат кўрсатиш соҳасининг устунлиги нафақат иқтисодиётда, балки ижтимоий соҳада ҳам ижобий оқибатларга олиб келди, жамият тараққиётининг постиндустриал босқичига ўтиш белгиларидан биридир.

Саноати ривожланган мамлакатларнинг хизмат кўрсатиш иқтисодиётига ўтиши ўтган асрнинг 50-70-йилларида, ижтимоий такрор ишлаб чиқариш таркибида туб ўзгаришлар рўй бериб, хизмат кўрсатиш соҳаси иқтисодиётнинг бошқа тармоқларидан устунлик қила бошлаган пайтда содир бўлган. Шунини таъкидлаб ўтиш лозимки, ривожланган мамлакатларнинг хизмат кўрсатиш соҳасидаги бу туб ўзгаришлари осонлик билан кечмаган. Ривожланган мамлакатларнинг илғор тажрибасини ўрганиш ва уни амалиётга татбиқ этиш, авваламбор уларнинг иқтисодиёти таркибида бўлиб ўтаётган тармоқлар бўйича таркибий ўзгаришлар сабабларини аниқлаш ниҳоятда муҳим ҳисобланади. Тадқиқотчи Д.С.Квасова Буюк Британия, Германия ва Франция мисолида ривожланган мамлакатларда учламчи сектор ривожланишини синчиклаб таҳлил қилиб, ушбу мамлакатлар иқтисодиётида учламчи сектор ривожланишининг ўзига хослиги аҳоли турмуш тарзи, унинг менталитети, тарихий ривожланиш хусусиятлари, бошқа соҳалар ҳолати ва албатта, ҳукуматнинг ҳаракатлари таъсири остида шаклланади деган хулосага келган.¹ Илмий нуқтаи назардан қараганда, тадқиқотчининг иқтисодиётнинг иккиламчи секторининг инновацион ривожланишини хизмат кўрсатиш соҳасининг ўсишида муҳим аҳамият касб этиши ҳақидаги хулосаси алоҳида эътиборга лойиқдир. Буни айнан саноат ва қурилиш учламчи секторни, яъни хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантиришнинг моддий базаси эканлиги билан изоҳлашимиз мумкин.

Дунёнинг ривожланган мамлакатларида асосий макроиқтисодий кўрсаткич, яъни, ялпи ички маҳсулотнинг шаклланишида хизмат кўрсатиш соҳасининг ўрни беқиёс. Шу билан бирга, жаҳон иқтисодиётида жами ялпи ички маҳсулотдаги хизматлар улушининг барқарор ўсиши кузатилмоқда. Пандемия хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиш суръатларига салбий таъсир кўрсатишига қарамай, иқтисодиёти ривожланган мамлакатлар ялпи ички маҳсулотининг юқори улушини ҳамон эгаллаб турибди. Ҳозирги кунда ушбу соҳа ЯИМ умумий ҳажмининг қарийб 70 фоизни ташкил этиб, моддий ишлаб чиқариш соҳаси улушидан сезиларли даражада юқори. Бу улуш АҚШда 77,4 фоизни, Буюк Британияда 71,0 фоизни, Францияда 70,3 фоизни, Канадада 70,2 фоизни, Россияда 55,4 фоизни, Хитойда 54,1 фоизни² ва Ўзбекистонда 41,5 фоизни³ ташкил этмоқда.

Хизматлар соҳасининг ривожланиши ва хизматлар сифати барқарор иқтисодий ўсиш ва жамият фаровонлигининг гаровидир. Хизмат кўрсатиш соҳасидаги ўсиш омили – бу ижтимоий эҳтиёжлар тизимида содир бўлаётган ўзгаришлар, аҳолининг реал даромадлари ўсиши, ҳаёт даражаси ва сифатининг яхшиланиши, шунингдек, инсон маърифий ва маданий савияси ошишининг натижасидир. Бу, ўз навбатида, бандликни таъминлаш ва қашшоқликни камайтириш билан боғлиқ.

Шу билан бирга, учламчи секторни жадал ривожлантириш ва унинг мамлакат ЯИМдаги улушини кескин ошириш жуда мураккаб жараён ва у катта қийинчиликларни юзага келтиради, бу, бизнингча, биринчи навбатда, маъмурий-худудий тузилмалардан мерос бўлиб қолган ноқулай

¹ Kvasova D.S. Development of the tertiary sector of the economy in developed countries. Proceedings of BSTU Series 5, No. 2, 2018, P. 86.

² Доля услуг в ВВП Топ-20 экономик мира. <https://credinform.ru/ru-RU/Publications/Article/6d99e95b11d8>

³ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

тузилма билан боғлиқ. Ўзбекистонда учламчи секторнинг ривожланмаганлиги кўп жиҳатдан хизмат кўрсатиш соҳасининг жуда истиқболли тармоқларини (масалан, таълим, туризм, соғлиқни сақлаш, рақамли иқтисодиёт ва бошқалар) молиялаштириш учун инвестиция ресурсларининг танқислиги билан боғлиқ.

Илмий тадқиқотларда амалга оширилаётган оқилона ёндашувлар билан учламчи секторни жадал ривожлантириш иқтисодиётнинг ўсишига кучли туртки бериши, иқтисодиётнинг бошқа секторларига нисбатан моддий ва номоддий хизматлар турларини ишлаб чиқаришда чекланган инвестиция ресурсларидан самарали фойдаланишни таъминлаши мумкин. Бинобарин, хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш ва унинг мамлакат ялпи ички маҳсулотига қўшган ҳиссасини ошириш – бу шунчаки оддий мақсад эмас, балки халқнинг келажакдаги фаровонлигини ошириш йўлида амалга оширилаётган макроиқтисодий сиёсатдир. Бундай ёндашув асосида иқтисодиётни ривожлантириш, учламчи секторнинг ЯИМ ва бандликдаги улушини ошириш унинг иқтисодий ва ижтимоий самарадорлигини оширишнинг ишончли, узоқ муддатли воситаси сифатида қаралиши лозим. Ривожланган мамлакатлар тажрибасига эътибор қаратадиган бўлсак, хизмат кўрсатиш соҳасини асосан интенсив ривожлантириш ташаббускори бўлган ва унинг иқтисодиётдаги устун мавқеини таъминлаган давлатлар дастлаб миллий иқтисодиёт самарадорлигини тубдан ошириш мақсадини кўзлаганини кўриш мумкин. Улар иқтисодиёт таркибий тузилишини учламчи сектор фойдасига тубдан ўзгартириш масъулиятини ўз зиммаларига олдилар ва натижада иқтисодий тараққиётда катта муваффақиятларга эришдилар, дунёнинг ривожланган давлатлари рўйхатидан муносиб ўрин эгаллаб, ўз халқи учун юқори турмуш даражасини таъминладилар.

Хулоса сифатида, Ўзбекистон иқтисодиётида учламчи секторни жадал ривожлантириш асосида муносиб инсон ҳаётини шакллантиришнинг ижтимоий омилларига эътибор беришимиз жоиз. Умуман олганда, ишлаб чиқаришни моддий бойлик яратишдан хизматлар кўрсатишга йўналтиришнинг умумжаҳон глобал тенденцияси, бизнинг фикримизча, уларнинг юқори ликвидлиги, ишлаб чиқарувчига маблағларнинг қисқа муддатда келиб тушиши, нисбатан паст материал сифими (шу жумладан, моддий хизматлар деб аталадиган) билан боғлиқ, бу эса қўшимган қиймат миқдорини ва демак, миллий даромадни оширади.¹ Хизмат кўрсатиш соҳаси нафақат барқарор иқтисодий ўсишга эришиш билан боғлиқ муаммоларни, балки жамиятнинг ижтимоий ривожланишининг кескин муаммоларини ҳам муваффақиятли ҳал қилиш имконини беради. Хизмат кўрсатиш соҳаси аҳоли турмуш даражасини ошириш, бўш вақтини кўпайтириш ва ҳаёт сифатини яхшилаш имконини беради. Бундан ташқари, ишлаб чиқаришга эркин ишчи кучини фаол жалб этади, аҳоли бандлиги даражасини ва меҳнат ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини сезиларли даражада оширади, янги иш ўринларини яратади, ўз ходимларига ҳам, мамлакат аҳолисига ҳам катта даромад келтиради.

У.Р.Матякубов

Урганч Давлат университети

Менежмент ва маркетинг кафедраси мудири, и.ф.д.

ОРОЛБЎЙИ МИНТАҚАСИДА АРХЕОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИ

Оролбўйи минтақасининг археологик туризм объектларига хорижий ва маҳаллий сайёҳларнинг ташрифи ошаётганлиги кузатилмоқда. Ёши 2500-3000 йиллар атрофида бўлган Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудида жойлашган “Аёзқалъа”, “Тупроққалъа”, “Гулдурсунқалъа”, “Қирққизқалъа” ҳамда Хоразм вилоятида жойлашган “Сулаймон қалъа” ва “Қалажиқ қалъа” каби қадимий қалъалар Оролбўйи минтақасининг асосий туристик объектлари рўйхатига киритилган².

Бугунги кунда Қорақалпоғистон Республикасининг Нукус-Элликқалъа-Тўртқўл туристик маршрутига “Чилпиқ қалъа”, “Жампиқ қалъа”, “Қизил қалъа”, “Тупроқ қалъа”, “Ахчахан қалъа”, “Аёз қалъа”, “Катта қирик қиз қалъа”, “Қўрғашин қалъа”, “Джамбас қалъа”, “Бургут қалъа”, “Қўй

¹ Volkova A.A., (2014). Service industry: theoretical analysis // Bulletin of the St. Petersburg University of Economics. No. 4 (88). S. 11 -16. (In Russ.).

²Манба: Хоразм вилояти ва Хива шаҳрининг туризм салоҳиятини комплекс ривожлантириш дастри тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 4 майдаги ПҚ-2953-сонли қарори

кирилган қалъа”, “Катта Гулдурсун қалъа” археологик объектлари кирган. Ушбу қалъаларга нафақат Қорақалпоғистон Республикасига ташриф буюрган хорижий сайёҳлар балки, Хоразм вилоятига ташриф буюрган туристларнинг қизиқиши ортмоқда. Хусусан Эллик қалъа туманида жойлашган Аёз қалъа”, “Тупроқ қалъа”, “Катта Гулдурсун қалъа” ва “Қизил қалъа” муҳим туристик асосий туристик йўналишлардан бири бўлиб қолмоқда.

Аёз-қалъа (мил.ав. IV-III асрлар) Қорақалпоғистоннинг энг хушманзара ёдгорликларидан бири ҳисобланади. Умуман олганда, бу ерда Султон Увайс тоғ тизмасининг шарқий томонида жойлашган 100 м. тепалиқда бир эмас, учта қалъа мавжуд бўлган. Катта Гулдурсун (мил.ав. IV-III асрлар - милодий III, XII-XIII асрлар) қалъа - илк антик даврда пайдо бўлганига қарамадан, Хоразмшоҳлар сулоласинг энг ёрқин ёдгорликларидан бири ҳисобланади.

Тупроқ қалъа (мил.ав. I-IV асрлар) Султон Увайс тоғ тизмасидан бир неча километр жанубда жойлашган. Ушбу қалъа антик даврда, Африғийлар сулоласи ҳокимиятга келишидан олдин, Қадимги Хоразм ҳукмдорларининг қароргоҳи бўлиб хизмат қилган. Қизилқалъа - Беруний шаҳридан 27 км шимолда жойлашган қалъа. Ушбу археологик ёдгорлик илк бор 1938 йил Хоразм археологик ва этнографик экспедицияси томонидан очилган.

Оролбўйи минтақаси археологик туризмни ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири инновацион технологияларни жорий қилиш ҳисобланади. Археологик туризм ривожланишининг минтақа туризм соҳанинг рақобатбардошлиги, туризм жозибадорлиги, сайёҳларга хизмат кўрсатиш сифатини оширишга хизмат қилади. Тадқиқотлар жараёнида, маҳаллий туроператорлар ва сайёҳлар билан мулоқотлар ўтказилиб, тарихий қалъаларни туристик жозибадорлигини smart технологияларни қўллаш асосида аниқлаш мақсадга мувофиқлиги аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал

Оролбўйи минтақаси археологик туризм объектлари жозибадорлигини аниқлашда smart технологияларни қўллаш устувор йўналишлари¹

№	Археологик туризм объектлари	Жойлашган ҳудуди	Smart технологияларни жорий қилиниши
1	Аёзқалъа, Туроққалъа, Жанбас қалъа, Гулдурсун қалъа, Қизилқалъа,	Қорақалпоғистон Республикаси, Элликқалъа тумани	Объектларни интерфаол харита ва буклетларини яратиш, интерактив мониторларни жойлаштириш
6	Кат қалъа	Хоразм вилояти Шовот тумани	Объектларни интерфаол харита ва буклетларини яратиш, интерактив мониторларни жойлаштириш, smart музейни ташкил қилиш
7	Ичан қалъа	Хоразм вилояти Хива шаҳри	Объектлар ва тарихий шахсларнинг голограммалаштирилган сиймоларини яратиш, музей экспонатлар ва объектларининг 3D нусхалари яратилиб, онлайн музей платформасига жойлаштириш
8	Қалажиқ қалъа	Хоразм вилояти Боғот тумани	Объектларни интерфаол харита ва буклетларини яратиш, интерактив мониторларни жойлаштириш
9	Сулаймон қалъа	Хоразм вилояти Хазорасп тумани	Объектларни интерфаол харита ва буклетларни яратиш, интерактив мониторларни жойлаштириш
10	Тошқалъа	Хоразм вилояти Тупроққалъа тумани	Объектларни интерфаол харита ва буклетларини яратиш, интерактив мониторларни жойлаштириш

Интерфаол хариталар, буклетлар ҳамда навигаторларни ўз ичига олган технологияларни жорий қилиш орқали Оролбўйи минтақасининг археологик туризм салоҳиятини ошириш

¹ Манба: муаллиф ишланмаси

имкониятлари кенгайди. Ушбу интерфаол хариталар асосида Оролбўйи минтақасидаги тарихий археологик қалъалар учун янги бўлган “Қадимий Хоразм пойтахтларининг олтин ҳалқаси” туристик маршрутини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқлиги асосланди (1- расм).



1- расм. “Қадимий Хоразм пойтахтларининг олтин ҳалқаси” туристик маршрути¹

Мазкур туристик маршрутнинг яна муҳим аҳамиятли томони шундаки, унда Хоразм вилоятида жойлашган Ичанқалъа, Тош қалъа, Қалажиқ қалъа, Сулаймон қалъа ва Кат қалъа каби муҳим археологик туристик объектларни ўз ичига олади. “Қадимий Хоразм пойтахтларининг олтин ҳалқаси” туристик маршрути туристик маршрутнинг амалга ошириш натижасида хорижий ва маҳаллий сайёҳларнинг Оролбўйи минтақасида қолиш муддати 1 кундан 2 кунга узаяди, шунингдек, маршрут давомида қўшимча овқатлантириш, кўнгилочар хизмат турлари таклиф қилинади.

Сафаров Бахтиёр Джуракулович

доцент, к.э.н., ТГЭУ

marketing_tsue@mail.ru, b.safarov04@gmail.com

Дадабаев Кучкар Абдуллаевич

профессор, к.э.н., ТГЭУ

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И КРИТИЧЕСКИЕ РИСКИ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПУТИ ИХ СНИЖЕНИЯ

Розничная торговля является флагманской отраслью экономики. Если экономика процветает, люди раскупают товары в магазинах, если наступает рецессия, снижается покупательская способность потребителей. Рост электронной коммерции, экономические санкции, бойкотирование продуктов и нестабильность международной торговли еще больше затрудняют прогнозирование степени риска, которой подвергается розничный сектор.

Неопределенность в международной торговле, применение экономических санкций, товарных бойкотов и доминирование гигантов Интернет торговли на рынке электронной коммерции - это лишь некоторые из рисков, которые должны учитывать предприятия розничной торговли.

¹ Манба: муаллиф ишланмаси

В этой быстро меняющейся среде розничные продавцы должны быть в состоянии адаптироваться к целому ряду новых требований потребителей, а также манипулировать незначительной цепочкой поставок и усугубляющимися потрясениями. Если они не адаптируются, они сталкиваются с необходимостью закрыть свои магазины.

Ниже приводим семь критических рисков, с которыми сталкивается предприятия розничной торговли в настоящее время:

1. Природные катастрофы. Для многих страхователей материальный ущерб является одной из первых проблем, которая приходит на ум после стихийного бедствия. Здания предприятий розничной торговли могут затопить, загореться или пострадать от сильного ветра. Вследствие этого страховые компании сталкиваются со счетами в больших размерах за ущерб, причиненный лесными пожарами, ураганами и землетрясениями.

2. Цепочка поставок. Усиливающаяся напряженность, вызванная торговыми войнами, экономическими санкциями в отношении отдельных стран все это приводит к нестабильности в глобальной торговле и ритейлеры сталкиваются с большой неопределенностью, когда речь идет о цепочке поставок. Вся эта неопределенность вызывает серьезное беспокойство у ритейлеров.

3. Кибератаки. До недавнего времени кибератаки были сосредоточены на технологических компаниях, а в настоящее время розничные компании и ритейлеры остаются главной целью для хакеров.

Репутационный риск и кража данных - не единственные риски, связанные с кибератаками. Потери, связанные с перерывами в работе третьих сторон также могут вполне нереальными, если вымогатели или вредоносные программы заражают компьютерную систему компании. В перспективе эти риски для ритейлеров будут только увеличиваться.

4. Снижение расходов на потребление. Поскольку потребители несут расходы, а политические эксперты считают, что на горизонте может произойти рецессия, то розничные торговцы должны добавить снижение расходов на потребление в список рисков, с которыми сталкивается их бизнес.

5. Товарный бойкот. Культура отмены и быстрое распространение активистских движений в социальных сетях сделали бойкот продукта основным методом воздействия в современной культуре многих стран.

Социальные сети оказали и будут оказывать существенное влияние на розничную торговлю, как для потребителя, так и для розничного продавца. Розничным торговцам также необходимо управлять рисками, связанными с социальными сетями, которые могут оказать влияние на репутацию, будь то недовольный клиент, проблема с продуктом или их потребительская база, негативно реагирующая на новую линейку продуктов, изменения внутри компании или озабоченность тем, что компания делает.

6. Интернет торговля. Покупки в Интернете - это не только угроза для обычных магазинов. Даже крупные ритейлеры изо всех сил пытаются увеличить свою клиентуру перед лицом таких гигантов онлайн-шоппинга, как Amazon. Доминирование домена Amazon в онлайн покупках должно быть особенно актуально для ритейлеров, которые пытаются развивать свой онлайн-бизнес.

7. Риск нехватки персонала и стареющая рабочая сила. Одной из главных проблем, с которой сталкиваются ритейлеры, является старение рабочей силы. По мере того, как население становится старше, рабочая сила становится все более чувствительной к своему здоровью, и поэтому наблюдается небольшое увеличение требований по компенсации работникам.

В системе управления риском важная роль принадлежит правильному выбору мер предупреждения и минимизации риска, которые в значительной степени определяют ее эффективность.

Наиболее общими, широко используемыми и эффективными методами предупреждения и снижения риска являются страхование, резервирование средств, диверсификация, лимитирование.

В мировой практике применяется множество различных, зачастую весьма оригинальных, путей и способов снижения риска - от традиционного страхования имущества или использования венчурных фирм, делающих бизнес на коммерческом освоении нововведений (научно-технических разработок с возможными отрицательными результатами), до системы мер по предупреждению злоупотреблений персонала в банковской сфере.

Следует отметить, что эффективность того или иного метода в значительной степени зависит от конкретной ситуации (уровень риска, необходимая степень снижения риска, требуемые дополнительные затраты, финансовые возможности предпринимателя и др.), а также вида риска и сферы предпринимательской деятельности.

На практике наиболее эффективный результат можно получить лишь при комплексном использовании различных методов снижения риска. Комбинируя их друг с другом в самых различных сочетаниях, можно достичь также оптимальной соотносительности между уровнем достигнутого снижения риска и необходимыми для этого дополнительными затратами.

Toxirov Javlon Raximovich
Buxoro davlat universiteti
Marketing va menejment
kafedrasi mudiri, i.f.f.d (PhD)

IQTISODIY FANLARNI O‘QITISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Hozirgi kunda O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad milliy iqtisodni barqarorlashtirish o‘z navbatida fuqarolarning tashabbuskorligi va tadbirkorligini namoyon qilish, tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy kafolatlarini ta’minlash, haqiqiy iqtisodiy barqarorlik uchun real sharoit yaratishdan iboratdir. Bu vazifalarning hal etilishi iqtisod tarmog‘i uchun ta’lim muassasasida olgan bilimlarini integratsiyalay oladigan, tez o‘zgarayotgan bozor sharoitida o‘z yo‘lini topib keta oladigan mutaxassislarni samarali tayyorlash bilan uzviy ravishda bog‘liqdir.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan 2021-yilning 16-iyun kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida: “Oliy ta’lim yo‘nalishlari bilan zamonaviy ehtiyojlar o‘rtasida uzilish juda katta ekani tanqid qilindi. Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo‘jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta oliy ma’lumot talab etadigan bo‘sh ish o‘rinlari bor. Lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo‘yicha ham bu talabni qondira olmaydi”¹, deya ta’kidladi.

Darhaqiqat, inson rivojlanishi konsepsiyasida ta’lim asosiy tarkibiy qismlardan biri hisoblanib, jamiyatning muhim muammolarini hal etishda ham u asosiy o‘rin egallaydi. Insoniyat sivilizatsiyasi davomida ta’lim va ilm-fanni yuqori darajada rivojlantirish ijtimoiy, texnik hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan.

Bulardan ma’lum bo‘ladiki, inson o‘z hayotida iqtisodiyot bilan doimiy munosabatda bo‘ladi. Iqtisodiy fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni iqtisodiy innovatsiyalarni yaratish borasidagi bilimlarini mustahkamlab ularni yangiliklar yaratishga undaydi desak adashmagan bo‘lamiz.


Shunga ko‘ra fanda “faollik” tushunchasiga har xil ta’riflar berilgan. Masalan, M.I.Lisina “faollik” tushunchasi psixologiyada uchta turli hodisani, ya’ni individning ma’lum muayyan faoliyatini, passivlikka qarama-qarshi holatni va tashabbuskorlikni yoki aktivlikka qarama-qarshi bo‘lgan hodisani ifodalash uchun bir xilda ko‘p qo‘llanilishini ta’kidlaydi².

Biz ta’limda xorij tajribasidan foydalanishda fikrimizni bejizga faollik so‘zidan boshlamadik. Chunki ta’lim jarayonida faollik juda muhim hisoblanadi va bu borada rivojlangan mamlakatlar ham ta’lim jarayonida faollikni ta’minlashga harakat qilishadi.

Jumladan, Erasmus+ dasturining CACTLE (Central Asian Center for Teaching, Learning and Entrepreneurship) loyihasiga asoslanib, ilg‘or xorij tajribalaridan foydalanishda Vena modelini yoritishga qaror qildik. Buning boisi CACTLE loyihasida yetakchi unversitet WU (Vienna university of economics and business) hisoblandi. Ushbu model WU unversitetida qo‘llaniladi va ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yilning 16-iyun kuni “Oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalar”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida e’tirof etilgan topshiriqlar. 22:50 16 Iyun 2021 439 – 2 bet.

² Лисина М.И. Общение, личность и психика ребенка // Под ред. А.Рузской. –М.: 2007.



1-rasm. Darsni rejalashtirish qismlari (Vena modeli)¹

Kirish qismida mavzuni mazmunini ochib berish uchun asosan savollar muhim o‘rin eganlaydi. Bu har qanday darsning juda muhim qismi, chunki u talabalarni fikrlashga undaydi.

Nima uchun asosiy e’tiborni savollarga qaratish kerak? Ushbu savolga javob topishda quyidagi uch jihatni inobatga olish lozim.

1-jadval

Yondashuv	Jarayon	Natija
Blum taksonomiyasida muammolarga yuqori darajada diqqatni jalb qilish uchun asosiy savollarga e’tibor qaratish lozim. Shunda muhokamali va o‘ylantiruvchi savol tug‘iladi.	Muhim savollar oldindan rejalashtirilgan bo‘lishi va Blum taksonomiyasiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Ular darsning boshida belgilanadi va barcha fikrlashlardan foydalanib, faqat dars oxirida javob berilishi mumkin.	Muhim savollar o‘ylantiradi, birgalikda fikrlashni, taqdim etilgan ma'lumotlarning shaxsiy sharhini va aniq javoblarni talab qiladigan yuqori darajadagi murakkab fikrlashni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar qismida muayyan vaqt ichida, muayyan usullar, vositalar yordamida, muayyan sharoitlarda axborotni yetkazib berish jarayoni nazarda tutiladi.

Ma'lumotlar quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:


- ✓ To‘g‘ri;
- ✓ Strukturaviy;
- ✓ Aniq va oddiy;
- ✓ Maqsadli, guruhga moslangan;
- ✓ Ustuvorliklarga yo‘naltirilgan.

Ta’lim uchta jihatni o‘z ichiga oladi: axborot olish, tadbiiq qilish va o‘rgatish. O‘qituvchilar birinchi qismni taqdim etadilar: Tinglovchilar ma'lumot oladilar. Biroq tinglovchilar ma'lumotlarni tadbiiq qilish uchun ya'ni bu tushunchalarni o‘zlashtirishi uchun ushbu ma'lumotlarni qo‘llashlari kerak. Mavzu bo‘yicha tayinlangan topshiriqlarni tinglovchilar chuqurroq anglashlari uchun ma'lumotlarni qo‘llashni o‘rgatish kerak boladi.

Topshiriqlarni tashkil etish bo‘yicha bosqichlar:

1. Maqsadni aniqlash
2. Topshiriqni topshirish turini tanlash
3. Topshiriqni tuzish
4. Baholash mezonlarini ishlab chiqish
5. Fikr-mulohaza turini aniqlash
6. O‘quvchilarni tayyorlash
7. O‘quvchilarni kuzatib borish
8. Jarayonni baholab borish

¹ [https://management.cactle.eu/course/WP3.1-Certified University Teacher.: workbook-2016](https://management.cactle.eu/course/WP3.1-Certified%20University%20Teacher.:%20workbook-2016)



1-chizma. Topshiriqlar turlari¹.

Demak, fanlarni Vena modeli asosida o'qitishda topshiriqlarni tashkil etish bo'yicha bosqichlarini inobatga olgan hoda tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada topshiriq turlarini ham to'g'ri tanlash juda muhim hisoblanadi. Vena modeli asosida o'qitishda topshiriqlarning turlari haqida 1-chizmada aniqroq ko'rsatilgan.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki Vena modeli asosi dars o'tish o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish vaqtini qisqartirish bilan bir qatorda o'quvchilarni sifat jihatdan yuqori darajaga ko'taradi.

Ya'ni Vena modelida ta'lim uchta narsani o'z ichiga oladi: axborot olish, tadbiiq qilish va o'rgatish. O'qituvchilar birinchi qismni taqdim etadilar: Tinglovchilar ma'lumot oladilar. Biroq tinglovchilar ma'lumotlarni tadbiiq qilish uchun ya'ni bu tushunchalarni o'zlashtirish uchun ushbu ma'lumotlarni qo'llashingiz kerak. Mavzuni bo'yicha tayinlangan topshiriqlarni tinglovchilar chuqurroq anglashlari uchun ma'lumotlarni qo'llashni o'rgatish kerak boladi.

Eng asosiy jihatlaridan yana biri dars jarayonida teskari aloqa (feedback) ni qo'llanilishidir. Chunki teskari aloqa shaxsga hujum qilish va faqat tanqid qilish emas balki bu borada ijobiy tanqid, bu yechim taklif qiladi, ish haqida o'z mulohazasini bildirish hamda o'sish uchun imkoniyat beradi. Ta'lim jarayonida teskari aloqa qo'llanilmasa bu borada talabalarning tanqidiy fikrlashi to'liq, to'g'ri shakllanmasligiga olib keladi. Ikkinchi tomondan teskari aloqa o'qituvchining o'z ustida ishlashiga olib keladi. Chunki har darsning o'zida o'qituvchi qanchalik talabalarni o'zlashtirishi va dars haqidagi fikrlarini bilib olishi mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, Vena modeli asosida fanlarni o'qitishda quyidagilarni tavsiya qilmoqchimiz:

- ✓ Mavzudan kelib chiqqan holda Blum taksonomiyasiga asoslangan savol tuzish;
- ✓ Savollar darsning boshida belgilanib va barcha fikrlashlardan foydalanib, faqat dars oxirida javob berilishiga erishish;
- ✓ Savollar o'ylantiradigan, birgalikda fikrlashga moslangan, taqdim etilgan ma'lumotlarning shaxsiy sharhini va aniq javoblarni talab qiladigan yuqori darajadagi murakkab fikrlashni ta'minlaydigan bo'lishi lozim;
- ✓ Ma'lumotlar yetkazishda vaqt, vositalar, sharoitlar, usullar to'g'ri tanlanishi lozim;

¹ [https://management.cactle.eu/course/WP3.1-Certified University Teacher.: workbook-2016](https://management.cactle.eu/course/WP3.1-Certified%20University%20Teacher.:%20workbook-2016)

- ✓ Ma'lumotlar to'g'ri, strukturaviy, aniq, oddiy, maqsadli guruhga moslangan va ustuvorliklarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim;
- ✓ Topshiriqlarni tashkil etishda Blum taksonomiyasini inobatga olgan holda topshiriq bosqichlaridan foydalanish.
- ✓ Dars jarayonida teskari aloqa (feedback) dan foydalanish.

Zamonaviy yetuk malakali kadrlar har qaysi davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ma'lum ma'noda o'z hissasini qo'shishi shubhasizdir. Shuning uchun ham ta'lim tizimiga muntazam ravishda yangi ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish shart va zarur deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Entrepreneurship and Business Development (Textbook for EBD-Students): Erasmus+ CACTLE (Central Asian Center for Teaching, Learning and Entrepreneurship) 244 final, Vienna: European Union, 2018.
2. Лисина М.И. Общение, личность и психика ребенка // Под ред. А.Рузской. –М.: 2007.
3. [https://management.cactle.eu/course/WP3.1-Certified University Teacher.: workbook-2016](https://management.cactle.eu/course/WP3.1-Certified%20University%20Teacher.:%20workbook-2016)
4. Teaching and Learning at Universities (Promoting good teaching to promote good learning in a changing society) Erasmus+ Collective Monography 243 final, Vienna: European Union, 2018.
5. Golish L.V., D.M. Fayzullayeva "Pedagogik texnologiyalarni loyihalash va rejalash" Toshkent 2010y.

Kurpayanidi K.I.
Professor of Economics Department
Academician of International Academy
of Theoretical and Applied Sciences (USA),
Fergana Polytechnic Institute
Mikhaylov A.B.
3rd year student
Faculty of Management in Production,
Fergana Polytechnic Institute
E-mail: antinari@gmail.com

INDUSTRY 4.0 AND ITS IMPACT ON CROSS-BORDER INVESTMENT: NEW CHALLENGES AND OPPORTUNITIES

Today's era of Industry 4.0 is a key driver of the changes taking place in the business environment. The term affects international value chains, foreign direct investment flows, business models and the functioning of both high-tech and traditional companies, including multinationals¹. The term Industry 4.0 was introduced in Germany in 2011 and marks the beginning of the fourth industrial revolution. The initiative is a global project, first introduced in German industry and then transformed internationally. Although several definitions of Industry 4.0 have been proposed, most researchers emphasise the use of digital technology to optimise and integrate production processes. As in previous industrial revolutions, this fourth revolution is the result of breakthrough innovations that improve manufacturing ecosystems by making them more intensive and connected².

New Industry 4.0 technologies are making a significant contribution to cross-border flows of foreign direct investment. These innovations help to reduce distances between nations, accelerate information exchange and open up new opportunities for direct investment. They accelerate decision-making, share experience and knowledge, improve the quality of products and services and increase production efficiency. As a result, foreign direct investment flows become more flexible and adaptive to changing market conditions.

On the one hand, Industry 4.0 increases the attractiveness of countries for investors interested in developing high-tech industries, which may lead to increased direct investment flows to these countries. On the other hand, these technologies also contribute to the development of local markets and strengthen local economies, which may lead to reduced investment flows to other countries. In addition, Industry 4.0

¹ Khan, S. A. R., Razzaq, A., Yu, Z., & Miller, S. (2021). Industry 4.0 and circular economy practices: A new era business strategies for environmental sustainability. *Business Strategy and the Environment*, 30(8), 4001-4014.

² De Beule, F., & Nauwelaerts, Y. (2013). Innovation and creativity: statement of the issues. In *Innovation and Creativity* (pp. 1-14). Edward Elgar Publishing.

offers new opportunities for cross-border investments, such as joint ventures and technology partnerships. This can help companies from different countries combine their strengths and resources to develop new technologies and products¹.

Industry 4.0 technologies are now having a significant impact on traditional industries and markets, leading to major changes in the global economy and business landscape. These changes are also impacting foreign direct investment flows, providing companies and investors with new opportunities and challenges in shaping business models. Industry 4.0 is also leading to a change in the scale and direction of foreign direct investment. For example, the use of online technology reduces the need for large investments in marketing and sales, as online content providers take over much of the work involved in collecting and providing data. As a result, production can become more centralised and localised rather than dispersed along global value chains.

With the rapid development of Industry 4.0 technologies, individual businesses are rethinking their criteria for making decisions about investing in other countries. Investors will choose foreign direct investment locations based on new factors that will become more important in light of these changes.

On the other hand, Industry 4.0 also opens up new opportunities for direct investment, such as joint ventures and technology partnerships that allow companies to combine their strengths and resources to develop new technologies and products.

Industry 4.0 may lead to a shift of focus away from cheap labour in developing countries and thus make this factor less relevant to investors seeking FDI. For example, if a Japanese company is looking for a location to locate its production that can be automated rather than labour-based, it is more likely to choose manufacturing on its premises.

The digital aspect will be a key factor for investors planning to use Industry 4.0 technologies in their businesses. As technology grows and companies restructure, highly skilled human capital will become more important and possibly become a driving force for FDI. Greater automation in manufacturing will displace low-skilled workers but increase demand for more skilled professionals such as programmers, engineers and big data analysts. Low-skilled workers may be replaced or laid off as a result of production automation. A highly skilled workforce will become more important because it will stimulate further innovation.

As technological innovation advances, costs can be further reduced and efficiency improved. As such, FDI flows may increase significantly in regions where technological capabilities are concentrated. Such changes will require companies and governments to adapt their investment policies to ensure a favourable climate for investors. Administrative procedures can also be simplified to improve the investment environment.

Thus, at present, one of the key effects that could arise from the diffusion of Industry 4.0 technologies is the shift of productive activities from developing and transition economies to developed countries. No longer will the availability of cheap labour be used as a determining factor in choosing where to invest. Recipient countries must therefore take additional measures to improve the investment climate.

Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi,
E-mail: boboev-akmal@bk.ru
Akramova Obida Qosimovna
E-mail: akramova3932@gmail.com
Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti doktoranti

O`ZBEKISTON YENGIL SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIKNING O`RNI VA AHAMIYATI

O`zbekistonda yengil sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va


¹ Kurpayanidi, K. I. (2023). Интеграция инновационной деятельности и икт как источник трансформации. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 3 (2), 45-55. Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7699541>

eksport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi ushbu sohalarini jadal rivojlantirishni maqsadida 2019 yilning 16 sentyabr kuni PQ-4453-sonli «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi prezident qarori qabul qilindi. Qaror bilan xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida bozor talablaridan kelib chiqqan holda yuqori qo'shilgan qiymatga ega to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning 2020-2025 yillarga mo'ljallangan maqsadli parametrlari va 2019-2020 yillarda engil sanoatning to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlandi.

Shuningdek, qarorga ko'ra, bojxona chegarasi orqali yarim tayyor charmni olib chiqishda eksport qilinadigan mahsulot qiymatining 10 foizi miqdorida, eksport qilinadigan har bir kilogramm ip-kalava uchun 0,01 AQSH dollari miqdorida yig'im undiriladi. Shu bilan birga yalpi tushumning umumiy hajmida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksporti 60 foizdan kam bo'lmagan eksport ulushiga ega bo'lgan korxonalar 2023 yil 1 yanvargacha mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etiladi, to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal, va mo'ynachilik korxonalarining foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazasi etti yil davomida teng ulushlarda zamonaviy tozalash va kanalizatsiya inshootlarini qurish bo'yicha xarajatlar summasiga kamaytiriladi, chorva mollarini so'yish bo'yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan majmualarni ishga tushirayotgan tashkilotlar va terini qayta ishlovchi korxonalar 2023 yil 1 yanvargacha yer solig'i to'lashdan ozod etiladi, «O'zto'qimachilik sanoat» va «O'zcharmsanoat» uyushmalarining xorijiy konsul'tantlari O'zbekiston Respublikasidagi daromad manbalari bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini uning belgilangan stavkasidan 50 foiz miqdorida to'laydi.¹

Yengil sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, shuningdek, salohiyatli xorijiy investorlarni jalb etish zarur hisoblanadi.



1-rasm. Sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish (mlrd.so'm hisobida)²

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar natijasida engil sanoat tarmog'ida korxonalar sonining ortishi sohaning investitsiya jozibadorligini oshirish lozimligini ko'rsatmoqda. Bunday vaziyatda korxonalarining oldida turgan asosiy vazifa investitsiyalarni jalb etish, bozordan siqib chiqarilish xavfini turli yo'llar bilan oldini olish hisoblanadi. Investitsiyalarni jalb etish har qanday korxonani

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2019 yil 16 sentyabrdagi PQ-4453-sonli «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori

² O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

boshqarishning asosiy maqsadlaridan biridir. Investitsiyalarni jalb etishning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning jozibadorligini oshirish va uni boshqara olish imkoniyatga ega bo'lish hisoblanadi.

Mamlakatimiz yengil sanoat tarmoqlarida yuqori texnologiyali tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lib, tarmoqning eksport salohiyati oshib bormoqda. Respublika bo'yicha birgina to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish xamda teri va unga tegishli maxsulotlar ishlab chiqarish xajmini quyidagi rasmda ko'rish mumkin. (1-rasm)

1-rasmdan ko'rish mumkinki, to'qimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish xajmi 2017 yilda 16763,3 mlrd.so'mni va 2021 yilda 52372.3mlrd.so'mni tashkil qilgan, ya'ni ishlab chiqarish hajmi 35969 mlrd.so'mga o'sgan. Kiyim ishlab chiqarishda 2017 yilda 6108.2 mlrd. so'mni 2021 yilda 13592,8 mlrd.so'mni tashkil qilgan, ya'ni 7484.6 mlrd so'mga o'sgan. Teri va unga tegishli maxsulotlarini ishlab chiqarish esa 2017 yilda 1414,9 mlrd.so'm va 2021 yilda 2083.9 mlrd so'mni tashkil qilgan, ya'ni 669 mlrd.so'mga o'sgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirish ishlari kengaymoqda. Bu shundan dalolat beradiki, yildan yilga ishlab chiqarish xajmini ko'paytirishga e'tibor qaratilmoqda. Shunday bo'lsada, yengil sanoat maxsulotlarni ishlab chiqarish bilan bir qatorda eksportbop va raqobatbardosh tayyor maxsulotlar zarurligi muammo sifatida ko'zga tashlanadi. Bu muammoni hal qilish yengil sanoat korxonalarining jozibadorligini oshirish orqali hal etiladi.

Yengil sanoat korxonalarining jozibadorligini oshirishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

– korxonalar bozor iqtisodiyoti sharoitida ustunlik jihatlarga ega bo'lishlari uchun, innovatsiyani rivojlantirish, investitsiyalar jalb qilish, istiqbolli loyixalar ustida ishlashni davrning o'zi taqozo etmoqda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va narxi bo'yicha optimal siyosatni yuritish, yangi assortimentlar ustida ishlash;

– korxonaga investitsiya jozibadorligi oshirishda aniq bir yo'nalish mavjud emasligi tushunchaning murakkabligidan dalolat beradi, korxonaga investitsiya jozibadorligini ta'minlashda turli omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun korxonaga ta'sir etuvchi barcha omillar chuqur tahliliy o'rganilishi zarur;

– korxonaning bozordagi haqiqiy darajasini baholash, korxonaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish vositalarini aniqlash, munosib strategiya ishlab chiqish, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan o'ziga xos alohida talablari rivojlanayotganligini inobatga olish lozim.

Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi,
E-mail: boboev-akmal@bk.ru
Akramova Obida Qosimovna
E-mail: akramova3932@gmail.com
Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti doktoranti

HUDUDLARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MAMLAKATNING IQTISODIY O'SISHINI TA'MINLASH MASALALARI

Mamlakatning iqtisodiy resurslar cheklanganligi va qo'shimcha investitsiya resurslarini jalb qilish zarurligi sababli, davlat boshqaruvi organlarining sa'y-harakatlari bilan hududlarning investitsion jozibadorligini, ularning investitsiya muhitini yaxshilash uchun sharoit yaratishga, investitsiyalar oqimini ta'minlashga va hududlarda to'plangan eng yaxshi tajribalarni tarqatishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlarning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son [farmonida](#)¹ mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida ishlab chiqilganini aytishimiz mumkin. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [farmonida](#)² 2022-2026-yillarga mo'ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqish

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son [farmoni](#)

² O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son [farmoni](#)

vazifalari qo'yilganligi mamlakatning iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilayotganidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham mamlakat siyosiy hayotini yaxshilash borasidagi qator vazifalar beldilab olindi. Prezidentimiz erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egallashi kerak deb ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari murojaatnomada "Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan keskin jarayonlardan barchangiz xabardorsiz. Jahonda murakkab geosiyosiy vaziyat, energiya resurslari tanqisligi kuchayib bormoqda, oziq-ovqatga ehtiyoj ortib, moliyaviy resurslar qimmatlashmoqda. Bunday vaziyatda, qanchalik og'ir bo'lmasin, iqtisodiy islohotlarni qat'iy davom ettiramiz, ichki imkoniyatlarni to'liq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qo'llab-quvvatlaymiz. Buning uchun, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash bo'yicha islohotlarni jadallashtiramiz"¹ deb alohida urg'u berdi.

Murojaatnomada hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, barcha tuman va shaharlarni bir maromda rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlar joriy etilishi aytili va tuman va shaharlar mavjud sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 5 ta toifaga ajratiladigan bo'ldi. Jumladan, tadbirkorlik uchun har tomonlama rivojlangan 26 ta tuman – 1-toifaga; infratuzilmasi yaxshi bo'lgan 46 ta tuman – 2-toifaga; sharoiti nisbatan qoniqarli bo'lgan 76 ta tuman – 3-toifaga; jozibadorligi yetarli bo'lmagan 40 ta tuman – 4-toifaga; sharoiti og'ir bo'lgan 20 ta tuman – 5-toifaga to'g'ri kelishi haqida aytili. Hududlar toifasidan kelib chiqib, tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar beriladigan bo'ldi. Bular hududlar o'rtasida tengsizlikni qisqartirish, tuman va shaharlarni ularni sharoitini, salohiyatini oshirish yordam berishi kutilmoqda. Shuningdek, hududlarda davlat ko'magini berish tartibini takomillashtirish ishlari tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilashga va uning samaradorligini oshirishga olib keladi degan fikrlar aytilmoqda.

Shuni aytish joizki, mamlakatimizda jozibadorligi yetarli bo'lmagan 40 ta tuman, sharoiti og'ir bo'lgan 20 ta tumanlarning borligi achinarli hisoblanadi. Hozirgi kunda aynan shu hududlar bilan ish olib borishimiz lozim, chunki bu hududlarda ham o'z imkoniyatlari mavjud, ularni ko'rsata olishimiz lozim. Investor qaysidir hududga investitsiya kiritishi uchun u hudud haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Masalan, turizmga ma'lum yangiliklarga erishishga muvaffaq bo'lindi, bunda sayohatga boradigan turist to'liq barcha ma'lumotlarni oladi hamda sayohat haqida reja tuzadi. Endi qaraylik investor investitsiya kiritadigan hudud haqida hech qanday ochiq ma'lumotlar berilmagan.

Investorni qiziqtiradigan birlamchi ma'lumotlar quyidagilardan iborat: hududda mavjud korxonalar soni, korxonalarining faoliyat turlari va quvvati, korxonalarda ishlovchi ishchi xodimlar soni, hududdagi bo'sh yer maydonlari hajmi, hududdagi ishchi kuchining soni, ishchi kuchining kasbi va mutaxassisligi, hududning infrastrukturasi va boshqalar. Bu ma'lumotlarni topish qiyin. Hatto statistika boshqarmasida ham bu ma'lumotlarning ayrimlarinigina topish mumkin, ko'pchilik ma'lumotlar mavjud emas. Investor kerakli ma'lumot olib bilmasa, o'z loyihasini amalga oshirish uchun biznes reja tuzish imkoniyati cheklanib qolaveradi. Iqtisodiyotda bilamizki, vaqt ham pul hisoblanadi, shuni inobatga olib investor vaqtini ma'lumotlar yig'ishga juda ham ko'p vaqt sarflashni xoxlamaydi.

Shuning uchun hududlarimizda investorlar uchun ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish tadbirlari muhim hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 15 avgustdagi "Toshkent shahrida investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha eksperimentni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonida"² hududlarning pasportining yaratilishi bo'yicha topshiriqlar berilishi o'rinli hisoblanadi. Lekin aniq ma'lumotlar bo'lsagina investitsiya oqimi kuchayishiga olib keladi. Xorijiy investor ham, hatto mahalliy investorlar ham o'z mablag'larini investitsiya qilishi uchun chuqur o'rganadi va xulosa chiqaradi.

Bu bilan shu narsani aytish mumkinki, bugungi kunda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish orqali xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifa hisoblanadi. Hududlarni faqatgina xorijiy investorlarni jalb qilish oqrall emas, balki mahalliy investorlarni ya'ni aholini qiziqtirish lozim. Aholi o'z bo'sh pul mablag'larini va qarz mablag'larini korxonaga yoki tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga kapital kiritisa, bu hudud rivojlanishiga, raqobat muhiti shakllanishiga asos bo'ladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi

² Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 15 avgustdagi "Toshkent shahrida investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha eksperimentni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni

Achilov Abror Niyatqobilovich
Farg'ona politexnika instituti
"Menejment" kafedrasida dotsenti,
Najmiddinova Muslima Azamat qizi
64-22M guruhi talabasi

O'ZBEKISTONDA KORXONA, TASHKILLOTLARNI XUSUSIYLASHTIRISH VA ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

Kirish. O'zbekistonda korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirishga dastlabki mustaqillik yillaridan buyon katta e'tibor qaratilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini keltirishimiz mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning "O'zbek modeli"ga binoan mamlakat va xalqning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy tomonlari hisobga olingan holda xususiylashtirish dasturi ishlab chiqarildi va tadbiriq etilmoqda. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti xususiylashtirishga asoslangan bo'lib, har bir iste'molchi o'z mulkiga nisbatan ehtiyotkorlikni oshiradi. Bu esa o'z navbatida mulkning uzoq yillar davomida sifatli va samarali xizmat ko'rsatishini taminlaydi.

O'zbekistonda 1991-yil 19-noyabr sanasida qabul qilingan 425-XII sonli "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish" to'g'risidagi qonunga asoslangan holda xususiylashtirish bo'yicha ko'plab jarayonlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida mamlakat hududidagi banklarning davlat tasarrufidan chiqarilib, AJ(Aksiyadorlik Jamiyat)lariga aylinishini keltirishimiz mumkin.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, xususiylashtirishga oid yondashuvlarni tubdan yangilash, xalqaro ekspertlarni jalb etib, bu borada bozor iqtisodiyotiga xos va mos tizimga o'tish zarurligini inobatga olish zarur. Xususiylashtirish va korporativ boshqaruv bo'yicha mutaxassislar tayyorlash hamda malakasini oshirish, davlat ishtirokidagi korxonalar rahbarlarini shu borada o'qitish muhimligini qayd etishimiz kerak. Bu bilan bir qatorda davlat tasarrufidagi zavodlarni xususiylashtirish xam asosiy o'rinlarni egallamoqda. Bugungi kunda aynan shu omillarni qo'llash vaqti yetdi.

Ilmiy muammoning qo'yilishi. Farg'ona hududida joylashgan, "O'zneftmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining sho'ba korxonasi hisoblangan "Farg'ona neftni qayta ishlash" zavodi ham bundan mustasno emas. Zavod 1959-yil 27-yanvar kundan boshlab ishga tushirilgan bo'lib, oktanli benzin, aviatsion kerosin, dizel yonilg'isi, kokos, turli xil motor va dizel moylari, paraffin kabi 56 dan ziyod mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishiga qaramasdan, korxonalar o'z imkoniyatlarining faqatgina 50% dangina foydalanadi holos. Korxonaning o'tgan 20 yil mobaynida modernizatsiya va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilmagani hamda zavodning to'liq ishlashi uchun asosiy xomashyoning O'zbekiston hududida yetishmasligi va (COVID-19) pandemiyasi sababli korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talab keskin pasaydi.

Tadqiqot maqsadi. Neft va gaz sanoatining ahamiyati har bir mamlakatning iqtisodiy erkinligini ta'minlashda bosh o'rinni egallaydi. Neft va gaz sanoatining xomashyo bazasi sifatida neft, gaz, uglevodorod, ko'mir singari foydali qazilmalar sanaladi. Neft va gaz sanoati xomashyo bazasi boshqa sanoat tarmoqlariga qaraganda ko'proq daromad keltiradi.

Shularni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-fevraldagi "Davlat aktivlarni xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish" to'g'risidagi PF-6167-sonli farmoniga muvofiq "UzAssets" AJ, "FNQIZ" MCHJ ustav kapitalidagi 100 foiz ulushini oshkora sotuv jarayoni orqali sotish istagini e'lon qilgan edi.

Ilmiy mohiyati. Xorijiy korxonalarining tajribasini o'rganish xususiylashtirish borasidagi yutuklari va kamchiliklarni inobatga olgan holda diversifikatsiya qilish lozim. Neft va gaz sanoatining xomashyo bazasining tarkibi jahon iqtisodiyotida doimiy talab yuqori bo'lgan resurslar sanaladi. Uning daromadlilikini oshirish hozirgi kunda muhimligini saqlab kelmoqda. Resurslarning mo'lligi aynan neft qazib olish resurslarining yuqori o'sish sur'atini namoyon etuvchi mamlakatlarga nisbatan ishlatilgan bo'lib, u aynan neft sohasiga nisbatan qaratilgan. Dunyoda tabiiy resurslarga boy mamlakatlarning eng yirik vakillari AQSH, Kanada, Avstraliya, Ispaniya, Fors ko'rfazi mamlakatlari, Malayziya, Norvegiya, Livan, Rossiya singari davlatlar sanaladi¹.

Qo'llanilgan metodologiya. *Tadqiqot ishida guruhlash, turkumlash, taqqoslash, induksiya, deduksiya, kuzatuv, statistik tahlil, monografik kuzatish o'tkazish kabi usullardan keng foydalanildi.*

Asosiy qism. «Davlat ishtirokini hech zarurat bo'lmagan sohalarda ham saqlab turibmiz. Davlat korxonalarini boshqarish, faoliyati samarasini oshirish, ularning funksiyalarini xususiylashtirishga berish

¹ Ваҳобов Ш.В Нефть ва газ саноатида ишлаб чиқаришни ресурслардан фойдаланиш усуллари. "Экономика и социум" №11(90) 2021.

bo'yicha hali sezilarli o'zgarishlar bo'lmadi», – dedi Shavkat Mirziyoyev¹.

Xususiylashtirish bo'yicha "KPMG Valuation and Consulting" konsultantning qabul qilingan takliflarni o'rganish natijalari asosida tavsiyalarini inobatga olgan holda, mustaqil baholash natijalaridan yuqori bo'lgan narx parametrlari hamda barcha belgilangan malaka me'zonlariga javob beradiga eng maqbul taklif tanlab olindi. Ushbu zavod "Sanoat Energetika Guruhi" (sobiq Jizzakh Petroleum) xorijiy kompaniyasiga 100 million AQSH dollariga sotildi. Kompaniya O'zbekiston hududidagi neft va gaz sohasi bo'yicha eng yirik xususiy korxonaga hisoblanadi [1].

"Sanoat Energetika Guruhi" kompaniyasining boshqa talabgorlaridan ustun jihati sifatida, neft va gaz sanoatidagi katta tajribasi, zavod faoliyati uchun zarur bo'lgan xomashyo konlarining mavjudligidir. Shu bilan bir qatorda, "Sanoat Energetika Guruhi" kompaniyasi zavodni modernizatsiya qilishga doir 380 million AQSH dollaridan ortiq investitsiya majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga oldi. Korxonada 6500 ishchi bo'lganligi, bundan tashqari "Davlat tasarrufidan chiqarish" to'g'risidagi qonuning 3-moddasiga binoan, 2 yil mobaynida korxonada mavjud ish o'rinlarini va ishchilar sonini saqlab qolish, xodimlarning ish haqlarini bitim imzolash sanasidagi miqdordan kamaytirmaslik kabi ijtimoiy majburiyatlarni ham oldi [2,3,4].

Kompaniyaning zavod faoliyati uchun zarur bo'lgan xomashyo konlarining mavjudligi va katta tajribasi tufayli mamlakat uchun ilgarigi holatga nisbatan ko'plab foydalar keltiradi. Bular jumlasiga:

- zamonaviy va ekologik toza benzin;
- Yevro-5 talablariga javob beradigan dizel yonilg'isi;
- Jet A-1 reaktiv yonilg'isi;
- suyultirilgan tabiiy gaz ishlab chiqarishlarni ko'paytirish.
- Neft agregatlarini modernizatsiya qilish hamda ishlab chiqarish quvvatini kamida 2 millin tonnaga oshirish kabilar kiradi.

Xususiylashtirilgan neft korxonasi () rivojlantirish jahon talablari darajasidagi maxsulotlarni yaratishda quyidagi taklif va tavsiyalarga amal qilish kerak deb o'ylaymiz:

LNG (suyultirilgan gaz bo'lib uni bosimsiz tashish ancha qulayligi bilan ajrilib turadi) maxsulotini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va texnologiyasini uchun investitsiyalar olib kirish;

-Neft va gazning boshqa manbalarni qidirish;

-Neft va gazni qayta ishlash, neft kimyosi, gaz kimyosi kabi yangi bo'limlarni korxonada tashkil qilish;

-Yoqilg'i quyish stansiyalari uchun uskunalar va texnologiyalarni jalb qilish;

-Buzilmaydigan sinov (NDT), yangi ACS sinov uskunalarini sotib olish;

-Neft va gaz sanoati uchun ITlarni keng joriy etish orqali neft xom ashyosini to'la ravishda chuqur qayta ishlashga erishish hamda korxonaga ishlab chiqarishini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 11 декабрь куни давлат иштирокидаги корхоналарни ислох қилиш натижадорлиги ва бу йўналишдаги устувор вазибаларга бағишланган йиғилиши.

2. Achilov A. N. Accounting for inventory at the enterprises of the republic of Uzbekistan //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2016. – Т. 4. – №. 36. – С. 181.

3. Ваҳобов Ш.В Нефт ва газ саноатида ишлаб чиқаришни ресурслардан фойдаланиш усуллариининг илмийназарий асослари. "Экономика и социум" №11(90) 2021.

4. <https://farbitis.ru/uz/oil-and-gas/oil-and-gas-industry-in-russia>.

Қиличов Бобир Хўжакул ўғли
СамИСИ Менежмент кафедраси ассистенти

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИ БЎЛГАН СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА БОШҚАРУВ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ОМИЛЛИ ТАҲЛИЛИ

Таҳлил ва натижалар. Суғурта - инсон фаолиятининг турли-туман соҳаларида содир бўладиган табиий офатлар, фавқулодда ходиса ва бошқа турдаги воқеалар оқибатида етказилган зарар, талофатларнинг олдини олиш ҳамда шу оқибатларни бартараф этиш учун юридик ва жисмоний шахслар маблағлари ҳисобидан суғурта фондлари ташкил қилиш ҳамда улардан фойдаланишда вужудга келадиган молиявий муносабатлардан иборатдир.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 11 декабрь куни давлат иштирокидаги корхоналарни ислох қилиш натижадорлиги ва бу йўналишдаги устувор вазибаларга бағишланган йиғилиши.

Суғурта қилинадиган объектга қараб мулкый суғурта (юримдик ва жисмоний шахсларнинг мулкый манфаатлари, бинолар, экинлар, уй ҳайвонлари, мол-мулк, транспорт воситаларини суғурталаш), шахсий суғурта (инсон, соғлиғи, ҳаёти, меҳнат қобилиятини суғурталаш), учинчи шахслар олдидаги жавобгарлик суғуртаси (транспорт эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини, кредит олувчиларнинг банк олдидаги кредитни ўз вақтида қайтариш жавобгарлигини суғурталаш ва бошқалар)га бўлинади.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасида ҳам суғурта жадал ривожланиб бораётган соҳа бўлиб, тижорат банкларимиз тамонидан берилаетган кредитларни қайтмаслигини, аҳоли ўзига тегишли бўлган мол-мулк ва автотранспорт воситаларини жадал равишда суғурта қилдириб келмоқдалар.

Биз суғурта турларидан жадал фойдаланишимиз учун ва келажакда бизга бахтсиз ҳодиса ва табиий офатлар келтириб чиқарган зарарни суғурта компанияси қоплаб бера оладими? Деган саволга жавоб беришимиз учун биз суғурта компаниясининг баланс ва молиявий ҳисоботларидан фойдаланиб келажакда бизга йитказилган зарарни қоплашига ишонч ҳосил қилишимиз керак. Бизга муҳим бўлган бу омилларни қуйида Халқ Суғурта АЖ компанияси мисолида таҳлил қилиб чиқамиз.

1-жадвал
“Халқ Суғурта” АЖ шаклидаги суғурта компаниясининг иқтисодий кўрсаткичлари¹
(млн сўмда)

Кўрсаткичлар	Ўтган йили	Ҳисобот йили	Ҳисобот йилига нисбатан ўтган йилга фарқи
Фойда	5 443 138,70	7 731 962,50	2 288 823,80
Асосий воситалар	1 000 601,90	1 518 184,41	517 582,51
Айланма маблағлар	40 627 953,55	38 417 920,53	- 2 210 033,02

Бу ҳисоб китоблар натижасида кўриб турибмизки корхона фойдаси 2 288 823,80 сўмга ошган. Асосий воситалар ўтган йилдагига қараганда 517 582,51 сўмга ошган. Айланма маблағлар эса – 2 210 033,02 сўмга камайганлигини кўришимиз мумкин.

Хизмат кўрсатиш соҳасида бошқарув самарадорлигининг омилли таҳлили ўтказишда энг аввало самарадорлик кўрсаткичларини аниқлаб олишимиз зарур. Ҳозирги инноватсион иқтисодиёт шароитида корхоналар самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар жуда кўп. Лекин уларнинг энг асосийси бу рентабелликдир. Шунинг учун ҳам хизмат кўрсатиш корхоналарида рентабелликни аниқлаб олиш зарур, ва уларга қайси омиллар қандай таъсир қилганлигини билишимиз зарур. Бунинг учун иқтисодий таҳлилда қўлланиладиган занжирли алмаштириш усулидан фойдаланишимиз мақсадга мувофиқ².

Биз бу таҳлилни амалга оширишда қуйидаги формулалардан фойдаландик.

$$R = \frac{F}{AV + AM}$$

$$\Delta R_f = \left(\frac{F_1}{AV_0 + AM_0} \right) - \left(\frac{F_0}{AV_0 + AM_0} \right)$$

$$\Delta R_{av} = \left(\frac{F_1}{AV_1 + AM_0} \right) - \left(\frac{F_1}{AV_0 + AM_0} \right)$$

$$\Delta R_{am} = \left(\frac{F_1}{AV_1 + AM_1} \right) - \left(\frac{F_1}{AV_1 + AM_0} \right)$$

$$\Delta R = \Delta R_f \pm \Delta R_{ak} \pm \Delta R_{am}$$

Бу эрда

R-Рентабеллик.

F-Фойда.

AV-Асосий воситалар.

AM-Айланма маблағлар.

¹ “Халқ суғурта” АЖ шаклидаги суғурта компаниясининг молиявий ҳисоботлари асосида муаллифнинг ишланмаси

² Пардаев М.Қ., Холикулов А.Н. Иқтисодиёт субъектларида омилли таҳлилни такомиллаштириш. Монография. Т.: Наврўз нашриёти. 2014 йил. 71-74 бетлар

Рентабеллик даражасига фойда, асосий воситалар ва айланма маблағлар ўзгаришининг таъсирини занжирли алмаштириш усули билан аниқлаш йўллари.

№	Кўрсаткичлар	Ўтган йили	Ҳисобот йили	Занжирли алмаштириш		
				1	2	3
1	Фойда млн.сўм	5443138,70	7731962,50	7731962,50	7731962,50	7731962,50
2	Асосий воситалар млн.сўм	1000601,90	1518184,41	1000601,90	1518184,41	1518184,41
3	Айланма маблағлар млн.сўм	40627953,55	38417920,53	40627953,55	40627953,55	38417920,53
4	Рентабеллик даражаси (фоиз)	13,1	19,4	18,6	18,4	19,4

Юқоридаги жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, бу хизмат кўрсатиш корхонасида, рентабеллик кўрсаткичи ўтган йилига қараганда 6,3 (19,4-13,1) фоизга ошганини кўришимиз мумкин. Бунга қуйидаги учта омил таъсир қилган.

$$\Delta R_f = \left(\frac{7731962,5}{41628555,45} \right) - \left(\frac{5443138,7}{41628555,45} \right) = 0,186 - 0,131 = 0,055$$

$$\Delta R_{av} = \left(\frac{7731962,5}{42146137,96} \right) - \left(\frac{7731962,5}{41628555,45} \right) = 0,184 - 0,186 = -0,002$$

$$\Delta R_{am} = \left(\frac{7731962,5}{39936104,94} \right) - \left(\frac{7731962,5}{42146137,96} \right) = 0,194 - 0,184 = 0,01$$

$$\Delta R = 0,055 - 0,002 + 0,01 = 0,063$$

Хулоса ва таклифлар.

Хулоса қилиб шунни айтишимиз мумкинки, рентабеллик кўрсаткичининг 6,3 фоизга ошишига қуйидаги учта омил таъсир қилмода.

1. Фойда суммаси ўтган йилга қараганда 2288823,80 млн.сўмга ошиши рентабеллик даражасини 0,055 коэффитсентга ёки 5,5 фоизга кўпайишига сабаб бўлган.
2. Хизмат кўрсатиш корхонаси асосий воситалари ўтган йилга қараганда 517582,51 млн сўмга кўпайганлиги рентабеллик даражасининг 0,002 коэффитсентга, ёки 0,2 фоизга камайишига сабаб бўлган.
3. Бу корхонанинг айланма маблағлари ҳисобот йилида ўтган йилга қараганда 2210033,02 млн сўмга камайиши рентабеллик даражасининг 0,01 коэффитсентга ошишига ёки 1 фоизга кўпайишига сабаб бўлган.

Шундай қилиб барча омиллар таъсири натижасида рентабеллик даражаси ўтган йилга нисбатан 6,3 фоизга ошган.

Умумий хулоса қилиб айтадиган бўлсак, корхона фойдаси ўтган йилга нисбатан ҳисобот йилида 2 288 823,80 сўмга ошганлигини кўришимиз мумкин бунга асосий сабаб қилиб ҳозирги кунда корхонада ишлар мийёрида ташкил қилинганлиги корхона самарали иш олиб бораётганлигидан далолат беради. Корхона бунданда юқори фойда олиш учун ўзига мижозлар жалб қилиши тарғибот ишларини олиб бориши, рекламалар ўзи фаолият олиб бораётган йўналишлар ҳақида янаям кенгроқ аҳолига маълумотлар бериши зарур деб ўйлайман. Корхона фойдаси қанча юқори бўлса бу корхона албатта самарали корхона бўлиб самарали фаолият олиб боради. Корхонанинг асосий воситаларига тўхталадиган бўлсак корхона ўтган йилга қараганда ҳисобот йилида 517 582,51 сўмга асосий воситалар харид қилганини кўришимиз мумкин. Асосий воситалар ҳам албатта корхона учун зарур бўлган, фаолият олиб бориши тарғибот ишларида фойда келтирадиган корхонага келажакда юқори самара берадиган воситалар ҳисобланади. Асосий воситаларнинг ҳам ўтган йилга нисбатан кўпайгани корхона учун фойдали деб ҳисоблаймиз.

Айланма маблағлар ҳақида фикр билдирадиган бўлсак корхонада ўтган йилига нисбатан ҳисобот йилида айланма маблағлар -2 210 033,02 сўмга камайганини кўришимиз мумкин. Умуман олганда корхона Молиявий ҳисоботи ва Баланс Маълумотларидан кўриниб турибдики корхона ҳозирги кунда самарали фаолият олиб бормоқда.

Kuvandikov Aziz Ravshanovich
Bukhara state university,
Tourism and hotel management department
e-mail: azizkuvandikov1606@gmail.com

ECONOMIC IMPACTS OF DEVELOPING HALAL +M.I.C.E TOURISM IN BUKHARA DESTINATION.

When the words ‘history’ and ‘culture’ comes together, it means visiting our historical attractions which offer sentimental value for the later generations. This theme will help promoting cultural activities for MICE travelers to learn about the local culture so that they understand our way of life, economy, society, values and traditions. MICE industry (The term “MICE” includes meetings, incentives, conferences and exhibitions) is one of the fastest growing segments within the tourism industry generating millions in revenues for cities and countries across the globe .

Uzbekistan is becoming one of the MICE industrial centers in Central Asia with most need accessibilities to put in a position of becoming the hub in the region. Following required international standard for tourism and services, attracting international trade and investment, establishing free economic zones for logistics and cluster agricultural industry, and eco-friendly, historical destinations provides the country with huge potential for development of MICE industry. In addition, among main requirements of MICE industry transportation infrastructure has been developing and making more comfort for tourists such as modern airlines, fast railway trains, city transportation. Besides, availability of modern means of communication, multilingual population, and availability of agencies to assist with logistics, translation and catering service can serve as fostering ground for MICE industry. Moreover, visa regulation to enter Uzbekistan got much simplified and citizens of 35 countries can transit to Uzbekistan for up to 5 days without visa. Besides citizens of the post-soviet countries do not need a visa to visit Uzbekistan for stays of up to 60 days, more than 110 countries’ citizens can come 30 days without visa.

Friendly, easy going and welcoming attitude of local people also another important factor, which can serve as a “visit card” for coming to Uzbekistan and it can be the following advantages of MICE tourism: **First**, MICE tourism does not have seasonality, so hotels that serve such guests are full at any time of the year. **Secondly**, customer companies usually pay three to four times more than vacationing tourists do for high speed and good quality of service delivery. **The third** -The income from this type of tourism goes to the state budget through taxes. In addition, the DMC, when conducting additional excursion programs, advertise the region as a tourist zone, so that guests have a desire to return here again.

There are many opportunities for developing Halal+MICE tourism in this region. The purpose of this paper is to analyze the potential of the development of Halal+MICE tourism Bukhara region and its prospects of successful development in Uzbekistan. The current situation and drawback of MICE-Tourism in Uzbekistan are related to lack of active cooperation of companies and other organizations in Uzbekistan with the International Congress and Convention Association (ICCA) in order to develop and promote MICE tourism, the lack of marketing research to develop MICE tourism, lack of FDI (Foreign Direct Investments) and so on.

To Approve the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026 and the State Program for its implementation in 2022, the Year of Ensuring Human Interests and Development mahalla” -Wide introduction of barrier-free tourism infrastructure in the main tourist cities of the country. By 2026, the number of employed people in the tourism sector will double, bringing their number to 520,000.¹The main goal of attracting tourists to our country is to improve both domestic and foreign tourism.

On May 19, 2017, the Presidential Decree No. PP-2980 "On measures to accelerate the development of tourism potential of Bukhara and Bukhara region in 2017-2019" was adopted. Under the motto "Islamic Enlightenment Center" is a unique museum city of the East, the task of developing and promoting the tourist brand of Bukhara. On 13 August 2019, President Shavkat Mirziyoyev signed a decree “On measures to further develop the tourism industry in the Republic of Uzbekistan”, according to which

¹ Approved the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026

introduction of the “Open sky” regime at Karshi, Nukus, Termez and **Bukhara international airports was determined using the “Five Freedoms of Aviation”**. The “open sky” regime allows foreign airlines to perform international flights to the airport without restrictions on the number of flights. According to world experience, implementation of the “Open sky” policy allows to increase passenger traffic by 35% (without it – by 8%) on average. This also reduces the cost of air tickets from 20% to 40%. In addition, this regime will create tens of thousands of new jobs.¹

International Congress and Convention Association (ICCA) has held a record 12,558 international association meetings in 2017 with 346 additional meetings compared to 2016. ²This is the highest annual figure ever recorded by ICCA in its annual analysis of the data from the immediate past year's meetings. Business tourism accounts for about 60 percent of the tourism industry, while business tourists themselves account for only 25 percent of the total international tourism flows indicating high solvency of this segment.³ This situation makes MICE more attractive to the tourism market. The First UNWTO-ICCA Masterclass was addressed to industry professionals and government officials from the Uzbekistan Tourism Administration, representatives of private companies, associations and academia who hold responsibilities in the tourism sector of their country related to the area of Meetings industry. This prestigious event was followed by 22 participants from local and national media houses and gained big publicity through press and social media channels on a national and regional level. Keynote speakers of the Masterclass - Elif Blaci Fisunoglu (ICCA) and Dmitriy Ilin (UNWTO), shared knowledge, processes and tools on the global meetings industry trends through short presentations and the introduction of a practical methodology.

In 2019, Uzbekistan was ranked 22nd in the World Muslim Travel Index, which is 10 times higher than previous year's position. Also, within the framework of the I International Forum on Ziyorat Tourism, held on February 21-23, 2019 in Bukhara, a Memorandum of Understanding and Bilateral Cooperation was signed between the State Committee of the Republic of Uzbekistan for Tourism Development and the Crescent Rating agency. According to the agreement, Crescent Rating signed an agreement with the State Unitary Enterprise "Tourism Services Certification Center" the introduction of a rating of Muslim hotel service in tourist organizations of the country. The development of Islamic tourism in Uzbekistan allows current and future generations learn about the glorious heritage of Islam, and ensure economic sustainability.⁴ Uzbekistan, especially BUKHARA has great opportunities in developing HALAL MICE tourism. Halal industry is underdeveloped in the country and many tasks need to be accomplished prior to entrance of country's Halal MICE industry in ranks of world-class destinations. Thus, it is recommended important steps to be undertaken such forming awareness of halal industry, preparing infrastructure and legal foundations so that it can accommodate demand for MICE visitors from Muslim countries. Finally, formation of image of Uzbekistan as an ultimate destination of Halal MICE industry has to be considered.

Conclusion: Furthermore, Uzbekistan is bordered with all Muslim majority neighbor countries and has a rich Islamic heritage and many historical sights which attract Muslims all around. Since MICE tourism is also developing in Uzbekistan and significant portion of MICE visitors also belong to the Muslims faith, country is uniquely positioned to develop and prosper as new halal MICE destinations. On the other hand, there are many challenges which should be overcome such as preparation of halal tourism infrastructure and making event planners ready for every act hosts of halal tourism. Halal tourism industry in Uzbekistan, and halal MICE industry in particular has some obstacles to overcome so demand for such services expands among Muslim travelers to the country. Hala+MICE tourism can be excellent tool of reducing seasonal limitation of destination in Bukhara region example. Additionally, creating the Halal+MICE tourism brand of Bukhara and building Convention Centers in Bukhara city will influence to promote Bukhara as a destination of MICE tourism in general.

References:

1. Spiller, J 2002, ‘History of convention tourism’, In K. Weber & K. Chon (Eds.), Convention tourism: International research and industry perspectives (pp. 3-19). New York: The Haworth Press. Convention Tourism- Julie Spiller 1st Edition 2002
2. Navruz-Zoda B. N- Evaluation of holy places of the regions for the development of pilgrimage tourism.
3. The Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026

¹ <https://kun.uz/en/news/2019/10/01/open-sky-regime-introduced-at-karshi-nukus-termez-and-bukhara-international-airports>

² According to the (ICCA) statistics

³ According to The World Tourism Council (WTC) reports

⁴ Navruz-Zoda B. N- Evaluation of holy places of the regions for the development of pilgrimage tourism

4. International Congress and Convention Association (ICCA) statistics
5. <https://lex.uz/uz/docs/-4474527-> “On measures to further develop the tourism industry in the Republic of Uzbekistan” PD- 5781.

A.Ch.Abdiev
Qar.DU dotsenti
IRB 3-bosqich talabasi. A.A.Alimardonov
IRB 1-bosqich talabasi. A.A.Alimardonova

RAQAMLI IQTISODIYOT VA INSON OMILI

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlis qonunchilik palatasiga Murojaatnomasida, shuningdek parlamentning mamlakat ijtimoiy iqtisodiy tarqiyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan majlislaridagi ma'ruzalarida qayd etilishicha, davlatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma'qul ish uslubi tanqidiy qayta ko'rib chiqildi. Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. Iqtisodchilar tahliliga ko'ra, bugungi kunda yurtimizda kambag'allarning ulushi aholining 15 foizini tashkil etadi. Bunday hisoblashning ham o'ziga yarasha mezonlari bor.

Shu o'rinda, aholi turmush darajasi va farovonligi aholi daromadlari, sog'liqni saqlash, savodxonlik darajasi, madaniy hayoti, bo'sh vaqtning mavjudligi, atrof muhit kabi bir qator faktorlarga bog'liq bo'lishi bilan birga, aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida samaradorlikni baholashning eng muhim mezoni hisoblanib, uni oshirib borish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish choralari malga oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir.

Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasini, ayniqsa uning zamonaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, ularning daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini oshirishning muhim omiliga aylantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim rol o'ynadi. Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish-ning ustuvor yo'nalishlari”da xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rnini va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish eng muhim vazifalar sifatida belgilangan. So'nggi yillarda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar kelajagimiz” va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami 23 trillion so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi. Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kredit olish imkoniyati bilan iborat bo'lgan yaxlit tizimni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda xizmatlar ishlab chiqarish iste'molchilarning daromadlari darajasi, didlariga qarab tabaqalanib bormoqda. Hajmlarning o'sishi bilan birga, bozor xizmatlarining tarkibiy nisbatlari ham o'zgarib bormoqda. Xizmatlar umumiy hajmida yangi bozor xizmatlarining ulushi ko'payib bormoqda. Xususan, 2010-2020 yillarda transport xizmatlarining ulushi 36,2 foizdan 28,2 foizga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 8,0 foizdan 6,8 foizga kamaygan. Savdo xizmatlarining ulushi esa 25,4 foizdan 29,6 foizga, moliyaviy xizmatlar ulushi 10,2 foizdan 10,7 foizga, ta'lim xizmatlari 2,9 foizdan 3,5 foizga, yashash va umumiy ovqatlanish xizmatlari 1,1 foizdan 3,3 foizga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar esa 3,1 foizdan 3,7 foizga ko'paydi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasi korxonalar va tashkilotlardagi mehnat resurslarining qolgan iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga qaraganda bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar sohada xodimlarning muomala san'ati, bilim darajasining yuqoriligi, kasbiy tayyorgarligi, mijozlar bilan ishlash madaniyati va boshqalar hisoblanadi. Mazkur sohada xizmatlarni amalga oshirish jarayonida xodim konkret buyumlarning juda nozik xususiyatlari bilan to'qnashadi hamda ijtimoiy aloqalar, insonlarning ruhiyati, ongi bilan bevosita munosabatda bo'ladi. Qishloqlarda xizmatlarning istiqbolli savdo-sotiq, tibbiy va davolash, sport-sog'lomlashtirish, konsalting, lizing va baholash turlari nisbatan sekin rivojlanayotganligi mazkur sohani rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagi qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- mehnat bozorining real talablaridan kelib chiqqan holda, bandlik va mehnat munosabatlari tuzilmalarining yordami bilan mehnatga layoqatli vaqtincha ish bidan band bo'lmagan aholini kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash,

- aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta'lim tashkilotlarini keng jalb qilish;

- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mikroreditlash tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish va rivojlantirish;

- aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid ijtimoiy dasturlarni iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'un va muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqish

- xizmat ko'rsatish infratuzilmasini keng rivojlantirish hisobiga aholining turmush farovonligini oshirishga erishish.

Xulosa sifatida e'tirof etish lozimki, mamlakatda xizmat turlarining ikki tomonlama tabiatini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Xizmatlar ham xuddi moddiy tovarlar singari naflilik va qiymat xususiyatiga ega bo'lib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlari tashkil etish, investitsiya, soliq, pul-kredit va ilmiytexnikaviy siyosatni takomillashtirish, bozor xizmatlarining tarmoq tuzilmasida innovatsion tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu xizmatlar ko'rsatish aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirilishini ta'minlash imkonini beradi. Bundan tashqari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan xizmatlar ishlab chiqarishning kengayishi mazkur sohaning jadal rivojlanishini ta'min-lamoqda. Imtiyozli kreditlarning maqsadli yo'naltirilishi faqatgina shahar joylarida emas, balki qishloq hududlarida ham kichik tadbirkorlikning bozor xizmatlari ishlab chiqarishi umumiy hajmining oshib borishi, ishga joylashishga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bo-zorida zamonaviy infratuzilma va raqobat muhitini yaratishda, aholi-ning ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirishda amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

“O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish bo'yicha 2017-2020 yillarga mo'ljallangan dastur”ga asoslanib, xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish joylarini yaratish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlarni tavsiya qilish mumkin:

- xizmat ko'rsatish sohasida alohida yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish to'g'risida me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini yaratish lozim;

- yangi turdagi ishbilarmonlik (kasbiy) xizmatlari ko'chmas mulk bilan savdo qilish, vaqtinchalik erkin pullarni joylashtirish, axborot, marketing va reklama xizmatlari, buxgalteriya balansi va hisobotlarini tuzish, elektron kotiba;

- bolalarni tarbiya qilish, o'qitish bo'yicha xizmatlar, xususiy bog'cha va maktablar, oilaviy bolalar bog'chalari, oilaviy kutubxonalar va boshqa xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish;

- hayvonlarga qarash bo'yicha xizmatlar – hayvonlarni boqish;

- turistik firmalari, axborot kommunikatsion texnologiya vositalarini tuzatish tayanch punktlari, ijtimoiy psixologik markazlar, turli ta'lim va kasbga o'qitish qisqa kurslari kabi xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [http:// www.Lex.uz](http://www.Lex.uz). “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil 3/2018 (№ 00035) www.iqtisodiyot.uz 7

2. Petti V., Smit A., Rikardo V., Keyns DJ., Keyns M., Frimen M. Klassika ekonomicheskoy mysli. M.: EKSMO-PRESS. 2000. –S.115.

3. Abdurahmonov Q.X., Zokirova N.K. Mehnat bozori nazariyasiga yangicha yondashuvlar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. T.: № 1, 2011 yil.- 1 B.


4. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 fevraldagi “2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida”gi 55- sonli Qarori.

5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. -7 b. [http:// www.Lex.uz](http://www.Lex.uz). 9. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz).

МОЛИЯ ИНЖИНИРИНГ ОРҚАЛИ ЯНГИ БАНК МАҲСУЛОТЛАРИНИ ТАДБИҚ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Молиявий инжиниринг – бу мультидисциплина жараён бўлиб, ўзига молия назарияси, инжиниринг методлари, математика воситаларини ва амалий дастурларни қамраб олган. Бундан ташқари савдо воситаларидан молиявий бозорни моделлаштиришда фойдаланади. Молиявий инжиниринг инновацион дизайн ва молиявий воситалар орқали янги молиявий маҳсулотларни яратади. Молиявий инжиниринг математик инструментлар орқали янги инвестицион стратегияларни ташкил этади. Молиявий инжиниринг орқали яратилган янги молиявий маҳсулотлар даромадни оширишга ва компанияларни олдида турган муаммоларни ечимини топишга ёрдам беради¹.

Ҳозирги кунда банкларнинг бозорда ва платформадаги қарашлари турлича ёндошувларга асосланган бўлиб, рақамли банк соҳаси бўйича қайси бири кўпроқ даромад келтирилиши очиклигича қолмоқда. Бу икки моделлар бир биридан нимаси билан фарқ қилади? Ушбу саволга ойдинлик киритадиган бўлсак, яратилган платформада банклар барча қизиқувчи шахслар учун ўзини API ни очади. Бу платформадан банк маълумотларидан фойдаланган ҳолда барча молтех ёки банкларнинг рақобатчилари фойдаланиб ўзларини маҳсулотларини яратадилар. Ушбу платформада ҳар қандай ихтирочи “қўшилиш” орқали ўзи яратган маҳсулотини платформага киритиши ҳамда банкнинг хизматларидан фойдаланмаган ҳолда назорат қилиши мумкин бўлади. Ушбу ёндошув орқали платформа иштирокчилари “Банк ишини Амазони” га айланиб, жуда катта рақобатбардош маҳсулотларни платформага тақдим этади. Бу эса кўплаб мижозларни талабини ўрганиш ва шу асосида янги маҳсулотлар яратиш имкониятлари юзага келади.



1-расм. Молиявий инжиниринг концепцияси асосида бозорни бошқариш алгоритми².

Ўтказилган сўровномаларда иштирок этган топ-100 ликка кирувчи банкларнинг 75% очик APIлардан фойдаланишни маъқул кўрганлар³. Accenture компанияси экспертларнинг прогнози бўйича Европа давлатларининг 2022 йилда 61 млрд. евро ёки 7% даромади Open Bankingлар билан топилади. Сўровномада иштирок этган 65% респондентлар Open Banking келжакдаги энг ишончли платформалардан бири сифатида эътироф этганлар⁴.

Бизнинг фикримизча бозорни бошқаришда молиявий инжиниринг маҳсулотлари муҳим рол уйнаши ҳамда бозор сегментини ташкил этишда асосий омил сифатида қабул қилиш зарурлигини

¹ https://www.researchgate.net/publication/328630424_Understanding_Financial_Engineering

² Cuthbertson K., Nitzsche D. Financial Engineering: Derivatives and Risk Management. – N.Y.: John Wiley & Sons, 2001. – P. 40–45

³ <https://www.plusworld.ru/journal/2019/plus-9-2019/open-api-chego-zhdet-bankam/>

⁴ <https://bosfera.ru/bo/open-api-dobrovolno-ili-prinuditelno>

келтириб ўтишган. Аммо уларнинг таклиф этган моделида фақат мавжуд бўлган маҳсулотларни тақдим этиш орқали бошқарувни самарали ташкил этиш мумкинлиги изоҳланган. Таклиф этилган алгоритмда янги инновацион ғоя ёки очик бозор API ларни ташкил этиш четга қолган.

Олиб борилган таҳлиллар асосида республикамиз молия бозорида молиявий инжиниринг концепцияси асосида янги банклар ва молиявий институтлар иштирок этувчи платформаларни яратиш орқали бўйича қўйидаги хулосалар шакллантирилди:

1. Банклараро ўзаро муносабатларни ривожлантириш ва банкдан ташқари хизмат кўрсатувчиларни интеграциялашуви учун очик дастурий платформаларни (API – Application Programming Interface) яратиш. Open Banking банк фаолиятининг ташкил этиш орқали банкларнинг бозорда монополлашувига чек қўйиш ёки бозорда эркин, соғлом рақобатни қўлла-қувватлаш имкониятини ошириш.

2. Республикамиз аҳоли сонини ўсиб бориши мобиль курилмаларга бўлган талабнинг ортишига олиб келмоқда. Кўп сонли мижозлар молиявий ҳаётини янада яхшилаш ва қулайликлар яратиш мақсадида “йўловчи” платформасини яратиш. Ушбу яратилган экотизимли платформа мижозларни талабини тўлиқ қондириш имкониятини бериши зарур. Бундай рақамли экотизим lifestyle banking яратиш мақсадга мувофиқ.

3. Молия бозорида электрон ҳамкорлик механизмларини қўллаш: инновацион молиявий технологиялар, маҳсулотлар ва хизматлар учун тажриба механизмини такомиллаштириш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://www.statista.com/statistics/893954/number-fintech-startups-by->

2. <https://fortunly.com/statistics/fintech-statistics/>

3. Cuthbertson K., Nitzsche D. Financial Engineering: Derivatives and Risk Management. – N.Y.: John Wiley & Sons, 2001. – P. 40–45

Хидирова Гавҳар Рустамовна
и.ф.ф.д.(PhD) дотцент БухДУ
Маркетинг ва менежмент
кафедраси докторанти
xidirova.g.r@gmail.com

МИНТАҚАНИ ЕТАКЧИ ТАРМОҒИ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТИЗИМЛИ МУАММОЛАРИ

Минтақавий туризмни таҳлил қилиш ва мавжуд муаммоларини аниқлаш учун нисбатан объектив статистик маълумотлар бўлиши зарур. Афсуски, мавжуд статистик маълумотлар минтақа доирасида сайёҳлик хизматларга бўлган талабни тўғри баҳолаш имконини бермайди. Бунинг асосий сабаблари статистик маълумотларнинг сифат даражасининг пастлиги, иқтисодийнинг туризм тармоғи билан боғлиқ тармоқ ва соҳалари бўйича умумлаштирилган кўрсаткичларнинг йўқлиги, мавжуд ахборот базасининг ҳалқаро ҳисобот ва статистикага тўғри келмаслигидир. Мавжуд камчиликлар статистик ҳисобот методологиясини такомиллаштириш заруриятдан келиб чиққан ҳолда, минтақавий туризмнинг ўзига хос мураккаб тармоқлар йиғиндисидан иборат эканлиги билан тушунтириш мумкин.

Мавжуд вазиятдан келиб чиққан ҳолда Бухоро вилоятида туризмни ривожланиш ҳолатига баҳо беришда расмий статистик маълумотлардан (Ўзбекистон Республикасида туризм ва дам олишни ривожлантиришнинг асосий кўрсаткичлари-статистик бюллетень), шунингдек таклиф этилган сўровнома услуб асосида туризмни минтақани ижтимоий-иқтисодий ривожланишга бевосита ва билвосита таъсирини белгиловчи таъсирини белгиловчи кўрсаткичлардан фойдаланилган. Вилоятда туризмни ривожланишини баҳолашнинг расмий статистик кўрсаткичлари қўйидагилардан иборат:

- кирувчи, чиқувчи ва ички туризм;
- халқаро туризм;
- маданий хордиқ чиқариш томонидан аҳолига кўрсатилган хизматлар;
- сайёҳлик ташкилотлар ва фирмалар фаолияти;
- кичик корхона ва микрофирма шаклидаги сайёҳлик фирма ва ташкилотларнинг фаолияти;
- хизмат кўрсатилган ташриф буюрувчилар сони;
- сотилган сайёҳлик йўриқномалари сони ва қиймати;

- сайёҳлик фирма ва ташкилотлар ходимлар сони;
- меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари фаолияти, ходимлар сони;
- меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалар ходимлар сони;
- дам олиш ва сайёҳлик базаларининг фаолияти;
- санатория-курорт муассасалари фаолияти ва бошқалар.

Қўшимча таклиф этилаётган минтақада туризмни комплекс (талаб ва таклиф асосида) ривожланишини таклиф қилиш кўрсаткичлари (индикаторлари):

- кировчи, чикувчи ва ички туризмда сайёҳларнинг истеъмоллари;
- туризм тармоқларида товарлар (хизматлар) ишлаб чиқариш;
- туризм тармоқларида бандлик;
- туризмни иқтисодий ўсишга, тармоқларни ривожланишидаги ўрни ва таъсири.

Шуни таъкидлаш лозимки, Бухоро вилоятида туризмни етакчи соҳа сифатида ривожлантиришга қаратилган махсус давлат дастури ишлаб чиқилмаган¹. Холбуки, Қашқадарё, Самарқанд ва Тошкент вилоятларида ҳам махсус дастурлар амалга оширилмоқда. Лекин ушбу дастурларнинг асосида фақатгина инвестицион лойиҳаларни амалга ошириш кўзда тутилган бўлиб, мавжуд вазият чуқур таҳлил қилинмаган, махсус мониторинг кўрсаткичларидан фойдаланилмаган, туризмга бўлган реал талаб ва таклиф ўрганилмаган ҳолда қўшимча чора-тадбирлар ишлаб чиқилган, туризмни минтақани ижтимоий-иқтисодий ривожланишига таъсири ва натижалари ҳисоб-китоб қилинмаган.

Бундай камчиликларнинг асосида минтақа доирасида туризмни ривожланишини баҳоловчи объектив рақам ва кўрсаткичларни етишмаслигидир.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда ва вилоятда туризм соҳасини ривожлантиришга қаратилган бир қатор чора-тадбирлар амалга оширилди. Жумладан, соҳага оид меъёрий-ҳуқуқий база шакллантирилди, меҳмонхона ва транспорт инфратузилмаси яхшиланди, тарихий-меъморий обидаларимиз тикланди, қайтадан реконструкция қилинди. Айниқса, 2022 йилда ҳалқаро туризмни устувор ривожлантиришга қаратилган 10 дан ортиқ расмий ҳукумат қарорлари ва дастурлари қабул қилинди. Бухоро вилоятининг туризм салоҳиятини янада юқори даражага кўтаришда Бухоро аэропортига ҳалқаро статус берилиши, Тошкент-Бухоро тез юрар “Афросиёб” поездини ишга туширилиши, янги замонавий меҳмонхоналарни қурилиши катта туртки бўлди.

Умуман Бухоро вилоятида туризм тармоғининг ҳозирги ҳолатини таклиф этилган усуллар асосида таҳлил қилиш натижалари кўйидаги муаммолар мавжудлигини кўрсатмоқда:

- мавжуд расмий маълумотлар асосида вилоятда туризмнинг ҳозирги ҳолатини ва ривожланиш тенденцияларни баҳолаш тўлиқ ва аниқ натижаларни бера олмаслигини билган ҳолда тадқиқотда статистик ахборотлар билан бир қаторда таклиф этилган усуллар асосида уларнинг объективлигини таъминлашга ҳаракат қилинган;

- бевосита туризм тармоғи ҳажми 2015-2022 йилларда 2,7 марта кўпайишига қарамасдан, уларнинг умумий хизматлардаги улуши жуда паст даражада (0,5%) сақланиб қолмоқда. Бу ҳолат вилоятда туризмни ривожлантириш талаб даражасида эмаслигини ва мавжуд салоҳиятда самарали фойдаланилмаётганлигини кўрсатмоқда;

- хориж сайёҳларига сайёҳлик хизматлар кўрсатишда вилоятда мавжуд меҳмонхоналар, дам олиш ва сайёҳлик уйлариининг бошқа минтақаларга нисбатан ўрни жуда паст бўлиб, ушбу муаммога кўпроқ эътибор қаратиш лозим. Меҳмонхоналарнинг йиллик тўлдириш коэффициенти 27,4%га тенг бўлиб, самарадорлиги юқори эмаслигини кўрсатмоқда;

- ички туризм (сайёҳлар сони бўйича) вилоят мамлакат минтақалари ўртасида охириги ўринларни (12 ўрин) эгаллаётганлигига салбий ҳолат сифатида қараш ва тизимли муаммолар қаторига киритиш мумкин;

- вилоятда дам олиш муассасалари ва сайёҳлик базалари, шунингдек, санатория-курорт уйлари деярли ривожланмаган бўлиб, мамлакатда охириги ўринларни эгаллайди;

- расмий маълумотларга кўра бевосита туризм соҳасида банд бўлганлар сони жуда кам. Туризм билан боғлиқ соҳаларда банд бўлганлар сонини, танлов асосида ўтказилган сўровномалар натижасига кўра аниқланиб, уларнинг бир неча марта юқорилиги аниқланган. Ушбу ҳолат туризмни барқарор ривожланиши бандлик муаммосини ҳал қилишда энг муҳим йўналишлардан бирига айланиши учун барча имкониятлар мавжуд;

¹Бухоро ҳокимининг 2015 йил 11 майдаги қарорига мувофиқ “Бухоро вилоятини 2015 йилда туризм соҳасини янада ривожлантириш” дастури тасдиқланган.

- таклиф этилган сўровнома ўтказиш услубидан фойдаланган ҳолда (ички ва ташқи туризм сайёҳларини вилоятдаги харажатларини ҳисобга олиш орқали) вилоятнинг ялпи ҳудудий маҳсулотига туризмнинг улуши аниқланган. Бу кўрсаткич 2,8%ни ташкил қилган бўлиб, ҳозирда туризмни вилоятнинг иқтисодий ўсишдаги улуши паст даражада эканлигини кўрсатмоқда;

- вилоятда туризм тармоғини умумий хизматлар, ялпи ҳудудий маҳсулот ва инвестициялар ўртасида нисбатан юқори боғлиқлик борлиги исботланган. Саноат, қишлоқ хўжалиги ва савдо билан боғлиқлик даражаси нисбатан юқори эмас, уларнинг вилоятда туризмни ривожланишига қўшаётган ҳиссалари талабга жавоб бермаслигини кўрсатмоқда.

Вилоятда туризм тармоғини ривожланишининг ҳозирги ҳолати бир қатор тизимли муаммолар мавжудлигини кўрсатмоқда. Уларни ҳал қилиш ва минтақавий салоҳиятдан унумли фойдаланиш туризмни вилоятни ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг етакчи тармоғи ва ўсиш нуқталаридан бирига айланиши, аҳоли фаровонлиги оширишда муҳим омил бўлиб хизмат қилиши учун барча имкониятлар мавжуд.

Бухоро давлат университети “Иқтисодиёт” кафедраси и.ф.ф.д., (PhD)

З.Б. Навруз-зода,

90 710-90-94, zebinisonavruzzoda@gmail.com

“СМАРТ ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИЯ” ЗИЁРАТ КЛАСТЕРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.

Аннотация: Мақолада туристик дестинациянинг 6 та модели ҳақида ёритиб берилган. "Смарт ҳудудлар" мижозларга сайёҳларни кўпроқ жалб этилиши ва "Смарт ҳудуд"нинг асосий фарқловчи хусусиятларини очиб берган.

Калим сўзлар: туристик дестинация, туристик ҳудуд, смарт ҳудуд, ақилли ҳудуд, зиёрат кластери.

Аннотация: В статье описаны 6 моделей туристических дестинаций. «Умные регионы» раскрыли покупателям большую привлекательность туристов и основные отличительные черты «Умного региона».

Ключевые слова: туристическая дестинация, туристический район, умный район, интеллектуальный район, паломнический кластер.

Resume: The article describes 6 models of tourist destinations. "Smart Regions" revealed to customers more attraction of tourists and the main distinguishing features of "Smart Region".

Keywords: tourist destination, tourist area, smart area, intelligent area, pilgrimage cluster.

Туристтик дестинациянинг турли моделлари мавжуд. Уларни 6 та қуйидаги моделларини мақоламизда кўриб чиқамиз:

1. Туристтик дестинациянинг тизимли модели. Янги Зеландиялик олим Н.Лейпер ўзининг туристик дестинация моделида сайёҳлик билан ўзаро алоқада бўладиган тўртта қуйидаги ҳудуд турларини ажратиб кўрсатади¹.

1) туристларни юборадиган ва уларнинг яшаш жойлари билан боғлиқ бўлган туристик оқимларни вужудга келтирувчи ҳудудлар;

2) сайёҳларни ҳудудгача етказиш ва қайтариш билан боғлиқ бўлган транзит ҳудудлар;

3) туристлар бориб саёҳатини амалга оширадиган ҳудуд;

4) саёҳатгоҳни танлашга таъсир ўтказувчи атроф-муҳит.

Туристтик дестинация туризм тизимининг асосий ядроси, муҳим элементи ҳисобланади. Туризмнинг концептуал модели асосида туризм соҳаси тизим сифатида туризм субъекти ва объекти тизимостиларини ўз ичига қамраб олади. Бунда туристик субъектни туристлар ташкил этса, унинг объекти туристик ресурслар ва туристик хизматларни кўрсатадиган корхона ҳамда ташкилотлардан таркиб топади. Туристлар бу тизим доирасида агар талаби ифодаланувчилар ёки харидорлар бўлсалар, уларнинг қаршиларида сотувчилар – туристик товар ва хизматларни таъминловчилар турадилар.

2. Туристтик ҳудуднинг географик модели. Россиялик олим Морозов М. А. сайёҳлар учун маълум бир жозибadorликка эга бўлган географик ҳудуд сифатида туристик дестинацияни

¹Leiper N. Tourism system: an interdisciplinary perspective. Palmerston North, New Zealand: Department of Management Systems, Business Studies Faculty, Massey University, 1990, 289 p

белгилайди. Ушбу таърифда жозибаторлик асосий тафсилот ҳисобланиб, у турли сайёҳлар гуруҳлари учун турли хил бўлиши мумкин¹. Ушбу модел кластерлар жойлашган ҳудудга боғлиқ бўлган "Картографик таксономия" деган ёндашувга асосланади².

"Таксономия" (юнон тилидан "taxis" – ўрнашган жой ва "nomos" - қонун) - воқеликнинг мураккаб соҳалари, одатда иерархик тузилиш (география объектлари) га эга бўлган воқеликнинг мураккаб соҳаларини таснифлаш ва тизимлаштириш назариясидир. Бунда "Картографик таксономия" деганда, муаллифлар туристик ресурслар, хусусиятлари ва туристик ҳудудларнинг ривожланиш омиллари тўғрисидаги маълумотларни картографик таксономия ёрдамида тақдим этиш усули деб, тушунадилар. "Худудий бирлик" - харитадаги 1x1 километр горизонтал текисликка мос келадиган, унга берилган тартиб рақам (координаталари) бўлган ҳудуднинг майдони назарда тутилади.

3. *Туристтик дестинациянинг ижтимоий-маданӣ модели.* Туристтик ҳудуднинг ижтимоий-маданӣ модели маркетинг ёки талабни шакллантириш билан боғлиқ. Бу моделга мувофиқ, туристик дестинация - бу нафақат туристик талаб намоён бўладиган жой, балки, туристлар билан доимий равишда алоқада бўлган маҳаллий аҳоли яшайдиган манзил ҳамдир. Бу модель туристик ҳудудларнинг маркетинг томонини ҳам кўриб чиқади³.

4. *Туристтик дестинациянинг рақобатбардошлик модели.* Хорижлик мутахассисларнинг фикрича, дестинацияларнинг макро-, мезо- ва микро даражаларда рақобатбардошлиги маълум параметрларга асосланиб, 6А моделида ўз аксини топган. Туристтик дестинациянинг таркибий қисмларини Д.Бухалис ҳар томонлама тадқиқ этиб, унинг "6А" концепциясини ишлаб чиққан. Ушбу модель инглиз тилидаги 6 рақобатбардошлик категорияларининг бош ҳарфларидан олинган бўлиб, улар қуйидагиларда ўз аксини топади⁴:

1. Attractions - диққатга сазовор жойлар;
2. Accessibility – мавжудлиги (йўналишлар, терминаллар ва транспорт воситаларидан иборат барча транспорт тизимининг мавжудлиги);
3. Amenities - хизматлар (тураржой ва озиқ-овқат, чакана савдо тармоғи, бошқа туристик хизматлар);
4. Available packages - мавжуд пакетлар (воситачилар орқали олдиндан мавжуд саёҳат пакетлар);
5. Activities - фаолият (белгиланган ташриф жойлардаги барча фаолият тури ҳамда истеъмолчилар томонидан ташриф вақтида амалга ошириладиган ишлар);

5. *Туристтик ҳудуднинг тақлиф модели.* Мамлакат доирасида туризм тақлиф тизимига, қуйидаги уч маконда истеъмолчи ҳамда ишлаб чиқарувчилар ўртасида вужудга келадиган жараёнларга асосланади:

1. Сайёҳни вужудга келтирадиган макон - саёҳатгача истеъмол қилинадиган туризм воситачилари ҳамда товар ва хизматларни қамраб олади.
2. Ахборот макони – сайёҳни вужудга келтирадиган ва саёҳат амалга ошадиган маконларни уйғунлаштирувчи, мамлакат жозибаторлигини ўзида акс эттирган ахборот манбалари ва маркетинг воситаларини қамраб олади.
3. Саёҳат амалга ошадиган макон – саёҳат эҳтиёжларини қондириш жараёнида қатнашадиган барча ташкилотлар етказиб берадиган маҳсулот ва хизматлар мажмуини ўзида акс эттиради⁵.

6. *Туристтик ҳудуднинг SMART модели.* "Смарт" атамаси Петер Ф.Друкер томонидан "Менежмент амалиёти" (1954) асарида илмий айирбошлашга киритилган эди. "SMART" аббревиатураси қўйилган мақсаднинг хусусиятларини аниқлаш учун белгиланган бўлиб, қуйидаги маънони билдиради: Specific – аниқ; Measurable – ўлчанадиган; Achievable – эришиладиган; Realistic – реалистик; Time – вақт бўйича белгиланган⁶. Шундай қилиб, олим агар мақсад "ақлли" бўлса, яъни қўйилган мезонларга жавоб бера олса, унга эришилади, деб ҳисоблаган.

¹Морозов М.А. Дестинация – важнейший элемент туризма / М.А. Морозов, О. Коль. Туризм: практика, проблемы, перспективы. – 1998. – № 1. – С. 9.

²Морозов М.А., Львова Т.В. Кластерный подход в моделировании туристских дестинаций (на примере Красной Поляны). Вестник Российского государственного торгово-экономического университета. Научный журнал. № 9 (57). Москва. 2011. С:93-105.

³Николаев С.С. Стратегия формирования единого туристского пространства в регионе: (На прим. Санкт-Петербурга и Ленингр. обл.); автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / С.-Петерб. гос. ун-т экономики и финансов. — СПб., 2000. — 16 с.

⁴Buhalis D. Marketing the competitive destination of the future // Tourism Management. 2000. № 21 (1). P. 97–116.

⁵ Ибрагимов Н.С., Мамлакат доирасида туризмнинг уч маконли тизимли таҳлили. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил. 1-10- б.

⁶Peter F. Drucker. The Practice of Management by . Published October 3rd 2006 by Harper Business. 416 pages. <http://www.litres.ru/piter-druker/praktika-menedzhmenta-2/?lfrom=279785000>.

"Ақлли"(смарт) предикат (кесим)нинарсалар, объектлар, жараёнлар ва умуман инсон фаолияти муҳитига нисбатан қўлланилганда кундалик ҳаётимиз учун автоматлаштирилган бошқарув ва ахборот узатиш тизимларининг мислсиз аҳамиятини акс эттиради ва яқин келажакда сунъий ақлнинг дастлабки шакллари пайдо бўлишини кутади. "Ақлли ҳудуд" муаммоси туризм иқтисодиётига хос бўлиб, муаммони биринчи навбатда истеъмол талаби томондан акс эттиради. "Смарт ҳудудлар" мижозларга сайёҳларни кўпроқ жалб этиш ва уларнинг тураржойларида қулайликларни ошириш мақсадида бундай хизматлар кўрсатиш имкониятини беради. "Смарт ҳудуд"нинг асосий фарқловчи хусусияти – мижозга йўналтирилганлиги ва 2.0 Интернет имкониятларидан фойдаланган ҳолда янги қўшилган қиймат занжирларни яратишдадир.

Хулоса ва таклифлар:

1. "Туристтик дестинация" атамаси анъанавий шакл ва мазмундан янгича – "Смарт ёки "Ақлли туристик дестинация" шакли ва мазмунига трансформацияланиши.
2. АКТ ва Интернетнинг ривожланиши ва уларнинг туризм соҳасида кенг қўлланилиши туфайли дастлаб электрон, кейинча рақамли туризмнинг шаклланиши эвазига анъанавий туристик дестинациялар смарт туристик дестинацияларга айланиш тенденциялари кузатилмоқда.
3. Туризм ривожланган давлатларда "Смарт шаҳар" ларнинг барпо этилиши мазкур ҳудудларда Смарт туристик дестинацияларнинг шаклланишига кучли таъсир ўтказмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Leiper N. Tourism system: an interdisciplinary perspective. Palmerston North, New Zealand: Department of Management Systems, Business Studies Faculty, Massey University, 1990, 289 p
2. Морозов М.А. Дестинация – важнейший элемент туризма / М.А. Морозов, О. Коль. Туризм: практика, проблемы, перспективы. – 1998. – № 1. – С. 9.
3. Морозов М.А., Львова Т.В. Кластерный подход в моделировании туристских дестинаций (на примере Красной Поляны). Вестник Российского государственного торгового-экономического университета. Научный журнал. № 9 (57). Москва. 2011. С:93-105.
4. Николаев С.С. Стратегия формирования единого туристского пространства в регионе: (На прим. Санкт-Петербурга и Ленингр. обл.): автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / С.-Петербург. гос. ун-т экономики и финансов. — СПб., 2000. — 16 с.
5. Buhalis D. Marketing the competitive destination of the future // Tourism Management. 2000. № 21 (1). P. 97–116.
6. Ибрагимов Н.С., Мамлакат доирасида туризмнинг уч маконли тизимли таҳлили. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2017 йил. 1-10- б.
7. Peter F. Drucker. The Practice of Management by . Published October 3rd 2006 by Harper Business. 416 pages. <http://www.litres.ru/piter-druker/praktika-menedzhmenta-2/?lfrom=279785000>.
8. Молчанова, В.А. Тенденции инновационного развития туристских дестинаций: «умная дестинация» / М.А. Молчанова // Экономика и предпринимательство. — 2017. — № 9-3 (86-3). — С. 715-720.

Рашидов Мэлс Каримович
Навой давлат кончилиқ
ва технологиялар университети
доценти, PhD,

ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ВА КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Эркин иқтисодий зоналар бўйича жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, эркинлик, мустақиллик, дахлсизлик нафақат давлатга, шахсга, инсонга айни бир пайтда, илғор технологиялар яратаётган интеллектуал доираларга, ишлаб чиқариш корхоналарига, бутун бир минтақалару меҳнат жамоаларига ҳам сув ва ҳаводек зарур экан, деган хулосага олиб келади- инсонни.

Ўзбекистон Республикасида маълум бир минтақаларни ривожлантириш, ишни ташкил этишнинг худудий мукамал усуллари жорий этишга йўналтирилган "Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида"ги қонун бундан қарийб 27 йил муқаддам, 1996 йил 25 апрелда қабул қилинган эди. Лекин у ўзининг жадал ривожланиш даври, вақти-соатини кутиб, 2008 йил 2 декабрда мамлакатимизда илк эркин иқтисодий зонани ташкил этиш, уларнинг фаолиятини тартибга солиш

борасида қонунни қабул қилинишига олиб келди. Мазкур қонунда келтирилган таърифга кўра эркин иқтисодий зона бу минтақани жадал ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш учун мамлакат ва чет эл капиталлини, истиқболли технология ва бошқарув тажрибасини жалб этиш мақсадида тузиладиган, аниқ белгиланган маъмурий чегаралари ва алоҳида ҳуқуқий тартиботи бўлган махсус ажратилган ҳудуддир[1].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 25-октябрдаги “Эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналари фаолияти самарадорлигини ошириш борасидаги қўшимча чоратadbирлар тўғрисида”ги ПҚ-3356-сон қарорига мувофиқ, ҳозирда республикада 22 та эркин иқтисодий зона ва 410 дан ортиқ кичик саноат зоналари фаолият олиб бормоқда[2]. Бу ишлар айниқса, сўнгги йилларда изчиллик билан давом эттирилмоқда. Таъкидлаш жоиз-ки, Ўзбекистон чуқур ижтимоий-иқтисодий ўзгариш ва ислохотларга жуда ҳам муҳтож. Орқада қолиб кетдик, деб айтолмаймизу лекин шундай имкониятларга эга бўла туриб, илгарилаб ҳам кетганимиз йўқ.

Эркин иқтисодий зона, айрим ҳолларда, алоҳида ёки махсус иқтисодий зона (special economic zone) -ЭИЗ, бу-давлатнинг жадал ривожланишга мўлжалланган, бошқа минтақаларига нисбатан алоҳида юридик статусига эга бўлган чегараланган ҳудудидир. Мазкур минтақа ўз (миллий) ёки хорижий тадбиркорлар учун солиқ, божхона божи бўйича ва бошқа имтиёзларга эга бўлади. Бундай зоналарни ташкил қилишдан асосий мақсад давлатнинг, алоҳида минтақа ёки соҳаларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишида муаммо бўлиб турган масалаларни ҳал қилишдан иборатдир.

Эркин иқтисодий зоналар ташкил этилгач катта капитал эгалари, тараққий қилган давлатлар хомашёга бой, ишчи кучи арзон бўлган мамлакатларга инвестициялар кирита бошлади. Таъкидлаш жоизки, инвестициялар умуман мамлакатга эмас, балки аниқ бир минтақага, маълум бир мақсадда, замонавий бир маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат турини яратиш мақсадида киритиши лозим. Шунда мамлакатга нафақат инвестиция, балки юқори технологиялар, замонавий машина, модуль ва дастгоҳлар, малакали мутахассислар кириб келади, янги иш жойлари яратилади, хорижга экспорт қилинадиган маҳсулотлар, импорт ўрнини босадиган товарлар ишлаб чиқарила бошланади.

Эркин иқтисодий зоналар шунингдек, ишни самарали ташкил қилиш, уни бошқаришнинг янги прогрессив усуллари синондан ўтказиш мақсадида, ишчи корхоналарини хомашё базасига яқинлаштириш, импорт ва экспорт қилиш, божхоналарда тўланадиган бож харажатларини камайтириш, маъмурий тўсиқларни олиб ташлаш, пировард натижада минтақани ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасини кўтаришга хизмат қила бошлайди.

1-жадвал.

Бугунги кунда умумий ҳолда эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналаридаги инвестицион иқлимнинг SWOT-таҳлили

Кучли томонлар (S – strengths)	Кучсиз томонлар (W – weaknesses)
-эркин божхона ҳудуди тартиби ва тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишнинг алоҳида тартиби амал қилиши (солиқ имтиёзлари, маъмурий тартибга солишнинг соддалаштирилган тизими-“ягона дарча” тамойилининг амал қилиши; -зонанинг замонавий инфратузилма объектлари билан таъминланганлиги; - йирик транспорт коммуникациялари яқинида жойлашганлиги каби бир қатор табиий-логистик устуворлик; - катта табиий-ресурс салоҳияти ва қ/х маҳсулотларини етиштириш ва қайта ишлашда қулай табиий шароит - арзон ишчи кучи	- ташқи муҳит ўзгаришларига тезда мослаша олмаслик; - резидент-корхоналари инвестицион фаоллиги ва унда кечаётган инновацион жараёнларнинг нисбатан сустлиги; - зонани ривожлантириш учун ажратилаётган бюджет маблағларининг ноқонуний йўллар билан ўзлаштирилиши, коррупцион схемалар ҳамон сақланиб қолаётганлиги, солиқдан қочиш мақсадида корхоналар томонидан спекулятив схемалардан кенг фойдаланилиши; - зоналар тўғрисида хорижий сармоядорлар ўртасида салбий фикрлар мавжудлиги; - ишлаб чиқариш жараёнида маҳаллийлаштириш даражасининг пастлиги - экспорт географиясини торлиги; -зонада замонавий АКТ, маркетинг ва менежмент тизимларининг ривожланмаганлиги.
Имкониятлар (O – opportunities)	Хавф-хатарлар (T – threats):
- ташқи иқтисодий алоқаларнинг кучайиши ва экспорт салоҳиятини оширишга қаратилган давлатнинг рағбатлантирувчи сиёсати;	- зона фаолиятини тартибга солиш борасида давлатнинг пухта ўйланган сиёсатини ифода этувчи стратегия ва концепцияларнинг мавжуд

<p>-марказий осие давлатлари ва шунингдек МДХ давлатлари доирасида интеграцион алоқаларнинг янада кучайиб бораётганлиги; - очик инновациялар моделининг кенг қўлланилиши; - хорижий ҳамкорлар билан биргаликда тадқиқотларни амалга ошириш ва инновацион лойиҳаларни амалга ошириш; - юкори технологияли ишлаб чиқаришларни йўлга қўйишга катта эътибор қаратилиши; - зонанинг нуфузини ошириш мақсадида мохирона менежмент ва маркетинг стратегияларининг амалга оширилиши</p>	<p>эмаслиги; - зона бошқаруви мустақиллик даражасининг пастлиги; - зона ташкил этишдан қўзланган мақсадларга эришишда хусусий инвестор ва резидентларнинг қизиқиш ва манфаатдорлигининг пастлиги; - зона резидентлари фаолиятини баҳолашнинг самарали тизимининг мавжуд эмаслиги; - хорижий инвестицияларни жалб қилиш борасида ривожланаётган мамлакатлар ўртасида рақобат курашининг тобора шиддатли тус олиши</p>
---	--

Манба: муаллиф ишланмаси

2-жадвал.

Мамлакатимиз минтақаларидаги кичик саноат зоналарида 2023-2025 йиллар давомида амалга оширилиши режалаштирилган инвестицион лойиҳалар кўрсаткичлари таҳлили¹

Минтақалар номи	Лойиҳалар сони	Инвестицион лойиҳа қиймати (млрд.сўм)	Яратилиши режалаштирилган иш ўрни(киши)
Қорақалпоғистон Республикасида	65	229,4	1 486
Андижон	157	452,8	4 365
Бухоро	130	811,9	4 643
Жиззах	75	302,6	1 385
Қашқадарё	93	340	2 022
Навоий	44	201,1	1 159
Наманган	956	5 411,6	44 870
Самарқанд	133	588,8	3 756
Сурхондарё	124	284,8	1 370
Сирдарё	28	193,5	827
Фарғона	457	5 203,0	18 875
Хоразм	34	71,5	669
Тошкент	98	1 461,0	3 694
Тошкент ш.	25	240,4	912

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, биринчидан, мамлакатимиз минтақаларидаги эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарида ўз фаолиятини олиб бормоқчи бўлган инвесторлар учун эркин иқтисодий зона дирекциясига эркин иқтисодий зона ҳудудида инвестиция лойиҳасини жойлаштириш бўйича инвестиция буюртманомасини тақдим этиш жараёнларини соддалаштириш;

Иккинчидан, эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналари учун ер участкалари, бўш турган биноларни ажратиш тартибини соддалаштириш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг 1996-йил 25-апрелда “Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида”ги 220-И-сон Қонуни. <https://www.lex.uz>


2. RL:https://www.iupr.ru/_files/ugd/b06fdc_891644f403cd434e895978f77fb3190e.pdf ?index=true.

¹ <https://invest.gov.uz/> маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Gulrukh Djumanazarovna Khasanova
BMTI, "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.n.
tel.: +99893-654-17-71
E-mail: gulrux-xasanova1971@mail.ru
Sohibjon Sobirovich Sadirov
BMTI, 1 kurs magistranti

MEHNAT RESURLARI: SHAKLLANISHI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Mehnat resurslari mamlakat aholisining o‘z psixofiziologik va aqliy sifatleri bilan moddiy ne‘matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko‘rsatishga qodir bo‘lgan qismidan iboratdir. **Mehnat resurslari** deb, o‘zining aqliy va jismoniy mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadigan mehnatga qobiliyatli kishilar to‘plamiga aytiladi. Mehnat resurslari — mamlakat aholisining mehnatga layoqatli yoshdagi qismi, iqtisodiy resurslarning tarkibiy unsuri; 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar, 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar mehnat resurslariga kiritiladi (1-chizma).



1-chizma. Mehnat resurslarining guruhlanishi¹

"Mehnat resurslarining shakllanishi" tushunchasi ancha vaqtlardan buyon iqtisodiy adabiyotlarda va statistik amaliyotda qaror topgan bo‘lib, o‘ziga xos tor kasbiy atama sifatida ishlatilib kelinadi. Bu tushunchaning nimadan iborat ekanligi hiqida umumiy tarzda qabul qilingan, munozara talab qilmaydigan tasavvur yo‘q. Biz esa "mehnat resurslarini shakllantirish" deganda mehnat resurslarining doimiy ravishda yangilanib turishi tushuniladi, deb hisoblaymiz.

Butun aholining va uning mehnatkash qismidagi dinamikaning xilma-xil yo‘nalishda yaqqol ifodalangan o‘zgarishi voqealarning normal borishdan chetga chiqish deb qaraladi. Ana shu sababli normal ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish uchun noqulay shart-sharoit yaratadi. Mehnat resurslaridan foydalanish tomonlaridan biri mehnat resurslarini taqsimlash bo‘lsa, ikkinchisi tomoni – mehnatni tadbiiq etish samaradorligidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan mehnat resurslari tarkibini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, mehnat resurslari soni 19 million 453,3 ming kishini tashkil etadi. Mehnat bilan band bo‘lganlar soni 13 million 773,6 ming, rasmiy sektorda band aholi 6 million 74,4 ming, norasmiy sektorda band bo‘lganlar 5 million 690,3 ming kishini tashkil etgan. Ishsizlik darajasi 2021 yil yakuni bo‘yicha 9,6 foiz, 2022 yil ikkinchi chorak yakuni bo‘yicha 9,2 foiz (1-jadval).

¹ Муаллиф изланишлари асосида ишлаб чиқилган

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha mehnat resurslari tarkibi
(ming kishi hisobida)**

Ko'rsatkichlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
Mehnat resurslari	18666,3	18829,6	18949,0	191582	19334,9
Doimiy aholiga nisbatan, foizda	57,6	57,1	56,4	56,0	55,4
SHu jumladan:					
Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi	18549,0	18712,1	18857,6	19075,7	19237,6
doimiy aholiga nisbatan, foizda	57,3	56,8	56,2	55,7	55,1
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	99,4	99,4	99,0	99,6	99,5
Mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar	117,3	117,5	91,4	82,5	97,3
doimiy aholiga nisbatan, foizda	0,3	0,3	0,3	0,2	0,3
mehnat resurslariga nisbatan foizda	0,6	0,6	0,5	0,4	0,5

SHuningdek, jamoat ishlari dasturi bo'yicha 82 ming 602 nafar fuqaro haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilib, joriy yilning birinchi yarim yilligida rejaga nisbatan 114,2 foizga ortig'i bilan bajarilgan. Bandlikka ko'maklashish dasturi doirasi esa yarim yillikda 5 mingdan ziyod kasbiy-malakaviy kurslar o'tkazilgan holda reja 143,4 foizga ortig'i bilan bajarilgan.

Prezidentimizning 2021 yil 30 dekabrda tegishli qaroriga binoan, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining byudjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlari ijrosi 2022 yil uchun jami 940 milliard so'm, Jamoat ishlari jamg'armasining byudjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlarining maqsadli indikatorlari 300 milliard so'm etib belgilangan. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi uchun 2022 yilda Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 1 trillion 254,4 milliard so'm mablag' ko'zda tutilgan bo'lsada, shu yilning 1 iyul holatiga byudjet xarajatlari va rivojlantirish dasturlari uchun haqiqatda 272,4 milliard so'm mablag' o'zlashtirilgan.

SHu bilan birga, ayrim indikatorlar, xususan, jamoat ishlariga jalb qilingan ishsizlar tomonidan bajarilgan obodonlashtirish ishlari soni ko'rsatkichi SMART tamoyiliga unchalik mos emas. Qolaversa, malakali ishchilar uchun to'ldirilmagan ish o'rinlari soni ortib bormoqda.

Fikrimizcha, mehnat resurslaridan unumli foydalanishni ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:


- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi, ularda yangi ish o'rinlarini yaratishni qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish hamda agroservis xizmati ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati bo'yicha ish joylarini yaratish;
- ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish;
- kasanachilik rivojlanishini rag'batlantirish orqali ko'p bolali ayollar, mehnatga layoqatli pensionerlar, nogironlar, o'smirlar va boshqalarga mos ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltirish;
- yangi ish o'rinlarini yaratishda korxonalarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, byudjet to'lovlari va xodimlarning vaqtincha va qisman bandligi uchun ijtimoiy sug'urta badallarini kamaytirish, ularni ishga qabul qilish jarayonini yanada engillatish va h.k.

Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tayanch doktoranti
amirbahodir@gmail.com

MA'LUMOTLARNI SAQLASHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Qurilmalarda saqlanadigan ma'lumotlar foizi sezilarli darajada kamaytirish va bulutli saqlash yechimlariga faol o'tishni ko'rishimiz mumkin. Bu jarayon asosan ish stoli qurilmalaridan mobil qurilmalarga o'tishga o'xshaydi. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, agar 2010-yillarning boshida

ma'lumotlarning 80-90% foizi an'anaviy ma'lumotlar markazlarida saqlangan bo'lsa, 2020 yilda bu ulush atigi 50 foizni tashkil etadi. Ushbu holatni Whitney L shunday tasvirlagan 2025 yilga kelib Ma'lumotlar asosan bulutli hisoblash asosida foydalanish keskin oshib ketadi va quydagi rasmda ushbu holatni keltirib o'tamiz.



1-rasm. Ma'lumotlarni bulutli saqlash dinamikasi

Ilgari, bulutli yechimlarni tijorat mijozlari o'rtasida faol tarqatish bosqichi boshlanishidan oldin, ko'plab kompaniyalar o'zlarining infratuzilmasini qurish, shuningdek, malakali operatorlar tomonidan xizmat ko'rsatish uchun katta moliyaviy resurslarni sarflashlari kerak edi. Bu, masalan, 10 kishidan iborat jamoaga loyiha ustida birgalikda ishlash imkonini beruvchi bulutli yechimning bir turi edi, ammo bu "xususiy bulut" mexanizmi hisoblanadi.

Masalan, kompaniyaning server quvvatlariga yuklanish keskin oshib ketgan taqdirda (mahsulotga talabning kutilmagan tebranishlari bo'lsa), aksariyat hollarda u infratuzilmaga qo'shimcha investitsiyalar kiritishga majbur bo'ldi. Shuni ham ta'kidlashimiz mumkin, odatda bunday infratuzilma yechimlari alohida xonalarda va nazorat qilinadigan harorat sharoitida joylashgan bo'lishi kerak.

Raqamli iqtisodiyotda bulutli innovatsiyalarni rivojlantirishning hozirgi tendentsiyasiga kelsak, ko'p sonli foydalanuvchilar uchun mavjud tizimlar - ommaviy bulutli echimlar haqida gapirish kerak. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, biz tadqiqotni faqat ushbu texnologiyaning ahamiyatini tavsiflash bilan cheklamasligimiz kerak. Shuningdek, bazi bir ixtisoslashgan (ma'lum bir kompaniya ehtiyojlariga moslashtirilgan) taqsimlangan (vaqtga sezgir operatsiyalar uchun ko'pincha barqaror va yuqori tezlikda o'zaro aloqani ta'minlaydigan o'zaro bog'langan tizimlar to'plamidan foydalangan holda) va "ko'p bulutli" (birlashtiruvchi) ni ajratish mumkin¹².

Tez kengayib borayotgan ushbu bozorning asosiy ishtirokchilari qatoriga quyidagilar kiradi: Google Cloud, Amazon Web Services, Oracle Cloud, Microsoft Azure, SAP Cloud Platform va boshqalar. Synergy Research Group kompaniyasining 2019 yildagi tadqiqotiga ko'ra, bulutli hisoblash bozorining hajmi. 130 milliard dollardan ortiqni tashkil etdi³.

Bulutga asoslangan ilovalarni joylashtirish uchun uchta asosiy yo'nalishni aniqlash muhimdir bular quydagilar.

1. *Hizmat sifatida infrastruktura, Infrastructure as a Service (IaaS).*
2. *Hizmat sifatida Platfora, Platform as a service (PaaS.)*
3. *Hizmat sifatida dasturiy ta'minot, Software as a Service (SaaS).*

Yuqorida keltirilgan xizmatlar asosida quydagi kompaniyalar o'z xizmatlarini taqdim etadi.

2019-yil oxirida Amazon Web Services platformasi (keyingi o'rinlarda AWS) bozor ulushi 32% va daromadi 9,8 milliard dollar (to'rtinchi chorak uchun) bilan yetakchi bulutli xizmat ko'rsatuvchi provayder bo'ldi. Keyingi o'rinni 17% va 5,3 mlrd dollarlik ulushga ega Microsoft Azure xizmati egalladi. Shu bilan birga, uchinchi o'rinni egallagan Google Cloud'ning bozor ulushi bor-yo'g'i 6 foiz va daromadi 1,8 milliard dollarni tashkil etadi.

¹ Governments Embracing Cloud. An Opportunity for Modernization, Innovation and Transformation / Information Technology Association of Canada. URL: <https://itac.ca/wp-content/uploads/2019/09/ITACgovt-Cloud-paper-Eng-aug2019-final.pdf>

² uscaldo D. Stripe Now Has a Valuation of \$35 Billion. URL: <https://www.forbes.com/sites/donnafuscaldo/2019/09/19/stripe-now-has-a-pre-money-valuation-of-35-billion/#40d65e1562e6>

³ Half-Yearly Review Shows \$150 billion Spent on Cloud Services and Infrastructure / Synergy Research Group. URL: <https://www.srgresearch.com/articles/half-yearly-review-shows-150-billion-spent-cloud-servicesand-infrastructure>

Xususiy va ochiq bulutli modellar o'rtasidagi moliyaviy taqsimotga kelsak, prognozlariga ko'ra, 2025 yilga kelib daromadning deyarli 90 foizi asosan yuqorida sanab o'tilgan o'yinchilar tomonidan taqdim etilgan ommaviy bulutli saqlash xizmatlaridan olinadi. Biroq, ushbu bozordagi raqobat sharoitlariga kelsak, AWS, Microsoft Azure va Google Drive kabi aniq yetakchilarga qaramay, bu soha, raqamli iqtisodiyotdagi ko'plab boshqa bo'shliqlar singari, kichik startaplar va kompaniyalar tomonidan hamon innovatsiyalar uchun ochiq hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi tajribasiga kelsak, 2012-yilda Yevropa Komissiyasi tomonidan birinchi marta tuzilgan "Yevropa bulutli hisoblash strategiyasi" ham bunday innovatsiyalarni joriy etishdan kelib chiqadigan ko'plab muammolarni belgilab berdi.

Bu yerda bulutli texnologiyalar bozorida samarali ta'minotni ta'minlash uchun muhim bo'lgan bir nechta jihatlarni ta'kidlash joiz: xavfsizlik (Evropa Komissiyasining ma'lumotlarni himoya qilish standartlariga majburiy rioya qilish); gibridlik (aniq maqsadlar va loyihalarga qarab ochiq va shaxsiy yechimlarni amalga oshirish qobiliyati); "Ko'p bulutli" (bu sog'lom raqobat mavjudligi va bir nechta takliflar o'rtasida tanlov qilish qobiliyatini anglatadi); energiya samaradorligi (atmosfera karbonat anhidrid chiqindilarini kamaytirish bo'yicha Evropa Ittifoqining umumiy normalari va qoidalari)¹.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ma'lumotlarni saqlashda va tarqatishda bulutli texnologiyalarni qo'llash orqali bir qancha samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rib o'tdik bular quydagilar:

*Birinchi*dan. Ma'lumotlardan istalgan joyda va istalgan vaqtda foydalanish mumkinligi.

*Ikkinchi*da. Ortiqcha qurilmalarga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish.

*Uchinchi*dan. Elektr energiya harajatlarini kamayishi.

Ushbu misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin bulutli texnologiyalarni qo'llagan holda foydalari bo'lgani kabi kamchiligi ham mavjud ushbu kamchiligini keying ilmiy tadqiqotlarda ko'rib o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Governments Embracing Cloud. An Opportunity for Modernization, Innovation and Transformation / Information Technology Association of Canada. URL: <https://itac.ca/wp-content/uploads/2019/09/ITACgovt-Cloud-paper-Eng-aug2019-final.pdf>

2. uscaldo D. Stripe Now Has a Valuation of \$35 Billion. URL: <https://www.forbes.com/sites/donnafusco/2019/09/19/stripe-now-has-a-pre-money-valuation-of-35-billion/#40d65e1562e6>

3. Half-Yearly Review Shows \$150 billion Spent on Cloud Services and Infrastructure / Synergy Research Group. URL: <https://www.srgresearch.com/articles/half-yearly-review-shows-150-billion-spent-cloud-servicesand-infrastructure>

4. European Commission Cloud Strategy – Cloud as an enabler for the European Commission Digital Strategy / European Commission. 16 May 2019. v.1.01. URL: https://ec.europa.eu/info/sites/info/files/ec_cloud_strategy.pdf

Jahongir Qosimov
QarDU "Turizm va marketing"
kafedra katta o'qituvchisi

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH DAVR TALABI

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan birgalikda raqamli innovatsion texnologiyalar hayotimizning har bir sohasiga kirib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot deganda jamiyat ne'matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida elektron hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tovar va xizmatlarning taqsimlanish jarayonlarini tezlashtiradi, innovatsion yo'llar bilan aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatimiz uchun ham uning dunyo miqyosidagi raqobatbardoshligini belgilab beradigan strategik ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi joriy yil uchun eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga

¹ European Commission Cloud Strategy – Cloud as an enabler for the European Commission Digital Strategy / European Commission. 16 May 2019. v.1.01. URL: https://ec.europa.eu/info/sites/info/files/ec_cloud_strategy.pdf

Murojaatnomasida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha quyidagi asosiy masalalarga e'tibor qaratildi: "Birinchi navbatda, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog'liqni saqlash, ta'lim, arxiv sohaslarini to'liq raqamlashtirish; "Elektron hukumat" tizimini, amalga oshirilayotgan dasturlar va loyihalarni tanqidiy qayta ko'rib chiqib, barcha tashkiliy va institutsional masalalarni kompleks hal etish; Toshkent shahrida zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park" qurilishini takomillashtirish va bunday "IT-park"larni Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida ham tashkil etish; Raqamli iqtisodiyotning soha va tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda "1 million dasturchi" loyihasini amalga oshirish.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dunyo davlatlari uchun asosiy ustuvor masalaga aylandi. Bunga sabab raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi har bir mamlakat va uning aholisi uchun ko'plab ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Jumladan, iqtisodiy o'sishning tezlashishi, mehnat unumdorligining oshishi, qo'shilgan qiymatning ko'payishi, yangi ish o'rinlarini tashkil qilinishi, investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va tarqalishi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi bo'yicha yetakchi o'rinda AQSH va Xitoy davlatlari turadi. Masalan, raqamli iqtisodiyotdagi blokcheyn texnologiyalar bilan bog'liq patientlarni olishning 75%, shuningdek, internet vositalariga qilinadigan xarajatlarning 50 % ham aynan shu davlatlarga to'g'ri keladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri-AKT(axborot kommunikatsiya texnologiya)larning rivojlanish indeksi hisoblanadi. 2017 yil ma'lumotlariga ko'ra, jahonda AKTlarning rivojlanish indeksi bo'yicha Islandiya 8,9 ko'rsatkichi bilan 1-o'rinda; Janubiy Koreya 8,85 ko'rsatkichi bilan 2-o'rinda; Shvetsariya 8,74 ko'rsatkichi bilan 3-o'rinni egallab turibdi. Mamlakatimiz, O'zbekiston Respublikasi 4,9 ko'rsatkichi bilan bu ro'yxatning 95-o'rinidan joy olgan. BMTning 2019 yilgi ma'lumotlar asosida xabar berishicha, dunyo internet trafigining dinamikasi 2002 yilda sekundiga 100 Gbaytni, 2007 yilda sekundiga 46000 Gbaytni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkichni sekundiga 150700 Gbaytga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari, kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra, qashshoq davlatlarda 5 ta oliadan 1 tasi, rivojlangan davlatlarda 5 ta oiladan har 4 tasida kompyuterlardan foydalanish imkoniyati mavjud hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining har bir bosqichida innovatsion g'oyalar o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishida asosiy omillardan biri- bu innovatsiya, innovatsion g'oya va uning mahsuli bo'lmish innovatsion mahsulotlar ekanligi tasvirlangan. Bunga sabab dastlab innovatsion g'oyalarning paydo bo'lishi, rivojlantirilishi va buning natijasida yangi mahsulot (innovatsion mahsulot)larning yaratilishi bo'lib, ular insonlar hayotini bir muncha yengillashtirdi va qulayliklar yaratganidir. Innovatsion mahsulot deganda asosiy e'tibor sun'iy intellekt, super kompyuterlar, smartfonlar, 3D-printerlari, onlayn savdo, internet aloqa, mobil aloqa, IT-parklar haqida bormoqda. Aynan shularning ixtiro qilinishi va keng miqyosda foydalanilishi raqamli innovatsion texnologiyalar nomini oldi. Bu esa yangi bozorlar (xalqaro onlayn savdo, elektron tijorat, elektron biznes)ni vujudga keltirdi. Shu asosida raqamli iqtisodiyotning infratuzilmasi o'z-o'zidan tarkib topdi. Xususan, dastlab kompyuterlarning vujudga kelishi, mobil va internet aloqalarining o'rnatilishi va buning natijasida elektron tijorat, xalqaro elektron biznesning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayoni innovatsiyalarning raqamli iqtisodiyotdagi ta'siri darajasini belgilaydi. Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalar yangi g'oyalarni samarali iqtisodiy yechimlarga aylantira oladigan harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Bizga ma'lumki mamlakatimizda innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha talay ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo bu borada mamlakatimizda hali ham bir qancha muammolar mavjud:

- innovatsiya va raqamli iqtisodiyot haqida aholining to'liq tasavvurga ega emasligi;
- mamlakat hududining AKTlar va internet aloqa bilan to'liq ta'minlanmaganligi;
- joylarda innovatsiya va raqamli iqtisodiyot bo'yicha mutaxassislarning
- innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar ustida izlanish olib boradigan tadqiqot markazlarining mavjud emasligi;
- mobil aloqa, internet, davlat xizmatlari, soliq va boshqa turdagi onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi mavjud to'lov tizimlari (Click,

- Payme, m-bank, Humo va boshqalar)dan foydalanuvchilar sonining kamligi;
- onlayn savdo va savdo maydonchalarining yetarli darajada emasligi;
- barcha tarmoqlar va sohalarda raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha muammolarning mavjudligi (kompyuter savodxonligi, moddiy baza yetishmasligi, infratuzilmaning mavjud emasligi);

Yuqoridagi muammolarning bartaraf etilishi raqamli iqtisodiyotga o'tish, uning infratuzilmasini shakllantirish uchun keng yo'l ochadi.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishish uchun mamlakatimizda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini shakllantirish maqsadida uning huquqiy-normativ asoslarini yaratish;
- aholida innovatsiya va raqamli texnologiyalar haqida tushunchalarni shakllantirish maqsadida joylar(oily ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va xususiy tashkilotlar)da anjumanlar o'tkazish;
- raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda ilg'or xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish;
- barcha tarmoqlar va sohalarga raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi va ularning faoliyatini nazorat qilish;
- onlayn savdo turlari va ularning masshtabini kengaytirish (faqat O'zbekiston hududida emas, butun dunyo foydalanuvchilari uchun qulay bo'lgan, Alibaba, Ebay, Amazon singari).

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlis qonunchilik palatasiga Murojaatnomasida, shuningdek parlamentning mamlakat ijtimoiy iqtisodiy tararqqiyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan majlislaridagi ma'ruzalarida qayd etilishicha, davlatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma'qul ish uslubi tanqidiy qayta ko'rib chiqildi. Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. Iqtisodchilar tahliliga ko'ra, bugungi kunda yurtimizda kambag'allarning ulushi aholining 15 foizini tashkil etadi. Bunday hisoblashning ham o'ziga yarasha mezonlari bor.

Shu o'rinda, aholi turmush darajasi va farovonligi aholi daromadlari, sog'liqni saqlash, savodxonlik darajasi, madaniy hayoti, bo'sh vaqtning mavjudligi, atrof muhit kabi bir qator faktorlarga bog'liq bo'lishi bilan birga, aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida samaradorlikni baholashning eng muhim mezoni hisoblanib, uni oshirib borish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish choralarini malga oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir.

Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasini, ayniqsa uning zamonaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, ularning daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini oshirishning muhim omiliga aylantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim rol o'ynadi. Harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish-ning ustuvor yo'nalishlari"da xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish eng muhim vazifalar sifatida belgilangan. So'nggi yillarda aholining keng qatlamini tadbirkorlikka jalb qilish va ularning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar kelajagimiz" va boshqa ijtimoiy dasturlar doirasida jami 23 trillion so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratilib, 600 mingdan ziyod oilalarni qamrab olishga erishildi. Mazkur dasturlar hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirish uchun turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kredit olish imkoniyati bilan iborat bo'lgan yaxlit tizimni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buhalis, D. (2003): eTourism: Information technology for strategic tourism management, Pearson (Financial Times/Prentice Hall), London ISBN 0582357403.
2. Buhalis, D., & Jun, S. H. (2011). E-tourism. Contemporary tourism reviews, 1, 2-38.
3. Buhalis, D., & Licata, M. C. (2002). The future eTourism intermediaries. Tourism management, 23(3), 207-220.
4. Buhalis, D., Leung, D., & Law, R. (2011). eTourism: critical information and communication technologies for tourism destinations. Destination marketing and management: Theories and applications, 2011, 205-224.
5. Navruz-Zoda, B., & Navruz-Zoda, Z. (2016). The destination marketing development of religious tourism in Uzbekistan. International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage, 4(7), 9-20.
6. Хуррамов О.К. Ўзбекистонда рақамли туризмни ривожлантириш истикболлари. "Сервис" илмий-амалий журнал. 2020 йил 2-сон. Б. 34-39
7. Хуррамов О.К. Рақамли туризм ва унинг инновацион иқтисодиётдаги аҳамияти. "Инновацион ва рақамли иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш муаммолари" халқаро илмий-амалий анжумани. 2020 йил 21-22 февраль. Самарқанд. Б.92-94.

8. Хуррамов О. К. Особенности цифрового маркетинга в сфере туризм //Иновационное развитие: потенциал науки и современного образования. – 2020. – С. 118-128.
9. Хуррамов О. К. Иқтисодийнинг рақамлашуви ва рақамли туризм //Иқтисодийда инновация. – 2020. – №. Special.
10. Khurramov O. K. The role of the tourism sector in the digitalization of the service economy //Economics and Innovative Technologies. –2020. –Т. 2020. –№. 1.–С.6

Abdullayev Islom Botirovich
Buxoro Davlat Universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika
kafedrası o'qituvchisi
islombek.abdullayev.96@mail.ru

MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISHINI TA'MINLASHDA KLASTER TIZIMINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Bugungi kundagi global iqtisodiy rivojlanish mamlakatlar iqtisodiyotini o'sishi bilan bir qatorda, kuchli raqobat sharoitida kichik bizneslarning bozordan tez chiqib ketishi kuzatilyapti. Shunday sharoitda faqatgina klaster mexanizmi kelajakdagi kuchli, murosasiz raqobat muhitida yutib chiqishning eng to'g'ri yo'lidir.

Professor T. Jo'raevning fikricha, "Iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy usullari yetarli darajada samaradorlikni va raqobatbardoshlikni ta'minlay olmayotgan hozirgi davrda innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tish yangi iqtisodiy tuzilma "klaster"larni joriy etishni taqozo etadi.

Klaster mexanizmi har qanday sharoitga moslasha oladi, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy muammolarni izchillik bilan samarali yechib beradi.

Shuningdek klasterlar nafaqat muayyan hududni, balki davlatning xalqaro maydondagi raqobatdoshligini ham mustahkamlaydi, nufuzini oshiradi. Qolaversa, innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichi hisoblangan ushbu tizim ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishga xizmat qiladi.

Klaster mexanizmi taqdim etadigan afzalliklar

1. Korxonalarining turli resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishining sezilarli darajada oshishi.

2. Bir tomondan moliyaviy va kredit risklarining qisqarishi hamda ikkinchi tomondan pul harakati oqimlarining barqarorligi va ularni prognozlashni amalga oshirish

3. Klaster korxonalari o'rtasida oqimlarning barqarorligi hisobiga sotish samaradorligini ortishi.

4. Tranzaksiyon xarajatlarning kamayishi va korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarining ortishi¹

O'zbekiston sharoitida esa agroklasterni rivojlantirish eng to'g'ri yo'llardan biri hisoblanadi. Chunki qishloq xo'jaligi sohasi uchun eski sovetcha va feodal tizimdan voz kechib, zamonaviy agrosanoat sohasini tashkil etish uchun klaster tizimi eng oqilona tizim hisoblanadi. Shuningdek mamlakatda aholi bandligini oshirish nuqtai nazaridan, aholining sezilarli qismi qishloq xo'jaligida bandligini hisobga oladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi uchun mavsum noqulay kelgan yillarda ham klasterning boshqa tashkilotlari hisobidan umumiy ish o'rni va ish haqi saqlab qolinadi. Ya'ni tabiat injiqligining biznesga, ishlovchilar daromadiga ta'siri kamayadi. Almashlab ekish imkoniyati paydo bo'ladi va tuproq unumdorligi qayta tiklanadi.

Klaster mexanizmini agrar sohaga joriy etishda birgina qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5853-son farmoni ijrosini ta'minlash, meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o'zlashtirish, paxta, g'alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekishni ko'paytirish, shuningdek, bog', tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yildi².

¹ Zaxidov G.E. Ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish uslubiyoti. Monografiya // T.: "Fan" 2016. 160 b.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" PQ 4549-sonli qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4641164>

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tarmoqlarining eski lokomotivi hisoblangan Paxta-to'qimachilik sohasida klasterlar mexanizmini joriy etish, klasterlarning qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanishdagi roli va mas'uliyatini oshirish, mahsulot yetishtiruvchi va uni qayta ishlovchilarning manfaatdorligini ta'minlashga doir bozor tamoyillarini keng joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16- noyabrdagi "Paxta -to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-14 son farmoni qabul qilindi.¹

Farmon bilan Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish Respublika komissiyasi tasdiqlandi.

Komissiya paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish uchun arizalarni ko'rib chiqadi.

Klasterlar komissiyasi xulosasiga asosan Hukumat qarori bilan tashkil qilinadi va talabgor bilan o'ttiz yilga bitim tuziladi.

Bitim quyidagi holatlarda faqatgina sud tartibida bekor qilinadi:

- tomonlarning biri qarshi bo'lganida;
- bitimdagi majburiyatlar o'z vaqtida bajarilmaganida;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning uchdan ikki qismi klasterlar tomonidan shartnoma shartlari 3 yil bajarilmaganligiga oid murojaatlari bo'lganda.

Farmonning eng asosiy yutug'I hukumat va klaster o'rtasidagi shartnomani faqat sud qarori asosida bekor qilinishi bo'lib, bu byurokratiya mavjud bo'lgan O'zbekiston hukumatidan tadbirkorni sug'urtalovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ushbu say harakatlar kelgusida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan joylarda bosqichma-bosqich zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari parkini yaratib, sohani mexanizatsiya darajasini oshirib, yetishtirilgan hosilni chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yib, mahsulot yetishtirishda band bo'lgan aholini sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga o'tkazish va bu orqali mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

1-jadval

Hudud	Klasterlar soni	Paxta maydoni	
		Jami (gektar)	O'rtacha bitta klasterga
Respublika bo'yicha	134	1034223	7718
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11	86791	7890
Andijon viloyati	15	78991	5266
Buxoro viloyati	11	99220	9020
Jizzax viloyati	6	77900	12983
Qashqadaryo viloyati	18	136036	7557
Navoiy viloyati	4	31655	7913
Namangan viloyati	7	63406	9058
Samarqand viloyati	11	75356	6850
Surxondaryo viloyati	11	72370	6579
Sirdaryo viloyati	9	75500	8388
Farg'ona viloyati	13	82080	6313
Toshkent viloyati	6	72161	12026
Xorazm viloyati	12	82757	6896

Kelgusida esa, qishloq xo'jaligida sifatli paxta yetishtirilib, xomashyo o'z vaqtida va sifati yo'qotilmasdan sanoat korxonasiga yetkazib berilishi va toki yuqori qiymatli tayyor mahsulot yaratilishigacha bo'lgan jarayonni klasterda jamlash hamda ushbu to'qimachilik sanoatida ichki bozorni raqobatbardosh mahsulot bilan ta'minlab, keyinchalik jahon bozoriga eksportbop mahsulot olib chiqishga erishish mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizning paxta-to'qimachilik yo'nalishidagi klasterlar soni 2019 yilda 75 tani, 2020- yilda 96 tani, 2021 yil 122 tani va 2022-yilda 134 tani tashkil qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida paxtachilikka ixtisoslashgan klasterlar va ularga ajratilgan yer maydonlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi²

Ushbu ko'rsatkichlar tahlilini olib boradigan bo'lsak avvalo 2019-2022-yillar oralig'ida klasterlar soni sezilarli darajada ya'ni 75 tadan 134 tagacha oshganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Bunga sabab sifatida esa yillar o'tgan sayin klaster mexanizmini qonuniy tartibga solinishi, bozordagi kapitalning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora tadbirlari to'g'risidagi" PF-14-son <https://lex.uz/ru/docs/-5731033>

² <https://uzptk.uz/uz/clusters/>

raqobatbardosh sohaga intilishini aytib o'tishimiz mumkin. Hududlar miqyosida ko'rib o'tadigan bo'lsak eng ko'p klaster kutilganidek azaldan paxta yetishtirish sohasida yetakchi bo'lgan Qashqadaryo viloyati hisobiga to'g'ri keladi, ushbu viloyatda 18 ta klaster o'z faoliyatini olib bormoqda. Salmog'i nuqtai nazardan esa Jizzax viloyati har bir klaster uchun o'rtacha 12983 gektar maydon bilan yetakchilik qilmoqda. Albatta bunga sabab sifatida Jizzax viloyati qishloq xo'jaligi yerlarining to'la o'zlashitirilmaganligi va qishloq xo'jaligida hanuzgacha asosan paxta xomashyosi yetishtirish yetakchi o'rinda turishi, shuningdek iqtisodiy muhit nuqtayi nazaridan aholida va biznesda ushbu hududga sarmoya kiritish xohishi kamligini aytib o'tsak bo'ladi.

Yana bir e'tiborga molik ko'rsatkichlardan biri Qashqadaryo viloyati Nishon tumani hududida joylashgan "INDORAMA AGRO" MCHJ klasteri hisoblanib, ushbu klaster Respublikada eng katta maydon 17300 gektar maydonda faoliyat olib boradi, lekin samaradorlik ko'rsatkichi bo'yicha oldingi o'rinlarda emasligini hamta'kudlab o'tsak bo'ladi. Chunki samaradorlik nuqtai nazardan qulay logistic hududda joylashgan, xaridorga va ishlab chiqaruvchiga yaqin bo'lgan Toshkent viloyatida joylashgan klasterlar oldingi o'rinlarda turadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, klasterlar innovatsion, raqobatbardosh va samarali iqtisodiyotni vujudga kelishining zamonaviy iqtisodiy vositachisi, yaratilgan tayyor mahsulotlarning iste'molchigacha yetib borishini, ishlab chiqarish kuchlarining optimallashtirishini, ishlab chiqarish hajmining o'sishini, sog'lom raqobat natijasida ishlab chiqarish munosabatlarini hamda samaradorlikni ta'minlovchi vosita hisoblanadi.

Innovatsiyalar "Inson kapitali", ya'ni soha va sohalararo faoliyatni o'zida aks ettirgan klasterlardagi tashabbuskor mutaxassislarining aqli bilan bog'liq. Mazkur klasterlarda sohalarining ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi bilan bir qatorda, soha kichik korxonalarining manfaatli birlashuvi, sohalararo ichki va tashqi integratsiya elementlari ham yuksalishiga zamin yaratadi.

Hozirgi kunda klaster faoliyatini amalga oshirishda bir qancha muommolar ham mavjud bo'lib ularni bartaraf etilishi kelgusida klaster tizimining raqobatbardoshligini oshiribgina qolmay mahsulot ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlarini oshishiga olib keladi.

Birinichidan, garchi 5 yildan ortiq muddat davomida faoliyat yuritishiga qaramay klasterlar faoliyatlarini tartibga solib turuvchi yagona normativ huquqiy hujjatning mavjud emas.

Ikkinchidan Fermerlarda o'z mahsulotlarini sotishda xaridorni tanlash imkoniyati mavjud emas;

Uchinchidan Klaster egalari mulk huquqi davlat tomonidan mutlaq kafolatlanmaganligi.

Takliflar va yechimlar.

Birinichidan fermerlar o'zi ishlab chiqargan mahsuloti ya'ni paxta tolasini tovar xom-ashyo birjasi orqali o'zi xoxlagan hamda bozor narxi nuqtai nazardan eng maqbul narx va shartlar taklif qilgan klasterga sotishini ta'minlash.

Ikkinchidan Hukumat qo'llovi, imtiyozli kredit va soliq imtiyozlari asosida ishlab turgan, ishlab chiqarish samaradorligi past bo'lgan klasterlarni davlat budjetiga ortiqcha yuk bo'lmasligi uchun, tamoman imtiyozlar bilan quvvatlashni to'xtatish va barchasini bozor mexanizmlariga qo'yib berish.

Uchinchidan. Yildan yilga to'qimachilik korxonalarida qayta ishlash quvvatlari oshib borayotganligi, xususan 2022-yilda 1.3 mln tonna paxtani qayta ishlash quvvatiga ega korxonalarda 1 mln paxta xom-ashyosi qayta ishlangani va bu esa samaradorlikning pasayishiga olib kelganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Shunday ekan kelgusida hukumat paxtani qayta ishlovchi samaradorligi yuqori bo'lgan klasterlar uchun tashqi bozorga xususan, bizga qo'shni davlatlar Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston bozorlaridagi xom-ashyoni qayta ishlash uchun xalqaro huquqiy shartnomalar tuzishda ko'maklashish va logistik xarajatlarni bir qismini subsidiyalash kerak. Zero chegaradoshlarimiz ishlab chiqargan mahsulotini 70-80% ini tola sifatida Xitoy Xalq Respublikasiga arzon narxda eksport qiladi. Bizning ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorga chiqishi esa O'rta Osiyo integratsiyasiga keng yo'l ochib beradi.

To'rtinchidan esa, klasterlar yangi ilg'or tizimni yaratishda olim va iqtisodchilar, qishloq xo'jaligi hamda sanoat hodimlari salohiyatini, ilg'or tajribasini yagona maqsad yo'lida birlashtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

• Jo'raev T., Hamidov M. O'zbekistonda agrosanoat klasterlarining rivojlanishi va ularning qishloq xo'jaligi taraqqiyotida tutgan o'rni. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy-elektron jurnali, No2, 2019 y

• Zaxidov G.E. Ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish uslubiyoti. Monografiya // T.: "Fan" 2016. 160 b

• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Paxta to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora tadbirlari to'g'risida 16.11.2021 yildagi PF-14 son

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi qarori

- M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar "Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o'sish" risolasi T:"Zamin nashr"2018

- <https://uzptk.uz>

Djurayeva Nafisa Bakhodirovna
Bukhara state university,
lecturer department of Hotel management
e-mail: nafis_1909@mail.ru

HALAL CERTIFICATION PRACTICES IN FOOD AND SERVICES

The practices of "halal certificate" that has come to the agenda in our lives in recent years has dates back to old times. Moreover, this practice is not an application only specific to Muslim societies. For example; the application of Kosher Certificate in Jew (indicating that the products have been prepared in conformity with Jew rules and symbolizes the quality, conformity to health and safety) has been implemented since the beginning of 1900s and there are approximately 921 institutions offering service on this subject in the world. It is known that first practices concerning to halal certificate have started by Muslims living in USA in 1960s and the countries in various regions of world have followed these. In this regard, various organizations such as World Halal Council (WHC-1999), World Halal Forum (2004), International Halal Integrity Alliance (IHI Alliance-2007), etc. were founded to create a "common understanding and acceptance" for halal certification in the world at global level. The Standardization and Metrology Institution of Islamic Countries (SMIIC) was founded officially within the body of Organization of Islamic Cooperation in 2010 due to that the application has gained more importance in Islamic World. In parallel with the developments in the world, it is seen that the organizations making halal certification have been founded in Turkey. The Turkish Standards Institution (TSE) and Association of Food and Necessaries Auditing and Certification Researches (GIMDES) come to the forefront among these.

The halal certification practices in the world cover certifications concerning to the products and services in a wide range of sectors. One of the sectors which have come to forefront in the recent years is tourism. The tourism sector has a distinct feature in terms of both food production and service. As well as that there are concrete criteria within the scope of certification, there are also abstract aspects resulted from the service feature. Therefore, the belief, attitude and behaviors of human resources beyond the industrial criteria play a more significant role in the halal certification application in tourism sector.

A halal certificate is a document issued by an Islamic organization, certifying the products it covers meet the Islamic dietary guidelines, comprising of, but not limited to, the following: the product does not contain pork or its by-products; the product does not contain alcohol; the product does not contain prohibited food ingredients of animal origin; the product has been prepared and manufactured on clean equipment; and meat and poultry components are from animals slaughtered according to Islamic law.

Based on the following figure, in terms of the criteria of certification, the result shows that JAKIM has the largest number of criteria with 35 ticks or 80% of the total requirements, followed by MUIS (70%), CICT (57%), MUI (48%), SANHA (43%), AFIC (39%), FIANZ (39%), IFANCA (36%), and HMC (27%). This indicates that JAKIM has the strictest procedures in granting Halal certification to its clients compared to other certification organizations.



Picture1. Certificates of Halal service
Practices of Halal certification in tourism

With Halal certification practices that the tourism businesses apply with the aim of offering service devoted to Muslim consumers, they need certification mechanism for easily selling products and services within the scope of halal either in inbound tourism or outbound tourism without meeting an obstacle by showing that they respect to their beliefs and values. The halal certification is also one of aspects necessary for producing and offering acceptable and consumable product devoted to Muslim consumers. With this certificate, the consumers feel the comfort and peace of being in the same environment with the persons who have same opinions and beliefs as well as they may securely demand the products and services of tourism businesses. On the other side, it makes contribution to businesses in terms of achieving international standards that the halal certification practices cover ISO 22000 HACCP Food Safety Management System.

The Halal certification provides confidence, moral comfort and social benefit to the individuals by preparing the necessary conditions in the tourism businesses in conformity with the consumer health and religious values and Islamic rules and inspecting the additive materials, preparation and manufacturing methods, cleaning, hygiene and health conditions and safety rules. It positively affects the recognition and introduction of tourism businesses in Islamic world that the key staff who have received the education of halal information take duty in offering the product and service in conformity with international quality and safety standards. In this case, the tourism businesses which have received halal certification may find opportunity for offering their products to global halal market and increase their power of international competition by playing an important role in overcoming the obstacles which may occur in developing the target market.

In tourism businesses, the process of halal certification covers that the product to be manufactured and offered will cover the principle of traceability, transparency and objectivity, capability-competency (qualified people taking part in the process) and sustainability along with the evaluations starting from their source. At every stage of products which have been subjected to procedures and processes appropriate for religious beliefs and values as of the food source and offered to the consumers, it is a requirement that the tourism businesses shall crate an organizational structure which may undertake all financial and moral responsibility. This is because the halal certification practices do not contain only supply, manufacturing and distribution procedures. There is also a stage of service offering which maintains this process. These reveal the complexity and comprehensiveness of halal certification practices in tourism that the tools used during the sale and offering of products at this stage are used for halal food completely, there are not products, services, etc. which are out of the scope of halal certificate in the areas where there are these kinds of consumers, the tour guides have adequate information and experience about religious issues, tours include relevant arrangements concerning to prayer times and prayer rooms during either tour or accommodation, the social areas in the facilities like beaches, swimming pools, hot springs, etc. meet the criteria.

Along with that consumers who will purchase a tourism product in accordance with the religious beliefs and values find the opportunity of making a conscious selection within the direction of these certificates, they may securely benefit from tourism products such as tours, accommodation, food-drinks, transportation, etc. that they have purchased with a more effective and healthy control mechanism. The halal certificate is an indicator not only for that the tourism product conforms to halal criteria but also this product has been implemented in conformity with the safety and hygiene rules in terms of human health. But it is required that these kinds of practices shall not lead to opinions, attitudes and behaviors which may remain any question mark in terms of consumers rather than businesses.

References

1. Duman, T. (2001). Value of Islamic Tourism Offering: Perspectives from the Turkish Experience. In: Paper presented World Islamic Tourism Forum, Kuala Lumpur, 12-13 July.
2. Essoo, N. & Dibb, S. (2004). Religious influences on shopping behaviour: An exploratory study. *Journal of Marketing Management*, 20(7/8), 683–713.
3. Euromonitor (2008). Halal tourism. Euromonitor Archives. Available at .
4. Hashim, N. H., Murphy, J. and Hashim, N. M. (2007). Islam and online imagery on Malaysian tourist destination websites. *Journal of Computer-Mediated Communication*, 12: 1082–1102. doi:10.1111/j.1083-6101.2007.00364.x
5. Hassan, R. (2005). On being religious: Religious commitment in Muslim societies. Institute of Defence and Strategic Studies, Singapore.
6. Hattab, K., & Katz, Y. (2001). The attraction of Palestine: Tourism in the years 1850-1948. *Journal of Historical Geography*, 27(2), 166–177.
7. Henderson, JC. (2008). Representations of Islam in official tourism promotion. *Tourism Culture and Communication* 8(3): 135–146.

8. Henderson, JC. (2009). Islamic tourism reviewed. Tourism Recreation Research 9. Ahmad Puad Mat Som*, Satoshi Masutani** and Muhamad Fazil Ahmad*, The Macrotheme Review 5(5), Special Issue 2016

Арипова Махлиё Салахиддиновна
преподаватель кафедры туризма и гостиничного хозяйства
Бухарского государственного университета
E-mail: aripova_ms@mail.ru

БРЕНД КАК ИНСТРУМЕНТ ЭФФЕКТИВНОГО ПРОДВИЖЕНИЯ ПРОДУКТА НА РЫНОК ТОВАРОВ И УСЛУГ

Брендинг является составляющей маркетинговой деятельности предприятий как коммерческой, так и некоммерческой направленности, действующих в условиях свободного рынка и конкурентной борьбы за своего потребителя. Это заставляет производителей улучшать качество товаров и услуг, дифференцировать технические характеристики под различные потребительские сегменты, увеличивать расходы на рекламу, разрабатывать мероприятия по стимулированию сбыта, придумывать оригинальные названия и совершенствовать упаковку.

В условиях высокой конкуренции и максимальной схожести товаров и услуг бренды превратились в важнейший стратегический актив корпораций, отвечающий за создание уникального имиджа, увеличение прибыльности и объема продаж, идентификацию продукции, капитализацию предприятия. Успешное управление этим активом предполагает овладение профессиональными знаниями в области брендинга, включая разработку концепции и стратегии развития бренда, рассчитанную на долгосрочную перспективу.

Бренды уже давно стали неотъемлемой частью нашей повседневной жизни. При этом их широкое распространение проходит в современном мире почти незаметно. Вокруг их так много, что мы редко задаемся вопросом относительно их происхождения и функций. В последнее время этому вопросу уделяется все больше внимания среди исследователей и компаний. Брендинг и сам бренд способствует увеличению прибыльности и объема продаж на предприятии, расширению ассортимента и знаний потребителей об уникальных качествах товара, закреплению на конкретном сегменте и реализации долговременной программы развития.

Представляется правомерным сформулировать основные принципы управления разработкой и внедрением в производство новых брендов (Рис.1).




Рисунок 1. Основные принципы управления разработкой и внедрением в производство новых брендов.

Источник. Сошнев А.А. Совершенствование организационно-экономического механизма формирования и продвижения бренда на рынке. Автореферат дисс...к.э.н. Москва. 2010. С:22-23.

Для выполнения задачи брендинга – построение развитого бренда, следует обращаться к принципам брендинга. Они позволяют определить свою позицию на рынке, оценить конкурентов и максимизировать прибыль предприятия. Руководство данными принципами позволяет проанализировать уже существующих участников рынка и оценить свои шансы на создание развитого бренда.

На практике бренд туристического региона по своему содержанию состоит из следующих элементов:

логотип (Л) – отличающее туристскую дестинацию от других мест: определенный отличительный знак, памятник архитектуры, ландшафт или изображение редкого животного, цвета флага, контуры государственной карты, национальный, религиозный или исторический символ и т. д.; название туристской дестинации (НТД) (в форме гибрида, преобразованного в логотип, в виде адреса портала туристической зоны); обещание, данное туристской дестинацией потенциальному посетителю (С) (в научной литературе под такими понятиями используются слоган, лозунг, девиз).



Рисунок 2. Туристический бренд Республики Узбекистан

Источник. Ибрагимов Н.С - Научные основы достижения устойчивой конкурентоспособности туристического региона. Автореферат дисс...д.э.н. Самарканд. 2021. С:34.

Продвижение Узбекистана в мире как страны на перекрестке Великого шелкового пути «путешествия, которые приведут к творческому прорыву у творческих людей, новым идеям у ученых, изобретениям у новаторов, новым произведениям у людей искусства, пробуждению интереса к жизни у депрессивных людей» указывая на то, что это очаг просвещения. Подобного рода мотивационные мероприятия рекомендуется проводить в виде комплексной работы на основе одноимённых стратегических бренд тегов.

Вывод

Таким образом, как и любое существо, любой бренд проходит этапы рождения, развития, зрелости и упадка. Жизненным циклом бренда в данном случае можно назвать время, которое необходимо ему для прохождения всех этих стадий. Причем понятие жизненного цикла продукта шире, чем понятие жизненного цикла бренда, так как включает в себя и брендовые товары, и сам бренд. Узбекистан, древняя колыбель восточных цивилизаций. В этой стране в неприкосновенном виде стоят одни из древнейших городов мира — торговые центры Великого Шёлкового пути и роскошные столицы грандиозных империй Средней Азии. Здесь родился великий полководец Тамерлан, при котором Самарканд становится столицей гигантского царства, простиравшегося от Инда до Босфора. Хивинское и Бухарское ханства — наследники славы Тамерлана — хранили реликвии его побед и сами останки правителя-воина до начала XX века.

Литература

1. Аакер Д.А. Создание сильных брендов. — М.: Издательский дом Гребенникова, 2011. — 340 с.
2. Аакер Д., Иохимштайлер Э. Бренд-лидерство: новая концепция брендинга/ Дэвид А. Аакер, Эрик Иохимштайлер — М.: Издательский Дом Гребенникова, 2003. — 440 с.
3. Arifova, M. S. (2021). Importance of branding in hotel business. *Scientific progress*, 1(6), 1092-1097.
4. Salakhiddinovna, M. A. (2021). Branding as a key factor of improving tourism and hotel marketing. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 348-353.
5. Запесоцкий Ю.А. Символическая сущность бренда в современной культуре автореферат дисс...к.к.н. СПб.2009.24с.
6. Ибрагимов Н.С. Научные основы достижения устойчивой конкурентоспособности туристического региона. Автореферат дисс...д.э.н. Самарканд. 2021. С:34.
7. Ибрагимов Н.С. Формула бренда туристических территорий и методика их классификации // Республиканская традиционная научно-практическая конференция «Проблемы повышения роли

Toirova Nozima
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti magistranti
ms.mirsobitova@gmail.com

TURISTIK DESTINATSİYALARNI BOSHQARISH ASOSIDA TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISH

Turistik destinatsiya - turizm tizimining eng muhim tarkibiy qismidir. Destinatsiyalar turistik mahsulotlar va integratsiyalashgan sayohat tajribasini yaratish uchun asosiy qurilish blokidir. Destinatsiyalar ko'pincha geografik va siyosiy chegaralar asosida sun'iy ravishda bo'linadi, bu iste'molchilarning xohishlariga va turizm sanoati mantig'iga mos kelmaydi. Bunga Frantsiya, Italiya, Shveysariya, Avstriya va Sloveniya hududida joylashgan Alp tog'lari misol bo'la oladi, ular turistlar ko'pincha bir xil turistik mahsulot sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun turistik yo'nalishlarni boshqarishni qo'llash kerak. Birinchidan, "maqsad" atamasini aniqlash kerak. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, "maqsad" - bu tashrif buyuruvchi kamida bir marta tunash bilan vaqt o'tkazadigan jismoniy makon. U xizmat va diqqatga sazovor joylar kabi turistik mahsulotlarni, sayohatning bir kunidagi turistik resurslarni o'z ichiga oladi. Bu makon uni boshqarish usulini belgilaydigan jismoniy va ma'muriy chegaralarga, uning bozor raqobatbardoshligini belgilovchi tasvir va tasavvurlarga ega¹

Chexiya turizm lug'atida "turistik destinatsiya" atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: bu "ma'lum bir mintaqadagi diqqatga sazovor joylar va turistik infratuzilmaning sezilarli soni bilan ajralib turadigan maqsad hududi; kengroq ma'noda, bular turistik diqqatga sazovor joylarning katta kontsentratsiyasi, xizmatlar va boshqa turizm infratuzilmasining rivojlanishi bilan ajralib turadigan mamlakatlar, mintaqalar, aholi punktlari va boshqa hududlardir, bu esa uzoq muddatli tashrif buyuruvchilarning katta oqimiga olib keladi². Tadqiqotchilar Zelenka va Paskovalar "turistik destinatsiyani boshqarish" atamasini "ma'lum bir yo'nalishda turizmni muvofiqlashtirilgan rejalashtirish, tashkil etish, aloqa qilish, qarorlar qabul qilish va tartibga solishda qo'llaniladigan usullar, vositalar va chora-tadbirlar majmui" deb ta'riflaydilar³.

Turistik destinatsiya umuman turizm sanoatining mustaqil mahsuloti va raqobatbardosh birligidir. Bundan kelib chiqadiki, uni strategik jihatdan to'g'ri boshqarish kerak va shuning uchun "destinatsiyani boshqarish" atamasi ko'pincha eng rivojlangan yo'nalishlarda turizmni boshqarishning eng yaxshi shakli sifatida qabul qilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tizimdagi alohida sub'ektlar raqobatchilar emas, balki sheriklar asosida ishlaydi. Biznesning boshqa sohaslarida bo'lgani kabi, destinatsiyaning o'rta va uzoq muddatli maqsadi bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat. Subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va turizm sohasida tashkiliy tuzilmani qurish Yevropaning rivojlangan turistik mamlakatlarida quyidagicha amalga oshirildi⁴:

➤ 1950-1960 yillarda turistik hududlarda reklama uyushmalari tashkil etildi. Turistlar mintaqaga asosan mustaqil ravishda kelishgan (ko'pincha kimningdir tavsiyasi bilan);

➤ 1970-1980 yillar klassik mahalliy va mintaqaviy turizm tashkilotlari davrini ifodalaydi. Turizm industriyasi sub'ektlari ma'lum bir mintaqaning turistik takliflari va xizmatlarini etkazib beruvchilar birlashmalariga birlashtirilgan. Ularning asosiy faoliyati o'z mintaqasi uchun qo'shma reklama va reklama, axborot markazlari va boshqa xizmatlarni tashkil etish edi;

➤ 90-yillar turistik destinatsiyalarni boshqarishni yaratish va rivojlantirish bilan tavsiflanadi.

Tashkiliy tuzilma savdo va raqobat bo'yicha strategik boshqariladigan bo'linmalarda to'plangan, hamkorlar strategik hamkorlikda birlashgan va to'g'ridan-to'g'ri sotish bilan turli savdo tizimlarini boshqarish yo'lga qo'yilgan. Turistik sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik destinatsiyada uch shaklda amalga oshirilishi mumkin:

1. xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik;
2. davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik;

¹ Основы туризма: учебник / коллектив авторов; под ред. Е.Л. Писаревского. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 384 с

² Zelenka J. Cestovní ruch: Výkladový slovník // J. Zelenka, M. Pásková. – Praha: Linde, 2012. – 768 s

³ Zelenka J. Cestovní ruch: Výkladový slovník // J. Zelenka, M. Pásková. – Praha: Linde, 2012. – 768 s

⁴ Рассохина Т.В. Менеджмент туристских дестинаций: учебник и практикум для вузов. – М.: Изд-во Юрайт, 2019. – 210 с.

3. davlat-xususiy sheriklik deb ataladigan davlat va xususiy tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlik¹.

Turizm destinatsiyasini boshqarish doirasida yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga yoki ularning kombinatsiyasi kabi umumiy qo'llaniladigan yondashuvlardan foydalanish mumkin. Destinatsiyani boshqarish tashkilotining paydo bo'lishiga turtki bo'lib davlat boshqaruvi (ya'ni, mintaqaviy hokimiyat yoki mahalliy hokimiyat) hisoblanadi. Imtiyozlar kompetensiyalarning aniq ta'rifini, maqsadli boshqaruvni mintaqaviy hukumatning strategik maqsadlariga moslashtirishni yoki faoliyatni siyosiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olishi mumkin. Kamchiliklari: tadbirkorlik sub'ektlariga ishonchsizlik, hududiy hokimiyat byudjetining maqsadli tashkilot faoliyatiga ta'siri, mintaqaviy va shahar hokimiyatlarining o'zgarishi sababli noaniqlik. Pastdan yuqoriga yondashuv. Destinatsiyani boshqarish tashkilotining paydo bo'lishiga turtki tadbirkorlik yoki notijorat sektoridir. Afzalliklari: boshqaruv va hamkorlik natijasida o'tkir foyda, kelajakda qandaydir foyda keltiradigan maqsadni rivojlantirish. Kamchiliklar orasida davlat va tadbirkorlik sohasi o'rtasida kelishuv bo'lmasa, davlat boshqaruvining past darajada qo'llab-quvvatlanishi ajralib turadi. "Birlashtirilgan" yondashuv. Tashabbuskorlar shahar va munitsipalitetlar, tadbirkorlar, axborot markazlari, uyushmalar, kasaba uyushmalari bilan birgalikda. Imtiyozlarga davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tamoyillarini boshidan tatbiq etish, barcha sektorlar ishtirokida umumiy maqsadlarga erishish, moliyalashtirish va umumiy boshqaruvni yaxshilash kiradi. Kamchiliklari: aloqa va boshqaruvning yanada murakkabligi, sifatli faoliyatni tashkil etishga yuqori talablar va turistik yo'nalishlarni boshqarishni tashkil etish uchun xodimlar.

Umuman olganda, maqsadni boshqarish bo'yicha hamkorlik cheklangan miqdordagi ishtirokchilar va bunday hamkorlik uchun nisbatan oddiy maqsadlar bilan samarali bo'ladi. Hamkorlikning bunday shakllarining muvaffaqiyat omili manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro ishonchning yuqori darajasidir².

Xulosa. Turistik destinatsiyalarni boshqarishning maqsadi barqaror turizmni rivojlantirish tamoyillariga mos kelishi kerak bo'lgan raqobatbardosh turistik mahsulotni yaratish orqali tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini qondirishdir. Shu sababli, maqsadni boshqarish deganda maqsad o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan aniq faoliyatni boshqarish uchun foydalaniladigan fikrlar, tajribalar, yondashuvlar va usullar to'plami tushunilishi kerak. Bunga turizmning barcha asosiy subyektlari o'rtasidagi yaqin aloqa orqali erishish mumkin. Xususiy va davlat sektorlari o'rtasidagi munosabatlar muayyan yo'nalishda turizmning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish uchun to'g'ri yo'lga qo'yilishi, qo'llab-quvvatlanishi va bosqichma-bosqich rivojlanishi kerak.

J.T.Umirov

**BuxDU "Turizm va mehmonxona xo'jaligi"
kafedrası oqituvchisi**

O'ZBEKISTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

Turizm hamma joyda ham rivojlanavermaydi, turizmni rivojlantirish uchun eng avvalo, turistik salohiyatga ega bo'lgan hududni to'g'ri tanlay bilish lozim. Shunchaki, shaharning yoki qishloqning bir chetida mehmonxona qurish, restoran ochish yoki savdo shoxobchasi barpo etish bilan turizmni rivojlantirib bo'lmaydi. Mukammal turistik loyihalar ishlab chiqilgan va tabiiy turistik resurslar mavjud bo'lgan joylardagini turizmni rivojlantirish mumkin.

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli "O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" gi farmoniga muvofiq, qishloq joylarda agroturizmni jadal tivojlantirish, turizm aylanmasiga fermer va dehqon xo'jaliklarini, qishloq joylardagi mahalliy aholini keng jalp qilish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida Vazirlar mahkamasining qarori chiqqan bo'lib, ushbuy qarorda bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Xususan; fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonolari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sayyohlar tomonidan iste'mol qilish va tatib ko'rish, xarid qilish hamda ishlab chiqarish va yetishtirish jarayonlarida bevosita ishtirok etish sharoitlarini yaratish;

Agroturizmni rivojlantirish va hududiy dasturlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan, respublika darajasida hal bo'ladigan masalalar yuzasidan Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashga takliflar kiritib borish; agroturizm tashkil etgan fermer xo'jaliklari

¹ Holešinská A. Destinační management aneb Jak řídit turistickou destinaci. – Brno: Masarykova univerzita, 2007. – 95 s.

² Nováková B. Destinační management a možnosti jeho využití pro rozvoj cestovního ruchu v České republice. – Pardubice: Univerzita Pardubice, 2018. – 160 s.

korxonalarida innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni keng joriy etishni qo'llab quvvatlash hamda keng targ'ib etishga ko'maklashish nazarda tutilgan.

Haqiqatdan ham bugungi kunda agroturizmni rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi, chunki tabiatimizning go'zal va betakrorligi, ikkita yirik daryo oralig'ida joylashganligi, xilma-xil dehqonchilik mahsulotlarini yurtimizda yetishtirish mumkinligi, 9 oy davomida nur sochib turuvchi quyoshning chiqib turishi, qolaversa 5 million gektardan ortiq qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli bo'lgan yerlarning borligi va bir necha asrlar davomida to'plangan ulkan dehqonchilik tajribasi yurtimizda Agroturizmni rivojlantirish uchun asos bo'la oladi.

Agroturizm dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida "agroturizm", "agriturizm", "farm turizmi", "qishloq xo'jaligi turizmi" yoki "qishloq xo'jaligidagi ko'ngilochar" kabi turli xildagi nomlar va tushunchalar bilan tanilgan. Ba'zi manbaalarda "qishloq turizmi", yoki "qishloq joylaridagi turizm" ham deb aytiladi. Turizmning bu turi asosan dam olish kunlari va pishiqchilik mavsumida ochiq va toza tabiat qo'ynida dehqon va fermer xo'jaliklarida meva va sabzavotlarni yetishtirish va terish jarayonida bevosita ishtirok etishni anglatadi. O'zbekiston agrar-industrial mamlakat, shuning uchun ham turizmning bu turini rivojlantirishga yetarlicha imkoniyatlar mavjud. Bu tur o'zida dam olish va mehmondo'stlikni mujassam etgan va shuningdek tashrif buyuruvchilarga dehqonchilik-chorvachilik ishlarida yordam berish imkoniyatini beruvchi dehqon va fermer xo'jaliklaridagi dam olish shaklidir.

Agroturizm Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Shvesariya, Skandinaviya mamlakatlari va Fransiyada yaxshi rivojlangan. Bu mamlakatlarga borgan sayyohlar muayyan vaqt davomida qishloq joylarda yashab, mahalliy xalq madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi bilan tanishishadilar, an'anaviy qishloq xo'jalik ishlarida ishtirok etishadi. Masalan, Buyuk Britaniyada fermerlarning 60 foizi turizm sohasidan tizimli ravishda daromad olishni yo'lga qo'yishgan, o'rtacha yillik daromad 10-50 ming AQSh dollarini tashkil qiladi. Italiyada vinochilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari klasteri tashkil qilingan bo'lib, uzum yetishtirishdan tortib, undan vino tayyorlash, vinoni eksport qilish va vinoni tatib ko'rishni taklif qiluvchi kompleks agroturistik xizmatlarni yo'lga qo'yanlar. Uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari o'zlarining dala maydonlarida mehmon uylari qurishgan bo'lib, ularda kelgan turistlarda uzumchilik bilan bog'liq jarayonlar-uzumni uzish, undan vino tayyorlash texnologiyasi, saqlash sharoitlari va iste'mol qilish kabi turistik paketlar taklif qilinadi. Agroturizm va qishloq turizmidan keladigan daromad turizmdan keladigan daromadning 10-20 %ini tashkil qilmoqda.

Agroturizm va qishloq turizmi tushunchasi 1980 yillardan qo'llanila boshlangan. Asta-sekinlik bilan esa muomalaga qishloq turizmi termini kirib kelgan va agroturizm va qishloq turizmi qishloq turizmining bir qismi sifatida qarab kelingan. Har qanday yangi hodisani tushunish uchun uning asosiy tavsiflovchi xususiyatlarini ajratish kerak bo'ladi. Tadqiqotlarda haligacha agroturizmning barcha belgilarini xarakterlovchi aniq va asosiy tushuncha berilmagan. Ba'zida ekoturizm, agroturizm, qishloq turizmi va tabiat turizmini bir-biri bilan chalkashtirib yuboriladi, lekin bularning barchasi o'z xususiyatiga ko'ra farq qiladi, qishloq turizmida inson omili asosiy o'rinni egallaydi. Turistning qiziqishi qishloq aholisi turmush tarzi, madaniyati, an'analari, urf-odatlari, marosimlari va qishloq ahli milliy ovqatlari bo'lishi mumkin. Agroturizmda esa bevosita qishloq hududidagi yer bilan bo'g'liq bo'lgan dehqonchilik va bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirishdan tortib toki iste'mol jarayonigacha bo'lgan jarayonga qiziqish va bevosita ushbu jarayonlarda ishtirok etish turistlarning asosiy maqsadi hisoblanadi.

So'nggi paytlarda sayyohlarning ko'pchiligi dam olish kunlarini qishloq uylarida qisqa muddatga yashash, ishlab chiqarish jarayonida, hosil yig'im-terimida qatnashish, ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilish, qishloqlar madaniyati bilan tanishish, qishloqning an'anaviy turmush tarzi va dehqonchilik ishlarida ishtirok etish, bayramlarini nishonlash, bir necha kunini qishloq hududida o'tkazishni istashmoqda. Bunday sayyohlarning asosiy qismi kata sanoat shaharlarida yashovchilar, stressli mehnatdan charchaganlar, mashaqqatli aqliy ish faoliyati bilan band bo'lganlar hisoblanadi. Sayyohlarning bunday toifasi shahardan uzoqda, sokin va bahavo joyda jismoniy mehnat bilan shug'ullanishni va dam olishni istaydilar.

Agroturizmning afzalliklari. Agroturizm nafaqat shaharliklar uchun, balki qishloq aholisi uchun ham ahamiyati juda yuqori. Agroturizm bir qator afzalliklarga ega: daromad, ish bilan bandlik, turar joy bilan ta'minlanganlik, tabiiy resurslarni asrash, dam olish va hordiq chiqarish, ta'lim va boshqalar. Ko'pgina davlatlarning eng asosiy muammosi fermer xo'jaliklari daromadining pastligidadir. Yurtimizda fermer xo'jaliklari faqat dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan, yevropa mamlakatlarida esa fermer xo'jaliklari dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda agroturizmga ham ixtisoslashib, turistlarga xizmat ko'rsatish orqali ham qo'shimcha daromadlar olib kelishmoqda. Agroturizm esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga turistlarni jalb qilish hisobiga aholi daromadlarini oshirish, qishloqlarda turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan faoliyat ekanligi uning bugungi kundagi ahamiyatini oshiradi. Agroturizmni rivojlantirishning afzalliklari yanada keng ekanligi tadqiqotlarda aniqlangan:

- fermer xo'jaliklari faoliyatini yanada kengaytirish, ularni agroturistik xizmatlarni ko'rsatishga o'rgatish;

- sifatli va ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlarini innovatsion usulda taqdim etish;
- fermer xo'jaligi daromadlarini oshirish;
- fermer xo'jaligidagi qo'shimcha daromadlarni bevosita oila a'zolariga yo'naltirish;
- dam olish maskanlarida fermer xo'jaliklarining yashash va ish joylarini yangilash;
- boshqaruv mahorati va tadbirkorlik ruhiga erishish imkoniyatlarini ta'minlash;
- fermer xo'jaliklarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash [1].

Turizmning ushbu turi nafaqat iqtisodiy tomondan foydali, balki bir qator ijtimoiy yutuqlarga ham ega. Agroturizm mahalliy aholisi bilan shahar aholisi o'rtasidagi tafovutni yo'qotadi, madaniyatni shakllantiradi, shahar aholisining qishloq hayotiga bo'lgan dunyoqarashini shakllantiradi, mahalliy aholining turmush tarzi va madaniyatiga ta'sir qiladi. U turli millatlarni, madaniyatlarni birlashtiradi. Qishloqlarda o'tkaziladigan turli tadbirlar va to'y-marosimlarining o'z holicha saqlanib qolinishiga sabachi bo'ladi, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni rivojlantiradi. Umuman olganda agroturizm xalqlarni birlashtirib, insonlarda ona zaminga, atrof muhitga va tabiatga bo'lgan qarashlarni ijobiy tomonga o'zgartiradi. O'zbekiston qonunchiligida ham bugungi kunda turizm —Turizm ovuli, —Turizm qishlog'i, turizm mahallasi kabi guruhlariga ajratilishi agroturizmni rivojlantirish uchun poydevor ba'la oladi. Bunday turistik mahalla va qishloqlarga alohida maqom berilishi ushbu hududlarda qishloq aholisi hayoti bilan tanishish, qishloq oilasi bilan birgalikda yashash va milliy taomlardan iste'mol qilish, tabiiy toza mahsulotlarni iste'mol qilish, turli bayram kechalari o'tkazish kabi madaniy tadbirlarda ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, agroturizm ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlarini taqdim etish va arzon xizmatlar ko'rsatishga asoslangan turizm turi bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida salmoqli o'rinni egallaydi va budjetga hissa qo'shadi. Agroturizm orqali xorijiy investitorlarni agroturistik majmualarni barpo etishga jalb qilish mumkin. Agroparklarning, agroklasterning qurilishi natijasida qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish choralari ko'riladi; qishloq aholisini ish bilan ta'minlanadi, qishloq aholisining xorijga migratsiyasini kamaytiradi, turistik mavsum davomiyligini uzaytiradi, dam olishning nisbatan arzon va ekologik toza shakli vujudga keladi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yaxshi yo'lga qo'yilgan, turli qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda o'ziga xos qishloq an'analari, diqqatga sazovor joylar, turistik xizmatlarni ko'rsatish salohiyatiga ega qishloqlarning mavjudligi agroturizmni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR.

1. "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (13.08.2019)
2. "Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi qarori, 28.09.2022 yildagi 543-son.
3. Barbieri, C., & Mshenga, P. M. (2008). The role of the firm and owner characteristics on the performance of agritourism farms. *Sociologia Ruralis*, 48, 166– 183.
4. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, No. 433 dated 05.27.2019
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг « Мева-сабзавотчилик соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, тармоқда кластер ва кооперация тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида » ги 2021 йил 15 декабрдаги 52-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/-5774700>

А.А.Қодиров
Бухгалтерия ҳисоби ва статистика
кафедраси катта ўқитувчиси

ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ОРҚАЛИ ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ САМАРАЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Ҳозирги кунда туризм дунё саноатининг йирик тармоғи сифатида муҳим ижтимоий-иқтисодий ҳодисага айланиб улгурди. Шу тариқа бу жамият ҳаётининг (шахсий, ижтимоий, маданий, иқтисодий, сиёсий ва шу каби) жабҳаларига ўз таъсирини кўрсатди ва айни пайтда, кўп ҳолатларда инсонлар яқин вақтларгача ўз изларини қолдирилмаган баъзи ҳудудларнинг табиий мувозанатини ўзгартириш орқали, дунёнинг энг чекка ҳудудларига таъсир қилиш орқали ўзининг

мавжудлигини сездира олди. Инсонларнинг фаолияти кўпинча атроф-муҳитга салбий ва ёки ҳатто ҳалокатли таъсир кўрсатади. Кўриниб турибдики, кўпинча табиатга бузгунчи таъсирларни келтириб чиқарувчи инсон омили ўз таъсирини ўтказди ва атроф-муҳитга ҳалокатли таъсир кўрсатади. Тоғли ҳудудлар сўнгги ўн йилликларда бундай табиий офатларга тобора кўпроқ мойил бўлиб бормоқда, шу билан бирга, тоғли ҳудудлар бошқа табиий муҳитларга қараганда кўпроқ азият чекмоқда. Шуни таъкидлаш керакки, аксарият тадқиқотлар туризм ва техноген муҳит-нинг атроф-муҳитга таъсири масалаларига бағишлангани ҳолда, ўзгариш-ларни аниқ қайд этиш қийин бўлган тоғ муҳитини тадқиқ қилишга қаратилган тадқиқот ишлари жуда кам сонлидир. Туризм доимий ривожланишда бўлганлиги боис бугунги кунда дунёнинг деярли ҳар бир бурчагида табиатга у ёки бу даражада зарар етказганлигига гувоҳ бўламиз. Биз хоҳ оммавий ва хоҳ яқка тартибдаги туризм ҳақида гапирмайлик, ҳар қандай туризм фаолияти табиий муҳитнинг у ёки бу даражада ўзгаришига олиб келишини ёддан чиқармаслигимиз лозим.

Табиатга етказилаётган зарарлар натижасида қурбонлар сони ва моддий зарарлар ҳажмининг муттасил тарзда ўсиб бораётганлиги табиатда юз бераётган хавфли тусдаги ўзгариш ва жараёнларни ўрганиш борасида алоҳида ёндашувни талаб қилади. Хусусан, БМТ Бош Ассамблеяси 1987 йил 11 декабрда 42/169 Резолюциясини қабул қилди, унга кўра, 1990- 1999 йиллар “Табиий таъсирлар ва табиий офатлар хавфини камайтириш бўйича халқаро ўн йиллик” (IDNDR) деб эълон қилинди¹.

Бунинг натижаси ўларок, аксарият мамлакатлар сув тошқини, кўчки, зилзила ва шу каби хавф-хатарларга мойил ҳудудларни аниқлаш, хатарлар юзага келишини олдиндан айтиб бериш ва бундай офатлар юз берганда, уларнинг оқибатларини юмшатишга қаратилган дастурларни ишлаб чиқиб, амалга ошира бошладилар.

Ҳар бир давлат миқёсида йўлга қўйилган миллий лойиҳалардан ташқари, ҳукуматлараро ҳамкорлик натижасида қуйидаги бир қатор халқаро ташкилотлар ташкил этилди: Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 1999 йилда ташкил этилган ва табиий офатлар хавфини камайтиришни мувофиқлаштириш, табиий офатлар хавфини камайтириш бўйича тадбирлар ўртасидаги синергетик самарани таъминлашга қаратилган табиий офатларга қарши курашиш бўйича Халқаро стратегияси; Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг атроф-муҳит дастури (UNEP), Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг таълим, фан ва маданият масалалари бўйича ташкилоти (UNESCO) ва бошқалар. Бутун жаҳон туристик ташкилоти (UNWTO) туристик ҳудудларда табиий офатларнинг камайишини ўрганиш зарурлигини таъкидлайди ва қуйидаги жиҳатларга алоҳида эътибор қаратиш лозимлигини таъкидлайди:

- Ҳозирги вақтда туризм миллионлаб одамлар инсонларнинг бир ҳудуддан бошқа ҳудуд томон ҳаракатланиши билан боғлиқ бўлган муҳим глобал кўламдаги ҳодисадир;
- Туризм ривожланаётган жойлар кўпинча табиий хавфга дучор бўлади, бу айниқса тоғли ҳудудларда тез-тез кўзга ташланади;
- Туристлар ўзлари ташриф буюрган мамлакат тилида гаплашишга мажбур эмасликлари боис фалокат юз берганда, улар билан тезкор алоқа қилиш алоҳида савол туғдиради, шу сабабли туристларнинг ҳудудга ташриф буюришларидан бир муддат олдин улар билан профилактик тадбирлар ташкил қилиш ва тегишли тартибда ўқитишни ташкиллаштириш талаб қилинади;
- Маботдо туристларнинг табиий офат қурбонига айланиш ҳолати кузатилса, мазкур ҳолат туристик ҳудуднинг имиджига салбий таъсир кўрсатади ва албатта, бу таъсир жиддий ва узоқ муддатли бўлиши мумкинлигини ёддан чиқармаслик лозим;
- Ривожланаётган мамлакатлар тобора муҳим туристик йўналиш-ларга айланар экан, тараққий этган мамлакатлар табиий офатлар оқибат-ларини ўрганиш ва уларни юмшатиш технологияларидан фойдаланиш борасида биргаликда ҳаракат қилишлари ва бундай технологияларни ривож-ланаётган мамлакатлар билан баҳам кўришлари шарт.

Пухта ишлаб чиқилган хатарларни бошқариш режаси экотуризмни тарғиб қилишда яхши реклама воситаси сифатида хизмат қилади. Хатарларни бошқариш концепцияси экотуризм зоналари учун айниқса, муҳим аҳамият касб этади. Юз бериши мумкин бўлган табиий офатларга тайёргарлигини намойиш этувчи экотуристлик зона, бир томондан, туристларни хотиржам қилса, бошқа бир томондан эса, ҳудудда бўлиш қоидаларига амал қилишга, атроф-муҳитни асраб-авайлаш лозимлигини тушуниб етишга мажбур қилади. Бизнинг фикримизча, “имкон даражасида инсонлар ўртасида қурбонлар бўлишига йўл қўймаслик ва моддий зарар миқдорини минималлаштириш, ўз вақтида ва самарали кутқарув операцияларини ташкил этиш борасидаги хатти-ҳаракатлар мажмуи” сифатида хатарларни бошқариш концепциясига умумий таъриф бериш ўринли бўлади.

¹ <https://www.unisdr.org/files/resolutions/N0136802.pdf>

Хатарларни бошқариш режасига куйидагилар киради:

- Қонунчилик ва ва норматив ҳужжатлар;
- Табиий офатлар ва шунга ўхшаш фавқулодда вазиятларга тайёргарлик;
- Башоратлаш ва хавф-хатарларнинг олдини олишга қаратилган профилактик чоралар;
- Фалокат кўлаמידан келиб чиққан ҳолда, амалга оширилувчи эвакуация ва бошқа шунга

ўхшаш тадбирларни режалаштириш;

- Маҳаллий аҳоли, туристик хизматлар операторларини ўқитиш ва ўргатиш;


• Хатарларни бошқариш борасида жалб қилинган персонални узлуксиз ўқитиш, захира тўплаш, зарурий маблағларни ажратиш каби амалда ўзини оқлаган стратегиялардан кенг фойдаланиш.

Формула кўринишида хатар хавф-Н ва заифликнинг-V оддий кўпайтмаси сифатида аниқланади:

$$R = H \cdot V$$

Аммо хавфли табиий ҳодисанинг юз бериш жараёнини оддий кузатиш шунга аниқ кўрсатадики, унинг таркибий қисмларини ажратиш, тасодифий-лик ва заифлик ушбу ҳодисани идрок этиш ва аниқ тушунишдан маҳрум қилиши мумкин.

Юқоридаги фикримизнинг амалий тасдиғи сифатида хавф учта таркибий қисм: хавф, сезувчанлик ва заифликдан иборат эканлигини таъкидлаш лозим. Тадқиқотлар давомида Венн диаграммаси моделдан фойдаланган ҳолда, изланишларимизни график тарзда ифодалаш имкониятларини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилди. Венн диаграммалари 1880 йилда Жон Венн томонидан яратилгани ҳолда, улар муайян таркибий қисмлар ўртасида мумкин бўлган барча мавжуд ва мантиқий муносабат-ларни белгилашда ишлатилади.



1-расм. Венн диаграммаси

1 - расмдан кўриниб турибдики, Биринчи маълум бир ҳодиса учун хавф хатар даражаси шундай даражага етганки, тизимда заифликни яратади, лекин риск даражасида эмас. Иккинчи бу ерда шундай заифлик кузатилмайдиган элементлар бўлиб, лекин маълум бир хавф унга таҳдид қилиши мумкин бўлган ҳолат ҳисобланади. Учинчи эса шундай ҳолатки, бунда биз заифлик ҳақида биламиз, лекин амалда ҳеч қандай хавф хатар йўқ.

Ҳисобга олинувчи ҳар бир кўрсаткич ўрганилаётган хавфларга сезгирлик таъсирига қараб, турли синфларга ажратилади. Мазкур қийматларни белгилашда ушбу жараёнларнинг тоғ-ёнбағирларининг йўналиши, ёгингарчилик миқдори ва шу кабиларга боғлиқ ҳолда, муайян бир тоғ-ёнбағирларида такрорланишини тадқиқ қилиш борасидаги тадқиқотларга замин яратилади. Ушбу миқдорий баҳолаш усуллари пировард натижада кўп частотали тадқиқотлар асосида эмпирик моделни ишлаб чиқишга олиб келди. Уларнинг асосида таҳлилий иерархия жараёнидан фойдаланиш ётади. У ўз навбатида қарор қабул қилишнинг мураккаб муаммоларини ҳал қилишнинг тартибланган техникасини ифода этувчи, ижобий баллни аниқлашни ифода этади.

Хавфли ҳодисаларни аниқлаш ва таҳлил қилиш экологик йўналишдаги туризм фаолиятини ривожлантиришнинг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланади. Экотуризмга табиат кучлари жиддий хавф солади, ушбу ҳолат пировардида сайёҳлар сонининг сезиларли даражада камайишига ҳам олиб келиши мумкин. Хатарларни таҳлил қилишнинг аҳамияти уларнинг экотуризмга таъсири билан бевосита мутаносиб ҳисобланади.

Уракова Махсад Хакимовна
доцент кафедры бухгалтерский учет и статистика
факультет экономика и туризма.
Бухарский государственный университет

СОВЕШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ АПК

В условиях рыночных отношений значительно усложняется процесс управления предприятием, которому предоставлена полная хозяйственная и финансовая самостоятельность. Эффективное управление производственной деятельностью все в большей мере зависит от уровня информационного обеспечения управленцев. По мере самостоятельного выбора организационной формы предприятия, вида деятельности, рынков сбыта, свободного ценообразования усложняются и задачи, стоящие перед системой бухгалтерского учета. В этих условиях важное значение приобретает управленческий учет как самостоятельное направление бухгалтерской деятельности. Управленческий учет охватывает те виды учетной информации, которые необходимы менеджерам предприятия в целях внутреннего управления.

Развитие сельскохозяйственной организации в условиях рынка определяется соответствующими стратегическими целями и задачами, достижение которых осуществляется посредством получения в процессе функционирования определенных промежуточных результатов. Очевидно, что для реализации стратегии сельскохозяйственной организации руководству, в первую очередь, необходимо сосредоточиться на управлении результативностью, целенаправленно и регулярно сопоставляя достигнутые оперативные результаты с поставленными стратегическими целями.

Одним из важных факторов успешного функционирования сельскохозяйственного производства является разработка и применение системы управленческого учета. В условиях экономических преобразований в Узбекистане данные бухгалтерского учета должны обеспечить менеджеров оперативной, аналитической и достоверной информацией о деятельности предприятий. В настоящее время, основываясь на западных стандартах, отечественную систему бухгалтерского учета начали подразделять на подсистемы финансового и управленческого учета. За рубежом уже несколько десятилетий общая бухгалтерия подразделяется на финансовую и управленческую. В финансовой бухгалтерии создается информация о текущих расходах в поэлементном разрезе и доходах сельскохозяйственного предприятия, о состоянии дебиторской и кредиторской задолженности, размерах финансовых инвестиций и доходов от них, состоянии источников финансирования и т.п.

Что касается внутренней учетной системы на предприятии, то вопрос о том, создавать ее или нет, решает само руководство предприятия. В системе внутреннего управленческого учета создается, прежде всего, информация об издержках производства. Информация управленческого учета относится, как правило, к категории коммерческой тайны предприятия. Она не подлежит публикации и носит конфиденциальный характер. Эта учетная система практически не регламентируется законодательством. Таким образом, можно сказать, что на каждом предприятии существует своя система управленческого учета.

Бухгалтерский учет Основная задача управленческого учета — подготовка необходимой информации для принятия оптимальных управленческих решений по совершенствованию процесса производства и тем самым оптимизация самого процесса управления. Использование системы управленческого учета способствует совершенствованию процесса управления организацией, создает реальные возможности для его оптимизации.

В условиях перехода к рыночным отношениям требуется существенное изменение порядка регистрации издержек производства и формирования себестоимости в аграрном секторе. Усиливается роль бухгалтерского управленческого учета как средства контроля за рациональным использованием ресурсов, объективного определения финансовых результатов. Необходимость совершенствования учета обусловлена снижением продуктивности, удорожанием ресурсов, кормов, сокращением численности поголовья. Управленческий учет в большинстве организаций сельского хозяйства развит слабо либо не ведется. Некоторые его элементы включены в традиционный бухгалтерский учет (учет затрат и калькулирование себестоимости продукции птицеводства), оперативный учет (оперативная отчетность), экономический анализ (анализ

себестоимости продукции птицеводства, обоснование принимаемых решений, оценка выполнения плановых заданий).

Главным предназначением управленческого учета является удовлетворение потребностей руководства сельскохозяйственных предприятий в информации, необходимой для принятия оперативных и стратегических управленческих решений.

Поэтому важным для руководителей остается постановка управленческого учета на предприятии.

При постановке системы управленческого учета решаются следующие важнейшие задачи:

- формирование полной себестоимости и на ее основе определение прибыли обеспечивают ведение рационального учета и контроль за уровнем затрат;
- формирование сокращенной себестоимости, на основе которой исчисляется маржинальный доход, в большей степени создает условия для подготовки управленческих решений.

Из всего вышеизложенного следует, что для сельскохозяйственных предприятий внедрение управленческого учета крайне необходимо, поскольку без квалифицированного управления на основе специально подготовленной информации в условиях конкурентной борьбы не выжить.

Управленческий учет способствует выполнению важнейшей задачи, поставленной перед управлением производственной деятельностью, - обеспечение данными и показателями внутренних пользователей для выработки, обоснования принятых оптимальных решений по совершенствованию процесса управления.

Список литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития нового Узбекистан». Народное слово, 2022. 28 января
2. Intermediate Accounting (15th Edition). English. 557 pages. Kieso. Weygandt and Warfield, 2022.
3. Бухгалтерский учет часть-2 Учебное пособие Уракова МХ. -220. Дурдона бухара 2022

Oripova Gulirano Nodirovna
PhD student of Institute of Advanced Training
and Statistical Research
e-mail: grahmatova1996@mail.ru

THE INFLUENCE OF STOCHASTIC PROCESSES AND SYNERGETIC EFFECTS ON THE FORMATION OF COMPETITIVE ADVANTAGES IN DOMESTIC TRADE

Trade is a multifaceted and complex organizer of both commodity circulation and the commodity market, and an instrument of the reproduction process. Trade, as a link connecting the producer-consumer chain, is characterized by an immediate reaction to any change in social reproduction - both new technologies, and changed customer requests, and the emergence of a new segment in various industries, and changes in the cost of industrial production, and changes in government regulation - all these conditions are primarily indicators trade intermediation and are manifested in it.

One of the technologies that determined the development of modern trade was the use of the Internet system, which led to the development of new forms, methods, methods of trade, software- the phenomenon of new subjects of trading activity, the formation and development of specific features of the process of buying and selling goods, etc. Thus, we note that the new technology has caused "... a better way of competition, the use of these methods everywhere, application of technology improvement" [1, p. 88], which in turn determines the receipt of competitive advantage- in trade. Electronic commerce as a consequence of the development of new technology is of great importance in the activities of modern trading entities. E-commerce and its models can be independent and independent market participants, can be integrated into the activities of existing trading entities, and can also be used only certain elements of new technology, for example, digitalization of trade.

The use of new technology in trade, in our opinion, will allow us to take advantage of stochastic processes and synergetic effects, which in general contributes to the creation and expansion of competitive advantages. The impact of stochastic processes in trade was most pronounced in 2020. It was this year that

the indicators of e-commerce as part of e-commerce amounted to almost 20%¹ of the revenue of global retail trade. It was a random event - the "COVID-19 pandemic" - that caused such a rapid integration of digital technologies into traditional trading formats through the opening of online stores, the development of mobile applications, logistics models, changes in payment terms and the introduction of contactless payment methods, etc. So, in the network trading structure of X5 Retail Group in April 2020, revenue through electronic the platform Perekrestok.ru it amounted to 1.7 billion rubles, showing an increase of 4.7 times compared to the previous corresponding period [2]. The rate of revenue growth of the electronic platform Ozon.ru for the first quarter of 2020, it amounted to 115% (31.6 billion rubles) [3]. However, the same accidental event also had a negative impact, including on e-commerce. Firstly, e-commerce, as well as trade in general (we noted this fact above), reacts quickly to changes in production and services (primarily the availability of services necessary to promote goods to the consumer). The restrictions adopted by the governments of the countries caused a decrease in production rates (which, in turn, led, among other things, to a decrease in effective demand due to an increase in unemployment, as well as to a decrease in revenue in "industrial" commerce due to a decrease in the volume of purchases of raw materials, equipment for production). Secondly, the new sanitary rules of cargo transportation adopted by the Governments of the countries caused a number of difficulties in the transport and logistics supply chains.

The increase in demand in e-commerce has influenced the growth of demand for the so-called "last mile" service, as a result of which, on the one hand, one of the forms of trade service has been developed, and on the other

- led to the fact that courier services and delivery services partially faced logistical difficulties (due to the closure of order pick-up points). If we consider e-commerce as an integrated system into the existing trading business, then in this case the last mile service does not face logistical problems, since the order is formed directly from the warehouse or distribution center of the trading enterprise.

Also, in our opinion, it is worth noting that the described "random event" affected the increase in revenue growth rates of e-commerce services provided in digital form. However, this change is also ambiguous. The demand for e-commerce services has increased for mobile communication services, public services (previously received through the MFC), Internet access services, etc. At the same time, the demand for an electronic platform for international rental of housing and tourist services has decreased significantly.

It is important, in our opinion, that the influence of "random" events can also be used as a source of competitive advantages. It is logically correct and understandable to adapt, adapt the activities (internal environment) to "random" events of trade organizations (including electronic commerce organizations), since it is quite difficult to predict their occurrence, development directions, methods of influence, socio-economic, cultural consequences. Important in the success of the formation of competitive advantages obtained under the influence of "random" events is the step-by-step planning of the activities of trade organizations adapted to stochastic processes, as well as the construction of various "predictive" options for the use of such events by trade organizations. At the same time, we note that the use of a "random" event in order to obtain a positive effect through the formed competitive advantage depends and is determined by the internal capabilities of the trade organization, and the change in the external environment under the influence of the same "random" event does not depend on the activities of the trade organization.

The synergetic (cumulative) effect, in our opinion, will primarily be obtained by those organizations that will integrate e-commerce into the existing business model of trade through the implementation of economies of scale, the effect of experience, financial savings, increased advertising efficiency, etc.

According to Professor G.G. Ivanov, the synergetic effect can occur through a combination of external and internal factors affecting the final efficiency.

In the works of researchers (Yu.V. Asochakov, E.V. Brodovskaya, O.E. Shumilova, I.A. Bykov, T.E. Hull, O.V. Volchenko, E.L. Vartanova, L.P. Delitsin, etc.), the problem of digital inequality, the patterns of development of such inequality is considered mainly from the standpoint of technological and social inequality. The developed classification of levels of digital inequality indicates that to a greater extent each of the levels is focused on consumers of digital technologies (households). [3]

References:

1. Иванов Г.Г., Зверева А.О. Развитие торговых организаций в современной экономике. -М.: Издат.-торг. корп. «Дашков и К», 2020. - 160 с.
2. Williamson O. The New Institutional Economics: Taking Stock, Looking ahead. Journal of Economic Literature. 2000. Vol. XXXVIII. № 3. - P. 569-613.

¹ According to the report of the United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD), 2021

3. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-market-overview>
4. <https://stat.uz/en/official-statistics/internal-trade>

Hamidov Saidjon Komilovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

HUDUDLARDA TURISTIK DESTINATSIYALARNI MAJMUAVIY RIVOJLANTIRISHDA RAQOBATBARDOSHLIK STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Turistik destinatsiyalarning umumiy raqobatbardoshligi hamda destinatsiya hududida faoliyat olib boruvchi korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan iste'mol talabining pasayishi sifat va narxning bevosita nomutanosiblikda ekanligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda raqobat destinatsiyalarda faoliyat olib boruvchi korxonalarning faoliyat samaradorligini rag'batlantirish, tegishli sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan xizmatlar narxlarining optimal nisbatini hamda iste'mol talabini tartibga soluvchi vositaga aylanadi. Turistik destinatsiyada yaratilayotgan xizmatlar (mahsulotlar) raqobatbardoshligining bozorda raqobat o'rini saqlab qolish va mahsulotni sotishda muvaffaqiyat qozonishida iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat, o'rinlar soni bilan bog'liq ayrim xususiyatlari integratsiyasi muhim sanaladi.

Bugungi kunda turistik destinatsiyalar va ular hududida joylashgan turistik korxonalar faoliyatida, bir vaqtning o'zida ham destinatsiyalararo, ham destinatsiya ichida iste'molchi uchun raqobat avj olmoqda va raqobatbardoshlikni ta'minlash jarayonini ko'proq darajada shakllantiruvchi yorqin va ifodali raqobat ustunliklarini shakllantirish vazifasi ilgari surilmoqda. Turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini baholash va raqobat nazariyasini tahlil qilish ushbu destinatsiyalarning raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi quyidagi muhim taktik holatlarni aniqlash imkonini beradi:

- ❖ turistik destinatsiyani tavsiflovchi taktik holat;
- ❖ turistik destinatsiyada yaratilgan xizmatlarni tavsiflovchi taktik holat;
- ❖ destinatsiya hududida mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini tavsiflovchi taktik holat;
- ❖ turistik destinatsiya uchun umumiy marketing va sotish siyosatini tavsiflovchi taktik holat.


Shu bilan bog'liq ravishda raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari va usullarini qo'shimcha tadqiq etish, monitoring vositalarini aniqlashtirish, raqobatbardoshlikni baholash va monitoring qilish usullarini o'rganish zarurati tug'iladi.

Turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini baholash turistik xizmatlar bozorida real vaziyatni vujudga keltirish hamda tegishli dasturlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitlarda raqobatbardoshlikni baholashning ko'plab usullari va metodologiyalari mavjudligiga qaramay, turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligi darajasini tatbiq etilishi mumkin bo'lgan to'laqonli metodologiya mavjud emas. Hozirgi kunda raqobatbardoshlikni baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda aniq hisoblash usuli asosidagi ko'rsatkichlardan keng foydalaniladi. Bu usullarda axborot olish manbalari va ko'rinishlarining turli-tumanligi holatida raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha xilma-xil shakldagi ma'lumotlar tahliliga asoslanadi.

Turistik destinatsiyalarda amalga oshirilayotgan faoliyat turizm sohasining alohida tarmoqlaridagi singari boshqaruv jarayonlarini hududiy jihatdan bir butun tizim shaklida tashkil etish hamda davlat boshqaruv tuzilmalarining doimiy qo'llab-quvvatlashini talab qiluvchi faoliyat sohasidir. Bugungi kungacha turistik destinatsiyalarda xizmat ko'rsatish faoliyatini boshqarish yo'nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlarda sohani boshqarish jarayonlariga konseptual yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, bu tadqiqotlarda raqobatbardoshlikni boshqarish hududiy majmualar shaklida o'rganilmagan. Tadqiqotlar natijalari turistik destinatsiyalar faoliyatini boshqarish konsepsiyalari nafaqat hudud, balki faoliyatga birlashgan subyektlar nuqtayi nazaridan ham yondashish muhimligini ko'rsatmoqda.

Turistik destinatsiyalarda faoliyatni amalga oshiruvchi tizim foyda olish uchun sohada sifatli xizmatlarni oqilona tashkil etishga qaratilgan samarali boshqaruvni talab qiladigan resurslar komponentlari va tegishli infratuzilmaga ega bo'lgan, muayyan hududda faoliyatni tashkil etuvchi korxonalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimidir.

Turistik destinatsiyalarda raqobatbardoshlikni boshqarish konsepsiyalarida faoliyat jarayonlariga ta'sir etuvchi risk omillariga alohida e'tibor berish talab etiladi. Risk omillarining noaniqligi va faoliyat rivojlanishining doimiy ravishda rivojlanib borishi ko'rib chiqilayotgan tizimlarning murakkabligi bilan bog'liq jihatlarni yanada kuchaytiradi (1-rasm).



1-rasm. Turistik destinatsiyalarda raqobatbardoshlikni baholash algoritmi¹

Mavjud risklar va ularning darajasini aniqlash hamda tahlil qilish natijasida faoliyatni boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan farazlar va muhim tendensiyalar asosidagi bosqichlardan iborat yaxlit yo'nalish ishlab chiqiladi. Bunday holatda yagona variantli prognozlarni amalga oshirishda xatolar yuzaga kelish ehtimoli ham ortadi, shu sababli, kelgusi davrdagi vaziyatlarni prognoz qilish uchun bir vaqtning o'zida bir nechta ssenariylarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu ssenariylarning asosi – tizimda mavjud bo'lgan risk omillarining keng qamrovli va obyektiv hisob-kitobidir.

Turistik destinatsiyalarni majmuaviy rivojlantirish o'zining rivojlanish bosqichiga, o'ziga xos tuzilishiga va ichki hududiy xususiyatlarga xos bo'lgan shakllanish tarixiga ega. Ularning har biri mehnatning geografik bo'linmasida alohida o'rin tutadi. Turistik destinatsiyalarning rivojlanishidagi asosiy harakatlantiruvchi kuch jamiyatning dam olish xizmatiga bo'lgan ehtiyojdir².

Tadqiqot jarayonida turistik destinatsiyalar raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmining konseptual markazlashgan modeli ishlab chiqildi. Mexanizmni joriy etishning asosiy maqsadi – joriy va istiqboldagi faoliyat sharoitida turistik destinatsiyaning eng yuqori mumkin bo'lgan salohiyatdagi raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat. Asosiy maqsad mumkin bo'lgan barcha ssenariylarni hisobga olgan holda raqobatga muvozanatlashgan, ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanish zaruriyatini belgilab beradi. Tashqi va ichki omillarning o'ziga xos, dinamik ravishda o'zgaruvchan kombinatsiyasi destinatsiya uchun tanlangan raqobat jarayoniga turli yondashuvlardan foydalanish muvozanatini ta'minlaydi.

Aytish mumkinki, bir-biriga makon va ko'lam jihatidan bog'langan turistik obyektlar va subyektlar mavjud bo'lib, ular birgalikda yaxlit darajadagi mamlakat, mintaqa turistik majmuasining yagona murakkab tizimini tashkil etadi. Har bir tizim milliy iqtisodiyotning rivojlanishi davomida hududiy mehnat taqsimotining ko'rinishi sifatida obyektiv haqiqat sifatida mavjuddir. Shu bilan birga, u alohida-alohida mavjud emas, balki boshqa hududlar bilan yaqin aloqada va uning bir qismi bo'lgan katta hududga xos bo'lgan qator bir xil xususiyatlarga ega.

Majmuaviy shaklda shakllangan turistik destinatsiyalarning bugungi globallashuv sharoitidagi axborot-kommunikatsiya vositalarida uzviy bog'lanishi destinatsiyalarning mijozlar orasidagi o'rnini topishida muhim hisoblanadi. Bunda turistik destinatsiyalarni ye-destinatsiya shaklidagi axborot modellaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

² Котляров Е.А. География отдыха и туризма. Формирование и развитие территориальных туристских комплексов / Котляров Е.А. – М., 1978.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi «Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-232-sonli qarori. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2022 y., 07/22/232/0378-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi. 2020-yil. 25-yanvar. <http://uza.uz/posts/3329>.
4. Ыылмаз С., Бабосюк А.В., Бакиров М.И. Внутренние факторы, влияющие на развитие туристского предпринимательства. Journal of Economy and Business, vol. 1-1 (71), 2021. -С. 136-139.

Xalimova Nigina Jafarbekovna
BuxDU tayanch doktoranti
Turizm va mehmonxona xo'jaligi
kafedrası o'qituvchisi
nikakhalimova7@gmail.com

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA IJTIMOYIY MEDIADAN FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Bugungi kunda, dunyoning qaysi nuqtasida bo'lishimizdan qat'iy nazar, bizni mustahkam bog'lab turgan, minglab kilometrlarni yo'q qilgan vosita mavjud. Ushbu muhim kashfiyot, zamonaviy til bilan aytganda «ijtimoiy media» deb ataladi.

Ijtimoiy media - virtual jamiyat va tarmoqlar orqali axborot, g'oyalari, qiziqishlar va boshqa turdagi ifodalarni yaratish va almashishni osonlashtiradigan interaktiv texnologiyalar va raqamli kanallar hisoblanadi¹. Jimmie Manning ushbu atamani interaktiv ishtirokni o'z ichiga olgan media vositalarining yangi shakllariga nisbatan qo'llanilishini aytib o'tgan². Bizning fikrimizcha, ijtimoiy media bu «ijtimoiylik» belgilarini o'z ichiga olgan virtual dunyodagi medianing yangi shakli bo'lib, internetda ijtimoiy munosabatlarni qurish, aks ettirish va tartibga solish uchun mo'ljallangan platforma, onlayn xizmat va veb-saytdir. Turizmda ijtimoiy mediadan foydalanish maqsadi, asosan, sayohatni tashkil qilish, boshqarish, targ'ib qilish, sayohatchilar bilan aloqa almashish, ularni yangi dasturlardan xabardor qilish, teskari aloqa o'rnatish hamda shu kabilarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy medianing asosiy funksiyalaridan biri muloqot bo'lgani ham turizm sohasida qo'llash hamda rivojlantirishga juda qo'l keladi. Chunki ushbu soha taraqqiyoti zahirida muloqot yotadi.



1-shakl. Turizmda ijtimoiy media qo'llaniladigan sohalari.

¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Social_media

² Manning, J. (2014.) Social media, definition and classes of. In K. Harvey (Ed.), *Encyclopedia of social media and politics* (pp. 1158-1162). Thousand Oaks, CA: Sage.

Turizm industriyasida ijtimoiy media turli xil sohalarida qo'llanilishi mumkin. Birinchi navbatda, turistik destinatsiya, ya'ni makonni rivojlantirish, aholiga tanitish hamda targ'ibot qilish maqsadida media foydalanuvchilari bilan aloqaga kirishish uchun. Turistik destinatsiya - turizm nuqtai nazaridan boshqa hududlarga qaraganda o'ziga xos sharoit va xususiyatlarga ega bo'lgan tabiiy makon hisoblanadi¹. Bunda asosan WWW da hamda ijtimoiy tarmoq saytlarida rasmiy akkauntlarni hamda vebsaytlarni ochish orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kunda turizmning turli sohalarida ijtimoiy mediadan foydalanishning dolzarb muammolari bo'lib quyidagilar ko'rsatiladi:

1-jadval.

Ijtimoiy media foydalanuvchilarning eng katta muammolari.

Biznes maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy strategiyalarni ishlab chiqish	Maqsadli auditoriyani aniqlash va tushunish	Ijtimoiy media uchun byudjet va resurslarni ta'minlash
Kontentni ishlab chiqish	Investitsiyalar rentabelligini o'lchash	Raqobat monitoringi
Ijtimoiy strategiyani biznesning boshqa qismlari bilan uyg'unlashtirish	Ijtimoiy biznesning boshqa bo'limlarga ta'sirini ko'rsatish	Jamoaning tarmoqli kengligi

Manba: Social, S. (2019). Sprout Social Index 2019.

Xulosa

Turizmning turli sohalarida ijtimoiy mediadan foydalanishda uchraydigan muammolarni bartaraf qilish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar berib o'tiladi:

- Sohaning bozor holatini o'rganib, rivojlantirish lozim bo'lgan bo'lim uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqish;
- Rivojlantirish lozim bo'lgan sohaning maqsadli bozorini aniqlab, ularga mos bo'lgan kontent ishlab chiqish;
- Raqobatchilarni aniqlash va ularni monitoring qilish;
- Belgilangan ijtimoiy media strategiyalarni rivojlantirilayotgan sohaning boshqa sohalar bilan integratsiya qilish;
- Ijtimoiy media bilan ishlash uchun alohida mutaxassislar jalb qilish va yetarlicha mablag' ajratish;
- Mas'ul xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

Тошимов Шахзод Бурхон ўғли
НДКТУ “Иқтисодиёт ва менежмент”
кафедраси ассистенти

**НАВОЙ ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ВА КИЧИК САНОАТ ЗОНАСИНИ
ИНВЕСТИЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ**

“Навой” эркин иқтисодий зонаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 2 декабрдаги “Навой вилоятида эркин иқтисодий зона ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-4059-сонли Фармонида асосан ташкил этилди. “Навой” эркин иқтисодий зонасига Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 27 январдаги 21-сонли қарорига асосан, Навой вилоятининг Кармана туманидан 564 га (шундан 364 га ишлаб чиқариш майдони) ер майдони ажратилган. Мамлакатимиз раҳбарияти томонидан юқори даражада инфратузилма яратилди. Масасан, “Навой” эркин иқтисодий зонаси худудида 4,5 км ички автомобил йўллари қурилган, 21 км узунликдаги суғориш ва техник сув ички тармоғи ишга туширилган, 18,7 км узунликдаги ички табиий газ қувурлари ётқизилган, худудга 5,5 км узунликда темир йўл линияси ётқизилган ва “Кармана” темир йўл логистика маркази ташкил этилган. 50 мВА ли электр подстанцияси хизмат кўрсатиб келмоқда.

2022 йилнинг 1 январь ҳолатига “Навой” эркин иқтисодий зонаси худудида 22 та тадбиркорлик субъектлари (шундан 15 таси кўшма корхона) томонидан қиймати 167,5 млн.доллар (шундан, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар - 49,8 млн.долл.) бўлган 29 та лойиҳа амалга оширилди. Бунинг натижасида 2021 йил январь-декабрь ойлари давомида 916,5 млрд. сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилди (режага нисбатан 138,3%). 7,7 млн. долларлик маҳсулот экспорт қилинди (режага нисбатан 38,3%) ва 1,3 мингта иш ўринлари ташкил қилинди.

¹ Kiráľová, A., & Pavlíček, A. (2015). Development of social media strategies in tourism destination. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 175, 358-366.

Жорий йилнинг ўтган даври мобайнида 7 та лойиҳа амалга оширилиб, натижада 42,5 млн. доллар инвестиция киритилди (шундан тўғридан-тўғри хорижий инвестиция 15,9 млн. АҚШ долл.) ва 352 та янги иш ўрни ташкил этилган. Шу билан бирга, “Навоий” эркин иқтисодий зонасида 24 та тадбиркорлик субъектлари томонидан қиймати 126,2 млн. доллар (шундан, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар - 33,9 млн. долл.) бўлган 25 та лойиҳа амалга оширилмоқда. Лойиҳалар амалга оширилиши натижасида 275,5 млн. долларлик маҳсулот ишлаб чиқариш, 87,9 млн. долларлик маҳсулотни экспорт қилиш ҳамда янги 1676 та иш ўринлари ташкил қилиш кўзда тутилган.

Давлат мулки бўлган объектлар ва ишлаб чиқариш майдонларидан самарали фойдаланиш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Навоий” эркин иқтисодий зонаси фаолиятини кенгайтириш ва Навоий вилоятида кичик саноат зоналарини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3774 сонли қарорига асосан Навоий шаҳридаги умумий ҳудуди 84,24 га бўлган фойдаланилмаётган ишлаб чиқариш майдонлари “Навоий” эркин иқтисодий зонаси ҳудудига киритилди.

“Навоий” эркин иқтисодий зонасидаги ўрганишларимиз давомида, мавжуд бино ва иншоотлардан қуйидагилар: 48 та цех ва завод (жами: 75.411 м²), 23 та омборхона (жами: 6.706 м²), 20 та ижтимоий объектлар (жами:3.459 м²), 11 та гараж-бокслар (жами: 2.728 м²), 15 та маъмурий бино (жами: 5.967 м²) ва 10 та Лента-галерея (жами: 979м²)лар мавжудлиги аниқланди. Мутахассислар ҳулосасига кўра мавжуд бино ва иншоотлардан 38 тасининг (4771 м² ишлаб чиқариш ва қўшимча бинолар) умумий ҳолати қониқарсиз ва қайта таъмирлаш ва реконструкция қилишга тавсия этилмаслиги ҳамда ишлаб чиқариш биноси сифатида фойдаланилмаслиги маълум бўлди. Бу ҳолат, инвесторга шубҳа туғдириши, табиийдир.

Яратилган имкониятлар билан хорижий ва маҳаллий инвесторларни хабардор қилиш ва уларни ҳудудга жалб этиш мақсадида, эркин иқтисодий зонанинг веб саҳифасида, вилоят ижтимоий тармоқларида ва оммавий ахборот воситаларида объектлар тўғрисида тарғибот ишлари амалга оширилиб, маълумотлар тақдим қилиб келинмоқда. Бундан ташқари, Дирекциянинг 2020 йилнинг 25 июлдаги 01/252-сонли хати орқали Ташқи ишлар вазирлиги ва Ўзбекистон Республикасининг хорижий давлатлардаги 28 та элчихоналари ва консулликларига мазкур объектларга хорижий инвесторларни жалб этиш бўйича амалий ёрдам сўраб мурожаат қилинган. Мазкур ҳудудга жойлаштириш учун “Навоий” эркин иқтисодий зонаси ва кичик саноат зоналари Маъмурий кенгаши томонидан умумий қиймати 19,1 млн. АҚШ доллари бўлган 9 та инвестиция лойиҳалари амалга оширилиши маъқулланган.

“Навоий” эркин иқтисодий ва кичик саноат зонасининг иқтисодий таҳлилий маълумот¹

	2008-2018йй.	2019й.	2020й.
Яратилган иш ўринлари	1269 та	1676	850
Корхоналар сони	22 та	24	7
Лойиҳалар сони	30 та	25	7
Лойиҳалар қиймати (млн.долл.)	167,5	126,2	87,0
<i>шундан:</i>			
хорижий инвестиция (млн.долл.)	49,8	33,9	51,0
ўз маблағи (млн.долл.)	72,2	29,6	9.69
Банк кредити (млн.долл.)	45,6	62,7	26.27
Ишлаб чиқариш ҳажми (млрд. сўм)	1897,4	2286,6	-
экспорт (млн. долл.)	39,0	87,9	-

Ушбу лойиҳалар амалга оширилиши натижасида 5,8 млн. АҚШ доллари тўғридан-тўғри хорижий инвестиция киритилиб, 405 та янги иш ўринлари ташкил этилади. Бундан ташқари умумий қиймати 45,79 млн. АҚШ доллари бўлган 7 та инвестиция лойиҳалари ЭИЗ ва КСЗ Маъмурий кенгаши томонидан кўриб чиқилмоқда. Шунингдек, умумий қиймати 51,0 млн. долларга тенг бўлган 6 та истикболли лойиҳаларни амалга ошириш юзасидан хорижий инвесторлар билан музокаралар олиб борилмоқда. Мазкур лойиҳаларни амалга ошириш натижасида 51,0 млн. АҚШ доллари тўғридан-тўғри хорижий инвестиция киритилиб, 550 та янги иш ўринлари яратилади.

“Навоий” эркин иқтисодий зонаси ҳамда мамлакатимиздаги барча эркин иқтисодий зоналарни янада ривожлантириш учун қуйидагиларни эътиборга олиш зарур деб ҳисоблаймиз:

¹ sez.uz маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

1. Бугунги кунда эркин иқтисодий ва кичик саноат зоналарни ривожлантиришнинг норматив ҳуқуқий базасини мукамал тарзда қайта ишлаб чиқиш лозим. Чунки, норматив ҳужжатлар турлича талқин қилинишининг ва қонунни суистеъмол қилиш камаяди.

2. Ўзбекистон минтақаларида деҳқончиқ ва чорвачилиқни ривожлантириш мақсадида эркин иқтисодий зоналар кластерни ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир. Бу зона тез фурсатларда чўл зоналарини ўзлаштирилишига олиб келади.

3. Давлат бозор иқтисодиётининг асосий унсурларидан бири бўлган бозор очиклиги сиёсатини устуворлигини таъминлаши зарурдир. Ҳозирги кунда бу борада бир қанча муаммоли вазиятлар мавжуд. Шунинг учун ҳам бозор очиклигини таъминлаш бугунги куннинг долзарб вазифаси деб, ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Рашидов М.К. “Эркин иқтисодий ҳудудларнинг мазмун –моҳияти ва ҳудудлар ривожланишига таъсири” // Иқтисод ва молия илмий – амалий журнали мавзусида 2012 йил №3 сон 50 - 54 бетлар.
2. Рашидов М.К. Эркин иқтисодий зоналарнинг таснифланиш назарияси “Сервис” илмий – амалий журнал // -Тошкент,2017. № 4. – Б.13 –39.
3. Rashidov M. K. STRUCTURAL ASPECTS OF FREE ECONOMIC ZONES //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 34. – С. 119-123.
4. Rashidov M. Эркин иқтисодий зоналарни ривожлантиришнинг жаҳон тажрибаси //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2018. – №. 5. – С. 126-140.

Khayrilloev Sunnatillo Bakhtiyorovich
Bukhara state university
sunnatxayrilloev@gmail.com

MECHANISMS FOR FURTHER IMPROVEMENT OF THE NATIONAL STATISTICS SYSTEM BASED ON DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES

Economical of reform consequences , especially Uzbekistan in the last 5 years national of statistics whole system fundamentally changed . in Uzbekistan social - economic changes not only statistics of information to the content , perhaps him present reach to the forms too new requirements put _ close until time Uzbekistan Republic State statistics of the committee statistics information of distribution main shape print public information tools was _ Current at the time while data press releases , official _ website , documents , social _ _ in networks official channels , har in the month passing bride conferences , roundtables _ _ and electron mails through is being distributed . Statistics of information wide to the public attention link in doing State statistics committee official website _ _ I'm sorry importance occupation is enough since 2007 since work coming in 2019 _ Jahan bank and Asia development bank experts recommendations basically structure and design improved . Current in the day State statistics of the committee official on the website industry networks , national economy and territorial fields development and correct nouns deepening of the economy liberalization , development release technologies again equipment and modernization to make , raw material deep again work , republic regions common development , population marriage level more improve according to acceptance done programs done increase process more more complete descriptive , quick and sure statistics data 5 _ announcement in format (csv, .json, .xml, .xls and pdf) . is being done .

No	Supply of data	Quantity
1	The number of interactive services on the website	13
2	Types of information obtained using the interactive map on the website	12
3	Types of data format on the website	5
4	Distribution of information on the website in the network segment	20
5	Data form on website	6
6	The number of data sets on the website	279

Also official _ on the website modern from technologies used without statistics information visual in the form of present doer platform and statistics Buy kits online get enable giver electron shop work

released _ As a result local and foreign of users wide scope for statistics of information maximum transparency and openness provided . Statistics data collection process automation "eStat" electronic in the form of statistics reports of collection automated information system done increases it _ application reach while stage - stage done increased _

Current to the day come statistics reports acceptance to do system web technology based on again work exit through reports what is what in term submit and online check opportunity creation , ministry and offices data bases with integration to the road to put at the expense of reports optimization , statistics information in formation reports get from the mechanism stage - stage checkout machines , geoinformation systems , surveillance cameras , statistics information again work processes data base of management modern (Oracle, MS SQL, Postgre SQL) systems current reach and Big Data and artificial from intellectual (IR) technologies used without big in size information again work the term shorten according to wide scope affairs done is being increased a .

Beforehand conclusion I would like to mention that The State Statistics Committee has set plans for the introduction of information and communication technologies: 1. Development of a new look of the official website of the State Statistics Committee. 2. Development of the eStat 4.0 system of receiving statistical reports online. 3. Step-by-step introduction of tablet system to all statistical sample observations. 4. Development of a data digitization and processing system within the framework of the population registration event to be held in 2022. 5. Introduction of the Business Register System on the basis of the unified state register of enterprises and organizations. 6. Development of a new version of the Open Data Portal of the Republic of Uzbekistan (data.gov.uz).

Summary

One of the main problems in the development of information technologies in the state statistical system at the modern stage of information is the task of creating an integrated system of statistical data processing based on a single methodological basis. The general requirements for such systems provide uniformity, completeness, objectivity, the ability to exchange information between enterprises and management bodies at any level. All this is done by combining special software and technical tools for managing information, communication channels and information exchange , keeping a single set of data in all data management systems for statistical data processing .

Used literature

1. Mirziyoyev Sh.M. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. "People's Word" January 25, 2020. 2. Decree No. PF4947 of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "On the strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan". 3. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 28, 2020 "On measures for the widespread introduction of the digital economy and electronic government" P Q-4699.

Rasulova Nigora Nematovna
BuxMTI "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: nigorarasulova.13@gmail.com

KPI – KORXONA FAOLIYATI SAMARADORLIK KO`RSATKICHI SIFATIDA

Samaradorlik – bu foydalilik, natijalilikdir. Ma`lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko`rsatish va ma`lum miqdorda xarajat qilish kerak. Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o`zaro nisbatidir.

Bugungi kunda, mavjud ilmiy adabiyotlarda korxonalar samaradorligi – bu ma`lum vaqt mobaynida korxonalar faoliyatining yakuniy natijalarini har tomonlama kompleks baholashdan iborat¹. Hozirgacha samaradorlikning bir qator ta`riflari ishlab chiqilgan. Masalan, P.Druker o`zining "Menejment amaliyoti" asarida samaradorlikni iqtisodiy ko`rsatkichlar va jami xarajatlarning korxonalar uchun eng yuqori foydali nisbati deb ta`kidlaydi². Ushbu nuqtai nazarga R. Kaplan va D. Norton kabi olimlar ham qo`shilishadi va samaradorlikni "natijalarning sarf-xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadigan nisbiy ko`rsatkich,

¹Вечканов Г.С. Современная экономическая энциклопедия – Санкт-Петербург, - 2013, С. 880.

²Druker P. – The practice of management - M.: Uilyams, 2007. – P. 400

jarayonning maksimal natijaviyligi” sifatida ta’riflaydilar¹. F. Teylor, o’z navbatida, “tijorat tuzilmasi va uning jamoasi uchun, shuningdek aksiyadorlar, investorlar, davlat, xodimlar, xaridorlar – barcha manfaatdor tomonlar uchun maksimal samaradorlik korxonalarining hosilaviy ko’rsatkichidir”, deb ta’kidlagan². P. Druker biznesda boshqaruv panelidan foydalanishning dolzarbligini quyidagicha ta’riflagan: “asosiy sohalaridagi maqsad ko’rsatkichlari korxonalar uchun “pilot”i uchun jihozlar paneli kabi ahamiyat kasb etadi”. P. Druker 1954-yilda birinchi marta samaradorlikning asosiy ko’rsatkichlari (key performance indicators – KPI) tushunchasini qo’lladi.

Raqobat rivojlanib borayotgan hozirgi zamonaviy bozor iqtisodiyotida inson resurslaridan samarali foydalanish ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bu borada tashkilot (idora, muassasa va korxonalar) va xizmatchilar faoliyati samaradorligini baholashga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu borada xalqaro tajribada davlat xizmatining samaradorlik ko’rsatkichlari KPI - Key Performance Indicator – Eng Muhim Samaradorlik ko’rsatkichlari orqali baholanib kelinadi.

Bunda samaradorlik tashkilot tomonidan qo’lga kiritilgan natijaning ma’lum bir vaqt mobaynida maqsadga erishish uchun sarflangan xarajatiga nisbatan aniqlanadi.

KPI – bu tashkilot (idora, muassasa va korxonalar)lar va xizmatchilar faoliyatini belgilangan talab darajasida olib borilishini yoki belgilangan maqsadga erishishni nazorat qiluvchi, baholovchi samaradorlik yoki natijadorlik ko’rsatkichi deb ham yuritiladi. Qisqacha aytganda, KPI - belgilangan maqsad bo’yicha “o’lchov moslamasi”. Binobarin, maqsad bilan bog’liq bo’lmagan ko’rsatkichlar orqali KPI ni aniqlash mumkin emas. Ingliz tilida mazkur tushunchalar “samaradorlik ko’rsatkichlari” (“performance indicators”), “eng muhim natijadorlik ko’rsatkichlari” (“key results indicators - KRI”) va “muvaffaqiyatlarning muhim faktorlari” (“critical success factors”) kabi terminlar orqali ifodalanadi.

Har bir tashkilot (idora, korxonalar va muassasa)larda ham KPI tizimini amaliyotga tadbiiq etish uchun quyidagi algoritimga amal qilish kerak bo’ladi:

- KPI tizimini tadbiiq etish bo’yicha puxta reja ishlab chiqish (mas’ullarni belgilash, tashkilotni aniqlash, amaliyotga tadbiiq etish muddatlarini belgilash va boshqalar);
- KPI tizimini tadbiiq etish bo’yicha huquqiy asosni yaratish (mos modelni tanlash, huquqiy bazani takomillashtirish, strukturani optimallashtirish, KPI bo’yicha hisobot shakllarini ishlab chiqish va boshqalar);
- KPI tizimi bo’yicha avtomatlashtirilgan dastur yaratish (tanlangan KPI modeli bo’yicha dastur ishlab chiqish, dastur bo’yicha mas’ullarni o’qitish va boshqalar);
- KPI tizimini amaliyotga tadbiiq etish (tanlov asosida tashkilot va hududlarni ajratish, qolganlarda ham bosqichma bosqich joriy etish, tizimning ishlashi, maqsadi bo’yicha xodimlar malakasini oshirish va boshqalar);
- KPI tizimi samaradorligini monitoring qilish (tizimning ishlashi va natijadorligi bo’yicha ma’lumotlarni to’plash, tahlil qilish, ko’rsatkichlar to’g’ri yoki xato tanlanganligini o’rganish, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish va boshqalar).

Ushbu tizim faqatgina ma’lum bir vaqt mobaynida, ya’ni davr ichida yuqori samara berishini hisobga olish kerak. Shu sababli, tizimni doimiy monitoring qilib, kerak bo’lsa eng muhim ko’rsatkichlarni yangilab borish talab etiladi. Shuningdek, KPI yuqori samara berishi qo’lga kiritilgan natija bilan ketgan resursga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Faqat natijani orqasidan quvib, sarflanayotgan resurslarga e’tibor qaratilmasa, natijani beradigan resurslarsiz qolib ketish mumkin. Aksincha, faqat resurslarni tejash bilan ham yuqori natijani qo’lga kiritish mumkin emas. Ya’ni, yuqori samaradorlik kutilgan natija va minimal sarflangan resurslarning o’zaro bog’liqligi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli natijadorlikni ham, samaradorlikni ham hisobga olish kerak, ular o’rtasida doimo balansni ushlab turish kerak.

Korxonalar samaradorligini o’lchashda eng keng foydalaniladigan KPI ko’rsatkichlari o’z ichiga narx, vaqt, sifat va unumdorlik KPI ko’rsatkichlarini oladi.

¹Kaplan R., Norton D. System of balanced scorecard. From strategy into action - M. / Olymp-Business, 2008.,— B. 320.


²Teylor F.W. Reflections on the Relevance of the Principles of Scientific Management 100 Years Later - Journal of Business and Management – Vol. 17, No. 1, 2011. – P. 104.

Korxonalar samaradorligini baholashda eng keng foydalaniladigan KPI ko'rsatkichlari

•Narx KPI ko'rsatkichlari har xil jarayonlarda iqtisodiy resurslardan foydalanadigan faoliyatni baholashga imkon beradi. Bunga energiya sarfi, xom ashyoning narxi, qo'shimcha xarajatlar, investitsiyalarning qaytarilishi va xatolar to'g'irlash xarajatlari kiradi.

•Vaqt KPI ko'rsatkichlari ma'lum jarayonning boshlanishidan oxirigacha bo'lgan vaqti yoki alohida bosqichlarning vaqt o'lchovlari bo'lishi mumkin.

•Unumdorlik KPI ko'rsatkichlari korxonalar faoliyatidagi operatsiyalarning samaradorligini o'lchashga beradi. Bu uskuna yoki mashinaning ishlash muddatini, foydali ishlash foizini hisoblashda yordam beradi.



•Sifat KPIlar jarayonlar samaradorligini hisoblashda yordam beradi. Ushbu xatolar yuzaga keladigan xatolar soniga va mukammal yoki kamchiliksiz jarayonlar soniga asoslangan bo'lishi mumkin. O'lchovning boshqa usullari - bu tuzatishga muhtoj bo'lgan mahsulotlar foizi va qoniqarli mijozlar soni.

Demak, korxonalar samaradorlikni o'lchashda KPI ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq degan umumiy xulosaga kelish mumkin, zero, KPI ko'rsatkichlari ham moliyaviy ham boshqa sifat ko'rsatkichlarini o'zida jamlash imkoniyatiga ega hamda o'zida innovatsiyalar (mahsulot va jarayon innovatsiyalari) ning qo'llanish natijalarini mujassam etish imkoniyatiga ega.

Бобоев Акмал Чориевич
Бухоро муҳандислик технология институтининг
“Иқтисодиёт” кафедраси мудири,
иқтисод фанлари номзоди, доцент
E-mail: boboev-akmal@bk.ru
Искандаров Умиджон Учқун ўғли
M50-23 ИҚТ магистрант

МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎРНИ.

Ривожланган мамлакатлар тажрибасига асосланган ҳолда мамлакатимизда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг барқарорлигини таъминлаш, унинг иқтисодиётдаги улушини ошириш, аҳоли бандлигини ошириш ва янги иш ўринларини яратишдаги ўрни ҳамда давлатнинг кичик бизнес тараққиёти учун яратиб берган имкониятлари ва аниқ чора-тадбирлари аҳамияти татқиқ қилинган.

Ўзбекистон Республикасида мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб ижтимоий-иқтисодий тараққиётни таъминлашда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш муҳим йўналиш сифатида белгилаб берилди.

Мазкур соҳани давлат томонидан тартибга солиш, жумладан, унинг ялпи ички маҳсулот ишлаб чиқариш ва бандликни таъминлашдаги улушини ошириш, технологик таркибий тузилишини такомиллаштириш, кредит ресурсларига бўлган эҳтиёжини қондириш ва қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш каби йўналишларда тизимли чора-тадбирлар амалга оширилди.

Тадбиркорлик тарихий ижтимоий - иқтисодий категория бўлиб, у тадбиркорлик ва тадбиркорлик фаолияти тўғрисидаги турлича қарашлар мавжудлиги билан тавсифланади. Бу фаолиятнинг илмий, ташкилий, ҳуқуқий асосларини ва унинг амал қилиш механизмларини тадқиқ

этиш тақозаси кучайиб борганлигидадир. Тадбиркорликни ривожлантириш бевосита фаолиятнинг иқтисодий моҳиятини назарий жиҳатдан билиш ва ўрганишга боғлиқдир.

Одатда кичик бизнес ҳақида гап юритилганда, кўпроқ биз кичик ва хусусий тадбиркорликни тушунамиз. Бунинг яққол исботи сифатида «Кичик ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришни рағбатлантириш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунини ҳам олишимиз мумкин.

Бугунги кунга келиб республикамиз ижтимоий-иқтисодий ҳаётида «Тадбиркорлик», «Тадбиркор», «Бизнес», «Бизнесмен» каби терминлар кенг қўлланила бошлади. Уларнинг мазмун ва моҳиятини англаш маълум бир маънода кичик бизнес ҳақида тасаввурни шакллантиради.

Тадбиркорлик ўз ичига ижтимоий муносабатларни қамраб олган ижтимоий-иқтисодий ходисадир. Унда ҳуқуқий, руҳий, ташкилий, иқтисодий ва тарихий томонлар мавжуд. Мазмуни ва моҳияти бўйича унумли фаолиятни англатади.

Тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий-иқтисодий моҳияти ва ривожлантириш масалалари А.Смит, А.Тюрго, П.Самуэльсон, Р.Хизрич, И.Шумпетер¹ асарларида атрофлича ўрганилган. МДХ мамлакатлари олимлари А.И.Архипов, Е.Ф.Борисов, А.В.Бусыгин, Ю.М.Осипова, М.А.Сажина² ва бошқалар томонидан тадбиркорликни ривожлантиришнинг назарий ва амалий муаммолари тадқиқ этилган. Республикамизда С.С.Ғуломов, Ш.Ш.Шодмонов, Т.Т.Жўраев, А.В.Ваҳобов, Ҳ.П.Абулқосимов, А.Қодиров, Қ.Муфтайтинов, Н.К.Муродова, Ғ.П.Шарипов, А.Ч.Бобоев, М.Ю.Абдукаримова³ ва бошқалар тадбиркорликнинг назарий жиҳатлари ва Ўзбекистонга хос хусусиятлари бўйича тадқиқотлар олиб борганлар.

2022 йилда кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектлари (деҳқон ва фермер хўжалиқларисиз)нинг сони 32 155 тани ташкил қилди, бу кўрсаткич 2021 йилга нисбатан 108,9 фоизга ошган, шунингдек 2022 йилда ЯХМ улушида 74,1 фоизни ташкил қилган.

Ҳозирга келиб тадбиркор фаолият доираси ҳам мазмунан, миқдор ва сифат жиҳатидан ўзгарди. Энди у маҳсулотни қачон, қанча, қаерга, ким учун ишлаб чиқариши керак деган масалаларни мустақил ҳал этувчига айланди. Бундан ташқари, қанча миқдорда ишлаб чиқариш ресурслари (бино, хом ашё, материал, қурилма, меҳнат, транспорт воситалари, капитал маблағлар, омбор майдонлари ва ҳ.к.) зарурлигини аниқлайди, улар оқилона фойдаланиш эвазига юқори фойда олишга ҳаракат қилади.

Jumabayeva Kumush Botir qizi
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi
jumaboyevakumush1136@gmail.com

PENSIYA TA'MINOTI TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASI

Dunyoda pensiya tizimini isloh etishning xorijiy mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimlarining shakllanishidagi tajribalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, pensiya xarajatlarining faqatgina davlat tomonidan moliyalashtirilishi yetarli samara bermasligi ayon bo'lmoqda. Ko'plab taraqqiy etgan mamalakatlarda pensiya tizimida bir vaqtning o'zida uch bosqichli pensiya dasturlari, ya'ni, minimal pensiyani

¹ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Т.1. – М.: Ось-89, 1997. – 480 с.; Тюрго А. Избранные экономические произведения. - М.: Соцэкгиз, 1961.; Самуэльсон П. Экономика. Т. 2. – М.: НПО, Алгон, 1992. – 413 с.; Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. Вып. № 1. – М., 1991.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1992.

²Архипов А.И. Основы предпринимательской деятельности. – М.: Финансы и статистика, 1995. – 491 с.; Борисов Е.Ф. Основы экономической теории. – М.: Новая волна, 1996. – 317 с.; Бусыгин А.В. Предпринимательство. - М., 1997. – 608 с.; Осипова Ю.М. Основы предпринимательского дела. – М.: Дело, 1995. – 432 с.; Сажина М.А., Чибриков Г.Г. Основы экономической теории. – М.: Экономика, 1995. – 367 с.;


³Ғуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Т.: Шарқ, 2002. – 369 б.; Шодмонов Ш.Ш., Жўраев Т.Т., Иқтисодиёт назарияси. – Т.: Молия, 2002. – 240 б.; Ваҳобов А.В. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. – Т.: Шарқ, 2003. – 320 б.; Абулқосимов Ҳ.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. – Т.: ТМИ, 2005. – 196 б.; Қодиров А. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДТУ, 2002. – 183 б.; Муфтайтинов Қ. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари. – Т., 2004. И.ф.д. дисс. автореф. – 40 б.; Муродова Н.Қ. Кичик бизнес субъектларининг тадбиркорлик фаоллигини ошириш йўналишлари. и.ф.н. дисс. Навоий, 2008. – 149 б.; Шарипов Ғ.П. Бозор муносабатлари тизимида кичик бизнес ва унинг ижтимоий – иқтисодий ривожланишидаги роли. - И.ф.н. дисс. – Т., 2008. – 159 б.; Бобоев А.Ч. Тадбиркорлик фаолияти ривожланишининг назарий жиҳатлари ва устувор йўналишлари и.ф.н. дисс. – Т., 2012. – 165 б.

kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional pensiya dasturi, fuqarolarning ixtiyoriy tarzda nodavlat pensiya sug'urtalarini amalga oshirish tizimlarini ko'rish mumkin¹.

O'zbekistonda uzoq istiqbolga mo'ljallangan barqaror iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash, tub islohotlarning samaradorligini oshirish, aholining real daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini kamaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilashga alohida e'tibor qaratish belgilangan. Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasida² pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorlarini indeksatsiya qilish taraqqiyot strategiyasining muhim maqsadlaridan biri sifatida keltirilgan.

Hozirgi vaqtda pensiya tizimidagi islohotlarga bo'lgan ehtiyoj demografik holatning o'zgarishi bilan bog'liq (nafaqaxo'rlar sonining ko'payishi bilan mehnatga layoqatli aholi sonining kamayishi). Shuningdek tibbiyotni rivojlanib borishi natijasida dunyo aholisining o'rtacha umr ko'rish yoshi oshib bormoqda. Jahon iqtisodiy forumining metodologiyasiga muvofiq, sog'liqni saqlash darajasi (jumladan, umr ko'rish davomiyligi) davlat raqobatbardoshligini belgilaydigan omillar qatoriga kiradi³.

Hozirda O'zbekiston aholisi ham o'sib borayotgan bir paytda pensiya oluvchilar soni ham o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin(1-rasm), bu holat xorij tajribalarini tahlil qilishni va O'zbekistonga joriy qilish choralarini yanada maqbul va optimal yechimlarni izlab tahliliy hisobotlar asosida pensiya tizimiga joriy qilishni talab qilmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda aholi tarkibida pensionerlarning ulushi⁴

Shu o'rinda, O'zbekistonda aholi tarkibida pensiya oluvchilarning ulushi yillar kesimida tahlili keltirilgan(1-rasm) ushbu tahlilga asosan, oxirgi 10 yillik tahlilda jami aholi soni tarkibida pensiya oluvchilar ulushi o'sib borayotganligi 2012-yil 9.4 foizni tashkil qilganligi va 2021-yil 10.7 foizni ko'rsatayotganligini ko'rish mumkin bu holatning asosiy sabablaridan biri sifatida 1950-1960-yillardagi ("Baby-boom") davrida tug'ilgan fuqarolarning umumiy belgilangan pensiya yoshiga yetishi bilan bog'liqdir.

Ko'plab xalqaro tashkilotlari, jumladan Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD)⁵, Jahon Banki (World Bank Group)⁶, Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund)⁷, Birlashgan Millatlar tashkiloti (United Nations Development Programme)⁸, Melburn Merse global pensiya indeksi (The Melbourne Mercer Global Pension Index (MMGPI))⁹, Willis Towers Watson (WLTW)¹⁰, Evrosiyo iqtisodiy komissiyasi (Евразийская

¹ Турсунов Ж.. (2023). ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ПЕНСИОННЫХ СИСТЕМ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН. *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*, 11(1), 62–69. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a7

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF - 60-sonli Farmoni.

³ The Global Competitiveness Report 2015-2016, World Economic Forum, 2015. P. 35 – 40.[Electronic resource] – Mode of access: http://www3.weforum.org/docs/gcr/2015-2016/Global_Competitiveness_Report_2015-2016.pdf

⁴ Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁵ OECD (2019), Pensions at a Glance 2019: OECD and G20 Indicators, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/b6d3dcfc-en>.

⁶ Old Age Income Support in the 21st Century: The World Bank's Perspective on Pension Systems and Reform

⁷ The Future of Saving: The Role of Pension System Design in an Aging World

⁸ United Nations, World Population Prospects. 2018 Revision


⁹ The Melbourne Mercer Global Pension Index. 2020 Report Highlights. www.mercer.com.au/globalpensionindex

¹⁰ Consultancy.org analysis, Willis Towers Watson, Thinking Ahead Institute

экономическая комиссия, (ЕЭК))¹, Pensiya va ijtimoiy fondlarning xalqaro assosiasiyasi (Международная ассоциация пенсионных и социальных фондов, (АПФ))² tomonidan doimiy ravishda pensiya sohasida tadqiqotlar olib boriladi.

Bilamizki, pensiya tizimida islohotlar o'tkazilishining sabablaridan biri bu pensiyalarni moliyalashtirish bo'lib ushbu muammoni hal qilish bo'yicha yuqorida sanab o'tilgan tashkilotlardan biri bo'lgan Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti 2022-yil uchun quyidagicha hisobot bergan:

Ўзбекистондаги эркин туристик ҳудудлар яратиш билан боғлиқ туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантириш бозори бозор иқтисодиёти ислохотлари ва хусусийлаштириш жараёнлари замида 90-йилларнинг биринчи ярмида шакллана бошлади. Шу пайтгача бозорнинг мазкур сегменти доирасида олиб бориладиган фаолият давлат томонидан қаттиқ назорат қилинар, давлат барча хизматларнинг асосий таъминотчиси эди. Мустақилликка эришилгандан кейин эркин туристик ҳудудлар яратиш билан боғлиқ туристик хизматлар бозорини инновацион узлуксиз ривожланиш жараёни кузатилмоқда. Ўзбекистонда амалга оширилган иқтисодий ислохотлар нафақат туризм соҳаси ривожланишининг жадаллашишига, балки мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятида алоҳида, муносиб ўрни бўлганлиги сабабли, олдин имкони бўлмаган янги туристик хизмат турларининг ҳам яратилишига замин ҳозирламоқда. Умуман олганда, Ўзбекистон туризм индустриясини ҳали ҳам шаклланиш жараёнини бошидан кечираётган индустрия – инфант индустрий – деб ҳисобаса мақсадга мувофиқ бўлади. Ҳозирги пайтга қадар Ўзбекистоннинг сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳаётида туризм хизмат бозорининг тутган ўрни тўла эътироф этилмаган. Бироқ, жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози шароитида Ўзбекистонда айнан ички туризм хизмат бозорига бўлган қизиқиш кучаймоқда. Бунинг маълум сабаблари мавжуд бўлиб, эҳтимол, айнан туризмнинг шу соҳаси кеажакда мамлакатимиз иқтисодиётининг тез суръатларда ўсишини таъминлай оладиган соҳа бўлиши мумкин.

Туристик хизматларнинг хусусиятларини тадқиқ қилишнинг янги инновацион имкониятларини излаш уларнинг жамиятга фойда келтириши кўламини белгилаш ва ташқи таъсири концепциясини қўллаш билан боғлиқ бўлади.

Ўзбекистонда яқин келажақда эркин туристик ҳудудларда туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантириш туристик хизматлар бозорининг шаклланиш ва ривожланишини таъминашга хизмат қиладиган қуйидаги замонавий тенденциялар аниқланди:

- туристлар ташриф буюрадиган дестинацияларнинг туристик (табиий, маданий ва тарихий) ресурслари ҳолатини ҳисобга оладиган туристик хизмат ва бозорлари фаолиятини ривожлантириш ҳамда янгиларини яратиш;

- туристик фаолиятни режалаштириш ва ривожлантиришга маҳаллий жамоатчилик ва ҳокимият органларини жалб қилиш ҳамда унинг хавфсизлигини таъминлаш;
- маҳаллий аҳоли фаровонлигининг ошиши, солиқ, божхона хизмати билан боғлиқ туризмнинг ривожланишига тўсқинлик қиладиган бошқа қийинчиликларни енгиб ўтиш;
- асосий эътиборни туризм соҳасидаги хизматлар нархини сайёҳлар учун маъқул ва туризм индустрияси учун фойда келтирадиган даражада сақлаб қолишга қаратиш;
- маблағларни инвестиция қилишда атроф-муҳит ҳимояси масалаларини (қурилиш, архитектура, антропоген ҳолатларни) ҳисобга олиш;
- туризм хизмат бозорида маркетингни амалга ошириш ва хизматларни юритиш учун катта миқдорда маблағлар ажратиш, муайян гуруҳларга кировчи туристларни излаш ва улар учун таклиф қилинаётган хизматларнинг мақсадли бўлишини таъминлаш;
- туризм хизматлар бозорида фаолият юритувчи ходимларнинг касбий малакасини ошириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони билан тасдиқланган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 14 августдаги туризм салоҳиятини кенгайтиришга доир ўтказилган лойиҳалар тақдимотидаги нутқи. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. <http://uza.uz/oz/society/b-stonli-tumanining-sayye-lar-manziliga-aylanishiga-ar-birim-29-08-2020>
3. Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенс Дж. Маркетинг. Гостеприимство и туризм. / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1998.

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna
QarMII “Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedراسи stajyor o‘qituvchisi
Maxmudov Akbarshoh
QarMII “Buxgalteriya hisobi va audit”
ta’lim yo‘nalishi talabasi

FERMER XO‘JALIGI KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINING TASHKILIY- USLUBIY TA‘MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Ma’lumki, qishloq xo‘jaligida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamma vaqt O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarda ham hisob- kitob ishlarini to‘g‘ri tashkil etish, xususan xo‘jalik boshqaruvi uchun muhim amaliy dastak hisoblanadigan- hisob siyosatini shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

Ushbu holatni hisobga olgan holda, fermer xo‘jalik korxonalarida hisob siyosatini shakllantirishning uslubiy, tashkiliy-texnik va soliqqa oid jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi monografik tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Hisob siyosati tushunchasi O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan meyoriy-huquqiy hujjatlar, olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlarida ham umumiy negizga asoslangan holda turlicha ta’riflangan. Hisob yuritish siyosati xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni belgilangan tartib-qoidalarga mos tarzda yuritish va tuzish uchun qo‘llaniladigan usullar majmui hisoblanadi. Bizningcha, uning “muqobil usullar ko‘zda tutilmagan yoki mutlaqo mavjud bo‘lmagan hollarda esa, professional mulohazaga asoslangan holda qonunchilikka zid bo‘lmagan usullarni ishlab chiqish” to‘g‘risidagi fikri munozarali va amaliyotdan yiroq. Chunki birinchidan, respublikada buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya hisobi milliy standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklatiladi, ya’ni uslubiy rahbarlik davlat boshqaruv organi tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda hisob yuritish va hisobot tuzish usullari rahbar yoki bosh buxgalter tomonidan ishlab chiqilishi hozirgi sharoitda haqiqatdan yiroq. Fikrimizcha, bunday qo‘shimcha usullar iqtisodiyot tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tarmoq vazirlik va idoralarining mutasaddi bo‘limlari tomonidan ishlab chiqilishi mumkin.

№1-«Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti(BHMS)ga muvofiq esa **hisob siyosati** fermer xo'jalik korxonalari rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash hamda tuzish uchun foydalaniladigan maxsus tamoyillar, qoidalar va amaliy yondashuvlar to'plami ekanligi bayon qilingan. Xususan, mazkur standartga muvofiq: fermer xo'jalik korxonalarining hisob siyosati subyekt tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzishda qo'llaniladigan o'ziga xos tamoyillar, konvensiyalar, qoida va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi.

Ko'rinib turibdiki, har ikki ta'rif ham tom ma'noda bir-biri bilan mutanosib tushadi. Ushbu ta'riflardan kelib chiqib hisob siyosatini fermer xo'jalik korxonalarining butun hisob jarayonini ifodalovchi keng ma'nodagi so'z sifatida tushunish kerakmi, yoki hisob siyosati bu "chetga chiqish" siyosatimi degan haqli savol tug'iladi.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha Nizomlar oxirida buxgalteriya hisobotlarining ochib berilishiga tegishli bo'lgan hisob siyosati to'g'risida axborotlar ro'yxati keltirilgan. Fermer xo'jalik korxonalarida hisob siyosati to'g'risidagi axborot tarkibiga, buxgalterlik hisobotini yoritishda eng kamida quyidagilar kiritiladi:

- tovar moddiy zahiralari turlari bo'yicha baholash usullari;
- tovar moddiy zahiralarni baholash usullari bo'yicha hisob siyosatida o'zgartirishlarning ahamiyati;
- garovga ko'yilgan tovar moddiy zahiralari qiymati;
- tovar moddiy zahiralarning haqiqiy tannarxi va bozor qiymati o'rtasidagi farq;
- kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar qiymatini olib o'tish usullari».

Ko'rinib turganidek, yuqoridagi ko'rsatkichlar variantlar bo'lib hisoblanmaydi, demak, fermer xo'jalik korxonalarining buxgalterlik hisobotiga hisob siyosati tarkibida ularni yoritishning turli maqsadliligi munozarali bo'lib qoladi.

Shu bilan bir vaqtda, ta'kidlash joizki, keltirilgan axborotlarning ochib berilishi borasidagi farmoyishlarning yangi tahriri deyarli o'zgarmagan.

Fermer xo'jalik korxonalarining buxgalterlik hisobotida moddiy qiymatliklar hisobini ochib berishda quyidagi axborotlar taqdim etiladi:

- tovar moddiy zahiralari turlari bo'yicha baholash usullari haqida;
- tovar moddiy zahiralari turlarini baholash usulidagi o'zgarishlar ta'siri haqida;
- garovga berilgan tovar moddiy zahiralari turlari qiymati to'g'risida;
- moddiy qiymatliklar bahosini kamaytirish natijasida zaxiralar hajmi va harakati to'g'risida».

Fermer xo'jalik korxonalarining BHQ «Asosiy vositalar hisobi» tarkiban o'zgartirilgan.

Fermer xo'jalik korxonalarining hisob siyosati to'g'risidagi buyruqlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular ko'pincha meyoriy hujjatlar ko'rsatmalari asosida tuzilgan. Bu ko'rsatmalar hech qanday variantlarni ko'zda tutmagan bo'lib, umumma'lum va barcha korxonalar uchun majburiy bo'lgan meyorlardan iborat.

Masalan, fermer xo'jalik korxonalarining hisob siyosati to'g'risidagi buyruqlarda buxgalteriya hisobi ikki yoklama yozuv asosida yuritilishi, yuk jo'natilgandan so'ng daromadning aks ettirilishi, asosiy vositalarga eskirish ular ishga tushgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan hisoblanishi to'g'risida farmoyishlar mavjud.

Fermer xo'jalik korxonalarining hisob jarayonining bunday tashkiliy tuzilmasi fermer xo'jaliklari uchun xarakterli bo'lgan. So'nggi yillarda u agrofimalarda ancha ko'p qo'llanila boshladi. Biroq yuqorida ta'kidlanganidek, hisobni kompyuterlashtirish joriy etilishi bilan, shuningdek ishlab chiqarishni boshqarishning bo'linma tuzilmasi joriy etilishi bilan hisob jarayonini tashkil etishning markazlashtirilgan tamoyiliga asoslangan turi tobora ko'p qo'llanilmoqda.

Fermer xo'jalik korxonalarining hisob jarayonining hisob ishlarini to'liq markazlashtirishga asoslangan tashkiliy tuzilmasida markaziy buxgalteriyada xizmat vazifalarni taqsimlash shunday tashkil etiladiki, bunda xodimlar ayrim muomalalar: hujjatlarni qabul qilish, hujjatlarni ishlash, hujjatlar ma'lumotini, hisob registrlariga yozish va hokazolar bo'yicha ixtisoslashadilar. Bunda har bir xodim bir necha xil o'zaro bog'liq schyotlar bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarishi mumkin.

Bizningcha, fermer xo'jalik korxonalarining buxgalteriya hisobini tashkil etishdan to yuritish va hisobot tuzish hamda taqdim etishga qadar barcha ishlarni mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda texnik ta'minlash - hisob siyosatining texnik ta'minoti deb atalgani maqsadga muvofiq.

Fermer xo'jalik korxonalarining hisob siyosatining texnik ta'minoti buxgalteriya hisobining uslubiy va tashkiliy jihatlarni zamon talablari darajasida amalga oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimidir.

Bunday tadbirlar tizimiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- fermer xo‘jalik korxonalari moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi namunaviy schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma asosida ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish;
- dastlabki hujjatlar va ularni rasmiylashtirish qoidalari (buxgalteriyaning har bir bo‘limi bo‘yicha, masalan, ish xaqi hisobi, materiallar hisobi va h.k.);
- sintetik va analitik hisob registrlarining korxonaga sharoitiga mos namunaviy shakllarini tanlash va (yoki) ishlab chiqish;
- zamonaviy EHM, axborot texnologiyalari, dastur ta‘minoti va shu kabilar negizida buxgalteriya hisobini kompyuterlashtirish;
- sintetik va analitik hisob obyektlari bo‘yicha tasniflagich (kodifikator)lar tuzish;
- biznesni boshqarishning zamon talablariga javob beradigan malakali buxgalterlar bilan ta‘minlash;
- hisob jarayonlarini optimallashtirishga doir tashkiliy-texnik va sanitariya-gigiyena tadbirlari;
- ichki nazorat tizimini tashkil etish;
- hisob xodimlari jamoasida ishlab chiqarish munosabatlari madaniyati va mehnat taqsimotini tashkil etish;
- hisobot tuzish va taqdim etishni tashkil etish .

Tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, fermer xo‘jalik korxonalarining buxgalteriya hisobi jurnal-order shakliga zamonaviy kompyuter axborot texnologiyalarini tadbiriq qilishni tavsiflovchi xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- buxgalterlarning kompyuterlashtirilgan ish joylarida (BKIJ) markazlashgan ishlov berish imkoniyati;
- kompyuter texnologiyalari qo‘llanilgunga qadar (qo‘lda ishlash sharoitida) buxgalteriyada qaror topgan texnologiyaga mos kelishi;
- buxgalteriya hisobi jurnal-order shakliga xos xususiyat –hisob registrlari orasidagi o‘zaro aloqadorlik va ularni nazorat qilish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikning saqlanib qolishi.

Adabiyotlar

1. Козлова Е.П., Бабченко Т.Н., Галанина Т.Н. Бухгалтерский учет в организациях. - М.: Финансы и статистика, 1999. с. 44.
2. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет. –М.: Инфра-М, 1997. с. 513..
3. А.А. Karimov., F.R. Islomov A.Z. Avloqulov. Buxgalteriya hisobi. –Т.: Sharq, 2004. -74 b.
4. Ibragimov A, Ochilov I, Qo‘ziyev I, Rizayev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. / O‘quv qo‘llanma.- Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. 4 b.
5. Umarova M., Eshboyev U., Axmadjonov K. Buxgalteriya hisobi. -Т.: «O‘ZAJBNT», 2004. 352 b.

Анвар Хушвақов
ҚарМШИ докторанти

КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, “Камбағалликни камайтириш – бу аҳолида тадбиркорлик руҳини уйғотиш, инсоннинг ички куч-қуввати ва салоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқариш, янги иш ўринларини яратиш бўйича комплекс иқтисодий ва ижтимоий сиёсатни амалга ошириш, демакдир”¹.

Қайд қилинганлардан келиб чиққан ҳолда, камбағалликни енгишда қуйидаги асосий қадамларни қўйиш керак деб ҳисоблаймиз, яъни: *биринчидан*, меҳнат бозорида иш жойларини яратиш. Бу иш жойларида ишлаётган одам етарли даражада даромад олиши керак, *иккинчидан*, соғлиқни сақлаш, касбга йўналтириш бўйича ижтимоий дастурларни ишлаб чиқиш, *учинчидан*, кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш ва юритиш. Бу борада натижа яхшиланса, иш жойлари яратилади, одамларда капитал кўпайиб, камбағалликни камайтириш имкониятига эга бўламиз.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2020 й. 25 январь.

Камбағалликни қисқартиришда кичик бизнеснинг мамлакатда бандлик муаммосини ҳал этиш, бозорнинг мўл-кўллигини таъминлаш ҳамда иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишдаги имкониятларини инобатга олиб, бу соҳанинг ривожланишига алоҳида эътибор берилмоқда. Ҳозирги пайтда ушбу соҳа нафақат иқтисодиётнинг ўсиш суръатларини жадаллаштиришда, ниҳоятда муҳим бўлган бандлик ва аҳоли даромадларини ошириш масалаларини ҳал этишда ҳам етакчи ўрин тутмоқда. Бунга кўп жиҳатдан ҳуқуқий базани мустаҳкамлаш, иқтисодиётнинг мазкур сектори учун барқарор қулайлик, имтиёз ва кредитлар тизимини шакллантириш масалаларига жиддий эътибор берилаётгани туфайли эришилмоқда. Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотларнинг ҳозирги босқичи камбағалликни қисқартиришда кичик бизнесни ривожлантириш, унга кенг иқтисодий эркинлик бериш билан характерланади.

Дунёда бирорта мамлакат йўқки, тадбиркорлик ривожланмасдан туриб, ривожланган давлатлар даражасига етган бўлса. Шу боис, бугунги кунда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш, тадбиркорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларга кенг имкониятлар яратиш масалалари давлат сиёсатининг энг устувор йўналишига айланди. Жумладан, тадбиркорлик субъектларида ўтказиладиган режали, режадан ташқари, муқобил, назорат тартибидаги текширишлар турлари бекор қилинди, тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқидан маҳрум этиш билан боғлиқ жиноий жазо чорасини қўллаш тақиқланди, уларнинг жавобгарлик масаласи либераллаштирилди ва уларнинг фаолиятига тўсқинлик қилувчи бир қатор омилларга чек қўйилди.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, камбағалликни қисқартиришда кичик бизнес ривожланишининг стратегик вазифалари сифатида: энг муҳим устувор йўналишлар ривожини рағбатлантириш; салоҳиятларга қулайликлар яратиш; тармоқ ва ҳудуд ривожини учун зарур, аммо рентабеллиги паст бўлган субъектларни қўллаб - қувватлаш; юқори фойда келтирадиган бўшлиқни эгаллашга ихтисослашув; йирик корхоналар билан кооперациялашув; истеъмолчилар талабига мослашув; мустақил тадбиркорлик муҳитини мустаҳкамлаш кабиларни кўришимиз мумкин.

Тадбиркорликни рағбатлантириш ва қўллаб-қувватлаш бўйича кўрилган мазкур чоралар унинг ривожланиш жараёнида, мамлакат ялпи ички маҳсулотига улушининг ортишида ва иқтисодиётнинг мазкур секторидаги бандлик даражасида ўз аксини топди.

Бизнинг фикримизча, бу эътибор камбағалликни қисқартиришда кичик кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг қуйидаги ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқади. Яъни:

- бозордаги талабга тез мослаша бориб, сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш қобилияти;
- нисбатан қисқа муддатларда аҳоли эҳтиёжи учун зарур бўлган товар ва хизматларга бўлган талабни қондира олиши;
- дастлабки сармоя хажмининг нисбатан кичикроқ ҳажмда эканлиги;
- тез орада янги ишчи ўринлари барпо этиш ҳамда бандлик муаммосини ҳал этишга кўмаклашиш имконияти;
- бизнес эгасининг (тадбиркорнинг) вазифаларини амалга оширишда бевосита иштироки.

Илмий кузатишларимиз кўрсатишича, кейинги йилларда мамлакатимизда камбағалликни қисқартиришда кичик кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш борасида бир қатор ишлар амалга оширилди:

- ✓ кичик тадбиркорлик субъектларининг қонуний ҳуқуқлари ва манфаатларини муҳофаза қилиш ҳамда тадбиркорлик эркинлигини кафолатлаш тизими шаклланди;
- ✓ тадбиркорларни Давлат рўйхатига олиш ва ҳисобга қўйишнинг енгиллаштирилган ва хабардор қилиш тартиби жорий этилди;
- ✓ биржа савдолари орқали тадбиркорларнинг моддий-техник ресурсларни эркин сотиб олишига қулай шарт-шароит яратилди;
- ✓ маҳсулот ишлаб чиқарувчи корхоналарнинг маҳсулотларини мажбурий стандартлаштириш ва сертификатлаш соддалаштирилди;
- ✓ солиқ юқини пасайтириш ва соддалаштириш чоралари кўрилди; статистика ва солиқ ҳисоботининг қисқартирилган шакли киритилди;
- ✓ кичик тадбиркорлик субъектларининг ташқи иқтисодий фаолияти эркинлаштирилди;
- ✓ иш бошловчи тадбиркорлар учун дастлабки сармояни шакллантириш ва бошқа шакллардаги янги молиявий қўллаб қувватлаш тизими жорий этилди ва бошқалар .

Бизнинг фикримизча, камбағалликни қисқартиришда кичик бизнесни ривожлантириш соҳасида мавжуд ушбу муаммоларни самарали ҳал этиш учун республика ҳукуматининг бу соҳани қўллаб - қувватлашга қаратилган стратегик дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш зарур.

Бундай концепциянинг асосида номутаносибликларни бартараф этишга, ҳудудларнинг иқтисодий салоҳиятидан самаралироқ фойдаланишга имкон берувчи тузилмавий ўзгаришлар ётмоғи лозим.

Камбағалликни қисқартиришда кичик бизнесни ривожлантириш концепциясида асосий эътибор биринчи навбатда иқтисодий салоҳиятга эга фаолият кўрсатаётган кичик бизнес субъектларини қўллаб - қувватлаш, тармоқ ва ҳудуд учун зарур, аммо паст рентабелли соҳаларнинг ривож учун қулай имкониятлар яратиш, республиканинг ижтимоий - иқтисодий сиёсати йўналишлари ва мақсадларига мос фаолият юритаётган хўжалик тузилмаларини рағбатлантириш, ҳудудий аҳамиятга эга маҳсулот ишлаб чиқарувчи кичик корхоналарга солиқ имтиёзлари белгилаш, лизинг хизмати ва инвестицион хатарларни суғурталаш тизимини кенгайтириш ва молиявий имкониятлари чегараланган кичик тадбиркорлик корхоналарининг банк кредитларидан фойдаланишига йўл очувчи шароитларни таъминлаш вазифаларига қаратилмоғи керак.

Камбағалликни қисқартиришда кичик бизнес соҳасида банд корхоналар кўпинча юқори технологияли ишлаб чиқаришни ташкил этишга уринишлари билан характерланади. Улар фаолияти стратегияси асосан куйидагилардан ташкил топади:

биринчидан, юқори технологияли ривожланаётган фирмалар рақобат кураши бўлишидан манфаатдор эмас. Шу сабабли улар бозордаги юқори фойда келтирадиган бўшликни эгаллашга ҳаракат қилиб, тор даражада ихтисослашган маҳсулот ишлаб чиқаришга интиладилар;

иккинчидан, корхоналардан бутловчи қисмларни сотиб олиш орқали ишлаб чиқариш харажатларини минималлаштиришга интиладилар;

учинчидан, кўпчилик ишлаб чиқариш жараёнини энгиллаштириш мақсадида ё битта турдаги маҳсулот ишлаб чиқаришга ёки бир турдаги технологияга ихтисослашадилар. Улар ана шу маҳсулот ёки технологияни истеъмолчиларнинг талабига мослашга ҳаракат қилишади. Йирик корхоналарга эса кенг истемолчиларнинг талабини қондиришга мос бўлган стандарт маҳсулотларни ишлаб чиқариш хос. Кичик корхоналарнинг йирик корхоналардан фарқи ва афзалликлари ҳам шундадир;

тўртинчидан, деярли барча кичик корхоналар мустақилликни сақлаб қолишга интилиб, ташқаридан маблағ жалб этмасликка ҳаракат қиладилар. Мутахассисларнинг фикрича, кичик фирмалар маҳсулот ишлаб чиқариш технологияси ривожланиб бориши билан мустақилликка ва ўзига хос бўлган ижтимоий-маданий муҳитни шакллантиришга ҳаракат қиладилар.

Давлат кўмаги тармоқли, географик, миллий, тарихий хусусиятлар ва анъаналар, шунингдек, хорижий тажрибани ҳисобга олган ҳолда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг рақобатбардошлигини ривожлантириш учун иқтисодий ва ҳуқуқий шароитлар, омиллар яратиш сифатида намоён бўлиши керак. Камбағалликни қисқартиришда кичик бизнес ва хусусий кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг энг муҳим вазифалари кичик корхоналарга тенг ҳуқуқларни таъминлаш, кичик ва йириккор қорхоналар ўртасидаги хўжалик имкониятлари бўйича фарқни имкон қадар камайтириш, Ўзбекистон хўжалигининг бозор тизимини шакллантиришнинг базавий жараёнларида кичик ва йирик кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг энг мақбул нисбатини таъминлашдан иборат.

Эргашева Насиба Раҳматуллаевна
ҚарМII “Бухгалтерия ҳисоби ва аудит”
кафедраси ўқитувчиси

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

Ўзбекистонда мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматлари ривожланмаганлигининг муҳим муаммоси маҳаллий амалиётга нисбатан аутсорсинг хизматларини амалга оширишнинг батафсил механизми, шу жумладан шартномани бажаришнинг барча босқичларида аутсорсингга бўлган эҳтиёжни баҳолаш ва шериклик муносабатларини тартибга солишнинг аниқ иқтисодий усулларининг йўқлиги ҳисобланади.

"Аутсорсинг" сўзи инглиз тилидан олинган бўлиб, шартнома асосида ташқи манбалардан ёки ресурслардан, корхона ва ташкилот фаолияти хизмат кўрсатиш функциясининг бир қисмини бошқа бажарувчи корхона ёки кампаниясига бериш, яъни аутсорсинг хизматини кўрсатувчи корхона ва компаниялар хизматидан фойдаланиш мақсадга мувофиқлигини кўрсатади.

Аутсорсинг - бу харажатларни минималлаштириш, сифатни таъминлаш (яхшилаш) ва белгиланган муддатларга риоя қилиш мақсадида юқори ихтисослашган компаниялар ёки алоҳида

мутахассисларни жалб қилиш орқали мижознинг асосий бўлмаган функцияларини бажаришни ўз ичига олган хизмат туридир.

Бундай мураккаб ҳолатда мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматидан фойдаланиш яхши натижа беради. Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматидан шартнома асосида ташқи манбалардан ёки ресурслардан, корхона ва ташкилот фаолияти хизмат кўрсатиш функциясининг бир қисмини бошқа бажарувчи корхонага бериш, яъни аутсорсинг хизматини кўрсатувчи корхона ва ташкилотлар хизматидан фойдаланиш мақсадга мувофиқлигини кўрсатади.

Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг - бу харажатларни минималлаштириш, сифатни таъминлаш (яхшилаш) ва белгиланган муддатларга риоя қилиш мақсадида юқори ихтисослашган ташкилотлар ёки алоҳида мутахассисларни жалб қилиш орқали мактабгача таълим ташкилотининг асосий бўлмаган функцияларини бажаришни ўз ичига олган хизмат туридир.

Мактабгача таълим ташкилотларининг бухгалтерия ҳисобида ҳар қандай пухта ўйланмаган ҳаракат, ишга малакасиз ёндашув, ҳисоб-китоблар ноаниқлиги, ҳатто кичик хато ва камчиликлар ҳам катта жарималарга олиб келиши мумкин. Шунинг учун юқори малакали ва ўз соҳасининг устаси бўлган тажрибали бухгалтерларга талаб кун сайин ошиб бормоқда. Мактабгача таълим ташкилотларининг бюджетга тўланадиган солиқларни ҳисоблашда аутсорсинг хизматидан самарали фойдаланиш аҳамияти юқоридир.

Мактабгача таълим ташкилотлар штатида юқоридаги талабларга жавоб берадиган, ўз навбатида, юқори маош талаб қиладиган бухгалтерлар ёллаш имкони бор. Бироқ янги ташкил топган, мактабгача таълим ташкилотлари бундай катта харажатларга тайёр эмас. Айрим мактабгача таълим ташкилотлар раҳбарлари ёлланма бухгалтерларнинг ҳеч қандай ҳужжатсиз, оғзаки келишув асосида хизмат кўрсатишини истайдилар, аммо бундай ҳолат кўплаб муаммоларни келтириб чиқаради. Шунинг учун ҳам мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг бухгалтерияга эҳтиёж мавжуд бўлиб, ушбу бухгалтериянинг асосий хусусияти – масофадан туриб малакали соҳа мутахассислари томонидан олиб борилишидир. Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг бухгалтерия ёлланма бухгалтериядан фарқли равишда, бухгалтерияни қисман ёки вақтинчалик топшириш эмас, узоқ муддатга шартнома асосида ҳамкорлик қилишни кўзда тутаяди. Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг бухгалтерия хизматини кўрсатувчилар аутсорсерлар ҳисобланади.

Ҳозирги вақтда штатдаги ходимларни таъминлашдан кўра аутсорсинг хизматларидан ва айниқса, аутсорсинг бухгалтерия хизматларидан кенг фойдаланилмоқда. Масалан, ушбу хизматдан фойдаланувчилар Беларусда - 30%, Европада - 86%, АҚШда - 92% бўлса, энг юқори кўрсаткич – Исроилда 96% ни ташкил этмоқда.

Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг ташкилот ва компанияларида қисман ёки тўлиқ мавжуд бўлмаган тажриба ва кўникмаларни жалб қилиш усули сифатида тобора кўпроқ қаралмоқда. Унинг аҳамияти ортиб бормоқда ва жаҳон бизнес ҳамжамиятининг онгида мустаҳкам ўрин олган. Аммо шуни таъкидлаш керакки, мактабгача таълим ташкилотларида пайдо бўладиган муаммонинг ягона ечими сифатида аутсорсингдан фойдаланиш етарли эмас, чунки якуний натижага таъсир қиладиган ташқи омиллар пайдо бўлиши мумкин. Бундан ташқари, аутсорсингдан фойдаланишнинг ўзи бир қатор ноаниқликларни, эҳтимол таҳдидларни келтириб чиқариши мумкин.

Ўзбекистон иқтисодиётида мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматлари яқин йилларда пайдо бўлди. Бу аутсорсинг шартномаларини фаол равишда тузишни бошлаган маҳаллий ташкилот ва компаниялар учун янги хизмат кўрсатиш соҳаси. Фикримизча, бундай хизматларнинг маҳаллий амалиётда тарқалишини чекловчи омиллардан бири – улардан фойдаланишнинг ишлаб чиқилган тўғри механизмнинг йўқлиги ҳисобланади.

Шу муносабат билан биз ушбу мактабгача таълим ташкилотлари раҳбарларининг хато ва камчиликларга йўл қўймасликлари учун аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш механизмнинг энг муҳим нуқталарини аниқлашни зарур деб ҳисоблаймиз. Бунда Ўзбекистон ташкилот ва компанияларга ушбу хизмат туридан амалда фойдаланиш имконини берувчи манتيқий ўзига хос харажатлар тизими сифатида кўриб чиқишни таклиф қилмоқчимиз.

Бизнинг фикримизча, юқоридаги мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш механизмида, замонавий шароитда энг муаммоли уч нуқтани асос қилиб олишимиз зарур:

- аутсорсингдаги рисклар ва уларни баҳолаш;
- аутсорсинг хизматлари самарадорлигини;

➤ аутсорсинг сифатини ўлчаш ёндашувларини.

Ўзбекистон иқтисодиётида мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг хизматларидан фойдаланиш механизми аутсорсинг компанияларини танлаш, шартномаларни ишлаб чиқиш, уларни амалга ошириш ва манфаатдор шериклар ўртасидаги муносабатларни тиклаш учун мантикий ҳаракатлар тизими сифатида қурилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Федорова Е.А., Ермолов А.В. Анализ современных тенденций в аутсорсинге бухгалтерского учета // Финансовая аналитика: проблемы и решения. - 2016 . - № 27 - С. 4-14.

2. Пардаев М.Қ. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.—Т.: «Иқтисод—молия». 2008. — 260 б.

3. Урозов Б.К. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг долзарб масалалари. — Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2011. — 260 б.

Axmadjonov Asliddin Akmaljon o‘g‘li
“Ishlab chiqarishda boshqaruv” fakulteti talabasi
Ilmiy raxbar: Muminova Elnoraxon Abdulkarimovna
Professor “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri
Farg‘ona politexnika instituti

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA REAL SEKTORDA RAQAMLASHTIRISHNI JORIY ETISH MASALALARI

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni modernizatsiyalash hamda zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni barpo etish maqsadida qator chora tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda [1].

Bugungi kun amaliyoti yuzasidan bajarilgan tahlillar kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha vazifalarning samarali bajarilishiga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga g‘ov bo‘layotgan muammolarni vaqtida aniqlash va bartaraf etish lozimligini talab etmoqda.

Bu muammolardan biri raqamli iqtisodiyotga o‘tishda iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash masalasidir.

Jumladan bunda davlat ahamiyatiga molik yirik moliyaviy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini sifatli tashkil etish, muvofiqlashtirish, monitoring hamda nazorat qilishni ta‘minlovchi loyiha boshqaruvining yagona tizimi mavjud emasligi, mazkur loyihalarni amalga oshirish sur‘ati va samaradorligini tezkor kuzatish imkonini beruvchi ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqaruv jarayoniga yetarlicha joriy etilmaganligi hamda davlat va hududiy dasturlarni, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda shaffoflik darajasining pastligi bu borada moliyaviy mablag‘lar maqsadsiz va samarasiz sarflanishi, turli xil suiiste‘molchilikni keltirib chiqarayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz [2].

Shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni shaffofligini ta‘minlovchi davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi subektlar, davlat korxonalari va tashkilotlarining ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan yagona axborot platformasining mavjud emasligi bugungi kunda iqtisodiyotga blokcheyn texnologiyalarini tadbiq etishni bosh masala sifatida qo‘ymoqda [3].

Moslashtirilgan intellektual tizim LPWan va Narsalar Interneti texnologiyasini amalga oshiradi va WI-FI, GSM aloqa kanallari orqali har qanday qurilmadan (planshet, smartfon, noutbuk), statsionar kompyuterlardan foydalangan holda boshqariladi va dispatcherlik tizimini tashkil qiladi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiyot, davlat boshqaruvi tizimini yanada tarkibiy o‘zgartirish, shuningdek, davlat, biznes va aholi o‘rtasida raqamli texnologiyalarga asoslangan o‘zaro hamkorlikning yangi modellarini yaratish masalalari bilan chambarchas bog‘liqdir[3].

«Elektron hukumat» tizimining infratuzilmasini, O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va davlat xizmatlari ko‘rsatilganligi uchun to‘langan davlat bojlari va yig‘imlar summasi hisobini yurituvchi Yagona billing tizimini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida yanada rivojlantirishni ta‘minlash kabilar belgilandi[2].

Jamg‘arma raqamli iqtisodiyot va blokcheyn sohasidagi loyihalarni rivojlantirish va amalga oshirish uchun investitsiyalarni jamlaydi, blokcheyn sohasidagi kadrlar va startaplarni tayyorlash bo‘yicha ta‘lim tadbirlarini qo‘llab-quvvatlaydi hamda kripto-aktivlar va blokcheyn sohasidagi chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etishga ko‘maklashadi.

Jamg'arma blokcheyn, kripto-aktivlar, raqamli iqtisodiyot sohasidagi kompaniyalarning ustav kapitalidagi aksiya va hissalarini xarid qilish, startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun grant va kreditlar ajratish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi tadbirlarni amalga oshirishi belgilandi.



1-rasm. Iqtisodiyotni raqamlashtirishning asosiy tamoyillari va moddiy ta'minot resurslari¹

1-rasmida iqtisodiyotni raqamlashtirishning asosiy tamoyillari va moddiy ta'minot resurslari keltirilgan bo'lib, bular orasida inson kapitali, yangi biznes modellarning yaratilishi, turli darajadagi texnologik qurollanish kabi resurslar ahamiyati muhim hisoblanadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida blokcheyn texnologiyasidan foydalanish muhim bosqich bo'lib hisoblanadi.

Albatta raqamlashtirish jarayonida blokcheyn texnologiyalarini joriy etish davomida qator muammoli vaziyatlar yuzaga kelishi ham kuzatilishi mumkin[9].

Ammo mazkur texnologiyaning joriy etilishi qator davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari jumladan ta'lim, meditsina, moliyaviy xizmat turlariga bo'lgan xarajatlar hajmini sezilarli ravishda pasaytirishga, ular sifatini oshirishga, umumiy qamrov darajasini keskin oshirishga olib kelishi mumkin.

Jahon amaliyotiga nazar soladigan bo'lsak aynan bu texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etilishi uning raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish bilan bir qatorda, yangi biznes modellarini yaratilishiga, texnologik- revolyusion jarayonlarni tezlashtirishga, turli soha va tarmoqlarning transformatsiyalash jarayonining tezlashishiga, ishlab chiqarish samaradorligining oshirilishiga, qo'shimcha qiymatni yaratilish jarayonining optimallashtirishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). *Understanding the Digital Economy*. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA.

2. S.S. Gulyamov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.R. Baltabaeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019 y.

3. Bekmurodov T.F. Issledovaniya po kompyuternoy tekhnike i informatike v Uzbekistane: istoriya i perspektivy. Sb. nauchnykh trudov NPO "Kibernetika" AN Ruz - Tashkent, 2004. -s.78-84

¹ Muallif ishlanmasi.

Boboev Akmal Choriyevich
boboev-akmal@bk.ru
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,
“Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.
Saidova Muxabbat Zarifjanovna
msaidova1970@mail.ru
Buxoro Davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi
Yusupov Yusuf Xamza o'g'li
mr.yusufjan1999@mail.ru
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH VA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TURIZM SOHASINING AHAMIYATI.

Turizm sohasi ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunga kelib bu soha jahon iqtisodiyotida muhim o'rin tutib kelmoqda. Dunyo bo'ylab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda millionlab yaratilayotgan va yaratilgan ish o'rinlari va korxonalarining istiqboli faol rivojlanish bosqichida bo'lgan turizm sohasi istiqboli bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Turizm sohasi, nafaqat iqtisodiy nuqtai nazardan alohida ahamiyatga ega, balki, bu soha mamlakatdagi tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish, ularni kelajak avlod bahramand bo'lishi uchun saqlab qolishda yillar davomida harakatlantiruvchi kuch bo'lib kelgan.

Jadval 1¹

2019 va 2021 yillarda sayohat va turizmning YaIMdagi ulushi

	2019	YaIM dagi ulushi (%)	2021	YaIM dagi ulushi (%)
1.	Makau (Xitoy)	85.1	Antigua va Barbuda	61.0
2.	Antigua va Barbuda	83.3	Aruba	59.6
3.	Aruba	67.9	Sent-Lusiya	48.6
4.	Sent-Lusiya	59.8	Makau (Xitoy)	47.2
5.	Maldiv orollari	53.5	Maldiv orollari	44.6
6.	Anguilla	48.7	Bagama orolla	28.1
7.	Britaniya Virgin Orollari	44.4	Seyshel orollari	27.0
8.	Sent-Kitts va Nevis	43.6	Chernogoriya	25.5
9.	Grenada	43.6	AQSh Virjiniya orollari	25.3
10.	Bagama orollari	42.5	Beliz	23.4
11.	Seyshel orollari	42.3	Anguilla	21.0
12.	Sent-Vinsent va Grenadinlar	40.5	Yamayka	18.6
13.	Cape Verde	37.8	Boshqa Okeaniya	18.1
14.	Beliz	37.6	Albaniya	17.4
15.	Vanuatu	32.7	Xorvatiya	16.1
16.	Fiji	31.3	Gretsiya	14.9
17.	Chernogoriya	30.8	Barbados	14.4
18.	Barbados	29.5	Grenada	14.2
19.	Yamayka	29.1	Islandiya	13.6
20.	AQSh Virjiniya orollari	28.7	Sent-Vinsent va Grenadinlar	13.5

1-jadvalda YaIM asosan sayohat va turizm sohasiga bog'liq bo'lgan yetakchi 20 ta davlatning statistik ma'lumotlari keltirilgan. Bu raqamlar quyida qayd etilgan mamlakatlar YaIMdagi turizm sektorining ulushini ko'rsatadi. Unda 2019 va 2021 yillardagi statistik ma'lumotlar taqqoslanadi. Dunyoda iqtisodiyoti, iqtisodiy o'sishi va YaIMnig asosiy qismi faqatgina turizm sohasigagina bog'lanib qolgan mamlakatlar mavjudligi quyidagi statistik ma'lumotda aks ettirilgan va bu maqola mualliflarining

¹ <https://wtcc.org/Portals/0/Documents/Reports/2022/EIR2022-Global%20Trends.pdf>

ilgari surayotgan fikrlarini ham tasdiqlaydi. Turizmni rivojlantirish mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga bevosita ta'sir qilish bilan bir vaqtda, yangi ish o'rinlari yaratib, qo'shimcha daromad keltiradi va madaniy merosni saqlashga yordam beradi.

Turizm sohasi ish o'rinlarini yaratish va daromadni oshirish bilan birga, mamlakatlardagi infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash uchun foydalanish mumkin bo'lgan valyuta tushumini ham ko'paytirishga sabab bo'ladi.

2-jadvaldagi raqamlar turizm sohasida 2019 va 2021 yillar oralig'ida rivojlangan va rivojlanayotgan quyidagi 20 mamlakatda ish o'rinlari yaratilganligini ko'rsatadi.

Jadval 2¹

2019 va 2021 yillarda sayohat va turizm sohasidagi ish bilan bandlik

	2019	(Ming)	2021	(Ming)
1	Xitoy	82,240	Xitoy	73,314
2	Hindiston	40,104	Hindiston	32,105
3	Qo'shma Shtatlar	16,804	Indoneziya	10,947
4	Indoneziya	12,376	Qo'shma Shtatlar	10,498
5	Filippin	9,505	Filippin	7,820
6	Tailand	8,192	Tailand	6,865
7	Braziliya	7,670	Braziliya	6,404
8	Meksika	7,026	Meksika	6,026
9	Germaniya	5,876	Yaponiya	5,503
10	Yaponiya	5,798	Germaniya	5,099
11	Vetnam	4,903	Birlashgan Qirollik	4,108
12	Birlashgan Qirollik	4,282	Vetnam	3,899
13	Rossiya	4,025	Rossiya	3,768
14	Pokiston	3,888	Pokiston	3,339
15	Nigeriya	3,355	Italiya	2,641
16	Italiya	2,851	Frantsiya	2,599
17	Ispaniya	2,843	Ispaniya	2,508
18	Frantsiya	2,681	Nigeriya	2,433
19	Turkiya	2,592	Turkiya	2,424
20	Misr	2,421	Misr	2,162

Sayohat va turizmning jahondagi iqtisodiy ta'siri haqida gap ketganda, Jahon Sayohat va Turizm Kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, 2019 va 2020 yillarda sayohat va turizmning jahon YaIMdagi ulushi mos ravishda 10,3% va 5,3% ga to'g'ri kelgan.

Yuqorida qayd etilgan statistik ma'lumotlarni hisobga oladigan bo'lsak, bu ko'rsatkichlar turizm sohasining oxirgi yillar davomida iqtisodiyotdagi o'rni naqadar ajralmas bo'lganligini va istiqbolda ham ushbu tendensiyani saqlab qolishining yaqqol isbotidir.

COVID-19gacha dunyo bo'ylab sayohat va turizm sohasida yaratilgan bo'sh ish o'rinlari 2019-yilda 333 mln.ish o'rni (jahonda bandlikning 1/10 qismi yoki butun dunyo bo'ylab yaratilgan har 10 ta bo'sh ish o'rining 1 tasiga teng) ni tashkil qildi.

Bu ko'rsatkich mos ravishda 2020 va 2021 yillarda 271 mln. (jahonda bandlikning 1/12 qismi yoki butun dunyo bo'ylab yaratilgan har 12 ta bo'sh ish o'rining 1 tasiga teng) va 289 mln. (jahonda bandlikning 1/11 qismi yoki butun dunyo bo'ylab yaratilgan har 11 ta bo'sh ish o'rining 1 tasiga teng)ni tashkil qildi.

2014-2019 yillar davomida barcha global yangi ish o'rinlarining 1/4 qismi sayohat va turizm tomonidan yaratilgan.

COVID-19 pandemiyasi jahon mamlakatlarining deyarli barcha faoliyat sohalarida tub burilishlar sababchisiga aylandi hamda ushbu pandemiyaning ta'siri jahon turizm sohasini ham chetlab o'tmadi.


3-jadvalda 2000-2021 yillar oralig'ida turizm sohasining jahon iqtisodiyotidagi ta'siri ko'rsatilgan.

¹ <https://wtcc.org/Portals/0/Documents/Reports/2022/EIR2022-Global%20Trends.pdf>

Ko'rinib turibdiki, COVID-19 pandemiyasi boshqa sohalar qatori sayohat va turizm sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. 3-jadvaldagi rivojlanish tendentsiyasini hisobga olgan holda, shuni aytish mumkinki, pandemiyaning ta'siri bo'lmaganida, sayohat va turizm sohasidagi bandlik ko'rsatkichi, YaIM o'sishi ko'rsatkichlari keyingi yillarda ham o'zining barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolgan bo'lar edi.

Jadval 3¹

Turizm sohasining iqtisodiy ta'sir xronologiyasi, 2000 – 2021 yy.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turizm sohasi dunyodagi eng yirik va dinamik iqtisodiy tarmoqlardan biriga aylandi. Shuningdek, u butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar uchun asosiy ish va daromad manbai bo'lib ulgurgan.

So'nggi yillarda soha pandemiya tufayli jiddiy inqirozlarga duch kelmoqda. Pandemiyaning butun dunyoga ta'sirini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, turizm iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi va aholi turmush darajasini oshirishda davom etishini ta'minlash uchun ushbu sohada rivojlanishning yangi yo'nalishlarini aniqlash va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tegishli soha mutaxassislari uchun "boshqotirma" va dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupov Y.Kh., Boboev A.Ch. The importance of the tourism sector in developing the economy of a country and improving the living standards of the population. Web of scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 2, Feb., 2023. pp.788–792. Open Access Repository, [online] <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BMSWG>.
2. Бобоев, А. Ч. (2022). Бухорода туризмнинг ўзига хос хусусиятлари. *Principal issues of scientific research and modern education*, 1(9).
3. Saidova M.Z., Yusupov Y.Kh. The role of improving household income and living standards in economic growth of a country. *Ilmiy tadqiqot va innovatsiya*. ISSN: 2181-3507 Volume-1, Issue-2,2022. P.126-132.
4. M.Z. Saidova., Yu.X. Yusupov. Improving household incomes is the requirement of the period. *Международный журнал - “Экономика и предпринимательство”*. Москва, 2019. № 5 С. 1193-1196. <https://www.elibrary.ru/contents.asp?id=39237760>
5. M.Z. Saidova., Yu.X.Yusupov. Enhancement of the theoretical-methodological basis of improving household incomes. International scientific conferences ConferencII – “Socio-economic prospects” - Collection of scientific articles. Dingo publishing. Melbourne, Australia, 2019. P. 19-21.

¹ <https://wtcc.org/Portals/0/Documents/Reports/2022/EIR2022-Global%20Trends.pdf>

Назирова Камолхон
“Ishlab chiqarishda boshqaruv”
fakulteti talabasi
Usmanov A.A.
Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti
Farg‘ona politexnika instituti

MEVA-SABZAVOTLARNI SAQLASHDA VA QAYTA ISHLASHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Ayni paytda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash masalalari ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda. Ma'lumki, O‘zbekistonning bu boradagi salohiyati juda keng va rang-barangdir. Bu soha mutaxassislarining fikricha, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari ichki bozorimizni ana shu mahsulotlar bilan to‘ldirishi, qo‘shimcha ravishda mazkur mahsulotlarning ma'lum bir qismini eksport qilish imkoniyati ham bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilmoqda.

Bu yo‘nalishda esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsiyalardan foydalanishga e‘tibor qaratish lozim. Bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga tegishli.

Qayd etish joizki, Innovatsion rivojlanish vazirligi ushbu yo‘nalishda 2021-2022 yillarga mo‘ljallangan ustuvor vazifalarni belgilab bergan. Ular orasida rekombinant va DNK vaktsinalari, sug‘orish texnologiyalari, yo‘l-transport infratuzilmasi va ta‘lim sohasida “aqli” texnologiyalarni ishlab chiqish bor.

O‘zbekiston respublikasi Prezidenti 2021-yil 1-apreldagi “Ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi.

Unda Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021-2022 yillarga mo‘ljallangan faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilandi:

- tuproq unumdorligini oshirish sohasida - hududlarda ko‘chma laboratoriyalar tarmog‘ini yaratish asosida qishloq xo‘jaligi ekinlarining agrokimyoviy xaritalarini ishlab chiqishda tuproq resurslari, resurs tejovchi sug‘orish texnologiyalari va o‘g‘itlashning agrotexnologiyalarini kompleks monitoring qilish tizimini yaratish. tuproqdagi mavjud foydali va zararli moddalarni aniqlash;

O‘zbekistonning meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha asosiy savdo hamkorlari Rossiya, Qozog‘iston, Afg‘oniston, Eron, Xitoy, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Ozarbayjon, Hindiston, Iroq va boshqalar hisoblanadi.

Eslatib o‘tamiz, 2016-yilda tashkil etilgan “O‘zagroeksport” ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasi tashqi bozorga ho‘l meva-sabzavot yetkazib berishda monopoliyaga ega emas. Bu Prezident Shavkat Mirziyoyevning 21-iyundagi “Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida nazarda tutilgan.

2017-yil 1-iyuldan boshlab barcha tadbirkorlik sub‘yektlariga ho‘l meva-sabzavot, uzum va poliz mahsulotlarini 100 foiz oldindan to‘lov asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida eksportga jo‘natish huquqi berildi. [3]

O‘zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog‘i mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim segment hisoblanadi. Shu bois bu sohada meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish bo‘yicha barcha turdagi chora-tadbirlar ko‘rilayotgani o‘z samarasini bermoqda. Shunday qilib, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi 1 485,0 ming tonnani tashkil etdi va qiymat ifodasida 1 008,6 million AQSH dollaridan oshdi (2019 yilning shu davriga nisbatan pasayish sur‘ati mos ravishda 16,5 foizni tashkil etdi).

Buning asosida 400,0 million AQSH dollari miqdorida 768,3 ming tonna sabzavot, shuningdek, 353,9 million AQSH dollari miqdorida 402,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymat ko‘rsatkichida pasayish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 2019 yilning shu davrida mos ravishda 15,1% va 13,0% ni tashkil etdi. Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Pokistondir.

Bundan tashqari, o‘tgan davr mobaynida Italiya (o‘rik yadrosi), Chexiya (quritilgan o‘rik, yeryong‘oq), Malayziya (mosh) kabi mamlakatlar uchun qo‘shimcha sotish bozorlarining rivojlanishi hisobiga meva-sabzavot mahsulotlarini yetkazib berish geografiyasi kengaydi. , Vetnam (mung), Singapur (gilos va o‘rik yangi) va Livan (yong‘oq).

Ta‘kidlash joizki, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi respublika umumiy eksportining 9 foizdan ortig‘ini va kichik va xususiy tadbirkorlik sub‘yektlarining umumiy eksportining qariyb 50 foizini tashkil

etadi, bu esa meva-sabzavot mahsulotlarining muhim ahamiyatidan dalolat beradi. sektori nafaqat agrar sektorda, balki butun mamlakat iqtisodiyotida ham.

Geografik joylashuvi va iqlim sharoitini hisobga olgan holda meva-sabzavot mahsulotlari asosan respublikaning Samarqand (meva-sabzavot yetishtirish umumiy hajmining 16,8 foizi), Toshkent (15,5 foizi), Andijon (12,9 foizi), Farg'ona kabi viloyatlarida ishlab chiqariladi. (8,7%), Surxondaryo (8,1%), Namangan (7,1%) va Buxoro (6,8%) viloyatlari.

Maqolamizda ushbu sohadagi innovatsiyalardan foydalangan holda mamlakatimizda quritilgan mevalarni eksport qilish masalalariga e'tibor qaratmoqchimiz. Ma'lumki, Markaziy Osiyoning issiq iqlimi mevalarda shakarning ko'payishiga olib keladi, shu bilan birga ularning ta'mini yaxshilaydi. O'zbekistonda quritilgan meva yetishtirishning asosiy xususiyati tabiiy quritish bo'lib, u ko'pchilik vitaminlar va mikroelementlarni saqlab qolish imkonini beradi, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati, tashqi ko'rinishi va ta'miga ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida mahsulotlarimizni import qiluvchilarning qiziqishini oshirmoqda.

Kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, qiymat jihatidan asosiy eksport hajmi yangi gilos (14,4 foiz), quritilgan uzum (12,8 foiz), yangi o'rik (7,63 foiz), yangi uzum (7,57 foiz), mung (6,91 foiz) kabi mahsulotlarga to'g'ri keladi. (%), yangi pomidor (6,86%), loviya (6,51%), yangi o'tlar (5,65%), yangi shaftoli (nektarin) (4,11%) va yangi xurmo (3,96%) Shuni ta'kidlash kerakki, umuman olganda, yirik- eksport hajmini oshirishga qaratilgan keng ko'lami ishlar joriy yilda ham davom ettiriladi.

Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani inobatga olinib, ularning amalga oshirilishi ho'l va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari eksportini yanada oshirishni ta'minlaydi. Aytish mumkinki, bu yo'nalishda mahsulot eksporti geografiyasi kengaymoqda. Birinchi marta konservalangan kaperlar Ispaniya va Italiyaga, Livanga yong'oq, Vetnamga quritilgan uzum, Belgiyaga quritilgan sabzavotlar, Shveysariyaga yangi uzum va poliz ekinlari, Gollandiyaga quritilgan o'rik, Isroilga quritilgan uzum, Chexiyaga uzum yetkazib berildi. va quritilgan mevalar.

Endi bu mamlakatlar yangi va quritilgan meva, sabzavot va dukkaklilar bilan ta'minlanadi. Ushbu ko'rgazma doirasida Xitoyning "Honkong Line Trading CO LTD", Qozog'istonning "Metro Cash & Carry" MChJ, Belarusning "Evrotorg" MChJ, Rossiyaning "Chelni-Xleb" AJ, "SPAR Tula" MChJ, "Mongoliya Happy Fruits" va boshqalar vakillari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirlar natijasida 74 million dollarlik yangi va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha eksport shartnomalari imzolandi. [1] Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston jahon eksportining umumiy hajmi bo'yicha eng yirik eksport qiluvchi davlatlar ro'yxatida 48-o'rinni egallaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashni istardimki, O'zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish salohiyati ancha keng va uni aholi farovonligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda har tomonlama rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юсупов М. Ўзбекистонда мева-сабзавот маҳсулотлари етиштириш ва экспорт қилишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш йўналишлари //Архив научных исследований. – 2020. – №. 16.
2. Исроилова Х. ЎЗБЕКИСТОНДА МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 132-141.

Курпаяниди К.И.
профессор кафедры «Экономика»
Ферганский политехнический институт
E-mail: antinari@gmail.com

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Трансформация национальной экономики Узбекистана происходит в условиях непрерывных институциональных преобразований, которые необходимы для создания организационно-правового поля, структурирования и упорядочивания взаимодействия

экономических агентов реального и финансового секторов¹. Однако, в силу сложности и многообразия факторов, воздействующих на процессы институциональных преобразований и их результаты, внедрение новых институтов нередко сопровождается негативными эффектами, вызывает кризисные ситуации в секторах и подсистемах национальной экономики². Высокая активность институциональных реформ, проводимых в Узбекистане, является самостоятельным источником рисков, и наблюдается явный недостаток теоретических исследований по оценке влияния институциональных изменений на национальную и региональную экономику, которые имеют высокую степень социально-экономической дифференциации. Проблема институциональных рисков в Узбекистане представляет собой действительную угрозу для его экономического развития. Статистические данные свидетельствуют о том, что реальный сектор регионов Узбекистана аккумулирует негативные институциональные импульсы, которые в конечном итоге вызывают дестабилизацию экономических подсистем регионов и страны в целом³. Высокая значимость проблемы и ее недостаточная теоретическая и методическая разработанность определяют актуальность выбранной темы исследования. Принимаемые институциональные решения на государственном уровне реализуются в условиях действия факторов, сочетание которых на уровне регионов обуславливает неопределённость результатов проводимых преобразований. К таким факторам относятся недостатки механизма изменения институтов (импорт институтов неадекватных для национальной экономики; отсутствие программы институционального строительства; неполнота, не сопряжённость и другие), а также пространственная неоднородность экономики страны (дифференциация доходов населения; отличия в ментальных и поведенческих характеристиках бизнеса и домохозяйств; и т.д.). Вне зависимости от сферы изменения институтов (банковская, налогово-бюджетная или реальный сектор), решения государственного уровня влияют на социально-экономические параметры регионов.

Тем не менее, справедливо отметить, что институциональные риски являются неизбежным фактором в период проведения экономических реформ и модернизации национальной экономики⁴. Поэтому в условиях социально-экономической неоднородности регионов и неэквивалентности их реакции на институциональные преобразования, необходима дифференцированная региональная политика, направленная на ограничение негативных последствий внедрения новых институтов.

В методическом плане назрела потребность создания системы индикаторов, позволяющих дать количественную оценку последствиям институциональных решений, принимаемых на макроуровне. Такая система индикаторов может выступать инструментом, позволяющим государственным органам оценивать эффективность институциональных решений на региональном уровне и принимать решения об оптимизации проводимых реформ. Кроме того, важно отметить, что институциональные риски в Узбекистане могут быть связаны как с внутренними, так и с внешними факторами. К внутренним факторам можно отнести, например, отсутствие достаточно развитой институциональной инфраструктуры, низкую степень доверия населения к органам власти, повышенный уровень коррупции и прочие факторы, которые препятствуют внедрению эффективных институтов. К внешним факторам можно отнести, например, изменения мирового экономического положения, глобальную конкурентную среду, внешние политические и экономические факторы, которые могут оказать непосредственное влияние на национальную экономику Узбекистана. Для снижения институциональных рисков необходима разработка и реализация комплексных мер, включающих не только экономические, но и политические и социальные аспекты. Среди таких мер можно выделить создание стабильной экономической и политической среды, повышение уровня прозрачности и открытости государственных институтов, увеличение роли общественности в процессах принятия решений, развитие инфраструктуры и т.д.

Таким образом, институциональные риски являются серьезной угрозой для экономического развития Узбекистана в условиях проводимых реформ. Для снижения этих рисков необходимо проведение комплексных мер, направленных на улучшение экономической, политической и

1. Бегалов, Б. А., & Жуковская, И. Е. (2022). Статистическая оценка реализации стратегий социально-экономического развития Республики Узбекистан в условиях цифровой трансформации. *Статистика и экономика*, 19(3), 64-76.

2. Короткевич, А. И. (2022). Стратегия инвестиционно-инновационной деятельности в контексте трансформации национальной экономической системы по видам экономической деятельности. *Экономическая наука сегодня*, (15), 15-26.

3. Курпаяниди, К. (2023). Некоторые особенности методологии исследования институциональной среды малых промышленных предприятий. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(4), 21-34.

⁴ Курпаяниди, К. И. (2022). Institutional conditions for the development of entrepreneurship in the context of the transformation of the national economy. *Economic innovations*, 24(3 (84)), 67-76.

социальной среды в стране. Кроме того, необходимо создание системы индикаторов, которая позволит оценивать эффективность реформ на региональном уровне, и улучшение механизма изменения институтов, что позволит добиться более стабильного и устойчивого развития экономики Узбекистана.

В заключение можно отметить, что институциональные риски остаются актуальной проблемой для Узбекистана. Необходимость организации и проведения не только экономических, но и социальных и политических реформ является очевидной. В то же время, эти риски можно снизить, разработав дифференцированную региональную политику, создав систему индикаторов, позволяющую оценивать последствия реформ на макроуровне, и улучшив соответствующий механизм изменения институтов, что позволит добиться более стабильного и устойчивого развития экономики Узбекистана.

Xakimova Madinaxon Rustamjon qizi
63-19 gurux talabasi
To‘xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna
“Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi
Farg‘ona politexnika instituti

O‘ZBEKISTONDA OZIQ OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ayniqsa dolzarbdir.

Asosiy tushunchalar orasida, xususan, oziq-ovqat xavfsizligi - mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligi ta'minlangan va odamlarning etarli miqdorda xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga doimiy jismoniy va iqtisodiy kirishi kafolatlangan iqtisodiyotning holati. , ularning ozuqaviy ehtiyojlarini qondirish va sog'lom va faol hayot tarziga bo'lgan afzalliklarini qondirish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, oziq-ovqat inqirozi - bu butun mamlakat hududining butun yoki muhim qismida aholini oziq-ovqat iste'molining maqbul me'yorlariga muvofiq asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tahdid ostida bo'lgan va bu tahdid¹ yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat. faqat davlat tomonidan tartibga solish, zarur hollarda esa xalqaro tashkilotlar ishtirokida bartaraf etiladi.

Oziq-ovqat mustaqilligi – mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sharti bo'lib, unda xorijdan oziq-ovqat yetkazib berish to'xtatilgan taqdirda oziq-ovqat inqirozi yuzaga kelmaydi.

Vazirlar Mahkamasi davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, shu jumladan:

- davlatda oziq-ovqat ishlab chiqarishning zarur darajasi;
- ichki va tashqi noxush omillar ta'siridan qat'i nazar, davlat oziq-ovqat zaxirasining mavjudligi, yangilanishi va to'ldirilishi;
- davlatda ishlab chiqarilgan va fuqarolarga sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlari sifatining davlat standartlari tizimi talablariga muvofiqligi.

Oziq-ovqat inqirozi yoki uning tahdidi yuzaga kelgan taqdirda Vazirlar Mahkamasi cheklangan muddatga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning alohida rejimlarini, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilashi mumkin.

Mamlakatda har yili hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish fiziologik oziqlanish me'yorlariga muvofiq aholining ularga bo'lgan yillik ehtiyojining kamida 80 foizini tashkil etsa, respublikaning oziq-ovqat mustaqilligi ta'minlangan hisoblanadi.

Oziq-ovqat bozorining davlat nazorati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, uning zahiralari va zaxiralarini hisobga olish, shuningdek, hududlardagi oziq-ovqat bozori holatini monitoring qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlarining ulgurji partiyalarini ishlab chiqarish yoki respublika hududiga olib kirishdan iste'molchilarga yetkazib berishgacha harakatlanishini nazorat qilish;
- oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ekologik va sanitariya-epidemiologiya talablariga muvofiqligini sertifikatlash.

2020-yil aprel oyi boshida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi dasturi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Jahon savdo tashkiloti rahbarlari dunyo mamlakatlarini oziq-ovqat ta'minotidagi uzilishlarga yo'l qo'ymaslik uchun xalqaro savdoda cheklovlar qo'yilishga harakat qilishga chaqirdi. Darhaqiqat, alohida hukumatlar o'zlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun bir qator oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishni vaqtinchalik cheklovlar qo'ydi yoki to'xtatdi. Jahon banki FAO, JSST va

¹ Aliyev Y. OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA AGRAR BOZORNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //Архив научных исследований. – 2020. – №. 21.

JSTning xavotirlari bilan o'rtoqlashadi va hukumatlar xalqaro qishloq xo'jaligi savdosiga to'siqlar yaratadigan mamlakatlarda eksport cheklovlari oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini hal qilmaydi, deb hisoblaydi.

Bu pandemiya global bozorlar uchun ko'plab xavf va noaniqliklarni keltirib chiqarayotganini hisobga olsak, bu bevaqt javob.

Dunyoda oziq-ovqat zahiralari har qachongidan ham ko'proq ekanligini hisobga olsak, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni taqiqlash ortiqcha zarar, jumladan, oziq-ovqat narxining oshishiga olib keladi va inqirozning aholiga iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini yanada kuchaytiradi.

Xususan, O'zbekistondagi vaziyatga Qozog'iston tomonidan joriy yilning 1 aprelidan joriy qilingan bug'doy va un eksport kvotalari ta'sir qilishi mumkin.

Bu mamlakatdan bug'doy eksporti uchun aprel oyidagi kvotalar hajmi hukumat tomonidan 200 ming tonna, un esa 70 ming tonna qilib belgilangan.

Eksport kvotalari ushbu mahsulotlarni iste'mol qiluvchi mamlakatlarga, jumladan, O'zbekistonga import hajmining kamayishiga olib keladi. Biroq bu cheklovlarning O'zbekistonga salbiy ta'siri kichik va vaqtinchalik bo'ladi. Buni qanday tushuntirish mumkin?

Birinchidan, mart oyida O'zbekiston joriy yilning yanvar va fevral oylariga qaraganda ikki baravar ko'p qozoq bug'doyi va unini import qildi va shu orqali yaqin kelajak uchun yetarli zaxiralar yaratildi. Mahalliy un tegirmonlarida ham o'tuvchi un zaxiralari mavjud.

Ikkinchidan, O'zbekistonda aprel oyi boshida davlat zahiralari va don zaxiralari 1 million tonnani tashkil etgan bo'lsa, shundan 750 ming tonna un olish mumkin. Ma'lumot uchun, respublika bo'yicha o'rtacha oylik un iste'moli 300 ming tonnadan oshmaydi.

Uchinchidan, O'zbekiston Qozog'iston tomonidan belgilangan eksport kvotasi doirasida bug'doy va un importini davom ettirishi mumkin. Va nihoyat, iyun oyida O'zbekistonda yangi bug'doy hosili yig'ib olinadi. Yuqorida ta'kidlaganimdek, bu mahalliy un zaxirasini oshiradi.

Shu tariqa, O'zbekiston un va nonning barqaror narxlari bilan bu yil ham omon qolishini kutish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev Y. ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА АГРАР БОЗОРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ //Архив научных исследований. – 2020. – №. 21.
2. Уктамов Х. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда деҳқон хўжаликларининг ўрни //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 34.

Пак Мансу Иванович
студент факультета
“Управление в производстве”
Набиева Н.М.
PhD и.о. доцента кафедры
«Экономика»

Ферганский политехнический институт

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОВЕДЕНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССАМИ

В условиях нестабильности внешней среды и возрастающей конкуренции поиск эффективных методов управления производством для промышленных предприятий становится очевидной необходимостью.

Объективной реакцией современных организаций на динамику социально-экономических изменений является применение процессного подхода к управлению, ориентированного, в первую очередь на бизнес-процессы, как совокупность взаимосвязанных мероприятий, направленных на создание определенного продукта или услуги для потребителя.

Организация труда рассматривается нами как система мер, позволяющая соединить в единый процесс производства орудия труда, предметы труда, технологии труда и обеспечить тем самым эффективное использование рабочей силы. Это дает нам право утверждать, что процесс организации труда выступает одним из важнейших элементов организации бизнес-процессов на предприятии.

Сущность процессного подхода к системе организации труда, на наш взгляд, состоит в том, что трудовая деятельность, включающая в себя такие элементы как «предмет труда», «средства труда», «технологии трудовой деятельности», «информации», «сам труд», должна осуществляться как постоянный процесс, а не как единовременные действия.

Структура бизнес-процесса организации труда, как и все бизнес-процессы имеет вход, выход, исполнителя (владельца) и ресурсы. Каждый из этих элементов бизнес-процесса имеет свои характеристики в зависимости от своей принадлежности и цели. Ниже мы предлагаем стартовую модель бизнес-процесса организации труда.

*Инструментами бизнес-процесса организации труда на промышленном предприятии являются:

- разделение и кооперация труда сущность которого состоит в научно обоснованном распределении сотрудников по трудовым функциям, машинам, рабочим местам объединенных в систему, соответствующую специфике производственного процесса;
- нормирование труда предусматривающее определение обоснованных норм затрат труда на производство продукции;
- проектирование трудовых процессов, рабочих мест и систем их обслуживания;
- оптимизация использования рабочего времени предусматривающая разработку режимов труда и отдыха;

Вышеперечисленные инструменты бизнес-процесса организации труда показывают, что к нему относится весь комплекс управляющих воздействий, обеспечивающих эффективность труда и сохранение здоровья работающих.

Создание бизнес-процессов организации труда на промышленном предприятии предполагает обязательную структуризацию всего, что задействовано в ходе достижения цели обеспечения эффективности использования рабочей силы: ресурсов, технологий, сроков, информационной составляющей, пространства и т. д. Для этого нужно осуществить следующие шаги:

- проанализировать текущие бизнес-процессы, разработать для каждого из них описание и модель существующего бизнес-процесса в формате «как есть»
- построить новую модель в формате «как должно быть».
- спроектировать обновленный бизнес-процесс;
- управлять и оптимизировать бизнес-процессы.

Полагаем, что процессный подход к проектированию и управлению бизнес-процессом организации труда позволит предприятию решить важные задачи научной организации труда, а именно:

- сократить время выполнения процесса за счет исключения операций по передачи информации по иерархии управления
- оценить эффективность функций выполняемых в рамках процесса с точки зрения эффективности процесса в целом.
- обеспечить согласованность результатов выполненных операций в рамках данного бизнес-процесса и общими результатами бизнес-процесса предприятия в целом
- выстроить эффективную систему мотивирования персонала, базирующуюся на поощрении работников в соответствии с результатами бизнес-процессов, а не от результатов отдельно выполняемых функций.

Также считаем, что указанные преимущества процессного подхода к проектированию бизнес-процесса организации труда будут способствовать эффективному использованию рабочей силы и устойчивой конкурентоспособности предприятия на рынке товаров и услуг.

Литература:

1. Божук С. Г. Маркетинговые исследования. – 2017.
2. Тюрин Д. В. Маркетинговые исследования //М.: Юрайт. – 2016.

Abdullajonov Abdulaziz Timur o'g'li
Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot va Turizm fakulteti talabasi

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA MICE TURIZMINING MINTAQAVIY RIVOJLANISHI VA TUTGAN O‘RNI”

Annotatsiya: Ayni kunlarda O‘zbekiston o‘z iqtisodiyotining ko‘plab sohalarida aql bovar qilmaydigan o‘shihni ko‘rsatmoqda. Eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri esa turizmdir. Mamlakat turizmida katta imkoniyatlar yaratilmoqda, viza tartibi o‘zgardi va avvalgi O‘zbekiston endi jozibador ishbilarmonlik va sayyohlik maskani sanaladi. Bu omillarning barchasi ulkan infratuzilmaviy loyihalar bilan birgalikda MICE turizmi uchun ideal sharoitlarni yaratadi. Uning mamlakatdagi rivojlanishi yana ham kengaydi.

Kalit so‘zlar: MICE turizm, turizm, iqtisodiyot konferensiya, kongress, uchrashuvlar, mehmonxonalar, tadbir agentliklari

Abstract: Currently, Uzbekistan is showing incredible growth in many areas of its economy. One of the fastest growing industries is tourism. Great opportunities are being created in the country's tourism, the visa procedure has changed, and the former Uzbekistan is now considered an attractive business and tourist destination. All these factors together with huge infrastructural projects create ideal conditions for MICE tourism. Its development in the country has expanded even more.

Keywords: MICE tourism, tourism, economy, conference, congress, meetings, hotels, event agencies

Yangi yo'nalish

MICE (Meetings, Incentives, Conferences and Exhibitions) “Uchrashuvlar, rag'batlantirishlar, konferentsiyalar va ko'rgazmalar” tizimini anglatadi¹, u biznes sayohatlari xizmatlarining to'liq to'plamini taqdim etadi: aviachiptalar, poezd chiptalari, vizalarni qo'llab-quvvatlash, transfer, mehmonxonalarni bron qilish jamoa mquurish, qishloq sayohatlari, butun dunyoda va xususan O'zbekistonda koorparativ tadbirlarni tashkil etishni taminlaydi. O'zbekistonda bir necha yillardan buyon barcha turdagi xalqaro va mintaqaviy tadbirlar soni ortib bormoqda. Ko'rgazmalar, anjumanlar, kongresslar nafaqat O'zbekiston poytaxti Toshkentda, balki mamlakatimizning boshqa yirik shaharlarida Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida ham tashkil etilmoqda. Yuqorida aytilganlarning barchasi yirik biznes tadbirlarini tashkil etuvchi kompaniyalarning O'zbekistonga bo'lgan katta qiziqishi natijasidir.

Mamlakatimiz uchun yirik kongress yoki konferentsiya birmuncha yangi narsa, shuning uchun ko'plab mahalliy va xalqaro tadbir agentliklari bizning imkoniyatlarimizni o'rganishni xohlashadi. Buning ustiga, O'zbekistonda faol turizm, tarixiy obidalarni ziyorat qilish, davolanish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Va, albatta, bu omillarning barchasi tadbir dasturi muhokama qilinayotganda o'z rolini o'ynaydi. Hammaga ma'lumki, MICE turizmi shunchaki uchrashuvlar yoki muzokaralar emas; shuningdek, madaniy tadbirlar va tadbir ishtirokchilarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazilishi hamdir.

Vaholanki, O'zbekiston sayyohlik markazi emas, ko'pchilik mamlakatimiz haqida tasavvurga ega emas, hozirgacha qilinadigan ishlar ko'p. Bizning eng katta muammomiz - infratuzilmaning etishmasligi. To'g'ri, yaqinda bir qancha xalqaro mehmonxonalar, jumladan, Hilton(Tashkent), Wyndham(Buxoro) ochildi, ammo infratuzilma bilan bog'liq muammoni hal qilmoqchi bo'lsak, yanada murakkabroq yondashuv zarur. Xuddi shu yondashuv nafaqat qurilishda, balki tartibga solish va rag'batlantirish dasturini ishlab chiqishda ham qo'llanilishi kerak desak mubolag'a bo'lmaydi.



1-rasm. Hilton mehmonxonasi (Tashkent city)²

Davlat manfaati nima?

Hukumat O'zbekiston iqtisodiyotida turizm kattaroq rol o'ynashi kerakligiga ishonich hosil qildi. Shuning uchun u mehmonxona biznesini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlarni qo'llab-quvvatladi. Masalan, Turizm va sport vazirligi Xalqaro Kongress va Konvensiya Assotsiatsiyasi (ICCA)³ bilan hamkorlikda MICE turizmini rivojlantirish va O'zbekistonni xalqaro sayyohlik bozorida yangi brend

¹ Ma'lumot <https://www.tourismni.com/> saytidan olindi

² <https://kz.kursiv.media/> tomonidan olingan surat

³ Ma'lumot <https://www.iccaworld.org/npps/> saytidan olindi

sifatida targ'ib qilish imkonini beradigan yangi qoidalar ustida ishlamoqda. Bu keng imkoniyatlar yaratadigan muhim ish va buni nafaqat Toshkentda, balki butun mamlakat bo'ylab tashkil etilishi kerak. Chunki Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Xiva markazlarida ham shunday imkoniyatlarni qilishga yetarlicha sharoit bor.

Toshkentdagi Qozog'iston korxonalari

O'zbekistonga keng ko'lamli biznes tadbirlari o'tkaziladigan joy sifatida, katta qiziqish qo'shni Qozog'iston tadbirkorlari tomonidan namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanib, ayniqsa, savdo-iqtisodiy sohasidagi aloqalar yangicha ko'lam kasb etmoqda. Qozog'iston Respublikasi Aktobe viloyati hokimi o'rinbosari Mavr Abdullin boshchiligidagi delegatsiyaning mamlakatimizga tashrifi doirasida O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasida tashkil etilgan biznes-forum ham tomonlar o'rtasida teng manfaatli savdo-investitsiyaviy munosabatlarni rivojlantirish, yangi hamkorlar topishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir¹. Ularning ko'pchiligi Toshkent va O'zbekistonning boshqa shaharlarida katta tadbir va forumlar tashkil qilishni ma'qul ko'radi. Mehmonxonalarda Qozog'iston sub'ektlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarning gavjum jadvali mavjud. Ular o'z xodimlari uchun nafaqat forumlar, balki O'zbekiston bo'ylab sayohatlar uyushtirmoqchi, chunki ular biznesni hordiq bilan uyg'unlashtirmoqchi. Ya'na bir narsani aytish joizki, ba'zi katta mehmonxonalar o'zlarining foydalarini ko'proq shunday tadbirlarni tashkilashtirib olishmoqda.

Xizmat sifati

Shahar markazida qulay joyda, Buxoro xalqaro aeroportidan (BHK) besh kilometr uzoqlikda joylashgan Sahid Zarafshon mehmonxonasi, uning atrofidagi Wyndham, Varaxsha kabi mehmonxonalar Buxoroning MICE turizm markazlari deyish mumkin. Masalan, har birida Kongress-xoll bor. Keling buni yaqinda ishga tushgan Wyndham mehmonxonasi misolida ko'ramiz.



2-rasm. Wyndham Bukhara mehmonxonasi tashqi ko'rinishi²

Bu zamonaviy mehmonxona zanjiri 250 tagacha konferensiya yoki 300 ta mehmonni sig'dira oladigan to'rtta sayqallangan maydonga ega bo'lgan biznes anjumanlar uchun qulay joydir. Wyndham Bukhara'da muhim biznes konferensiya, nafis to'y yoki maxsus bayramlar o'tkazish, 1047 kvadrat metr tadbir maydoniga ega bo'lgan zamonaviy, 12 qavatli mehmonxonamiz sakkizta katta zallarni (jumladan, bal zali, banket zali va yaxshi yoritilgan yig'ilish zali xonalari) taklif etadi, ular 300 tagacha ziyofat mehmoni yoki 70 nafar konferensiya mehmonini sig'dira oladi. Bundan tashqari, u yerda ochiq havoda ziyofat yoki yulduzlar ostida kokteyl ziyofati uchun moslashtirilishi mumkin bo'lgan ochiq hovuzli go'zal bog' bor.

¹ <https://xs.uz/uz> dan olindi

² Central Asia Travel dan olingan rasm



3-rasm. Wyndham Bukhara konferensiya zallari ¹

Ishbilarmonlik uchun qulayliklarga ega shahar markazida eng maqbul tarzda joylashgan Wyndham Bukhara har qanday korporativ yig'ilishlar uchun idealdir. Murakkab, to'liq xizmat ko'rsatadigan mehmonxonada 10 ta asosiy rahbar uchun boshqaruv kengashi yig'ilishini, 70 ishtirokchi uchun konferentsiyani yoki 300 mehmonlar uchun korporativ ziyofatni tashkilashtirsa bo'ladi. Bu yerda sakkizta zamonaviy, yorug'lik bilan to'ldirilgan jumladan, turli o'lchamdagi majlislar zallari, banket majmuasi va bal zalidan iborat².

Xulosa qilib aytganda nafaqat poytaxt shaharlar balki viloyatlarda ham MICE turizmni amalga oshirish uchun juda ham rivojlanayotgan infratuzilmalar bor. Hozir bi faqat Wyndham misolida ko'rdik boshqa Sahid Zaravshon, Varaxsha kabi mehmonxonalarda ham bunday sharoitlar bor. Toshkent shahrida "Metris Ventures" (Mj Group) va "Hyatt International" kompaniyalari o'rtasida Buxoro shahrida 5 yulduzli "Hyatt Regency" brend mehmonxonasini tashkil etishga doir shartnomani imzolash marosimi hamda matbuot anjumani o'tkazilishi ham MICE turizmi rivojlanishi bir pog'onaga yuksaltiradi³.

Manbalar ro'yhati:

1. <https://www.tourismni.com/> sayti
2. Kz.kursiv.media saytidan suratlar olindi.
3. Xs.uzdan yangiliklar olindi.
4. Central Asia Travel agency.
5. ICCAworld.org .
6. Spot.uz saytidan suratlaridan foydalanildi.
7. Yuz.uz saytidagi yangiliklar foydalanildi.
8. «WYNDHAM BUKHARA» mehmonxonasi administratoridan ba'zi ma'lumotlar so'raldi.
9. Hilton Tashkent city savdo va marketing bo'limi boshlig'I Rezida Fatkalislamova tezisidan ma'lumotlar olingan.

Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li
Farg'ona politexnika instituti tayanch doktoranti
Ortig'aliyev Bunyodbek Kamoliddin o'g'li
Farg'ona politexnika institute talabasi
E-mail: Turgunovmuxriddin77@gmail.com
M.Turg'unov, B.Ortig'aliyev

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida oziq-ovqat sanoati korxonalarining muvaffaqiyatini ta'minlash, yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun zarur va yetarli shart-sharoit yaratish dolzarb vazifalardir. Zamonaviy tadqiqotlar oziq-ovqat sanoati korxonalarini yanada takomillashtirish va faoliyatni o'rganishga qaratilganligini ta'kidlash lozim. Bunday tadqiqotlarning ahamiyati va dolzarbligini shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat sanoati korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyati, bu faoliyatni amalga oshirish shart-sharoitlarini aniqlash, faoliyatga baho berish masalalariga hanuzgacha yetarlicha e'tibor berilmagan.

¹ Spot.uz dan olinga suratlar

² Ma'lumot <https://www.wyndhamhotels.com/wyndham> dan olindi

³Bu yangilik <https://yuz.uz/uz> saytidan olindi

2012-2021 yillarda aynan aholi jon boshiga oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish esa 2012 yilda 286,0 ming soʻmni tashkil etib, 2021 yilga kelib 1584,6 ming soʻm (5,54 %)ga yetgani aholimizning turmush tarzi va xarid qobiliyati ortib borayotganini koʻrsatib beradi.

2.3-jadval

Oʻzbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni¹

Yillar	Roʻyxatdan oʻtgan korxonalar soni (1)	Faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni (2)	Tugatilgan korxonalar soni (3)	Faollik indeksi, koeffitsientda (2/1)	Bankrotlik indeksi, koeffitsientda (3/2)
2012	7594	6574	692	0,866	0,11
2013	7924	6893	716	0,870	0,10
2014	8723	7805	786	0,895	0,10
2015	9113	8109	776	0,890	0,10
2016	9560	8873	990	0,928	0,11
2017	10007	9405	1099	0,940	0,12
2018	11589	11046	916	0,953	0,08
2019	13545	12912	733	0,953	0,03
2020	16801	15869	642	0,945	0,04
2021	23712	22154	364	0,934	0,02

Ushbu jadval koʻrsatkichlari 2012-2021 yillar oraligʻida mamlakatimizda oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar va roʻyxatdan oʻtgan korxonalar soni, faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni, tugatilgan korxonalar soni, faollik indeksi, bankrotlik indeksi toʻgʻrisidagi statistik maʼlumotlarni aks ettirmoqda. 2012 yilda aynan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shugʻullanish maqsadida 7594,0 ta yangi korxonalar tashkil etilgan boʻlsa, 2021-yilga kelib bunday korxonalarni tashkil etilishi 23712,0 taga yetganini koʻrishimiz mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini texnik-iqtisodiy modernizatsiyalash, oziq-ovqat sanoatining barcha tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tashqi va ichki bozor talablarga javob beradigan raqobatbardosh tovarlarni koʻpaytirish hisobiga amalga oshirilishini taqozo etadi. Shu bois, yurtimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta eʼtibor berilmoqda.

Statistik maʼlumotlarga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmi 2021-yilda mamlakat eksporti tarkibidagi ulushi 8,3% tashkil qilgan. Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari eksportining asosiy qismi bogʻdorchilik va poliz mahsulotlarini koʻp miqdorda yetishtirilishi nuqtai nazaridan, ushbu salmoq eksport salohiyatiga nisbatan juda kam miqdorni tashkil etadi. Fikrimizcha, bu borada oziq-ovqat sanoatining jadal rivojlanishiga toʻsqinlik qiluvchi muammolarni tahliliy oʻrganish taqozo etiladi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni taʼkidlash mumkinki, har qanday tizimning rivojlantirish uchun eng muhim shart uning barqarorligi boʻlib, unda maʼlum bir qonun va qaror bilan ishlaydigan tizimning taʼminlanganidir. Oziq-ovqat sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirish xam narx darajasi muvozanatini barqarorligini taʼminlash va oziq-ovqat sanoat korxonalarining uzluksiz ishlashini taʼminlashga erishish mumkin boʻladi. Natijada esa axolining oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan doimiy talabi qondiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беленов, О.Н. Конкуренентоспособност стран и регионов / О.Н. Беленов, А.А. Анучин. – М.: КНОРУС, 2015. – 148 с.
2. Шелудко, Е.Б. Конкуренентоспособност предприятия: сущност, факторы и принципы / Е.Б. Шелудко // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2016. – № 56.
3. Фасхиев, Х.А. Как отсенит и управлят качеством и конкурентоспособностю товаров и услуг / Х.А. Фасхиев // Маркетинг в России и за рубежом. – 2014. – № 3. – С. 88-102.
4. Фатхутдинов, Р.А. Управление конкурентоспособностю организатсии / Р.А. Фатхутдинов. – М.: Изд-во «ЭКСМО», 2014. – 545 с
5. Turgunov, M. (2021). State and prospects of the republic of uzbekistan in international ratings of innovation development. *Theoretical & Applied Science*, (7), 37-42.
6. Turgunov, M. (2021). Issues of innovative approach and financing of innovative projects in rapid yeconomic development. *Ekonomika i sotsium*, (7), 151-159.

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi www.stat.uz rasmiy sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

7. Muhridin, T. U. (2021). Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishning o'ziga xos ayrim xususiyatlari. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 1(2), 65-75.

А.Д.Равшанов
ҚарМШИ
“Инновацион иқтисодиёт”
кафедраси доценти, и.ф.н.
ҚарМШИ-О.А.Амиркулов магистр

РАҚАМЛИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Қишлоқ хўжалиги республикамиз иқтисодиётининг йирик тармоқларидан бири, мамлакат озиқ-овқат хавфсизлиги ва қишлоқ аҳолиси фаровонлигининг асосий таянчи ҳисобланади.

Кейинги йилларда мамлакатимиз қишлоқ хўжалигини жадал ривожлантириш ва тармоқда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш борасида диққатга сазовор ишлар амалга оширилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сонли Фармони билан “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган Стратегияси” қабул қилинди ва унда мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини мустаҳкамлаш, тармоқда давлат бошқарувининг замонавий тизимларини ривожлантириш, аграр секторни қўллаб-қувватлашга йўналтирилган давлат харажатларини босқичма-босқич диверсификация қилиш каби бир қатор вазифалар белгилаб берилди.

Кўп сонли ва рақамли маълумотларни қайта ишлаш орқали фаолият самарадорлигини ошириш, технологик ечимларни ва ускуналарни сақлаш ҳамда истеъмолчиларга етказиб бериш тизимини такомиллаштиришга ёрдам беради. Аммо иқтисодиётнинг барча тармоқларида рақамли иқтисодиёт кенг жорий этилган дея олмаймиз. Хусусан аграр тармоқнинг ўзига хос хусусиятлари “рақамли қишлоқ хўжалиги” борасидаги янгиликларни бироз секинлик билан ўзлаштиришга сабаб бўлмоқда.

Рақамли қишлоқ хўжалиги бу – қишлоқ хўжалиги корхоналарининг иш фаолияти давомида турли манбалардан олинган маълумотларни йиғиш, умумлаштириш, мувофиқлаштириш, таҳлил қилиш ва фойдаланиш билан боғлиқ бўлган муносабатларни замонавий рақамли технологиялар ёрдамида амалга оширишга қаратилган фаолиятлар мажмуидир. Рақамли қишлоқ хўжалиги аграр тармоқнинг барча жабҳаларида рақамли технологиялар интеграциясини таъминлашни англатади ҳамда ундан очиқ ва эркин фойдаланиш имконияти мавжуд бўлишини талаб этади.

Қишлоқ хўжалиги шундай тармоқки у нафақат етарли маълумотлар базасига эга бўлишни, балки узоқ йиллик амалий деҳқончилик тажрибаларини ҳам талаб этади. Сабаби рақамли ахборот турли манбалардан олинган маълумотларни қайта ишлаган ҳолда хулоса чиқарса, тажрибали деҳқон у ташқи омилларни комплекс баҳолаш қобилиятига эга бўлади. Рақамли қишлоқ хўжалиги соҳани янги самарадорлик кўрсаткичларига эришишга имкон берса, деҳқон тажрибалари билан умумлашганда у имкониятлар янада кенгаяди.

Аграр фаолиятни рақамлаштириш бу фақатгина маълум бир фаолият тури самарадорлигини аниқлаш ва уни такомиллаштириш учун рақамли ахборотдан фойдаланишни эмас, балки деҳқон кундалик фаолиятида дуч келадиган барча масалаларда маълумот олиш нинг мақбул вақти ва усулини жорий этишни англатади.

Мамлакатимизда иқтисодиёт тармоқларини рақамли асосдаги фаолиятга ўтказиш, барча соҳаларни рақамли технологиялар асосида янгилашни назарда тутадиган фаолиятни ташкил этиш масаласи бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бирига айланиб бормоқда.

Умуман олганда қишлоқ хўжалигини рақамлаштириш орқали қуйидаги имкониятларга эга бўламиз.

Биринчидан, маълумотлар асосий ресурсга айланади ва у камайиб бормайди.

Иккинчидан, интернетда савдо майдони ҳажми чекланмаган ва у қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари савдосида реал вақт режимидаги маълумотлар билан таъминлаш имкониятини беради.

Учунчидан, бир турдаги агросервисни чексиз мараотаба тақдим этиш имконияти мавжуд.

Тўртинчидан, қишлоқ хўжалигининг асосий хусусияти ҳисобланган ташқи табиий омилларни минималлаштириш имконияти яратилади. Буларнинг барчаси интернет базасининг ҳажми ва ишлаш тезлигига боғлиқ бўлиб қолади.

Юқоридаги ҳолатлардан келиб чиққан ҳолда таъкидлашимиз мумкинки, рақамли қишлоқ хўжалиги маҳсулот етиштирувчи ва унга хизмат кўрсатувчи барча бўғин субъектлари учун бирдек самарали бўлган тизим ҳисобланиб, уни амалиётга жорий этилиши кўплаб вақт ва ресурсларни тежаш имкониятини беради.

Аммо ўз навбатида рақамли қишлоқ хўжалигини ташкил этиш ва ундан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган масала ҳам борки, у соҳани чуқур биладиган ҳамда замонавий техник-технологик билимларга эга бўлган малакали мутахассис талабини юзага келтиради. Рақамли қишлоқ хўжалигини жорий этиш учун бир қатор турли мутахассисликларга эга бўлган малакали кадрлар талаб этилади. Хусусан, у агроном, иқтисодчи, дастурчи, инженер, IT-мутахассис, чорвадор каби соҳаларни қамраб олади.

Қишлоқ хўжалигини рақамлаштириш асосида бошқарув тизимини жорий этиш учун ривожланган давлатларда малакали кадрларга куйидаги талаблар қўйилади. Жумладан:

➤ STEM (Science – мутахассислик фанлари, Technology – технология, Engineering – муҳандислик, дизайн ва лойиҳалаш, Mathematics – математика) ёндашувга мувофиқ сифатли олий таълимга эга бўлиши;

➤ manager - тизимли, креатив (ижодий) ва танқидий фикрлаш ва тезкор мустақил қарор қабул қилиш қобилиятига эга бўлиши;

➤ рақамли маълумотларни тарқатиш ва хизмат кўрсатиш, ахборот хавфсизлигини таъминлаш маданиятига эга бўлиши ва бошқалар.

Мамлакатимизда рақамли иқтисодиёт, хусусан қишлоқ хўжалигини рақамлаштириш масалаларига дастлабки қадамларни қўйиб бормоқда ва истиқболда асосий эътибор шунга қаратилиши кутилмоқда. Бундай шароитда қишлоқ хўжалигини рақамлаштириш соҳасига малакали мутахассисларни тайёрлаш ва кадрлар етишмовчилигининг ёки бир функция учун бир нечта турли йўналишдаги кадрларни жалб этишнинг олдини олиш учун, фикримизча, куйидаги вазифаларни бажариш талаб этилади. Жумладан:

➤ рақамли қишлоқ хўжалиги мутахассисларини тайёрлаш тизимини ишлаб чиқиш аграр тармоқ учун кадрлар етиштирувчи ОТМ да янги йўналишлар ва ўқув фанлари очилишини таъминлашни;

➤ рақамли қишлоқ хўжалиги тизими учун олий таълим муассасаларида моддий-техник базасини мустаҳкамлаш замонавий қурилмалар, технологиялар, дастурлар ва муҳандислик ишланмалари билан тизимли таъминлаб бориш;

➤ аграр тармоқ учун кадрлар етиштирувчи институтлар ва университетда, шу жумладан илмий-тадқиқот муассасаларида илмий ва инновацион лойиҳаларни молиялаштиришга алоҳида эътибор қаратиш;

➤ рақамли иқтисодиёт ривожланган хорижий давлатларда малака ошириш, таълим олиш механизмларини такомиллаштириш. “Эл юрт умиди” жамғармаси ва бошқа молиявий манбалар ҳисобидан молиялаштириш ҳамда моддий рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш;

➤ қишлоқ хўжалиги олий ўқув юртларида ўқув дастурларига янги таълим стандартларини жорий этиш;

➤ рақамли қишлоқ хўжалиги кадрлари учун янги малакавий талабларни ишлаб чиқиш, қишлоқ хўжалиги бўйича маслаҳат марказларининг профессионал хизматини рақамлаштириш орқали аграр секторнинг барча жараёнларини оптималлаштириш;

➤ рақамли қишлоқ хўжалиги кадрлари бир неча йўналишларни мукамал билишлари талаб этиладиган шароитда нафақат хорижий ОТМлари ва кафедралари билан, балки миллий ОТМлари ва уларнинг кафедралари ўртасида қўшма йўналишларни очишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Хулоса қилиб айтганда, рақамли технологияларни қишлоқ хўжалигида тадбиқ этиш фақат ишлаб чиқариш жараёнининг зарур инфратузилмаси сифатида эмас, балки ишлаб чиқариш жараёнида бевосита сунъий ақлни қўллаш соҳаси, қишлоқ хўжалиги тизимини яратиш ва ривожлантириш каби имкониятга эга. Шунингдек, рақамли иқтисодиётни қишлоқ хўжалигида қўллашни янада кенгайтириш, тўпланган билим даражаси, фанни ривожлантириш, ишлаб чиқариш жараёнларини техник ва технологик жиҳозлаш ҳамда маҳсулотнинг ҳаётий даврини барча босқичларида жараёнларни назорат қилиш қобилияти билан чамбарчас боғлиқ.

«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ОБСЛУЖИВАНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ»

Малый бизнес и индивидуальные предприниматели важны для экономики любой страны. Они создают рабочие места, стимулируют экономический рост и способствуют развитию инноваций. Однако, несмотря на это, малый бизнес и индивидуальные предприниматели часто сталкиваются с трудностями при получении финансовой поддержки и оказании услуг.

В связи с этим, государственные органы и банковские учреждения должны улучшить механизмы обслуживания малого бизнеса и индивидуальных предпринимателей. Это может быть достигнуто путем введения новых программ поддержки, облегчения процесса получения кредитов и использования технологий для повышения эффективности работы.

Программы поддержки малого бизнеса и индивидуальных предпринимателей должны быть доступными для всех желающих. Это может включать в себя программы по обучению предпринимательскому делу, консультации по налоговому законодательству, а также финансовую поддержку для создания и развития бизнеса. Такие программы должны быть широко рекламируемыми и предоставляться в удобных местах, чтобы заинтересованные лица могли получить необходимую информацию и помощь. Использование технологий также может помочь повысить эффективность работы государственных органов и банковских учреждений при обслуживании малого бизнеса и индивидуальных предпринимателей. Например, использование онлайн-сервисов может помочь в ускорении процесса подачи заявок на финансирование или получения консультаций по вопросам бизнеса. Также можно использовать технологии для автоматизации процесса проверки налоговых деклараций и других документов.

Именно поэтому 28 октября 2016 года была подписано Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2646 «О совершенствовании системы государственной регистрации и постановки на учет субъектов предпринимательства»¹, после чего произошли серьезные изменения в системе регистрации и перерегистрации предпринимателей. Основной целью создания центров «Единый портал интерактивных государственных услуг» является устранение искусственных препятствий в деятельности предпринимателей, оказание им необходимых услуг в одном месте, от начала работы до деятельности предпринимателей, создание для них больше удобства. ЕПИГУ – Единый портал интерактивных государственных услуг, расположенный по url-адресу my.gov.uz в сети Интернет. ЕПИГУ выполняет роль соединяющего звена между пользователями и государственными органами.

Начиная с 2017 года в Узбекистане начало действовать Агентство государственных услуг при Министерстве юстиции Республики Узбекистан (по всей республике функционируют 205 центров государственных услуг и 115 филиалов в отдаленных районах), до которого подобная практика не существовала. По прежней процедуре срок регистрации предпринимателей составлял 2 дня. Теперь в едином портале интерактивных государственных услуг срок решается в течение 30 минут. Раньше процесс получения имени занимал 4 часа, теперь выбрать подходящее имя можно за 3 секунды. Именно поэтому в представленном в 2020 году отчете Всемирного банка «**Doing business - 2020**» Узбекистан занял 69 место в этом рейтинге среди 190 стран².

Кроме того, процесс получения кредитов для малого бизнеса и индивидуальных предпринимателей должен быть упрощен. Банки и другие кредитные учреждения должны снизить требования к заемщикам, чтобы облегчить доступ к финансированию. Они также должны работать над повышением эффективности процесса одобрения заявок на кредит. Это может включать в себя использование технологий, таких как blockchain или искусственный интеллект, для автоматизации процесса оценки заявок на кредит. В Узбекистане тоже проводятся ряд процессов по обновлению технологий в банках. Например, в 2021 году был принят ряд принципиальных решений и внедрены новые подходы в работе Центрального банка, в частности: внедряется стратегическая программа

¹ www.lex.uz. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2646 «О совершенствовании системы государственной регистрации и постановки на учет субъектов предпринимательства».

² Economy profile Uzbekistan Doing business 2020, стр. 4

трансформации и разгосударствления банковского сектора, которая призвана повысить эффективность банковского сектора в целом; заложена правовая основа для удаленной биометрической идентификации клиентов, что открывает широкие возможности для развития небанковских финансовых услуг; создан центр по противодействию мошенничеству и киберугрозам, что послужит повышению прозрачности и безопасности финансовых услуг.

Таким образом, создана основа для дальнейшего роста рынка цифровых финансовых услуг, в том числе оказываемых небанковскими кредитными и платежными организациями.

Наконец, развитие инфраструктуры для малого бизнеса, такой как бизнес-инкубаторы, coworking и другие формы поддержки играют важную роль в совершенствовании механизмов обслуживания малого бизнеса и индивидуальных предпринимателей. Именно поэтому был принят Указ Президента Республики Узбекистан (№ УП-54) 21 января 2022 года «О дополнительных мерах по развитию инфраструктуры предпринимательства в регионах республики»³, целью которого является создания благоприятной инвестиционной и деловой среды, улучшения инженерно-коммуникационной и производственной инфраструктуры в регионах, а также изучения проблем и предложений и определения основных направлений дальнейшего развития предпринимательства.

На основе принятых важных приказов и документов удельный вес малого предпринимательства в ВВП республики за 2022 год составил 50,5%. Для сравнения доля малого и среднего бизнеса в ВВП развитых стран обычно находится в пределах 50–60%. Так, в США это 50%, Великобритании - 51%, в Германии — 53%, в Финляндии — 60%, в Нидерландах — 63%. Это означает, что стратегии, принятые нашим правительством, ведут Узбекистан к правильному и четкому развитию⁴.

В заключение можно отметить, что улучшение механизмов обслуживания малого бизнеса и индивидуальных предпринимателей является важным шагом для стимулирования экономического роста и развития инноваций. Государственные органы и банковские учреждения должны работать над созданием доступных программ поддержки, упрощением процесса получения кредитов и использованием технологий для повышения эффективности работы.

Список использованных литератур:

1. Указ Президента Республики Узбекистан (№ УП-54) 21 января 2022 года «О дополнительных мерах по развитию инфраструктуры предпринимательства в регионах республики»
2. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2646 «О совершенствовании системы государственной регистрации и постановки на учет субъектов предпринимательства».
3. www.lex.uz
5. www.wikipedia.com
6. World Bank Group Flagship Report “Doing Business 2020 Uzbekistan” page 4.
7. www.stat.uz

Ismoilov Muslimjon Qambarali o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tadqiqotchi

HUDUDLARNING SOLIQ SALOHİYATINI ANIQLASHDA SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINING O'RNI

Soliqqa tortish tizimini o'rganar ekanmiz, «Reprezentativ soliq tizimi» iqtisodiyotning zamonaviy rivojlanish bosqichidagi soliq siyosatida hududlar soliq salohiyati baholashning kompleks usuli hisoblanadi. Reprezentativ soliq tizimi usuli budjetga tushadigan to'lovlarni miqdorini aniqlaydi, ya'ni soliq yuki, soliq tarkibi va stavkalari barcha hududlarda o'rtacha darajada belgilanadi. Bu esa, o'z navbatida, barcha hududlar bo'yicha soliq solishga oid to'liq ma'lumotlar yig'ish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Hududdagi haqiqatda yig'ilgan soliq va to'lovlar hamda haqiqatdagi soliq solish bazalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish hudud bo'yicha soliq tushumlari miqdorini hisob-kitob qilish

³ www.lex.uz. Указ Президента Республики Узбекистан (№ УП-54) 21 января 2022 года «О дополнительных мерах по развитию инфраструктуры предпринимательства в регионах республики»

⁴ www.stat.uz

imkonini beradi. Hudud bo'yicha hisob-kitob orqali aniqlangan soliq tushumlari miqdorini hudud soliq potentsiali hajmi deb hisoblash mumkin.¹

Mamlakat soliq salohiyati hududlar soliq potentsiali majmuasidan tuzilgan, hududlar soliq potentsiali o'z navbatida soliq to'lovchilarning soliq va yig'implarni to'lash salohiyati sifatida tushuniladi, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyidan kelib chiqib, ma'muriy hududlarni soliqdan tushadigan daromad bilan ta'minlash darajasi bilan bog'liq.

Soliq potentsiali makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olishi bilan birga soliq to'lovchining soliqqa tortish tartibi yuzasidan tanlovini ham e'tiborga olishni nazarda tutadi. Bu o'z navbatida mamlakatda qo'llanilayotgan soliq siyosati samaradorligi va soliq ma'murchiligi natijadorligi ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.²

Mamlakatimiz aholi turmush farovonligi darajasini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirish maqsadida davlat budjeti daromadlar bazasini mustahkamlash hamda budjetga doimiy ravishda daromadlar tushushini ta'minlash borasida budjet-soliq siyosatida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Biz bilamizki, budjet-soliq siyosatining tarkibida soliqlarni undirish faoliyati ham muhim o'rinda turadi. Bu siyosat takomillashtirilishi, budjet daromadlar bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda, budjet taqchilligini tartibga solish shuningdek, davlat daromadlarini, avvalo soliqlarni to'liqligicha budjetga tushirish darajasiga ta'sir qiladi.

Soliqlarni undirishni muhim masalalardan biri bu soliqlarni o'z vaqtida budjetga tushirish va ularni yig'iluvchanlik darajasini oshirishni ta'minlashdan iborat hisoblanadi. Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasiga bir qator omillar ta'sir qiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- hududlar va soliq to'lovchilarning soliq potentsialini (salohiyati) to'g'ri aniqlanganligi;
- soliqlarni prognozlashtirishda aniq ma'lumotlarga yondashish;
- soliq to'lovchilarning soliq madaniyatini rivojlanganlik darajasi;
- soliq to'lovchilar uchun soliq to'lovlarini to'lash jarayonini soddalashtirish;
- buxgalterlarning malakasi;
- yashirin iqtisodiyot;
- soliqlarni undirishga xizmat qiluvchi moliya-bank organlari faoliyatining samaradorligi;
- ko'zda tutilmagan iqtisodiy-ijtimoiy muammolar.

Soliqlarni prognoz qilishning soliqlarni undirish va jalb qilish borasidagi muammolarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari o'tgan asrning 70 yillaridan ancha avj oldi. Bu vaqtga qadar esa, moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirish muammolari sifatida tadqiq etib kelindi. Chunki, bu vaqtlarda dunyo mamlakatlarida soliqlar masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida o'rin olib bo'lgan edi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish masalalari muhokamasi yanada rivoj oldi, davlat daromadlarini aniqlashda va taqsimlashda soliqlarni prognozi natijalariga keng tayanila boshlandi. Natijada, jahon mamlaktlarida makroiqtisodiy darajada soliqlarni rejalashtirish va prognoz qilishning ikki muhim yo'nalishlari paydo bo'ldi.

Birinchi yo'nalish asosan soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirishni amalga oshiruvchi davlat organlarining faoliyatini bu boradagi vazifalarini kuchaytirilish bilan bog'liq bo'lib, asosan Fransiya, Kanada va Yaponiya davlatlarida amalga oshirildi. Ikkinchi yo'nalish 1960 yillarda rivojlanib, bunda soliqlarni prognoz qilish bilan bog'liq maxsus organlar tashkil qilina boshlandi.

Soliqlarni prognoz qilish soliqlarni kamaytirmasdan turib moliyaviy muammolarni hal etishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi va shunday yo'l tutiladi. Soliqlarni prognoz qilish natijalariga qarab investitsiyalarni boshqarish taktikalari ishlab chiqiladi, soliqlar kam kelib tushayotgan hududlar (ob'ektlar)ga investitsiyalarni kamroq joylashtirish strategiyalari amalga oshiriladi, qaysi hududlarga kreditorlar va investorlarni joylashtirish masalalari hal etiladi. Jahon amaliyotida soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayoni ko'proq makro va mikro darajadagi soliq siyosatining qonuniy mexanizmlari hisoblanib, ularning asosiy yo'nalishlari boshqaruv jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Izlanishlardan kelib chiqib, hududlarni soliq potentsialini aniqlash va soliqlarni undirishni yanada takomillashtirish va samarali budjet-soliq siyosatini yuritish borasida quyidagi takliflarimizni keltirib o'tamiz:

Birinchidan, soliqlarni undirishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chet elda soliq qarzdorligini undirish bilan shug'ullanuvchi xususiy firmalar ham mavjud bo'lib

¹<https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/5130-bekzod-normatov-hududiy-daromad-siyosati-motivatsiyasining-muhim-jihatleri>

²<https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/5130-bekzod-normatov-hududiy-daromad-siyosati-motivatsiyasining-muhim-jihatleri>

Millat - uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, siyosiy va ijtimoiy maqsadlari bir biriga zid kelmaydigan, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib toptan ijtimoiy birlik shaklidir [1, 2, 3, 4, 11]. Shu tarifdan ko'rinadiki, millat, juda murakkab, ko'p qirrali hamda uzoq tarixiy taraqqiyotning mahsulidir.

Millat yashab ketishi uchun qator sifatlarga ega (ularni quyida ko'rib chiqamiz) bo'lishi kerak, ammo ma'lum miqdorga ham ega bo'lishi kerak, u katta millatlar ichida, hayotning murakkab muammolarini yechish uchun ma'lum kuchga ega bo'lishi kerak. Biz hozirgi paytda bu bir million kishidan kam bo'lmasligi kerak (albatta bu raqam shartli bo'lib, hayotda, ayniqsa kelajakda nimalar bo'lishini aytish qiyin) deb hisoblaymiz. Undan kam bo'lsa ozligini saqlab qolish deyarli mumkin bo'lmay qoladi. Masalan, 1.0 million aholiga ega bo'lgan millat SSSR davrida qariyb 300 millionli rus olamida o'zligini saqlab qolish juda qiyin bo'lgan, hozirgi paytda yarim milliardlik Yevropa Ittifoqida ham juda qiyin bo'ladi. Aholi soni undan ham kichik millatlarga esa bajaribbo'lmaydigan darajaga tushib qoladi. Hozirgi paytda dunyoda 1 milliondan ortiq aholiga ega 330 ta xalq bor, lekin ular Yerning umumiy aholisining 96% ni qamrab oladi. Dunyoda atigi 11 ta xalq borki, ularning har biri 100 million kishidan oshadi, lekin ular umumiy aholining qariyb yarmini tashkil etadi [12, 13].

Bir millat uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi. Bu jarayon, shu jumladan aralashma (yani, xalqlarning boshqa etnik guruhlar bilan uzoq muddatli muloqoti natijasida o'z ona tili va milliy o'ziga xosligini yo'qotishi, ya'ni etnik guruhlarining ko'p millatli muhitda o'ziga xos parchalanishi, turli etnik guruhlar vakillarining uzoq vaqt turmush qurishi, bir-birining tili, urf-odatlarini va madaniyatini o'zlashtirishi, pirovardida yagona millatning vujudga kelishiga olib keladigan jarayondir) hamda assimilyatsiya (yani, bir yoki bir necha xalqlarning boshqa xalqlarga singib ketishi jarayonidir). Odatda yirik, iqtisodiy jihatdan kuchli millat kichik millatlarni yutub yuborish holati ko'proq sodir bo'ladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida kichiklarning assimilyatsiyaga uchrashi ehtimoli yoqoridir.

Dunyoda haqiqiy millat nomiga munosib bo'lgan xalq yoki etnik guruhlar unchalik ko'p emas. Millat to'la qonli bo'lishi uchun esa quyidagilarning barchasiga ega bo'lishi kerak, jumladan:

Bir etnik guruhni ikkinchisidan ajratadigan narsa, bu til sanaladi, etnograflarning ma'lumoti bo'yicha dunyoda 25 mingdan ortiq tilda gaplashuvchi xalqlar, etnik guruhlar, qabilalar bor. Ammo, ularning faqat 5-5.5 mingtasigina [12,13,17] millatning asosiy talablariga javob beradi, xalqlarning mutlaq ko'pchiligi juda kichikdir. Ularning anchagina qismi, afsuski, bir-ikki avlod umri davomida yo'q bo'lib ketish arafasidadir. Ularning anchagina qismi hatto o'z alifbosiga ega emas, bunday etnos vakillari hayotda o'z o'rnini topish uchun boshqa tilni va shu orqali boshqa millatning atributlarini olib tezroq assimilyatsiya bo'lib ketishadi. Bundan tashqari, anchagina xalqlar o'z ona tilida kerak bo'lgan hatto eng zarur kasb egalarini tayyorlash qobiliyatiga ham ega emas. Bu esa o'sha xalqni yo'q bo'lib ketish jarayonini tezlashtiradigan muhim omil sanaladi. Xullas, millat to'la qonli bo'lishi uchun avvalom-bor o'z alifbosiga ega bo'lishi kerak, undan keyin uning iqtisodiyoti shakllanishi uchun iqtisodiyotning eng asosiy, ommaviy kasb egalarini ona tilida tayorlab beradigan boshlabg'ich, o'rta ta'lim tizimlari bo'lishi kerak.

Ikkinchi muhim narsa esa millatning o'z yashash hududi bo'lishi kerak. O'z yashah hududi aniq bo'lgan, yurudik huquqqa ega bo'lgan maydoni bor etnoslar dunyoda mingtaga ham bormaydi. Millatning yashash hududini shartli ravishda birinchi darajali, ikkinchi darajali va uchinchi darajali deb ajratish mumkin. Uchinchi darajali hudud deganda yurudik maqomga ega bo'lmagan territoriyada yashaydigan, yoki bir necha davlat, yoki kichik yududlarga tarqalib ketgan etnoslar, yoki yarim yovvoyi yoki yovvoyi qabilalardir. Ikkinchi darajali yashash hududi deganda ma'lum davlat ichida ma'lum huquqqa ega bo'lgan maydonda yashovchi xalq sanaladi, masalan, Kanadaning anglokanadaliklar dunyosida o'z huquqlariga, alohidalikka ega bo'lgan frankokanadaliklarni, yoki Xitoyga kuch bilan qo'shilgan va alohida o'ziga xoslikni saqlab kelayotgan tibetliklarni misol qilish mumkin. Davlatlar ichidagi kamdan-kam etnoslar bunday maqomga ega. Masalan, Xitoyda 56ta xalq bo'lsa, faqatgina 10 tasigina alohida o'z yashash hududiga ega, yoki Indoneziyada 450da ortiq etnos bo'la turib, faqat bir-ikkitasigina aniq bo'lgan o'z yashash hududini ko'rsatish mumkin (masalan, Baliliklar), Hindistonda esa 1634 xalqdan o'zining aniq yashash hududiga ega bo'lgan etnoslar sonini ikkiki-uch foiznigina tashkil etadi, xolos.

Birinchi darajali yashash hududi deganda, o'z mustaqil davlatiga ega bo'lgan millat tushuniladi. Hozirgi paytda bundaylar soni 200 atrofida deb hisoblash mumkin. Cunki mustaqil davlat, alohida

territoriya, mustamlaka, tan olinmagan davlat kabilarni aniqlashtirish mushkulroq vazifadir. Hozirgi zamonda millat shakllanish jarayonida davlat institutining roli juda ham kattadir. Masalan, bir asrdan sal ko‘proq vaqt oldin Usmoniylar davlatida yashagan qatarliklar, quvaytliklar va boshqa arablarda umumiylik anchagina mavjud edi, hozir esa ular bir asrlik davlat ostidagi rivojlanish tufayli anchagina o‘zgarib ketishdi. Bir asr oldin misrlik o‘zini ko‘proq arabman deb his qilgan bo‘sa, hozir esa ko‘proq man misrlikman, undan keyin arabman deb his qiladi. Yoki 60 yil oldin ikki davlatga bo‘linib ketgan Koreyaliklar borgan sari bir-biridan uzoqlashib bormoqda, hatto ayrim olimlar ikki millat shaklangan degan xulosa qilishmoqda.

O‘zbek millatiga kelsak, rus mustamlakachilik davrida sekin-asta o‘lib ketish yo‘lidan borayotgan edi, ammo 1991 yil mustaqillik tufayli birinchi darajali yashash hududini qo‘lga kiritdi hamda bu aniq o‘z hududiga sekin-asta xo‘jayin bo‘lish yo‘liga kirib oldi, va shu bilan uning taqdiri butunlay o‘zgarib ketdi.

Millat qanchalik kompakt maydonda yshasa, uning saqlanib qolish ehtimoli shuncha yoqori bo‘ladi, bundan tashqari, millat vakillari qanchalik ko‘p davlatga tarqalib ketgan bo‘lsa, uni konsolidatsiya qilish, shuncha qiyin bo‘ladi. Quyidagi jadvalda dunyoning nisbatan yirik xalqlari qanchalik davlatlar bo‘yicha tarqalib ketganligini ko‘rsatadi. Lo‘lilar, yahudiylar (bu xalq 1947 yildan keyin, yani Izroil davlati tuzilgach ancha yig‘ilishdi, hozir asosan ikki mamlakatda ancha ko‘p, yani Izroil va AQShda, slovenlar, ruslarga esa bu masalada qiyin bo‘ladi.

Jadval. - Dunyo bo‘ylab eng keng tarqalgan millatlar

t/r	Millatlar	Nechta tarqalgan (asosiysilari olingan)	davlatga t/r	Millatlar	Nechta tarqalgan (asosiysilari olingan)	davlatga hisobga
1	Lo‘lilar	70dan ortiq	12	Palastinliklar	20	
2	Yahudiylar	35	13	Greklar	20	
3	Makedoniyaliklar	32	14	Totorlar	20	
4	Ruslar	29	15	Portugallar	18	
5	Slovenlar	27	16	Litvaliklar	18	
6	Panjoblar	25	17	Gollandlar	17	
7	Qozoqlar	25	18	Fulbelar	17	
8	Kareyslar	24	19	Nemislar	16	
9	Taylar	24	20	Kurdlar	15	
10	Serblar	23	21	Polyaklar	15	
11	Filippinliklar	21	22	Livanliklar	15	

Manba: <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

Millatni millat qiladigan keyingi muhim omil, bu – urf-odatlar va madaniyat, shu jumladan, din sanaladi. Agar oldingi omillarda miqdor ko‘rsatgichlari, yani egalangan maydonning kattaligi, yoki ushbu tilda gaplashuvchilarning soni anchagina ahamiyatli bo‘lsa, bunda urf-odatlarining yashovchanligi, zamon talablariga mosligi hamda o‘ziga xosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yahudiylar dunyo miqyosida uncha katta millat bo‘lmasa ham, asrlar davomida aniq bir o‘z maydoniga ega bo‘lmasa ham, o‘ziga xos urf-odatlarini, ayniqsa dini tufayli asrlar yosha yashab kelib, XX asrda o‘z davlatiga ham ega bo‘lib oldi, eski tili ivritni tiklab ham bildi. Oziga xos urf - odatlar va madaniyat esa ko‘pincha ushbu millatni o‘ziga xos sivilizatsiyasi bilan bo‘g‘liq bo‘ladi, masalan, orolda qolib ketib, qolgan dunyo bilan nisbatan kamroq aloqa qilgan yaponlar singari, yoki atstek, mayalar kabi sivilizatsiyalarga tayanib, xristian sivilizatsiyasi bilan sintez bo‘lib ketgan Meksika millati singari.

Keyingi muhim ahamiyatli omil, bu - u yoki bu millatning o‘z-o‘zini anglay olishidir. Anglay olish darajasi esa ko‘plab omillarga, jumladan, iqtisodiy faravonlikka, milliy tarbiyaga, qo‘shni millatlar, davlatlarga va boshqa narsalarga bog‘liq bo‘ladi. Anglay olish jarayoniga ekstremal holatlar, urushlar, millat boshiga tushgan kasofatlar ta’sir qilishi mumkin, jarayonni tezlashtirishi yoki susaytirishi mumkin. Antitarbiyaga ham bog‘liq bo‘ladi, masalan, Rossiyada Sibirming kichik xalqlarida, mordva, mariy, chuvashlarga o‘xshagan xalqlarda yillar davomida o‘z millatini ikkinchi sortli deb agitatsiya olib borilishi natijalari tufayli, bu o‘limga mahkum kichik millatlarda o‘zini rus deb hisoblash ma’qul bo‘lib qolmoqda. Millatni o‘z-o‘zini anglashiga alohida dini, alohida urf-odati, madaniyati, genetikasi kabilarda kuchli ta’sir qilishi ham mumkin. Masalan, asrlar davomida islom dunyosi ichiga qolib ketgan armanlar singari [5, 6].

Millat vakillarining o'ziga xos fikrlash tarzi, yani mentalitet ("Mentalitet (lotincha *mens* – aql, idrok) - jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan, ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvatini ifoda etuvchi tushuncha" [14, 15]) ham millatning yashovchanligiga ta'sir qiladi. Mentalitet esa asrlar davomida, ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi, jumladan, sharq sivilizatsiyasi va g'arb sivilizatsiyasi o'ziga xos mentalitetlarni shakllanishiga olib kelgan. Masalan, Osiyo davlatlarida despotlar ko'p chiqqan, buning sababi o'ziga xos mentalitetga borib taqaladi.

Ozbek xalqining o'ziga xos mentaliteti tufayli asrlar davomida chetdan kelgan kelgendilar (eronliklar, greklar, arablar, mug'ullar, ruslar va boshqalar) hukmronlik qilishgan. Bu bosqinchilar davrida esa dinlar ham, urf-odatlar ham, tillar ham o'zgarib boravergan, ammo genosiddan saqlanib qolib bilgan. Biz hali o'zbek mentalitetini chuqur o'rganishimiz kerak [7, 8, 9, 16]. Buning teskarisi, AQSh territoriyasidagi mag'rur hindular esa katta kuchga ega bo'lgan yevropaliklar qarshishida hech narsa qila olmay, qirilib ketishgan. Mentalitet asrlar davomida shakllanadi, u ancha konservativ, uni o'zgartirish qiyin, ammo uni sekin-asta tarbiyalab, yaxshilab borish mumkin.

O'zbek xalqiga kelsak, u o'ziga xos va kuchli mentalitetga ega. Shu bilan birga uning ijobiy va salbiy qirralari bor, jumladan, xalqimiz mentalitetiga bag'rikenglik va hotamtoylik xos, mehmondo'stlik xislatlari ham yuqorti, o'zbek o'zaro hamkorlikda moyil kishilardan tashkil topgan, g'am-anduhi paytlarida nochor kimsalarga hamdardlik mavjud hamda yelkadoshlik fazilatlar ham unga xos. Uning fe'liga jo'sh urgan mehrni, ishda, oilada qattiqqo'lligi va intizomliligi bilan ajralib turadi, aniqlik va lo'ndalikni xush ko'radi. Xalqimiz tabiatni, avvalom-bor suvni mehnat mahsulini, birinchi navbatda nonni ezozlaydi. Bu xislatlarni saqlab qolish va rivojlantirish ustida ish olib borishimiz kerak. Millatimiz ravnaqini istasak, oldingi avlodlarda nisbatan kuchli bo'lgan, ammo mustamlakachilik davrida anchagina kamayib ketgan ota-bobolarimizga xos bo'lgan o'zbekning jangovarlik, mardlik, lafz halolligi, har ishda so'z va amal birligi, adolatliligi kabi xislatlarni tiklash, kuchaytirish ustida ishlashimiz kerak. Shu bilan birga xalqimizda uchraydigan tantanalarga o'chlik, yillar mobaynida yig'ib - terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishlik, o'zi, oilasi, millati masalasida keraksiz PRchilik, bolasi qirgqa kirgan bo'lsa ham o'zi yemay, uni edirish kabi xislatlar millat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etayotganligini tushunib yetish va ularni optimal me'yorga keltirish ustida ishlashi kerak. Bundan tashqari yosh avlodda har bir qilgan ishi uchun oilasi, ota-onasi emas, shaxsan ozi javobgarlik hissasini rivojlantirish, o'zi uchun o'zi hisob bera olish, mustaqil ish tutish, shaxsiy mas'ullik singari xususiyatlarni yanada takomillashtirish zarur. Mustamlakachilik davrida milliy mentalitetimizda kuchaygan hamma narsaga rozi bo'lib ketaverish, loqaydlik, yuqorida o'tirganlar aqlli va haqli deb qarash kabi hislatlar bilan ham kurashish maqsadga muvofiqdir [10, 16].

U yoki bu millatning yashab ketishiga tarixiy taqdir ham katta rol o'ynashi mumkin. Masalan, ikki yirik davlat o'rtasida qolib ketgan polyaklarga juda qiyin bo'lgan, ularning davlatini qo'shnilar uch marta yaksonlab tashlaganlar, yoki uzoq tarixga, o'ziga xos madaniyatga ega bo'lan ukrainlar esa jangara, juda katta ambitsiyalarga ega bo'lgan ruslar bilan qo'shni bo'lganligi ukrainlarning taqdiriga juda ko'p musibatlarni olib kelgan. Yoki juda katta kuchga ega bo'lgan xanlar kabi qo'shniga ega bo'lganligi uchun ham keyingi uch ming yil ichida qancha xalqlar, elatlar assimlatsiyaga uchrab, xanlar tomonidan yutub yuborilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Народ // Новая философская энциклопедия. iphlib.ru. Дата обращения: 10 апреля 2020. Архивировано 26 июля 2021 года.
2. Нация // Малый энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. - 2-е изд., вновь перераб. и значит. доп. Т. 1-2. - СПб, 1907-1909.
3. Nation // Black's Law Dictionary / Garner, Bryan A. - 10th (англ.) рус.- 2014. - С. 1183. - ISBN 978-0-314-61300-4.
4. James, Paul (англ.)рус.. Nation Formation: Towards a Theory of Abstract Community (англ.). - London: Sage Publications, 1996. - P. 34.
5. Капеллер А. Россия – многонациональная империя. - 1997. - С. 156.
6. Гавров С.Н. Национальная культура и модернизация общества. - М.: МГУКИ, 2003. - 86 с.
7. Shoniyozov K., O'zbek xalqining shakllanish jarayoni, T., 2001;
8. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev X., Vatan tuyg'usi, T., 1996;
9. Jabborov I., O'zbek xalqi etnografiyasi, T., 1994.
10. O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Millat>.

12. <https://farbitis.ru/uz/economic-geography/the-national-composition-of-the-worlds-population-and-ethnic-processes/>
13. <https://obrazovaka.ru/obschestvoznanie/naciya.html>.
14. <https://oyina.uz/uz/teahouse/1058>.
15. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mentalitet>.
16. <https://shosh.uz/ozbek-milliy-mentaliteti-haqida-bazi-mulohazalar/>
17. <https://moscsp.ru/uz/kratko-i-dostupno-chto-takoe-naciya-raznica-mezhdu-naciei-i.html>.

Soatov Anvar Mahkamovich
Jizzax Politexnika Instituti,
“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi
E-mail: a.soatov62@mail.ru

KLASTER DOIRASIDAGI ISHLAB CHIQRISH KOOPERATSIYASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ham hali bitta korxonona yoki tashkilotning yakka o‘zi yakuniy pirovard mahsulot yaratganligi kuzatilmadi. Ammo, hamjihat bo‘lib bir to‘plam doirasida mahsulot yaratish yoki xizmatlar ko‘rsatish ular iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. Amerika sanoatida, masalan, hozirgi kunda 500 mingdan ortiq kichik firmalar faoliyat ko‘rsatmoqda va ular mahsulot umumiy hajmining taxminan 40 foizini ishlab chiqaradi. Ushbu ko‘rsatkichlar Fransiyada 45 foizni, Yaponiyada 50 foizdan ko‘pni tashkil qiladi.¹ Ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda band aholining umumiy sonida kichik firmalar (100 kishigacha) ulushining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. Bu nafaqat kichik biznes uchun an‘anaviy bo‘lgan sohalar (xizmatlar)ga tegishlidir. Ispaniya kichik biznesning mumtoz mamlakati hisoblanadi. Bu yerda jami korxonalarining 99,7 foizini tashkil qilgan kichik korxonalar yalpi sanoat mahsulotining 70 foizini, eksportning 75 foizini beradi, ularda iqtisodiy faol aholining 85 foizi ish bilan band. Bular, asosan, ishchilari soni 25 dan 100 kishigacha bo‘lgan kichik korxonalar.

Yevropa Ittifoqida sanoat, xizmat ko‘rsatish va savdo sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi, ishchilarining soni 500 kishidan kam bo‘lgan kichik korxonalar ulushiga korxonalar umumiy sonining 90 foizdan ortig‘i to‘g‘ri keladi. Ularda Yevropa Ittifoqidagi barcha band aholining 65 foizi mehnat qiladi. Agar yirik korxonalar ishchilar sonini qisqartirsa, kichik korxonalar yangi ish o‘rinlari yaratadi.

Kichik korxonalarining o‘shish tendensiyasi hozir ham kuzatilmoqda. Biroq ayrim jihatlardan (texnologik rivojlanishni jadallashtirish, bozorlarning globallashtirishini kuchaytirish) ular yirik korxonalar qaranganda kam foyda keltiradi. Kichik korxonalar chet eldan moliyalash ular faoliyatidagi yangi xususiyat bo‘ldi, bu korxonaning tashqi bozorga yo‘naltirilishini kuchaytiradi (butun Italiya eksportining 40 foizini ishchilarining soni 300 kishidan ko‘p bo‘lmagan korxonalar beradi).

Iqtisodiy adabiyotlarda ta‘kidlanishicha, AQSh da korxonalar soni o‘shishining aksariyat katta qismi aynan o‘zaro sherikchilik asosidagi mayda, kichik firmalar sohasida kuzatildi. Ular 2022 yilda xususiy qishloq xo‘jaligiga aloqador bo‘lmagan korxonalar umumiy sonining 90 foizidan ko‘pini tashkil qilib, asosan biznes, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, yuridik va huquqiy masalalar bo‘yicha maslahatlar berish sohasida faoliyat ko‘rsatdi.

AQSh Milliy fondining ma‘lumotiga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shishining 40-50 foizi kiritilgan yangiliklar natijasi bo‘ldi, bunda so‘nggi yigirma yil ichida kiritilgan asosiy sanoat yangiliklarining yarmiga yaqinini ishchilarining soni 1000 kishigacha bo‘lgan firmalar berdi, ularning to‘rtidan bir qismi ishchilarining soni 100 kishigacha bo‘lgan o‘zaro sherikchilik asosidagi kichik firmalar ulushiga to‘g‘ri keladi².

Odatda, “Shahar jamoaviy mulki” korxonalarini “yirik jamoaviy” va “mayda jamoaviy” korxonalariga bo‘linadi. “Yirik jamoaviy” korxonalar dastlab aholi, mahalliy davlat korxonalarini va mahalliy hokimiyat organlarining mablag‘lari hisobidan tashkil etildi. “Mayda jamoaviy mulk” - bu jamoaviy, kooperativ, artel korxonalar bo‘lib, ularning fondi, asosan, o‘zaro birlashishga kirgan boshqa korxonalarining mablag‘lari va mehnatkashlarning pay badallari hisobidan tashkil topgan. So‘nggi yillarda kichik davlat korxonalarining bir qismi alohida jamoalarning mulkiga aylanib qolmoqda.

¹ Хикматов А.Х., Шепелев В.М. Некоторые аспекты осуществления экономической реформы в Узбекистане. Общественные науки в Узбекистане, 2007. № 3-4.

² Хоскинг А. «Курс предпринимательства: Практическое пособие». М.: Международные отношения, 2003

Xitoyda o'zaro hamkorlik asosida birlashgan korxonalar rivojining asosiy ijobiy omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Qishloqda qo'shimcha ish o'rinlarini tashkil etish hisobidan, shaharda aholining haddan ziyod ko'payib ketishiga yo'l qo'yimaslik. 2. Qishloq aholisi turmush darajasining o'sishi.

Shuni ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, Xitoy iqtisodiyotidagi katta muvaffaqiyatlar o'zaro hamkorlik asosida birlashgan korxonalar tarmog'ining rivoji bilan bog'liq.

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirgan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, xorijiy mamlakatlarda o'zaro hamkorlik asosida birlashgan tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta tajriba to'plangan bo'lib, u ushbu mamlakatlarning iqtisodiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyotni isloh qilishni va uni xo'jalik yuritishning bozor mexanizmlariga o'tkazishni izchil amalga oshirayotgan O'zbekistonda turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning klaster doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda, quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- iqtisodiyotning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning klaster doirasining yanada rivojlanishini ta'minlash, bunda ushbu toifaga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish ulushini 1,5-2 marta oshirish va uni rivojlangan mamlakatlar erishgan o'rtacha ko'rsatkichlargacha yetkazish;

- turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning klaster doirasining rivojlanishiga qarab (mamlakat va uning mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda) ularning ishlab chiqarish kooperatsiyasini qo'llab-quvvatlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хикматов А.Х., Шепелев В.М. Некоторые аспекты осуществления экономической реформы в Узбекистане. Общественные науки в Узбекистане, 2007. № 3-4.

2. Хоскинг А. «Курс предпринимательства: Практическое пособие». М.: Международные отношения, 2003.

Nosirov Husniddin Xusanboy o'g'li

**Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Iqtisodiyot
" fakulteti marketing ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.**

Email: nosirovhusniddin42@gmail.com

R.Karimjanova

**Namangan muhandislik-texnologiya instituti
marketing kafedrasi katta o'qituvchisi**

NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA HUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA HUNARMANDCHILIKNI O'RNI

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish Davlat dasturining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish suratin ta'minlash" ustuvor yo'nalishini amalga oshirish borasida Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80% ga va eksportdagi ulushini 60%ga yetkazish, xududlarda 200ta sanoat zonalarni tashkil etish va biznes inkubatorlar tuzulishini rivojlantirish, sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, 2026-yilga borib tadbirkorlik subektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27% dan 25% foizi darajasiga kamaytirish, xududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiyl sektorga keng yo'l ochish vazifalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat va shart-sharoitlarni o'rni beqiyosdir.

Xususan: Mamlakat Prezidenti tomonidan 2021 yil 23 martda qabul qilgan "Aholi va tadbirkorlik subektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmonga muvofiq, 2021 yil 1 iyundan boshlab davlat organlari va tashkilotlar tomonidan fuqarolar va tadbirkorlardan ko'plab hujjatlarni talab qilish bekor qilindi. [Lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar №PF-60].¹

¹ Lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar №PF-60

Biznesda soliq solish sohasida tadbirkorlik uchun sharoitlarni yaxshilashga ham e'tibor qaratildi. 2021-yil 7-sentyabrdagi "Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga asosan, 2022 yil 1 yanvardan boshlab, kameral soliq tekshiruv natijalari bo'yicha aniqlangan huquq buzarlilar uchun moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi, shuningdek, tadbirkorlik subektlari tomonidan soliq hisobotini belgilangan muddatlarda taqdim etmaganligi uchun moliyaviy sanksiyalar ham bekor qilindi.

2021 yil 15 sentyabrdagi "Tadbirkorlik sub'ektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonga muvofiq, 2021yil 1-oktabrdan qat'iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchisi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq olganlarga soliq hisobotini topshirish majburiyati bekor qilindi. Bundan tashqari, ushbu farmon bilan 2022 yildan boshlab tadbirkorlik subektlariga ma'muriy bosim darajasini aniqlash va yengillashtirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati erkinligi indeksi joriy etildi.

Tadbirkorlikning shakllanishi ijtimoiy va iqtisodiy sharoit bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy sharoit, avvalo, xaridorlarning didi va modaga javob bera oladigan tovarlarni sotib olishga intilishi bilan belgilanadi. Turli bosqichlarda ushbu talab o'zgarib turishi mumkin. Bunga ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liq ahloqiy va diniy me'yorlar jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu me'yorlar xaridorlarning turmush tarziga va u orqali tovarlar talabiga bevosita ta'sir etadi.

Bizga ma'lumki, jamiyat ijtimoiy iqtisodiy tizimining dastlab va birlamchi asosiy bo'g'ini oila hisoblanadi. Oila - kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyligi va talab-ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo'lgan majmua, yani mikroijtimoiy tuzilmadir. Iqtisodiy jihatdan qaraganda oila uy xo'jaligi bo'lib, mikroiqtisodiy tizimining asosiy qismi hisoblanadi. Uning boshqa qismini esa firma, korxon va iqtisodiy sektor tashkil etadi. Oila shu qismlar bilan birgalikda makroiqtisodiy tizimga birikadi.

Ayni vaqtda Namangan viloyatida oilaviy biznesning o'ndan ortiq shakllari mavjud bo'lib, milliy iqtisodiyotda katta ahamiyatga ega. Birinchidan u aholi uchun zarur bo'lgan mahsulot va xizmatlarni yaratadi, ikkinchidan, oiladagi ishchi kuchini mehnat bilan band etib, oilaga o'zini-o'zi daromad bilan ta'minlash imkonini beradi. Oilaviy biznesning qator afzalliklari borki, bular uni raqobatbardoshligini belgilovchi omil hisoblanadi.

Oilaviy biznes kichik bo'lgani sababli katta kapital talab qilmaydi, uni boshlash uchun pul topish yengil bo'ladi.

Oilaviy biznes oilaning ixtiyoridagi ko'chmas mulkka tayanadi, oila uyida yuritilgani uchun kapital qurilish yoki joyni ijaraga olishni talab etmaydi.

Oilaviy tadbirkorlikning yana bir turi bu hunarmandchilikdir XX asrning oxirlariga kelib, sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi qatori xizmatlar sohasida xunarmandchilik sohasi ham jadal rivojlanish bosqichiga o'tdi. Xunarmandchilik sohasi postindustrial jamiyat rivojlanishining eng asosiy lokomotivlaridan hisoblanadi. Xunarmandchilik sohasi tushunchasi uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lib kelgan, u madaniyatning bir qismiga aylandi. 19-asrning o'rtalaridan boshlab xunarmandchilik sifatida rivojlandi. Badiiy faoliyat, u sanoat ishlab chiqarishi uzviy bog'liq tarzda rivojlandi, san'at va hunarmandchilik sintezining paydo bo'lishi ta'sirida (19-asrdagi ingliz harakati san'at va hunarmandchilik) faol badiiy va ishlab chiqarish faoliyatini aralashgan holda tashkil etila boshladi. Bunga misol sifatida Germaniyaning "Verkbund", Peter Berensni "AYEG" kompaniyalari, "Ford" amerika avtomobil kompaniyasini ko'rsatish mumkin.

Namangan viloyatida bugungi kunda hunarmandchilik sohasi jadal rivojlanmoqda. Jumladan: 2022-2023 yillarda xotin-qizlarning kichik biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratish, hunarmandchilikni yanada rivojlantirish maqsadida subsidiyalar berish, har bir hududda xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari va klasterlarini tashkil qilish, xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish, mintaqaviy markazlar ochish choralarini ko'rish, tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni realizatsiya qilishga ko'maklashish, xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish va biznesga jalb qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Namangan Viloyatida bugungi kunda faoliyat olib borayotgan jami hunarmandlar soni 2221 nafar bo'lib shundan 644 nafari xotin-qizlarni tashkil etadi. Jumladan Namangan shahar 63 nafar, Kosonsoy tumanida 34 nafar, Mingbuloq tumanida 29 nafar, Namangan tumanida 53 nafar, Norin tumanida 60 nafar, Pop tumanida 22 nafar, To'raqo'rg'on tumanida 29 nafar, Uychi tumanida 20 nafar, Uchqo'rg'on tumanida 79 nafar, Chortoq tumanida 75 nafar, Chust tumanida 118 nafar, Yangiqo'rg'on tumanida 62 nafar hunarmand xotin-qizlar faoliyat olib bormoqda.

"Usta-shogird" maktablari faoliyati yaqindan o'rganilib, tahlil qilinib va rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida hunarmandchilik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarni "Usta-shogird" maktablariga jalb qilish ishlari olib borilmoqda. 2022 yil davomida hunarmandchilikning 34 ta yo'nalishi

bo'yicha 7 159 ta (916 ta hunarmandlar, shundan 422 nafari ayol, 6 243 ta shogirdlar shundan 4156 nafari ayollar hisobiga) yangi ish o'rinlari yaratildi.

Viloyatimizda nogironligi bo'lgan hunarmand ayol-qizlarimizni imtiyoz asosida uyushmaga a'zo qilib kelinmoqda. 2022-yilda 8 nafar nogironligi bo'lgan hunarmandlar faoliyat yuritib "Usta-shogird" an'anasiga ko'ra shogirdlariga hunar o'rgatib ish o'rinlarini yaratib kelishmoqda.

2022 yil 19-21 avgust kunlari "Toshkent suvenerlari" ko'rgazmasi, 11-12 noyabr kuni Samarqand shahrida o'tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti Sammiti doirasida tashkil etilgan ko'rgazmada, Rossiya Federatsiyasining Samara shahrida o'tkaziladigan "Made in Uzbekistan" xalqaro yarmarkasida, Toshkent shahrida o'tkazilgan "Graft Fair Uzbekiston-2022" hunarmandchilik va texnologiyalari yarmarkasida, shuningdek viloyatimizda o'tkazilgan mehnat yarmarkalarida, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi bilan hamkorlikda "Ayol-millat ko'zgusi", "Xon atlas", "Asal" nomli festivalga jalb etish orqali 50 nafar hunarmand ayollarimizning o'z maxsulotlari bilan ishtirok etishgan.

Hunarmand ayollar faoliyatiga doir islohotlarni respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari, shuningdek, Uyushmaning <http://handicraftman.uz> sayti va boshqa tarmoqlarida yoritilishini ta'minlash ishlari doimiy ravishda yo'lga qo'yilgan.

Jumladan: 8 nafar xotin-qizlarni faoliyatlari viloyat televideniyesi, mahalliy ommaviy axborot vositalari, shuningdek, Uyushmaning <http://handicraftman.uz> sayti orqali yoritildi. 4 nafar xotin-qizlarni faoliyatlari mahalliy ommaviy axborot vositalari, shuningdek, Uyushmaning <http://handicraftman.uz> sayti orqali yoritildi.

Shuningdek xozirgi kunda 644 nafar hunarmand ayollardan 634 nafari ishlab chiqargan mahsulotlarini sotishni yo'lga ko'ygan. Bugungi kunda Namangan viloyatida hunarmandchilik sohasida yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo'lib bularni yechimi borasida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni beramiz

1. Hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi ayollarning chet elda bo'lib o'tadigan ko'rgazmalarga borish uchun moliyaviy imkoniyatlari yo'q. Hunarmandchilikni rivojlantirish, ushbu sohada ayollar bandligini ta'minlash hamda ularning realizatsiya qilishlariga ko'maklashish maqsadida chet ellarda bo'ladigan ko'rgazmalarga ko'proq jalb etish va harajatlarni asosiy qismini budjet mablag'laridan qoplab berish.

2. Mahallalarda norasmiy ravishda hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi ayollarni rasman faoliyat yuritishlari uchun Oila va xotin-qizlar tuman bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda MFYlardagi Ayollar faollari norasmiy ravishda hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi ayollarni "Hunarmand" uyushmasiga jalb etishi va bu orqali ish o'rinlari ko'payishiga va hunarmandchilik rivojlanishiga erishiladi.

Qurbonova Xumora Begmurodovna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
"Iqtisodiyot" kafedrasida stajor-tadqiqotchisi

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA OLIY TA'LIM VA PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARINING INTEGRATSION HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

**"Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli,
millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan,
ta'lim va tarbiyadir".
Sh.M.Mirziyoyev**

Bugun hayotimizning barcha jabhalarida davom etayotgan chuqur islohotlarning eng muhimlaridan biri sifatida yangi O'zbekiston ta'lim tizimida ilm-fanni rivojlantirish, ushbu sohani takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni e'tirof etishimiz mumkin.

Dunyo taraqqiyotiga nazar tashlasak, ilm-fanni, ta'lim tizimini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratmagan hech bir davlat rivojlana olmaganligini ko'ramiz. Garchi ulkan tabiiy boyliklari mavjud bo'lsa-da, bugungi kunda xalqi kambag'al, o'zi notinch bo'lgan davlatlar ham bor. Shuningdek, Yaponiya, Singapur, Malayziya, AQSh, Germaniya singari o'z taraqqiyotini ilm-fanni rivojlantirish, fuqarolarining ilmiy va texnikaviy erkinliklarini ta'minlash, ularni qo'llab-quvvatlash bilan bog'lagan, taraqqiy etgan, xalqi boy, mamlakati gullab yashnagan davlatlarni ham ko'rishimiz mumkin. XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu esa ta'lim tizimida tub islohotlar qilishni talab etayapti. Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlar barcha ta'lim

muassasalarining yangicha zamonaviy qiyofasini ko'zlamda desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 6 sentyabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Mazkur Farmon O'zbekiston tarixida yangi professional ta'lim tizimini tashkil etishga asos bo'ldi. Hozirgi kunda kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarining moddiy texnik bazasi mustaxkamlanib, ta'lim sifati yuqori bosqichga ko'tarilib borilayotgan bir vaqtda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash tizimi ham yo'lga qo'yildi. Shuni ta'kidlash zarurki, professional ta'lim muassasalari va oliy ta'lim tizimining integratsion hamkorligini rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlar ta'lim sohasidagi islohotlarning katta qismini tashkil etadi hamda mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishning poydevori hisoblanadi. Xususan, Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan ishlohotlarning bir qismi sifatida ta'limning Xalqaro standart tasniflagichining 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan, vazirlik, idora, tashkilotlar tizimida faoliyat ko'rsatadigan 143 ta texnikumni ta'kidlash lozim. Endilikda professional ta'lim tizimining asosiy talabi- ta'limning sifatiga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasida professional va oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida davlatimiz rahbarining farmoni bilan qabul qilingan, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" ushbu sohadagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishga zamin yaratadi. Ushbu strategiyada intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, oliy ta'lim hamda professional ta'lim tizimining integratsion hamkorligini rivojlangan jahon tajribalari asosida tashkil etish, oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, oliy ta'lim tassarrufidagi texnikum ilmiy-tadqiqot ishlariga oliy ta'lim professor-o'qituvchilarning jalb qilinishini qo'llab quvvatlash hamda yangi sifat darajasiga ko'tarish, bu o'zgarishlar dunyo ilm-fani tizimida e'tirof etilishiga erishish uchun oldimizga bir qancha vazifalar belgilab qo'yadi. Bugungi kunda professional ta'lim tizimini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratish lozim. Joylarda ishsizlik kuzatilayotgan bir paytda ishchi kasblar bo'yicha mutaxassislariga katta ehtiyoj borligi qayd etildi. Masalan, yengil sanoatda 46 ming, qurilishda 104 ming, metallga ishlov berish bo'yicha 71 ming, xizmat ko'rsatish sohasida 67 ming nafar mutaxassis yetishmayapti. Bu ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida uyg'unlik yo'qligi oqibatidir. Shu bois bitiruvchining ishga joylashishi yoki o'z biznesini yo'lga qo'yishi ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy mezon bo'lishi kerak.

Professional ta'lim tizimining asosiy prinsipi - avval ish o'rni aniq bo'ladi, ish beruvchi o'zining malaka talablarini, shu kasbning ilmini, o'qitish texnologiyasini beradi, shundan keyingina mutaxassis tayyorlanadi. Oliy ta'lim tassarrufidagi texnikumlarining ilmiy-tadqiqot markazlari oliy ta'lim muassasalarida filiallarini ochish, ta'lim tizimi raqobatbardoshligini ta'minlash, shu maqsadda Texnikum o'qituvchilarining makalasi oshirishni oliy ta'lim muassasasida yo'lga qo'yish, professor-o'qituvchilarning ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarligi yo'lga qo'yish hamda natijalarini dunyoning yetakchi ilmiy jurnallarida e'lon qilishga katta e'tibor qaratish lozim

Atadjanova Shahnoza
UrDU Turizm yo'nalishi 2-bosqich magistranti

TURISTIK DESTINATSIYANI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI.

Davlatimiz rahbarining 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi. Ammo joylashtirish vositalari va infratuzilma obyektlarining, ayniqsa turizm mavsumida yetishmasligi, turli transportlarda yo'lovchilarni tashish tizimining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashni tashkillashtirish darajasining pastligi, ichki turizmni, mamlakat hududlaridagi madaniy meros obyektlarining va ziyoratning o'ziga xosliklarini targ'ib qilish bo'yicha marketing kompaniyalarining samarasizligi turizmni jadal rivojlantirishga salbiy ta'sir qilmoqda¹. Albatta bu muammoni yechimi sifatida mintaqada destinatsiyalarni samarali boshqaruvni yo'lga qo'yishda bu borada yetarli tajribaga ega bo'lgan xorij mamlakatlari tajribalaridan foydalanish lozim.

Bugungi kunda turizm sohasida destinatsion marketing va menejment eng rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biridir. Destinatsion menejmentning qanday muhim ahamiyatga ega ekanligini bilgan holda, Destinatsion Menejment Tashkilotlari asosan chet mamlakatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xalqaro

¹ PF-5611-“ O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI JADAL RIVOJLANTIRISHGA OID QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA”, 5-yanvar 2019.

Destinatsiyalar Tashkilotiga dunyo mamlakatlarining 600 ga yaqin destinatsion menejment tashkilotlari a'zodir. Xalqaro Destinatsion Marketing assotsiatsiyasi(DMAI), Yevropa shaharlari marketinggi(ECM), G'arbiy Destinatsion Menejment Assotsiatsiyasiya(DMA West)lari kabi Destinatsion Menejment tashkilotlari asosan destinatsiyalarni manfaat va mavqeilarini yuksaltirishga asoslangan professional malaka oshirish tashkilotlaridir. Xalqaro Assotsiatsiyalar Konvensiya buyrosida 1914-yil Xalqaro Destinatsiyalar Tashkilotiga asos solingan va u 25 yildan ortiq tarixga egadir. Hozirda ushbu tashkilotga Yevropaning taxminan 108 ta shahri a'zolik qilmoqda. Madridda joylashgan Butunjahon Turizm Tashkiloti esa Menejment&Quality dastur doirasida destinatsion boshqaruvga bag'ishlangan bir qancha konferensiyalar o'tkazib kelmoqda. Dasturning asosiy maqsadi esa destinatsiyalar sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan. Dasturning yana bir majburiyati mahalliy, mintaqaviy va milliy darajadagi turizmni rivojlantirishda raqobatbardoshlikni va integratsiyalashgan sifat istiqbolini ta'minlovchi samarali takomillashtirilgan strategik ko'rsatmalar berishdan iborat edi. Destinatsion menejment AQSh va Yevropa mamlakatlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. AQSH da destinatsiyalarni tashkil etish va boshqarishda "Korporativ-aloqa" modelidan keng foydalaniladi. Bu modelda turistik destinatsiyalarni tashkil qilishda jug'rofiy joylashuvni hisobga olish, unda faoliyat yurituvchi iqtisodiy sub'ektlarning mavqeini belgilash va o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, shuningdek, bu jarayonda hududiy siyosat ta'siri, hamda destinatsiyani rivojlantirishda turistik tashkilotlarning ahamiyati aks ettirilgan. Bu konsepsiya asosida turistik destinatsiyani rivojlantirish O'rta yer dengizi va Shimoliy Amerika destinatsiyalarida keng qo'llaniladi.

Mintaqada destinatsion menejmentni yo'lga qo'yish – mintaqada turizmni samarali boshqaruvini ta'minlaydi. Bu borada biz xorij tajribalariga tayangan holda, O'zbekistonda ham destinatsion menejment kompaniyasi faoliyatini yo'lga qo'yishimiz lozim. Mamlakatimizda turizmni tartibga soluchi tizim – O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ammo UzDMC – bu ma'muriy-boshqaruv organ emas, balki marketing boshqaruv organidir, u O'zbekiston uchun turistik oqimlarni shakllantirish va yo'naltirish faoliyatida bevosita qatnashadi. Uning bosh ofisi O'zbekistonda faoliyat ko'rsatadi. U ham xuddi mahalliy sayohatgoh boshqaruv organlari singari o'z tuzilmasiga ega bo'lib, "informatsion texnologiyalar", "tashqi aloqalar", "buxgalteriya va kadrlar", "marketing va jamoatchilik bilan aloqalar" bo'limlaridan tarkib topgan va undan farqli o'laroq milliy jozibador sayohatgohlar haqida ma'lumot to'plash va ularni milliy darajada shakllanishini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Ushbu vazifalarni bajarishda u mustaqil shakllangan "Toshkent destinatsiya", "Buxoro destinatsiya", "Samarqand destinatsiya", "Xorazm destinatsiya" va boshqa mahalliy sayohatgoh boshqaruv organlari bilan hamkorlik qiladi¹. Ular o'rtasida ancha tavofutlar mavjuddir.

"O'zRTMM" bosh boshqarmasi va "O'zbekdestinatsiya" Mksi o'rtasidagi tafovutlar².

	Tafovut alomatlari	"O'zRTMM" bosh boshqarmasi	"O'zbekdestinatsiya" menejment kompaniyasi
1.	Mulk shakli	Davlat mulki	Aralash mulk
2.	Tashkilot shakli	Ma'muriy-boshqaruv organi	Marketing-boshqaruv organi
3.	Vazifasi	O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning yagona davlat siyosatini amalga oshirish	O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning yagona davlat siyosatini amalga oshirish
4.	Bozorni tartibga solishda ustuvor usullar	Ma'muriy usullar	Iqtisodiy usullar
5.	Boshqaruv ob'yekti	Turistik korxonalar va tashkilotlar	Turistik taklif tizimi
6.	Turizmning qaysi shaklini boshqarishi	Kirish, chiqish va ichki turizmlar	Kirish va ichki turizmlar
7.	Talabni shakllantirish	Turistik korxonalarining marketing faoliyatlarini muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash evaziga	Zamonaviy infrastrukturallarni joriy qilish, turistik oqimni vujudga keltiruvchi muhitda jismonan mavjud bo'lish evaziga

¹ IBRAGIMOV NUTFILLO SALIMOVICH DESTINATSION MENEJMENT: davlat miqyosida turizmni bozor usulida boshqarish san'ati, monografiya.


²IBRAGIMOV NUTFILLO SALIMOVICH ishlanmasi.

Training highly educated economists based on economic research: problems and innovative solutions

8.	Taklifni shakllantirish	Anʻanaviy turistik taklif bilan cheklanib, turistik paketlarga asoslangan	Egiluvchan va innovatsion turistik taklif tizimini yaratib, destinatsiyalarga asoslangan
----	-------------------------	---	--

Destinatsion menejment funksional tashkilot sifatida uch darajali: xalqaro, milliy va mahalliy sayohatgoh boshqaruv apparatidan tarkib topgan taqdirdagina turistik talab va taklifni uygʻunlashtiruvchi vosita vazifasini bajarishga qodir boʻladi.

Oʻzbekiston milliy sayohatgoh boshqaruv organining tashkiliy tuzilmasi¹.



Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti ,
mustaqil tadqiqotchisi,
xuvaydullayevairoda@mail.ru

MEHNAT BOZORIDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH.

Annotatsiya: Aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihalaridan biri boʻlib, u mehnat masalalari bilan bogʻliq muammolarni hamda mehnatga boʻlgan taklif va talablarni qondirish yoʻllarini ochib beradi. Shuning uchun bugungi kunda yoshlarni bandligini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz yangi loyihalarni amalga oshirmoqda.

Kalit soʻzlar: yoshlar bandligi, milliy iqtisodiyot, mehnat bozori, ishsizlik, yangi ish oʻrinlari.

Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qoʻllab-quvvatlash uchun qilinadigan sarflar aholini ish bilan ta'minlanishiga bogʻliqdir. Shuning uchun aholini ish bilan bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarni tadqiq etish bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-sonli qarorida “Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish,

¹ IBRAGIMOV NUTFILLO SALIMOVICH ishlanmasi.

yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida:¹

1. mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

2. yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish, deb PQ belgilandi.

Yoshlarga Prezidentimiz tomonidan berilayotgan yuksak e'tiborni biz "Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022 yildagi "2022-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 310-son qarori qabul qilindi.² Unda Prezidentning 2021 yil 13 iyuldagi PF-6260-son³ Farmoniga muvofiq yoshlar tomonidan ko'tarilgan taklif va tashabbuslar, muammo hamda masalalar yechimi yuzasidan har yili "Yoshlar kuni" arafasida hukumatning dasturi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklarining alohida hududiy dasturlari qabul qilinadi. Mazkur dasturlar yoshlarning bilim va kasb-hunar egallashi, ular uchun munosib ish va turmush sharoitini yaratish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlardan iborat bo'ladi" ko'rishimiz mumkin.

Akademik Q.Abdurahmonov tomonidan "...ish bilan bandlikning eng kam deganda to'rt ijtimoiy jihatini hisobga olish lozimligini, ish bilan bandlikning insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqligi, turmush darajasi va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ish bilan bandlik mehnat faolligini oshirish, mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolati, har kimning va umuman, jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirish, aynan mehnat faoliyati insonni o'zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko'paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradi"², iqtisodchi olimlardan I.M.Aliev, N.A.Gorelov, L.O.Ilnalar ushbu tushunchaga: "Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hamda mehnatdan daromad (ish haqi) keltiruvchi ijtimoiy foydali mehnat sifatida namoyon bo'lishi mumkin"⁴ deb takidlangan.

Bugungi yoshlar eng bilimli avlodidir. Biroq, ular mehnat bozoriga kirish va uni saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ularning ko'pchiligi uchun ishga o'tish muammoli. Yoshlarning ish bilan ta'minlanishi iqtisodiyotning umumiy ahvoli va mamlakatdagi umumiy bandlik holati bilan bog'liq. Shu bilan birga, ularga yoshlarning ta'lim va ko'nikmalari, bu ko'nikmalarning mehnat bozoriga mosligi, yoshlarga ushbu ko'nikmalarni qo'llash va ulardan foydalanish imkoniyatlari ham ta'sir qiladi. Ushbu omillar o'rtasidagi nomuvofiqlik ishsizlik davrlari yoki past malakali va xavfli ish bilan bog'liq bo'lgan uzoq vaqt ish qidirishga olib kelishi mumkin. Bu esa yoshlarning o'zlariga, shuningdek, o'z mamlakatlari iqtisodiyoti va jamiyatlariga katta muammo bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollarida xususiy sektorlarda asosiy ish o'rinlarini ta'minlovchi sifatida yoshlar uchun yangi va yaxshi ish o'rinlarini topishda muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan ko'plab mamlakatlarda alohida kompaniyalar yoki ish beruvchilar uyushmalarining mahalliy va milliy darajadagi tashabbuslari gullab-yashnamoqda. Bu tashabbuslar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va institutsional kontekstga, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalariga, ma'lum bir mamlakatdagi biznes hamjamiyatining ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab turlicha bo'lishi shart. Biroq, umuman olganda, ular kompaniyalar va ish beruvchilar yoshlar bandligiga e'tiborni kuchaytirayotganidan dalolat beradi.

Ushbu eng yaxshi amaliyot qo'llanma menejerlar va ish beruvchilar uchun mo'ljallangan. Bu yosh ishchilarni yollash va inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratishda istiqbolli yondashuvni qo'llashning afzalliklarini tushuntiradi. Maktabdan ishga o'tish katta qadamdir. Oldinga fikrlaydigan ish beruvchilar yosh ishchilarning ish kuchiga o'tishlari va ishda ijobiy ishtirok etishlariga yordam berish muhimligini tushunishadi. Bu korxonalar biznes va uning xodimlarining ehtiyojlarini qondiradigan amaliy, qo'llab-quvvatlovchi va moslashtirilgan siyosatlarni amalga oshiradilar. Har bir ish joyi yosh ishchilarni yollashda ilg'or yondashuvdan foydalanishi mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-sonli qarori.

² Yoshlarga Prezidentimiz tomonidan berilayotgan yuksak e'tiborni biz "Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022 yildagi qarori

³ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/2022-

[2023 yillarda eshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturi tasdiqlandi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/2022-2023_yillarda_eshlarga_oid_davlat_siyosatini_amalga_oshirish_dasturi_tasdiqlandi)

2.К.Абдурахмонов. Меҳнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт / Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.:

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «FAN» нашриёт давлат корхонаси, Т.: 2019. – 257

⁴ Экономика труда: учебник /И.М.Алиев,Н.А.Горелов, Л.О.Ильина-М.:Издательство Юрайт, 2012. с. 123

9. Tairova M., Xurramov O., Odinaeva N. An important role of internet marketing in digital tourism //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.

10. Kayumovich K. O., Gulyamovich D. I., Khudoynazarovich S. A. Information and information technologies in digital tourism //Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia. – 2020. – С. 32.
11. Хуррамов О. К. Как мы можем использовать интернет-маркетинг в сфере гостиничной индустрии //Современные тенденции и актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в России. – 2017. – С. 344-349.
12. Navruz-zoda B. N., Khurramov O. K. Features and opportunities of digital tourism and its development in Uzbekistan //European research: innovation in science, education and technology. – 2020. – С. 22-24.
13. Хуррамов О. Особенности использования маркетинговых инструментов в социальных медиа //Alatoo Academic Studies. – 2016. – №. 2. – С. 236-249.
14. Khurramov O. K. The convenience of electronic marketing in tourism industry //Теория и практика современной науки. – 2019. – №. 5. – С. 35-38.
15. Khurramov O.K., Fayzieva S.A., Saidova F.K.,Khalilov B.B., Fayzieva S.K., Directions for improvement digital tourism and tourism info structure in Uzbekistan // Journal of Critical Reviews, 2020. Vol. 7

Najmiddinova Muslima Azamat qizi
Farg‘ona politexnika institute
64-22M guruhi talabasi

EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA RESURSLARDAN FOYDALANISHNI OPTIMALLASHTIRISH

Kirish. Jamiyatdagi har bir shaxsning daromadlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, iloji boricha yaxshiroq yashashga harakat qiladi. Bu esa, bizning istaklarimiz muayyan omillar sabab deyarli hamma vaqt o'zgarib turishini anglatadi. Iqtisodiyotning boshqa yo'nalishlarga qaraganda murakkablik tomoni ham shundadir. Ya'ni insonlarning hulq-atvorini, xohish-istaklarini oldindan aniqlilik bilan aytib bo'lmaydi.

Asosiy qism. Bizning ehtiyojlarimiz doimo o'zgarishi va ko'payishi mumkin, ammo ularni qondirish masalasi ham bor. Chunki, hamma vaqt ham biz hoxlagan tovar yoki xizmatni topib bo'lmaydi. Iqtisodiyotning eng asosiy muammosi ham shundan iborat. Cheklangan resurslar orqali, cheklanmagan ehtiyojlarimizni qondirish. Shuning uchun ham iqtisodchilar dunyoga boshqacha nazar bilan qarashlari va ushbu muammolarni hal etishda o'zgacha yo'nalishni tanlashi kerak. Nobel mukofoti sovrindori Geri Bekker aytganidek[1] : " Iqtisod hayotning barcha imkoniyatlaridan foydalanish san'atidir ".

Resurslar cheklangan bo'lsada, hozirgi kundagi rivojlanish sababli, ulardan samarali foydalanishimiz mumkin. Buning uchun eng asosiy omillardan biri zamonaviy texnikalar bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida ularning eng muqobil variantlaridan foydalanish mumkin. Texnikalar nafaqat qisqa muddat davomida yuqori hajmda mahsulot ishlab chiqarish, balki atrof-muhitni ifloslanishini oldini olishi, yoki qolgan qoldiq chiqindidan ham yana qayta foydalanish imkonini beradi.

Bir tomondan olib qaraganda, cheklangan resurslardan zamonaviy texnikalar orqali yuqori samaradorlikka erishishimiz mumkin. Lekin, bu muammoning boshqa tarafi ham mavjud. Texnikalar samaraliroq bo'lgani bilan birga, ularni sotib olish yoki boshqa mamlakatdan olib kirish xarajatlari ham mavjud. O'zbekiston sharoitida mashina va uskunalarini ishlab chiqarish imkoniyati juda ham kam. Ularni import qilish esa, katta mablag'ni talab etadi. Mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasi bo'yicha ma'lumotlariga qaralganda, import exportdan ancha ko'p. 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi savdo hajmiga ko'ra, 9,1 mlrd dollarlik import amalga oshirilgan bo'lib, savdo hajmining 62 foizini tashkil etmoqda.[2]

1-jadval.

O'zbekistonning 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi tashqi savdosi¹

Savdo tarkibi	Import (mln. dollar)	Export (mln. dollar)	Savdo hajmidagi ulushi, (%)

¹<https://review.uz/uz/post/infografika-vneshnyaya-torgovlya-uzbekistana> ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Training highly educated economists based on economic research: problems and innovative solutions

Oziq-ovqat, ichimliklar, tamaki	1 046,6	373,6	10
Nooziq-ovqat xomashyosi (yoqilg'idan tashqari)	302,8	61,6	2
Yoqilg'i, moylash materiallari, shunga o'xshash mahsulotlar	742,6	85,9	6
Kimyoviy moddalar	1 188,3	282,8	10
Sanoat mollari	1 357,2	979,9	16
Mashina va uskunalar	3 634,6	260,2	26
Tayyor mahsulotlar	305,0	285,4	4
Xizmatlar	495,4	940,7	10
Boshqa tovarlar	18,3	2 419,3	16

Statistikaga asosan, 3 634,6 mln.dollarlik mashina va uskunalar import qilingan bo'lib, savdo hajmining 24,5 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, savdo hajmida sanoat mollarining ham ulushi katta. Lekin, uning import va export hajmi 9,3 va 6,7 foizni tashkil etadi.

Xulosa. Mamlakatimiz sharoitida resurslardan oqilona foydalanib, yetarlicha talabni qondirish uchun dastab uskuna va jihozlarning eng so'ngi, samaralisiga almashtirishimiz kerak. Biroq, ularni narxi, olib kelish xarajatlari va bu uskunalaridan to'g'ri foydalana oladigan malakali ishchilarga sarflanadigan xarajatlarni yaxshilab o'rganish kerak. Chunki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotishdan olinadigan foydamiz albatta, xarajatlarimizni qoplashi va shu davr davomida maksimal foyda erishishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yalang'och iqtisodiyot: murakkab sohaning sodda qiyofasi: Charles Uilan, tarjimon - Rahimjon Qudratov. - Toshkent: NIHOL, 2022. - 540 b.
2. O'zbekistonning 2023 yil mart oyidagi tashqi savdosi <https://review.uz/uz/post/infografika-vneshnyaya-torgovlya-uzbekistana>

Xamrayev Quvvat Iskandarovich
Uganch davlat universiteti
“Menejment va marketing” kafedrasi dotsenti
Karimova Shahnoza
Urganch Davlat Universiteti
2-bosqich magistranti

MINTAQADA ICHKI VA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA TURISTIK SALOHİYATNING AHAMIYATI.

Bugungi kunda nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, balki turizm sohasida ham kengaytirilgan islohotlar amalga oshirmoqda va ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholining turmush farovonligini yanada oshirishni ilgari suradi. Turizm O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va o'sishida muhim o'rin egallaydi. So'ngi yillarda boshqa sohalar qatorida mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirda dunyoda ibodatxona va ziyoratgohlarni o'rganishga qiziqish yildan-yilga oshib bormoqda, chunki muqaddas joylar insonlar kundalik hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Yurtimizda azaldan ziyoratgoh joylarga katta e'tibor bilan qaralgan, chunki dinimizda ham, qadriyatlarimizda ham ziyoratgohlarga muqaddas joy sifatida qarash odatiy holdir. So'ngi yillarda turizm sohasida O'zbekistonning turizm salohiyatini jahon miqyosida targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ichki va xorijiy sayyohlarning talablarini qondira oladigan darajada servis xizmatlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda dunyoga mashhur ziyoratgohlar, avliyolar o'tgan joylar ko'p va ular

nafaqat mahalliy balki xorijlik sayyohlarni ham o'ziga jalb qilmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Iso va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan".[1]

Mintaqamiz ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolarga boy va ularga tashrif buyurish Islom dinida kichik haj ziyoratiga tenglashtirilgan. Xususan, Xorazm viloyatidagi Shayh Muhtor Valiy, Sulton Uvays Bobo, Yusuf Hamadoniy qabrlarini ziyorat qilish xalq orasida Ka'baning ziyoratiga tenglashtiriladi. Har chorshanba va juma kunlari bu joylar ziyoratchilar bilan gavjum bo'ladi. Shu sababdan ham viloyatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish, ziyoratchilarga alohida qulaylik va shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida ham 35-maqсад aynan turizm sohasida bajarilishi kutilayotgan quyidagi dasturlarga qaratilgan:

- Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish;
 - "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln nafarga yetkazish;
 - Hududlarning turizm salohiyatiga oid targ'ibot materiallarini tayyorlagan holda ommaviy axborot vositalarida yoritish va infoturlar tashkil qilish;
 - Mahalliy sayyohlari sonini 2022 yilda 8,2 mln nafarga yetkazish;
 - Nomavsumiy oylarda chegirmalar taqdim etgan holda "Ichki turizm oyligi"ni tashkil qilish hamda "Ichki turizm haftaligi", "Ichki turizm kunlari"ni dasturlarini madaniy, ko'ngilochar, milliy hamda diniy bayramlar, katta sport tadbirlari doirasida amalga oshirish;
 - Yangi turizm yo'nalishlari va mahsulotlarini taqdim qilish. Jumladan, mahalliy aholi uchun turizm qishlog'i, eko, agro turizm va gastronomik ko'chalar, ziyorat turizmi marshrutlarini yo'lga qo'yish.
- [2]

Hozirgacha Xorazm viloyatida ichki turizm bo'yicha "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil", Manguberdi vataniga sayohat, Mo'ynoqqa sayohat dasturi doirasida 559,7 ming safar uyushtirildi, shundan ayollarning safari 3,9 mingni tashkil etadi. Viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun 8 ta diniy-ziyosat obyektlari, 98 ta masjid, 2 ta cherkov faoliyat ko'rsatmoqda. [3]

Bundan ko'rinib turibdiki, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun salohiyatimiz yetarli va biz ushbu resurslardan unumli foydalanishimiz kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish, turistik salohiyatimizdan oqilona foydalanish, mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishiga, valyuta tushumining o'sishiga, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalashuviga va aholi hayot tarzini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- bir nechta tilda turistik xaritalar, yo'l belgilari, buklet va broshuralar tayyorlash;
- sayohatchilarga xizmat ko'rsatish joylarini to'liq va zamonaviy kommunikatsiya aloqalari, internet va WI-FI bilan ta'minlash;
- bronlashtirish va chipta xarid qilishda shaffoflik va aniqlikni ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyevning IHT TIVK 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi Xorazm viloyati bo'limi ma'lumotlari.

Yax'yayev Otabek Yusupovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
[**yfoo7273@gmail.com**](mailto:yfoo7273@gmail.com)

ARAB MAMLAKATLARI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH TAJRIBALARI

Arab davlatlari bugungi kunda ko'plab jihatlari tomonidan dunyoga o'rnak bo'lmoqda. Ayniqsa iqtisodiy rivojlanish bilan, ba'zilar bu holatni faqat neft zahiralari bilan bog'lashadi, lekin bu yerda juda

ko'plab omillar mavjud. Biz birinchi Marokkashning kambag'allikni qisqartirish yo'lini tahlil qilib keyin umumiy tahlillarni keltiramiz.


So'nggi o'n yil ichida Marokkashda qashshoqlik darajasi 40 foizdan ko'proqqa kamaydi, Misr va Suriya kabi iqtisodiyoti kabi arab mamlakatlarida qashshoqlik darajasi mos ravishda atigi 6 va 11 foizga kamaydi. Karnegi Lahcen Achy xalqaro tadqiqot markazi Marokkashdagi qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha o'zining yaqinda o'tkazgan tadqiqotini muhokama qilib, ushbu yutuq ortidagi omillarni va boshqa mamlakatlar qanday saboq olishi mumkinligini o'rganib chiqdi.

Marokkash, Misr va Suriya kabi, so'nggi o'n yil ichida to'qsoninchi yillarga nisbatan yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sishini kuzatdi. Misr va Suriyadan farqli o'laroq, qashshoqlik darajasi sezilarli darajada pasaygan. So'nggi o'n yil ichida 1,7 millionga yaqin marokkashliklar qashshoqlikdan chiqib ketishdi. Ushbu muvaffaqiyatga qaramay, bir qator ko'rsatkichlar Marokkashning qashshoqlikni kamaytirish strategiyasining chegaralarini ko'rsatmoqda.

Ishlarning sifatsizligi, Yangi ish o'rinlari yaratilib, qashshoqlikdan xalos bo'lishga yordam bergan bo'lsada, ko'plari vaqtinchalik bo'lib, asosan norasmiy sektorda ijtimoiy himoyaga ega emas. Bu sifatsiz ishlar qashshoqlikdan chiqib ketganlarning orqaga siljishiga to'sqinlik qilmaydi.

Kuniga 1,9 dollarlik qashshoqlik chegarasiga ko'ra, 2015 yilda arab mintaqasi aholisining qashshoqlik darajasi taxminan 5,6%. Arab mintaqasi 1990-yildan 2015-yilgacha qashshoqlik darajasini 1,9 dollarga kamaytirdi, ammo bu ko'rsatkichni 1,9 dollardan oshirdi. 2010 yilda 4%. Bu shuni anglatadiki, arab davlatlari va Sahroi Kabirdan janubiy Afrika yagona mintaqadir. Agar 2010 yil bazaviy yil sifatida qabul qilinsa, 2030 yilgacha o'ta qashshoqlikni yo'q qilish. Qashshoqlik darajasi ancha past bo'lsada Qashshoqlik chegaralari 1,9 dollar yoki undan past bo'lsa, arablar uchun 1,9 dan 3,5 dollargacha bo'lgan qashshoqlik chegaralari uchun keskin oshadi.(1-rasm). Bu mintaqada aholining sezilarli darajada yuqori ulushi klasterlashganligini anglatadi 1,9 va 3,5 dollar oralig'idagi chiziqlar o'ta qashshoqlikning pastligini, ammo unga nisbatan zaiflik yuqori ekanligini ko'rsatadi. Buning ma'nosi shundaki, har qanday ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning kambag'allikka salbiy (yoki ijobiy) ta'siri va mojarolar sezilarli bo'ladi. Aholi jon boshiga daromadlar bo'yicha katta nomutanosiblik va mintaqadagi ziddiyatli vaziyatlarni hisobga olgan holda, bu xulosalar mamlakat darajasidagi ba'zi muhim o'zgarishlarni yashiradi.

Figure 1: Money-metric headcount poverty rates (% of population) in selected Arab countries at \$1.9 and \$3.5 poverty lines (in 2011 PPPs), 1990-2015



Source: World Bank, POVCAL.NET online datasets

1-rasm-jadval, 1991-2015-yillarda Arab davlatlarining kambag'allikni qisqartirish natijalari, kuniga1-si 1,9\$ 2-si 3,5\$ dan ko'p topayotgan aholi misolida

Tahlili, 1990 yildan boshlab kuniga \$ 1,9 va \$ 3,5 ga ko'ra 2015 yilga qadar kambag'allikni kamaytirishning eng yuqori ko'rsatkichlariga Iordaniya, Tunis, Marokash, Misr va Jazoir. Mojaroga uchragan davlatlar orasida Iroq va ko'proq Sudan qashshoqlikni kamaytirish ko'rsatkichlariga erishdi. (birinchisi uchun bu \$1,9 qatorida qashshoqlikning 2% ga va \$3,5 qatorida 9% ga qisqarishi edi. 2010 yildan 2010 yilgacha bu ko'rsatkich 1,9 dollarga 47 foizga va 3,5 dollarga 32 foizga arzonlashdi. Suriya va Yamanda qashshoqlik sezilarli darajada oshganiga guvoh bo'lgan birinchisi hayratlanarli 2010 yilda juda past baza tufayli o'ta qashshoqlik 4000% ga o'sdi. Yamanda o'ta qashshoqlik kamroq oshdi 1,9 dollar uchun 213 foizga va 3,5 dollarga 63 foizga (1-rasm). Bu raqamlar juda ko'p narsani taklif qiladi ziddiyatlar o'rtasida turli qashshoqlik ta'siri Suriyada qayd eng yuqori ta'sir bilan ta'sir mamlakatlar 2010 yildan 2015 yilgacha mojaro eng kuchli bo'lgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Tarihda o'z davrida arab davlatlari juda kuchli bo'lgan va 20-asrga kelib markaziy osiyo davlatlari kabi ularda ham rivojlanish orqaga ketadi, natijada ularning ko'pchiligi Buyuk Britaniya, Fransiya mustamlakalariga aylanishadi. 20-asr ohiriga kelib esa vaziyat

butunlay o'zgaradi. Davlatlar, yer osti boyliklari, turizm va yaxshi iqtisodiy siyosat orqali yana yuqori rivojlanish darajalariga erishishdi, faqat Suriya va Yamandan boshqa. Bunda ta'limni qo'llab quvvatlash, past soliq, a'lo biznes muhitlari ham o'z so'zlarini aytishdi va kambag'allikni qisqartirishga erishildi.

Adabiyotlar

1. Abu-Isma'il, K. (2020) "Poverty and Vulnerability in the MENA Region",
2. Abu-Isma'il, K. and Kiswani, B. (2020). Multidimensional Poverty in Iraq.
3. Syria at War: Five Years on (2016). ESCWA and the University of St. Andrews.
4. Syria T War: Eight Years on (2020) ESCWA and the University of St. Andrews, forthcoming.

Бақоев Хусан Нуриддинович

Навоий давлат кончилиқ ва технологиялар университети

“Иқтисодиёт ва менежмент” кафедраси мудири

и.ф.б.PhD, доцент,

e-mail: bhusann77@gmail.com

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИНФРАТУЗИЛМАЛАРИНИНГ САНОАТ МАҲСУЛОТИ ҲАЖМИГА ТАЪСИРИНИ ПРОГНОЗЛАШ

Навоий вилояти ишлаб чиқариш инфратузилмаларини кўп вариантли прогнозларини амалга оширишда вилоят муҳандислик-коммуникация ташкилотлари, статистика ташкилотлари ва илмий изланишлар давомида йиғилган маълумотлардан фойдаланиб вилоятда ишлаб чиқариш инфратузилмасидаги асосий соҳалардаги маҳсулот ҳажмини регрессия тенгламаларини аниқланади.

Навоий вилоятидаги ишлаб чиқариш инфратузилмаси таркибий элементларининг вилоят ижтимоий-иқтисодий ривожланишидаги ўрни аниқланиб, уларнинг таъсири самаралироқ бўлиши бўйича хулоса ва таклифлар иқтисодий-статистик ва эконометрик усуллар билан асослаб берилади.

Ишлаб чиқариш инфратузилмасини ифодаловчи асосий кўрсаткичларни куйидагича белгилаб олинди:

Ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажми (млрд сўм) – Y ; Саноатда яратилган маҳсулот ҳажми – Y_1 ; Вилоятда йил давомида аҳоли ва улгуржи истемолчиларга етказиб берилган электр-энергияси ҳажми, млн. кВт-соат – X_1 ; Вилоятда йил давомида аҳоли ва улгуржи истемолчиларга етказиб берилган табиий газ таъминоти, минг метр-куб – X_2 ; Вилоятда йил давомида аҳоли ва улгуржи истемолчиларга етказиб берилган оқава сув ҳажми, минг метр-куб – X_3 ; Вилоятда йил давомидаги транспорт ташкилотлари томонидан ташиланган юк айланмаси ҳажми, млн. тонна-км – X_4 .

Навоий вилоятидаги ишлаб чиқариш инфратузилмаси ташкилотлари ёпиқ тизимдаги ташкилотларга ҳам ўз товар ва хизматларини етказадилар. Шу сабабли Навоий вилояти саноат маҳсулотлари ҳажмини таҳлил қилишда ёпиқ тизимда яратилган товарлар ҳам ҳисобга олинди.

Моделларни аниқлаш икки босқичда амалга оширилди, дастлаб ялпи ҳудудий маҳсулот билан саноат маҳсулоти ўртасидаги эконометрик модел аниқланди. Ушбу моделнинг ишончлилигини текшириш ишлари бажарилди. Сўнгра вилоятдаги саноат маҳсулоти ҳажмини ишлаб чиқариш инфратузилмасига боғлиқлик модели ҳисобланди. Ҳисобланган моделнинг ишончлилиқ кўрсаткичлари турли мезонлар орқали баҳоланди. Баҳолаш натижалари асосида маълум бир модел варианти танланиб, ушбу модел орқали келажақдаги саноат маҳсулот ҳажми прогнозлари ҳисоблаб чиқилди.

1-жадвал

Навоий вилоятида ишлаб чиқариш инфратузилмасини ифодаловчи асосий кўрсаткичлар динамикаси

(2021 йилдаги қиёсий нархларда)

Йиллар	Ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажми, млрд, сўм	Саноат маҳсулот ҳажми (ёпиқ тизим билан), млрд.сўм	Электр-энергияси таъминоти, млн. кВт-соат	Табиий газ таъминоти, минг метр-куб	Оқава сув таъминоти, минг метр-куб	Юк ташиш айланмаси, млн. тонна-км
	Y	Y_1	X_1	X_2	X_3	X_4

2010	34948,0	55619,600	7242,300	4256,890	1028,000	1223,075
2011	37394,4	56732,000	7326,900	4402,293	1028,000	1262,979
2012	39151,9	57469,600	7308,100	4556,266	816,500	1227,430
2013	40874,6	57986,800	7269,100	4538,471	695,500	1280,691
2014	43122,7	59668,400	7342,700	4630,802	701,000	1264,690
2015	44761,4	60205,400	7402,000	4753,874	632,300	1386,432
2016	46417,5	60927,900	7213,900	4662,185	632,300	1481,406
2017	47113,8	59404,700	7287,600	4897,730	631,100	1517,180
2018	49375,3	60474,000	7463,300	4440,956	633,100	1589,459
2019	51942,8	63074,300	7808,800	4687,413	632,100	1642,181
2020	55371,0	68814,100	8325,000	4994,711	632,900	1653,890
2021	59357,7	73631,100	8596,600	5093,334	632,900	1674,067

Манба: Навоий вилояти статистика бошқармаси, “Навоий ҳудудий электр тармоқлари” АЖ, “Ҳудудгаз Навоий” МЧЖ, “Навоий сув таъминоти” МЧЖ маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди

1-жадвалда олинган натижа таҳлили шуни кўрсатадики, вилоят ялпи ҳудудий маҳсулоти ҳажми ривожланиши жараёнининг регрессион моделида детерминация коэффиценти $R^2 = 0,8664$; $F_{\text{хисоб}} = 64,878$; ($\alpha = 0,05$ бўлганда, $F_{\text{жад}} = 2,17$) га тенг. Стьюдент мезони бўйича ҳар бир коэффицентни таққослаганимизда жадвал қийматидан ҳисобий қийматлари катта эканлиги аниқланди. Шунинг учун қуйидаги регрессион моделни адекват деб танлаб олдик:

$$Y = -34440,27 + 1,3121 * Y_1; \quad (1)$$

t (-3,445) (8,054)

Навоий вилоятида саноат маҳсулотлари ҳажмини ўзгаришига ишлаб чиқариш инфратузилмасини таъсир этувчи омиллар сифатида олинди: аҳоли ва улгуржи истеъмолчиларга етказиб берилган электр-энергияси, табиий газ, оқава сув ҳажми ва юк транспорти айланмаси. Бу омиллар орқали кўп омилли регрессион модель тузиш мақсадини қўйдик.

Қуйидагича эмпирик модел ҳосил кидик:

$$Y_1 = -16385,87 + 8,7353 * X_1 + 3,0212 * X_2 - 5,3576 * X_3 + 0,9883 * X_4, \quad (2)$$

Детерминация коэффицентининг $R^2 = 0,9674$ қийматга тенг бўлиши, моделда мазкур иқтисодий кўрсаткичлар ўртасида етарли даражада кучли боғлиқлик мавжудлигини билдиради.

F-мезоннинг жадвал қиймати $F_{\text{жадвал}} = 5,06$ га тенг. $F_{\text{хисоб}} = 51,928$

Қурилган моделлар орқали Навоий вилояти саноат маҳсулоти ҳажми ва унга таъсир этувчи омилларнинг 2-жадвалда прогноз вариантлари ишлаб чиқилди.

2-жадвал

Навоий вилоятида ишлаб чиқариш инфратузилмасини ифодаловчи асосий кўрсаткичлар прогнози

(2021 йилдаги қиёсий нархларда)

Йиллар	Ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажми, млрд. сўм	Саноат маҳсулот ҳажми (ёпиқ тизим билан), млрд.сўм	Электр-энергияси таъминоти, млн. кВт-соат	Табиий газ таъминоти, минг метр-куб	Оқава сув таъминоти, минг метр-куб	Юк ташиш айланмаси, млн. тонна-км
	Y	Y ₁	X ₁	X ₂	X ₃	X ₄
2022	63452,041	74607,355	8876,756	4893,215	578,108	1786,897
2023*	68468,112	78430,289	9293,784	4913,528	568,254	1853,580
2024*	73999,021	82645,599	9756,400	4932,515	559,231	1922,908

Навоий вилоятида ялпи ҳудудий маҳсулот ҳажми 2024 йилга бориб, 73 трлн. 999 млрд. 21 млн. сўм (2021 йил нархларида) бўлиши, ёки 2021 йилдагидан 124,67 фоизга ошиши кутилган экан.

Вилоят ишлаб чиқариш инфратузилмаси потенциал салоҳияти микёсини қўпайтириш имкониятларини тизимли равишда излаш, электр-энергияси, табиий газ ва оқава сув таъминоти

таннархини оширмасдан, самаралироқ таъминлаш манбаларини топиш, саноат ишлаб чиқаришни махсулот бирлиги ҳисобига инфратузилма таъминотига боғлиқлигини камайтириш йўллари ахтариш доимий илмий изланишлар объекти сифатида қараш лозим.

Илмий изланишларимизга асосланиб 2024 йилга бориб Навоий вилоятида саноат махсулотлари ҳажми (ёпиқ тизим билан бирга) 82 трлн. 645 млрд. 599 млн. сўмни ташкил этади. Ушбу натижаларга вилоятдаги ишлаб чиқариш инфратузилмаси 2021 йилга нисбатан электр-энергия таъминоти 113,5 фоизга ошиши, табиий газ таъминоти 96,84 фоизни ташкил этиши, оқава сув таъминоти 88,36 фоизни ташкил этиши ва юк айланмаси 114,86 фоизга ошиши ҳисобидан таъминланар экан, дея хулоса қиламиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуллаев Ё.А. *Регионал иқтисодиёт самарадор-лиги статистикасидаги муаммолар. иқт. фан. док. дис. – М.: МЭСИ, 1987 й.*;

2. Ғайибназаров Б.К. *Ўзбекистон Республикаси миллий ҳисоблар тизимини ишлаб чиқишнинг илмий методологик асослари. док. дис. – Т.: ТДИУ, 2006;*

3. Шодиев Т.Ш., Ходиев Б.Ю. и др. *Эконометрика. учеб. пособие. – Т.: Шарқ. 1999 -240 с.*;

4. Bakoev H.N. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. Multiple econometric forecast of the development of small business activity in Navoiy region. Vol. 2 No. 12 (2020): IJEFSD. Pages 27-36*

5. Бақоев Ҳ.Н., *Навоий вилоятида кичик бизнес субъектлари фаолияти самарадорлигини кўп омилли индекслар усули ёрдамида баҳолаш “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали, 2020 йил 1-сон*

Болтаев Бахриддин Хужанович
Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги
соҳасида стратегик ривожланиш ва
тадқиқотлар халқаро маркази
мустақил изланувчиси

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА МИНЕРАЛ ҲИШОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Қишлоқ хўжалигини модернизациялаш шароитида интенсивлаштириш омилларидан фойдаланишнинг янги ёндашувини талаб этмоқда. Бу селекция ва уруғчилик, комплекс механизациялаш, мелиорациялаш ва кимёлаштириш тизимларини такомиллаштириш, шунингдек, ишлаб чиқариш кучлари ва ишлаб чиқариш муносабатларини эришилган даражасини ҳисобга олиб, инсон омилини фаоллаштириш аграр ишлаб чиқаришнинг ривожланишини барча босқичларини интенсивлаштиришнинг асосий бўғини бўлиб қолмоқда.

Аграр соҳани интенсивлаштиришда, биринчидан, махсулот бирлигини ишлаб чиқаришда пул-материал ва меҳнат сарфини минималлаштириш бўйича ҳар бир-бирлик табиий ва моддий ресурслар ҳисобига кўпроқ махсулот олиш бўлса; иккинчидан, кимёлаштириш ва механизациялаштириш асосида меҳнат унумдорлигини ошириш асосий пировард мақсад ҳисобланади.

Минерал ҳишотларни қўллаш натижасида деҳқончиликда янги озиқ элементлари айланишига киритилади. Органик ва ўсимлик қолдиқлари чириши натижасида пайдо бўлган моддаларни даладан асосий ва қўшимча ҳосил билан чиқиб кетган бир қисм элементлар ўрни тўлдирилади.

Деҳқончиликни кимёлаштириш деганда – қишлоқ хўжалик экинларининг ҳосилдорлигини ва ҳосил сифатини оширишнинг муҳим воситаси бўлган маҳаллий ва минерал ҳишотлардан, бегона ўтларга, касаллик ва зараркунандаларга қарши курашда кимёвий воситалардан самарали фойдаланиш тушунилади.

Олимлар томонидан аниқланишича, қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган экинлар ҳосилининг 50 фоизи ҳишотларни қўллаш эвазига олинади. Деҳқончиликда қўлланилаётган ҳишотларнинг самарадорлиги, уни қўллаш ҳисобига олинган қўшимча ҳосил ёки фойда билан белгиланади.

Соҳага оид илмий-тадқиқот институтлари ва илғор хўжаликларнинг тажрибаларини кўрсатишича, минерал ҳишотни қўллаш ҳисобига, ўратача ҳисобда: донли экинлар (дон) 1-1,3 центнер, картошка 6-8 центнер, қанд лавлаги 6,5-7 центнер, пахта 0,6-0,8 центнер, сабзавот ва полиз

12-14 центнер, узум 3-3,2 центнер, хашаки илдизмевалилар 6-8 центнер, кўп йиллик ўтлар 3,5-5 центнер қўшимча ҳосил олинар экан (центнер ҳисобида)

Ўртача миқдорда ишлатилган минерал ўғитлар ҳисобига асосий қишлоқ хўжалик экинларидан олинадиган қўшимча ҳосил миқдори 1.1.1-жадвалда берилган.

1.1.1-жадвал

Минерал ўғитларнинг таъсири (М.П.Петухов маълумоти)¹

№	Экин турлари	1 га учун қўлланилган минерал ўғит, кг			1 га ҳисобига олинган қўшимча ҳосил, центнер
		N	P ₂ O ₅	K ₂ O	
1	Донли экинлар (дон)	30-45	40-50	40-50	5-8
2	Ўза	80-120	80-120	-	6-10
3	Картошка	40-60	40-60	40-60	35-60
4	Қанд лавлаги	60-75	65-75	60-75	40-70
5	Беда (хашаки)	-	50-90	50-90	20-25

Маълумки, қишлоқ хўжалик экинларининг асосий қисми азотга жуда талабчан бўлади. Олимларнинг ўтказилган илмий-тадқиқотларини кўрсатишича, қўлланилган 1 кг азот ҳисобига ҳар бир гектардан қўшимча 4,5-8 кггача, 1 кг P₂O₅ ҳисобига 4-7,3 кг ва 1 кг K₂O ҳисобига эса 2,2-3,7 кггача буғдой дони етиштириш мумкин экан. Бироқ, азотли, фосфорли ва калийли ўғитларни биргаликда қўллаганда, улардан олинадиган самарадорлик анча юқори бўлади. Минерал ўғитлар тўғри ишлатилганда экинлар ҳосили ошибгина қолмай, балки юқори иқтисодий самара ҳам беради. Биринчи йилнинг ўзида ўғитларни қўллашга кетган барча сарф-ҳаражатлар қопланади ва анча юқори иқтисодий фойда олинади.

Соҳа олимларининг тажрибаларини кўрсатишича, минерал ўғитлар экин ҳосилини оширади, сифатини яхшилади. Пахта, каноп ва зигир экинлари толасининг технологик хусусиятларини, қанд лавлаги, узум таркибидаги қанд, картошкадаги крахмал, дондаги оксил миқдорини кўпайтиради.

Минерал ўғитлар органик ўғитлар билан қўшиб ишлатилса, янада яхши натижа беради.

Минерал ўғитлар тупроққа (унинг физик, кимёвий ва биологик хусусиятларига) кучли таъсир қилувчи восита ҳисобланади. Улар тупроқнинг озика элементлари билан бойитади. Тупроқнинг эритмаси реакциясини ўзгартиради ва микробиологик жараёнларга таъсир этади ва ҳоказо.


Ўсимликлар, асосан, илдизи орқали озикланиши туфайли минерал ўғитлар тупроққа солинганида, ўсимликларнинг ўсиши ва ривожланишига, бинобарин, далалар, ўтлоқларнинг умумий биологик унумдорлигига фаол таъсир қилади.

Бунинг учун ерлардан самарали фойдаланиб, тупроқ унумдорлигини доимий равишда ошириб бориш муҳим ҳисобланади. Тупроқларнинг унумдор бўлиши қишлоқ хўжалик экинларининг яхши ўсиши, ривожланиши ва мўл ҳосил бериши учун қулай шароит яратади.

Деҳқончиликда бактериал препаратлар тупроқ микроорганизмларининг таркиби ва миқдорини кўпайтириш ҳамда улар фаолиятини кучайтириш мақсадида қўлланилади.


Бактериал препаратлар тирик организмлар бўлиб, ўз таркибида озик моддаларни тутмайди. Лекин, тупроқдаги захира озика моддаларни тезроқ минерал ҳолатга ўтказиши ва атмосфера азотининг ўзлаштирилишида муҳим роль ўйнайди. Шу билан ўсимликларнинг озикланиш шароитларини яхшилашда иштирок этади. Энг кенг тарқалган бактериал препаратлар жумласига нитрагин, азотобактерин, фосфобактерин келтириш мумкин.

Ўғитлардан самарали фойдаланиш қишлоқ хўжалигини кимёлаштиришда энг муҳим тадбирлардан бири ҳисобланади. Қишлоқ хўжалигида минерал ўғитлардан самарали фойдаланишда ўғитлаш тизимининг босқичлари (асосий ўғитлаш (экишгача, экиш билан), қаторлаб ўғитлаш (экиш билан бирга), ва қўшимча озиклантириш (экинларнинг ўсув даврида))га асосий эътиборни қаратиш муҳим ҳисобланади (1.1.1-расм).



¹ И.Ж.Сулаймонов, А.Р.Батошов, М.Х.Эгамбердиев, И.К.Одилов. Тупроқшунослик ва агрокимё. Дарслик. e-library.namdu.uz. 245-бет.

Шунингдек, ўғитларни қўллашнинг ўзига хос жиҳатларидан бири ўғитларни қўллаш муддатлари (кузда, баҳорда, ёзда, белгиланган маълум ойларда) ҳисобланади (1.1.2-расм).



1.1.2-расм. Минерал ўғитларни қўллаш муддатлари

Ўғитлашнинг асосий усуллари жумласига: ёппасига (сочма); жойига (уялаб, ўчоғига, каторлаб); локаль-тасмасимон; захиравий; механизмлар ёрдамида; ҳаводан ва бошқалар киради.

Ўғитларни тупроқ билан аралаштиришда плуг, культиватор-озиклантиргич, дискали ва тишли тирма каби мосламалардан фойдаланилади.

Минерал ўғитлардан самарали фойдаланиш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш жуда муҳим аҳамиятга эга. Чунки, бу шароитда, қўлланилаётган минерал ўғитлар анча юкори, деҳқончилик қилинадиган ерларнинг кўп қисми турли даражада шўрланган ва эрозияга учраган, ер ости сувлари асосий экинлар экиладиган далаларда жуда юза жойлашган. Шунинг учун ҳам бундай ерларда деҳқончилик қилганда ҳар бир даланинг тупроқ хусусиятларини ва экиладиган ўсимликнинг биологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, илмий асосланган ўғитлаш тизимини тузиш муҳим жараёнлардан ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. И.Ж.Сулаймонов, А.Р.Батошов, М.Х.Эгамбердиев, И.К.Одилов. Тупроқшунослик ва агрохимё. Дарслик. e-library.namdu.uz. 245-бет.
2. Почвозащитное и ресурсосберегающее земледелие: Теория и методика исследований. ФАО-СЙММИТ, Анкара, 2015. – 175 с.

Xatamov Azizbek Yaxraqulovich
Jizzax politehnika instituti

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” dotsenti v.b.

Email: xatamov1982@mail.ru

XO‘JALIK YURITUVCHI AGROKLASTERLARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA BA‘ZI XULOSA VA TAVSIYALAR

Iqtisodiyotning agrosanoat tarmog‘ida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xo‘jalik klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- korxonalar xo‘jalik faoliyatini diversifikatsiyalash (qayta tarkiblash) yo‘li bilan ular tarkibidan yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalarni chiqarish hamda, ushbu funksiyalarni bajarish bo‘yicha xo‘jalik yuritish klasteri doirasida kichik bo‘linmalarni tashkil etish;

- asosiy ishlab chiqarishning yuqori texnologiyalarini ta‘minlovchi qo‘shma korxonalar faoliyatini kengaytirish;

- tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishga ixtisoslashgan korxonalar bilan xo‘jalik klasteri doirasida o‘zaro hamkorligini takomillashtirish.

- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga xo‘jalik klasteri doirasidagi xizmatlar ko‘rsatuvchi kichik korxonalarning qo‘shimcha tarmog‘ini tashkil etish;

- fermer va dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan meva-sabzavot va go‘sht-sut mahsulotlarining kamida 50 foizini xo‘jalik klasteri doirasidagi qayta ishlovchi yangi korxonalarni tashkil etish¹;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi dilerlar bilan xo‘jalik klasteri doirasida o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish.

¹ Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

- qayta ishlash jarayonlarining noqonuniy ishlarini bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- agrosanoat majmui korxonalarini bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun bozor tamoyillariga asosan kelishilgan narxlarda haq to'lanishiga rioya qilish ;
- yirik agrosanoat korxonalarida pudrat asosida umumiy ishlar hajmining kamida 30 foizining bajarilishini ta'minlovchi xo'jalik klasteri doirasidagi kichik korxonalarining qo'shimcha tarmog'ini rivojlantirish.

Klaster doirasidagi turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro aloqasi ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish marketingi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning sotuvchidan xaridorga tomon maqsadli yo'naltirilishiga ko'maklashuvchi jarayonlarini takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlarini belgilab beradi:

- klaster doirasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish tarkibini diversifikatsiyalash;
- klaster doirasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish¹.

Klaster doirasidagi turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish kooperatsiyasi masalalarini hal etishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdagi o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Bunda:

- yirik korxonalar past rentabelli va rentabelsiz mayda ulgurji tovarlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarishni qisqartirib va ularga bo'lgan talab-ehhtiyojlarni kichik biznes hisobidan qoplagan holda, kichik korxonalarini moddiy-texnik resurslar bilan qo'llab-quvvatlashi va shu asosida xo'jalik yuritish klasterini yaratishi zarur;
- klaster doirasidagi kichik korxonalar mayda ulgurji tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishda yirik korxonalar bilan o'zaro hamkorlik qilishi uchun ushbu korxonalariga zarur bo'lgan tovarlar turlari va hajmi haqidagi axborotdan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;
- mayda ulgurji tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi, ayniqsa ishlab chiqarishni tashkil qilishning dastlabki bosqichida kredit mablag'lari bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Klaster doirasidagi turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish kooperatsiyasiga bo'lgan talablarining qondirilishi (va aksincha), iqtisodiyotning alohida tarmoqlaridagi ishlab chiqarish kooperatsiyasi jarayonlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, tovarlar, ishlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun mazkur xo'jalik yurituvchi subyektlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish bo'yicha talab va takliflar bozori doirasida amalga oshirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Айнакулов М.А., Абдухамидов Е.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) S. 48-50.
2. В.В. Беркин, М.А. Айнакулов. "Кичик тadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi". Monografiya - Jizzax.: 2004-114 b.

Алиев Тулкин Тургунович
преподаватель кафедры
«Общественные науки» при
ТФИ

СТАНОВЛЕНИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ

Мы уважаем и ценим наших бизнесменов, всегда ищущих новое, самоотверженных и преданных своему делу, патриотичных людей.
Ш.М. Мирзиёев

¹ В.В. Беркин, М.А. Айнакулов. "Кичик тadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi". Monografiya - Jizzax.: 2004-114 b.

Критически оценивая проделанную за последние годы работу, глава нашего государства сказал: «...выезжая на места, изучая предпринимательский потенциал каждого домохозяйства, решая вопросы, связанные с расширением финансирования, убеждая предпринимателей и оказывая им практическую помощь, - становясь ежедневное правило в деятельности всего макроэкономического комплекса необходимо», — говорит он.¹

Рассмотрены вопросы создания благоприятной деловой среды для широкого развития малого бизнеса и частного предпринимательства, развития сферы услуг, поддержки и развития фермерского движения, строгого недопущения незаконного вмешательства государства, правоохранительных и контрольных органов в деятельность бизнес-структур в 2017-2021 годах – это вопросы Республики Узбекистан на 2017-2021 годы. Важно, что в Стратегии действий указано по пяти приоритетным направлениям развития.² В Узбекистане активизируются развитие малого бизнеса и частного предпринимательства, государственное регулирование этой сферы. Все большее расширение бизнес-среды в стране приводит к стимулированию деятельности субъектов малого предпринимательства, число субъектов малого предпринимательства практически во всех отраслях увеличивается из года в год.

Президент нашей Республики Ш. Мирзиёев как отметил, «еще одной важной нашей задачей является поддержка и поощрение малого бизнеса и предпринимательства, укрепление экономической мощи нашей страны, мира и стабильности в нашей стране, общественного согласия, создание благоприятных условий для дальнейшего увеличения доли этот сектор».³

История предпринимательства уходит своими корнями в далекое прошлое. Например, в древней книге «Авеста» была заложена идея формирования и воспитания смелых, честных, чистых, предприимчивых людей, борющихся за свою благополучную жизнь, независимо от различий расы, языка, обычаев.⁴

Основным источником Ислама является Священный Коран. Каждый его аят призывает служителей к чистоте и вере. Его 293 аят непосредственно посвящены экономическому мышлению. Священный Коран призывает людей есть халяльную пищу, быть бережливыми, добрыми и честными. Он также призвал людей хорошо использовать все материальные блага и ресурсы (землю). В «Священном Коране» особое внимание уделяется любому виду экономической собственности. Понятие собственности в исламе, суть его заключается в признании того, что богатство в руках людей – это богатство Аллаха, а люди – лишь Его правители на земле. Ценные идеи по развитию предпринимательства выдвинули и в огромном научном наследии имам Малик бин Анаса, имам Исмаил аль-Бухари, имам Муслим бин-Аль-Хаджадж, имам Абу Дауд-Абу Иса ат-Тирмизи, жившие в предыдущие века.⁵

В «Артхашастре» Древней Индии (IV-III вв. до н.э.) мелкое предпринимательство считалось основой экономики, а результат земледельческой, животноводческой, торговой и ремесленной деятельности признавался могуществом государства.⁶

Согласно китайскому Конфуцию (551-479 гг. до н.э.), частное предпринимательство в равной степени увеличивает богатство государства и его граждан. В этом учении он подчеркивает приоритет частной собственности в управлении экономикой и показывает различие между трудом умственным и трудом физическим, доказывая, что умственным трудом можно получать «высокий» доход. Подчеркивается, что следует учитывать уникальные способности предпринимателя.⁷

Великий полководец Амир Темур (1336-1405) уделял большое внимание предпринимательству и считал, что все его победы в экономике, политике, общественной жизни, управленческой и

¹ Мирзиёев Ш. Критический анализ, строгая дисциплина и личная ответственность должны быть ежедневным правилом деятельности каждого руководителя. . -Т.: Узбекистан, 2017. - С-4.

² Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947. Приложение 1. Т., 2017. 7 февраля.

³ Мирзиёев Ш. Вместе с нашим мужественным и благородным народом мы построим свободное и процветающее, демократическое государство Узбекистан // «Народное слово», 15 декабря 2016 г.

⁴ Раззаков А. Тошматов Ш. Ормонов Н. история экономических учений. -Т.: экономика и финансы, 2007. С-13

⁵ С.Гулямов. Малый бизнес и частное предпринимательство: организация, планирование, управление. Т., издательство "Наука и техника", 2005, С-5

⁶ Л.Б.Алаев., А.А.Ацамба., А.А.Вигасин., Н.В.Воробей и другие. Всемирная история экономической мысли. В 6 Т.- М.: Мысль, 1987. Т-1.-С.84-92.

⁷ Л.Б.Алаев., А.А.Ацамба., А.А.Вигасин., Н.В.Воробей и другие. Всемирная история экономической мысли. В 6 Т.- М.: Мысль, 1987. Т-1.-С.95-96.

военной сферах прежде всего связаны с тем, что он работал с предпринимательством и сделал предпринимательство девизом его мышление и действие. Амир Темур в своей книге «Уложение Темура» утверждал, что деловой человек, обладающий отвагой, решительный, предприимчивый и бдительный человек лучше тысячи праздных и апатичных людей.¹

Целью экономики Республики Узбекистан является установление политики, восстановление социально-экономического рынка экономики, демократического права государства и прав человека. Республика рынка узконаправленная и измученная.

предложения и рекомендации: Развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане осуществляется прежде всего по инициативе Президента Ш.Мирзиёева. Кроме того, это связано с созданием государством широких условий для развития этого сектора. Желательно широко использовать программы развития передовых зарубежных стран для дальнейшего развития малого бизнеса и частного предпринимательства. Необходимо ограничить вмешательство государства и создать условия для того, чтобы частные предприниматели могли беспрепятственно осуществлять свою деятельность.

Абдулбакиев А.А.

студент Ферганского политехнического института,

E-mail: azizbekbakiyev0894@gmail.com

Курпаяниди К.И.

профессор кафедры «Экономика»,

Ферганский политехнический институт

E-mail: antinari@gmail.com,

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ПУТЕЙ ПОВЫШЕНИЯ ПРИБЫЛИ ПРЕДПРИЯТИЯ

Прибыль является ключевым показателем эффективности работы предприятия. Она позволяет оценить, насколько эффективно используются ресурсы и инвестиции, а также определить потенциал для дальнейшего развития. Поэтому повышение прибыли – это одна из главных задач любого предприятия.

Для повышения прибыли необходимо определить основные пути её увеличения.² Одним из наиболее эффективных способов является снижение затрат. Для этого необходимо провести анализ деятельности предприятия и выявить неэффективные затраты. Кроме того, на предприятии должен быть разработан и принят план по снижению затрат.
Снижение затрат:

1. Оптимизация производственных процессов: необходимо провести анализ действующих систем и процессов на предприятии, определить узкие места и провести реорганизацию производства.
2. Совершенствование закупочной деятельности: нахождение источников сырья, материалов и комплектующих по наиболее выгодным ценам, а также использование новых технологий в управлении снабжением.
3. Сокращение издержек на транспортировку: оптимизация маршрутных сетей, использование современных технологий управления складами, повышение эффективности процессов доставки товаров или услуг.
4. Снижение издержек на операционные расходы: реорганизация бизнес-процессов и внедрение новых технологий управления предприятием.

Другим способом повышения прибыли является увеличение объема продаж. Для этого необходимо провести маркетинговые исследования и выявить потребности клиентов, а также разработать и реализовать маркетинговую стратегию. Кроме того, необходимо постоянно улучшать качество продукции и услуг.³

Увеличение объема продаж:

¹ Ахмедов Б. Аминов А. Уложения Амира Темура.-Т.Навруз,1992.-С-11

1. Курпаяниди, К. (2023). Некоторые особенности методологии исследования институциональной среды малых промышленных предприятий. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(4), 21-34.

³ Бочаров В.В. Финансовый анализ [Текст] / В.В. Бочаров. – СПб.: Пи-тер, 2013.

1. Развитие новых рынков: необходимо провести исследование и определить возможности для создания новых товаров и услуг для новых рынков.
2. Совершенствование качества товаров и услуг: это может быть достигнуто усовершенствованием производства, использованием новых технологий и материалов, а также постоянным контролем качества товаров и услуг.
3. Разработка маркетинговых стратегий: разработка маркетинговых стратегий на основе анализа рынка и определения потребностей клиентов.
4. Привлечение новых клиентов: проведение мероприятий, направленных на привлечение новых клиентов, таких как реклама, скидки или акции.

Также помощью прибыли можно увеличивать объём производства. Но этот способ требует значительных инвестиций, поскольку необходимо закупать оборудование, увеличивать штат сотрудников и т.д. В этом случае на предприятии необходимо провести анализ рынка и потребительских предпочтений, а также определить потребность в дополнительной продукции или услугах.

Увеличение объема производства:

1. Инвестирование в развитие производства: для увеличения объема производства необходимо закупать оборудование на основе современных технологий.
2. Расширение ассортимента продукции: расширение ассортимента продукции поможет увеличить продажи и выручку.
3. Увеличение производительности: это может быть достигнуто усовершенствованием производственных процессов, повышением эффективности использования оборудования, постоянным контролем качества производимой продукции и др.
4. Повышение эффективности использования материалов: сокращение потерь и нерациональное использование материалов, контроль использования материалов на различных этапах производства.
5. Организационные изменения: это могут быть различные организационные изменения, которые помогут повысить эффективность и сократить временные затраты.

Однако необходимо помнить, что повышение прибыли нельзя достичь только за счет сокращения затрат или увеличения объемов продаж. Реализация этих способов должна быть сбалансированной с учетом особенностей предприятия и отрасли, в которой оно работает.

Необходимо также постоянно контролировать и анализировать текущие финансовые показатели, а также разрабатывать и реализовывать стратегии по улучшению финансового положения предприятия.

В заключение, можно сказать, что для повышения прибыли необходимо использовать комплексный подход, учитывающий все ключевые факторы, такие как затраты, объем продаж, объем производства и управление финансами. При этом следует иметь в виду, что каждое предприятие уникально и требует индивидуального подхода к достижению целей.

Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich
UrDU, "Turizm va mehmonxona
xo'jaligini boshqarish" kafedrası
stajor-o'qituvchisi
jurabek0101@urdu.uz

TURIZM IQTISODIYOTNING MUHIM TARMOG'I SIFATIDA

Turizm ko'plab davlatlar iqtisodiyotida katta o'rin tutadi. Turizm iqtisodiyoti sayohatchilarning ehtiyojlari va istaklarini qondirish uchun mo'ljallangan turistik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishda shakllanadigan iqtisodiy munosabatlarni o'rganadigan va tahlil qiladigan soha sifatida ta'riflash mumkin[1].

Turizm iqtisodiyoti aholining muhim qismining turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida iqtisodiyotning ma'lum bir tarmog'ining barcha darajalarida turistik mahsulotni ishlab chiqaruvchi, taqsimlovchi, almashuvchi va iste'mol qiluvchi kishilarning xatti-harakatlarini o'rganadi. Turizmning iqtisodiy funksiyasi birinchi navbatda u beradigan iqtisodiy foydani o'z ichiga oladi. Turizm infratuzilmasi elementlari - mehmonxonalar, restoranlar, savdo korxonalar va shu kabilarning rivojlanishini rag'batlantiradi. Bu to'g'ridan-to'g'ri (viza yig'implari, bojxona to'lovlari) yoki bilvosita (ishchilarning ish haqining oshishi va ular budjetga to'laydigan daromad solig'i miqdorining oshishiga olib

keladi) bo'lgan soliqlar orqali davlat budjeti daromadlari oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, yuqorida qayd etilganidek, turizm xorijiy valyuta va barcha turdagi investitsiyalarni jalb qilish uchun keng imkoniyatlarga ega soha hisoblanadi. Turizmning bir xil darajadagi muhim iqtisodiy funksiyasi - bu iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, turizm sanoatiga xizmat qiluvchi tarmoqlarni shakllantirish, aholi daromadlarining o'sishi va xalq farovonligini oshirishdan iborat.

Shuningdek, xorijiy va mahalliy sayyohlar hisobiga talabning ortishi natijasida ishbilarmonlik faolligini oshirish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni kengaytirishda turizmning mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga ta'siri ortadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, turizmning xizmatlar ko'rsatadigan soha sifatida jozibadorligi investitsiyalar va valyutadagi daromadlarning tezroq qaytarilishidadir. Ko'pgina davlatlarda turizm yetakchi uchta sohalaridan biri bo'lib, jadal rivojlanmoqda va muhim ijtimoiy va iqtisodiy rol o'ynamoqda, chunki turizm:

- Mahalliy aholi daromadlarini oshiradi;
- yangi ish o'rinlari yaratadi;
- turizm xizmatlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha tarmoqlarni rivojlantiradi;
- turistik markazlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantiradi;
- xalq hunarmandchiligi faoliyatini va madaniyatni rivojlantirishni faollashtiradi va ularni targ'ib qiladi;
- mahalliy aholi turmush darajasining yaxshilanishiga olib keladi;
- valyuta tushumlarini oshiradi [2]

Turizm iqtisodiyotining dolzarb masalalari quyidagilardan iborat:

- odamlarning turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini yuzaga keltiruvchi ob'ektiv omillar;
- odamlarning turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarining mazmuni va xususiyati, shuningdek, bu ehtiyojlarni turli mezonlarga ko'ra tasniflash;
- turistik mahsulotni iste'mol qiluvchi kishilarning iqtisodiy xulq-atvori va ularning (turistlarning) manfaatlari;
- turistik mahsulotni ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy xususiyatlari, turizm sohasi va turizm sektorining mehnat salohiyati tahlili;
- zamonaviy ichki va tashqi bozor sharoitida turistik mahsulotni shakllantirish, ayirboshlash va sotish jarayonlarining iqtisodiy xususiyatlari;
- turizmning korxonada ham, tarmoq darajasida ham faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarining o'ziga xos xususiyatlari;
- mikrodarajada ham, makrodarajada turizmning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi.

Turizm iqtisodiyoti ham ikki darajaga ega:

- ijtimoiy va maishiy infratuzilmaning tarmoqlararo majmuasi sifatida turizm iqtisodiyoti;
- xo'jalik yurituvchi subyekt (turistik korxonalar, firma) iqtisodiyoti.

Turizm iqtisodiyoti sohasining predmeti iste'molchi ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan turistik mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida turizm sohasida vujudga keladigan va rivojlanadigan iqtisodiy munosabatlardir. Turizm iqtisodiyoti – bu faoliyat sohasidagi iqtisodiy munosabatlarning tarmoq tomonlarini, shuningdek, turistik mahsulot va xizmatlarni ichki va tashqi bozor uchun ishlab chiqarish, shakllantirish, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keladigan jarayon va hodisalarni o'rganuvchi ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Sayohat maqsadi va ularni tashkil etish usullaridagi farqlar mijozning professional va boshqa xususiyatlariga ega bo'lgan turli funksiyali korxonalar (mehmonxonalar, turistik oromgohlar, motellar, pansionatlar, dam olish uylari va boshqalar) paydo bo'lishiga olib keldi[3].

Turizm turli mamlakatlarda iqtisodiy faoliyatni baholash tamoyillariga qarab o'zgarib turadigan ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. Ko'pincha quyidagi ko'rsatkichlar toifalari qo'llaniladi:

- a) turizmning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishni tavsiflovchi - joylashtirish vositalaridagi joylar soni, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan joylar soni (turistik zichlik koeffitsienti deb ataladi);
- b) xizmat ko'rsatish hajmi - ma'lum bir hududga, shaharga, mamlakatga tashrif buyurgan turistlar soni;
- c) turistlarning ma'lum bir hududda, mamlakatda bo'lish muddati;
- d) turistik xizmatlar hajmi - turistlardan jami pul tushumlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar.

Turizm bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda jadal rivojlanayotgan sohaga aylangan ijtimoiy-iqtisodiy majmuaning biridir. Hozirda dunyoda har 7-ish o'rni turizm biznesiga to'g'ri keladi. BTT prognozlariga ko'ra, 2030 yilga borib xalqaro sayyohlar soni 1,8 milliardni tashkil etadi, ya'ni 2000 yilga

nisbatan 3 baravar ko'p¹. Sayyohlarning har kunlik xarajatlari havo qatnovini hisobga olmaganda kuniga 5 milliard dollargacha oshadi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida turizm eng ustuvor tarmoqlardan biri bo'lib, uning yalpi milliy daromadga qo'shgan hissasi 20-45% ni tashkil etadi, xorijiy turizmdan olinadigan daromad esa valyuta ayirboshlashning asosiy manbai hisoblanadi. Binobarin, turizm industriyasi nafaqat turistik rivojlangan mamlakatlar byudjetiga foydaning salmoqli qismini olib keladi, balki nihoyatda istiqbolli hisoblanadi va shubhasiz, boshqa mamlakatlar davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalaridan biriga aylanishi mumkin.

Shunday qilib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, turizm iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, hududning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantiradi, iqtisodiy nuqtai nazardan mahalliy aholi bandligini oshiradi. Turizm tabiatdan foydalanishning eng ekologik toza shaklidir.

Lekin turizmning davlat iqtisodiga ijobiy ta'siri, agar u har tomondan rivojlansa, ya'ni mamlakat iqtisodiyotini xizmat ko'rsatish iqtisodiyotiga aylantirmasagina yuz beradi. Boshqacha aytganda, turizmning iqtisodiy samaradorligi uning davlatda ijtimoiy-iqtisodiy kompleksning boshqa tarmoqlari bilan parallel va birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Turizm sohasida ishlab chiqarish hajmining o'sishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham yo'naltirilmoqda, bunda investitsion faollik rivojlanmoqda, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, tovar ayirboshlash kengaymoqda va natijada daromadlar ortib bormoqda. Olingan daromadning bir qismi soliq shaklida davlatga qaytadi. Shu tarzda yig'ilgan mablag'lar turizm industriyasini va infratuzilmasini yanada moliyalashtirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga moddiy yordam ko'rsatish, turizm xizmatlari sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishga yo'naltirilishi mumkin[5].

Turizm sanoati va milliy iqtisodiyotning o'zaro bog'liq tarmoqlari va tarmoqlar majmuini ifodalovchi iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqish kerak, uning yagona funksional vazifasi odamlarning turli xil dam olish va sayohat turlariga bo'lgan turli xil va doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishdir.

Turizmga milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil tarmoqlararo iqtisodiy majmuasi sifatida yondashish kerak, chunki turizm sohasi turli tarmoqlarni birlashtirib, odatdagi vertikal tekislikda yotmaydi, balki ma'lum bir gorizontallik makonni, shu jumladan turli tarmoqqa tegishli korxonalar va tashkilotlarni qamrab oladi. Turizm industriyasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari sohada juda ko'p o'ziga xos xususiyatlar mavjud deb hisoblaymiz, chunki uning samarali ishlashi ko'p jihatdan turli omillarga bog'liq: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik.

Turizm sanoati iqtisodiyotning o'ziga xos tarmoqlaridan biri bo'lib, u tabiatning injiqliklariga bevosita bog'liq, mavsumiylik korxonalar faoliyatining asosiy omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Морозов М.А. Экономика туризма: учебное пособие. – М.: ИТиГ, 1998.
2. Ушаков Д.С. Стратегическое планирование в туризме: учебное пособие. – Ростов н/Д: Феникс, 2007
3. Боголюбов В.С. Экономика туризма. – СПб.: Академия, 2006.
4. Воловода О.В. Сфера туризма: этапы развития, экономика и управление. – М., 2001.
5. Менеджмент туризма: туризм и отраслевые системы: учебник. – М.: Финансы и статистика, 2001.

Суёнов Шухрат Мухитдинович
НДКТУ “Иқтисодиёт ва менежмент” кафедраси ассистенти

НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА АВТОМОБИЛЬ ЛОГИСТИКАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ


Ҳозирги кунда автомобиль транспорти мамлакат иқтисодиётининг асосий бўғини ҳисобланади. Автомобиль транспорти саноат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ташишда уларнинг салмоғи жуда катта. Бу автомобиль транспорти аҳолининг манзили яқин қилади ва автомобиль транспортига бўлган қизиқишини оширади.

Ҳозирги кунда автомобиль транспорти логистикасини ривожлантиришда бир қанча муаммолар мавжуд. Шунинг учун ҳам автомобиль транспорти логистикасини ривожлантириш бугунги куннинг долзарб вазифаси деб ҳисоблаймиз.

¹ <https://www.unwto.org/archive/global/press-release/2011-10-11/international-tourists-hit-18-billion-2030>

Навоий вилоятида 2022 йил автомобил транспортларида юк ташиш 359,9 млн тоннани, юк айланмаси эса 2014,9 млн т-км ни ташкил этган. Бу кўрсаткич 2021 йилга нисбатан юк ташиши 112,2 % га, юк айланмаси эса 119,5% га ўсиш кузатилган. Навоий вилоятида 2022 йил автомобил транспортларида йўловчи ташиш 175,0 млн кишини, йўловчи ташиш айланмаси эса 4251,0 млн йўловчи –км ни ташкил этган. Бу кўрсаткич 2021 йилга нисбатан йўловчи ташиш 102,4 % га, йўловчи ташиш айланмаси эса 102,8 % га ўсиш кузатилган.

Автомобил транспортида юк ташиш ва юк айланмаси ҳамда транспорт турлари бўйича йўловчи ташиш ва йўловчи айланмасининг ўсиш суръатлари фоизларда куйидаги диаграммада келтирилган (1-расм).



Автомобил транспортида 2022 йилда юк ташиш ва юк айланмаси ҳудудлар кесимида транспорт кўрсаткичлари келтирилган.

1-жадвал.

	Юк ташиш (минг тонна)			Юк айланмаси (минг тонна км.)		
	2021	2022	Ўсиш суръати, % да	2021	2022	Ўсиш суръати, % да
Жами	320 897,7	359 901,3	112,2	1 686 337,4	2 014 877,7	119,5
Навоий ш.	298 317,2	334 320,5	112,1	1 106 870,1	1 336 152,4	120,7
Зарафшон ш.	1 746,8	1 991,4	114,0	40 547,6	47 562,3	117,3
Ғозғон ш.	122,3	134,1	109,6	5 504,9	6 082,9	110,5
Кармана т.	3 319,7	3 777,8	113,8	115 154,9	136 573,7	118,6
Конимех т.	381,5	423,5	111,0	21 625,0	24 695,8	114,2
Қизилтепа т.	8 979,0	10 254,0	114,2	156 288,4	186 608,3	119,4
Навбаҳор т.	2 079,3	2 339,2	112,5	51 541,2	60 251,7	116,9
Нурота т.	1 520,8	1 692,6	111,3	53 560,7	60 898,5	113,7
Томди т.	462,9	512,0	110,6	18 751,4	21 095,3	112,5
Учкудук т.	611,5	693,4	113,4	25 045,8	28 877,8	115,3
Хатирчи т.	3 356,6	3 762,8	112,1	91 447,5	106 079,0	116,0

Навоий вилоятида юк ташишни ташкил этиш юзасидан юк ташиш ва юк айланмаси кўрсаткичлари бўйича Навоий шаҳри юқори ўсишга эга бўлганлигини кўриш мумкин, кейинги ўринда Қизилтепа тумани ва Кармана туманлардаги кўрсаткичларни юқори даражада даражада ўсишга эришганини кўришимиз мумкин. Зарафшон шаҳри ва Навбаҳор туманларидаги кўрсаткичлар ҳам мос равишда кейин ўсиш кўрсаткичларига эга бўлган. Бу кўрсаткичларни янада яхшилаш учун минтакалардаги юк ташиш тизимининг логистикасига юқори эътибор қаратиш лозимлигини кўрсатади.

	<i>Йўловчи ташиш (минг йўловчи)</i>			<i>Йўловчи айланмаси (минг йўловчи км.)</i>		
	<i>2021</i>	<i>2022</i>	<i>Ўсиш суръати, % да</i>	<i>2021</i>	<i>2022</i>	<i>Ўсиш суръати, % да</i>
Жами	171 001,5	175 036,1	102,4	4 134 768,3	4 251 017,4	102,8
Навоий ш.	70 541,2	71 477,1	101,3	1 279 399,0	1 313 817,0	102,7
Зарафшон ш..	14 278,7	14 578,6	102,1	396 404,5	403 539,8	101,8
Гозғон ш.	416,5	419,4	100,7	9 393,2	9 477,7	100,9
Кармана т.	24 044,1	25 054,0	104,2	814 013,1	844 131,6	103,7
Конимех т.	4 980,0	5 074,6	101,9	89 211,1	90 549,3	101,5
Қизилтепа т.	21 086,7	21 824,7	103,5	534 652,3	556 573,0	104,1
Навбахор т.	10 417,7	10 730,3	103,0	283 441,9	290 244,5	102,4
Нурота т.	1 931,8	1 982,0	102,6	49 170,1	50 055,2	101,8
Томди т.	580,0	590,5	101,8	16 953,7	17 123,2	101,0
Учкудук т.	4 967,7	5 121,7	103,1	132 714,2	136 032,1	102,5
Хатирчи т.	17 757,1	18 183,3	102,4	529 415,3	539 474,2	101,9

Минтақадаги йўловчи ташиш ва йўловчи айланмаси бўйича 2-жадвалдаги кўрсаткичлар асосида таҳлил қиладиган бўлсак, минтақада Кармана туманидаги кўрсаткичлар юқори эканлигини кўришимиз мумкин. Кейинги ўринларда Қизилтепа ва Навбахор туманларидаги кўрсаткичлар ташкил қилади. Бунинг сабаби сифатида ушбу туманларнинг вилоят марказига яқин эканлиги асосий омил сифатида келтириб ўтишимиз жоиздир.

Навоий вилоятида автомобил транспорти логистикасини янада ривожлантириш учун куйидагиларни эътиборга олиш зарур деб ҳисоблаймиз:

1. Бугунги кунда автомобил транспорти логистикасини ривожлантиришнинг норматив ҳуқуқий базасини мукамал тарзда қайта ишлаб чиқариш лозим. Чунки, норматив ҳужжатлар турлича талқин қилинишининг ва қонунни суистеъмол қилиш камаяди.

2. Навоий вилоятида автомобил транспорти билан темир йўл транспорти логистикасини биргаликда ривожлантириш мақсадга мувофиқ бўлади.

3. Навоий вилоятидаги логистика маркази фаолиятини янада такомиллаштириш ҳамда логистик хизмат турларини кўпайтириш лозим. Шунда, минтақада юк ташиш айланмаси ижобий кўрсаткичга айланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Д.Н.Раҳимова, З.Й.Худойбердиев. “Менежмент” А. 2003 й.
2. Б.С.Мин. “Автомобилларда йўловчилар ташиш” Т. 1990 й.
3. Автомобиль транспорти тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни 1998-йил 29-августдаги № 674-И.

WWW.stat.uz.

WWW.cargo.uz.

Муқимов Зафар Авазмуратович
Phd, кафедраси «Бухгалтерский учёт»
Мустафоев Акбар,
преподаватель кафедраси
«Финансовый анализ и аудит»
Ташкентского государственного
экономического университета

**РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ
 УЗБЕКИСТАН**

В Республике Узбекистан особое внимание уделяется всесторонней поддержке и поощрению активного предпринимательства, что позволяет обеспечить повышение социально-экономического потенциала регионов и стабильный рост уровня жизни и благосостояния населения, внедрение инновационных идей и технологий, создание необходимых условий для опережающего развития науки

и инновационной деятельности. В то же время результаты проведенного анализа показывают, что существует ряд системных проблем, в том числе препятствующих дальнейшему улучшению условий для развития активного предпринимательства и инновационной деятельности в стране. [1]

Сегодня мировое развитие происходит в информационно-инновационную эпоху. Движущей силой этого процесса являются изменения, основанные на научных достижениях, быстром освоении новых технологий и эффективном управлении, в результате чего все более заметными становятся отношения, связанные с обменом и внедрением инноваций между субъектами экономической деятельности. Коренные изменения в экономических процессах (глобализация рынка, широкое использование информационных технологий, управление развитием, структурные изменения в организации бизнеса) вызывают увеличение масштабов реформ на различных предприятиях.

Изобретения и открытия, которые используются в различных областях организации и приводят к созданию инноваций, служат основой научно-технического развития. После практического применения изобретения становились инновациями. Они считаются активной частью всех сфер жизни и деятельности общества. Современное пространство невозможно представить без таких изменений. Понятие «инновация» используется практически во всех сферах, является актуальным вопросом как на домашнем, так и на профессиональном уровне, в том числе на уровне руководителей государств и международных организаций. Несмотря на то, что экономическое развитие осуществляется за счет внедрения инноваций, медлительность этого процесса в прошлом веке не позволила его в полной мере опробовать. Быстрое экономическое развитие в постиндустриальную эпоху приобрело качественно новые черты: условием развития стали инновационные процессы. Инновации становятся ведущим фактором производства; темп изменений увеличивается. Инновационная деятельность претендует на статус основной деятельности и является необходимым условием стратегического развития предприятия. В литературе встречаются разные определения понятия «инновация», которые часто путают с понятием «новизна». В связи с этим необходимо обратить внимание на их специфические отличия. [2] Развитие инновационной деятельности – это внедрение на предприятии организационно-экономической формы, использование стимулов для ее осуществления, формирование инновационных решений и методов их регулирования. Ориентация предприятия на вид инновационной деятельности приводит к изменению в структуре компании, что обеспечивает взаимодействие стратегической и инновационной деятельности. Современной характерной чертой организации инновационной деятельности предприятий стала полная интеграция организационных форм управления с вертикалью и горизонталью, а также система связей и подчинение. С этой точки зрения под организацией инноваций следует понимать процесс упрощения инновационной деятельности, определения состава и расположения подразделений, а также организации форм, методов, процессов, реализуемых в этой деятельности. Инновационная деятельность на предприятии может быть организована тремя способами: последовательным, параллельным и комбинированным. Этим отделам предоставляется автономия для реализации проектов повышенной опасности, которые согласовываются на высшем уровне управления, как правило, вмешательство незначительно в процессе развития административно-хозяйственного отдела. Однако венчурные команды не существуют сами по себе, их деятельность согласована со стратегической направленностью предприятия на его инновационное развитие. [3]

До настоящего времени в законодательстве Узбекистана нет единого нормативно-правового документа, регулирующего отношения в сфере инновационной деятельности, понятий в сфере инноваций и инновационной деятельности, состава участников и их взаимодействия в этом процессе, эффективной организации согласования механизмов, внедрение научных разработок в практику и принятие этого законопроекта в промышленность поставили на повестку дня необходимость разработки и принятия. Наконец, 24 июля текущего года Главой государства был подписан Закон Республики Узбекистан «Об инновационной деятельности», и с этой даты он вступил в силу. Настоящий Закон, состоящий из 6 глав и 39 статей, определяет в качестве основных направлений государственной политики в сфере инновационной деятельности: обеспечение правового регулирования инновационного развития;

расстановка приоритетов;

создание необходимых условий и инфраструктуры;

государственная поддержка и стимулирование субъектов инновационной деятельности;

разработка и реализация республиканских, сетевых и региональных государственных программ;

помощь в привлечении инвестиций;

развитие государственно-частного партнерства;
организация подготовки кадров, переподготовки и повышения их квалификации;
развитие международного сотрудничества.

Данным Законом компетентным государственным органом в этой сфере определено Министерство инновационного развития.

Реализация настоящего Закона обеспечивает правовую основу и правовые полномочия для эффективного взаимодействия субъектов инновационной деятельности и всех ее участников, определяет права и обязанности субъектов инновационной деятельности, дает возможность организации субъектов инновационной деятельности в больших масштабах. [4]

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «инновационного развития Республики Узбекистан на 2022 — 2026 годы». № УП-165 6 июля 2022 года
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 18 мая 2019 г. № ПП-4321 «О мерах по дальнейшему совершенствованию инфраструктуры цифровой экономики и «Электронного правительства». № ПП-4321 от 18 мая 2019 г.
3. Распоряжения Правительства Республики Узбекистан от 28.07.2018 г. № 1632-р.

**Акмал Шермухамедов,
Тошкент давлат иқтисодий
университети катта ўқитувчиси,
skazka.6313@gmail.com**

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ДИВИДЕНД СИЁСАТИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ТАМОЙИЛЛАРИ


Корпоратив бошқарув сифатининг даражаси компанияга инвестиция қилиш имконияти тўғрисида қарор қабул қилишга таъсир қилади ва унинг капиталлашувининг ўзига хос хусусияти ҳисобланади. 2023 йилда энг йирик 10 та компаниялар ва тижорат банклари акциялари аҳоли учун очик ва шаффоф савдога чиқарилади. Унинг хабарида Олий Мажлис, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев “Одамларимиз ўз омонатларини инвестиция қилиб, юқори даромадларга эга бўлсин. Бу чинакам Халқ “Ай-Пи-О” (IPO) си бўлишига ишонаман”, дейди давлат раҳбари”.^[1]

Маълумки, дивиденд сиёсати компания раҳбариятининг молиялаштириш соҳасидаги қарорларининг ажралмас қисми ҳисобланади. Компаниянинг дивиденд сиёсатининг энг муҳим жиҳати дивиденд тўловлари ва унинг ривожланиши учун компанияда қоладиган қисми ўртасидаги фойда тақсимотининг оптимал нисбатини топишдир.

Ўзбекистон Республикаси акциядорлик жамиятларининг дивиденд тўловлари сиёсати беқарор бўлиб қолмоқда ва компанияларнинг молиявий аҳволи ва инвестиция имкониятларини акс эттирмайди. Концентрацияланган мулкка эга бўлган компанияларда дивиденд сиёсати кўпчилик акциядорларга боғлиқ бўлиб, уларнинг манфаатлари атроф-муҳитнинг ноаниқлиги, мулк ҳуқуқларининг заиф ҳимояси ва ривожланмаган институтлар томонидан шакллантирилади.

Дивиденд сиёсатининг мақсадига асосланиб, у корхонанинг бозор қийматини максимал даражада ошириш учун истеъмол қилинган ва капиталлаштирилган фойда ўртасидаги нисбатни оптималлаштиришдан иборат бўлган корхонанинг умумий молиявий сиёсатининг ажралмас қисми сифатида тушунилади.

¹ <https://sputniknews-uz.com/20221220/shavkat-mirziyoev-30885939.html>



1-расм. Директорлар Кенгашининг дивиденд сиёсатини ишлаб чиқиш бўйича иши

Расмдаги маълумотлар шуни кўрсатадики, дивиденд сиёсатини ишлаб чиқиш директорлар Кенгаши учун муҳим вазифа бўлиб, унга маслахат беришда умуман ижроия органи, хусусан, молия менежери асосий рол ўйнайди.

Корхоналарнинг дивиденд сиёсати қуйидаги асосий тамойилларга асосланади:

– ошқоралик тамойили, яъни дивиденд сиёсатини амалга оширишда иштирок этувчи томонларнинг мажбуриятлари ва масъулияти, шу жумладан дивидендлар тўлаш ва миқдори тўғрисида қарор қабул қилиш тартиби ва шартлари тўғрисидаги маълумотларни аниқлаш ва ошқор этишни аниқлаш;

- ўз вақтидалик тамойили, дивидендларни тўлашда муддатларни белгилашни назарда тутати;

- дивидендлар тўлаш ва миқдори тўғрисида қарор фақат компаниянинг реал молиявий ҳолатидан келиб чиққан ҳолда ривожланиш режалари ва инвестиция дастурларини ҳисобга олган ҳолда ижобий молиявий натижага эришган тақдирдагина қабул қилиниши мумкинлигини назарда тутадиган адолатлилик тамойили;

- адолатлилик тамойили, дивидендларни тўлаш, миқдори ва тўлаш тартиби тўғрисида қабул қилинган қарорлар тўғрисида маълумот олишда акциядорларнинг тенг ҳуқуқларини таъминлашни назарда тутати;

- дивиденд сиёсатининг тартиб ва тамойилларини қатъий амалга оширишни назарда тутувчи изчиллик тамойили;

- корпоратив бошқарув тартиб-қоидаларини такомиллаштириш доирасида дивиденд сиёсатини доимий равишда такомиллаштириш ва Компаниянинг стратегик мақсадларидаги ўзгаришлар муносабати билан унинг қоидаларини қайта кўриб чиқишни назарда тутувчи ривожланиш тамойили;

- Барқарорлик тамойили. Компаниянинг дивидендлар тўлашнинг барқарор даражасини таъминлаш истагини билдиради.

Акциядорлик жамиятининг дивиденд сиёсати масаласини Халқ этишнинг замирида дивидендларни тўлаш ёки тўламасликнинг асосий муаммосини ал қилиш ётади. Дивиденд сиёсати ва ишлаб чиқаришни ривожлантириш сиёсати муаммолари корхона ихтиёрида қоладиган соф фойда миқдорига боғлиқ. Соф фойда тадбиркорликнинг, шу жумладан корхонанинг инвестицион фаолиятининг молиявий манбаи ҳисобланади.

Ўзбекистонда сўнгги йилларда корпоратив бошқарув тизимидаги ёндашувларни тубдан ўзгартириш, бошқарувнинг адолатлилик жавобгарлик, шаффофлик ва ҳисобдорлик каби Халқаро эътироф этилган тамойилларига амал қилиш, хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш, мамлакат рақобатбардошлигини мустаҳкамлаш, ошириш жараёнларини жадаллаштириш борасида кенг қўламли ислохотлар амалга ошириляпти.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Терешина Н.П., Сорокина А.В. Корпоративное управление: Учебное пособие. –М.: МГУПС (МИИТ), 2014. – 218 с.

2. Бурков В.Н., Дорохин В.В., Тихомиров Е.Ф. Финансовый менеджмент: Управление финансами предприятия. Учебное пособие. М.: Academia, 2013

3. Темиров А. А. Дивидендлар ва дивиденд сиёсати: Учебное пособие. – ТОШКЕНТ. ТГЭУ 2021. –160 с. [2].

4. Умарходжаева М., Шермухамедов А.К., Садикова М. Корпоратив стратегиялар: Учебное пособие.- "Innovatsion rivojlanish nashriyoti - matbaa uyi", 2022. – 333 с.

5. Muxtorxon Tashxodjayeв, Muyassar Umarxodjayeва, Akmal Shermuxamedov, Kayumova Mekhribonu. Корпоратив маданият: Учебное пособие. - "Innovatsion rivojlanish nashriyoti - matbaa uyi" 2022. – 221 с.

6. Акмал Комилжонович Шермухамедов. Введение в корпоративное управление: Учебник. - "Innovatsion rivojlanish nashriyoti - matbaa uyi" 2022. – 360 с.

7. Д.Н.Хусанов, А.Ж.Хўжамуратов, Б.Н.Уринов. Биржалар ва стратегиялар: Учебное пособие. – ТОШКЕНТ. ТГЭУ 2021. –232 с.

Isaqova SH.M.

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT PENSIYA TA’MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Hozirgi paytda pensiya ta’minoti tizimi eng muhim ijtimoiy himoya institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat yuritishi mamlakatimizning ijtimoiy farovonligi darajasiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu sababdan mamlakatimizda istiqboldagi demografik va makroiqtisodiy holatini o’zgarishlarni inobatga olgan holda pensiya tizimini takomillashtirib borish, pensiya tizimining nodavlat shakllarini rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratish, pensiya jamg’armasi mablag’laridan samarali foydalanish, pensiya tayinlashda hisob-kitob ishlarini soddalashtirish, pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini ta’minlashda zamonaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, mamlakatimizda oxirgi yillarda pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirishga va isloh qilishga katta e’tibor qaratilayotganligi hamda tizimda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi, shu jumladan, 2023-yil 1-yanvardan boshlab pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o’n barobaridan o’n ikki barobarigacha oshirilishi, ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash ta’tilida bo’lish vaqtining hammasini jamlaganda ish stajiga qo’shib hisoblanadigan 3 yillik davrni 6 yilga oshirilishi hamda bolalikdan nogironligi bo’lgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qo’shib hisoblash kabilar shular jumlasidandir. Shuni ta’kidlash kerakki, “milliy pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish, aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish zarurligi” mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan alohida Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risidagi farmonida ta’kidlanganligi buning yaqqol isboti bo’ladi¹.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiriq etilayotgan 2022-2026-yillarda amalga oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son., asosiy maqsadi “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilga asoslangan, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosidagi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida amalga oshirishga oid davlat dasturlarida ushbu tizimni rivojlantirishga doir bir qancha vazifalar belgilab qo’yilgan bo’lib, taraqqiyot strategiyasi IV bobining 53 va 54 –maqsadlari aynan pensiya ta’minoti tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni o’z ichiga oladi. Ushbu islohotlar insonga munosib turmush sharoitlarini yaratishdan iborat².

Pensiya ta’minoti tizimining takomillashtirish va ijtimoiy adolatligini oshirish masalalarini quyidagilar orqali ta’minlashga erishishimiz mumkin hisoblanadi, ya’ni:

- aholining kam ta’minlangan qatlami uchun ijtimoiy nafaqalar tayinlash me’yorlari va standartlarini belgilash masalalarini qayta ko’rib chiqish;


- o’rtacha pensiya miqdorini oshirish hamda aholini to’liq staj orqali pensiyaga chiqishini va kech pensiyaga chiqishni rag’batlantirish;

- pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirishning eng muhim yo’nalishlaridan biri bu – aholining pensiya ta’minoti tizimini qamrab olinishi hisoblanadi.

¹ Jumabayeva K.B., “Yangi o‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish”, "Moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari, zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami. T.: TDIU 2022. 208-b.


² Jumabayeva K.B., “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PENSIYA TIZIMIDA XORIJ TAJRIBASI”, "Yangi O'zbekiston: innovatsiya, fan va ta'lim" mavzusidagi respublika 48-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami, 31-yanvar 2023-yil. - Toshkent: "Tadqiqot", 2023. - 13 b.

Shu o'rinda aytish joziki, pensiya ta'minoti tizimiga aholini qanchalik keng ko'lamda qamrab olinishi bu albatta pensiya ta'minoti tizimining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va 2022-yilda yangi tayinlangan pensiyalarni ko'rib chiqadigan bo'lsak(1-rasm);



1-rasm. 2022-yilda yangi tayinlangan pensiya va nafaqa oluvchilar soni(turlar bo'yicha/kishi)¹

Shundan ko'rinib turibkidi aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamini kerakli moddiy yordam bilan qo'llab-quvvatlash yildan yilga oshib borayotganligi va shuningdek nafaqa oluvchilar soni kamayib borayotganligini bilib olishimiz mumkin, shu o'rinda yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar sonini yillar kesimida ko'radigan bo'lsak(2-rasm):



2-rasm. 2017-2022 yillarda yangi tayinlangan pensiya va nafaqalar soni(Respublika miqyosida, ming kishi)²

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimi takomillashib borayotganligi va ijtimoiy qatlamni yillar kesimida ko'proq qismini qamrab olayotganligining hamda bu ko'rsatgichni yanaqa yaxshilash maqsadida pensiya ta'minoti tizimida bir qancha islohotlar amalga oshirilayotgani va bunda aholi faol ishtiroki ta'minlanayotganligi pensiya tizimidagi o'zgarishlarni ko'rsata oladi.

¹ Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

² www.pfru.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Xulosa o'rnida O'zbekiston davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bugungi kun holati bo'yicha qilinga taqiqotlar natijasida tizimda bir qancha o'zgarishlar bo'lganligi va davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- pensiya ta'minoti tizimining baerqarorligini ta'minlash orqali tizimni takomillashtirish mumkinligini e'tiborga olib, tizim barqarorligi ko'rsatkichlarini tahlil qilib boorish hamda xorij tajribalarini tadqiq qilish va O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimiga joriy qilish mexanizimini yaratish;

- eng dolzarb masala bo'lgan pensiya yoshining islohotini ko'rib chiqish va amaliyotga tadbic qilish;

- pensiya ta'minoti tizimiga aholini yanada keng ko'lamda qamrab olish uchun xorij tajribalaridan foydalanish ushbu takliflar ko'rib chiqilsa va pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish uchun qo'llanilsa sohada yanada katta ijobiy o'zgarishlarga erishiladi.

Холиков Давлат Рахматуллаевич
Ассистент кафедры «Инженерной и компьютерной графики»
Джизакского политехнического института
Email: davlatkholikov1995@gmail.com

КОМПЛЕКСНЫЕ ПРИНЦИПЫ ХОЗЯЙСТВОВАНИЯ ХЛОПКО- ТЕКСТИЛЬНОГО КЛАСТЕРА

В научных исследованиях в этой области применялись сравнительный метод анализа, методы индукции и дедукции.

В целях дальнейшего повышения эффективности проводимых реформ, создания условий для всестороннего и быстрого развития государства и общества, реализации приоритетов модернизации и либерализации всех сфер жизни от 28 января 2022 года принят Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

В приоритетах третьем направлении Стратегия развития «Экономическое развитие и диверсификация» лежит качественно новый подход к быстрому развитию высоко технологичных перерабатывающих производств, прежде всего производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья. Дальнейшая модернизация и диверсификация легкой промышленности национальной экономики страны, формирование эффективной конкурентной среды для отраслей экономики и постепенное сокращение монополий на рынке товаров и услуг, разработка принципиально новых видов продукции, что способствует повышению конкурентоспособности национальных товаров на внутреннем и внешнем рынках¹. Также планируется продолжить политику стимулирования локализации производства и, прежде всего, заменить импорт потребительских товаров и комплектующих, расширить межотраслевое промышленное сотрудничество. Особое внимание уделяется текущим направлениям развития, таким как шаги в этих направлениях, наряду с развитием малого бизнеса и частного предпринимательства на ранних этапах экономической реформы, приватизацией и разгосударствлением объектов были ключевым фактором в формировании диверсифицированной экономики.

Однако современные требования требуют необходимых методов и инструментов для последовательного, эффективного, систематического и динамичного осуществления вышеуказанных приоритетов. Одним из таких методов и инструментов является хозяйствующих кластер.

По своей сути хлопково-текстильные кластеры представляют собой совокупность ферм, специализирующихся на выращивании хлопка, промышленных предприятий, специализирующихся на переработке хлопка, а также рыночных инфраструктур (банков, страховых консалтинговых услуг и т. д.), основанных на взаимном сотрудничестве и интеграции. проводится. В связи с этим особой похвалы считается роль науки, технологий, образования и менеджмента в повышении статуса кластера.

Интеграционные отношения в рамках хозяйствующего кластера представляют собой добровольное объединение или взаимодействие физических и юридических лиц для достижения

¹ Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

общих целей (производство товаров, выполнение работ и оказание услуг). В свою очередь, кооперационные отношения становятся технологическим пакетом, технологическим звеном хозяйствующих кластеров.

В конце хозяйствующего кластера сырьё проходит все стадии обработки и становится ориентированным на экспорт готовым продуктом. Создание кластера требует, чтобы потенциал ученых и экономистов, строительно-монтажных компаний, а также потенциал сотрудников инфраструктурных организаций объединяли их передовой опыт в общей цели¹. В качестве объективной необходимости повышения эффективности управления экономикой, взаимодействия хозяйствующих субъектов и производственной кооперации для решения проблем, стоящих перед соответствующими секторами экономики при производстве определенных товаров, работ и услуг сосредоточенным. Мы считаем, что развитие производственной кооперации между предприятиями имеет особое значение. Это связано с тем, что предприятия этих отраслей составляют основу экономики и играют решающую роль в ее росте.

Например, легко-промышленный сектор, который является реальным сектором экономики, имеет широкий спектр возможностей для установления и развития экономического сотрудничества и хозяйствующих кластеров. Сотрудничество на основе хозяйствующего кластера хозяйственных комплексов с другими субъектами могут принимать различные формы. В то же время крупная компания сотрудничает и кластерами предприятий с поставщиками и переработчиками ресурсов, а также предприятиями, специализирующимся на продаже продукции, на субподрядной основе, с поставщиками технологического оборудования и комплектующих - на лизинговой основе, мелкооптовыми производителями с юридическими лицами - на основе франчайзинга.

В контексте модернизации экономики можно решить ряд задач путем реструктуризации крупных предприятий, в частности:

- избавиться от продукции на своем балансе от структур, которые не имеют прямого отношения к этой продукции;
- избавиться от технологической системы производства товаров и услуг путем передачи мелким оптовым, малоприбыльным и убыточным отраслям малого бизнеса;
- использовать возможности приватизации государственного имущества и на этой основе обеспечить дальнейшее развитие малого бизнеса.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Aynakulov M.A., Abduxamidov E.M. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

2. B.B.Berkinov, M.A.Aynakulov. “Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi”. Monografiya - Jizzax.: 2004-114 b.

Abduraxmonov Javlonbek Ravshan o'g'li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
12a-21 guruhi talabasi
e-mail: abduraximovjavlon27@gmail.com
Ilmiy rahbar: Karimjanova Ra'noxon
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
Marketing kafedrasi katta o'qituvchisi

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

“Investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni rivojlantirishga ichki investitsiyalarni yanada faol jalb etish borasida mamlakatimiz prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni bilan kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi hamda 2021-2023-yillarda kapit²al bozorini rivojlantirish dasturi va uni amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkichlar tasdiqlandi.

¹ B.B. Berkinov, M.A. Aynakulov Kichik tadbirkorlik korxonalarining kichik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi. —Monografiya -J.: 2014 - 114 b

² “Xarakterlar strategiyasidan taraqqiyot sari 2022-2026” www.review.uz

Kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, jumladan, quyidagilar:

- kapital bozorining kapitallashuvini 2023-yil yakuniga qadar 45 trln. So'mga yetkazish;
- barcha toifadagi investorlar uchun capital bozorining qulayligini oshirish;
- 2023-yil yakuniga qadar respublika va hududiy investitsiya dasturlarining qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali moliyalashtiriladigan qismini 5%ga yetkazish;
- Fond bozorida rivojlanish maqsadlariga yo'naltiriladigan investitsiyalarni faol moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- kapital bozorini zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish.

Umuman olganda, ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli, yilning dastlabki natijalariga ko'ra markazlashmagan investitsiyalar hajmi 6.7% ga ortib, 201.6 trln so'mga yetdi"

Investitsiya — foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, xuquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan extiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohasiga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklar hisoblanadi. Pulning vaqt (zamon)ga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda foyda olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga band qilib undan sarmoya olishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini ma'lum vaqt mobaynida o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo'lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va boshqalar ishlatiladi. Investitsiya loyihalariga mablag' qo'yuvchilar — investorlar davlat, kompaniya, korxonalar, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Kiritilayotgan investitsiyalar (mulk, pul, qimmat baho qog'ozlar, obligatsiyalar va hokazo) – turli xil ko'rinishda muayyan foyda olish yoki har qanday ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun iqtisodiyot ob'ektlari va turli soha faoliyat yo'nalishlariga kiritilishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, investitsiya muhiti mamlakatdagi barcha faoliyat sohasiga ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda, islohotlar ko'lami turli xil sohalarda ya'ni iqtisodiy, institusional, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, energetika, transport, innovatsiya va boshqa yo'nalishlarni qamrab olishi lozim bo'ladi

Investitsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida qator funktsiya va vazifalarni bajaradi-ki, ularsiz har qanday mamlakat iqtisodiyoti bir maromda rivojlana olmaydi. Investitsiyalar makro darajada quyidagilarni ta'minlaydi:

- takror ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirish;
- ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, milliy mahsulotlarning raqobat bardoshligini ta'minlash, uning sifati va hajminini oshirish;
- ijtimoiy sohalarni (sog'liqni saqlash, ta'lim va boshq.) rivojlantirish;
- aholi farovonligini ta'minlashda muhim bo'lgan uy-joy qurilishi, ichimlik suvi, gaz, elektr energiya bilan ta'minlash muammolarini hal etish;
- atrof-muhit va ekologiyaning ifloslanishining oldini olish;
- umumjamiyat ishlab chiqarishini tarkibiy jihatdan qayta qurish va barcha iqtisodiyot tarmoqlarini bir maromda rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektori va etakchi tarmoqlarini rivojlantirish;
- hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ixtisoslashuvini mustahkamlash;
- investitsiyalar importi va eksporti orqali milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasini kuchaytirish;
- sanoat uchun zarur xom ashyo bazasini yaratish; □ ishsizlik muammosini yumshatish yoki ma'lum darajada hal etish;
- mamlakatning harbiy sanoat majmuini mustahkamlash;
- davlatning mudofaa imkoniyatlarini ta'minlash;
- boshqa bir qator muammolarni hal etish.

Namangan viloyatida bugungi kunda investitsiyalarni jalb qilish sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: Namangan viloyatida 2022 yilda umumiy qiymati 10,5 trln. so'm investitsiya mablag'larini o'zlashtirish hisobiga 1137 ta Yangi loyihalarni ishga tushirildi va bu orqali 34806 nafar yangi ish o'rinlarini yaratildi.

Shundan, 1-chorakda 127,8 mlrd. so'mlik 34 ta, 2-chorakda 1,3 trln. so'mlik 225 ta, 3-chorakda 3,4 trln. so'mlik 525 ta, 4-chorakda 5,7 trln. so'mlik 353 ta loyihalarga to'g'ri keladi.

2017-2021 yillar davomida amalga oshirilgan xududiy investitsiya ko'rsatkichlari dinamikasi.



Shu bilan bir qatorda, respublikada investitsiyalar bilan bog'liq muammolar mavjud ularni hal qilish O'zbekistonni yanada rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari faoliyatining yetarlicha samarali emasligi, shuningdek, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining sust rivojlanganligi, O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini jahon ommaviy axborot vositalarida reklamasini kamligi, jalb qilingan investitsiyalarni hududlar bo'yicha to'g'ri taqsimlash mexanizmining takomillashmagani, inflatsiya darajasining balandligi, bank kredit foiz stavkasining baland darajada ekanligi, iqtisodiyot tarmoqlarida yetarlicha malakali mutaxasislarning yo'qligi va shu kabi muammolarimiz haligacha saqlanib qolmoqda.

Ko'rib turganimizdek, O'zbekistonda investitsiya sohasida bir qancha muammolar mavjud, ularni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim :

- ✓ inflyatsiya darajasini investitsion loyihalar qiymat o'sishiga ta'sirini kamaytirish;
- ✓ xorijiy investorlarga va milliy ishlab chiqaruvchilarga yanada qulay imkoniyat, imtiyozlar yaratish;
- ✓ investitsiyalarni hududlar bo'yicha real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda to'g'ri taqsimlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- ✓ iqtisodiyot tarmoq va sohalarida kadrlar tayyorlash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- ✓ erkin eksport zonalarini amaliyotini o'rganish va ularni yurtimizda joriy qilishga erishish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan investitsiyani jalb qilish tizimidagi muammolarni hal qilishda mamlakatimiz prezidenti bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan amaliy vazifalarni mas'ullarga yuklatdi va shuning natijasi sifatida boshqa davlatlarga bo'ladigan barcha tashriflari chog'ida prezident avvalambor shu mamlakatning tadbirkorlari bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda va ularga iqtisodiyotimizni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish yo'lida kiritiladigan investitsiyalari uchun ko'plab imtiyoz va chegirmalar taklif qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarni o'rni juda katta. Hozirda investitsiyasiz iqtisodiyotni rivojlantirib bo'lmaydi. Investitsiyalarni iqtisodiyotga ko'proq jalb qilish, ulardan samarali foydalanish, ularni hududlar bo'yicha to'g'ri taqsimlash investitsiya jalb qilish hajmini oshirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishga va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga erisha olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Xarakatlar strategiyasidan taraqqiyot sari 2022-2026" www.review.uz
2. "Миллий иқтисодийотни ривожлантиришнинг муаммолари ва истиқболлари: тенденциялар, ўсиш захиралари ва стратегиялари" илмий мақолалар тўплами – "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning roli" - Maxmudov Nosir Maxmudovich.
3. International Multidisciplinary Conference – "INVESTITSİYALARNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI" - Omonova Nafisa Qahramon qizi.
4. Наманган вилояти инвестициялар ва ташқи савдо бошқармаси томонидан 2021 йилда амалга оширилган ҳамда 2022 йилга режалаштирилган ишлар тўғрисида маълумотномаси.

Abdurakhmanov Javlonbek
Student of Namangan Institute of engineering and technology
Tel: +998913571058 Email: abduraximovjavlon27@gmail.com
Scientific leader: Karimjanova Ra'nokhon
Senior Lecturer in Department of Marketing
at Namangan Institute of engineering and technology

THE IMPORTANCE OF LOGISTICS IN FOREIGN TRADE PROCESSES WITH THE COUNTRIES OF THE EURASIAN UNION

Транспортная логистика имеет очень важное значение для развития внешнеторговых и экономических связей Узбекистана.

There was the statement which is dedicated to ensure the development of sustainable high growth rates in the sectors of the economy by providing the gross domestic product per capita in the next five years to 1.6 times and expected to increase income per capita to 4000 U.S. dollars to make our country's economic situation better to prove its rate to be above average income. It is planned to increase the volume of production of industrial products by 1.4 times, continuing the industrial policy aimed at increasing the share of industry in the gross domestic product. There is an opportunity for the implementation of such tasks as further liberalization of leading industries and the economy, completion of transformation processes, further development of logistics and transport infrastructure, introduction of digitization methods to the economy, social sphere, management system, further expansion of infrastructure for the storage, transportation and sale of agricultural products, financial and other modern market services. It follows that today the successful implementation of all our plans for modernizing and updating our country, exporting products to the new countries of the Eurasian Union, forming a qualitatively new, modern structural form of our economy, the comprehensive development of our territories is inextricably linked to the development of road, transportation and communication infrastructure networks at a high pace. In recent years in Uzbekistan, the issues of development of logistics, industrial and rural agriculture clusters, intensive development of innovative activities, digitalization have become one of the priorities of the state economic policy. Thus, they are trying to develop and create those infrastructures for increasing country's export capability.

As businesses progressed and their market coverage shifted from local to a single linked global system, international marketing became important to companies. Globalization refers to the identical needs of consumers in the economy has brought a number of advantages in liberalizing trade and working in competitive world markets, and companies are forced to develop relations with the International Unions in order to survive in such a changing environment. In this context, businesses are obliged to adapt to such changes, be able to foresee and apply innovations in practice.

In the development of foreign economic relations of each country, its logistics system which is like blood vessels of the country is very important. The efficient logistics system ensures that goods and services are delivered in favorable conditions for buyers and at affordable prices by optimizing the movement of final products and raw materials in the domestic market. And in the foreign market, the country's economic competitiveness increases and speeds up the process of integration into the world economy. For the economy of our country, the organization of an efficient logistics system is very crucial. The logistics system in Uzbekistan is ranked 97 out of 160 countries in the World Bank's logistics efficiency index published in 2020. Customs efficiency, the quality of transport infrastructure, the knowledge and potentials of specialists in the field, the ease of organizing international transportation, the level of transportation of goods on time were taken into account in that rating. Our country can be seen in the second position in the Central Asia after Kazakhstan in that index and I think the main reason is not being able to access sea ports which are the cheapest type of transportation directly and even bordering countries.

Agriculture and raw materials make up a large part of the Republic's exports. While the low labor cost, the quality of the product, its diversity can be advantages of our country's products, the high cost of Transportation has a huge impact on the final prices of the product. Transportation cost of a kilo of product in a truck with refrigerator which is used to carry agricultural products from Uzbekistan to Germany is around 40-50 cents, if we take into account that the retail prices of a product range from 40 cents to 3 euros, competitiveness of our products decreases rapidly because of shipment prices and the similar issues can be seen in other industrial sectors too.

The opportunity to improve infrastructures together with neighboring countries, to develop several areas related to transport and logistics, while at the same time on the way to increase competitiveness for domestic manufacturers China is implementing the project called "Belt and Road Initiative - BRI" which

Training highly educated economists based on economic research: problems and innovative solutions

serves to connect our country with other countries. China's accession to the TIR (“International Road Transports” – “International Road Transport”) convention means that the first traffic movements carried out by vehicles from China to Uzbekistan through Kyrgyzstan represent our high capacity as a transit state. Using this potential through Turkmenistan to Iran, Turkey and Caucasus we can go to Europe through the countries of the customs union. These opportunities contribute to the development of production, transport, tourism sectors for our economy

In order to improve logistics efficiency in the country, a program should be developed, which will be combined with specialists from the field, which will include aircraft carriers, car carriers, rail carriers, warehouse services. The program should be in such directions as training personnel in the field, improving the qualifications of existing personnel. Measures such as increasing the level of IT application in customs services and logistics, constant monitoring of processes at Customs and border posts, quick solution of emerging problems by creating an open dialogue with Customs and industry representatives, prevention of their future recurrence should be carried out.

Incoterms is considered important in the development of sales of products to the countries of the Eurasian Union. "incoterms "is an acronym for the English term" International Commercial Terms", referring to the term international commercial terms. Recognized worldwide, it classifies tasks, risks, and prices that take place between the seller and the buyer.

As buy-and-sell processes develop, modifications on “Incoterms” have been made in 1953,1967,1976,1980,1990,2000,2010, 2019, and 2020, and when the term Incoterms is used, it is said to be with the year it was published, for example, Incoterms 2020. Currently, Incoterms 2020 contains 11 rules, and 3 of the most important of them are the following:

❖ EXW-Ex-Works

Buyers bear all the risks and prices in the delivery process. The risk is transferred from the seller to the buyer.

The seller is only able to make sure that the buyer received the products. Even loading work is a buyer's task.

❖ DAP- Delivered At Place

In this case, the seller will deliver the product to the address agreed with the buyer, covering all costs. The goods are separated into groups before being unloaded. Imports and exports are examples of this.

❖ DDP- Delivered Duty Paid.

All responsibilities and expenses during the delivery period of the enterprise's products are assumed, and all payments during the delivery period to the agreed destination are paid by the seller.

These rules are recognized in the world international logistics system and developed countries offer their logistics services based on these rules, and this has its positive impact on the development of international relations, solving many problems in the buying and selling process.

The general objectives of logistics can be classified as follows:

1. Price cuts.
2. Reduction of capital.
3. Improve service delivery.

During establishing international trade, it is important to use a fast and inexpensive means of transportation. As we noted above, we cannot take advantage of the possibilities of using marine transport, and we are only left with the use of rail and freight cars.

Uzbekistan's foreign trade turnover was \$ 25,385.3 million in the 1st quarter of 2022 - \$ 82,313 million in the same period of 2021. This indicator to the CIS countries in the 1st quarter of 2021 amounted to \$ 5929.3 million during the same period of 2022.

Table №1

Foreign trade indicators of the Uzbekistan						
Indicators	1st quarter of 2021			1st quarter of 2022		
	January	February	March	January	February	March
Total sums of foreign trade (in million U.S. dollars)	2334	4721	7526	3498,2	8731,3	13156
Export capacity	694,7	1499,2	2418,6	1399,4	4096,5	5772,7
Import capacity	1639,2	3221,8	5107,2	2098,7	4634,9	7383,1
<i>Balance of trade saldo</i>	-944,5	-1722,6	-2689	-699,3	-538,4	-1610

including: with CIS countries	944,6	1959,1	3025,6	1134	2568,4	3948,6
Export capacity	289,5	601	978,9	387	805,5	1210,6
Import capacity	655,1	1358,1	2046,7	747	1762,9	2738

This is due to the fact that Uzbekistan has a high role of CIS countries in foreign trade turnover, which creates logistical problems.

Uzbekistan's trade and export agreements with the above-mentioned countries are planned at a strategic level, and as a result of this, we will strengthen our position in the world market. Uzbekistan is strengthening relations with countries that have a place in the world economy, such as Belarus, Armenia and the Russian Federation, while entering Eurasian market. Because, as we all know, when importing products to European countries, our entrepreneurs face different customs taxes and this causes the products they are importing to lose their competitiveness in the market. But as a result of the reforms carried out and the improvement of relations between states, the volume of exports to the aforementioned countries is growing rapidly.

Table №2

Exports to EU member countries							
№	Countries	1st quarter of 2021			1st quarter of 2022		
		January	February	March	January	February	March
1	Armenia	530,1	1059,6	1828,4	2048,9	3267,4	3784,9
2	Belarus	2266,6	5663,3	9553,3	5945	14781,4	20570,9
3	Russian Federation	11216,3	255531,3	361114,4	180654	346775,2	484854
4	Kazakhstan	63589,4	151946,8	247433,6	60941,6	141680,6	230976,1
5	Kyrgyzstan	41534,5	91300,1	145810,3	51320,9	114970,1	183131,7

For example, the volume of trade and exports with Armenia amounted to more than \$ 530,000 at the beginning of 2022, while by the end of the first quarter of 2022 this figure was \$ 3 million 785,000-more than 7 times. Another European-based state also increased the volume of trade agreements with Belarus by 10 times, and with the Russian Federation by 4.5 times. It is important for us to improve relations not only with Europe, but also with Eastern countries. The reason is that improving relations with countries entering the 7 league of developed countries has always justified itself. The volume of trade and export with this state was 41 million dollars in 2021, and now this value has reached 4.5 times, that is, 183 million.

In summary, it can be said that it is important to develop effective logistical strategies in Uzbekistan's trade and economic relations with the countries of the Eurasian Union. The convenient location of Uzbekistan from a logistical point of view in Central Asia makes it possible to increase effective marketing practices by the presence of an effective shipping system with border countries.

Абдувохидов Акмал Абдулазизович, доцент
Гулистанский государственный университет
akash7509@rambler.ru
Олимова Нодира Хамракуловна, к.э.н., доцент
Ферганский государственный университет
olimova_nh@mail.ru

ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ И МЕДИЙНОЙ РЕКЛАМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Цифровизация экономики в первую очередь направлена на повышение эффективности и конкурентоспособности экономики. Результаты исследования Всемирного банка “Цифровые дивиденды” показывают, насколько актуальной и важной является цифровая экономика в развитии экономики стран. В частности, увеличение скорости интернета на 10% приведет к росту ВВП

страны¹. Следовательно, если скорость интернета увеличится в 2 раза, размер ВВП также может вырасти примерно на 15 процентов. По подсчету экспертов, благодаря цифровизации затраты на обслуживание производства продукции снизятся до 10-40%, простой оборудования - до 30-50%, затраты на вывод продукции и услуг на рынок - до 20-50%, затраты на улучшение качества продукции и рекламу - до 10-20%, а затраты на хранение производственных запасов - до 20-50%².

Роль цифровых технологий в маркетинге, как и во всех отраслях в мире, неуклонно растет. В настоящее время в Узбекистане с каждым годом растет число активных пользователей интернета, в частности социальных сетей. Для сравнения, если на конец 2021 года в стране было 27,2 миллиона пользователей интернета и 25,3 миллиона абонентов мобильной связи, то на данный момент количество пользователей интернета в Узбекистане составляет более 31 миллиона человек, что на +13,97% больше, чем в прошлом 2021 году. Количество пользователей мобильных устройств составляет чуть более 30 миллионов человек.

Многие считают, что мобильные приложения и социальные сети необходимы. Казалось бы, маркетинг в социальных сетях - очень эффективный инструмент, с помощью которого можно привлечь пользователей на сайт из социальных сетей, блогов, дневников и форумов. Рынок рекламы в стране ежегодно растет на 20-25%. В прошлом году его объем достиг 709,2 млрд. сумов (66,9 млн долларов по среднегодовому курсу 2021 года) - в 2 раза больше, чем три года назад.

В 2021 году доля цифровой рекламы в общей структуре рынка составила 18%, что в 2020 году составило 16%, в 2019 году - 15% соответственно. В стоимостном выражении объем цифровой рекламы в прошлом году вырос на 32%, или с 82,2 млрд. сум до 108,2 млрд. сум. Этот рост также связан с общей "оцифровкой": все больше и больше рекламодателей переходят на онлайн-платформы для привлечения более молодой аудитории³. Кроме того, акцент на интернет-рекламе объясняется финансовыми трудностями рекламы на телевидении. Согласно исследованию компании Kantar, среднее время просмотра телевизора составляет 2,5 часа в день, а телевизионная инфляция для рекламодателей достигает 20-50%. Уровень инфляции в интернете значительно ниже - 5-7%.

Медиа-рынок Узбекистана, самый густонаселенный в Центрально-азиатском регионе, вызывает интерес у инвесторов, открывающих новые частные телеканалы и онлайн-СМИ. Однако за последние 20 лет в Узбекистане не проводилось широкомасштабных исследований медиа-рынка, а только локальные и сегментированные исследования различных медиа-групп⁴. Так, согласно исследованиям Ledokol Group, медиа-рынок Узбекистана демонстрирует умеренный рост. В 2021 году цены на рекламу выросли на 13%, а чистый рост рынка составил 12%⁵.

Телевидение занимает большую часть медиа-рынка, составляя почти 2/3 всего медиа-бюджета. В течение следующих 3 лет, с 2017 по 2021 год, доля интернета в общем бюджете выросла с 3 до 19 процентов. Радио остается его самым стабильным сегментом. На сегодняшний день в Узбекистане работают более 35 радиостанций. Их рыночная доля составляет 2%⁶.

Телевидение Узбекистана состоит из местных частных и государственных каналов МТРК, а также зарубежных кабельных телеканалов. Девятнадцать из 74 доступных телеканалов и 37 из 7 радиостанций транслировались на всю страну, а остальные 55 телеканалов и 30 радиостанций транслировались на региональном уровне. При этом 36 из них - государственные телеканалы, а 38 - частные, количество радиоканалов государственного вещания сократилось до 5, остальные 32 - частные.

В ноябре 2018 года Узбекистан перешел на размещение телевизионной рекламы на основе телевизионных рейтингов, что позволило размещать рекламу на основе популярности шоу, а не покупать эфирное время. За последние три года, с момента введения рейтингового телешоу, приток инвестиций увеличился⁷. С 2021 года рынок телевизионной рекламы восстанавливается после карантина, поэтому рост инвестиций рекламодателей составит 2%. Доля рынка телевидения

¹ Абдувохидов А.А. и др. Ўзбекистонда банк тизимини рақамлаштириш масалалари. // Журнал Инновации в Экономике. - 2021. - Т. 4. - №. 2.

² Данько Т.П., Китова О.В. Вопросы развития цифрового маркетинга ЖЖПСЕ. 2013. №3 (47)

³ Vassileva, B., 2017. Marketing 4.0: How technologies transform marketing organization. Óbuda university e-Bulletin, 7(1), p.47.

⁴ Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 396 b.

⁵ <https://review.uz/post/uzbekistan-v-socialnx-setyax>

⁶ <https://www.sostav.ru/publication/we-are-social-i-hootsuite-52472.html>

⁷ Olimova, N. (2022). Priority directions of digital economy development in the real sector of Uzbekistan. *Scienceweb academic papers collection*.

Узбекистана в 2021 году является одной из крупнейших в мире. С каждым годом количество рекламодателей, в том числе иностранных, растет.

Olimova Nodira Khamrakulovna
Candidate of Economics, Associate Professor
Ferghana State University, olimova_nh@mail.ru
Kuznetsova Elvira Rudolfovna
Doctor of Economics, Professor
Perm State National Research University
elviratashgres@mail.ru

EFFECTIVE USE OF AN INNOVATIVE MARKETING STRATEGY TO MEET THE NEEDS OF CONSUMERS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICES MARKET

Today, special attention is paid to the use of innovative marketing methods in the activities of enterprises in the country, contributing to the development of new types of services and their introduction to the market, further strengthening the company's brand in the market, improving the effectiveness of advertising activities, improving the competitiveness and quality of services in the domestic and foreign markets. Marketing innovations, as it is known, are understood as the introduction of new or significantly improved marketing styles, which include: significant changes in the design and packaging of products; the use of new styles of sales and presentation of products for their promotion and promotion to markets; the formation of new pricing strategies¹. These changes are aimed at more fully satisfying the needs of consumers of products, expanding the composition of consumers of products and services in order to increase sales. Also, such modifications include modifications of the packaging of goods such as consumer goods, beverages, detergents, the packaging of which describes their appearance.

Active communication with selected market sectors allows you to attract the attention of a significant part of consumers and many of them become customers of the company. It is precisely for this reason that since the beginning of the XXI century in various industries, divisions responsible for advertising, direct sales, internal relationships of firms with most market leaders have been united into unified communication services. The number of companies using integrated marketing communications is growing.

Currently, the daily life of the country and its dynamics are changing, which allows analyzing the results of marketing research in the renewal of the economy, choosing, planning and implementing an innovative strategy for the near future and for a long period, which is of great importance for increasing the authority of the Republic of Uzbekistan in the world community and improving its economy. Joseph Schumpeter showed the mechanism of competition that promotes innovation and shares in them the main source of income exceeding the normal level².

Today, "Innovative Marketing" is an emerging direction in marketing activities that prepares this innovative idea for commercialization in the formation of innovative products and services. It uses a set of methods and tools that allow the company to implement an innovative product/service with maximum efficiency. The timely application of innovative marketing technologies reduces the risks associated with the provision of innovative services, since it allows you to assess potential demand, determine the target market segment and answer questions about whether it is worth continuing development, whether they will give the expected effect³.

And in the service sector, "innovative marketing" is a complex of human activities aimed at making a profit by meeting the need for innovation as a result of exchange. This activity includes tasks such as: from determining the need for innovation to the creation of new innovative services, market penetration, the period of viability of services, their application in practice, increasing the interest of buyers to purchase innovative services, determining the demand for innovation and prospects for their creation. Innovations in the service sector and innovative services are broadly conceptual terms that are currently insufficiently applied to science and practice. In our opinion, the optimal planning methods can serve as tools for developing a service program at service enterprises. The choice of the optimality criterion should be determined by the goals of the enterprise and the current market situation. In particular, profit maximization

¹ <https://fayllar.org/innovatsion-marketing-faoliyatini-takomillashtirish.html>

² Ерзнкян Б.А. Шумпетер, мейнстрим и эволюционная теория экономического развития. Журнал Экономическая наука современной России, №4, 2004, с.53-67

³ <https://fayllar.org/innovatsion-marketing-faoliyatini-takomillashtirish.html>

is expedient in conditions of excess demand over supply, and cost minimization - in conditions of saturation of demand¹.

An indicator of the competitiveness of services can be the level of the attitude of buyers to services, that is, the purchase of this service indicates its higher attractiveness in a certain period of time in this market. The essential components of competitiveness can change depending on the service, product, enterprise, as well as other conditions, that is, constantly, often change for each service. So, first of all, you need to focus on market conditions, consumer demand and what they like. The criteria and characteristics of its greatest importance for buyers belonging to a certain segment are taken as definitions by which the conformity of the service to market requirements (i.e. compliance) is evaluated.

Formation and management of the service policy, in our opinion, it is advisable to consist of the following stages:

1. Economic analysis of the type of service.
2. Marketing research.
3. Analysis and evaluation of the conformity of the service to the market.
4. Calculation of the service program.
5. Implementation of the service policy.

In general, it should be recognized that the success of service enterprises depends on the adaptation of their services to changing market requirements. The rational formation of the range of services is to a certain extent due to the necessary level of customer service, as well as the growth of the main economic indicators.

Usmonova Mohigul Mansur Qizi
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
MI-520-22A guruh magistran
e-mail: usmonovamohigul006@gmail.com

JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar tufayli tadbirkor ayollarimiz soni ko'payib bormoqda. Aytish joizki, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salomatligiga etibor qaratish va eng asosiysi ularning turmush sharoitini yaxshilash ijtimoiy sohaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu tufayli, Prezidentimiz tomonidan mazkur yo'nalishni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Binobarin, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan izchil sa'y-harakatlar opa-singillarimizning ijtimoiy faolligini oshirishga, turmush farovonligini yuksaltirishga imkon yaratmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan Barqaror rivojlanish sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, BMT global kun tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston beshinchi Barqaror rivojlanish maqsadini amalga oshirish doirasida "gender tengligini ta'minlash va barcha ayollar huquqlarini kengaytirish" bilan bog'liq qator vazifalarni ishlab chiqdi. Beshinchi maqsad (gender tengligi)ga muvofiq 2030 yilgacha barcha ayollarga nisbatan kamsitishning har qanday shakliga chek qo'yish, ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlat boshqaruvining turli darajalarida davlat dasturlarini qabul qilish jarayoniga gender tengligi tamoyillarini joriy etishni nazarda tutadi.

Ayollarimizning jamiyat ravnaqida tutgan o'rni qator ilmiy tadqiqotlarning dolzarb masalasiga aylandi. Yuqoridagi fikr va g'oyalar ro'yobi yo'lida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham yuqoridagi xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyati va faolligini oshirish maqsadida qabul qilindi.

Hozirda O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglik va reproduktiv

¹ Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. - Минск: ООО "Новое знание", 2010. – 688 с.

salomatlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatini jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda. Bu haqida alohida to'xtalgan fransuz adibi Onore de Balzak "Millatning kelajagi onalar qo'lidadir"¹, deb yozgan edi. Bugungi kunda ko'plab tadqiqotlar asosida oilalarni kuzatishlar orqali qaysi oilada ayol ilmi, didli, adolatli, andishali, ziyoli bo'lib, farzandiga o'z vaqtida vaqt ajratsa, mehr bilan to'g'ri tarbiyalay olsa, ana shu xonadonda ko'proq ma'naviyatli insonlar kamol topishi aniqlandi². Xotin-qizlarning ijtimoiy faollik yo'lidagi harakati dastavval Shimoliy Amerikada, 1775- 1783 yillar davomida mustaqillik uchun kurash sharoitida va Fransiyada 1789-1794 yillardagi inqilob davrida vujudga keldi. 1914 yil 8 martda xotin-qizlar kuni bayram sifatida bir vaqtning o'zida 6 mamlakat Avstriya, Vengriya, Belgiya, Germaniya, Niderlandiya, Rossiya va Shvetsariyada ilk marta keng nishonlandi³. Dastlabki feministlar xotin - qizlarning ezilishi hamda ularning erkaklarga qaramligi sabablarini izlar ekan, ularni ham huquqiy va ijtimoiy jabhalarda ko'radi. Ularning qarashlari feministik dunyoqarash, keyinchalik feministik nazariya shaklini oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratildi. Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirishda mamlakatimiz boshqa mamlakatlar qatorida rivojlanib bormoqda. Albatta ushbu jarayon jadalligi va islohotlar ko'lamini oshirishning samarali yo'llaridan biri bu jamiyatda huquqiy ong, madaniyat va axloqiy-estetik normalarni standartlashtirishdir.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi ayollar yurtimizga yangi-yangi xizmat turlari, ishlab chiqarishning innovatsion shakllarini kiritishda jonbozlik qilishmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar xotin-qizlardir. Fermerlar – xotin-qizlar, nafaqat qishloq xo'jaligi aholisining, balki shahar aholisini ham oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirmoqda. Chorvachilik, dehqonchilik, baliqchilik hamda qo'ziqorin ishlab chiqarish bilan shug'ullanib, daromadini oshirayotgan xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Shu yo'l bilan xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitda qo'llash va mutloq ijtimoiy tenglikga erishish mumkin bo'ladi. Jamiyatning demokratik islohotlarlar yo'lidan nechog'lik ilgari ketgani – shu jamiyatning ayollarga munosabati, bu boradagi madaniy-ma'naviy saviyasi bilan belgilanadi. Zero, oqila, go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliqi, mehribonligi, qalbidaryoligi bilan oilalardagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.

Murodillayev Sardorbek Bahodir o'g'li
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
MI-520-22A guruh magistranti
murodillayev.sardorbek@mail.ru

TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH JIHLARI

Transport kommunikatsiya va infratuzilmalarini rivojlantirish savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishida, mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu soha taraqqiyoti iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojida katta ta'sir kuchiga ega. Ayni shu jihatlarni inobatga olib mazkur yo'nalishda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, bugun mamlakatimiz oldida xalqaro savdo va transport logistikasi tizimini shakllantirish, tovarlar va xizmatlarni yetkazib berishning global bozoriga kirib borish, hamda u yerdagi kuchli raqobatga bardosh bera olishdek dolzarb vazifalar turibdi.

Transport tizimining hozirgi rivojlanish jarayonlari sanoat, qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda transport moddiy ishlab chiqarish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi. Transport iqtisodiy tizimda yuklarni va yo'lovchilarni tashish orqali ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadi hamda aholining harakatchanligini ta'minlaydi. Transport yangi mahsulotlar yaratmaydi, balki moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari tomonidan yaratilgan mahsulotlarni bir joydan-ikkinchi joyga olib boradi va ishlab

¹ Sobirova Dilfuza To'xtasinovna «O'zbekiston ma'naviy-madaniy rivojida xotin-qizlar ishtirokining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati», Talim fidoiylari jurnali 2022/mart 81-b

² Hasanova N.M. Onalik zamonaviy sharq ayolining ulkan mas'uliyati. O'tmishga nazar 3 jild, 7 son. 71-77 betlar. Toshkent.: 2020

³ Jummagul Nomazovna Abduraxmanova «Zamonaviy jamiyatda gender tengligi ta'minlash - ustuvor vazifa sifatida» ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-400-406 Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 www.in-academy.uz

chiqarish aloqalarini rivojlantirish hamda qo‘shish orqali yangi ishlab chiqarish tizimini davom etishi uchun shart-sharoit hozirlaydi.

Transport tarmoqlarining rivojlanganlik holati rayonlarning ixtisoslashuviga, xo‘jalikni kompleks taraqqiy etishiga muayyan sharoit yaratadi. Transport hududiy (geografik) mehnat taqsimotini yuzaga kelishining moddiy-texnik asosidir. Ilmiy-texnika inqilobi ta‘sirida transport tizimining rivojlanishi ishlab chiqarish quvvatlari tarkibidagi jiddiy o‘zgarishlar, xalqaro tovarlar bozoriga tashiladigan yuklarga ehtiyojning o‘shishi va transport xizmati sifatiga yangi talablarning yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir. Bu yerda keskin raqobat natijasida asosiy kapitalning yangilanish zaruriyati tobora yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda. ITIning xalqaro transport bozorida xarakterli natijasi – doimiy turli transport turlari raqobatbardoshligining o‘shishi, ularning o‘zaro aloqadorligi, salohiyatining kuchayishi va integratsion aloqalarning rivojlanishidir. Transport bozoridagi keskin raqobat kurashi, ayniqsa, quruqlik transport turlari - temir yo‘l, avtomobil, quvur transporti va daryo (yuklarni dengiz portiga olib beradigan) yo‘nalishlarda kuchlidir.

Shuningdek, ITI bilan parallel ravishda transport vositalarining monopollashuvi raqobatni yanada kuchaytirmoqda. Transport tizimi o‘zining texnik darajasi, ko‘lami, tashkiliy shakli, xalqaro yuk va yo‘lovchi tashish sifati bo‘yicha mijozlarning yangi talablariga moslashmoqda. Bunda hatto xarajatlarga nisbatan transport xizmati sifati bosh omil rolini o‘ynamoqda. Bu yangi talablar quyidagilar bilan bog‘liqdir:

- yuk jo‘natish ko‘lamining ortib borishi, ishlab chiqarish texnologik jarayonlaridagi hududiy farqlar va yuk tashishdagi mayda partiyalar, yuk tashish tabaqalanishini kuchayishiga;
- transport xarajatlari o‘shishi tufayli yuk tashish samaradoriligini ko‘tarishga intilish;
- iqtisodiy aloqalar tarkibining o‘zgarishiga moslashuv zaruriyati;
- yo‘lovchi va yuk tashishni doimiy va bir maromda ta‘minlash;
- yuklarni tashishdagi tezkorlik va saqlash darajasining ortishi;
- asosiy transport magistrallari (yo‘lak) va transport tugunlarida ishlab chiqarish va aholining hududiy to‘planishi sharoitida intensiv harakatning o‘sib borishida harakat xavfsizligini ta‘minlash zaruriyati;

- xalqaro yo‘lovchi tashish aloqalarida qulayliklariga bo‘lgan talabning keskin ortishi;
- transport turlari rivojlanishiga bo‘lgan ekologik talabni hisobga olish zaruriyati;
- transportni energiyaga bo‘lgan talabning kamayishi zaruriyati.

Qolaversa, transport xizmati ko‘rsatishni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, mulkchilikning barcha shakllaridagi tashuvchilar uchun raqobat muhitini hamda qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek respublikaning transport salohiyatini oshirish maqsadida, 2019 yil 6 martda “Yuk va yo‘lovchi tashish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4230-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi.

Shunday qilib, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi shakllarining rivojlanishi bilan transport xizmat ko‘rsatish sifati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yuqoridagi omillar o‘z navbatida yuk tashishda avtomobili va havo transportining ustun darajada rivojlanishiga, xalqaro transport kommunikatsiyalarining takomillashuviga, infratuzilmalar tizimining modernizatsiyalashuviga, transport vositalari aylanmasining tezlashuvi, aloqalarda qayta yuklamay aralash yuk tashish intensivligi ortishiga, transport vositalari va xizmatlarning mos ixtisoslashuviga, xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan yirik ixtisoslashgan transport-taqsimlash markazlarini tashkillanishiga olib kelmoqda. Shu o‘rinda transport infratuzilmalarini rivojlantirish va ularni yanada keng ko‘lamda isloh qilish chora-tadbirlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- milliy transport logistika kompaniyalari o‘rtasida raqobat darajasini oshirish;
- avtomobil parklarini kengaytirish;
- yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish;
- eksportga mo‘ljallangan milliy mahsulotlar narxlarini raqobatdosh qilish maqsadida yuklarni bir transportdan boshqasiga qayta yuklash punktlari sonini oshirish;
- avtomobil yo‘llari holatini yaxshilash va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish.

O'razaliyev Faxriddin Baxriddinovich,
Jizzax politexnika instituti
"Muhandislik va kompyuter grafikasi"
kafedresi assistenti
Email: urazaliyev1969@mail.ru

TURIZM SOHASI IQTISODIYOT DRAYVERI SIFATIDA: SALOHİYAT VA IMKONIYATLAR

Turizm sohasining serdaromad, shuning bilan birgalikda mashaqqati kamroq faoliyat turi ekanligini e'tirof etib, mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirish, takomillashtirish yuzasidan tinimsiz izlanishlarni olib borish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ana shunday yo'llardan biri - aholi gavjum, shuningdek, iqlim sharoiti mo'tadil bo'lgan hududlarda aholining turistik xizmat ko'rsatishini amalga oshirishi bilan birga aholining o'zi ham mazkur turistik mahsulotdan bahramand bo'ladigan faoliyat turlaridan biri bu turistik mehmon uylarini yaratish va shu orqali ekoturizmni, agroturizmni mahalliy brendlar sanalgan sayyohlarning kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi mahalliy sut, go'sht mahsulotlari, shuningdek, mazali milliy taomlari hisoblanadi.

Ma'lumki, turizm sohasi dunyoda hech narsa bilan alishib bo'lmaydigan sohalardan biridir. Shuning uchun ham mazkur sohani rivojlantirishga bizning mamlakatimizda ham birmuncha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda, xususan 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida" gi Qonuni, 2019 yil 13 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781 son Farmoni, 2019 yil 5 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5611 son Farmonlari qabul qilingan bo'lib, ularga ko'ra turizm turlari, shakllari va ularning institutsional asoslari berilgan bo'lsa, ba'zi manbalarda turistik qishloq ovullarini yaratish yo'nalishlari va uning institutsional asoslari, shuningdek, hududlar kesimida turistik qishloq zonalarini yaratish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Turistik mehmon uylarini tashkil qilishning institutsional asosi bo'lib, birinchi navbatda, 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida" gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781 son Farmoni xizmat qiladi. Mazkur institutsional asoslarga ko'ra *2019 yil 1 noyabrdan boshlab eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari (shaharcha, qishloq, ovullar hamda shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning mahallalari) ro'yxatini shakllantirish, ushbu fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 tadan kam bo'lmagan oilaviy mehmon uylari tashkil etilganda va turistlar uchun kamida besh xil xizmat turlari (yashash va/yoki ovqatlanish bo'yicha xizmatlardan tashqari) ko'rsatilgan taqdirda ularga «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog'i» yoki «Turizm ovuli» maqomini berish, 2020 yildan boshlab «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog'i» yoki «Turizm ovuli» maqomi berilgan fuqarolar yig'inlari «Obod qishloq» va «Obod mahalla» davlat dasturlariga birinchi navbatda kiritilishi qat'iy belgilab qo'yilgan.*¹

"O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida" gi Qonunining 5-moddasiga ko'ra xalqaro va ichki turizm uning shakllari hisoblanadi. Turizm tashkil etilayotgan turning o'ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish usullari va turining boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm hamda turizmning boshqa turlariga bo'linishi mumkin.

Tadqiqotda natijalar olish nuqtai nazaridan kuzatuv va tahlil usuli bo'yicha ishlar olib borilganda O'zbekiston, shuningdek, Jizzax viloyati turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli imkoniyatga, shuningdek, juda katta rekreatsiya salohiyatiga ega ekanligi, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar — "Xiva shahridagi Ichan-qal'a", "Buxoro shahrining tarixiy markazi", "Shahrisabz shahrining tarixiy markazi", "Samarqand shahri" hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilganligi ma'lum bo'ldi.²

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781 son Farmoni

² Aynakulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Jizzax viloyatida turistik qishloq ovullarini yaratish yo'nalishlari va uning institutsional asoslari // Институциональное развитие взаимоотношений финансово-кредитной системы с реальном сектором экономики. Материалы XII международной научно-практической конференции 10-11 июня 2020 года. Самарканд -2020-185 с.

Mamlakatimizda yaratilayotgan shunday institutsional imkoniyatlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak Jizzax viloyatida ham turizmni rivojlantirish uchun keng qamrovli imkoniyatlar mavjud.

Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy mintaqasida joylashgan bo'lib, shu tufayli har taraflama keng ko'lamli xo'jalik yuritish imkoniyatiga egadir. Uzunligi sharqdan g'arbga, ya'ni Yangiobod tumanidan Forish tumanigacha 180 km, janubdan shimolga, ya'ni Baxmal tumanidan Mirzacho'l tumanigacha 175 km. ni tashkil etadi. Maydoni 21,1 ming kv.km. Shundan 4,8 ming kv.km. (22,7 %) qishloq xo'jaligida foydalanishda bo'lgan yerlardir. O'rmon va o'rmonchilik bilan bog'liq ekinlar ekiladigan maydon 1,8 ming (8,5 %) kv.km dan iboratdir. Maydonining katta qismini sharqdan g'arbga va qisman shimoli-g'arb tomonga cho'zilgan Chimqortog' va Molguzar, g'arbdan sharqqa, sharqi-janubga va janubga tomon cho'zilgan Nurota tizma tog'lari, shimol tomondan Qozog'istondagi Chordora to'g'onidan viloyatning shimoli-g'arbidan Navoiy viloyati hududiga qadar cho'zilgan Aydarko'l tashkil etadi.

Viloyatda turizm klasterlarining asosiy poydevori sanalgan Zomin tumanidagi 1976 yilda tashkil etilgan 48 ming gektarli Xalq bog'ining tarovati alohida taxsinga sazovordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida" gi Qonuni. 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781 son Farmoni.
3. Aynakulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Jizzax viloyatida turistik qishloq ovullarini yaratish yo'nalishlari va uning institutsional asoslari // Институциональное развитие взаимоотношений финансово-кредитной системы с реальном сектором экономики. Материалы XII международной научно-практической конференции 10-11 июня 2020 года. Самарканд -2020-185 с.

Aliqulov Humoyun Tohir O'g'li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 1-bosqich
magistranti - aliqulovhumoyunforever@gmail.com

“YASHIL IQTISODIYOT”GA O'TISH – BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI MEZONI

Iqtisodiyotning bosh masalasi – cheklangan resurslar hisobiga insonning cheksiz ehtiyojlarini qondirish bo'lib, bugungi kunda bu masala yanada dolzarbligini kasb etmoqda. Chunki aholi sonining keskin oshishi, jahon iqtisodiyotida daromadlilik darajasi oshgan davlatlarning ko'payishi bu qonuniyatning dolzarbligidan tushmaganini ko'rsatmoqda. Ushbu cheklangan resurslardan tejamkorlik asosida foydalanish, iqtisodiy o'sishda barqarorlikka erishish, sof va tabiiy mahsulotlarga texnologiyalarga ehtiyojning 3 baravarga oshishi, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashishni kuchaytirish, “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish muammolari jahon xalqaro anjumanlarida muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, iqtisodiy, ekologik, investitsion forum va konferentsiyalarda muntazam ravishda muhokama etib kelinayotgan asosiy masalalardan biri – “Yashil iqtisodiyot”ga o'tishdir.

Barchamizga ma'lumki, resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishish iqtisodiyotning bosh maqsadlaridan biridir. Resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha jahon tajribasi ushbu jarayon uzoq muddatli davr, katta miqdorda investitsiyalarni talab etishi, ustuvor e'tibor tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etadi hamda tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'tish jarayoni qulay muhit – huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.lar bilan ham bog'langan holda hosil bo'ladi.

Milliy darajadagi rag'batlantirishuvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari “yashil iqtisodiyot”ga o'tishga va iqtisodiyotni “yashillashtirish”ga yo'naltirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. “Yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktabrda tasdiqlangan “2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” muhim dasturilamal hisoblanadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tishda muhim vazifa sifatida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo'lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o'n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining 100 %gacha modernizatsiyalashgan, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanish

ta'minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi¹.

Birlashgan millatlar tashkilotga a'zo barcha davlatlar tomonidan 2015-2030 yillarda "Barqaror rivojlanish maqsadlari" qabul qilinib, ular har bir inson uchun farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi 17 ta global maqsadlarni va ular bilan bog'liq 169 ta vazifalarni o'z tarkibiga oladi, xususan, qashshoqlikni yo'qotish; ochlikni tugatish; sog'lik va farovonlik; sifatlilik ta'lim; gender tengligi; toza suv va sanitariya; arzon va toza energiya; munosib ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sish; sanoatlashtirish, innovatsiyalar, infratuzilma; tengsizlikni kamaytirish; barqaror shaharlar va qulay yashash joylarini yaratish; mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish; iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish; dengiz ekotizimlarini asrash; quruqlikdagi ekotizimlarni asrash; tinchlik, adolat va samarali boshqaruv; barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik kabilar dasturga kiritilgan, ammo O'zbekiston faqat 16 ta global maqsadni amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan mustahkamlangan. Ya'ni dengiz ekotizimlarini asrash bizning yurtimizga xos emasligi hisobiga 16 ta maqsad amalga oshirilishi bo'yicha tegishli ko'rsatmalar olingan.

Adabiyotlarda "yashil iqtisodiyot" tushunchasi ilk marotaba 1989 yilda qo'llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi². Ayrim manbalarda "yashil iqtisodiyot" mamlakat tabiatini yaxshilashga ko'maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq etilsa, ba'zi tadqiqotlarda "yashil iqtisodiyot" tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o'rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa "yashil iqtisodiyot" – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish hisoblanib, uning asosini sof yoki "yashil" texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot" – bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish"ga olib keluvchi iqtisodiyotdir³. Ushbu tushunchaning mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, "yashil iqtisodiyot" nazariyasi, tamoyillari yoki "yashil iqtisodiyot" siyosatiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

"Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi quyidagi aksiomalarga tayanadi⁴:

- 1) cheklangan muhitda ta'sir doirasini cheksiz kengaytirishning mumkin emasligi;
- 2) resurslar cheklanganligi sharoitida o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish imkoniyatining mavjud emasligi;
- 3) yer sharida barcha narsalarning o'zaro bog'liq ekanligi UNEP mutaxassislari "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarini ikki guruhga ajratishadi: a) xom-ashyo qazib chiqarish, qishloq xo'jaligi, baliqchilik, o'rmon va suv resurslarini boshqarish, ya'ni "tabiiy kapital" bilan bog'liq tarmoqlar; b) energetika, qayta ishlash sanoati, mashinasozlik, transport va qurilish, ya'ni "energiya va resurs samaradorligini oshirish" bilan bog'liq tarmoqlar⁵.

Soliyeva Gulbahor Axmadjanovna
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
PhD, dotsent
soliyeva.gulbahor76@gmail.com,

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SAVDONI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Savdo mamlakatdagi ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarining qon tomirini tashkil etadi. Savdo iste'mol bilan ishlab chiqarishni bir-biriga bog'laydi, aholi talab-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi "2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477- son Qarori

²Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp

³Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17.

⁴Ващалова Т.В. Экологические основы природопользования. Устойчивое развитие: учебное пособие. –М.: Юрайт, 2020. С. 56

⁵Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication // UNEP's Green Economy Initiative. Website. 2011

ehtiyojlaridagi o'zgarishlarni hisobga olib ishlab chiqarishga yangi buyurtmalar beradi va uni yangi tovarlar assortimentini o'zlashtirishga – texnologiyani yangilash va korxonani modernizatsiya qilishga undaydi. Savdo tarmoqlarini samarali faoliyati natijasida mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy ehtiyojlari to'laroq qondiriladi, iqtisodiyot sohalari mahalliy va jahon bozorlaridagi raqobat muhitiga moslashib borishlariga zaruriyat tug'iladi. Demak, savdo mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini, ishlab chiqarish va xizmatlar tarmoqlarini jahon bozorlaridagi kon'yunktura (talab, taklif va baho) o'zgarishlariga muvofiqlashtirib borishini, moliyaviy inqirozlarni oldini olishni, aholining tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talablarini to'laroq qondirilishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy– iqtisodiy jarayon.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida",¹ 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5813-son «Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»², 2018 yil 30 oktyabrdagi PF-5564-son «Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari³, 2022 yil 27 yanvardagi PQ-104-son «Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»⁴, 2021 yil 4 iyundagi PQ-5136-son «Ko'chma savdo faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish va savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi⁵ qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda savdoni yanada rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan.

Yangi O'zbekistonda aholiga savdo xizmati ko'rsatish hajmi va sifatini oshirish, savdo infratuzilmasini rivojlantirish, elektron tijorat va raqamli platformalarni joriy etish natijasida savdo korxonalarini raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligi oshib bormoqda. «Respublika hududlarida savdo infratuzilmasini rivojlantirish, bunda har bir hududda yirik ulgurji-savdo markazlari, yirik tuman/shaharlarda kamida 3 tadan zamonaviy savdo markazlarini tashkil etish» savdo sohasidagi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu borada savdo korxonalarini raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish, klaster tizimi doirasida iqtisodiy munosabatlarni samarali tashkil etish, «biznes-iste'molchi» tamoyili bo'yicha o'zaro manfaatli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish va savdo xizmatlarining prognoz parametrlarini yalpi ichki mahsulot, xizmatlar va savdo xizmatlari o'zgarish sur'ati ko'rsatkichlarini e'tiborga olgan holda asoslash yo'nalishida tadqiqotlarni amalga oshirish taqozo etilmoqda.

Savdoni boshqarish, umumiy korxonalar boshqaruvi nazariyasiga asoslangan holda, savdo korxonasi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda ko'plab funksional boshqaruv turlarining texnikasi va usullarini birlashtiradi. Xususan, savdo menejmenti ishlab chiqarishni boshqarish, innovatsiyalarni boshqarish, xodimlarni boshqarish, moliyaviy menejment va savdo korxonalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan boshqa funksional boshqaruv turlaridan foydalanadi.

Savdoni boshqarishning muhim xususiyati savdo korxonasi faoliyatining turli jihatlarini bilan bog'liq barcha boshqaruv qarorlarini shakllantirishning murakkab xarakterga ega. Ushbu boshqaruv qarorlarining barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tijorat korxonasi iqtisodiy faoliyatining yakuniy samaradorligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Savdoni boshqarish o'zaro bog'liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishdan iborat bo'lgan murakkab harakatlar tizimi sifatida qaraladi, ularning har biri savdo korxonasi xo'jalik faoliyatining yakuniy samaradorligiga hissa qo'shadi.

Bir tarmoqning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari sifatida barcha savdo korxonalarini savdo-texnologik va savdo-iqtisodiy jarayonlarning ko'plab umumiy xususiyatlariga ega bo'lsa-da, ularning o'ziga xos tashkiliy shakllari, qo'llaniladigan texnologiyalari va biznes sharoitlari o'rtasidagi farqlar juda katta bo'lib, bu shunga mos ravishda biznesning ikkala xususiyatlariga ham ularning faoliyatini boshqarish jarayoni va ushbu faoliyatning yakuniy natijalariga ta'sir qiladi.

Jahonda savdo korxonalarini raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish borasida global makonda ulgurji-taqsimot markazlari hamda samarali logistik tizimlarni rivojlantirish, mahsulotlarga qo'shimcha ishlov berish, qadoqlash, saqlash, tashish va sotish jarayonlarini tashkil etishning yagona milliy markazini shakllantirish, tovarlarni mintaqalararo qayta taqsimlash jarayonlari tadqiq etilmoqda. Savdo

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi qarori

²<https://lex.uz/docs/-4502381>

³<https://lex.uz/docs/-4030912>

⁴<https://lex.uz/uz/docs/-5840284>


⁵<https://lex.uz/ru/docs/-5443918>

korxonalarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish, zamonaviy xaridorning ma'naviy-ruhiy holatini modellashtirish, savdo munosabatlari ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va biznes-modelning yangi shakllarini joriy etish, xaridorlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash uchun sotish kanallarini yaqinlashtirish, konvergensiya jarayonlarini namoyon etuvchi ta'minotchilar, magazinlar, internet-maydonchalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda savdo sohasidagi iqtisodiy rivojlanish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'z natijasini berayotgani quyidagi raqamlarda o'z aksini topmoqda. (1-rasm).

Rasmdan ko'rinib turibdiki, CHSTA hajmi 2017-2021 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. «COVID-19» virusining paydo bo'lishi natijasida dunyo miqyosida yalpi talab, savdo va investitsiyalar hajmining sezilarli darajada qisqarishi yurtimiz iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Biroq, shunisi e'tiborga loyiqki, shunday murakkab va qiyin sharoitda ham iqtisodiyotning asosiy sohasi hisoblangan CHSTAda iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlari saqlanib qoldi va buning natijasida 2021 yilda Respublikada CHSTA 252056,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 13,2 foizga o'sdi. CHSTA hajmi, savdo xizmati ko'rsatish darajasi va raqobatbardoshligining yuqori bo'lishi bevosita savdo korxonalarining moddiy-texnika bazasi rivojlanganlik darajasiga bog'liq.¹

Bu esa, birinchi navbatda, aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, ularning iste'mol xarajatlarini tejash, xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish hamda tovar ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiruvchi asosiy omilidir.



1-rasm. O'zbekistonda CHSTA hajmining o'zgarish sur'atlari, (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida)

Bu esa, birinchi navbatda, aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, ularning iste'mol xarajatlarini tejash, xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish hamda tovar ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantiruvchi asosiy omilidir.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Iste'mol bozorining tanlangan segmenti doirasida iste'molchilarning tovarlarga bo'lgan talabini eng to'liq qondirish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish.
2. Savdo xizmatini yuqori darajada ta'minlash.
3. Korxonada savdo-texnologik va savdo-iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishning yetarli iqtisodiy samaradorligini ta'minlash.
5. Savdo korxonasi faoliyati bilan bog'liq iqtisodiy risklar darajasini minimallashtirish.
6. Savdo korxonasining bozor qiymatining doimiy o'sishini ta'minlash.

¹ U.Normurodov. Avtoreferat. O'zbekistonda savdo korxonalarini raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish. 2022yil

Каримжанова Раънохон Махмудовна
Наманган муҳандислик-технология институти
“Маркетинг” кафедраси катта ўқитувчиси
Носиров Хусниддин Хусанбой ўғли
Наманган муҳандислик-технология
институти “Иқтисодиёт” факултети
e-mail: nosirovxusniddin42@gmail.com

НАМАНГАН ВИЛОЯТИДА ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ўзбекистоннинг туризм салоҳияти ўта юқори, шу сабабдан уни амалга оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Стратегияда туризмни ривожлантириш соҳасида "Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг" дастури доирасида 2026 йилга келиб маҳаллий стратегияда туризмни 2026-йилгача маҳаллий сайёҳлар сонини ошириш ва хорижий туристлар сонини 4.4 млн. нафарга етказиш мақсад қилиб белгиланган.

Туризм соҳасида банд аҳоли сони 2 баробар ошиб, 520 минг нафарга етиши кутилмоқда.

Бунинг учун мамлакатнинг асосий туризм шаҳарларида тўсиқсиз туризм инфратузилмаси кенг жорий этилади, 8 мингта ортиқ маданий мерос объектларидан самарали фойдаланиш бўйича давлат дастури қабул қилинади. Зомин, Фориш, Бахмал туманлари ва "Айдар-Арнасой" кўллар тизимида кўшимча туристик зоналар барпо этилиб, 300 млн. долларлик лойиҳалар амалга оширилади ва шу орқали 25 минг иш ўрни яратилади.

2022-йилда "Абадий шаҳар" тарихий мажмуаси ва зарурий инфратузилмани ўз ичига олган Самарқанд туризм марказини ташкил этиш мазкур шаҳарни "Туризм дарвозаси"га айлантиришга имкон беради. Қорақалпоғистон Республикаси ва Орол бўйида, Хоразм, Бухоро, Тошкент вилоятларида туризмни ривожлантириш бўйича алоҳида дастурлар ишлаб чиқилади, шунингдек, Навоий вилоятида зиёрат ва экотуризм салоҳиятини юксалтириш, Тошкент шаҳрида туризм инфратузилмасини яхшилаш бўйича тегишли чора-тадбирлар амалга оширилади.

Туристлик маҳсулотлар, туристик хизматлар(бронлаштириш, ташиш, жойлаштириш, овқатлантириш, ўйинлар), туристик ишлар(фото хизмати, суғурта, ахборот, молия, банк хизмати), туристик товарлар(эсдалик совғалар, хилма-хил туристик товарлар, истеъмол товарлари-парфюмерия, маиший техника, кийим-кечаклардан иборат.

Туристлик хизматлар - турист ва экскурсанд эҳтиёжларини қондириш ва таъминлашга қаратилган, хизмат соҳасидаги бир мақсадга йўналтирилган ҳаракатлар тўплами бўлиб, улар туризм мақсадларига, характерига ва туристик хизматнинг қандай йўналтирилганига жавоб бериши ҳамда умуминсоний тамойилларга қарши бўлмаслиги керак.

Давлат стандарти тарифига кўра, туристик хизматлар - сайёҳларнинг эҳтиёжларини қондириш фаолияти билан шуғулланувчи туризм ташкилотларининг фаолияти маҳсулидир.

Наманган вилоятида бугунги кунда туризмни ривожлантириш борасида бир қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Вилоятда бугунги кунда 1500 сайёҳни қабул қилиш имкониятига эга 45 та меҳмонхон ва 8 та сайёҳлик фирмаси фаолият кўрсатмоқда. Вилоятда 282та маданий меърос объекти мавжуд бўлиб, шундан 103таси архитектура ёдгорлиги, 155таси археология ёдгорлиги, 8таси монументал санъат асарлари, 16таси диққатга сазовор жойлар, зиёратгоҳлардир.

Наманган вилоятининг Янгиқўрғон туманидаги Заркент қишлоғида жойлашган “Шаршара” болалар оромгоҳи 20 миллиард сўм миқдоридаги инвестиция эвазига замонавий дам олиш комплексига айлантирилмоқда.

Вилоятда амалга ошириладиган ислохотлар қаторида туризм ва уни ривожлантириш бўйича бир қанча ишлар амалга оширилиши тўғрисида дастурий режалар тузилган. Жумладан, вилоят ҳокимлиги ҳамда Туризм бошқармаси томонидан туристик зоналарнинг концепцияси ишлаб чиқилди ва Вазирлар Маҳкамасига тақдим этилди. Ўз навбатида, Вазирлар Маҳкамасининг “Нанай кичик туристик зонаси”ни ташкил этиш бўйича “Йўл харитаси” тасдиқланди.

Бугунги кунга келиб, туризм соҳаси иқтисодиётнинг муҳим энг юқори ва тез даромад келтирадиган соҳага айланиб бормоқда. Туризм соҳасини жадал ривожлантириш борасида республикамизда бир қатор қонунлар, меъёрий ҳужжатлар ва дастурлар қабул қилинди. Наманган вилоятида ҳам ушбу соҳани ривожлантириш борасида бир қатор ижобий ишлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, Наманган шаҳрида барпо этилаётган Ўзбекистонда ягона “Афсоналар водийси” тематик парки вилоятимизнинг туристик салоҳияти ва жозибadorлигига ўзининг жуда катта ижобий таъсири кўрсатилмоқда. Мазкур паркнинг умумий қиймати 171 миллион АҚШ долларини ташкил этади. 110 гектар майдонни эгаллаган ушбу паркда очиқ ва ёпиқ сузиш хавзаси, кичик ўйингоҳ, тўрт юлдузли мехмонхона, савдо шаҳобчалари, кутубхона ва хунармандлар маркази ташкил этилган. Энг эътиборлиси, ушбу боғда йилига 100 минг туристга кўрсатилади. Чортоқ туманидаги “Гулшан” маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида “Чортоқ Ресорт” МЧЖ шаклидаги Ўзбекистон-Нидерландия қўшма корхонаси томонидан умумий лойиҳа қиймати 149,0 миллиард сўм бўлган 250 ўринли, замонавий чет эл технологияларига асосланган “Санатория соғломлаштириш маркази” барпо этилмоқда. Ушбу марказ 15,2 гектар ер майдонига эга бўлиб, йил давомида 6000 фуқарога, шундан 2300 хорижий сайёҳга хизмат кўрсатишимконига эга бўлади.

Наманган вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш, хорижий ва маҳаллий сайёҳларнинг ташрифини кўпайтириш учун уларга қулай шароитлар яратиш, хизматлар турини кенгайтириш мақсадида Наманган вилоятида “Санитар-гигиена узеллари ҳолатини яхшилаш” маҳаллий дастури ишлаб чиқилмоқда.

Ушбу дастурни амалга ошириш мақсадида “МЭГА ГРОМАДА МЕБЕЛ” МЧЖ билан Наманган вилоятида замонавий модулли санитар-гигиеник шаҳобчалари қуриш бўйича келишувлар олиб борилмоқда.

Наманган шаҳридаги “Ойдин Плаза” мехмонхонасида вилоят туризм бошқармаси ҳамда вилоятдаги мавжуд мехмонхоналар раҳбарлари иштирокида семинар бўлиб ўтди. Семинарда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги “Туризм тармоғини жадал ривожлантиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4095-сонли қарори ижроси бу жараёнда мехмонхоналарга яратилаётган имтиёзлар, тизимда учраётган муаммолар, мехмонхонага ташриф буюрган туристларга кўрсатиладиган хизматлар муҳокама қилинди.

Наманган вилоятида туристик фаолиятни амалга оширувчи фирма ва ташкилотлар сони 8 та. Бу фирма ва ташкилотлар томонидан 2021 йилда 228 та сайёҳлик йўлланмалари сотилган бўлиб, қиймати 824,8 млн сўмни ташкил қилди.

Вилоятда учта йирик туристларга хизмат кўрсатадиган “Наманган”, “Ойдин плаза” ва “Буюк Ипак йўли” брендига эга бўлган мехмонхоналар мавжуд.

Давлатимиз раҳбарининг ҳар бир ҳудуднинг хусусият ва имкониятидан келиб чиқиб, янги корхоналар ташкил этиш, иш ўринлари яратишга оид топшириғига асосан комплекс ишлар амалга оширилмоқда.

Наманган вилоятининг Чортоқ туманида жойлашган “Чортоқ ресорц” санаторийси яқингача қаровсиз эди. Маҳаллий тадбиркор ва хорижий инвесторларнинг жами 25 млн долларлик сармояси эвазига бугун бу ерди 15 гектардан зиёд майдонда замонавий оромгоҳ бунёд этилмоқда. Бу эса туманда туризм ҳамда экотуризмни ривожлантириш учун қўшимча имкониятлар очади. Бу оромгоҳда иглатерапия йўлга қўйилди. Бу таянч-ҳаракат аъзолари ва кичик тос-суяк касалликларини даволашга ёрдам беради.

Президентимиз Наманган вилоятига ташрифи чоғида ушбу соғломлаштириш марказида яратилган шароитларни кўздан кечирди. Чортоқда яна кўплаб санаторийлар ташкил этиш, уларни арзон, ўрта ва қиммат тарзда таснифлаш орқали аҳолининг барча қатламларини қамраб олиш, рақобатни таъминлаш орқали хизмат нархини тушириш бўйича топшириқлар берди.

Узоқ муддатга мўлжалланган лойиҳа доирасида кўплаб объектлар қурилиши кўзда тутилган. Улардан бири Нанай туризм маркази 27,9 гектар майдонда барпо этилади. Унинг таркибига 549 ўринли беш юлдузли мехмонхона ва 241 ўринли тўрт юлдузли мехмонхона, 400 ўринли қишги ва ёзги томошалар зали, кўрғазмалар маркази, хунармандлар устахоналари, шунингдек қатор кўнгилочар иншоотлар киритилган.

Нанай кичик туризм зонаси эса 14,5 гектар ҳудудда жойлашган бўлиб, бу сихатгоҳда 78 та вилла мехмонхона, замонавий савдо маркази, ресторан, кафе, тоғ дор йўли каби объектларни барпо этиш режалаштирилган.

Қуйидагилардан келиб чиқиб, Наманган вилоятида янги шаклланаётган туризм хизматларини янада ривожлантириш учун ҳудуднинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, туристларга хизмат кўрсатиш сифатини халқаро стандарт талабларига мос равишда ташкил этиш, вилоятнинг Чортоқ, Нанай, Ахсикент ва бошқа диққатга сазовор жойлари тўғрисида видео, рекламалар тайёрлаб аҳолига таништириш, интернет сайтларига жойлаштириш, аҳолини, тадбиркорларни янада қизиқтириш бўйича ҳар ҳил тадбирларни йўлга қўйиш лозим деб ҳисоблаймиз.

Тавсия этилган чора-тадбирларнинг изчил амалга оширилиши халқаро туризм бозорида Ўзбекистоннинг рақобатбардошлигини бир неча поғонага оширади. Бу эса, Ўзбекистонда шу билан биргаликда Наманган вилоятида ҳам туризм ривожланишининг узоқ муддатли стратегик мақсадлари бўлган туризм тушумларини ўстириш экологик ва ижтимоий барқарорликни ҳамда аҳолининг муносиб турмуш тарзини таъминлашга кенг йўл очади.

**Ахмедов Музаффар Шокиржонович,
Наманган муҳандислик-технология институти
muzaffarsp86@gmail.com**

КОРХОНАЛАР ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ПЕРСОНАЛ МОТИВАЦИЯСИНИНГ ЎРНИ

Ҳозирда дунё миқёсида глобаллашув жараёни авж олиб бормоқда. Глобаллашувни иқтисодиётга ижобий жиҳатлари билан бирга салбий жиҳатлари ҳам мавжуд. Айнан шундай шароитда корхоналар дунёга мослашиш, яшаб қолиш циклини узоқ муддатли қилиш учун аввало персоналга бўлган эътиборни ўринли ташкил этиш лозим бўлади.

Фикримизча корхонада тизимли равишда персонал мотивациясини ташкил этишда, мотивациянинг назарияларидан ўрни келганда унумли фойдаланиш талаб этилади.

Тадқиқот доирасида дастлаб классик назарияларга эътибор қаратамиз. Бу назария персоналга иқтисодий мотивация бериб, ундан меҳнатнинг энг оптимал нормасига асосланган ҳолда фойдаланишга қаратилган. Ф.Тейлор, А.Файол ва Г.Форд бу назарияга катта хисса қўшган мутахассислардир. Меҳнатни ўринли ташкил этиш ва тартиблаш орқали персонал мотивациясини яхшилаш бўйича илмий бошқарув мактабининг иқтидорли вакили Форд Г¹. ҳисобанади Форд ўз даврида персонал мотивациясини яхшилаш учун иш меъёрини камайтириб саккиз соталик тартибни ўрнатган. Иш ҳақини 1.5-2 баробар оширган, ўз ўрнида тажрибалар ўтказиш учун лабораториялар ташкил қилган. Умуман олганда илмий бошқарув мактаби вакиллари иш ҳақи ва меҳнат унумдорлиги ўртасидаги боғлиқликни исботлаб бердилар.

Инсоний муносабатлар назарияси асосчиларидан бири Элтон Мейо 1923-1924 йилларда Филадельфиядаги тўқимачилик фабрикасида ўтказилган тажрибадан сўнг шуҳрат қозонган. Яъни Э.Мейо ишчилар робот эмаслигини, уларга маънавий мотивация ҳам зарур эканлигини ўз тадқиқотларида исботлади.

Энг кенг тарқалган назариялардан бири Абрахам Маслоуга тегишли ҳисобланиб, унга кўра персоналнинг мотивлари ўз эҳтиёжларидан келиб чиқиши ва персонал беш даражадаги эҳтиёжларга эга эканлиги таъкидланган².

1. Физиологик эҳтиёжлар бирламчи аҳамиятга эга бўлиб унга озиқ-овқат, кийим-кечак, сув, турар жой ва бошқа зарурий эҳтиёжлардир.
2. Барқарорлик эҳтиёжлари, яъни персонал мавжуд иш жойини барқарорлиги, соғлиқ, молиявий ва шахсий хавфсизлиги, заурий иш стажи ва бошқа ички ва ташқи таъсирларга нисбатан қарши хавфсизликка эҳтиёжлар киради.
3. Ижтимоий эҳтиёжлар асосида персоналнинг корхонада мавжуд тегишли гуруҳ аъзоси бўлишни хис қилиши, бошқалар томонидан уни қабул қилинишига эҳтиёж сезиш, жамоада ва раҳбар томонидан меҳр-мухаббат, қўллаб-қувватлашга ва албатта оилага эҳтиёж ётади.
4. Ҳурматга эҳтиёж персоналда албатта кутиладиган эҳтиёж бўлиб, ҳар бир персонал ўзини иш жойида қадрланишига эҳтиёж сезади.
5. Ўзини такомиллаштириш, яъни бу персонални шахс сифатида ўсишга, ўзини ва ишини такомиллаштиришга бўлган, умуман мумкин бўлган ҳамма нарсага эҳтиёждир.

Корхонадаги ижтимоий-иқтисодий муаммоларни бартараф этишда бу назарияни аҳамияти катта. Агар корхонадаги мавжуд персонални юқоридаги беш тур буйича ажратиб, шу асосида тўғри мотивация бериб борилса, корхона ички муҳити яхшиланиб муаммолар бартараф этилади.

Муҳим бўлган назариялардан яна бири “Z” назарияси бўлиб, бу Калифорния университети профессори Уилям Г.Оучига тегишлидир. Бу назария ўзбек менталитетига мос бўлган назариялардан биридир. Г.Оучи меҳнат унумдорлигини ошириш учун персонални биргаликдаги

¹ Форд, Г. Моя жизнь, мои достижения[Электронный ресурс]. – Режим доступа: – <https://docviewer.yandex.ru/view/121332298/>

² [Maslow, 1943] A theory of human motivation. Psychological Review, 50 (1943), p. 370-396

меҳнати самаралироқ эканлигини ва уларни шундай бошқариш лозимлигини таъкидлайди¹. Г.Оучи тизимида персоналга муносабатни корхона фойдасини ошириш учун тўғридан-тўғри боғлиқликда таҳлил қилинади. Даставвал менежерлар ва персонал ўртасида ишонч ўрнатиш, меҳнатга бўлган мотивацияни ошириш учун жамоа иштирокида қарорлар қабул қилиш ва чиқарилган қарорларга жамоавий жавобгарликни йўлга қўйиш лозим бўлади. Демак Г.Оучи назариясида персоналнинг ижтимоий гуруҳий эҳтиёжларига катта урғу берилган. Ўзбек халқи ҳам жамоавийликка интилган халқ бўлганлиги учун Г.Оучининг назарияси корхоналарда қўлланиши мавжуд ижтимоий-иқтисодий муаммоларни бартараф этишда ёрдам беради.

Кейинги назария Эдвард Деси ва Ричард Райанлар (1970-80 йиллар) ишлаб чиққан когнитив баҳолаш, яъни ички мотивация назариясидир. Бу назария асосида инсоннинг ички истаклари билан боғлиқ бўлган ҳаракатлари ётади. Бу ташқи мукофотлар учун эмас балки, бажарган ишидан ички қониқишга қаратилгандир. Яъни буни инсонни ўз тақдирини ўзи белгилаш деб ҳам юритилади. Ички мотивацияга эга бўлган ходимлар ўзларининг хатти-ҳаракатларининг сабабини ички эҳтиёжлар билан боғлайдилар ва ички мукофот ва қониқиш учун хатти-ҳаракатларни амалга оширадидилар². Демак биз корхонада фақат ташқи элементларга эмас, балки персоналнинг ўз ички мукофот тизимидан ҳам фойдаланиб уни иш самарадорлигини ошишига ҳисса қўшишимиз мумкин экан. Ички мотивация назарияси бўйича персонал ўз ҳаракатлари асосида кўникма ҳосил қилишга уринади ва бу жараёнда персонал қобилиятга бўлган эҳтиёжни юзага келтириш керак.

Ўз малакасини оширишга ташқи муҳит омиллари қанчалик кўп ҳисса қўшса, ички мотивация шунчалик кучаяди.

Кўриб чиққанимиздек олимлар томонидан аниқ тадқиқотлар асосида таклиф қилинган ва амалда қўллаб келинаётган бир-бирдан фаркли турли мотивацион назариялар мавжуд, фақат бу назариялардан энг керакли ҳолларда фойдаланиш даркор. Бу назарияларнинг ўзи персонални мотивацион омиллари ҳисобланади.

Фикримизча бу назариялар билан биргаликда, ўз тарихимизни ҳам яхши таҳлил қилиб, буюк аجدодларимиз қўл остидагиларга қандай муносабат қилганлигини ҳам ўрганиб, барча ижобий жиҳатларини амалда қўллаб боришимиз даркор. Уларни тўғри таҳлил қилган ҳолда ўрни келганда қўллай билиш корхонадаги ижтимоий-иқтисодий муаммоларни бартараф этилишига ва ўз ўрнида муваффақиятга олиб боради. Бунинг учун корхонада персонал мотивацияси билан ишлаш учун алоҳида тизимли маълумотлар базалари шакллантириши лозим бўлади.

**Илёсов Асроржон Ахроржон ўғли,
Фарғона политехника институти
доцент в.б., PhD
i.asror@ferpi.uz**

САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШДАГИ ИЛҒОР РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ИННОВАЦИОН ТАРАҚҚИЁТ

Рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши нафақат иқтисодиёт, балки жамият миқёсида ҳам улкан ўзгаришларга олиб келади. Рақамли технологиялар давлат, юридик ва жисмоний шахслар учун трансакция харажатларини камайтириш билан бирга, меҳнат унумдорлигини кескин оширишга имкон беради.

Янги инновацион технологияларни ўзлаштириш Инклюзив ва барқарор саноат ривожланиши (Inclusive and sustainable industrial development, ISID) муваффақиятининг асосий ҳаракатлантирувчи кучи ҳисобланади. Рақамли ишлаб чиқариш технологиялари – сунъий интеллект (artificial intelligence), катта маълумотлар аналитикаси (big data analytics), булутли ҳисоблаш (cloud computing), нарсалар интернетини (Internet of Things (IoT)), ривожланган робототехника (advanced robotics) ва қўшимча ишлаб чиқариш (additive manufacturing) саноат ишлаб чиқаришни ўзгартирмоқда (трансформация). Тўғри шароитларда ривожланаётган мамлакатларда ушбу илғор рақамли технологияларни қабул қилиш орқали ISIDга мослашиши ва Барқарор ривожланиш мақсадлари (Sustainable Development Goals, SDGs) муваффақиятини таъминлаши мумкин³.

¹ Оучи У.Г. Методы организации производства: японский и американский подходы. - М.: Экономика, 1984. - С. 23.

² Deci and Ryan. The empirical exploration of intrinsic motivational processes. Advances in Experimental Social Psychology, 13 (1980), pp. 39-80

³ United Nations Industrial Development Organization, 2022. Industrial Development Report 2022.

Саноат тараққиёти ҳисоботида ишлаб чиқаришда қўлланиладиган ADP технологиялари (Advanced digital production, ADP) дан фойдаланиш даражаси бўйича мамлакатлар тўрт гуруҳга, яъни етакчилар, издошлар, кечикканлар ва ортда қолганлар (frontrunners, followers, latecomers, laggards) ҳамда шуларнинг ичида икки гуруҳ ишлаб чиқарувчилар (as producers) ва фойдаланувчилар (as users)га ажратилади.

Етакчилар глобал патент тизимида аризалар бўйича ўртачадан юқори кўрсаткичга эга бўлган 10 та мамлакат ҳисобланади. Шунингдек, ушбу мамлакатлар ADP технологиялари билан боғлиқ товарлар экспорти ва импорти бозорида ўртачадан юқори улушга эга ҳисобланади. Қолган барча тоифалар олтита кўрсаткич бўйича гуруҳланади: патентлар бўйича буюртмалар (мунтазам ва глобал патент оилалари), халқаро савдодаги улуши (экспорт ва импорт) ва халқаро савдодаги нисбий устунлик (экспорт ва импорт). Ҳар бир кўрсаткич учун мамлакат етакчилар иқтисодиёти таҳлил қилинган, жаҳон ўртача кўрсаткичи билан таққосланади.

Издошлар инновациялар учун мунтазам ва глобал патент оилаларига талабномалар бўйича ўртачадан юқори кўрсаткич қайд этган мамлакатлар ҳисобланади. Етакчилар аниқлангандан сўнг, бу ўртача қийматлар мос равишда 10 ва 20 ни ташкил этади. Ўртачадан паст, лекин нолдан юқори кўрсаткичга эга бўлганлар кечиккан инноваторлар деб ҳисобланади. Экспорт ва импорт фаолияти учун, издошлар сифатида нафақат бозор улуши, балки асосий товарлар савдоси бўйича ихтисослашиш даражаси ҳам ҳисобга олинади (нисбий устунлик 1 дан юқори). Жаҳон бозори ўртача улушлари экспорт учун 0,18 фоиз ва импорт учун 0,29 фоизни ташкил этади. Кечикканлар ўз навбатида бир вақтнинг ўзида ҳар икки кўрсаткич бўйича эмас, ёки бозор улуши ўртачадан юқори ёки асосий товарлар савдоси бўйича нисбий ихтисослашган бўлиши лозим.

ADP технологияларини яратиш ва тарқатиш жаҳон миқёсида концентрацияланган бўлсада, айрим ривожланаётган мамлакатлар ушбу технологияларни қўллаш бўйича дастлабки қадамларни қўймоқда. Етакчилар (Frontrunners) ҳисобланган 10 та мамлакат патентларнинг 90 % ига ва ушбу технологиялар билан боғлиқ экспортнинг 70 %ига эгалик қилмоқда. Издошлар (Followers), яъни 40 та мамлакат ушбу технологиялар билан фаол шуғулланмоқдалар, лекин жуда паст интенсивликка эга. Мамлакатимиз “Кечикканлар” (Latecomers) нинг фойдаланувчилари устунида қайд этилган. Демак, мамлакатимизда саноат маҳсулотлари экспортини янада ошириш, маҳсулот сифати ва рақобатбардошлигини ошириш, саноатда инновацион ва патент билан боғлиқ фаолиятларини янада ривожлантириш мақсадга мувофиқдир. Мамлакатимизда ҳам илғор рақамли технологияларни ривожлантириш орқали саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳиятини оширишга қаратилган чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Глобал инновацион индекс (ГИИ, Global innovation index) рейтингига ўнлаб параметрларни ҳисобга олади: патентга талабномалар сони, инновацияларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш харажатлари ҳамда бошқалар. Мамлакатимиз ушбу рейтингнинг 2022 йилги натижаларига асосан 132 мамлакат ичида 82-ўринни эгаллади.

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, юқори технологияли саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва экспортини ривожлантириш саноат 4.0 концепциясида тақдим этилган янги технологияларни қўллаш йўлидаги муҳим қадамдир. Ушбу вазиятда биз экспорт фаолиятини янада ривожлантириш ва ГИИ рейтингига ўрнимизни яхшилаш учун қуйидагиларга эътибор қаратишимиз мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- рақамли технологиялар асосида ташқи бозор талабига мос сифатли, инновацион ва рақобатбардош саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш;
- рақамли платформаларни ривожлантириш ва ташқи бозорларда чуқур маркетинг тадқиқотларини амалга ошириш орқали янги экспорт бозорларини қидириб топиш;
- замон талабига жавоб берадиган саноат маҳсулотлари экспортини амалга оширишга ихтисослашган рақамли кластер тизимини ривожлантириш;
- маҳаллий саноат маҳсулотлари экспортёрларини рақамли кластер тизими орқали боғлаш орқали ҳудудлар экспорт салоҳиятини ошириш ва бошқалар.

**Maxmutov Akbar
QarMII talabasi**

BALIQCILIK TARMOG`IDA BERILADIGAN IMTIYOZLAR

BALIQCILIK — xalq xo'jaligining suv havzalarida baliq zahirasini ko'paytirish va sifatini yaxshilash bilan shug'ullanuvchi sohasi; baliq o'stirish tadbirlari (baliqni sun'iy usulda ko'paytirish va uni

yangi sharoitga o'rgatish, yangi zot baliqlar yetishtirish, suv havzalarining meliorativ holatini yaxshilash) ning biologik asoslarini va asosiy baliq o'stirish jarayonlari (voyaga yetgan baliqlarni ovlash, baliq tuxumini ochirish, baliq boqish va boshqalar) ning biotexnikasini ishlab chiquvchi fan. Baliqchilik tabiiy suv havzalari baliqchiligiga va sun'iy hovuz baliqchiligiga bo'linadi. Baliqchilikda suv havzalarining meliorativ holati yaxshilanadi, baliq sun'iy urchiriladi, baliqpar tuxum qo'yadigan va yosh baliqchalar o'sadigan joylarda tegishli sharoit yaratiladi; baliqlarning tuxum qo'yadigan joylari tozalanadi, Daryo to'g'onlariga baliq yo'li yasaladi, sun'iy tuxum qo'yish joylari tayyorlanadi. Baliqlar maxsus hovuzlarda o'stiriladi. O'zbekiston Respublikasining daryo va ko'llarida 106 turdagi baliqlar mavjud (zog'ora baliq, do'ngpeshona, sudak, okcha, tobonbaliq, ilonbosh, cho'rtan, laqqa baliq, qizilko'z va boshqalar). O'zbekistonda Baliqchilikni sanoat asosida rivojlantirish 1937 yildan boshlangan. O'sha yili Toshkent viloyatining yuqori Chirchiq tumanida "Toshkent baliq chavoqlari xo'jaligi" tashkil etildi. Keyinchalik bu xo'jalik baliq chavoqlarini baliq xo'jaliklari va tabiiy suv havzalari uchun ham yetkazib bera boshladi. 1946 yil O'zbekiston xalq xo'jaligi Kengashi huzurida baliqchilik xo'jaligi bosh boshqarmasi tashkil etildi. 1946 yildan Toshkent viloyatining Zangiota tumanida baliq etishtirishga mo'ljallangan Damachi hovuz baliqchilik xo'jaligi tashkil etildi va ishga tushirildi. 1960 yillargacha baliq mahsuloti asosan, Orol dengizi, dengiz yaqinidagi ko'llar va Sirdaryo hamda Amudaryodan ovlana edi (yiliga o'rtacha 25 — 28 ming tonna). Respublikada faqatgina karp baliq'i etishtiriladi va hovuzlardan olinadigan hosil 15 — 18 sentner gekardan oshmas edi. 1961 yilda Xitoydan keltirib, iqlimlashtirilgan o'simlikxo'r baliqlardan oq do'ngpeshona, oq Amur, targ'il do'ngpeshona turlari bu er sharoitiga tez moslashib, keyinchalik baliq yetishtirishning keskin rivojlanishiga zamin yaratdi. Hozirgi davrda respublika baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilayotgan baliqlarning 60— 70% o'simlikxo'r. O'simlikxo'r oq amurdan kanal va kollektorlarni o'tlardan tozalashda biologik meliorator sifatida foydalaniladi. O'simlikxo'r baliq turlari Sirdaryo va Amudaryoda ham tabiiy urchib, ko'paymoqda (ayrim do'ngpeshona baliqlarning og'irligi 80 kilogrammgacha boradi). Respublikadagi suv omborlari ham baliqchilikni rivojlantirishda ma'lum ahamiyatga ega. Har yili To'dako'l suv omboridan 500, Chimqo'rg'on va Jizzax suv omborlaridan 70-100 tonnagacha baliq ovlana. Hozirgi "O'zbaliq" korporatsiyasi tizimida 8 birlashma (Quyichirchiq "Baliqchi" tajriba-namunaviy baliqchilik birlashmasi, Mo'ynoq, Xorazm va Jizzax baliqchilik birlashmalari, Qoraqalpog'iston baliqchilik xo'jaliklari birlashmasi va boshqalar), 7 kombinat (Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Damachi va Navoiy baliqchilik kombinatlari), 10 baliqchilik xo'jaligi: Andijon, Namangan, Farg'ona, Beshariq, Gulbog' (Namangan viloyati), Yangiyer (Sirdaryo viloyati), Kogon (Buxoro viloyati), Forish (Jizzax viloyati), uzun (Surxondaryo viloyati) xo'jaliklari, shuningdek Toshkent xonbaliq (Bo'stonliq tumani) xo'jaligi, Xorazm viloyatida To'rtko'l fermer xo'jaligi, baliq chavoqpari yetishtirish davlat xo'jaligi (Yangiyo'l), Ixtiopatologiya markazi (Toshkent), Chinoz baliq omuxta yem ishlab chiqarish korxonasi, ulgurji savdo omborxonalari va boshqalar bor (1999). O'zbekiston Respublikasida umumiy maydoni 12 ming gektar bo'lgan sun'iy ko'l va hovuzlarda 22 ming tonna tovar baliq mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlari bor.

Davlatimiz baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan tadbirkorlar uchun quyidagi qulayliklarni yaratgan:

Baliqchilik faoliyati uchun:

- sun'iy suv havzalarda va sadok usulida baliq etishtirish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga omuxta em, mineral o'g'it, lichinka, baliqcha, bir yozlik baliq, bir yillik baliq sotib olish maqsadlariga 24 (yigirma to'rt) oy muddatgacha;

- yopiq aylanma suv qurilmalari baliq etishtirish va baliqni qayta ishlash uchun aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 24 (yigirma to'rt) oy muddatgacha, bunda asosiy qarz to'lovlariga 6 (olti) oygacha imtiyozli davr bilan;

- qishloq havzalarida baliq etishtirishni ko'paytirishni tashkil etish maqsadida ona baliqlarni sotib olishga 36 (o'ttiz olti) oy muddatgacha;

- yopiq aylanma suv qurilmalari va intensiv basseynlar tashkil etishga, baliq mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil qilish uchun texnika va texnologiyalar sotib olish bo'yicha taqdim qilingan investitsion loyihalarga 60 (oltmish) oy muddatgacha, bunda asosiy qarz to'lovlariga 12 (o'n ikki) oygacha imtiyozli davr bilan;

- baliq boqish uchun zarur bo'lgan ozuqa-em mahsulotlari ishlab chiqarish maqsadida texnika va texnologiyalar sotib olish loyihalariga 36 (o'ttiz olti) oy muddatgacha, bunda asosiy qarz to'lovlariga 6 (olti) oygacha imtiyozli davr bilan;

- baliqchilik sohasidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga asosiy vositalarni sotib olishni, ta'mirlash, shuningdek moddiy texnika bazasini yaratish, yangilash, tamirlash maqsadida – 36 (o'ttiz olti) oy muddatgacha, bunda asosiy qarz to'lovlariga 6 (olti) oy imtiyozli davr bilan;

Foiz stavkasi: 20 foiz - 50%

Mijoz tomonidan kredit uchun 10 foiz miqdorida haq to'lanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 noyabrdagi PQ-4005-sonli qaroriga asosan tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlarining tijorat foiz stavkasining yarmini (50 foizini) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kompensatsiya qilingan holda to'lab beriladi.

Kredit olish uchun taqdim etiladigan ta'minot turlari

- mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;
- uchinchi shaxslar kafilliklari;
- qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa ta'minot turlari.

Kredit olish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi

• kredit miqdori, foydalanish muddati, maqsadi, ta'minoti ko'rsatilgan kredit arizasi (kredit arizasiga qarzdor haqidagi ma'lumotlarni Kredit byurosiga berilishiga qarzdorning yozma roziligi va garov reestriga berilishiga qarzdorning yozma roziligi ilova qilinishi shart);

• qarz oluvchining ta'sis hujjatlari (nusxasi) va kredit olish vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;

• qarz oluvchining bank hisobvarag'iga pul tushumlari (pul oqimi) prognozi ko'rsatilgan biznes rejasi;

• kredit hisobidan moddiy boyliklar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, tovarlar sotib olish va boshqalar) uchun qarz oluvchi tomonidan tuzilgan shartnoma (kontrakt)lar yoki ahdlashuv bayonnomalari nusxalari;

• baliqchilik bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjatlar (yer ijarasi shartnomasi, yer kadastr hujjatlari, suv resurslaridan foydalanish shartnomasi va boshqalar)

• oxirgi hisobot davri uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllardagi moliyaviy hisoboti. Bu hujjatlar belgilangan tartibda Davlat soliq idoralariga topshirilgan va unga quyidagilar ilova qilingan bo'lishi lozim:

- buxgalteriya balansi (1-son shakl);
- moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-son shakl);
- debitorlik va kreditorlik qarzlari ro'yxati;
- zarur bo'lganda boshqa moliyaviy hisobotlar.
- kredit ta'minotiga doir hujjatlar.

Xulasa qilib aytganda, yurtimizda baliqchilik sohasi rivojlanmayapti deb aytish xato aslida. Uni rivojlantirishga, kengaytirishga katta e'tibor qaratish kerak. Bu borada shu soha bo'yicha o'z faoliyatini olib bormoqchi bo'lgan shaxslarga imtiyozlar taqdim etish sur'atini oshirish darkor. Bundan tashqari, ko'p qirg'oqlilarda saqlash uchun suvni tuzish va qaynatish tizimini rivojlantirish, suv sifatini yaxshilash borasida ishlar olib borish, baliqchilikni rivojlantirish uchun yangi suv havzalari izlab topish, baliqchilikning ekologik muammolarini hal qilish uchun qonuniy tadbirlar olib borish ham samara beradi.

Шамсутдинова Алсу Шамилевна.

Студентка 4 курса

Ферганского Политехнического института.

Shamsutdinova3018@gmail.com

СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ ФИНАНСИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПУТЕМ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ЛЬГОТНЫХ КРЕДИТНЫХ ПРОГРАММ КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ УЗБЕКИСТАНА

В Узбекистане финансирование высшего образования является одной из главных проблем в образовательной сфере. Несмотря на значительные усилия правительства по развитию высшего образования, студенты все еще сталкиваются с серьезными финансовыми трудностями при выборе учебного заведения и факультета.

Одной из основных причин этой проблемы является недостаток государственных инвестиций в высшее образование. Несмотря на рост государственного бюджета, основные финансовые ресурсы направлены на развитие других отраслей экономики. В результате, высшие учебные заведения получают очень мало государственных средств, что приводит к высоким оплатам за обучение.

Кроме того, многие студенты, особенно те, кто не имеют высокого социального статуса или низкий доход, не могут позволить себе платить за обучение в частных учебных заведениях. В

результате, они вынуждены выбирать более дешевые варианты обучения, не учитывая их потенциальную карьеру и профессиональный рост.

Также неравномерное распределение финансовых ресурсов между регионами приводит к затруднениям в доступе к высшему образованию для студентов из отдаленных и малонаселенных районов страны. Это, в свою очередь, ограничивает их возможности получить высшее образование и подготовиться к карьере на уровне, соответствующем современным требованиям.

Таким образом, финансирование высшего образования является серьезной проблемой в Узбекистане, что приводит к ограничениям и несправедливости при распределении доступа к образованию. Чтобы решить эту проблему, правительство должно увеличить финансирование высшего образования и разработать региональные программы поддержки студентов с низким доходом и с высокими заслугами в учебе.

Принятая Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года, устанавливает приоритетные направления реформирования системы высшего образования. Главной целью является повышение уровня подготовки высококвалифицированных кадров, обладающих современными знаниями и высокими духовно-моральными качествами, независимым мышлением и эффективными навыками. Модернизация высшего образования и стратегические задачи по развитию социальной сферы и экономики, основанные на передовых образовательных технологиях, также определяются как значимые.

Определенные задачи направлены на устранение существующих проблем и достижение современных стандартов в организации высшего образования. В частности, предусмотрено развитие государственно-частного партнерства в высшем образовании, основанное на организации деятельности как государственных, так и негосударственных высших учебных заведений в регионах до 2030 года. Это подразумевает увеличение охвата высшим образованием более чем на 50 процентов.

Взаимодействие между иностранными вузами и местными учебными заведениями становится все более популярным и эффективным способом увеличения кадрового потенциала страны. Высшее образование является ключевым фактором роста конкурентоспособности страны в современном, быстро меняющемся мире. Путем совместных программ обмена популяризуется исследовательская и учебная деятельность, учебные программы совершенствуются, а научные работы становятся более качественными.

Для того, чтобы создавать равные возможности для всех студентов, необходима более тонкая система образования и финансирования, которая позволяет всем студентам получать максимально возможные пользы от совместных программ обмена. Это может включать в себя более эффективное сбор и распределение средств, а также создание специальных программ, которые бы мотивировали и помогали студентам с финансовыми трудностями.

Введение кредитования высшего образования со стороны коммерческих банков может повысить доступность и качество образования, однако для успешной реализации этой модели необходимы общественное согласие, поддержка государства и сознательность студентов, а также разработка эффективного механизма возврата кредитов и установление конкурентной системы процентных ставок.

В Узбекистане существует несколько видов образовательных кредитов:

- Государственные образовательные кредиты для студентов и аспирантов. Это кредиты, выдаваемые на конкурсной основе при условии поступления в высшие учебные заведения, а также на программы магистратуры и докторантуры.
- Кредиты для обучения за рубежом. Это кредиты, выдаваемые на покрытие расходов на обучение за рубежом. Эти кредиты выдаются в национальной валюте и обычно предоставляются сроком до 5 лет.
- Кредиты для повышения квалификации и переподготовки. Это кредиты, выдаваемые на обучение в рамках курсов повышения квалификации и переподготовки.

Ниже представлен список банков, предоставляющих образовательные кредиты в Узбекистане:

1. Национальный банк Республики Узбекистан (НБРУ)
2. Трастбанк
3. Ипак Йули Банк (Ipoteka Bank)
4. Азия Инвест Банк
5. Асака Банк

Процентные ставки на образовательные кредиты в Узбекистане зависят от различных факторов, таких как срок кредита, размер займа, кредитная история заемщика и другие.

Средняя процентная ставка на образовательный кредит в Узбекистане составляет около 20-25% годовых.

Потенциально эффективное решение этой проблемы - создание некоммерческого негосударственного фонда. Данный фонд может быть финансируван как частными лицами, желающими помочь студентам в их образовании, так и крупными организациями, использующими такие пожертвования в качестве благотворительности.

Уникальной особенностью функционирования данного фонда является то, что в отличие от образовательных кредитов, студент будет обязан возвращать всю сумму, взятую на 4 года обучения, по самой низкой ставке в 5-10% от всей суммы, а не ежегодно. Этот подход позволит выпускникам освободиться от накопленных долгов раньше, а также остаться финансово устойчивыми, не откладывая выплаты на неопределенный период времени.

Однако, для полного и успешного внедрения данной методики, необходимо провести дополнительные исследования о возможности привлечения такого финансирования к университетам. Как показывают уже существующие примеры, взаимодействие с негосударственными фондами может привести к эффективному управлению финансами, повышению качества образования, а также созданию большей ответственности со стороны выпускников.

В заключение можно сказать, что создание некоммерческого негосударственного фонда – это потенциально эффективное и перспективное решение возникающих проблем, связанных с финансированием образования. Проведение дополнительных исследований и открытый диалог между участниками может привести к новым идеям и путям реализации данной концепции. Однако стоит помнить, что этот подход может не подходить всем выпускникам и университетам, а также требует сильного управления и контроля со стороны фонда. Тем не менее, если все условия будут выполнены, создание такого фонда может стать основой для обеспечения высококачественного образования для всех, кто желает его получить, а не только тех, у кого есть достаточно средств для оплаты.

Буранова Лола Вахобовна

*Термезский государственный университет
Заведующая кафедрой «Экономики», PhD
e-mail: lolaburanova51@gmail.com*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОГО ПОТЕНЦИАЛА

Совершенствование методологии оценки финансового потенциала является одним из ключевых элементов повышения эффективности национальных и региональных стратегических программ.

Известно, что в любой выбранной экономической системе эффективное использование имеющихся ресурсов зависит от важных факторов обеспечения экономического развития. При неэффективном использовании имеющихся экономических, трудовых, природных ресурсов, а также ресурсов в виде навыков, цель, поставленная в экономической сфере, не будет достигнута в результате организации производственных процессов без оптимальной оценки уровня данных ресурсов. Методологический аспект оценки финансового потенциала должен содержать обоснование таких подходов, которые учитывали бы как чисто отраслевые, внутрикорпоративные, местные и региональные факторы, так и взаимное влияние.

Процедура моделирования оценки финансового потенциала и индекса финансового потенциала предусматривает последовательную реализацию ряда операций.

1 этап. Построение базы данных и изучение их свойств. основное внимание уделяется вопросам взаимосвязи формирования финансового потенциала региона, экономического потенциала, интеграции его компонентов и доходов местного бюджета, как основного источника формирования финансового потенциала, определены принципы с учетом факторов, оказывающих на него влияние.

2 этап. Формирование перечня параметров, используемых для совершенствования оценки финансового потенциала и его индекса проявляющихся в них.

Состав параметров, используемых для совершенствования методологии оценки финансового потенциала описывающих состояние и тенденции развития социально-экономического стратегического развития представлены в таблице-1.

Таблица-1

Состав индикаторов финансового потенциала¹

№	Индикаторы	Экономическое содержание индикаторов
1	ФП	Финансовый потенциал $\Phi П Р = Д М Б + П Б Ф О + П П р О р г + Д Д н а с е л е н и я$
1.1	<i>ДМБ</i>	доходы местного бюджета
1.2	<i>ПБФО</i>	финансовый потенциал банковско-финансовых организаций
1.3	<i>ППрОрг</i>	финансовый потенциал предприятий и организаций, зарегистрированных в регионе
1.4	<i>ДДН</i>	денежные доходы населения

3 этап. Кластеризация территориальных образований по степени развития финансового потенциала и степени устойчивости последнего.

Для построения регрессионной зависимости необходимо определиться не только с характером независимых параметров формируемой модели, но и с характером результирующего признака. Поэтому территориальные образования, данные состояния и развития которых образуют базу данных, используемую для моделирования, подвергаются кластеризации с целью определения степени развития их финансового потенциала и степени устойчивости последнего. Количественное выражение результирующих признаков состоит в соотношении уровня отдельного территориального образования по каждому из оцениваемых параметров к среднему уровню. Все результирующие признаки представлены в унифицированных размерных единицах. Следовательно, кластеризация по тому либо иному результирующему признаку может быть проведена на основе использования единой системы оценок.

Таблица – 2

Индексация базовых критерий кластеризации финансового потенциала²

Показатели	Интервалы кластеризации по уровню результирующих признаков			
	Финансовый потенциал 0,0-0,25	Финансовый потенциал 0,26-0,50	Финансовый потенциал 0,51-0,75	Финансовый потенциал 0,76-1,0
Оценка результирующего признака	очень слабая	слабая	умеренный,	высокий,

4 этап. Построение моделей оценки финансового потенциала проявляющиеся на уровне как чисто отраслевых, внутрикорпоративных, местных и региональных факторов.

Общий вид моделей представлен следующими зависимостями:

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + \dots + a_nx_n + \varepsilon$$

5 этап. Проверка построенных моделей на значимость и адекватность.

Гипотеза о незначимости регрессионной модели проверяется на основе использования дисперсионного анализа. Индикаторами оценки значимости модели и весовых факторных нагрузок её параметров являются статистика критерия Фишера F и уровень значимости p .

Таким образом, важность и необходимость оценки финансового потенциала как элемента экономического потенциала позволит выявить ведущие и отстающие регионы в исследуемом периоде, обосновать комплекс мероприятий по повышению финансового потенциала региона, разработать прогнозные показатели финансового потенциала регионов.

Список используемой литературы.

1. Л.В.Буранова Финансовый потенциал как основа оценки финансовой самостоятельности региона. Сборник научных трудов конференции “Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка”.-2023г.-182-185стр.

¹ Разработано автором на основе изученных данных

² Разработано автором на основе изученных данных

2. L.V.Buranova Increasing the efficiency of small business subjects in the sphere of public procurements through the digitalization of business processes. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya Journal.* – 2023

3. Буранова Л.В. Проблемы укрепления доходов местного бюджета путём оценки Финансового потенциала региона (на примере Сурхандарьинской области). Монография 2022г - 180стр

4. Буранова Л.В. Система показателей, определяющих финансовый потенциал Сурхандарьинской области и его особенности. Экономика и предпринимательство. Журнал. 2021 г.-598-606стр.

To‘ychieva Nodira, O‘ZMUJF assistenti
nodira070495@gmail.com
tel:+998944266569

Kubayev Shahobiddin, O‘ZMUJF talabasi

IQTISODIYOTNING DOLZARB ILMIY MUAMMOLARI

Kirish. Biz bilamizki butun jahon davlatlarining rivojlanishida xohlaymizmi xohlamaymizmi iqtisodiyot tizimi yetakchi o‘rinda turadi. Har qanday firma, korxonona va yoki mamlakat bo‘ladimi uni iqtisodi rivojlanishga yetaklaydi.

Hozirgi kunda aynan shu iqtisodiyot sohasida duch keladigan muammolar barcha davlatlarda mavjud. Keling ularni qarab chiqsak.

Iqtisodiyotning dolzarb ilmiy muammolari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. Narxlar: Ya‘ni narxlar o‘zgaruvchanligi va ularning qanday shaklda o‘zgarishi muammolarni yaratadi. Narxlar o‘zgarishi sotish va sotib olishni ta‘sir qiladi va boshqa iqtisodiyot sohalari bilan bog‘liq muammolarga sabab bo‘ladi.

2. Moliya siyosati: Moliya siyosati iqtisodiyotning dolzarb ilmiy muammolari bilan bog‘liq, chunki bu siyosat iqtisodiy faoliyatlar uchun moliyaviy resurslarni ta‘minlashda va ularga moslashtirishda juda muhim rol o‘ynaydi.

3. Tijorat munosabatlari: Tijorat munosabatlari iqtisodiyotning dolzarb ilmiy muammolari bilan bog‘liq, chunki tijorat munosabatlari sotish va sotib olishga ta‘sir qiladi va moliyaviy ommalarning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir.

4. Korporativ boshqaruv: Korporativ boshqaruv iqtisodiyotning dolzarb ilmiy muammolari bilan bog‘liq, chunki bu boshqaruv shakli korporativ tadbirkorlik va sarmoya qilishda juda muhim rol o‘ynaydi.

5. Iqtisodiy rivojlanish: Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiyotning dolzarb ilmiy muammolari bilan bog‘liq, chunki bu rivojlanish mamlakatning iqtisodiy faoliyatlarini va moliyaviy ommallarini rivojlantirishda juda muhim rol o‘ynaydi.

Xususan, faqat iqtisodiyot sohani uzini olsak quyidagi muammolarni keltirish mumkin:

1. Moliyaviy iste‘mol: Moliyaviy resurslarni samarali iste‘mol qilish, sarmoya qilish va ishlab chiqarish uchun muhimdir.

2. Innovatsiyalar: Innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhimdir, chunki bu yangi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish, tez-tez o‘zgartiriladigan texnologiyalarni amalga oshirish va yangi sohalar yaratishga imkon beradi.

3. Xalqaro munosabatlar: Xalqaro munosabatlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta‘sir qiladi, chunki bu munosabatlar mamlakatning eksport-potensialini oshiradi va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantiradi.

4. Infrastruktura: Infrastruktura iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki bu yol, suv, elektr energiya va kommunikatsiya tarmoqlari kabi tizimlarning yaxshi ishlashi uchun zarurdir.

5. Inson resurslari: Inson resurslari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, chunki bu resurslar talabalar va ishchi kuchlarni rivojlantirish, tayyor kadrlarni ta‘minlash va innovatsiyalarni amalga oshirishda zarurdir.

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida avvalo iqtisodiyotning tarkibiy tizimini tubdan o‘zgarishi, jumladan, hozirgi zamon texnikasi texnologiyasining kirib kelishi, shuningdek milliy iqtisodiyotning shakillanishi, mehnat salohiyatining yangilanishi, uni sifat jihatlarini kuchayishini obektiv tarzda taqazo etadi¹.

¹ Nazarova G.G. va boshqalar Inson resurslari menejmenti, o‘quv qo‘llanma, TDIU-2010

Va endi ushbu muammolarni o'rganib chiqqan holda iqtisodiyotni rivojlantirishda ba'zi tamoyillarni ham keltirib o'tamiz.

1. O'rganuvchilar amaliyotlari va tadqiqotlari: O'quvchilar va talabalar ilmiy tadqiqotlar olib borish, amaliyotlarda qatnashish va o'z fikrlarini bildirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishda ilmiy tamoyillar bildirishlari mumkin.

2. Tahlil: Iqtisodiyot sohasida mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning ta'sirini o'rganish va yangi yondashuvlar taklif qilish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishda ilmiy tamoyillar bildirishlari mumkin.

3. O'qituvchilar va ilmiy xodimlar: O'qituvchilar va ilmiy xodimlar iqtisodiyot sohasida yangiliklar, ma'lumotlar va tadqiqotlar olib borish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishda ilmiy tamoyillar bildirishlari mumkin.

4. Xalqaro hamkorlik: Xalqaro hamkorlik va kooperatsiya orqali iqtisodiyot sohasida yangiliklar, ma'lumotlar va tadqiqotlar olib borish, o'zaro ta'sirga kirish va yangi yondashuvlar taklif qilish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishda ilmiy tamoyillar bildirishlari mumkin.

5. O'quv-tadqiqot markazlari: O'quv-tadqiqot markazlari iqtisodiyot sohasida yangiliklar, ma'lumotlar va tadqiqotlar olib borish, o'zaro ta'sirga kirish va yangi yondashuvlar taklif qilish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishda ilmiy tamoyillar bildirishlari mumkin.

Birgina O'zbekiston misolida iqtisodiyotdagi muammolarni hal etish hamda rivojlantirish misolida O'zbekistonga yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi to'rtta yo'nalishda rivojlanish yordam berishi mumkin:

- 1) xususiy sektor o'sishini rag'batlantirish va barqaror ish o'rinlarini yaratish;
- 2) davlatning iqtisodiyotdagi rolini isloh qilish;
- 3) fuqarolar manfaatlariga va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan dasturlarga investitsiya qilish;
- 4) ekologik barqaror kelajakni barpo etish¹.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mazkur sohani rivojlanishida to'sqinliklar bo'lishi tabiiy, chunki birgina bu soha emas barcha mavjud tarmoq va sohalarda ham kamchiliklar va muammolar mavjud va ularni yengib o'tish anchagina murakkab. Xususan, biz yuqorida keltirganimiz, muammolar butunjahon hamjamiyati mamlakatlarida muammolarni ko'rdik va o'rgandik. Ba'zi yechimlar ham keltirish orqali ushbu sohani muammolarini o'rganib yoritib berdik.

1. Nazarova G.G. va boshqalar Inson resurslari menejmenti, o'quv qo'llanma, TDIU-2010 yil
2. Azlarova M.M. Inson resurslarini boshqarish: o'quv qo'llanma. – O'zbekiston
3. Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: IQTISODIYOT, 2019.
4. Mirzayev Q.J., Shavqiyev E.Sh., Janzakov B.K. Innovatsion iqtisodiyot¹: o'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020.
5. Rashidov A., Ernafas o'g'li S. K. MAMLAKATIMIZDA ISHSIZLIK SABABLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 284-288.
6. Porter M. Konkurentnaya strategiya, Alpina Biznes Buks, 2005,
7. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik. T.: TDIU, 2013
8. <https://kun.uz/uz/news/2022/05/20/ozbekiston-iqtisodiyotini-rivojlantirish-uchun-nimalar-qilish-kerak-jahon-banki-ekspertlari-tavsiyalari>
9. <https://www.conferencea.org> ><https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3109>
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyotning-bugungi-rivoji-muammo-va-yechimlari>

Achilov Abror Niyatqobilovich
Farg'ona Politexnika institute, "Menejment" kafedrası dosenti
Mamajonova Shaxrizoda
Farg'ona Politexnika instituti talabasi

TRANSPORT LOGISTIKA TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Kirish. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan radikal iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, muomala sohasining samarali faoliyati, ishlab chiqarish vositalari bilan ulgurji savdoning keng

¹ <https://kun.uz/uz/news/2022/05/20/ozbekiston-iqtisodiyotini-rivojlantirish-uchun-nimalar-qilish-kerak-jahon-banki-ekspertlari-tavsiyalari>

rivojlanishi, ishlab chiqarish texnikasiga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi to'g'ri aloqalar, hududlarning xalq xo'jalik tarmoqlari, aksiyadorlar birlashmalari, turli mulk shakllaridagi ishlab chiqarish va tijorat sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi transportning sifati bilan ko'proq bog'liq bo'ladi.

Bu maqsadlarga erishish uchun rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o'rganish bilan birga vatanimizda logistika sohasida bozor iqtisodiyotida turli mulkchilik shakllarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish munosabatlari sohasida mahsulot harakatlarini optimallashtirishning ilg'or yo'nalishlaridan foydalanish ham ma'lum bir ahamiyatga ega bo'ladi. Logistika bo'yicha mutaxassislar moddiy - texnika ta'minoti, transport va tovar harakati haqidagi axborotlarni yagona tizimga integratsiyalashuvini ta'minlashga intilishmoqda, bu esa ushbu sohalarning har birini ish faoliyatining samarasi va tarmoqlararo samaraning ortishiga olib kelishi kerak.

Asjisiy qisim: Bizning mamlakatda 1991 yilgacha aniq logistikani ilmiy ifodalashda hamda logistika faoliyatini tashkil etishni o'qitish amaliyotining yo'qligi, shu bilan mavjud chet el axborotlarini o'rganish jarayonida izlanishlarni amalga oshirib, chet ellarning logistika va vatanimizning xalq xo'jaligi faoliyatini tashkil qilish - iqtisodiy sohalari dinamikasi tezda o'zgaruvchan bozorning ishlab chiqarish-tijorat sharoitlariga hamda barcha muammolarni tamoman yangicha konseptual holda qo'yilishi va o'rganilishi lozim.

Logistika-bu tovarlar va xizmatlarning bir nuqtadan boshqasiga o'tishi va saqlashini rejalashtirish, boshqarish va amalga oshirish jarayoni. Bu tovar va xizmatlarining o'z vaqtida yetkazib berilishini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Korxonaning logistika tizimi turli elementlarni birlashtiradigan eng murakkab va ayni paytda yaxshi ishlaydigan mehanizmlardan biridir. Ushbu mexanizmning uzluksiz ishlashi, asosan, uning tarkibiy qismlarining har birining aniq ishlashi bilan belgilanadi, unda ishlatiladigan usul va texnologiyalarning mukammalligi bo'lib, shuning uchun har bir korxonada logistikani o'rganish zarurligini vujudga keladi.

Hozirgi davrda logistika tutgan o'rning oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiy sabablarga bog'liq. Sanoat ishlab chiqarish hajmining oshishi va milliy hamda jahon xoljaligi aloqalarining kengayishi bozor sohasidagi xarajatlarning kamaytirilishiga ko'proq e'tibor qaratilishini talab etmoqda.

G'arb mamlakatlarida xomashyoning birinchi manbayidan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan mahsulot harakat vaqtining 93%i uning moddiy texnik ta'minotining turli kanallaridan o'tishiga to'g'ri keladi. Tovar ishlab chiqarilishi umumiy vaqtning atigi 2%ini oladi, transportirovka esa — 5%ini. Bu esa mamlakatlarda 14 tovar harakatining mahsulotdagi ulushi milliy daromadning 20% dan onig'ini tashkil etadi. Tovar harakatining strukturasi xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni saqlashga ketadigan xarajatlar 44% ni, omborga joylashtirish va dispetcherlash — 16% ni, magistral va texnologik tashish — 23 va 9% ni tashkil etadi. Qolgan 8% ni tayyor mahsulotni sotishga ketadigan xarajatlar tashkil etadi.

Korxonalarda logistik faoliyatning ikkita jihati ajralib turadi. Birinchisi, sanoat injeniringi tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, transport vositalari va omborlarni ishlatish, yuklash moslamalarini ish] at ish va tanlash, qadoqlash usuli, axborot boshqaruv tizimlarining ishlash muammolarini yechadi. Ikkinchi aspekt, moddiy oqimlarni makro va mikro darajalarda boshqarish va tashkil etishning o'ziga tegishli bo'lib, logistik tizimning amal qilish jarayonida har xil omillarning o'zaro ta'sirining tahliliga asoslanadi

Tahlil va natijalar: Logistikaning funksiyalari. Logistika materiallar harakati ning har bir bosqichida moddiy oqimlarning ishlashini ta'minlash va tashkil etishni o'z ichiga oladi. Logistikaning uchta funksiyasi ajratiladi: — integratsiyalashuvchi — tovar harakati jarayonini bir butun jarayon sifatida tashkil etadi; — tashkillashtiruvchi — tovar harakati qatnashchilarini o'zaro kelishilganligini ta'minlaydi; — boshqaruvchi — material o'tkazuvchi tizim parametrlarini belgilangan chegarada ushlab turadi. Integratsiyalashuvchi funksiya. Tovarlarini yetkazib beruvchidan iste'molchigacha bo'lgan harakati davomida moddiy oqim materiallarni sotib olish, mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlash (sotish) bosqichlaridan o'tadi. Tovar harakatining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi va faqat unga tegishli bo'lgan masalalarni yechadi. Lekin ularning birontasi ham tovar harakati jarayonidan tashqarida mustaqil ko'rib chiqilishi mumkin emas. Bu jarayonda muhim o'rinni sotish egallaydi, u ishlab chiqarishning tashkiliy va iqtisodiy xususiyatlarini, materiallar xaridining hajmini va nomenklaturasini hamda bu bosqichlarning bir-biriga munosabatlarini asoslab beradi. 20 Shu bilan birga tovar harakatining har bir bosqichi o'z o'mida ham ishlab chiqarish jarayoniga, ham umuman tovar harakati I irayonining o'tishiga ta'sir o'tkazadi. Masalan, savdo bozorining kengayishi ishlab chiqarish va xarid qilish hajmining o'ziga olib keladi. Materiallar yetkazib berilishining vaqtinchalik to'xtashi yoki ularga qo'yilgan taklifning keskin oshib ketishi, materiallarni katta miqdorda va arzonroq narxda sotib olish hisobiga

zaxiralar miqdorining ortib ketishi olib keladi. Logistika xarid qilish, ishlab chiqarish va sotish bosqichlarini bitta umumiy jarayonga birlashtiradi.

Muammolar va yechimlar: Logistika muammolari transport kechikishidan tortib inventarni boshqarish muammolarigacha bo'lishi mumkin. Bu erda logistika bilan bog'liq ba'zi umumiy muammolar va ularning yechimlari keltirilgan:

1. Tashishdagi kechikishlar: Bu logistikada, ayniqsa global yuk tashishda keng tarqalgan muammo. Bu muammoni bartaraf etish uchun tashuvchilar bilan yaxshi aloqada bo'lish, jo'natilishlarni muntazam kuzatib borish va tranzit vaqtlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kechikishlarni hisobga olgan holda oldindan rejalashtirish muhim.

2. Inventarizatsiyani noto'g'ri boshqarish: Bu kompaniya uchun qimmatga tushishi mumkin bo'lgan haddan tashqari zaxira yoki zaxiraga olib kelishi mumkin. Inventarizatsiyani boshqarish dasturidan foydalanish inventarizatsiya darajasini kuzatish va talabni to'g'ri prognozlash, zaxiralar tugashi yoki ortiqcha to'planish xavfini kamaytirishga yordam beradi.

3. Samarasiz ombor sxemasi: Ombor rejasi noto'g'ri ishlab chiqilgan bo'lsa, bu vaqt va makondan foydalanishda samarasizlikka olib kelishi mumkin. Bu muammoning yechimi ombor maydonini optimallashtirish, jarayonlarni soddalashtirish va inventar va buyurtmalarni boshqarishda yordam berish uchun texnologiyadan foydalanish bo'lishi mumkin.

4. Noto'g'ri yoki kechiktirilgan ma'lumotlar: real vaqtda ma'lumotlar va aniq ma'lumotlarsiz logistika jarayonlari buzilishi mumkin. Buni hal qilish uchun kompaniyalar real vaqt rejimida logistikani boshqarishga va aniq ma'lumotlarni taqdim etishga yordam berish uchun Transportni boshqarish tizimlari (TMS) yoki Enterprise Resource Planning (ERP) dasturlari kabi texnologiyalardan foydalanishlari mumkin.

5. Yuqori transport xarajatlari: transport xarajatlari kompaniyalar uchun katta xarajat bo'lishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun kompaniyalar yetkazib berish yo'nalishlarini optimallashtirish, jo'natmalarni birlashtirish va tashuvchilar bilan tariflarni muzokara qilish kabi tejamkor variantlarni o'rganishi mumkin.

Bu oddiy logistika muammolarining bir nechta yechimlari. Ushbu muammolarni aniqlash va hal qilish orqali kompaniyalar samaradorligini oshirishi, xarajatlarni kamaytirishi va mijozlariga yaxshi xizmat ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Bozorov, I.N., Omonov, A.A., Daliyev, Sh.K.** Transport logistikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. — Samarqand: SamDU nashri, 2021. — 212 bet.

2. Бочкарев Андрей Александрович Управление надежностью и устойчивостью цепей поставок. Учебное пособие для вузов Издательство: Лань Год издания: 2022 г. <https://logirus.ru/books/upravlenie-nadezhnostyu-i-ustoychivostyu-tsepey-postavok.html>,

3. **В.Д.Дорофеев, И. В. Балахонова, С. А. Волчков** Проектирование логистических цепей и оперативное планирование материальных потоков на базе ERP-системы. МУ Изд. Пенза 2020.

4. Q.Dadaboyev "Logistika" 2007 y.

5. 2. D.M Umarova, M.A. Buronova "Logistika" o'quv qo'llanma Toshkent-2016

Ro'zimurodova Zarina
Buxoro Davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
zarinarozimurodova495@gmail.com

AYOLLAR TADBIRKORLIGI - IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI SALOHIIYATI

Zamonaviy dunyoda ayollar jahon iqtisodiyotida band bo'lganlarning deyarli yarmini tashkil etadi, yalpi ichki mahsulotning 37 foizini tashkil etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ayollar biznesi global tadbirkorlikning muhim qismiga aylandi va uning rivojlanishi kichik biznesning kelajagi ko'p jihatdan ayollarning iqtisodiyotga kirishiga bog'liqligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularga bozorga kirish va undan chiqishda ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, soliq

yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga turli xil imtiyozlar berish, moliyaviy va logistika resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va boshqalar kiradi.¹

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish muammolarini hal qilishning xorij tajribasi ni organish alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda barcha yetakchi xalqaro tashkilotlarning global kun tartibiga ayollarning tadbirkorlik faoliyati masalalari kiritilgan. BMT Bosh kotibining BMT Bosh Assambleyasining 69-sessiyasida gi (18.08.2014) ma'ruzasida «ayollarda moliyaviy va texnik vositalarning yetishmasligi, shuningdek, kasbiy mahoratning yo'qligi xususan, chekka hududlarda ularning ish bilan ta'minlanishi va o'zini o'zi anglashiga to'sqinlik qiluvchi hal qiluvchi omilga aylanib borayotgani» ta'kidlangan. BMT tadbirkor ayollarning raqobatbardoshligini mustahkamlash maqsadida ayollarning iqtisodiy haq-huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo'yicha global portalni ishlab chiqdi².

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) mamlakatlarni "ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni rag'batlantirish"ga chaqiradi.

Savdo va taraqqiyot konferentsiyasi (UNCTAD) – BMT Bosh Assambleyasining organi – ayollar biznesini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayollarning tadbirkorlik faolligini oshirish maqsadida UNCTAD 1998 yildan boshlab 36 mamlakatda "EMPRETEC – tadbirkorlik texnologiyasi» xalqaro o'quv dasturini joriy etib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida to'liq ishtirok etish huquqlarini kafolatlaydi. Xotin-qizlar manfaatlarini, ularning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy faolligini ta'minlash hamda gender tengligiga erishish maqsadida hukumat O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va uning mintaqaviy bo'linmalari, shuningdek, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi jamoat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda. tadbirkorlik.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning tadbirkorlik faolligini oshirish, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkor ayollarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini yanada oshirish maqsadida keng imkoniyatlar va imtiyozlar yaratilmoqda va bular bir qator meyoriy hujjatlarda aks ettirilmoqda:

- 1.«Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son qarori
- 2.«Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'grisida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22 iyuldagi PQ-329-son qarori
- 3.«Mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'grisida» Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-noyabrdagi 650-son qarori

O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishning mavjud shartlari va istiqbollari xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa davlatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashning ajralmas qismi sifatida tobora ko'proq tan olinmoqda. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishining dastlabki bosqichida ayollarning tadbirkorlikda ishtirok etishi "global miqyosda tinch inqilob"³deb nomlangan global hodisadir. O'zbekiston ayollari kichik biznes sektorida katta ulushga ega bo'lib, mahalliy, mintaqaviy va milliy darajada iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda va mamlakat farovonligini oshirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Rasmiy statistika tadbirkor ayollarning iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushini aks ettirmasa ham, bizning tadqiqotimiz natijalari ularning kichik biznes sektori va umuman iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va hissalarini baholash va tan olish mumkinligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq aholisi shahar aholisidan ko'p bo'lishini hisobga olib, qishloq joylarda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish alohida qiziqish uyg'otadi, bu esa xotin-qizlarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish hisobiga qishloq aholisining bandligi va daromadlarini ko'paytirish hisobiga farovonlikni oshirishga olib keladi.

Qishloq ayollari o'rtasida biznes asosan kichik va mikro korxonalar (atelyelar, dorixonalar, kichik ulgurji do'konlar, sufler ishlab chiqarish va sotish, uyda ishlash) shaklida rivojlanadi. Tadbirkor ayollarning aksariyati kichik ulgurji iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, savdo, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa professional xizmatlar bilan shug'ullanadi.

¹ <https://old.scoenter.uz/zhenskoe-predprinimatelstvo-vazhnyj-faktor-ekonomicheskoy-povestki-stran-shos/>

² Empowerwomen. [Электронный ресурс]. URL: <http://www.empowerwomen.org> .

³Уткина Н.Ю. Объективные и субъективные факторы развития женского предпринимательства в России // Женщина в российском обществе. 2017. No 1 (82). С. 18.

Bugungi kunga kelib, ayollarning tadbirkor sifatida rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan ba'zi to'siqlar mavjud:

- o'ziga bo'lgan ishonchsizligi, biznes yuritish bo'yicha bilim va tajribaning yetishmasligi;
- biznesni boshlash uchun moliyalashtirishning cheklanganligi;
- hamma vaqtini biznesga bag'ishlash imkoniyating yo'qligi, chunki tadbirkor-ayol o'z biznesini boshqarishni bolalar tarbiyasi va ro'zg'or tutish funktsiyalari bilan birgalikda olib borishga majbur bo'ladi, bu uning muvaffaqiyatiga bilvosita ta'sir qilishi mumkin;
- jamiyatda shakllangan gender stereotiplari, uni biznes sherigi sifatida qabul qilishga to'sqinlik qiladi va hokazo.

Ayollarning tadbirkor sifatida faoliyati mamlakatda biznes yuritish uchun mavjud sharoitlarning samaradorligiga bog'liq. Bundan tashqari, ko'pincha ular uchun xalqaro bozorlarga chiqish ko'pincha qiyin vazifa bo'lib chiqadi. Shunga qaramay, ayollarning kichik va o'rta biznesi kam himoyalangan aholi uchun ish o'rinlari yaratadigan, "yashil texnologiyalar" ni joriy etadigan va an'anaviy hunarmandchilikni saqlab qoladigan va qo'llab-quvvatlaydigan tadbirkorlikdir.

Shubhasiz, tadbirkor ayollar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Bunday holda, qo'llab-quvvatlash kompaniyaning o'ziga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri ayol tadbirkorga yo'naltirilishi kerak. Birinchi navbatda, ayollar o'zlariga ishonish imkoniyatini, boshqa muvaffaqiyatli ayol tadbirkorlarning ijobiy misollarini ko'rishlari kerak.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar:

- biznes ta'limi, axborot bilan ta'minlash va almashish, ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatishda yordam berish kabi sohalarida tadbirkor ayollarga maslahat xizmatlarini ko'rsatish uchun tuzilmani yaratish va mustahkamlash.
- jamiyatda ayollarning yetakchi va tadbirkor sifatida ijobiy imidjini shakllantirish, bu ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi ahamiyatga ega.
- kreditlash va mikromoliyalash kabi tadbirkorlar uchun moliyaviy xizmatlar tizimini takomillashtirish.

Yuqoridagi tavsiyalar respublikamizda ayollarning biznes imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berishi mumkin. Va aniqki, aynan ayollar tadbirkorligi global iqtisodiy rivojlanishning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 №. PD-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026".
2. Empowerwomen. [Электронный ресурс]. URL: <http://www.empowerwomen.org> .
3. Уткина Н.Ю. Объективные и субъективные факторы развития женского предпринимательства в России // Женщина в российском обществе. 2017. No 1 (82). С. 18.
4. <https://old.scocenter.uz/zhenskoe-predprinimatelstvo-vazhnyj-faktor-ekonomicheskoy-povestki-stran-shos>

Гашизова Динара
Магистрант Бухарского Инновационного университета

ОСОБЕННОСТИ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА НЕФТЯНЫХ ПРОДУКТОВ

Нефтепродукты играют важную роль в экономике Узбекистана, являясь основным источником энергии для производства и транспортировки товаров. Бухгалтерский учет нефтепродуктов является необходимым для эффективного управления финансами компаний, занятых в нефтегазовой отрасли. В данной статье мы рассмотрим особенности и пути совершенствования бухгалтерского учета нефтепродуктов в Узбекистане.

В Узбекистане существует ряд организаций, занятых добычей, переработкой и продажей нефтепродуктов, которые должны вести бухгалтерский учет в соответствии с национальными и международными стандартами. Однако, в настоящее время в системе бухгалтерского учета нефтепродуктов в Узбекистане существуют определенные проблемы, которые могут оказывать негативное влияние на экономику страны. Некоторые из этих проблем включают в себя:

- Недостаточная автоматизация процессов учета, что может приводить к ошибкам и задержкам в учете нефтепродуктов.

- Несоответствие бухгалтерского учета нефтепродуктов между различными организациями, что затрудняет анализ данных и принятие решений на уровне правительства и экономических субъектов.
- Отсутствие квалифицированных специалистов в области бухгалтерского учета нефтепродуктов, что может привести к неправильному учету и несоответствию стандартам.

В свете этих проблем, необходимо провести анализ и оценку текущей ситуации с бухгалтерским учетом нефтепродуктов в Узбекистане и разработать пути ее совершенствования, чтобы обеспечить более эффективное управление финансами компаний и укрепление экономики страны в целом.

Бухгалтерский учет нефтепродуктов является сложным процессом, требующим специфических знаний и опыта. Это связано с тем, что нефтепродукты имеют свои особенности, которые необходимо учитывать при их учете.

Одной из основных проблем, связанных с количественным учетом нефтепродуктов, является необходимость точного измерения объема продукта, так как любая погрешность может привести к существенным ошибкам в учете. Кроме того, в процессе транспортировки и хранения нефтепродуктов может происходить утечка продукта, что также влияет на точность учета.

Проблемы, связанные с учетом стоимости нефтепродуктов, связаны с изменением цен на нефть и нефтепродукты на мировых рынках. Поэтому необходимо учитывать текущие цены на продукт, а также возможные изменения цен в будущем.

Различные типы нефтепродуктов имеют свои особенности, которые необходимо учитывать при их учете. Например, нефть, газ и конденсат имеют разные единицы измерения, поэтому необходимо использовать соответствующие методы для их учета. Также различные типы нефтепродуктов имеют разные плотности и вязкости, что также влияет на точность учета.

Важно отметить, что некоторые нефтепродукты, такие как битум, могут храниться в твердом состоянии при низких температурах, что также влияет на их учет. Кроме того, при переработке нефти в различные продукты может использоваться различное количество энергии и других ресурсов, что также необходимо учитывать при учете.

В целом, бухгалтерский учет нефтепродуктов является сложным процессом, требующим учета множества факторов и определенных знаний и навыков. Поэтому необходимо проводить постоянное совершенствование системы учета, чтобы обеспечить точность и достоверность финансовой отчетности компаний в нефтегазовой отрасли.

Бухгалтерский учет нефтепродуктов в Узбекистане регулируется рядом законодательных и нормативных документов, которые определяют порядок учета и отчетности в данной сфере.

Одним из основных нормативных документов, регулирующих бухгалтерский учет нефтепродуктов в Узбекистане, является "Положение о бухгалтерском учете и отчетности в нефтегазовой отрасли", утвержденное постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан. Данный документ содержит основные требования к учету и отчетности в нефтегазовой отрасли, а также определяет порядок формирования и представления финансовой отчетности.

Кроме того, регулирование бухгалтерского учета нефтепродуктов осуществляется в соответствии с Законом Республики Узбекистан "О бухгалтерском учете и финансовой отчетности". В соответствии с данным законом, бухгалтерский учет является обязательным для всех юридических лиц и индивидуальных предпринимателей, осуществляющих деятельность в Республике Узбекистан.

Также важным нормативным документом, регулирующим бухгалтерский учет нефтепродуктов, является "Методические рекомендации по бухгалтерскому учету в нефтегазовой отрасли", разработанные Министерством финансов Республики Узбекистан. Данные рекомендации содержат рекомендации по учету различных видов нефтепродуктов, а также по формированию финансовой отчетности.

Законодательство регулирующее бухгалтерский учет нефтепродуктов в Узбекистане, является достаточно развитым и детально определяет порядок учета и отчетности в данной сфере. Однако, в связи с быстрым развитием нефтегазовой отрасли и появлением новых видов нефтепродуктов, необходимо постоянно совершенствовать нормативную базу и методики учета.

Для решения проблем и недостатков в существующей системе бухгалтерского учета нефтепродуктов в Узбекистане необходимо использовать комплексный подход, включающий в себя автоматизацию и цифровизацию процессов учета, внедрение новых методов учета, а также обучение специалистов.

Одним из путей решения проблем может быть внедрение современных информационных систем учета, которые позволят автоматизировать процессы учета и снизить количество ошибок при подсчете количества и стоимости нефтепродуктов. Такие системы также обладают функционалом для контроля за остатками нефтепродуктов, могут помочь в анализе ценовых изменений на рынке и повышении точности прогнозирования спроса на нефтепродукты.

Другим путем решения проблемы может стать внедрение новых методов учета, например, использование средневзвешенной стоимости или метода FIFO (first in, first out), что позволит увеличить точность расчетов и снизить вероятность ошибок.

Также важным шагом в решении проблем с бухгалтерским учетом нефтепродуктов является обучение специалистов, работающих в данной области. Обучение позволит им ознакомиться с новыми методами учета и технологиями автоматизации учета, что повысит качество работы и снизит количество ошибок.

Важно отметить, что все эти меры должны быть реализованы в рамках изменения законодательства и правил бухгалтерского учета нефтепродуктов, что обеспечит их эффективное функционирование и возможность интеграции в существующую систему учета.

Основной проблемой в данной сфере является недостаточная автоматизация и цифровизация процессов учета, что приводит к большому количеству ошибок и потерям. Кроме того, необходимо улучшить качество обучения специалистов и внедрить новые методы учета.

Для решения проблем в данной сфере можно применять различные пути, такие как автоматизация и цифровизация процессов учета, внедрение новых методов учета, обучение специалистов и прочее.

Совершенствование бухгалтерского учета нефтепродуктов имеет важное значение для развития экономики Узбекистана. Точный и надежный учет нефтепродуктов позволит сократить затраты и увеличить эффективность работы предприятий в нефтегазовой отрасли.

Таким образом, совершенствование бухгалтерского учета нефтепродуктов является одним из ключевых факторов развития экономики Узбекистана и требует повышенного внимания и усилий со стороны государственных органов, предприятий и специалистов в данной сфере.

Список использованной литературы

1. LEX.UZ - o'zbekiston qonunchiligi [Электронный ресурс]. URL: <https://lex.uz/> (дата обращения: 15.04.2023).
2. Особенности учета в различных отраслях и организациях в узбекистане: бухгалтерский учет. Аудит. оценочная деятельность: Законодательство руз - справочная система "законодательство руз" на портале NRM.UZ [Электронный ресурс]. URL: https://nrm.uz/products?folder=179271_osobennosti_ucheta_v_razlichnyh_otraslyah_i_organizatsiyah&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana (дата обращения: 16.04.2023).
3. Главная страница: Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства [Электронный ресурс]. URL: <https://tiame.uz/en/> (дата обращения: 16.04.2023).
4. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки [Электронный ресурс]. URL: <https://cbu.uz/upload/medialibrary/ee6/Godovoy-otchet.pdf> (дата обращения: 16.04.2023).
5. Shadibekova D. ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВЕДЕНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА : [Электронный ресурс]. URL: <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/1699> (дата обращения: 16.04.2023).

Тўраева Муяссар Расул Қизи
Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги
соҳасида стратегик ривожланиш
ва тадқиқотлар халқаро маркази
таянч-докторанти
muassarxon1177@gmail.com

ЎЗБЕКИСТОНДА МЕВА-САБЗОВОТ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ

Маълумки, мамлакатимиздаги мавжуд табиий-иклим шароити қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини, хусусан, мева-сабзавотчиликни барқарор ривожлантириш имконини беради. Ўзбекистон Республикаси Президенти ва ҳукумати томонидан соҳани бозор муносабатларига ўтиш

жараёнида мева-сабзавотчиликни ривожлантиришга устувор йўналишлар сифатида катта эътибор қаратилмоқда. Зеро, мева-сабзавотчилик маҳсулотларини ташқи бозорларда сотиш ҳисобига мамлакат валюта тушумининг сезиларли қисми шаклланаётганлиги ҳам соҳани тубдан ислоҳ қилиш ва жадал ривожлантиришнинг устуворлигидан далолат беради.

Хусусан, сўнгги йилларда бир қатор фармон ва қарорлар қабул қилинди. Буларга Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 мартдаги “Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчиликни жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5388 ва 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853 сонли фармонлари ҳамда 2018 йил 17 октябрдаги “Мева-сабзавот маҳсулотларини ташқи бозорларга чиқариш самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3978, 2019 йил 14 мартдаги “Мева-сабзавотчилик соҳасида қишлоқ хўжалиги кооперациясини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4239 қарорларини келтириш мумкин.

Ўзбекистон иқтисодиётида мева-сабзавотчилик тармоғининг ўрни ҳақида гапирадиган бўлсак, умуман олганда, тармоқда олиб борилаётган иқтисодий ислоҳотлар 2022 йилда қуйидаги иқтисодий-ижтимоий масалаларни ҳал қилиш имконини яратмоқда: иқтисодий масалада – мева-сабзавотчилик жами ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг 32,2 фоизини (мамлакат ялпи ички маҳсулотининг 8,7 фоизи) ташкил этгани ҳолда қишлоқ жойларида аҳолининг асосий даромадларидан бири ҳисобланади. Саноатнинг қатор тармоқларини ривожлантиришга ўзининг бевосита таъсирини кўрсатади. Шунингдек, ушбу тармоқ мамлакат қишлоқ хўжалиги экспортида асосий ўринларни эгаллайди; ижтимоий масалада – мева-сабзавотчиликни барқарор ривожлантириш самарадорлиги, нафақат қишлоқ аҳолисининг турмуш даражасига, балки мамлакат барча аҳолисининг ижтимоий фаровонлигини ҳам оширишга бевосита таъсир кўрсатади.

Аксарият қишлоқ хўжалиги хусусан мева-сабзавотчилик фаолияти ўз-ўзини молиялаштириш шароитларини таъминлаш учун зарур даромадларни олмайдилар ва натижада тармоқ бюджет томонидан қўллаб-қувватлашнинг ривожланган тизимига эҳтиёжи ошиб бормоқда. Сотилган мева-сабзавот маҳсулотларининг паст рентабеллиги, импортнинг юқори рақобати мева-сабзавот етиштиришни молиявий ресурслар билан таъминлашнинг пасайишига олиб келди. Бу эса ушбу тармоқ корхоналари молиясини шакллантириш ва улардан фойдаланиш хусусиятларини ҳисобга олишни ва концептуал ишлаб чиқишни янгилашни талаб қилади. Мева-сабзавотчиликка ихтисослашган корхоналарнинг молиявий ҳолатига қуйидаги омиллар салбий таъсир кўрсатади:

- қишлоқ хўжалиги ва мева-сабзавот маҳсулотлари нархларининг номуаносиблиги;
- мева-сабзавотчилик секторига йўналтирилган ва жалб қилинган инвестициялар миқдорининг камлиги;
- кредитлаш воситаларининг ривожланмаганлиги ҳамда юқори фоизли кредитлар, техника технологиялар харид қилишда лизинг шартларининг қийинлиги ва фоизларнинг юқорилиги;
- қишлоқ хўжалиги корхоналари рискларини суғурталашнинг самарали ва рақобатбардош бозорининг йўқлиги;
- солиққа тортишнинг адолатли эмаслиги ёки солиқ юкининг юқорлиги;
- асосий фондларнинг юқори даражада эскириши ва бошқалар.

Юқоридаги таҳлилдан келиб чиққан ҳолда, Ўзбекистон шароитида соҳани барқарор ривожлантиришда қуйидагиларга аҳамият бериш мақсадга мувофиқ саналади:

- қишлоқ жойларида фаолият кўрсатиб, бевосита қишлоқ хўжалик маҳсулотларини инновацион ресурс тежайдиган усулда сақлаш ва қайта ишлашга ихтисослашган намунавий корхоналар фаолиятини молиявий рағбатлантиришни янада кучайтириш, уларга солиқ, божхона ва бошқа имтиёзларни жорий этиш;

- республиканинг ҳар бир қишлоқ ҳудудида саноат корхоналарининг ихчам ва кичик шохобчаларини ривожлантириш асосида етиштирилаётган қишлоқ хўжалик хом ашё маҳсулотларини тайёрлаш, сақлаш ва қайта ишлашни кўпайтириш, шунингдек, ички ва ташқи бозорга харидоргир, рақобатбардош тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришга қаратилган тадбирларни иқтисодий рағбатлантириш (валюта ажратиш, имтиёзли солиқ белгилаш, кредитлар ажратиш ва бошқалар) мақсадга мувофиқ;

- тадбиркорга экспорт жараёнидан олдин кредит ажратиш, суғурталаш, ташқи бозорларда ўрин эгаллаш, “географик, иқтисодий, молиявий ва сифат хавфлари”, транспорт-логистика, тегишли сертификатлар олиш, озиқ-овқат хавфсизлиги ва стандарт масалаларида ҳар томонлама амалий ёрдам бериш, халқаро кўргазма ва ярмаркаларда иштирокини таъминлашга кўмак бериш мақсадида

экспорт-кредит ташкилотларини ташкил этиш ёки ушбу масалаларни ҳал этишни масъул вазирлик ва идорага юклаш;

- рақамли инновацион технологияларга асосланган “Агропарк” ва “Агросаноат” кўп тармоқли агрологистика мажмуаларини ҳар томонлама қулай жойларда ташкил этиш. Ушбу мажмуада барча шароитлар яратилган бўлиб, яъни маҳсулот сотиш, сақлаш, қайта ишлаш, қадоқлаш, биологическая хизмати, стандартлаштириш ва экспортгача бўлган барча жараёнлар тизимини яратиш;

- “Мева-сабзавотчилик клиникаси” ва инновацион лаборатория хизматларини жорий этиш мақсадга мувофиқ саналади.

Сайдахмедов Ҳикматулла Маҳкамович

Макроиктисодий

ва ҳудудий тадқиқотлар институти

бош илмий ходими, и.ф.н., доцент,

тел. 998940074421,

s_hikmat@rambler.ru

ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўртинчи фармонида белгиланган вазифаларда ҳудудларни жадал ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш вазифаси қўйилган. (1).

Ҳудудларнинг ҳозирги ижтимоий-иқтисодий ривожланганлик даражасини баҳолаш ва чуқур таҳлил қилиш, мавжуд муаммоларни аниқлаш, шу асосда ҳудудларнинг барқарор ривожланишини таъминлаш долзарб вазифалардан бири. Бу вазифаларни амалга оширишда ҳудудларнинг иқтисодий ривожланганлик даражасини кўрсатувчи индекслар алоҳида ўринга эга.

Ҳудудларнинг иқтисодий ривожланганлик даражаси интеграл индексини баҳолаш мамлакат ҳудудлари (Қорақалпоғистон Республикаси, 12та вилоятлар ва Тошкент шаҳри) кесимида амалга оширилади.

2021-2022 йиллар натижалари бўйича **ҳудудларнинг иқтисодий ривожланганлик даражаси интеграл индекси** аниқланди (1-жадвал).

Ҳисоб-китоблар натижасига кўра бу кўрсаткич бўйича Ўзбекистон ҳудудлари 4 гуруҳга бўлинди:

I-гуруҳга, яъни, **юқори даражада ривожланган** ҳудудларга Тошкент шаҳри ва Навоий вилояти кирди. Бунинг асосий сабаби бўлиб Тошкент шаҳри Республика ҳудудлари ичида аҳоли жон бошига тўғри келадиган хизматлар соҳаси, инвестициялар ва экспорт бўйича энг юқори 14 баллни олди ҳамда ЯҲМ, саноат бўйича 13 баллга эга бўлди ва натижада индекси 0,971 ташкил этиб мамлакатда 1-ўринни эгаллади.

Навоий вилояти аҳоли жон бошига ишлаб чиқарилган ЯҲМ, саноат ва қишлоқ хўжалиги бўйича энг юқори 14 балларни эгаллаган бўлса, хизматлар ва инвестициялар бўйича 13 балл ва экспорт бўйича 12 балл эгаллаб, натижада 0,940 индекс билан 2-ўринга жойланди.

II-гуруҳга, яъни, яхши **ривожланган** ҳудудларга Сирдарё, Тошкент ва Бухоро вилоятлари кирди.

III-гуруҳ, **ўрта ривожланган** ҳудудларга Андижон, Жиззах, Самарқанд ва Хоразм вилоятлари жойлашди.

IV-гуруҳ, иқтисодиёти **нисбатан паст даражада ривожланган** ҳудудлар Қорақалпоғистон Республикаси, Фарғона, Наманган, Қашқадарё, Сурхондарё вилоятларини ташкил этди.

Таъкидлаб ўтиш жоизки аҳоли жон бошига тўғри келадиган ЯҲМ, саноат, хизматлар соҳаси, инвестициялар ва экспорт бўйича Сурхондарё вилояти Тошкент шаҳрига нисбатан иқтисодий ривожланганлик даражаси 5,5 марта кам (1-жадвал).

Ҳудудларни истиқболда янада иқтисодий ривожланганлик даражасини ошириш ва улар орасидаги тафовутларни камайтириш учун қуйидаги таклиф ва тавсияларни ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ:

Худудларнинг ривожланганлик даражаси интеграл индекси бўйича гурухлаштириш

Т/р	Худудлар номи	2021 йил январь-декабрь Ривожланганлик даражаси индекси ($I_{ij\max}=1,000$)	Ўрни	2022 йил январь-декабрь Ривожланганлик даражаси индекси ($I_{ij\max}=1,000$)	Ўрни
Юқори даражада ривожланган ($0,851 \leq I_{ij} \leq 1000$)					
1	Тошкент ш.	0,971	1	0,971	1
2	Навой	0,940	2	0,950	2
Яхши ривожланган ($0,701 \leq I_{ij} \leq 0,850$)					
3	Сирдарё	0,762	3	0,750	3
4	Тошкент	0,738	4	0,735	4
5	Бухоро	0,726	5	0,700	5
Ўрта ривожланган ($0,401 \leq I_{ij} \leq 0,700$)					
6	Андижон	0,548	6	0,557	6
7	Жиззах	0,548	7	0,550	7
8	Хоразм	0,452	8	0,428	9
9	Самарқанд	0,429	9	0,500	8
Нисбатан паст ривожланган ($0,100 \leq I_{ij} \leq 0,400$)					
10	Қорақалпоғистон Республикаси	0,393	10	0,414	10
11	Фарғона	0,357	11	0,357	11
12	Наманган	0,310	12	0,307	12
13	Қашқадарё	0,286	13	0,250	13
14	Сурхондарё	0,190	14	0,164	14

*Манба: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида ҳисобланган.

1. Худудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражаси ўртасидаги тафовутни қисқартиришга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш. Бунинг учун нисбатан паст даражада ривожланган Қорақалпоғистон Республикаси, Фарғона, Наманган, Қашқадарё, Сурхондарё вилоятлари табиий-иқтисодий салоҳиятидан самарали фойдаланиш асосида янги ўсиш нуқталарини аниқлаш, саноат ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида кластерларни шакллантириш талаб этилади.

2. Худудларда фойдаланилмаган меҳнат захираларини аниқлаш ва улардан самарали фойдаланиш.

3. Ишлаб чиқариш кучларини мақбул жойлаштириш, уларни айниқса паст даражада ривожланган ва қишлоқ худудларига жойлаштириш.

4. Худудларни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурлари доирасидаги лойиҳаларни самарали ва сифатли амалга оширишни таъминлаш.

Аметов Баҳадир Фурқат ўғли

Қорақалпоқ давлат университети магистранти

СОЛИҚ ПОТЕНЦИАЛИНИНГ НАЗАРИЙ ТАЛҚИНИ

Мамлакатнинг барқарор иқтисодий ҳолатининг муҳим шартларидан бири бўлиб, жорий харажатлари қопланишини таъминлайдиган молиявий маблағларининг жамланиши ҳисобланади. Оқилона солиқ сиёсатини юритиш орқали давлат солиқ йиғиш соҳасида ўз фаолиятини амалга оширади. Муаммоларни, хусусан бюджетни тўлдириш, иқтисодий ўсишни ошириш учун захираларни излаш каби масалаларни ҳал қилиш учун, молия органлари умуман бутун мамлакат ва минтақалар даражасида солиқ ва молиявий потенциални тўғри баҳолашга асосланган объектив маълумотларга эга бўлиши керак.

Молиявий потенциал атамасининг келиб чиқишига эътибор берадиган бўлсак, лотинчадан келиб чиққан бўлиб - қувват маъноларини англатади¹. Потенциал тушунчасининг асосий таркибий қисмлари қуйидагилардир: қувват даражаси, имкониятлар йиғиндиси, воситалар. Унинг этимологик маъноси "қувват, қувват" тушунчаларини англатади. Унинг иқтисодий аҳамияти эса, мавжуд бўлган аниқ маблағлар, захиралар, манбалар ҳисобланади, улар аниқ вазифа ва стратегияларни амалга ошириш, муайян муаммони ҳал қилиш ва ҳ.к. иборатдир. Инглиз тилидаги иқтисодий адабиётларда "солиқ потенциали" билан "молиявий потенциал" атамалари кўпинча баробар юритилади.

Маълумки солиқ юки, солиқ чегараси юзасидан иқтисодий фандаги ёндашувлар жараёнида солиқлар ва солиққа тортиш соҳасида ҳозирги кунда ҳам фойдаланадиган концептуал қоидалар шакллантирилган: шу жумладан солиққа тортишнинг адолатлилик тамойилининг моҳияти белгиланган, солиқ маъмуриятчилиги учун харажатларни оптималлаштириш зарурлиги асосланди, солиқ юкини оптималлаштириш мазмуни очиб берилган, солиқ ставкаси ва солиқ базаси ўртасидаги боғлиқлик мавжудлиги аниқланган, солиқларнинг иқтисодий ривожланишни давлат томонидан тартибга солиш механизми сифатида роли тадқиқ қилинган. Ушбу таъкидлаб ўтилган қоидаларнинг ҳаммаси мамлакатимиз ва хорижий мамлакатлар илм-фан ва амалиёти учун долзарб ҳисобланади ва солиқлар, солиққа тортиш, солиқ сиёсати соҳасида тадқиқотларни ривожлантиришда муҳим бўлиб қолмоқда.

Лекин назаримизда, ҳозирга қадар "молиявий потенциал" атамасининг мазмуни анча ноаниқ, у кўпинча "солиқ потенциали"нинг синоними сифатида ишлатилган. Кўплаб мамлакатларидаги каби Ўзбекистонда ҳам ушбу тушунчалар бир-биридан фарқланади.

Асосий фарқлаш хусусияти шундан иборатки, молиявий потенциал барча молиявий ресурслардан шаклланади, ўз навбатида, солиқ потенциали эса ушбу йиғиндининг маълум бир қисмини ташкил этади. Шунини алоҳида қайд этиш керакки, молиявий потенциал ва солиқ потенциали тушунчалари принципиал жиҳатдан фарқ қилувчи иқтисодий ҳодисадир ва минтақалараро таққослаш ва бюджетлараро ҳисоб-китоблар тизимини яратиш мақсадларида уларнинг дифференциал фарқланиши талаб этилади. Молиявий потенциал ва солиқ потенциали тўғрисида тасаввур ҳосил қилиш учун биз ушбу тушунчаларни алоҳида кўриб чиқамиз.

Кенг маънода "солиқ потенциали" – бу маълум бир ҳудуднинг комплекс солиққа тортиладиган ресурслари. Тор маънода "солиқ потенциали", амалдаги солиқ қонунчилигига мувофиқ ҳисобланган солиқ ва йиғимлар бўйича тушумларнинг мумкин бўлган максимал миқдорини ифодалайди².

Мамлакатимиз молия фанида солиқ потенциалини аниқлаш, солиқ потенциалини ҳисоблаш муаммоси, хусусан XX аср 90 йилларнинг бошидан миллий солиқ тизимининг шаклланиши билан ривожлана бошлади. Лекин миллий солиқ тизими ёки солиқ қонунчилигимизда солиқ потенциали тушунчаси ёки ундан фойдаланиш борасида аниқ маълумотлар базаси мавжуд эмас. Шунга қарамадан, маҳаллий иқтисодчи олимлар томонидан ўз тадқиқотларида солиқ потенциали ҳақида фикр-мулоҳазалар ва муаллифлик ёндашувлар билдириб ўтилган.

Қайд этилганлардан умумлаштириб айтадиган бўлсак, ҳудудларнинг молиявий потенциали ривожланиши, улар бюджет имкониятларини, ижтимоий-иқтисодий вазифалари ва мажбуриятларининг ўз вақтида тўлиқ ижроси ҳамда манзилли таъминланишида ишончли молиявий база бўлиб хизмат қилиши билан изоҳлашимиз мумкин.

Умуман олганда, молиявий потенциал ва солиқ потенциали бюджетнинг даромад қисмини ташкил қилади, шунинг учун ушбу кўрсаткичлар қанчалик юқори бўлса, мамлакатнинг иқтисодий ҳолати учун шунча барқарор бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Большой экономический словарь / Под. ред. А.Н.Азриляна. – 7-е изд., доп. – М.: Институт новой экономики, 2007. -с. 844.
2. Musagaliev, A.J. Scientific and Theoretical Interpretation of the Concept of Tax Potential / American Journal of Economics and Business Management. ISSN: 2576-5973. Vol. 5, No. 9, 2022, - Pages: 40-49.

¹ Большой экономический словарь / Под. ред. А.Н.Азриляна. – 7-е изд., доп. – М.: Институт новой экономики, 2007. -с. 844.

² Musagaliev, A.J. Scientific and Theoretical Interpretation of the Concept of Tax Potential / American Journal of Economics and Business Management. ISSN: 2576-5973. Vol. 5, No. 9, 2022, - Pages: 40-49.

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ УСЛУБЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАЛИ МЕХАНИЗМЛАРИ

Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарувнинг иқтисодий самарали механизмларини кенгайтиришда, улар фаолиятини ташкил этиш ва бошқаришнинг халқаро стандартларини жорий этиш Корпоратив бошқарув кодексининг меъёрлари ва қоидаларини, биринчи навбатда, фаолиятнинг шаффофлиги ва ижро органининг ҳисобдорлиги бўйича талабларни жамият фаолиятининг ўзига хослиги ва соҳавий ихтисослашувини ҳисобга олган ҳолда жорий этиш лозим.

Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув тизимини янада ривожлантиришнинг қуйидаги асосий йўналишлари мавжуд:

халқаро тажрибани чуқур таҳлил қилиш ва шу асосда замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этиш, ишлаб чиқариш, инвестиция, моддий-техник, молиявий ва меҳнат ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш;

чет эл капитални янги йўналишда акциядорлик жамиятларини ташкил этиш, акциядорлик жамиятларига хорижий инвестицияларни кенг жалб қилиш учун қулай шароитлар яратиш;

эски бўлинмалар ва лавозимларни тугатиш, замонавий халқаро стандартлар ва бозор иқтисодиёти талабларига мос янги бўлинма ва лавозимларни жорий этишни инobatга олган ҳолда, акциядорлик жамиятларини бошқариш тузилмасини тубдан қайта ташкил этиш;

акциядорлик жамиятларини стратегик бошқариш, бошқарув ходимларининг самарали фаолиятини назорат қилишни таъминлашда акциядорлар, жумладан, миноритар акциядорлар ролини ошириш;

етақчи хорижий таълим муассасалари билан ҳамкорлик асосида бошқарув ходимларини тайёрлаш ва уларнинг касб даражасини ошириш, шунингдек, акциядорлик жамиятларида раҳбарлик лавозимларига чет эллик юқори малакали менежерларни жалб қилиш лозим бўлади.

Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий этишда тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни кенг жалб этиш, акциядорлик жамиятлари фаолиятининг самарадорлигини тубдан ошириш, бўлажак инвесторлар учун уларнинг очиқлиги ва жозибадорлигини таъминлаш, замонавий корпоратив бошқарув услубларини жорий қилиш, корхоналарни стратегик бошқаришда акциядорлар ролини кучайтириш учун қулай шароитлар яратиш талаб этилади.

Акциядорлик жамиятлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш ва корпоратив бошқарув тизимини такомиллаштиришда ривожланган давлатларнинг муваффақиятли тажрибаси қўллаш орқали корпоратив бошқарувнинг илғор услубларини жорий этиш бўйича тавсиялар, жумладан, узоқ муддатли истиқболда ривожланиш стратегияси ва вазифалари, ички назорат тизимлари ва ижро органининг акциядорлар ҳамда инвесторлар билан самарали ўзаро ҳамкорлик механизмларини белгилаш муҳим аҳамиятга эга.

Акциядорлик жамиятлари фаолиятининг қўламини, тармоқ хусусиятлари ва йўналишларини инobatга олган ҳолда, намунавий ташкилий тузилмаларни жорий этиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Ишлаб чиқаришни доимий равишда модернизация қилиш ва янгилаш, юқори технологияли, ташқи бозорда рақобатбардош, юқори қўшилган қийматга эга товарлар ва хизматларни ишлаб чиқаришга йўналтирилган замонавий технологик ва инвестициявий сиёсатни ишлаб чиқиш ва юритиш;

- йиллик молиявий, шу жумладан нуфузли халқаро компаниялар томонидан мустақил ташқи аудитдан мажбурий тартибда ўтказилиши лозим бўлган жамланган ҳисоботларни молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларига мувофиқ тузиш;

- халқаро стандартларга мувофиқ, ижро органи фаолиятининг самарадорлиги устидан ички ва ташқи назоратни, Кузатув кенгаши ва акциядорлар олдидан унинг ҳисобдорлигини таъминлаш;

- инвестициялар, бозор самарадорлигига эришиш, фойдалилик ва юқори дивиденд даромадлигининг аниқ мақсадли мўлжалларини тасдиқлаш;

акциядорлик жамиятлари раҳбар ва бошқарув ходимларининг, кузатув кенгашлари аъзоларининг, менежерлари ва мутахассисларнинг касбий даражасини доимий ошириб бориш талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 17-сон, 204-модда; 2017 й., 37-сон, 980-модда; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.04.2022 й., 06/22/101/0288-сон)
2. Фуломов.С.С. Корпоратив бошқарув. Дарслик. Т.:Академия, 2013.

Xudayberdiev Bobir Botirovich

Jizzax Politehnika Instituti "Muhandislik va kompyuter grafikasi"
kafedrası assistenti

E-mail: xudayberdiyev88@mail.ru Tel: +998(99) 940-69-59

KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA STRATEGIK MENEJMENTNING ZARURIYATI

Annotatsiya: Maqolada korxonada va tashkilotlar faoliyatida strategik menejment tarkibi, ichki qiyofasi, mohiyati nuqtayi nazaridan, shuningdek, mohiyatan hal qiluvchi savollarga javob berishi va unga strategiyani amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq muhim omillar bilan belgilanadigan taklif va tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Strategiya, menejment, boshqaruv qarorlari, moliyaviy, mehnat, tabiiy resurslar, strategik rejalashtirish, strategik pozitsiya, axborot mazmuni, tashqi muhit.

Аннотация: В статье описаны предложения и рекомендации, обусловленные важными факторами, связанными со структурой, внутренним образом и сущностью стратегического управления в деятельности предприятий и организаций, а также его ответ на актуальные вопросы и процесс реализации стратегии.

Ключевые слова: Стратегия, управление, управленческие решения, финансовые, трудовые, природные ресурсы, стратегическое планирование, стратегическая позиция, информативность, внешняя среда.

Abstract: The article describes suggestions and recommendations determined by important factors related to the structure, internal appearance, and essence of strategic management in the activities of enterprises and organizations, as well as its answer to crucial questions and the process of strategy implementation.

Key words: Strategy, management, management decisions, financial, labor, natural resources, strategic planning, strategic position, information content, external environment.

Korxonada va tashkilotlar faoliyatida strategik menejment kelajakni ko'rish, shuningdek, o'z tarkibi, ichki qiyofasi, mohiyati nuqtayi nazaridan olib qaralsa uchta zaruriy savolga javob bera oladi, ular:

- faoliyat yurituvchi subyektning har jihatdan hozirgi ahvoli qanday holatda?
- birmuncha vaqt o'tib, masalan, to'rt-besh, o'n, o'n besh yildan keyin qaysi maqomda (lavozimda) faoliyat ko'rinishini xohlar edingiz?
- xohlagan vaziyatga (pozitsiyaga) qanday erishish va yetishish mumkin?

Birinchi savolga javob berish uchun menejerlar keyingi qayerga borishni hal qilishdan oldin faoliyat yurituvchi subyektning hozirgi holatini yaxshi tushunishlari kerak. Bu esa o'z navbatida boshqaruv tafakkuri mahsuli sanalgan boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayonini o'tmish, hozirgi va kelajakdagi holatlarini sinchiklab o'rganib chiqish (tahlil qilish) uchun tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan axborot asosining zarurligini kun tartibiga ko'ndalang qo'yadi.

Ikkinchi savol strategik menejmentning kelajakka yo'naltirilganligi kabi muhim xususiyatini aks ettiradi. Bunga javob berish uchun nimaga intilish, qanday maqsadlarni qo'yish kerakligini aniq belgilash kerak¹.

Strategik menejmentning keyingi masalasi tanlangan strategiyani ro'yobga chiqarish bilan bog'langan bo'lib, ro'yobga chiqarish vaqtida oldingi ikki bosqichga o'ziga yarasha qo'shimcha va o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritish mumkin. Mazkur bosqichning eng muhim tarkibiy qismlari mavjud moliyaviy, mehnat, tabiiy kabi resurslar, shuningdek, boshqaruv yo'nalishi, xo'jalikning tashkiliy tuzilmasi va tanlangan strategiyani ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi asosiy boshqaruv subyekti sanalgan inson resurslarining faol qismidir. I. Ansoff kelajak boshqaruvini bir-biriga bog'liq bo'lgan, shuningdek, bir-birini to'ldiruvchi ikkita, kelajak vaziyatni (strategik pozitsiyani) sinchiklab o'rganish (tahlil qilish) va tanlash asosidagi real vaqt mobaynida tezkor boshqaruv kabi quyi tizimlardan iborat deb hisoblashni qayd etadi va o'z navbatida, tavsiya qiladi.

¹Котлер Ф. Стратегический менеджмент по Котлеру / Ф.Котлер, Р.Бергер, Н.Бикхофф. – М.: Альпина Паблишер, 2016. - 144 с.

Shunday qilib, strategik menejment bilan strategik rejalashtirish o'rtasidagi tafovut qiladigan jihati shundaki, uning samarali yo'naltirilgan tizim ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, u kelajakni ko'rish jarayonini, hamda mazkur jarayonni tahlil qilish asosida baholash va nazorat qilishni ham inobatga oladi¹. Bundan tashqari, kelajakni ko'rish strategiyasini yo'lga qo'yish kelajak boshqaruvining bosh jihatidir, vaholanki, kelajakni ko'rish dastaglari, unsurlari, jihatlari, masalan korxonalar va tashkilotlar faoliyatida siljish jihatidan o'z ta'sirini ko'rsatmaganida, kelajakni ko'rish rejasi misli tush, xom xayol, faqat orzu-havas bo'lib qolar edi.

Dastlabki o'tkazilgan tadqiqotlardan shu jihat ayon bo'ldiki, strategik menejment va strategik rejalashtirish o'rtasidagi tafovutlar, ular strategiyani amalga oshirish jarayoni bilan bog'liqligidan tashqari, quyida qayd etilgan bir qator boshqa muhim omillar bilan ham belgilanadi:

- axborot mazmuni - kelajakni ko'rish boshqaruvida tashqi muhitning mavhumlik qadami bir vaqtning o'zida pastga yoki yuqoriga og'ishlar, ya'ni o'zgarishlar ko'lami haqidagi xabarlarining zaiflashishi bilan ko'payadi, ya'ni ortga sijiydi va oqibatda kelajakni ko'rish boshqaruv jihatining axborot mazmunining ulushi kamayadi². Bu korxonalar va tashkilotdan tashqarida bo'lgan tashqi muhit uchun birmuncha topqirlikni, sergaklikni o'zida mujassam etgan axborot nazorati majmualarining takomillashishiga sabab bo'ladi;

- kutilmagan strategik hodisalarning paydo bo'lishi, masalan, mamlakat byudjetini jilovlash, bu o'z navbatida, kelajakka xizmat qiluvchi qarorlarni mo'ljallash vaqtlaridan tashqarida qabul qilishga olib keladi, ya'ni kelajak boshqaruvini mo'ljallash vaqtlarida korxonalar va tashkilotdan tashqarida ro'y beradigan pastga yoki yuqoriga og'ishlarga, ya'ni o'zgarishlarga shiddatli qayta ta'sir jarayoni bilan izohlanadi. Bunday kutilmagan hodisalarni ushlab uchun real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilish tizimlari yaratilmoqda (onlayn tizim);

- strategik menejmentning tashqi o'zgarishlarga munosabati ikki tomonlama bo'ladi, ya'ni uzoq muddatli va bir vaqtning o'zida tezkordir. Uzoq muddatli javob strategik rejalarga kiritilgan, tezkor javob real vaqt birligida mo'ljallangan davrdan tashqarida amalga oshiriladi;

- strategik menejmentda tashqi muhit berilgan va o'zgarish jarayon sifatida qaralmaydi, unga tashkilot va korxonalarining faoliyat jarayoni moslashishi kerak. Ya'ni boshqacha aytadigan bo'lsak, korxonadan tashqarida ro'y beradigan pastga yoki yuqoriga og'ishlar, ya'ni tashqi muhitdagi o'zgarish usullari va kelajak boshqaruv jihatlari tahlil qilinadi.

Yuqoridagi keltirilganlardan xulosa qilib strategik menejmentning yana bir ta'rifini beradigan bo'lsak, - bu mavjud salohiyatdan maqbul foydalanish va tashqi o'zgarishlarga moyil bo'lib qolish imkonini beruvchi o'zgaruvchan va noaniq muhitda korxonalar va tashkilotlarning maqsadlariga erishishni ta'minlash faoliyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Котлер Ф. Стратегический менеджмент по Котлеру / Ф.Котлер, Р.Бергер, Н.Бикхофф. – М.: Альпина Паблишер, 2016. - 144 с.
2. Кривенс Д. Стратегический маркетинг / Д.Кривенс. – М.: Вильямс, 2017. - 512 с.
3. Дэй Дж. Стратегический маркетинг / Дж. Дэй. - М.: Эксмо-Пресс, 2002. - 640 с.

Номазов Бахром Бобомурадович
Қарши муҳандислик-иқтисодиёт
институтини “Инновацион иқтисодиёт”
кафедраси катта ўқитувчиси
bahrom-n@mail ru

ЎЗБЕКИСТОН СОЛИҚ ТИЗИМИНИ ЗАМОНАВИЙЛАШТИРИШ ХУСУСИДА.

“2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”да [1] солиқ юкини камайтириш ва солиққа тортиш тизимини соддалаштириш, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва солиққа тортиш тизимини соддалаштириш сиёсатини давом эттириш асосий устувор йўналиш сифатида белгиланган.

Бу вазибалар “2022-2026-йилларда Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси”да янада қатъий ва ҳар томонлама белгилаб берилган: “...солиқ юкини камайтириш ва солиққа тортиш тизимини соддалаштириш, солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва тегишли

¹ Кривенс Д. Стратегический маркетинг / Д.Кривенс. – М.: Вильямс, 2017. - 512 с.

² Дэй Дж. Стратегический маркетинг / Дж. Дэй. - М.: Эксмо-Пресс, 2002. - 640 с.

рағбатлантириш чораларини кенгайтириш йўналишини давом эттириш [2]” муҳим йўналиш сифатида белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг солиқ сиёсати соҳасидаги устувор йўналиши ўрта ва узоқ муддатли истиқболда бюджет барқарорлигини таъминлайдиган самарали ва барқарор солиқ тизимини яратишдан иборат. Солиқнинг асосий мақсадлари инновацияларни қўллаб-қувватлаш сиёсати бўлиб қолмоқда, шу жумладан уни рағбатлантиришга қаратилган янги имтиёзлар бериш, иқтисодиётнинг реал сектори, таълим ва соғлиқни сақлаш соҳаларига инвестицияларни солиқ билан қўллаб-қувватлашдан иборат.

Амалга оширилаётган солиқ сиёсатининг энг муҳим омили бюджет тизимини мувозанатли сақлаш зарурати ҳисобланади. Келгуси йилларда солиқ сиёсати давлат бюджети тақчиллиги шароитида амалга оширилади. Шу муносабат билан барча даражадаги бюджетларнинг даромад қисмини шакллантириш муаммоси ўткир бўлиб, бу солиқ тизимини тезроқ ислоҳ қилишни тақозо этади. Шу билан бирга, мувозанатлашган бюджет тизими талабларини ҳисобга олган ҳолда иқтисодиётнинг оптимал даражасига эришилган тармоқларда солиқ юқининг ўзгармаслигини таъминлаш зарур.

Шу муносабат билан ҳозирги вақтда солиқ тизимини ислоҳ қилиш Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Бу Ўзбекистон Республикасини 2030 йилгача бўлган даврда узоқ муддатли ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш концепциясида кўрсатилган.

Ўзбекистон Республикаси солиқ тизимининг кўпгина муаммоларини комплекс ҳал қилмасдан туриб, бу муаммони ҳал қилиб бўлмайди. Ҳозирги вақтда солиқ тизимини ташкил этиш ва солиқни тартибга солишнинг илмий-назарий асослари, солиқ тизимини моделлаштиришнинг услубий ёндашувлари етарли даражада ишлаб чиқилмаган.

Ўзбекистон Республикасида солиқ тизимини куришда биз икки гуруҳ муаммоларга дуч келдик. Улардан биринчиси, солиқ чораларини амалга оширишда давлат органларининг зарур тажрибаси йўқлиги билан изоҳланди. Иккинчиси, аҳолининг солиқ маданиятининг йўқлиги билан боғлиқ. Бу қийинчиликлар узоқ вақт давомида Ўзбекистон Республикаси солиқларида ўз аксини топади ва улар солиқ тизимида ва солиқ сиёсатида ҳисобга олинishi керак. Шу муносабат билан солиқ ислоҳоти жараёнини назарий ва амалий нуқтаи назардан қайта кўриб чиқиш, солиқ тизими натижаларини таҳлил қилиш ва умумлаштириш, солиқларни ривожлантиришнинг асосий йўналишларини белгилаш ва келгусида солиқ сиёсатининг моҳиятини белгилаш жуда долзарб кўринади.

Солиқларни танлаш ва солиқ тизимининг тузилиши нуқтаи назаридан асосий нуқта солиққа тортиш базасини, тўғридан-тўғри ва билвосита солиқ солишнинг нисбатларини, солиққа тортишнинг прогрессив, пропорционал ва регрессив шаклларини уйғунлигини аниқлашдир.

Ҳуқуқий тартибга солиш доирасида “Солиқ тизими” тушунчасини ишлаб чиқиш айниқса муҳим аҳамиятга эга, чунки бу концепция орқали тизимнинг тузилишини, тартибга солинадиган масалаларни, тартибга солиш чегараларини аниқлаш имконини беради. Ушбу концепция солиқ ҳуқуқининг умумий қисми тизимини ва жисмоний шахслар солиқлари бўйича қонунчилик қоидаларини шакллантириш учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Шундай қилиб, шуни таъкидлаш керакки, солиқ тизими турли хил солиқ режимларининг йиғиндиси бўлиб, улар доирасида солиқ ва йиғимларни белгилаш, амалга ошириш, ўз вақтида ва ўз вақтида бажарилишини назорат қилиш бўйича аниқ ифодаланган принциплар, қоидалар ва тартиблар асосида қурилган. тўловнинг тўлиқлиги ва уларнинг тўланмаганлиги учун жавобгарлик.

Ҳозирги вақтда Ўзбекистон Республикаси солиқ тизимини модернизация қилиш жараёнининг биринчи босқичи кузатилмоқда ва унинг давлат бюджети даромад қисмини шакллантиришнинг асосий механизми бўлганлиги сабабли, ресурсларни янада ўрганиш ва баҳолаш ҳамда уни модернизация қилиш даражасини ошириш ҳисобланади. зарур. Солиқ тизимини модернизация қилиш муаммосининг аҳамияти шундан иборатки, нафақат йирик корхоналар, балки мамлакатимизнинг кичик ва ўрта корхоналари ҳам жаҳон иқтисодиётига интеграциялашиб бормоқда.

Мамлакатимиз солиқ тизимини модернизация қилишнинг энг муҳим жиҳатларини ўрганиш бир қатор назарий-таҳлилий хулосалар ва амалий тавсияларни асослаш имконини берди:

1. Солиқ тизимини модернизация қилиш мураккаб ва мунозарали жараёндир. Хорижий амалиётда илмий тадқиқотлар ривожланиб бораётганига қарамай, мамлакатимизда солиқ тизимини модернизациялаш муаммолари, устувор вазифалари ва барқарорлаштириш механизмлари бўйича тадқиқотлар зарур.

2. Солиқ тизимини модернизация қилишнинг асосий устувор йўналиши, энг аввало, маҳаллий корхоналарга миллий ва хорижий инвестицияларнинг кириб келиши учун имтиёзли солиқ муҳитини яратиш, хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини рағбатлантириш учун зарур шарт-шароитларни яратиш бўлиши керак.

3. Иқтисодиётнинг халқаро интеграциялашуви ва глобаллашуви шароитида солиқ тизимини модернизация қилиш ва уйғунлаштиришнинг кўплаб муаммолари мавжуд.

4. Солиқ ислохотининг асосий элементлари солиқ сиёсатининг стратегик йўналишларига мос келади: солиқ юкини камайтириш ва солиққа тортиш тизимини соддалаштириш, жисмоний шахслар солиқлари бўйича солиқ солинадиган базани белгилаш қоидаларидаги ҳолатларни тузатиш, ушбу солиқларнинг иқтисодий мазмунини бузиш.

5. Солиқ сиёсати иқтисодий сиёсатнинг энг муҳим таркибий қисмларидан бири сифатида иқтисодиётнинг реал секторини ривожлантиришни рағбатлантириш тизимида айлантирилиши керак. Солиқ сиёсати асосий вазифани ҳал қилишдан ташқари, ривожланиш ва макроиқтисодий барқарорликни таъминлашнинг ҳозирги босқичида яна тўртта умумий вазифани ҳал этиши керак: даромадлар, ички ишлаб чиқаришни ҳимоя қилиш, аҳоли даромадларини тенглаштириш ва тўлов балансининг ижобий балансини таъминлаш.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. // Хулк Сузи, 2017 йил 8 февраль.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги “2022-2026-йилларда Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.

3. Pessino, C., & Fenochietto, R. (2016). Determining countries' tax effort.

4. Kuo, C. Y. Estimation of Tax Revenue and Tax Capacity./ C. Y. Kuo//JDI Executive Programs.- 2015. – №. 2015-08.- 34р.

5. Муталимова П.М. Урегулирование налоговой задолженности: комплексное решение // Российское предпринимательство. 2012. №22 (220). – с. 190-194;

6. Гираев В.К. Комплексный подход к урегулированию налоговой задолженности // Казанская наука. 2013. №3. - с. 44-46.

7. Савинов И.Т. Налоговая задолженность: проблемы администрирования и пути регулирования // Региональные проблемы преобразования экономики. 2013. №3 (37). – с.210-213;

8. Сиражудинова С.И. Повышение эффективности налогового администрирования на современном этапе. Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. к.э.н. Владикавказ, 2017, с.7.

9. Berdieva U.A. Improving tax revenue collection in Uzbekistan. //International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VII, Issue 6, June 2019. Page 342-348.

10. Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. Уч. для вузов. М.: Юрайт, 2022.- с. 79.

Odilova Rayhona Anvar qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) 2-bosqich talabasi
e-mail: rayhonaodilova0309@gmail.com

SUN'IY NEYRON TARMOG'I(SNT) METODINI O'RGANGAN HOLDA SUN'IY INTELLEKT(SI)NING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI PROGNOZ QILISH.

Bugungi texnologik taraqqiyot davrida turli innovatsiyalar deyarli barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida allaqachon o'z o'rnini topib bo'lgan. Holbuki, so'ngi bir necha yillarda ko'plab ishlab chiqarish ishchilari o'zlarini robotlar bilan almashtirib ulgurgan bo'lsalarda ammo advokatlar kabi hujjatlar bilan ishlovchi mutaxassislar matnlar bilan ishlash haqida haligacha tashvishda edilar. Ammo bu kabi yuqori darajada fikrlashni talab etadigan kasblar SI yetarli darajada rivojlanib borishi oqibatida havf ostida qolishi kutilmoqda. Natijada ishsizlikning mana shunday yangi sabablarga ko'ra o'sib borishini prognoz qilish ham yangi turdagi metodlarni talab qilmoqda.

SI ning ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda ta'siri juda katta bo'lib, sohalarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish SI ning o'sishiga va o'z navbatida bu ba'zi muammo va tashvishlarni ham vujudga keltirishga sabab bo'lmoqda. Mana shunday yangi va dolzarb muammolardan biri bu ishsizlik darajasining SI ta'sirida keskin oshib ketish havfidir. Bunday o'zgarishlar esa olimlarni ko'plab murakkab yondashuv

va yechimlarni ishlab chiqishga undamoqda. Mana shunday yangi yondashuvlardan biri SNT usuli hisoblanadi. Bu usulning nazariy asosi ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan berib o'tilgan bo'lib, bularga Fillips egri chizig'i(Fillips,1958)[1] va Ouken qonuni(Ouken,1962)[2] misol bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida, ishsizlik odatda chiziqli bo'lmagan dinamikaga ega hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, SNT mana shunday hodisalarni tahlil qilishda eng qulayi hisoblanib, har qanday ixtiyoriy turdagi funksiyalarga osongina moslashish imkoniga ega.

SI ta'siri yuqori bo'lishi mumkin bo'lgan davlatlarga Avstraliya, Avstriya, Belgiya, Kanada, Xitoy, Daniya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya,Hindiston, Irlandiya, Isroil, Italiya, Yaponiya, Koreya, Niderlandiya, Norvegiya, Rossiya, Singapur,Shvetsiya, Shveytsariya, Buyuk Britaniya va AQSh ni kiritishimiz mumkin. Prognozlash maqsadida ushbu davlatlarning ba'zi statistik ko'rsatkichlari, jumladan,bog'liq o'zgaruvchi sifatida ishsizlik darajasi, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa sun'iy intellekt foiz ko'rsatkichi, inflyatsiya darajasi, aholi soni, mehnat unumdorligi, davlat ulushi hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning statistikolari olindi. Bunda sun'iy intellekt hajm bo'yicha aniqlanadi (Mutascu, 2021)[3].

1-jadval. Ta'riflovchi statistikalar.

O'zgaruvchilar	O'rtacha	Mediana	Maks	Min	Std og'ish	
Kuzatishlar						
Ishsizlik darajasi(%)	6.45	5.81	15.45	2.12	2.50	418
Sun'iy intellect(patentlar soni)	88.23	14.811	14.1	0.3		201.1
418						
Inflyatsiya(%)	2.62	1.84	85.75	-4.48	5.1	418
Aholi soni(mln kishi)	100,0	17,87	132,000	3,71	246,0	418
Mehnat unumdorligi(%)	83,135	86,681	141,625	7070.5	24,473	418
Davlat ulushi(%)	30.53	31.95	62.23	12.15	10.68	418
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar(%)	5.96	2.63	86.59	-7.32	9.92	418

Manba:Mutascu,2021. Artificial intelligence and unemployment. Economic Analysis and Policy 69: 653-667

Tarmoqning yaxshi ishlashini ta'minlash va jarayondagi xatoliklarni kamaytirish maqsadida Sola va Sevillalarning(1997)[4] taklifiga ko'ra kiritilgan barcha o'zgaruvchilar [0;1] oraliqda normalashtiriladi. Normalashtirish jarayoni quidagicha hisoblanadi:

$$x' = \frac{x - x_{min}}{x_{max} - x_{min}},$$

bu yerda, X'- normalashtirilgan o'zgaruvchi, Xmaxva Xminmos ravishdamaksimal va minimal darajalarni ifodalaydi.

Krainer va Dukalarning[5] tavsifiga ko'ra SNT modelida neyronlarning kirish qatlamlari "yashirin qatlamlar" orqali chiqish qatlamlariga o'zgaradi va bunda har bir qatlam (netj) j neyron asosida chiqish qatlamlarini hosil qiladi qaysiki, i1, i2,...,in neyronlardan o1, o2,...,on chiqishlarni qabul qiladi. Bundantashqari, og'irliklar (wij) o'zgaruvchilarqiyaliginianiqlashgaimkonberadiqaysikineyronjningtarqalishfunksiyasinichiquvchioivaznli yig'indigaaylantirishuchunmuhimdir.Jarayonesaquidagichaamalgaoshadi:

$$net_j = b_j + \sum_{i \in I} o_i * w_{ij},$$

bu yerda bj bog'liq bo'lgan moyillik (ya'ni faollashtirish fumksiyasining kesishishi) hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Fillips Av. (1958) Buyuk Britaniyada ishsizlik va ish haqi o'rtasidagi bog'liqlik, 1861-1957. Iqtisodiyot 25(100):283-299
2. Ouken Am. (1962) Potensial YMM: hisoblash va uning ahamiyati. Amerika statistika asotsatsiyasi
3. Mutascu,2021. Artificial intelligence and unemployment. Economic Analysis and Policy 69: 653-667
4. Sola J, Sevilla J (1997) Neyron tarmoqlarni qo'llash uchun kirish ma'lumotlarini

To'ychiyeva Nodira
O'zbekiston Milliy universitetining
Jizzax filiali, o'qituvchisi
Rajabov Sanjarbek Xamro o'g'li
O'zbekiston Milliy universitetining
Jizzax filiali, talaba
sanjarbek05282004@gmail.com

O'ZBEKISTON VA XALQARO MOLIYA TASHKILOTLAR O'RTASIDAGI MOLIYAVIY MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Zamonaviy iqtisodiyotida moliyaviy tizimning sifat jihatidan yangi holatiga o'tish mavjud bo'lib, uning asosiy funksiyasini - iqtisodiy o'sishni moliyalashtirishni amalga oshirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, moliya tizimi moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashni tashkil etish va ularni real iqtisodiyotga aylantirish bilan zarur darajada kurasha olmaydi, uning rivojlanish darajasi zamonaviy iqtisodiy o'sish talablariga javob bermaydi. Bir nechta davlatlar obyektiv ravishda moliya tizimini, moliya bozorlarini, moliyaviy vositachilik sektorini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimiga muhtoj, ya'ni. iqtisodiy rivojlanish uchun etarli moliyaviy yordam yaratishda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotdagi bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bu moliya bozorini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishdir. Moliya bozori iqtisodiyotni rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotlarni oshirish, kapital jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin. Jamiyat taraqqiyotida moliyaviy munosabatlarning o'rni esa beqiyosdir, zero, ular moliyaviy resurslarining harakati shakllanishi, taqsimlanishi va xalqaro moliya bozori institutlari hamda moliyaviy institutlar va tashkilotlar tomonidan ishlatilishiga asoslangan tarkib bo'yicha murakkab bo'lgan munosabatlar tizimidir. Shu sababli, hozirgi vaqtda kelib, O'zbekiston bilan ko'plab moliya tashkilotlar iqtisodiy munosabatlar keng yo'lga qo'yilib va samarali hamkorlik aloqalarini o'rnatib kelmoqda. Bu xalqaro moliya tashkilotlari O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy sohalariga bir qator investitsiyalar kiritgan. Investitsion loyihalar soni ko'p va hamkorlik aloqalarini mustamkamlash doimiy ravishda e'tibor qaratilishi lozim. Sababi shundaki, xalqaro bozorga chiqish, davlatning eksport salohiyatini oshirish, aholining ijtimoiy qo'llab quvvatlash, hamda ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yaxshilash uchun xalqaro moliya institutlarini bilan aloqalarni rivojlantirish vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan PF-4947-sonli Farmonidan ham ushbu masalalarga alohida to'xtalib o'tilib, unda kapitalni jalb qilish va korxonalar, moliyaviy tashkilotlar va xalqaro munosabatlarni tashkil etuvchi moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishi belgilab qo'yilgan. Chunki xalqaro iqtisodiy hamkorlik uning sub'yektlari iqtisodiy manfaatlarini milliy chegaralardan tashqarida ro'yobga chiqarishning eng maqbul yo'li hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va iqtisodiy integratsiyani har qanday shaklda amalga oshiradigan mintaqaviy tashkilotlar muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodchilar inqirozning uchta asosiy sababini ko'rsatadilar: birinchidan, davlat tomonidan tartibga solish xatolari; ikkinchidan, iqtisodiyotning siklik rivojlanishi; uchinchidan, mavjud moliya tizimining muvaffaqiyatsizligi.

Moliya tizimidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativhuquqiy hujjatlarining ko'payishi, afsuski, tizimsiz, bir lahzalik xarakterga ega ekanligini ham ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, xulosa qilishimiz mumkinki, bu atama ko'pincha inqiroz davrida qonunchilikda qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, "moliyaviy tizim" atamasining ta'rifining munozaraliligi, uning chegaralarini belgilash bilan moliyaviy huquqning moliyaviy faoliyati, moliyaviy intizom kabi toifalari bilan bevosita bog'liqdir.

Muammo shundaki, inqiroz "global" miqyosidagi, keng qamrovli bo'lib qolgan bir paytda bu dastur va chora-tadbirlar ishlab chiqilmasligi, davlat inqirozli vaziyatlarning oldini olish uchun o'z vazifalarini doimiy ravishda bajarishi lozim. V.Zorkin "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'z mohiyatiga ko'ra zamonaviy huquqiy davlat inqirozini ham anglatadi", deb to'g'ri ta'kidlagan. Biz ham E.V.ning fikriga qo'shilishimiz kerak. Pokachalovanning ta'kidlashicha, "moliya tizimini ma'lum bo'g'inlarga (institutlarga) aniq differentsiatsiya qilish nafaqat nazariy nuqtai nazardan, balki amaliy nuqtai nazardan ham zarurdir". Yuqoridagilarni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, moliya tizimini moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi organlar tomonidan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq

ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ma'lum tamoyillarga asoslangan o'zaro bog'liq huquqiy normalar majmuasi sifatida ta'riflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 634-635.

2. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 151-156.

3. Хайдаров Б. ИҚТISODIЙ ИСЛОЎОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАЃАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.

4. Tuychieva Nodira, Vahrom Xaydarov, & Quziboyev Zafar. (2022). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 241–245. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/324>

5. Saitov Sirojiddin, Tuychieva Nodira, & Saydullayeva Dinora. (2022). CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 265–270. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/329>

**Alimova Shaxnoza Oktyamovna,
Buxoro Davlat universiteti o'qituvchisi,
Bozorova Gulasal Oqmurodovna
Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi**

**O'ZBEKISTON TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Hozirgi vaqtda transport rivojlanayotgan va yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy va ijtimoiy asosga ega bo'lgan davlat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Transport iqtisodiyotning normal ishlashini, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirilishini ta'minlaydi, iqtisodiyotning turli tarmoqlari korxonalarining xom ashyo manbalariga nisbatan eng maqbul yondashuvini hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini butun mamlakat bo'ylab oqilona taqsimlash uchun sharoit yaratadi. va mahsulotni iste'mol qilish sohalari, ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi savdo, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarni rivojlantirishga imkon beradi.

G'ildirakning ixtirosi va turli xil dvigatellar bilan odamlar bir manzildan ikkinchi manzilga oson harakatlanishni boshladi.

Turistik sayohatlarda ishlatiladigan avtoullov xizmatlari uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- 1) avtobus sayohatini tashkil etish;
- 2) sayyohlarning shaxsiy transportida sayohat qilish
- 3) avtomobil ijarasi.

Birinchi avtoullov xizmati avtobus xizmatidir. Avtobusda sayohat bu hali juda ham yosh turizm xizmat turiga kiradi. Uning rivojlanishining boshlanishi 70-yillarga taqalishi mumkin. XX asrdan oldin turli mamlakatlarda Avtobuslar asosan transferlar, ekskursiyalar va mahalliy sayohatlar uchun ishlatilgan. Bu turizm xizmatlarining iqtisodiy turi bo'lib, aholining keng qatlamlariga samarali xizmat qilmoqda. Yevropada asosan dam olish kunlari avtobus turiga ustuvor ahamiyat beriladi, shuningdek, Yevropa shaharlari bo'ylab ekskursiya maqsadida 23 kunlik sayohatlar mavjud. Hozirgi kunda O'zbekiston hududida ham shunaqa turistik sayyohlik agentlari paydo bo'la boshlagan va ular mahalliy aholiga dunyo kezish imkoniyatini oson taqdim etib kelishmoqda.¹

Ikkinchi avtoullov xizmati bu sayyohlarning uzining shaxsiy transportida sayohat qilishdir. Ammo ularning mashinalaridagi yo'nalish bo'ylab sayyohlar harakatini tashkil etishda alohida yordam mavjud. Bu esa albatta avtomobillar turlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarida aks etadi.

Uchinchisi esa bu albatta avtomobil ijarasidir (Car renting). Avtomobilni ijaraga olish sayyohlar orasida juda keng tarqalgan va talab qilingan xizmatdir, ayniqsa statsionar va kurort sayohatlarida. Har qanday sayyohlik markazida yoki dam olish markazida ko'plab avtomobillarni ijaraga olish ofislari mavjud - kattadan kichikigacha. Dunyoda etakchi avtomobil ijarasi firmasi Hertsdir. 90-yillarning o'rtalarida u

¹ Raximberdiyev, I. U. (2021). Transportda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish xususiyatlari, 2020

"Avis" bilan raqobatlashdi. Bu "Institutsional investor" jurnali avtomobillarni ijaraga olish uchun eng yaxshi firma deb nomlandi.¹

Hozirgi kunda bu uchala avtolulov xizmatlari dunyo buyicha keng tarqalgan bulib, bulardan yurtimizda avtobus xizmatlarini kuproq uchratishimiz mumkin. Demak qolgan ikki turni ham rivojlantirishimiz zamon talabi bulib chiqmoqda. Qo'shimcha qilishimiz mumkinki, shaxsiy avtomobilda ko'pincha mahalliy sayyohlar chegaradan chiqmagan holda o'zlari oilaviy yoki hamkasb do'stlari bilan sayohat uyushtirib kelishmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda boshqa avtoullovlar orqali ham turizm anchagina rivojlantirilyapti. Masalan temir yo'l transporti Hozirgi kunda turistik sayyohlar uchun eng keng tarqalgan avtoullov xizmati bulib xizmat qilyapti.

Transport turizmni rivojlantirishning etakchi omilidir. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida turizmni rivojlantirishda erishilgan yuqori ko'rsatkichlar transport sohasidagi ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari bilan bevosita bog'liqdir. Sayohatning ommaviy hodisaga aylanishi (shu jumladan, sayyohlik maqsadida sayohat) transport tizimidagi deyarli inqilobiy o'zgarishlarga bog'liq. Ushbu o'zgarishlar temir yo'llar va bug' lokomotivi, so'ngra avtomobil va keyinchalik samolyot yaratilishi bilan boshlandi, u endi odamlarning ommaviy harakatlanish vositasiga aylandi.

Turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, turizm tarmog'ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish maqsadida, 2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish chora tadbirlari olib borilmoqda.² Unga ko'ra:

“O'zbekiston turizm magistrali” turizm transport koridori bo'yab avtomagistral yo'llari va yo'lbo'yi infratuzilmasi holatini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shartsharoitlar yaratish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tashkil etilishi;

Yetib borish qiyin bo'lgan va chekka joylarda (aholi yashash punktlaridan kamida 10 km yoki qattiq qoplamali avtomobil yo'llaridan 5 km uzoqlikda) kempinglar va “safari” turizmni tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan dor (osma) yo'llarini, “banjjamping” va “ziplayn” attraksionlarini, boshqariladigan (dirijabl, havo shari) va boshqarilmaydigan (erkin uchish) aerostatlar, gondolalar, “rafting” va “flaybording” uchun uskunalari, shuningdek, “buggy car”, faetonlar, joylashtirish vositasi sifatida tunab qolish uchun jihozlangan (g'ildirak ustidagi uylar) yoki kafe-furgonlarga aylantirilgan (“fudtrak”) yer usti transport vositalarini ko'paytirish rejalashtirilgan.³

Xulosa qilib shuni aytish joizki, transportsiz turizm bo'lmaydi. Shunday ekan, O'zbekiston hududida ham Yevropadagi kabi transport vositalarini xizmatlarini qulaylashtirish, zamonaviy transport vositalarini ko'paytirish, narxlarni arzonlatish, ularni buyurtma qilishni osonlashtirish va yanada rivojlantirish va shunga o'xshash rejalar bilan turizmga transport xizmatlarini yaxshilash va yurtimizga ko'pgina turistlarni jalb qilish va ularga standartlarga mos ravishda xizmat ko'rsatish va ularda yaxshi taassurot qoldirish bizning zimmamizga yuklatilgan asosiy vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raximberdiyev, I. U. (2021). Transportda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish xususiyatlari, 2020
2. https://www.uzbekistan.travel/storage/app/media/docs/zakoni_turizma/uz/PF-5781-3.08.2019
3. 05.01.2019 yildagi “O'zbekiston Respublikasida Turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF-5611-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (<https://lex.uz/docs/-4143188>)
4. Erkin G'ulomxasanov va Nurbek Abdullayev “Turizmni transport vositalari orqali rivojlantirish”, 2020

Абраев Тўлқин Эсанович
Қорақалпоқ давлат университети
мустақил изланувчиси

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ХИЗМАТЛАР СОҲАСИ РИВОЖЛАНИШИ ҲОЛАТИГА БИР НАЗАР

¹ https://www.uzbekistan.travel/storage/app/media/docs/zakoni_turizma/uz/PF-5781-3.08.2019

² 05.01.2019 yildagi “O'zbekiston Respublikasida Turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF-5611-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (<https://lex.uz/docs/-4143188>)

³ Erkin G'ulomxasanov va Nurbek Abdullayev “Turizmni transport vositalari orqali rivojlantirish”, 2020

Маълумки кенг жамоатчилик муҳокамаси натижасида пўхта ишлаб чиқилган Янги Ўзбекистонни 2022-2026 йилларда ривожлантиришга мўлжалланган Тараққиёт стратегияси қабул қилинди [1]. Стратегиянинг устувор йўналишларида хизматлар соҳасини ривожлантириш муҳим вазифалардан бири этиб белгиланган. Бунда келгуси 5 йилда мамлакат ҳудудларида хизматлар кўрсатиш соҳасини 3 баробарга ошириш назарда тутилган. Қорақалпоғистон Республикасида 2022 йилда жами хизматлар ҳажми 10,4 трлн. сўмни ташкил этиб, 2017 йилга нисбатан хизматлар ўсиш суръати 7,4 фоизга ошган [2].


Қорақалпоғистон Республикаси бўйича хизматлар соҳаси таркибига назар ташласак, асосан, қуйидаги 13 турдаги хизматлардан иборат бўлиб, жумладан:

- ахборот-коммуникация хизматлари;
- молиявий хизматлар;
- транспорт хизматлари;
- турар жой ва овқатланиш хизматлари;
- савдо хизматлари;
- кўчмас мулк билан боғлиқ хизматлар;
- таълим хизматлари;
- соғлиқни сақлаш хизматлари;
- ижара ва лизинг хизматлари;
- компьютерлар, маиший техника, шахсий фойдаланиш буюмларини таъмирлаш хизматлари;
- шахсий маиший хизматлар (сартарош ва гўзаллик салони хизматлари);
- архитектура, муҳандислик тадқиқотлари, техник синов ва таҳлиллар соҳасидаги хизматлар;
- бошқа хизмат турларидан иборат.

2021 йил якунида ҳудудда хизматлар соҳаси таркибида энг катта улуш транспорт (26%), савдо (22,5%) ва молиявий (20,1%) хизматларга тўғри келган. 2021 йилда 2,16 трлн. сўмлик транспорт хизматлари, 1,87 трлн. сўмлик савдо хизматлари ва 1,67 трлн. сўмлик молиявий хизматлар кўрсатилган.

Хизматлар соҳаси таркибида кейинги ўринлар таълим хизматларига (6,4%), ахборот-коммуникация хизматларига (5,4%) ва шахсий маиший хизматларга (сартарош ва гўзаллик салони хизматлари) (3,8%) тўғри келади. Мазкур хизмат турлари 2021 йилда мос равишда 535,8 млрд. сўм, 448,6 млрд. сўм ва 317,8 млрд. сўм миқдорида кўрсатилган.

Таҳлиллар кўрсатмоқдаки, 2021 йил якунида айрим хизмат турлари динамикасида кескин ўсишлар кузатилади. Жумладан, таълим хизматлари 36,3 %га, молиявий хизматлар 27,7 %га, соғлиқни сақлаш хизматлари 22,5 %га, транспорт хизматлари 22,0 %га, кўчмас мулк хизматлари 20,9 %га, компьютерлар, уй жиҳозлари, шахсий буюмларни таъмирлаш хизматлари 19,2 %га ва шунингдек шахсий маиший хизматлар (сартарош ва гўзаллик салони хизматлари) 15,3 %га ошган. Шу билан бирга архитектура, муҳандислик тадқиқотлари, техник синов ва таҳлиллар бўйича хизматлар ҳамда турар жой ва овқатланиш хизматлари мос равишда 1,6 %га ва 1,2 %га камайган.



1-расм. Қорақалпоғистон Республикасида хизматлар ҳажмида туманларнинг улуши

Тахлилларни чуқурлаштирган ҳолда Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудий туманлари кесимида кўриб чиқилганида, 2021 йилда кўрсатилган хизматлар ҳажмининг 43,6 %и Нукус шаҳри ҳиссасига тўғри келган. Ҳудудда кўрсатилган хизматлар умумий ҳажмидаги энг катта улушлар бўйича кейинги ўринлар Қўнғирот (12,8%), Тўрткул (8,5%), Беруний (5,5%), Амударё (5,4%) ва Эллиққалъа (4,7%) туманлари ҳиссасига тўғри келади. Шу билан бирга, кўрсатилган хизматлар умумий ҳажмида Қорақалпоғистон Республикасининг иқтисодий жихатдан паст ривожланган Тахтакўпир (1,2%), Мўйноқ (0,9%) ва Бўзатов (0,4%) туманларининг улуши жуда кам. Лекин айтиш жоиздир, шундай бўлса ҳам айнан қайд этилган туманларда хизматлар соҳасида ўзига хос ўсишлар кузатилмоқда. Мисол тариқасида айтсак, 2021 йилда Тахтакўпир, Мўйноқ ва Бўзатов туманларида ўсиш суръатлари 2020 йилга нисбатан мос равишда 123,5%, 121,1% ва 129,5%ни ташкил этган. Бу эса жиддий катта кўрсаткич.

Хулоса қилиб айтганда, қишлоқ жойларда ресурслар кам талаб этадиган хизматлар соҳасини танлаш, рақамли, онлайн хизматларни ривожлантириш ва кенг қўламда фойдаланиш керак эканлиги ўз исботини кўрсатмоқда. Демак мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш ва унинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини кескин ошириш бир қатор муҳим ижтимоий иқтисодий муаммоларни ҳал этиш, шунингдек аҳолини иш билан таъминлаш, халқ реал даромадларини кўпайтириш, аҳоли барча қатламларининг турмуш фаровонлигини яхшилаш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони. <https://www.lex.uz/>
2. Қорақалпоғистон Республикаси давлат статистика бошқармаси маълумотлари. <https://www.qrstat.uz/>

Ruziyeva Maxbuba Tulkinovna
Buxoro davlat universiteti
Maxmadiyev Abdulkarim To'xtamish o'g'li
Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi

O'ZBEKISTON TURIZM SANOATIDA TRANSPORT XIZMATINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston hududi qadim zamonlardan G'arb va Sharqni bog'lovchi Buyuk Ipak yo'lida joylashgan davlat sifatida mashhurdir. Hozirgi kunda ham mamlakatimizni modernizatsiya qilish, davlat iqtisodiyotini sifat jihatdan yangi zamonaviy tuzilmasini shakllantirish, hududlarni rivojlantirish transport va kommunikatsiya tizimini takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm sohasini ham jadall rivojlantirish uchun ham qulay iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Mamlakatimizda, ichki turizmni tubdan takomillashtirish va rivojlantirish, ichki turizm tarmog'ini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 7-fevralda "Ichki turizmni jadall rivojlantirishni ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"¹gi qarorni imzoladi. Transport sohasida turistlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida turizm uchun Respublikamiz hududiga olib kelinyotgan avtotransport vositalari uchun bojxona to'lovlari 3% qilib belgilab qo'yildi. Xalqaro turizmni rivojlantirish yo'lovchilarga zamonaviy va jahon standartlariga mos tarzda ko'rsatiluvchi xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash uchun 2018-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida qizil va yashil yo'laklar joriy etildi.

Eng muhimi, temiryo'l tarmog'ida xorijiy va mahalliy turistlarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Toshkent-Samarqand-Qarshi-Xorazm shaharlarini bog'laydigan „Afrosiyob“ zamonaviy poyezdlar qatnovi ham joriy etildi.²

Respublika milliy iqtisodiyotida turizm tarmog'ining o'rni va ahamiyati, O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatdagi ustunliklari, xalqaro va ichki turizmga turistlarga xizmat ko'rsatishda

¹ www.lex.uz

² Axmatova m. E. "Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi", №2(2) 2021 "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, 86-90.

transport tarmog'ining ahamiyati mamlakat iqtisodiyotiga ulkan hissa qo'shadi. O'zbekiston azaldan sayyohlarni o'ziga jalb qiladigan maftunkor davlatdir. Mamlakatimiz turistlarga qadimiy va ulkan tarixga ega obidalarni, go'zal va xushmanzara shahar va qishloqlarni, turli-tuman tabiiy landshaftlarni namoyon eta oladi. Shu sababli ham O'zbekistonga butun dunyoda qiziqish kuchli.

Yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash transport xizmatlari ko'rsatishning eng muhim masalasidir. Shu sababdan yurtimizda xorijiy va mahalliy turistlarga sifatli va arzon transport xizmatlarini tashlik etish uchun:

- respublika hududida mahalliy va xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatuvchi "RENT CAR"larni tashkil etish;¹

- transportning barcha tarmoqlari- temiryo'l, havo, avtomobil transportida xizmat ko'rsatishda sifatini darajasini yaxshilash uchun xususiy sektor ulushini ko'paytirish, xususiy yo'llar, davlat xususiy sherikchiligi asosidagi transport sohasida faoliyat yuritadigan korxonalarini shakllantirish;

- transport sohasiga xorijiy investorlarni va kompaniyalarni jalb qilish, ular bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshirish, investitsiyalarni sohaga yo'naltirish;

- xorijiy va mahalliy turistlarga xizmat ko'rsatishda avtotransport vositalarida raqamlashtirilgan to'lov tizimini tashkillashtirish (yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar shular jumlasidandir);

- sayohat mavsumida transport tizimining barcha tarmoqlarida chegirmalar joriy qilish turizm soha transport tarmog'ida xizmat sifati va darajasini yaxshilaydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan transport xizmatining o'rnini juda kattadir. Bu borada transportda tashish xizmatlari bozorini takomillashtirish, raqobat muhitlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 8-avgust 1998 yildagi №346 «Turistik tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi qarori
3. Axmatova M. E. "Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi", №2(2) 2021 "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, 86-90.
4. Kuskov A.S. (2008) Turizm va transport: darslik. -M.: KNORUS
5. В. Г. Гуляев. «Правовое регулирование туристической деятельности». 2003.
6. «Туризм как экономический приоритет» (Серия «Экономика современной России»), Проурзин Л.Ю. 2004 г
7. Технология путешествий и организация обслуживания мижозов. Уч.пособие Черных Н.Б. 2002 г.
8. Жукова М.А. Индустрия туризма: М 2003г.
9. Рузиева М. Т. МЕТОДОЛОГИЯ ГАСТРОНОМИЧЕСКОГО КАРТОГРАФИРОВАНИЯ СТРАН //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 28. – №. 1. – С. 121-125.
10. Рузиева М. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ В ГАСТРОНОМИЧЕСКОМ ТУРИЗМЕ //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 8.

**Boyto'raev Olimjon Uroyimovich
NamMQI mustaqil izlanuvchi,
Boyto'raeva Ma'mura Uroyimovna
NamMQI magistranti**

IQTISODIY INQIROZNI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR

Bugungi kundagi asosiy iqtisodiy muammolardan biri, resurslarning yetishmasligi, ishchi kuchi, yer va kapital kabi resurslar talabga nisbatan yetarli emasligi bilan izohlanadi. Shuning uchun iqtisodiyot kishilik ehtiyojlarining barchasini ta'minlay olmaydi. Insonlarning talablari va istaklari cheksizdir, ya'ni ular hech qachon to'liq qondirilmaydi. Asosiy iqtisodiy muammo esa resurslar yetishmasligi va cheksiz istaklarning ortib borayotganligidir. Iqtisodiyotning asosiy xususiyati resurslardan eng samarali va adolatli foydalanish uchun jamiyatda resurslarni qanday taqsimlash bilan bog'liq bo'lib qoladi.² Bu o'rinda asosiy masalalar quyidagilardir:

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 8-avgust 1998 yildagi №346 «Turistik tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish haqida»gi qarori

² Economic Problems of Scientific and Technical Progress, Leonid V. Kantorovich, The Scandinavian Journal of Economics. [Vol. 78, No. 4 \(Dec., 1976\)](#), pp. 521-541 (21 pages), Published By: Wiley

Nima ishlab chiqarish kerak? Qanday ishlab chiqarish kerak? Kim uchun ishlab chiqarish kerak? Dolzarb iqtisodiy muammolarga misollar orasida tashqi xarajatlar, ifloslanish bilan qanday kurashish mumkin kabi masalalarni keltirish o'rinlidir.

Xususlan atrof-muhit muammolari

Iqtisodiyot an'anaviy ravishda kommunal xizmatlarni maksimal darajada oshirish bilan shug'ullanadi - bu kishilik jamiyatining iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan. Biroq, atrof-muhit barqarorligini saqlashda, agar insonlarning ehtiyojlari haddan tashqari ortib boraversa, bu kelajak avlodlar uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin – masalan: global iqlim o'zgarishlari, qayta tiklanmaydigan resurslarni yo'q bo'lib ketishi kabilar. Yuqoridagi holatlarning salbiy tomoni shundaki, narx mexanizmi kelajakdagi xarajatlarni hisobga olmaydi. – Kelajakning salohiyati ekologik xarajatlar bilan qanday kurashish mumkin?

Monopoliya

Monopoliya asosiy iqtisodiy muammolardan bo'lib, Adam Smit o'zining "Xalqlar boyligi" nomli kitobida ushbu muhim iqtisodiy muammo haqida keltirib o'tadi. Turli sabablarga ko'ra firmalar monopol hokimiyatga ega bo'lishi mumkin - va shuning uchun iste'molchilarga yuqori narxlarni belgilash qobiliyati ortib boradi. Muqobil variantlarning yetishmasligi hisobga olinsa, monopoliyalar iste'molchilar hisobiga yuqori foyda olishlari mumkin, bu esa jamiyatda tengsizlikni keltirib chiqaradi.

Dunyo aholisining 10 foizi hali ham kuniga 1,90 dollardan past daromad bilan kun kechiradi - garchi so'nggi o'ttiz yil ichida bu ko'rsatkich pasaygan.¹

Dunyoning beshta yirik kompaniyalari Apple, Microsoft, Alphabet, Cisco va Oracle jami 504 milliard dollar naqd pul jamg'armasiga ega. (2020) Bu butun dunyo bo'ylab odamlar oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan holda, foydalanilmagan puldir.

Ijtimoiy, tengsizlik muammosi. Qashshoqlikni qisqartirish bilan bog'liq yana bir muammo shundaki, qashshoqlikni kamaytirish choralari kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin – masalan, ko'p maosh oluvchilar uchun yuqori daromad solig'i ishlashga to'sqinlik qilishi mumkin. Kam maosh oluvchilarga imtiyozlar berish mehnatga rag'batlantirishni kamaytirishi mumkin.

O'zgaruvchan narxlar

Ba'zi qishloq xo'jaligi bozorlarida narxlar o'zgaruvchan bo'lsa, narxning tushishi fermerlar daromadining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu hatto ba'zilarning yil faslining yomon kelishi tufayli ushbu sohadan chiqib ketishiga olib kelishi mumkin.

Turg'unlik

Turg'unlik - bu salbiy iqtisodiy o'sish davri - iqtisodiyot hajmining pasayishi. Bu tengsizlik va ishsizlik muammolarini yanada kuchaytiradi. Turg'unlik salbiy iqtisodiy jarayonlarni yanada chuqurlashtiradi. Turg'unlik davrida tovarlarga talabning pasayishi odamlarning ishdan bo'shatilishiga olib keladi. Iqtisodiyotning tushkun ahvoli tufayli ishchilarga talab va taklifi o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi.

Inflyatsiya

Narxlar ish haqi va nominal foiz stavkalaridan tezroq ko'tarilsa, yuqori inflyatsiya jiddiy muammo bo'ladi. Narxlar tez o'sib borayotgan davrda omonatiga ega odamlar o'zlarining haqiqiy boyluklarida pasayish kuzatadilar. Agar narxlar ish haqiga nisbatan tezroq ko'tarilsa, odamlarning sarf-xarajatlari kamayadi. Bundan tashqari, narxlarning tez o'sishi chalkashlik va noaniqlikni keltirib chiqaradi va firmalarning sarmoya va xarajatlarni qisqartirishiga olib kelishi mumkin.

Giperinflyatsiyani boshdan kechirgan mamlakatlarda bu juda ogir davr hisoblanadi. Giper inflyatsiya nafaqat iqtisodiy notinchlikni, balki siyosiy tartibsizliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin, chunki odamlar iqtisodiyotning iqtisodiy holatiga ishonchini yo'qotadi.

To'lov balansi, joriy hisob taqchilligi

To'lov balansidagi joriy hisob taqchilligi iqtisodiyotning eksportga qaraganda ko'proq tovarlar va xizmatlarni import qilishini anglatadi. Ushbu joriy hisob taqchilligini moliyalashtirish uchun ularga moliyaviy kapital hisobidagi profitsit kerak. Ko'pgina zamonaviy iqtisodiyotdagi uchun joriy hisobning kichik taqchilligi muammo emas. Biroq, ba'zi rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun to'lov balansi inqirozini boshdan kechirdi - bu erda katta kamomad qarz olish orqali moliyalashtirilishi kerak va bu holat odatda valyutaning tez devalvatsiyasiga olib keladi. Biroq, bu devalvatsiya import narxini oshiradi, turmush darajasini pasaytiradi va inflyatsiyani keltirib chiqaradi.

Valyuta kursining o'zgaruvchanligi

¹ Examples of economic problems, Tejvan Pettinger studied PPE at LMH, Oxford University.

Ayrim hollarda valyuta kursi iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Gretsiya va Portugaliya kabi mamlakatlarda inflyatsiya darajasi yuqori bo'lganligi sababli ular raqobatbardosh bo'lib qoldi. Eksport pasayib ketdi va ularda joriy hisobdagi katta defitsit yuzaga keldi. Valyuta kursining haddan tashqari qimmatlashishi iqtisodiy o'sishning pasayishiga olib keldi.

Boshqa tomondan, tez devalvatsiya turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, neft narxi tushib ketganda, neft eksport qiluvchi mamlakatlarda eksport daromadlari pasayib, valyuta qiymatining pasayishiga olib keldi. Tez devalvatsiya import narxining oshishiga olib keladi va inflyatsiyaning oshishiga va o'sishning pasayishiga olib keladi.

Ishsizlik muammosi

Rivojlanayotgan iqtisodiyotdagi mamlakatlarda ishsizlik yalpi ichki mahsulotning pastligi va qashshoqlikning yuqori darajasi bilan kuchayadi. Misol uchun, rivojlanayotgan iqtisodiyotda ishsizlik muammosi jiddiy iqtisodiy muammolardan hisoblanadi.

Xulosa o'rinda, iqtisodiy inqirozni hal etishda, yangi infratuzilmalarga davlat investitsiyalari yo'naltirish talabni rag'batlantirishga yordam beradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi. Daromad solig'ini kamaytirish - ishchilarning ixtiyordagi daromadlarini oshirish, ularni sarflashni rag'batlantiradi. Banklarning foiz stavkalarini pasaytirish - qarz olishni arzonlashtiradi va firmalar va uy xo'jaliklarining ixtiyoriy daromadlarini oshirishga yordam beradi, bu esa xarajatlarning oshishiga olib keladi. Shuningdek, yuqoridagi kabi ilmiy-iqtisodiy muammolariga doir tadqiqotlarga ko'proq e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Economic Problems of Scientific and Technical Progress, Leonid V. Kantorovich, The Scandinavian Journal of Economics. Vol. 78, No. 4 (Dec., 1976), pp. 521-541 (21 pages), Published By: Wiley
2. Examples of economic problems, Tejvan Pettinger studied PPE at LMH, Oxford University.

Gapparov Bexzod Nematillayevich
Jizzax Politehnika Instituti,
“Muhandislik va kompyuter grafikasi”
kafedrasida katta o'qituvchisi
Email: bexzodgapparov132@gmail.com

KLASTER DOIRASIDAGI ISHLAB CHIQRISH KOOPERATSIYASINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA SHAKLLARI

O'z mohiyatiga ko'ra, xo'jalik klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasi umumiy maqsadlarga erishish (tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish) uchun bir to'plam doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy birlashuvini yoki o'zaro hamkorlik qilishini o'zida namoyon qiladi.

Tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun korxonalar va tashkilotlar ko'plab turli xildagi materiallar, detallar va hokazolardan foydalanadi, shu sababli ular xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi, yordamchi materiallar yetkazib beruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan o'zaro hamkorlik qilishi va klaster doirasida ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishi zarur. Zamonaviy yuqori texnologik tovarlarni ishlab chiqarish uchun yirik korxonalar ko'pincha o'nlab, ba'zan esa yuzlab mayda korxonalar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi va klaster doirasida ishlab chiqarish kooperatsiyasiga kirishadi.

Ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi mulkchilikning turli shakllaridagi kichik korxonalar hisobidan zarur materiallar, xom ashyo, butlovchi qismlar, yordamchi jihozlar va hokazolarni ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga ko'maklashadi. Shuning uchun ushbu korxonalarning vujudga kelishi ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik yuritish klasterining paydo bo'lishi va uni iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ishlab chiqarish kooperatsiyasining rivojlanishi, qator umumiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan obyektiv sabablar bilan shartlanadi.

Ishlab chiqariladigan tovarlar, bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning turlariga qarab xo'jalik yuritish klasterlarining quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1. Yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchi mustaqil klasterlar.

2. Birlashmalar yoki kombinatlar tarkibidagi (ko'proq butlovchi qismlar, detallar ishlab chiqarish bilan shu(ullanuvchi) klasterlar¹.

3. Xizmat ko'rsatuvchi kichik klasterlar tarmog'i (sho'ba, qo'shma yoki mustaqil klasterlar).

4. Innovatsion turdagi (shu jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi) klasterlar.

O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi klasterlar, asosan, quyidagi shakllarda faoliyat ko'rsatadi:

1. Tashkil etish tashabbuskori davlat xo'jalik organlari va alohida kichik klasterlar;

2. Tashkil etgan tashkilotga nisbatan sho'ba klasterlar;

3. Shartnoma va ijara shakllaridagi klasterlar;

4. Korxonada xo'jalik mehnat shirkati shakli (XMSHSH).

Klaster doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasi uchun quyidagi shart-sharoitlar ta'minlanishi zarur:

1. Ishlab chiqarish kooperatsiyasida kamida ikki tomon ishtirok etadi.

2. Har bir tomon ikkinchi tomon uchun qimmatli (zaruriy) bo'lishi mumkin bo'lgan mulkga ega bo'lishi kerak.

3. Har bir tomon o'z tovari yoki xizmatlarining kommunikatsiyasini amalga oshirishga qodir bo'lishi lozim.

4. Har bir tomon boshqa tomonning takliflarini qabul qilishda yoki rad etishda mutloq erkin bo'lishi zarur.

5. Har bir tomon boshqa tomon bilan hamkorlik qilishning maqsadga muvofiqligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Xo'jalik yuritish klasterlari ishtirokchilarining turli korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi bevosita va bilvosita xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunda kichik klasterlarning turli xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan o'zaro hamkorligi va ishlab chiqarish kooperatsiyasi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Subpudrat. 2. Dilerlar yordamida mahsulotni sotish (mutloq "franchayzing" shartnomalari tizimi)².

Xo'jalik klasteri doirasida ishlab chiqarish kooperatsiyasi shakllari va turlarining xilma-xilligi, muayyan shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, manfaatdor tomonlarning ham bevosita, ham bilvosita o'zaro hamkorligining uyg'unlashuvini nazarda tutadi. Bunda qabul qilingan o'zaro hamkorlik tizimi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

1. Ishlab chiqarishning muvozanatlashuvi; 2. O'zaro hamkorlik qiluvchi xo'jalik subyektlarining o'zini o'zi boshqarishini, ya'ni bu ular faoliyatiga uchinchi tomonlarning, shu jumladan, bozor qoidalariga mos ravishda davlatning aralashuvidan chegaralanishni nazarda tutadi; 3. Xo'jalik klasteri doirasida o'zaro hamkorlik va ishlab chiqarish kooperatsiyasi tizimining o'zini o'zi tartibga solishi; 4. Xo'jalik klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasining o'zini o'zi moliyalashi.

Xo'jalik klasteri doirasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasi tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishning qamrab olinishiga qarab, tarmoq va tarmoqlararo turlarga bo'linishi mumkin.

Анализ сезонности как фактора развития туристической отрасли так же является актуальной темой исследования и проводился многими авторами (Rantala et al., 2019; Fabbri, 2012; Weiermair et al., 2006; Baum and Lundtorp, 2001). Таким образом, зарубежные авторы придают большое значение сезонности как фактору развития туристической отрасли.

Недостаточное внимание к разработке и формированию туристских зон территории приводит к тому, что полноценно функционируют только отдельные инвестиционные проекты. По этой причине в долгосрочной перспективе отсутствует стабильный рост доходов от туризма и посещаемости территории (Александрова, 2015).

Региональные Программы и Стратегии развития туризма территорий являются действенными методами продвижения туристической отрасли (Тохилов, 2017; Хашимов и Ким, 2014). Показатели оценки исполнения указанных программ и их результативности также является предметом исследования в области туризма (Вершинина и Орлова, 2019).

Анализ сезонности как фактора развития туристической отрасли так же является актуальной темой исследования и проводился многими авторами (Отто и Редькин, 2015; Рахимов и Курбанова, 2012; Хамзаева, 2019; Хашимов и Ким, 2014). Таким образом, и зарубежные и отечественные авторы придают большое значение сезонности как фактору развития туристической отрасли.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

В настоящее время важнейшей задачей туризма в Узбекистане является восстановление туристических потоков и развитие туристических маршрутов. Решение этой задачи в первую очередь связано с развитием туристского потенциала регионов. Туризм должен быть эффективным средством развития экономики не только в таких признанных туристических центрах, как Самарканд, Бухара, Хива, но и во всех регионах нашей страны.

Например, Сурхандарьинская область является одним из уникальных и перспективных туристических направлений нашей страны. Область обладает большим туристическим потенциалом, за январь-декабрь 2019 года область посетило около 622 тысяч туристов, из них 502 тысячи местных туристов, около 120 тысяч граждан иностранных государств. О развитии туристического предложения в Сурхандарьинской области можно судить по следующим данным (таблица 1).

Таблица 1

Развитие туристских организаций в Сурхандарьинской области в 2019 году.

№	Название индикатора	Количество		Изменение	
		2018 год	2019 год	+/-	%
1.	Количество средств размещения, штук	33	46	+16	139,4
2.	Место в них, место	1409	1988	+579	141,1

Training highly educated economists based on economic research: problems and innovative solutions

3.	Частные гостевые дома, шт.	1	65	+64	-
4.	Количество туристических организаций, шт.	16	36	+20	225,0
5.	Туристические транспортные средства, шт.	22	24	+2	109,1

Источник: Таблица подготовлена на основании данных Управления статистики Сурхандарьинской области.

Как видно из таблицы, 2019 год стал переломным в туристической отрасли Сурхандарьинской области. Стремительный рост туристического потенциала порождает положительные впечатления у приезжающих туристов. Стремительное развитие туристической отрасли в регионе создает ряд проблем, которые можно назвать «проблемами роста». Наш вывод – резкое увеличение потока туристов по сравнению с 2018 г. (табл. 2).

Таблица 2

Развитие туристической отрасли Сурхандарьинской области на 2015-2019 годы

№	Название индикатора	Сумма по годам				
		2015	2016	2017	2018	2019
1.	Всего туристов, чел.	42051	49986	58318	82350	621556
	В том числе					
2.	Иностранцы туристы, человек	7462	8052	9754	32050	119 756
3.	Местные туристы, человек	34589	41934	48564	50300	501800

Источник: Таблица подготовлена на основании данных Управления статистики Сурхандарьинской области.

Видно, что в 2019 году поток туристов увеличился почти в восемь раз. Это непростая ситуация, но она свидетельствует о необходимости признать, что вся туристическая среда в регионе изменилась. Необходимо пояснить причины данных этой таблицы, так как турпоток в 2019 году сильно отличается от предыдущих лет и его сложно объяснить простыми аналитическими принципами.

Прежде всего, резкое увеличение потока иностранных туристов (рост в 3,7 раза по сравнению с 2018 годом) можно рассматривать как результат политики открытости с соседними странами, проводимой Президентом нашей страны Шавкатом Мирзиёевым. В прошлом году гражданам Таджикистана разрешили свободно посещать. Точно так же увеличился приток афганских граждан в экономику Узбекистана с целью инвестирования и ведения бизнеса.

Мы считаем, что увеличение внутреннего туризма почти в десять раз по сравнению с 2015 годом является результатом влияния нескольких факторов. В первую очередь необходимо показать реализацию программы «Поедем по Узбекистану» в регионе. Обозначение туристических мест для посещения, развитие жилой и столовой инфраструктуры, внимание к вопросу транспорта, организация различных мероприятий в рамках программы явно себя оправдали. Кроме того, продвижение новых туристических направлений привлекло население нашей республики в регион с лечебными, паломническими, экологическими и рекреационными целями. В настоящее время в Сурхандарьинской области формируется республиканский рекреационный кластер и проводится политика по управлению им. Разработана и реализуется программа развития туристической отрасли с использованием информационных систем и базы данных рекреационных зон и объектов.

Особенностью туристической отрасли Сурхандарьинской области является наличие, как горного массива, так и водных объектов. Одновременно с этим Сурхандарьинская область — самый южный регион Узбекистана. При этом уникальной характеристикой рассматриваемого региона является разнообразие культурного наследия. Таким образом, природно-климатические условия и разнообразие культурного наследия способствуют туризму в течение всего года.

Перечисленные выше обстоятельства делают потенциально возможным сгладить влияние сезонности на туристическую отрасль данного региона.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Государственный комитет республики Узбекистан по развитию туризма (2020) 'Предоставлен отчет по итогам деятельности Госкомтуризма за 2019 год' [online] <https://uzbektourism.uz/ru/newnews/view?id=964>, (Accessed 11.01.2020).

2. Хамзаева, Д. (2019) “Туристтик маҳсулотлар таклифини мавсумийлаштиришнинг назарий таҳлили” [online] <http://biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/67873-turistik-mahsulotlar-taklifini-mavsumiy-lashtirishning-nazariy-tahlili> (Accessed 07.12.2019).
3. Хамидова, Ф.О. (2017) “Развитие регионального туризма в республике Узбекистан”, Дусенко, С.В., Авилковой, Н.Л. (под ред.), *Современные тенденции и актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в России 2017* материалы международной научно-практической конференции в Москве, Россия, 9-10 марта 2017 г., РГУФКСМиТ, С. 130-136.
4. Хашимов, П.З. и Ким, Т.В. (2014) “Организация и пути совершенствования туристской деятельности в Узбекистане”, *Экономика и финансы*, № 7, С. 43-48.

Salimova S.F.
BuxDU, Turizm va mehmonxona
хо'jaligi kafedrasi o'qituvchisi

JOYLASHTIRISH VOSITALARI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN TURISTIK AGENTLIK LAR NING O'RNI

Hozirki kunda istalgan tadbirkor mehmonxona biznesiga qo'l urarkan, albatta, o'zining xizmatlarini siljitishda birinchi navbatda onlayn band qilish tizimiga ulanishdan boshlasa kerak. Onlayn turistlik agentliklarining (OTA) ko'payishi so'nggi 25 yil ichida biznes va jamiyat raqamlashishining eng yorqin misollaridan biridir. PATA (The Pacific Asia Travel Association)¹ tadqiqotlariga ko'ra qisqa vaqt ichida Booking.com, Expedia va Trip.com kabi ulkan OTAlardan tortib 400 ga yaqin kichikroq OTAlargacha sayyohlik bozorining (mehmonxonalar, aviakompaniyalar, paketli turlar, temir yo'l va kruizlar) o'rtacha 40 foizini egallab olishdi. OTA raqamli bozorlarga aylandi, ular B2B va B2C xaridorlarini barcha sayohat mahsulotlari bilan bevosita bog'laydi. Aslida, OTA-larni elektron tijorat platformasi va sayyohlik agentligining aralashmasi sifatida qaralishi mumkin.

OTAlar, albatta, an'anaviy sayyohlik agentliklarining ma'lum bir bozor ulushini olib qo'ygan bo'lsalar-da, ularning joylarini egallamadilar. Dunyo bo'ylab ko'plab onlayn sayyohlik bozorlarida OTA va an'anaviy sayyohlik agentliklari turli xil rollarni bajargani uchun birga ishlatiladilar. Ko'plab sayyohlik korxonalarini (mehmonxonalar, turoperatorlar va boshqalar) OTAlarni ma'lum bir foizida ishlatadilar, shu bilan birga ba'zi segmentlar ya'ni katta yoshdagilar va texnologiyalardan hanuzgacha foydalanishni bilmaydiganlar uchun an'anaviy sayyohlik agentliklaridan foydalanadilar.

Shimoliy Amerikadagi OTA bozori. Qo'shma Shtatlar dunyodagi eng yirik sayyohlik bozori bo'lib, 2019 yilda 2,1 trln. O'sha yili Qo'shma Shtatlarga kelgan xalqaro sayyohlar soni qariyb 80 millionga yetdi. Phocuswright-ning ta'kidlashicha, OTAning ikkita giganti - Expedia va Booking Holdings OTA bozorining 92 foizini tashkil qiladi, ammo AQShda pandemiya oqibatida onlayn sayohat uchun buyurtma 59 foizga pasaygan².

Janubiy Amerikadagi OTA bozori. Despegar, BestDay.com va Price Travel Janubiy Amerikaning asosiy OTA o'yinchilaridir. OTA-lar Argentinada parvozlar va turar joy hamda Meksikada turar joy izlayotgan iste'molchilar ro'yxatida birinchi o'rinda turadi. Boshqa tomondan, 2020 yilgi so'rov natijalariga ko'ra Braziliyaga Meksikaga parvoz aviachiptalarni qidirish va turar joylarni bronlash uchun birinchi raqamli kanaldir.

Statista ma'lumotlariga ko'ra, Booking.com 2019 yilda 67,7% ulush bilan Yevropaning OTA bozoridagi eng yirik o'yinchi hisoblanadi. Expedia va HRS mos ravishda 12,8% va 6,3% bilan ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egallagan. Phocuswrightning fikriga ko'ra, mamlakatlar bo'yicha Buyuk Britaniyaning onlayn sayohat bozori Yevropada eng yirik hisoblanadi va mamlakatning onlayn sayohat qilish darajasi dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi³.

Booking.com-ga egalik qiluvchi Booking Holdings (rasmiy ravishda Priceline Group) kompaniyasi 2019 yilda dunyodagi yetakchi onlayn sayohat agentligi bo'ldi. Uning yalpi savdosi 96,4 milliard dollarni, bu oldingi yilga nisbatan 2 foizga ko'pdir. Shunday qilib, Booking Holdings va Expedia OTA global bozorida, ayniqsa Shimoliy Amerika va Evropada ustunlik qilmoqda.

¹ www.PATA.org.

² <https://www.phocuswire.com/phocuswright-ota-market-excitement>

³ <https://www.phocuswire.com/phocuswright-ota-market-excitement>

London Universitet Kollejidagi Neyroagnostika markazi tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, odam sayohat qilish, noma'lum va sarguzashtlarni o'rganish uchun tabiiy istakni his qiladi. So'nggi paytlarda sayyohlik agentligi xizmatlaridan voz kechish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shunday qilib, daromad darajasi o'rtacha, yoshi 18-30 atrofida bo'lgan sayohatchi yoshlar orasida o'tkazilgan so'rovga ko'ra¹, odamlarning 58% o'z sayohatlarini mustaqil ravishda tashkil qilishadi. O'z navbatida, biznes eng moslashuvchan tizimlardan biri sifatida odamlarning o'zgaruvchan va rivojlanib borayotgan istaklariga moslashadi. Buning yordamida mustaqil sayyohlik tashkilotini yengillashtirish uchun turli xil xizmatlar juda rivojlangan. Ularning aksariyati sayyoh sayohatni rejalashtirishda paydo bo'ladigan asosiy savoli turar joy bilan bog'liq. Mustaqil sayyohlarning 100 foizi o'zlarining yashash joylarini Internet orqali tanlaydilar. Shu bilan birga, 68% darhol mehmonxonalarni onlayn bron qilish tizimlarining saytlariga kirishadi. 10% Ozon.travel, Ostrovok.ru va Momondo.ru tizimlarini afzal ko'rishadi, 21% Hotellook.ru-dan ham foydalanishadi, ammo bu segmentdagilarning 89%i Booking.com tizimining mijozlari hisoblanishadi.

Ushbu so'rovnoma booking.com saytini tanlaganlarning 64% ma'lumotlar bazasi dunyo bo'ylab 617 mingdan ortiq mehmonxonalarni o'z ichiga olishini sabab sifatida ko'rsatishgan. Shuningdek, 94% saytning qulay interfeysini, 82% - ma'lumotlarning to'liqligini va 29% respondentlar qulay to'lov tizimini va bronni bepul bekor qilish imkoniyatini alohida ta'kidladilar.

Bu tizimda ishtirok etish, ayniqsa, yangi mehmonxonalar uchun zarurdir. Bu agregatorga ishonadigan ulkan auditoriyani jalb qilish va mijozlardan birinchi haqiqiy sharhlarni olish imkoniyatini beradi. Booking.com tizimida juda ko'lab toifadagi joylashtirish vositalari (mehmonxonalar, mehmon uylari, hosteller, motellar, butik otellar) o'zlarining xizmatlarini taqdim etayotganlarini ko'rish mumkin. Dunyo bo'ylab mehmonxonalar va Booking.com xizmati o'rtasidagi hamkorlik o'zaro manfaatdorlikka asoslangan. Mehmonxonaning bunday hamkorlikdan oladigan asosiy afzalligi - bu dunyodagi potentsial mijozlarning ulkan auditoriyasi. Booking.com ularga turar joy variantlarining umumiy ro'yxati orasida bo'lish imkoniyatini beradi va ro'yxatdagi joy mijoz tomonidan o'rnatilgan filtrlar bilan belgilanadi. Shunday qilib, auditoriya segmentlanadi, bu hamkorlik uchun jozibali omil hisoblanadi, chunki maqsadli auditoriyani tanlash biznesning muvaffaqiyati uchun zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, dunyo bo'ylab ko'plab sayyohlar boshqa band qilish tizimlariga qaraganda booking.com tizimini ishonchli va xavzsiz deb bilganliklari sababli joylashtirish vositalarining bu tizimda ro'yxatdan o'tishlari nafaqat o'zlarining xizmat va takliflarini sotishda balki brendni siljitishda, mijozlar auditoriyasini kengaytirishda samarali yo'l sifatida qo'llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. А.Р. Мазурчик Системы интернет-бронирования отелей: взаимовыгодное партнерство как базис для привлечения клиентов (на примере Booking.com) с.255-257.

Marianna Sigala, Roya Rahimi, Mike Thelwall. Big Data and Innovation in Tourism, Travel, and Hospitality/Springer Nature Singapore Pte Ltd. 2019

3. Marta Fernández-Barcala, Manuel González Díaz, Juan PrietoRodriguez. Hotel Quality Appraisal on the Internet: A Market for Lemons?/ Tourism Economics// June 2010. 345-360. <https://www.researchgate.net/publication/230642706>

4. Pa'draig Cunningham Barry Smyth, Guangyu Wu, Derek Greene. Does TripAdvisor Makes Hotels Better?/ Technical Report UCD-CSI-2010-06 December 2010

5. Sarvinoz, S. (2021). The importance of marketing activities in placement tools. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).

6. Isokova, G. S., & kizi Salimova, S. F. (2022). The Influence of Online Reviews on Promotion Accommodation Services. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 367-373.

7. Sarvinoz, S., & Kadirova, S. (2021). Важность веб-сайтов и систем онлайн бронирования в продвижении услуг средств размещений. центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).

8. Sayfullayeva, M. S. (2022). Directions for the Practice of Sustainable Tourism for Ecotourism Destinations in Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 5(12), 98-109.

9. Кадилова, Ш. Х., & Хайруллаева, Н. Н. (2017). Интеграция стратегии на сервисных предприятиях (пример гостиниц бухары" малика"). In Современные тенденции и актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в россии (pp. 462-469).

10. <https://www.stratosjets.com/blog/online-travel-statistics/>

11. www.PATA.org.

12. <https://www.phocuswire.com/phocuswright-ota-market-excitement>

¹ А.Р. Мазурчик Системы интернет-бронирования отелей: взаимовыгодное партнерство как базис для привлечения клиентов (на примере Booking.com) с.255-257.

Умидбек Комилжонович Бобожонов
Урганч давлат университети
“Бухгалтери ҳисоби ва аудит”
кафедраси ўқитувчиси,
32ub23@bk.ru

ЎЗБЕКИСТОНДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИНГ ТАСНИФИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Таъкидлаш жоизки, ҳозирги кунгача жаҳонда аутсорсинг хизматларининг ягона таърифи ва тавсифи мавжуд эмас. Баъзи иқтисодчи олимлар индивидуал хусусиятга эга бўлган ўзларининг шахсий таснифларини илгари сурадилар. Масалан, МДХлик иқтисодчи Аникин Б.А.¹ аутсорсинг лойиҳаларни бозор томонидан тартибга солишнинг ўсиши омилига боғлиқ равишда қуйидагича таснифлайди: *хусусий ишлаб чиқариш; ички аутсорсинг, яъни ўзининг зарур вазифаларини бажариш учун корхона ичида хусусий корхона ташкил қилиш, ташқи аутсорсинг, яъни ташқи корхона аутсорсер билан зарур вазифалар ижросини таъминлаш учун турли муддатларга келишувлар тузиш.*

Таҳлилларимизга кўра, *томонларнинг ўзаро боғлиқлик нуқтаи назаридан* аутсорсинг-лойиҳаларни амалга ошириш доирасида қуйидаги ҳамкорлик шакллари ажратиб кўрсатиш мумкин:

- *мустақил аутсорсинг*, фақат муайян ҳақ эвазига муайян хизматлар кўрсатиш ҳақида ижроси ва буюртмачини ўзаро боғлайдиган келишув;

- *капиталда иштирок этувчи аутсорсинг*, бунда бир томондан акцияларнинг маълум бир улушини ишларни сифатли бажариш ёки узок муддатли ҳамкорликни кафолатлаш мақсадида бошқа томонга бериш кўзда тутилади;

- аутсорсингга тегишли ташқи буюртмаларни бажаришда ҳамда таъсисчи корхона томонидан ички вазифаларни, яъни инсорсинг операцияларини бажаришдаги қўшма корхона хизматлари улуши.

Аутсорсер фаолияти ҳажмига (*аутсорсингга берилган хизматлар ҳажмига*) кўра қуйидаги аутсорсинг турлари фарқланади:

қисман аутсорсинг ёки ауттаскинг, бунда аутсорсер томонидан буюртмачининг айрим вазифаларига бажарилади ва баъзи вазифаларни мустақил бажариш имконияти сақланиб қолингани боис буюртма ижросини кўпроқ назорат қилиш мумкин бўлади. Мисол сифатида аутсорсерни корхона учун янги ходимлар топишга жалб қилишни оладиган бўлсак, буюртмачи ташкилот томонидан ходимлар билан боғлиқ бўлган вазифалар мустақил бажарилишда давом қилдирилаверади;

буюртмачи ташкилот томонидан барча бизнес-жараёнларини ташкил қилувчи барча вазифаларни *тўлаллигича аутсорсингга бериш*. Масалан, аутсорсерга қуйидаги бизнес-жараёнларини бериш: *ходимларни бошқариш, бухгалтерия ҳисоби, маркетинг, логистика*. Бунда, ижрочиға муайян ишни бажариш тўлиқ топширилади, масалан, интернет орқали товарларни сотиш ўз ичига сайтни ишлаб чиқиб яратиш, уни ичини зарурий ахборотлар билан тўлдириш, уни янгилаб туриш кабилар аутсорсер томонидан бажарилади;

- асосий ва ёрдамчи барча вазифаларни тўлаллигича аутсорсингга беришни кўзда тутувчи *“виртуал ташкилотларни”* яратиш. Буюртмачи ташкилот бунда *“бренднинг эгаси”* бўлади ва уни ривожлантириш билан шуғулланади. Бунга *“булутли компанияларга”* намунавий мисол сифатида Apple Computer корпорацияси томонидан сотиш бўйича барча асосий операцияларни аутсорсерга топширганлигини айтишимиз мумкин. Мазкур операция фирманинг товар белгисини ишчилар сони кам ва бюджети 1 млн. АҚШ доллари пайтида 100 млн АҚШ долларигача ўсишига имкон берди².

Айрим иқтисодчи олимларнинг ишларида аутсорсингни АКТ аутсорсинги ва бизнес жараёнлари аутсорсингига ажратишади. Фикримизча бундай таснифлаш асосиздек кўринади,

¹ Аникин, Б.А., Рудая И.Л. Аутсорсинг и аутстаффинг: высокие технологии менеджмента: Учеб.пособие. - М.: Инфра - М, 2006. С.5.; Аникин, Б. А. Аутсорсинг: создание высокоэффективных и конкурентоспособных организаций / — М.: Инфра-М, 2007. - 184 с.

² Календжян, С.О. Аутсорсинг и делегирование полномочий в деятельности компаний / С.О. Календжян. — М.: Дело, 2003. С.16.

чунки АКТ аутсорсинги аутсорсингни ишлатиш йўналишини англатса, бизнес жараёнлари аутсорсинги эса аутсорсерни фаолияти ҳажмини англатади. Бундан ташқари, исталган ташкилотнинг АКТ бўлими бошқа бўлимлар каби бизнес жараёнларининг бир қисми саналади.

Аутсорсингни қўллаш мақсадига кўра қуйидаги турлари фарқланади¹:

- “анъанавий” аутсорсинг, бу рақобат устунликларига эришиш учун ихтисослашган компанияга узок муддатга муайян вазифаларни топширишни назарда тутлади;

- *трансформацион аутсорсинг*, аутсорсинг ваколатларига корхонанинг бўлимлари вазифасини бажариб, уни қайта ташкил қилиш бўйича бизнес лойиҳаларни амалга ошириб бозор талабларига мослаштириб янгиланган ҳолда буютмачига қайтариб беришдан иборат;

- *оралиқ аутсорсинг*, аутсорсерга вақтинчалик топширилган вазифаларни ижросини таъминлаш бўйича буюртмачининг ўз ходимлари томонидан янги усулларни ишлаб чиқиш жараёнига аутсорсерларни жалб қилишни англатади.

Ж.Бр.Хейвудга кўра², оралиқ аутсорсингни қўллаш буюртмачининг ўз мутахассислари фаолиятига юқори даражада ишончини билдиради.

Аутсорсинг-буюртманинг ижрочилари сонига кўра қуйидаги турларга ажралади:

- *битта хизмат етказиб берувчисини* жалб қилувчи аутсорсинг;

- *қўшма аутсорсинг*, бунда бир нечта аутсорсерлар жалб қилинади ва бундай шакл жуда қиммат бизнес-лойиҳалани амалга оширишда жуда қўл келади. Чунки, вазифалар ихтисослигига қараб аутсорсерларга таксимланади ва бир қанча ижрочилар бўлгандан кейин хатарлар ўзаро бўлинади.

Таклиф қилинган аутсорсинг таснифлари қуйидаги расмда келтирилган. Ҳозирги вақтга келиб дунёда аутсорсинг компанияларини корхонанинг асосий вазифалари ижроси билан бирга умумхўжалик вазифалаини амалга ошириш ҳам қизиқтирмақда. Шу билан бирга, янги методологияни асосий соҳаларини ажратиш кўрсатиш мумкин. Нисбатан умумий ҳолда олганда аутсорсингни ишлаб чиқариш аутсорсинги ва хизматлар аутсорсинги деб таснифлаш мақсадга мувофиқ. Ишлаб чиқариш аутсорсинги ҳам асосий ва ҳам ёрдамчи ишлаб чиқариш аутсорсингига бўлинади. Хизматлар аутсорсинги эса ахборот технологиялари, молия, бошқарув, маркетинг, суғурта, алоқа хизматлари, ходимлар таъминоти ва бошқа хизматларга бўлинади³.

Дунё мамлакатларида оммавийлиги кенг бўлган айрим аутсорсинг хизматларининг рўйхати келтирилган бўлиб, унга кўра энг оммавий аутсорсинг хизматлари тан соқчилик ва хизматлар, транспорт, логистика, ҳуқуқий таъминот, ходимларни ўқитиш, ИТ соҳалари ҳисобланади⁴.

Бугунги кунда Ўзбекистонда ҳам аутсорсинг кўпроқ хусусий аҳамият касб этади, яъни айрим соҳаларгагина жадал кириб келмоқда ва ривожланмоқда ҳамда бу соҳани ривожланишига тўсиқ бўлаётган бир қатор омиллар мавжуд.

Биринчи навбатда аутсорсинг хизматларини кўрсатиш бўйича мукамал меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ёки алоҳида қонуннинг йўқлиги саналади. Аутсорсинг-келишувлари фақат вазифаларни бажариш бўйича ижрочига ваколатларни, хатарларни ва масъулиятни бериш каби жиҳатларнигина қамраб олади. Шу билан бирга, аутсорсинг деган ҳуқуқий институт бизнинг қонунчилигимизда йўқ.

Бундан ташқари, анъанавий ишлаб келаётган, яъни барча вазифаларни кўп йиллар давомида ўзи мустақил бажариб, назорат қилиб келган юртимиз корхоналари учун эски ташкилий тузилмадан аутсорсер фирмалар билан ҳамкорлик қилувчи янги ташкилий тузилмага ўтиш, диверсификациялаш

жараёнлари муракаб кечмоқда. Шунингдек, ҳар қандай корхона ҳам аутсорсинг лойиҳаларини амалга ошира олмайди. Чунки, аутсорсинга ўтиш бозорни ўрганиш, аутсорсинг лойиҳасини бевосита ишлаб чиқиш, тайёрлаш билан боғлиқ бир қатор таклифларни, жараёнларни аутсорсерга бериш билан боғлиқ муайян моддий ва меҳнат харажатларини талаб қилади.

Кичик ва ўрта корхоналарга нисбатан “диверсификация- аутсорсинг” масалалари жуда ўткир муаммо саналади. Чунки, компаниянинг ўлчамлари кичик бўлганлиги сабабли бозорга таъсир

¹ Ўша жойд: қаранг

² Хейвуд, Дж. Брайн Аутсорсинг: в поисках конкурентных преимуществ / - М.: Издательский дом «Вильямс», 2004. С.40.

³ Бизнес-модель XXI века - оболочечная компания, которая занимается лишь маркетингом и брендингом // Бизнес-технологии. — 2005. - № 7. — С. 30-34.

⁴ Мельник, О. Аутсорсинг: от мечты к реальности [Электрон.ресурс] /-2010.— Режим доступа: <http://www.crn.ru/numbers/spec-numbers/detail.php?ID=31888>

қилиш ва истиқболли фаолият йўналишларини аниқлаш имкониятлари мураккаб. Бошқа томондан эса, барча фаолият йўналишларини бирдек ривожлантириш ҳамма йўналишлар бўйича муқим мавқеларни сақлаб туришни хавф остига қўяди. Ғарб тажрибаси кўрсатишича, халқаро рақобат кучайиши билан кўпгина диверсификация қилган компаниялар ё асосий фаолият турига диққат эътиборини қаратади ёки касод бўлди¹.

Бизнинг республикаимиз мисолида кўрадиган бўлсак, биздаги бизнес ҳажми ғарбникидан анча кичик ва шу сабабли аутсорсингни қўллаган ҳолда халқаро бозорларга чиқиш имкониятлари нисбатан яхши саналади.

Аутсорсинг хизматлари ривожланишидаги тўсиқлардан бири ташкилот корпоратив тузилиши янги концепциялари бўйича бошқарув ходимларининг етарлича тажрибага эга эмаслиги саналади. Бошқарув ходимларининг касбий даражасини ошириш ҳақида гапирар эканмиз, Ўзбекистон шароитида кичик ва ўрта бизнес вакиллари, мулкдорлар нафақат иқтисодий маълумотга эга эмас, балки компания фаолият юритиши соҳасида ҳам маълумоти йўқ ўрта маълумотли ёки ўрта махсус маълумотли шахслардир. Рақобатни кучайиши раҳбариятдан бизнесни ривожлантириш стратегиясига эътибор қаратишни талаб қилади, чунки айрим ҳолларда компаниялар стратегияни муҳимлигини инобатга олмасдан оператив ишлар билан шуғулланишади.

Миллий корхоналаримизнинг халқаро бозорларга чиқишлари учун аутсорсер корхоналар салоҳиятли ривожланган давлатлар ҳамкор ва шерикларини бизнинг ташкилотларга нисбатан шаклланган муносабатлар каби тўсиқларни енгиб ўтишлари керак. Чунки, миллий ва бошқа ғарб компаниялари корпоратив маданияти ўзаро бир биридан тублан фарқ қилади. Жаҳон мамлакатларидаги шерикларни миллий ўзига хос хусусиятларимизни тўлиқ англайди деб бўлмайди.

Бундан ташқари, миллий корхоналаримиз ўз товар ва хизматларини халқаро бозорларга олиб чиқиш билан боғлиқ малака кўникмаларини тўлдириб боришлари керак бўлади.

Бундан ташқари, миллий аутсорсинг бозоримизни ривожланишидаги жиддий тўсиқлардан бири бизнеснинг шаффоф эмаслиги саналади. Аутсорсерга молиявий ҳисоботларни ёки умумовқатланишни ташкил қилиш вазифасини бериш томонларнинг ўзаро ишонч даражалари бўлишлигини талаб қилади. Шунинг учун ҳам, бугунги кунда айрим корхоналар солиққа тортишни оптималлаштириб, молия-хўжвлик фаолиятининг кўрсаткичларини атайлаб пасайтириб кўрсатганлари ҳолда ўзларини кредитга қобил эмаслик, келгусида бизнесни ривожлантириш учун инвестициялар жалб қила олмаслик каби обрўсига сунъий путур етказиш каби муаммога дуч келадилар.

Шундай бўлишига қарамасдан, Ўзбекистон шароитида бугунги кунда мактабгача таълим, халқ таълим, соғлиқни сақлаш тизими ташкилотларини аутсорсинг тизимига ўтказиш бўйича кенг қамровли амалга оширилмоқда.

Айрим муаллифлар тахминларига кўра, вақт ўтиши билан ихтисолашув шу даражага бориб етадики, компаниялар фақат бизнес-занжирларни куришдан бошқа иш қилиши шарт бўлмай қолади².

Бизнинг фикримизча, аутсорсингнинг келажаги асосан “қурук, бўш истеъмолчилар” бўлган “виртуал ташкилотларни” кенг тарқалишида эмас, балки айнан компанияларни қатъий ихтисослашувидадир. Бундай ижро учун ноихтисослик йўналишидаги вазифаларни ташқи ташкилотларга бериш, истиқболда ўз соҳасида профессионал компанияларни ташкил қилинишига олиб келади. Бунда аутсорсинг ҳар бир тармоқда маҳсулотларни амалий жиҳатдан такомиллаштиришда алоҳида ўрин тутади.

Хулоса қилиб айтганда, фаолиятнинг асосий йўналишига эътиборни қаратиш тамойили нуқтаи назаридан қарасак, аутсорсингнинг ривожланиши билан жуда кўпчилик компаниялар ҳам буюртмачи, ҳам аутсорсинг хизматлари етказиб берувчиси сифатида майдонга чиқади.

¹ Михайлов, Д. М. Аутсорсинг. Новая система организации бизнеса: учебное пособие / Д.М. Михайлов. - М.: КНОРУС, 2006. - 256 с.; Михайлова, Е.А. Бенчмаркинг — М.: ООО «Благовест- В», 2003.С.13; Новая экономическая энциклопедия / Е.Е. Румянцева. — 2-е изд. — М.: Инфра - М, 2006. - 810 с.

² Михайлова, Е.А. Бенчмаркинг — М.: ООО «Благовест- В», 2003.С.13; Новая экономическая энциклопедия / Е.Е. Румянцева. — 2-е изд. — М.: Инфра - М, 2006. - 810 с.

BIZNESNI MUVAFAQQIYATLI YURITISHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI

Kuchli raqobat sharoitida tadbirkorlar tomonidan marketing strategiyasini muvafaqqiyatli ishlab chiqish va uni amalga oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki, tizimli va samarali o'tkazilgan marketing tadqiqotlari tadbirkorga biznes yuritish uchun asosiy g'oyalarni izlash, potensial bozor va iste'molchilar haqidagi qimmatli ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

Amerika Marketing Assotsiatsiyasining ma'lumotlariga ko'ra¹, marketing tadqiqotlari "tovar va xizmatlar marketingi bilan bog'liq muammolar haqida ma'lumotlarni tizimli yig'ish, qayd etish va tahlil qilishni" o'z ichiga oladi. Bonita Kolbning ta'kidlashicha, marketing tadqiqotlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun juda muhimdir². Iste'molchiga yo'naltirilgan kompaniyalarning faoliyatida o'tkaziladigan tadqiqot jarayonlarida asosan ijtimoiy so'rovlar, intervyular hamda strategiyani ishlab chiqish uchun zarur faktlarni yig'ish maqsadida keng tarqalgan bozor kon'yunkturasi tahlili va raqobat strategiyalarini baholash chun biznes-tahlil modellaridan keng foydalaniladi³. Celine Roquening fikricha, marketing tadqiqotlari ma'lum bir usul yoki faoliyat bilan bog'liq emas, bu shunchaki korxonalar o'zlarining potensial mijozlari haqida ko'proq bilishga urinishlaridir⁴. Marketing tadqiqotlarini o'tkazish orqali korxonaning hozirgi va kelajakdagi strategiyalarini boshqarish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilishga erishiladi⁵.

Mak Daniyel va Geysning fikriga ko'ra, "Biznes tadqiqotlari – bu biznes qarorlarini qabul qilish uchun tegishli ma'lumotlarni rejalashtirish, to'plash va tahlil qilish va ushbu tahlil natijalarini rahbariyatga yetkazishdir"⁶. Shu sababli, Kenneth Le Meunier-FitzHugh "tizimli va samarali marketing tadqiqotlarini tashkil etish orqali tadbirkorlar marketing samaradorligini baholash, mijozlar xatti-harakatlarini aniqlash va ularning ehtiyojlarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar"⁷ – deb ta'kidlaydi. Demak, marketing tadqiqotlari tadbirkorning mahsulot yoki xizmatlarini kim sotib olayotganini, mahsulot yoki xizmatni kim xarid qilmayotganini, ularning sotuv qarorlarini qabul qilishiga qaysi omillar ta'sir etishini, xaridorlar brendga sodiqmi yoki yo'qligi kabi muammoli savollarga javob izlashga yordam beradi, bu esa vaqt o'tishi bilan savdolarining oshishiga olib keladi.

Marketing tadqiqot usullari biznesga tegishli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun foydalaniladigan texnika va vositalarni anglatadi. Ushbu usullar biznes rahbarlariga istiqbolli qarorlar qabul qilishda va maqsadli auditoriya, mijozlar xatti-harakati va tanlovlari asosida samarali strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradigan ma'lumotlarni to'plash uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekistonlik tadbirkorlarga samarali marketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun quyidagi zamonaviy tadqiqot usullari tavsiya etiladi:

- So'rov usuli – ushbu tadqiqot yordamida so'rovnomalar respondent sifatida ishtirok etuvchi iste'molchilardan olinadi. Ushbu so'rovlar oflayn va onlayn tarzda o'tkazilishi mumkin.
- Fokus-guruhlar – bunda odamlarning katta guruhining reaksiyalarini aniqlash uchun yangi mahsulot yoki brendga munosabati o'rganiladigan turli xil odamlarning kichik to'plamidir. Ular bildirgan fikrlar korxonalarga o'z mahsulotlari, xizmatlari va brend tasvirini yaxshilashga yordam beradi.
- Intervyu usuli – sifatli tadqiqot usuli bo'lib, respondentlar bilan suhbatlashish va mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish uchun ochiq savollar berishni o'z ichiga oladi.
- Kuzatuvga asoslangan tadqiqotlar – bunda xaridorlar bilan o'zaro ta'sirning qaysi jihatlari yaxshi ishlashi yoki qaysi birini yanada yaxshilash zarurligini bilish mumkin.
- Dala sinovlari – uning yordamida tatib ko'rish va foydalanuvchi sharhlarini to'plash mumkin.

¹ John Shaw, Sak Onkvisit. [Marketing research and information system](https://dx.doi.org/10.4324/9780203930069-14). International Marketing (2021).
<https://dx.doi.org/10.4324/9780203930069-14>

² Bonita M. Kolb. Absolute Essentials of Marketing Research (2021) <https://dx.doi.org/10.4324/9781003165194>

³ R Rajagopal. [Marketing Research: Fundamentals, Process, and Implications](#) Business Issues, Competition and Entrepreneurship (2018), p 260 (32).

⁴ Celine (CX) Roque. (2020). 7 Reasons Why Marketing Research Is Important to a Business. *Envato Tuts+*.

⁵ [Exploring Marketing Research](#) William G Zikmund, Barry J Babin. *Marketing Research* (2019)

⁶ <https://www.toppers4u.com/2021/01/business-research-definition-role.html>

⁷ Kenneth Le Meunier-FitzHugh. [Marketing research](#). Marketing: A Very Short Introduction (2021)
<https://dx.doi.org/10.1093/actrade/9780198827337.003.0002>

To'g'ri tanlangan tadqiqot usullari xaridor va raqobatchilar haqida chuqurroq o'rganish imkonini beradi¹ va shuningdek, tadqiqot jarayonlarida sifat hamda miqdoriy tadqiqot usullaridan foydalanish zarur². Ushbu tadqiqotlar biznesda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi, chunki shu orqali tadbirkorlar xarajatlarni qanday kamaytirishni hamda foyda kelishi mumkin bo'lgan sohalarga ko'proq sarmoya kiritish mumkinligini bilib oladilar.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, marketing tadqiqotlari tadbirkorlik faoliyatida bozor, xaridorlar va raqobatchilarni tezkor o'rganishning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ushbu tadqiqotlar tadbirkorlarga bozordagi talab va taklifni tushunishga yordam beradi. Marketing tadqiqotlaridan foydalanish korxonalariga xarajatlarni kamaytirishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, biznes tadqiqotlari kompaniyaga bozor va uning tendensiyalaridan xabardor bo'lishga imkon beradi hamda mavjud raqobat maydonida oldinda qolish uchun zarur innovatsiyalar qachon va qaysi usulda joriy etish kabi savollarga javob izlashga yordam beradi.

**Yulduz Khayitova ,
First grade master
faculty of Tourism and Economics
Bukhara State University**

DEVELOPING TENDENCIES OF RELIGIOUS TOURISM IN THE WORLD.

Tourism is one of the rapidly developing sectors of economy in many parts of the world. Development of tourism not only alters the environment, but also changes the landscape of the place where it occurs. Because of its financial attractiveness the competition in tourism market is also increasing, and tour operators of touristic destinations are trying hard to find and create new tour packages, tour routes to attract tourists to their sites and take larger share in world tourism market. One of this new tourism type is religious tourism.

In fact, religious tourism is not a new concept. People have been traveling to religious sites for ages, but usually, this travel was restricted to people from the highest echelons of society. These people used to club religion, culture, and leisure activities to enjoy their travel. Today, religious tourism is a niche market, with people traveling within their country and overseas to specifically visit religious destinations because of their beliefs.

In general, when a person travels to a pilgrimage site primarily based on their religious belief, it is known as religious tourism. These travelers perform pilgrimage as a way to worship and enjoy salvation. However, there are Muslim and Jewish travelers who go for pilgrimage because it is obligated by their religion.

And today the religious tourism market covers a broad range of tourism products, including pilgrimage trips, visiting sacred sites, church tourism, travel for worship and religious missions. According to the religion, country and pilgrims the religious tourism market can be divided into several categories or destinations. For example, a large part of European residents are Christian, so halal tourism has been growing in the last few years, as well as the demand for spiritual tourism. Important target markets in Europe include Germany, the United Kingdom and France. The COVID-19 pandemic has had a great impact on the religious tourism market.

In order to develop the religious tourism market and target it through our country – Uzbekistan, there is need to do research on other foreign countries experience in religious tourism.

After researching statistics and religious tour operators around the globe, it has become clear that, in Uzbekistan we do need create special web sites, special tour operators and agencies, hotels and other services, as well in order to increase the capacity of pilgrimage tourism in our country.

It is not a secret that, before visiting a certain country guests must be aware of the religion aspects of specific destinations, and make sure to take into account all aspects of it, especially host country's habits and believes. This includes anything from food to the time of certain events, to the music played, to religious calendars. If not all parts of your product are well established and connected, you may lose customers. So

¹ Jerome M. Juska. [Marketing Research Methods](https://dx.doi.org/10.4324/9780367443382-3). Integrated Marketing Communication (2021) [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.4324/9780367443382-3](https://dx.doi.org/10.4324/9780367443382-3)

² Naresh Malhotra. [Marketing Research: An applied orientation](https://www.mendeley.com/catalogue/d615e80e-0802-3e64-a849-2568af04c115) Marketing Research (2019). <https://www.mendeley.com/catalogue/d615e80e-0802-3e64-a849-2568af04c115>

in Uzbekistan there should be created special blogs, chat rooms, where travelers can talk and ask interested them questions from localities.

Another point is that, different religious people need different approach to fulfill their needs and wishes, so in Europe there are several tour operators for various groups, such as tour operators that organise faith trips to see what Globus Faith focuses on Christians, Dham Yatra on Hinduists, and Asia Buddhist on Buddhists.

In conclusion, in order to rise the level of pilgrims in Uzbekistan several Steps must be taken. First of all, Uzbekistan religious tourism market niche should be segmented according to the religion of pilgrims. Secondly, tour operators and other sectors in tourism must be creative about possible streams of revenue. Among the many goods and services related to religious or spiritual tourism, souvenir items, religious books, outlets for halal or kosher food, faith-based music, spiritual or faith-based centres in local communities should be considered.

Alimova Shaxnoza Oktyamovna
Buxoro Davlat Universiteti o`qituvchisi,
Moxichehra SHodiyeva Shokir qizi
Buxoro Davlat Universiteti Iqtisodiyot va Turizm
fakulteti 3-1MX-21 guruh talabasi
moxichehrashodiyeva08@gmail.com

O'ZBEKISTONDA AVTOMOBILLARNI IJARAGA BERISH XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq xizmat ko'rsatish sohasidagi turizm xizmatlari iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida ko'rilib, unga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xizmatlar rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qonunlar va qarorlar qabul qilindi va bu ishlar hozirgacha davom etmoqda.

Hozirgi davrda turizm sohasida raqobat muhiti juda muhim bo'lib, bozor munosabatlarining murakkabligiga qaramay, O'zbekistonda qator turistik korxonalar va mehmonxonalar tashkil etilmoqda, lekin ularning ko'pchiligi ma'lum vaqtdan so'ng raqobatga bardosh berolmay turizm bozorida chiqib ketmoqda.

Transport xizmatlari faoliyat turi sifatida yo'lovchilarni tashishi bilan uzviy bog'liq va shu qatorda uni transport ta'minotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Transport ta'minoti infratuzilmaning muhim elementi hisoblanadi va transport xizmatlari tarkibiga kiritilgan asosiy kompleks xizmatlarni tashkil etadi.

O'zbekistonda ham RENTCAR.UZ mavjud bo'lib, bu O'zbekiston bozorida katta tajribaga ega bo'lgan avtomobillarni ijaraga beruvchi kompaniya hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy ishlab chiqarilgan avtomobillarning keng tanlovi. Kompaniya ijaraga berish, transport xizmatlari, aeroportda kutib olish va kuzatish, sayyohlik sayohatlar xizmatlarini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yaqinda qabul qilingan turizmni rivojlantirishga doir qarorlari ijrosi doirasida xususiy kompaniyalar bilan hamkorlikda avtomobillarni ijaraga beruvchi Rent-Car servisini tashkil qilish bilan bog'liq ishlar boshlandi. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi matbuot xizmati shu haqida xabar berib o'tdi.

Ishbilarmonlar loyihaga katta qiziqish bildirishdi va bu yo'nalishda malum bir namunalarni tayyorlangan. Mazkur xizmat turi Buxoro bilan bir qatorda Toshkent, Samarqand, Xorazm va boshqa turistik markazlarda tajriba sifatida yo'lga qo'yilmoqda.

Avtomobillar ijarasi muayyan muddatga (bir necha soatdan bir necha oygacha) haydovchisiz avtomobilni berishni ko'zda tutadi. Ijarani rasmiylashtirish uchun passport va shu bilan birga xalqaro namunadagi haydovchilik guvohnomasi ham talab etadi .

Mazkur xizmat turidan nafaqat O'zbekiston fuqarolari, balki chet ellik fuqorolar ham foydalanishi mumkin. 2018 yilning 3 fevralida qabul qilingan "Ichki turizmni tezkor rivojlantirishga doir chora-tadbirlar"¹ to'g'risidagi 5326-sonli qaror shundan dalolat beradi.

¹ "Ichki turizmni tezkor rivojlantirishga doir chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-5326-sonli qaror 2018-yil 3-fevral

O'zbekistonda avtomobilni ijaraga olish uchun kamida 2 yil haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lishingiz kerak¹, garchi bu muddat turli transport vositalari toifalari uchun farqlanishini yodda tuting. Mashina ijaraga olishning yaxshi tomonlari shundaki, oylik to'lov odatda an'anaviy avtokredit to'lovidan past bo'ladi. Undan tashqari siz ijara muddati davomida avtomobilingizda zarur bo'lgan ta'mirlash uchun javobgar emassiz. Yangi rusumdagi avtomobilni ijaraga olish sotib olishdan ko'ra arzonroqdir. Mashinani yangilamoqchi bo'lganingizda sotishga urinishingiz shart emas².

Sayyohchilar mashina ijaraga olishni xoxlashlarining sababi, avtomobilni ijaraga olish sizga o'zingizning bo'sh vaqtingizda sayohat qilish va tashrif buyurmoqchi bo'lgan joylarga tez va muammosiz borish imkonini beradi. Bu olib keladigan erkinlik sizga sayohatlaringizdan maksimal darajada foydalanishga imkon beradi, bu sizning yo'lingizni topish uchun qo'shimcha stresssiz.

O'zbekistonda hozirda bir nechta kompaniyalar o'zining ijara xizmatini taklif etadi. Misol uchun Silk Road Explore kompaniyasi. U orqali hozirda siz to'rtta davlatda avtomobilni ijaraga olishingiz mumkin. Ular 4x4 va boshqa qulay avtomobillarning keng tanlovini taklif etadi, ular sizga Silk Route bayramlarini O'zbekistonda maroqli o'tkazishingizga yordam beradi. O'zbekiston bo'yab sayohat qilish uchun avtomobil ijarasi eng qulay variant bo'lib hisoblanadi. Avtomobil sizning ixtiyoringizda bo'lsa, siz ushbu mamlakatlarning istalgan nuqtasiga borishingiz mumkin. O'zbekistonda avtomobilni ijaraga olayotganda siz mahalliy yo'l harakati qoidalarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlarini esda saqlashingiz kerak. Masalan, O'zbekistonda tezlik me'yori buzganlik uchun juda qattiq jazolanadi, shuning uchun mashina ijaraga olayotganda, imkon qadar hushyor va ehtiyot bo'ling. Bunday vaziyatning yagona afzalligi shundaki, shahar va qishloqlardan tashqarida haydashda soatiga 100 kilometr tezlikda harakatlanishga ruxsat beriladi.

Yana bir misol, "Naniko" avtomobillarni ijaraga berish kompaniyasi O'zbekistonning yirik shaharlari, Toshkent, Buxoro, Xiva, Samarqandda o'z vakolatxonalarini ochishga tayyor. O'zbekistonda "Naniko" dan avtomobil ijarasi:

11. Avtomobilni istalgan vaqtda (ishlamaydigan vaqt) istalgan joyga yetkazib berish.
12. Qo'shimcha uskunalar.
13. Ijara narxi QQS va sug'urtani o'z ichiga oladi.
14. Biznes va dam olish uchun sayohatchilar uchun avtomobillar.
15. Onlayn rejimda va telefonda ijaraga oling.
16. Professional xodimlar. Texnik jihatdan eng yaxshi holatda avtomobillar.
17. Past narxlar.

Kompaniya o'zining tejamkor sedanli avtomobillardan tortib, qulay konditsioner minivenlar bilan yakunlangan turli xil transport vositalarini taqdim etadi. Shuningdek, bizda har xil turdagi mikroavtobuslar ham mavjud va eng muhimi, Naniko renta mashinasida jiplar parki bor, ular nafaqat Gruziyaning tog'li hududlarini haydash uchun eng yaxshisidir³⁴.

Yana bir misol, Sixt Uzbekistan korporativ mijozlari uchun Toshkent, Samarqand va O'zbekistonning boshqa shaharlarida 1 oydan 1 yilgacha bo'lgan muddatga avtomobillarni uzoq muddatli ijaraga olish imkoniyatini beradi. Bu pul, resurslari va vaqt qadrini biladigan odamlarga keladigan qaror va bu xizmatga talab tez sur'atlar bilan o'sishda davom etmoqda.

Sixt Uzbekistan'da uzoq muddatli avtomobil ijarasi nima uchun foydali:

- Avtomobillarni sotib olish va ularga texnik xizmat ko'rsatish uchun kompaniyaning xarajatlarini kamaytirish mavjudligi;
- Salonda iqlim nazorati bilan ekonom (Chevrolet Nexia 3) dan premium (Chevrolet Malibu 2)gacha yangi avtomobillarning keng assortimenti mavjudligi;
- Tarif rejalarini aniqlashda har bir mijozga individual yondashuv. Qisqa muddatli ijaraga nisbatan uzoq muddatli ijara uchun stavkalarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin;
- Avtomobillar to'liq sug'urtalangan - uchinchi shaxslarning javobgarligi sug'urtasi, to'liq va to'qnashuvlar sug'urtasi (sug'urta narxi kiritilgan) bo'lib hisoblanadi
- To'satdan buzilish holatlarida mutaxassislarimiz tomonidan doimiy va malakali xizmat ko'rsatish mavjudligi;

¹ O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil transporti tog'risida" gi Qonuni Toshkent 2013 y

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining « Turizm faoliyatini litsenziyalash tog'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi Qarori. // " Xalq so'zi" gazetasi 2003 y 12 noyabr

³ "O'zbekiston Respublikasi 2010 yilga qadar xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora – tadbirlar haqida" gi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007 y 21 maydagi Qarori

⁴ <https://kun.uz/uz/news/2018/02/19/uzbekistanda-avtomobillarni-ijaraga-beruvci-rent-car-markazi-is-bosljadi?q=%2Fnews%2F2018%2F02%2F19%2Fuzbekistanda-avtomobillarni-ijaraga-beruvci-rent-car-markazi-is-bosljadi>

• Avtomobillar geolokatsiya va kuzatuv tizimlari bilan jihozlangan va faqat benzin bilan to'ldirilgan O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarish turizmning eng qiziqarli turlaridan biri hisoblanadi. Avtomobilda sayohat qilib, siz o'z erkinligingizni to'liq his qilasz^{1 2}.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarish – vaqt o'tkazish, yangi hududlarni ko'rish zavqlanish hamda bir qancha qiziqarli odamlar bilan uchrashishning ajoyib usuli. Albatta, buning uchun optimizm, sarguzashtga borish qobiliyati va har safar yangi narsalarni kashf etish istagi kabi fazilatlarga ega bo'lishingiz kerak. O'zbekistonda o'z-o'zini boshqarish faqat bir davlat bilan cheklanmaydi. O'zbekiston bo'ylab ijara avtomobillaridan foydalanish sayohatlarni maroqli o'tishini taminlaydi. Buning uchun siz shunchaki chiroyli suratlar yaratishingiz mumkin bo'lgan joyni tanlashingiz va do'stlaringizni taklif qilishingiz kerak.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. "Ichki turizmni tezkor rivojlantirishga doir chora-tadbirlar" to'g'risidagi PQ-5326-sonli qaror 2018-yil 3-fevral
2. O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil transporti to'g'risida"gi Qonuni, Toshkent 2013 y
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Turizm faoliyatini listenziyalash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori. // «Xalq so'zi» mgazetasi, 2003 y 12 noyabr
4. "O'zbekiston Respublikasida 2010 yilga qadar xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007 y 21 maydagi Qarori
5. [https://kun.uz/uz/news/2018/02/19/uzbekistonda-avtomobillarni-izaraga-beruvci-rent-car-markazi-is-boslajdi](https://kun.uz/uz/news/2018/02/19/uzbekistonda-avtomobillarni-izaraga-beruvci-rent-car-markazi-is-boslajdi?q=%2Fnews%2F2018%2F02%2F19%2Fuzbekistonda-avtomobillarni-izaraga-beruvci-rent-car-markazi-is-boslajdi)
6. <https://naniko.com/car-rental-uzbekistan/>
7. <https://www.sixt.uz/corporate-customers-en/long-term-rental/>

Turobov Sherzod Alisherovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o'qituvchisi
sh.turobov@gmail.com

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINING O'RNI

Daromadlar tengsizligi asosiy ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolayotgan bugungi kunda kambag'allikni qisqartirishda uy xo'jaliklari tadbirkorligining ahamiyati dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Uy xo'jaligi tadbirkorligi an'anaviy bandlik shakllaridan farqli o'laroq, ishsiz yoki o'z ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli daromadga ega bo'lmagan odamlar uchun o'z biznesini yaratish va daromad darajasini oshirish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, uy xo'jaliklari tadbirkorligi mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish hamda aholi bandligi darajasini oshirishga xizmat qilib, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali kambag'allikni kamaytirish va umumiy iqtisodiy farovonlikni yaxshilashga yordam beradi.

Uy xo'jaliklarida tadbirkorlikni rivojlantirish kam rivojlangan mamlakatlarda qashshoqlikni kamaytirishning samarali vositasi bo'lib, daromad olish, ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sish uchun imkoniyatlar yaratadi³.

Kambag'allik - bu kishi yoki oilaning oziq-ovqat, uy-joy, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli darajadagi moddiy resurslarga ega bo'lmaganlik holatidir. Kambag'allik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: daromadning yetishmasligi, bo'sh ish o'rnining yetishmasligi yoqi yo'qligi, daromadning beqarorligi, sifatli xizmatlardan foydalana olmaslik, noqulay ekologik muhitda yashash va boshqalar. Kambag'allik vaqtinchalik yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin va odamlarning sog'lig'i, ta'limi, ijtimoiy alaqalari va jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

¹ <https://ninako.com/car-rental-uzbekistan/>

² <https://www.sixt.uz/corporate-customers-en/long-term-rental/>


³ Abdel-Razek, M., & Abdelfattah, M. S. (2020). The role of entrepreneurship in reducing poverty in least developed countries. Journal of Small Business & Entrepreneurship Development, 8(2), 53-62.

Shu boisdan ham uy xo'jaliklari tadbirkorini rivojlantirish mamlakatdagi qator ijtimoiy-iqtisodiy muammaolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Prezidentimiz 2022 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2022 yilda dehqonchilik qilish maqsadida 100000 ga yer aholiga bo'lib berilishi natijasida 1,5 mln. tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgani, 2023 yilda suv ta'minoti yaxshi bo'lgan 100000 ga ekin maydoni aholiga bo'lib berilishi oqibatida 750000 ta yangi tadbirkorlik sub'ekti shakllanishi va kambag'allik masalasi shu tarzda kamaytirilishi haqida ta'kidladi¹. 2020 yil 26 martda Prezidentning "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli Farmoni bilan hududlarda aholining turmush darajasini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida raqobatbardoshlikni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ulkan vazifalar belgilab berildi². Respublika Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining hududiy bo'linmalari, shahar va tumanlar hokimliklari kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mahallalarda har bir xonadon va oilalarning turmush sharoiti va ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan qatlamini o'rganish, ularni kasbga o'qitish va tadbirkorlikka o'rgatish orqali daromadini oshirish va hududlarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish kabi vazifalar yuklatildi.

Bugungi kunda qishloqlarda ishga joylashish imkoniyatlarining qiyinligi va biznes yuritish og'irligi tufayli, qishloqdan shaharga ko'chib ketadigan fuqarolar sonining ko'payishiga, qishloq va shahar aholisi daromadlari o'rtasidagi tafovutning kattaligiga, bunday jarayonlar davom etaversa qishloqlardagi aholi turmush tarzi og'irligicha qolaverishi davom etaveradi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra kambag'allikni keltirib chiqaruvchi bir qator omillar aniqlandi. Qishloqlarda uy xo'jaliklari a'zolarining kambag'allikka tushib qolishining bosh omili savodxonlik darajasidir, mamlakatda bolalarni maktablarga qamrab olish darajasi 2022 yil holatiga 99,9 foizni tashkil etdi, oliy ta'limning qamrab olish darajasi esa joriy o'quv yilda bor yo'g'i 38 foizga yetkazish maqsad qilgan, bu ko'rsatkich hozirgi davr talabi uchun juda ham past ko'rsatkich hisoblanadi.



1-diagramma. Respublika aholisining kam ta'minlanganlik darajasi (shahar va qishloqlar bo'yicha)³.

Jahon banki tomonidan 2012 yilda tavsiya etilgan kambag'allikni aniqlash mezoniga ko'ra, YaIMning kishi boshiga to'g'ri kelishi hajmi quyidagicha belgilangan:

- kambag'allik chizig'i (2022 yil uchun kishi boshiga YaIM hajmi kuniga) 2,15 AQSh dollari qilib belgilangan;

- o'rtacha daromaddan past (1026-3995 AQSh dollari) bo'lgan mamlakat uchun 3,65 AQSh dollari qilib belgilangan. 2022 yilda O'zbekiston Respublikasida kishi boshiga YaIMning to'g'ri kelishi 2254,9 AQSh dollarini tashkil etganligi uchun mamlakatimiz o'rtacha daromaddan past davlatlar qatoriga kiritilgan⁴;

¹ <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

² <https://lex.uz/uz/docs/-4776669?ONDATE=11.03.2021&ONDATE2=09.11.2021&action=compare>

³ Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta shakllantirildi.

⁴ <https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/17505-2022>

- o'rtacha daromaddan yuqori (3995-12375 AQSh dollari) bo'lgan mamlakatlar uchun 6,85 AQSh dollari belgilangan¹.

Ishdan yoki bandlikdan olinadigan daromad shu qadar past bo'ladiki, natijada insonning eng asosiy minimum ehtiyojlarini qondirish iloji bo'lmaydi va pirovardida kambag'allik yuzaga keladi. Ko'plab mamlakatlarda bo'lgani singari respublikamizning qishloq joylarida istiqomat qiladigan aholining shahar aholisiga nisbatan ta'minlanganlik darajasi past ko'rsatkichdadir.

An'anaviy o'zbek oilalarida ayollarning mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga deyarli yo'l qo'yilmaydi, ayollar farzandlar tarbiyasi va ro'zg'or yumushlarini qilsa yetarli deb hisoblashadi, an'anaviy dunyoqarash bo'yicha ayollarga ish haqi to'lanmaydigan ishchi sifatida qaraladi, ammo zamonaviy bozor iqtisodiyoti bu qarashni xush ko'rmaydi. Oila daromadlarini oshirishda ikki tomon ham birdek xuquq va mas'uliyatga ega. Ayollarning tadbirkor sifatidagi salohiyati keskin past va ularning qishloq xo'jaligiga qo'shayotgan hissasi joylarda kengroq tan olinmaydi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik shakllarini kengaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va qashshoqlik darajasini pasaytirish omili sifatida qarash hozirgi kunga kelib ancha jadallashdi. Xitoyda uy xo'jaliklarida javobgarlik tizimining joriy qilinishi, bozorni erkinlashtirish va tezkor texnologik o'zgarishlar tufayli qishloq xo'jaligi jadal rivojlandi va bu holat qishloqlardagi kambag'allikni keskin kamayishining asosiy sababchisi bo'lgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi, mahalliy va tashqi bozor uchun yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish sohalarida jozibador biznes imkoniyatlarini taqdim etdi. Mamlakatimizda ham uy xo'jaliklari a'zolarining keng qatlamini ish bilan ta'minlash, daromad manbaini shakllantirish va ko'paytirish maqsadida uy xo'jaliklari faolligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda mehnat resurslari tez o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi sababli, aholini manzilli ish bilan ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, tarmoqlar texnologiyasini zamon talablariga moslashtirish, eksport ulushida xomashyo ulushini kamaytirish, resurs tejam texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish, qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi daromadlar tengsizligiga barham berish yo'nalishlari zudlik bilan ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish, ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish va kadrlarga talabning muvozanatini ta'minlash hisobiga aholining kambag'allik darajasini kamaytirishga erishishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 9.04.2023 yildagi 161-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 oktyabrdagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3318-sonli Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 11.10.2017 y.
3. Axmedov U.Q. Qishloq joylarida uy xo'jaliklarining qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish faoliyatini rivojlantirish nomli iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya ishi. -T.: 2018 yil.
4. Abdel-Razek, M., & Abdelfattah, M. S. (2020). The role of entrepreneurship in reducing poverty in least developed countries. *Journal of Small Business & Entrepreneurship Development*, 8(2), 53-62.

Шомиев Голиб Ўктамович

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ РЫНКА МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОБЗОР

Уровень здоровья населения зависит от качества услуг системы здравоохранения страны. Роль государства в области здравоохранения и образования достаточно велика. Создание в стране качественной системы здравоохранения, обеспечивающей сохранение и улучшение здоровья населения, формирование условий для воспитания здорового поколения, является приоритетным направлением государственной политики.

Осуществление справедливой социальной политики, повышение качества оказываемых населению медицинских услуг, развитие человеческого капитала является четвертым ключевым

¹ <https://pip.worldbank.org/home>

направлением экономики на ближайшие пять лет и заложены в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы.

Сфера оказания медицинских услуг в Узбекистане претерпевает за последние годы существенные изменения: наряду с государственными учреждениями здравоохранения, оказывающими бесплатные и платные медицинские услуги, все заметнее становится роль частных медицинских компаний. Особенности и тенденции сферы медицинских услуг, соотношение и взаимодействие государственных и частных медицинских учреждений, стратегия развития, социальная значимость – эти вопросы стоят сегодня как перед государством, так и перед менеджерами медицинских учреждений и затрагивают практически всех.

Вопросы и споры продолжаются и будут продолжаться, причем невозможно представить раз и навсегда найденную оптимальную модель деятельности медицинских учреждений – на разных этапах развития государства, общества и медицинской науки организационные и экономические модели медицинской помощи населению будут изменяться и адаптироваться к существующим условиям, что и будет обуславливать их многообразие.

Стоимостью медицинских услуг и их качеством, то есть проблема затратной эффективности медицинских услуг стала на современном этапе развития здравоохранения одной из ключевых. Первоочередное внимание необходимо уделить повышению качества услуг в семейных врачебных пунктах и поликлиниках. Сегодня учреждения первичного звена имеют потенциал для проведения лечения по 87 видам заболеваний. Для этого необходимо обеспечить данное квалифицированными кадрами, а также 50 видами лекарственных средств и 16 видами медицинских изделий для экстренной помощи¹.

Сегодня в деятельность медицинских учреждений, которых в стране насчитывается более 3 тысяч, внедряются современные технологии. К информационной системе «Электронная поликлиника» подключены учреждения первичного звена.

В связи с этим в областных управлениях здравоохранения планируется введение должности заместителя начальника по цифровизации и развитию государственно-частного партнерства.

Рынок медицинских услуг в Узбекистане претерпевает за последние годы существенные изменения. В 2019 году сектор здравоохранения составил 12,1 трлн. сумов (1,27 млрд. долларов США) – это на 30,5% больше, чем в предыдущий год, и ожидается, что эта цифра будет расти при совокупном годовом росте на 19,1% в местной валюте и на 9,0% в долларах США, что к 2022 году составит 27,96 трлн. сум (3,49 млрд. долларов США)².

В 2021 году объем оказанных медицинских услуг по Республике составил 4032 млрд. сум в текущих ценах, 15,4 раза больше, чем 2010 год. По прогнозным данным этот показатель достигнет до 4644,06 млрд. сум в 2025 году, ежегодный средний прирост составляет 3,5%³.

Анализ оказанных услуг по основным видам экономической деятельности в 2021 году показывает, что в общем объеме оказанных услуг доля торговли занимает – 26,2%, транспортные услуги – 24,4%, финансовые услуги – 20,8%, услуги связи и информатизации – 6,3%, услуги в сфере образования – 3,9%, услуги, связанные с недвижимым имуществом – 2,7%, услуги проживания и питания – 2,5%, индивидуальные услуги – 2,3%, услуги в области архитектуры, инженерных изысканий, технических испытаний и анализа – 2,2%, услуги аренды и проката – 1,9%, услуги по ремонту компьютеров и бытовых товаров – 1,5%⁴.

Доля медицинских услуг составляет всего лишь 1,5% от общего объема оказанных услуг. Это говорит о том, что сильно отстает сфера оказания медицинских услуг по сравнению другими сферами услуг как торговля, финансовые услуги, услуги связи и информатизации⁵.

Таким образом, наличие определенных особенностей в сфере здравоохранения не позволяет рыночным механизмам управлять эффективно рынком медицинских услуг. Основными факторами, отличающими рынок медицинских услуг от других рынков и влияющими на его формирование и развитие, являются – государственное регулирование и кадровый потенциал. Потребность регулирования рыночного механизма производства и распределения медицинских услуг вызвана и наличием таких обстоятельств, что очень часто лицам с низким уровнем дохода наиболее необходима медицинская помощь. Расходы на систему здравоохранения предполагают необходимость вложений в кадровый потенциал данной сферы, которые складываются не только из

¹ www.gazeta.uz

² www.stat.uz

³ www.stat.uz

⁴ www.stst.uz

⁵ www.stat.uz

непосредственных расходов на подготовку квалифицированных медицинских работников, но и на создание педагогических условий и средства профессионального самоопределения специалистов сферы медицинских услуг.

Назаров Назиржон Нарзиллоевич
Ўзбекистон Миллий университети докторанти
E-mail: Nazir_n_n@mail.ru

ХУДУДЛАРНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНСОН КАПИТАЛИНИНГ РОЛИ

Миллий бойликнинг таркибий қисмларидан бири инсон капитали ҳисобланиб, минтақавий сиёсатни шакллантиришда унинг ривожланиши ҳудуд барқарорлигини мустақкамлаш омили сифатида кўриб чиқилиши долзарб ҳисобланади.

Бугунги глобаллашув шароитида инсон капиталининг ривожланиши биринчи навбатда интеллектуал хусусиятларда ҳамда соғлиқни сақлашда киритилган сармоя эвазига келажакда ҳар бир ҳудуд аҳолисининг потенциалини кўтариш учун қолаверса, мамлакатнинг янада барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланиши учун кафолатланган вазифалардан бўлиб қолди. Ҳозирги шароитда унинг аҳамияти ижтимоий ҳаётнинг барча жиҳатларида тобора ортиб бормоқда. Инсон капитали нима ўзи? Унга назарий ва амалий жиҳатдан таъриф бериш мумкин. Бир гап билан айтганда, назарий жиҳат — давлатнинг ёш авлодга — 3 ёшдан 22 ёшгача бўлган йигит-қизларга маблағ киритиш бўлса, амалий жиҳат — жамиятдаги иқтисодий юксалиш ҳодисасидир¹.

Инсон капитали – энг самарали капитал киритишнинг объекти, бу капитал билим ва маҳоратни оширишга хизмат қилиб, келгусида энг юқори самара келтириши мақсадини кўзлашга қаратилган. Бу орқали инсон салоҳиятини ҳамда инсонга инвестицияларнинг иқтисодий хусусиятини эътироф этиш мумкин².

Жаҳон банки³ маълумотларига кўра, ривожланган мамлакатларда миллий бойлик таркибининг 64% инсон капиталига тегишли, 16% хом ашё ва табиий ресурсларга эга эканлиги фикримизнинг исботидир.

Инсон ижтимоий бойликнинг муҳим қисми ҳисобланиб у нафақат асосий восита бу бойликни ишлаб чиқариш жамиятнинг асосий мақсади сифатида қаралади. Бундай фазилатлар одатда расмий таълим ёки инсоннинг амалий тажрибаси, ижодий қобилиятлари, шунингдек, ахлоқий, психологик ва жисмоний саломатлиги, даромад олиш имкониятини берадиган фаолият мотивлари орқали олинган табиий қобилиятлар, билимлар, кўникмалар ҳисобланади.

Бугунги кунда инсон тараққиёти илмий асосга эга бўлиб, ҳар бир минтақада жамиятни юксалтириш мақсадлари миллий ривожланиш дастурларида аниқ мақсадлар асосида амалга оширила бошланди ва халқаро ҳамкорлик лойиҳалари доирасида доимий равишда амалга оширилиб келинади. Бу борада айнан фан, таълим, юқори технологиялар ва соғлиқни сақлаш асосий омилар сифатида янги минг йилликда ижтимоий-иқтисодий ривожланишга эришиш гарови сифатида кўрилади.

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, “инсон капитали ишчиларнинг рақобатбардош позицияларини сезиларли даражада мустақкамлайди. Бу қанчалик муҳим бўлса, ҳудудларда иқтисодий фаоллик ва бандлик шунчалик юқори бўлади. Натижада ишсизликка тушиб қолиш хавфи шунча паст бўлади ва унинг давомийлиги қисқа бўлади. Кўпроқ даромад ва жозибадор иш жойларига ишга киришга интилиш фойизи кўпаяди ҳамда янада интенсив касбий ва ҳудудий ҳаракатчанлик ошади”⁴.

Инсон капиталини ривожлантириш мамлакатнинг барқарор ривожланиши учун энг устувор вазифа ҳисобланиб, мамлакатнинг ривожланиш босқичига ўтиш истиқболлари инсон капиталининг сифати ва тузилишига боғлиқдир. Бу эса ўз навбатида, давлатнинг ушбу соҳадаги аниқ тизимли сиёсатини талаб қилади. Ҳудудларни барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда ҳар бир

¹ <https://yuz.uz/file/newspaper/dd71107cc07f55778af6340d34ef1715.pdf>

² <https://review.uz/oz/post/inson-kapitaliga-sarmoya-yangi-ozbekiston-taraqqiyoti-kafolati>

³ World Development Report 1997. The State in a Changing World [World Bank]. – N.Y., Oxford: Oxford Univ. Press, 1997, June. – 226 p

⁴ Ильин, В.А. Стратегические резервы роста производительности труда в региональной экономике /В.А. Ильин, К.А. Гулин, Т.В. Ускова // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – Вологда: ИСЭРТ РАН, 2010.– № 1.– С. 24-38.

худудга мос чора-тадбирлар, дастурлар ишлаб чиқишда албатта инсон капиталини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади. Бунга кўра, ҳар бир худуд аҳолисининг тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, қишлоқ аҳолисининг билим даражасини ошириш, соғлом турмуш тарзига эътибор бериш лозим.

Қишлоқ жойларда инсон капиталини ривожлантириш чекка худудларни модернизация қилишни жадаллаштиришга ва улардан фойдаланишга оқилона ёндашиш барқарор ривожланишни таъминлайди. Шу билан бир қаторда, худудлар бўйича чора-тадбирлар мажмуи ривожланишнинг ўртача даражаси билан тавсифланган такомиллаштириш йўналишларини ўз ичига олиши керак. Худудларда инсон ресурсларини яратиш ва замонавийликни жорий этиш чоралари зарур.

Умуман олганда, Ўзбекистонда инсон капитали учун катта мақсадлар ва маблағлар сарфланмоқда. Ўз навбатида, халқимизда “Янги Ўзбекистон орзуси” пайдо бўлди. Бу нима дегани? Президентимиз таъбири билан айтганда, Янги Ўзбекистон — барчамизнинг эзгу орзумиз, меҳнаткаш, тинчликсевар халқимизнинг орзуси! Унда халқимизнинг азалий умид-ниятлари, юксалиш сари интилишлари ўзига хос тарзда акс этмоқда.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, мамлакатимиз худудларининг барқарорлигини тавсифлаш, у нафақат иқтисодий вазият ва ишлаб чиқариш салоҳияти, технологиялар ва инфратузилма, балки жуда катта даражада – аҳолининг ҳолати ва динамикаси, унинг миқдорий ва сифат хусусиятлари, иқтисодий фаолият ҳамда интеллектуал салоҳиятига боғлиқдир. Аҳоли миллий бойликнинг энг муҳим таркибий қисми бўлган махсус капитал, инсон капиталининг ташувчиси ҳисобланади, шунинг учун минтақавий сиёсатни шакллантиришда инсон капиталининг ривожланиши худуд барқарорлигини мустаҳкамлаш омили сифатида кўриб чиқиши керак.

Хасанова Нафиса Шавкатовна
Ўзбекистон Миллий университети магистри
E-mail: nxasanova595@gmail.com

ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ БОШҚАРИШ - РИВОЖЛАНИШ ГАРОВИ

Бугунги кунда дунёда глобаллашув шароитида ишлаб чиқариш олдида бир қатор ўзгаришлар рўй берапти. Бундай ўзгаришлар ўз навбатида ишлаб чиқариш мақсадларига таъсир қилмоқда.

Фирмалар бозорда рақобатбардош бўлиши учун кўпроқ ва арзонроқ маҳсулот эмас, балки янгича ёндашувга эга бўлган инсон ресурсларига катта эътибор қаратмоқда. Мутахассислар нафақат жамиятни, балки бутун дунёни рақамлаштиришни ва сунъий интеллектнинг жамиятдаги ролини оширишни ўз ичига олган тўртинчи саноат инқилоби ҳақида фикр юритмоқдалар. Турли хил билимлар, кадрятлар ва умидларга эга одамлар бундай иқтисодиётда ишлашлари, сунъий интеллектни яратиши ва ишлатиши мумкин.

Компанияда муваффақият калити сифатида ташкилотнинг самарали маданиятини ривожлантириш, бугунги кунда мақсадларга эришишнинг муҳим босқичида чиқди. Ташкилотнинг самарали маданияти ходим ўзини ишда оила аъзоси каби ҳис қилганда, ходим компанияда ўзини яхши ҳис қилганда, у бошқа бировнинг компаниясида бўлгани каби эмас, балки ўз компаниясида бўлгани каби ишлашга келганда бундай кадрятлар тизимини шакллантиришга имкон беради.

Ходимларни мунозараларга ва ташкилот муаммоларини ҳал қилишга жалб қилиш ҳам фойдадан холи эмас. Бу ерда ходимлар нафақат мунозарада, балки компания муаммоларини биргаликда ҳал қилишда ҳам иштирок этишларини таъкидлаш муҳимдир. Бугунги кунда анъанавий бошқарув самарасиз, нега деганда, бу ташкилотнинг инновацион ва рақобатбардош бўлишига имкон бермайди. Инновацион иқтисодиётда етакчиликни бошқариш корхона бошқарувида биринчи ўринга чиқиши лозим. Етакчиликни кўпинча корхона эгалари эмас, балки менежерлар амалга оширадilar.

Бугунги кунда менежментнинг асосий муаммоси – бу инсонни функция сифатида эмас, балки шахс сифатида бошқаришдир. Инновацион йўналтирилган иқтисодиётда ижодий ишлаш ва ташаббус кўрсатиш учун ходим нафақат мутахассис, балки шахс сифатида ҳам талабга эга эканлигини тушуниши керак. Бугун биз бўйсунувчини эмас, балки одамни бошқариш ҳақида гапиришимиз мумкин. Қўшма Штатларда инсонни бошқаришда “being” атамаси пайдо бўлди¹. Уни

¹ https://www.onedigital.com/solutions/hr-EiwAErwpexq2te0A5y5JFZye8NXTDZQPrZHxMHgVDnY5NWIN2KP5ZZG24sMunxoCjUgQAvD_BwE

“инсон бошқаруви” деб таржима қилиш мумкин. Инновацион иқтисодиётдаги янги бошқарув парадигмаси шундан келиб чиқадики, бугунги кунда компания, ташкилотни ва ходимларни муваффақиятли бошқариши фақат учта омилни биргаликда кўриб чиқилганда таъминланади: самарали ташкилий маданият, ходимларни бошқариш стратегияси ва ташкилотни бошқариш стратегияси. Ушбу учликни схематик тарзда ифодалаш мумкин:

Компаниянинг муваффақияти ходимнинг интеллектуал ва касбий ривожланишига боғлиқдир. Менежмент соҳасидаги таникли мутахассис Коносуки Матсушита¹ ўз асарларида замонавий шароитда капитал жуда кўп ер, фабрикалар, асбоблар ва машиналар эмас, балки одамларнинг билим ва малакаси эканлигини таъкидлайди. Бундан ташқари, ушбу омилларнинг қиймати доимий равишда ўсиб бормоқда. Ходимларнинг ўз ишларидан қониқиши компаниянинг муваффақиятида жуда муҳим рол ўйнайди. Агар ходимлар ўз ишларидан норози бўлса ва унга жалб қилинмаса, улар юқори кўрсаткичларга эга бўлмайди. Барча ходимлар орасида янги нарсаларни яратиши мумкин бўлган ва яратмоқчи бўлган, кўпроқ масъулиятга эга бўлишни хоҳлайдиган, излаш эркинлиги ва хато бажариш эркинлигини талаб қиладиган билимли ходимлар жамоада мавжуд бўлади. Питер Друкер² бундай ходимларни ақлли ходимлар деб атади. Ривожланишнинг ҳозирги босқичида кадрларга интеллектуал ва одатий ёндашувни ўзгартириш керак. Бугунги кунда ходимнинг ташкилотдаги роли ва ўрни ўзгармоқда. У энди буйруқларнинг ижросиси эмас, балки новатор, янги нарсаларни яратадиган новатордир. Замонавий менежментнинг муҳим инновацион бошқарув вазифаси сифати энг аввало ходимларнинг саломатлиги ва фаровонлигига эътибор қаратилишидадир.

Хулоса қилганда шуни айтиш мумкинки, инсон ресурсларини инновацион бошқариш XXI асрда бизнес амалиётининг воқеаларига асосланган турли хил инновациялар билан узвий боғлиқ бўлиб, бу ахборот технологияларидан фойдаланиш ва психология, психофизиология, социология, иқтисодиёт ва андрология соҳасидаги сўнгги тадқиқотлар натижалари ва янги маҳсулотлар, технологиялар ва хизматларни доимий равишда ишлаб чиқарадиган инновацион муҳитни яратиш орқали ташкилотларнинг рақобатдан бир қадам олдинда бўлиш истагидир. Ташкилотда инсон ресурсларини бошқаришнинг янги ёндашувларини жорий этиш бу бутун ташкилотни инновацион бошқариш билан узвий боғлиқ бўлган мураккаб жараён ҳисобланади.

**Shamurotov Sabirjon Bazarbayevich,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti,
sabirjonshamurotov@gmail.com**

MINTAQADA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLARNI TASNIFLASH.

Suv taqchilligi sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish hozirgi davrda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Suv resurslaridan samarali foydalanishga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularni tog’ri baholash eng maqsadga muvofiq choralardan biri hisoblanadi.

Xorijiy adabiyotlarda qishloq xo’jaligida suv resurslaridan samarali foydalanishlarga ta’sir qiluvchi omillar sirasiga suv-tejovchi sug’orish tizimi darajasi, qishloq xo’jaligi iqtisodiy holati, qishloq xo’jaligi ekinlarini rejalashtirish, ekologik omillar, suv ta’minoti tizimini kiritib o’tganlar³.

Undan tashqari tuproq sharoiti, ob-havo sharoiti, yer fondlari boshqaruv jarayoni ham sezilarli ta’sir qiluvchi omillar sifatida qaraladi⁴. Yerni og’itlash, tuproq tarkibida azot miqdori ham bevosita suv resurslaridan samarali foydalanishga ta’siri yuqori hisoblanadi⁵.

Shulardan kelib chiqib Xorazm viloyat agrar sektorida suvdan samarali foydalanishga ta’sir qiluvchi omillarni quyidagicha guruhlariga ajratdik (1-rasm).

¹ Konosuki Matsushita, «Business mission», M. Alpina Publishers, 2010, c.124-125

² Питер Ф. Друкер, «Классические работы по менеджменту», 2015, с.216-217


³ Wang, W.; Elahi, E.; Sun, S.; Tong, X.; Zhang, Z.; Abro, M.I. Factors Influencing Water Use Efficiency in Agriculture: A Case Study of Shaanxi, China. *Sustainability* 2023, *15*, 2157

⁴ Ibragimov, N., Evett, S.R., Esanbekov, Y., Kamilov, B.S., Mirzaev, L., Lamers, J.P., 2007. Water use efficiency of irrigated cotton in Uzbekistan under drip and furrow irrigation. *Agric. Water Manag.* 90, 112–120.

⁵ [Dilumi W. K. Liyanage](#), [Manjula S. Bandara](#), and [Michele N. Konschuh](#) Main factors affecting nutrient and water use efficiencies in spring canola in North America: a review of literature and analysis. *Canadian journal of plant service*. Volume 102, number 4, August 2022.

Xorazm viloyatida suvdan samarali foydalanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillardan biri ekologik omillar hisoblanadi. Viloyat Orolbo'yi havzasi quyi oqimida joylashgan bo'lganligi sababli Orol dengizining salbiy oqibatlari hudud qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yerlarning sho'rlanish darajasi yuqoriligi, suvning gigienik holati va hudud cho'llanishi natijasida suv samaradorlik pasayishiga va hosildorlikning kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligida suv resurslari samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri suv tejoychi texnologiyalar qo'llanilishi hisoblanadi. Lekin ularni qo'llashdagi ko'plagan to'siqlar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimi tenologiya narxining qimmatligi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi suvdan foydalanuvchilarga bir qator imtiyozlar berilgan.



1-rasm Xorazm viloyatida suvdan samarali foydalanishga ta'sir qiluvchi omillar¹

Mazkur qarorda qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'oriladigan ekin maydonining har bir gektariga subsidiya berish belgilangan. Bunda respublika bo'yicha paxta maydonlari uchun 8 million so'm Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida 12 million so'm, sabzavot va poliz ekinlari uchun 1,5 million so'mdan 2,5 million so'mgacha, mevali ekinlar uchun 6 million so'm, uzum maydonlari uchun esa 8 million so'm mablag' ajratiladi

¹ Manba. Muallif ishlanmasi

Albatta bu imtiyoz STTlar qo‘llanish ko‘lamini oshirishga, natijada suv va mineral og‘itlar sarfi kamayishiga, ishchi kuchi mehnatini qisqartirishga, hosildorlikni oshirishga katta yordam beradi.

Undan tashqari qishloq xo‘jaligi yerlari va ekinlarini monitoring qilishni tashkil etish, tuproq bonitirovkasini o‘tkazish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarining me‘yoriy qiymatini aniqlash, tuproqshunoslik, geobotanikaga oid tadqiqotlarni amalga oshirishni tashkil etish, suv resurslarini boshqarish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, suvlarning zararli ta‘sirini oldini olish va tugatish sohasida davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish, suvdan foydalanish, suvni boshqarish va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish sohasidagi mutaxassislarining malakasini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar kiritish kerak.

Ўрокова Дилфуза Бахриддиновна

Бухоро давлат университети

Туризм ва меҳмонхона хужалиги кафедраси

ўкитувчиси PhD u.dilfuza1985@gmail.com

МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДА ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ УЛУШИНИ КЎПАЙТИРИШ МУАММОЛАРИ

Туризм жаҳон иқтисодиётида юкори даромадли ва жадал ривожланиб боровчи сохалардан хисобланиб, халқаро ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқаларни мустахкамлашда муҳим урин эгалламоқда. Айниқса, бу соҳа меҳнат талаб саноат иш уринларини яратишда пешкадамлик қилаётганини, корхоналарнинг сони жиҳатдан туризм соҳасининг устунлигини, табиий ва маданий муҳитни асраш ҳамда барқарор ривожланишда асосий рол уйнаётганини ҳамда халқлар ва миллатлараро тотувликни таъминлашга сезиларли хиссасини кушаётганини алоҳида таъкидлаб утиш мумкин.

Ушбу йўналишда зарур инфратузилмани ривожлантириш ва дунё бозорида республиканинг туризм салоҳиятини тарғиб қилиш орқали мамлакатнинг ялпи ички маҳсулотида туризм улушини 5 фоизгача (2017 йил якуни бўйича - 2,3%) етказиш, шунингдек, 2025 йил якунига қадар 9 миллиондан ортиқ туристларни, шу жумладан узоқ хориждан - 2 миллион туристни жалб қилиш белгилаб қуйилган.

Узоқ истиқболда Ўзбекистон туризми миллий иқтисодиётдаги ютуқлар билан чекланиб қолмасдан, минтақа ва дунё туристик хизматлари бозорига энг рақобатбардош давлатлар қаторида кириб бориши мумкин.

Туризм дунёнинг кўплаб ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлари иқтисодиётининг асосий асосидир. Замонавий туристик бозорнинг асосини ҳам сифат, ҳам миқдорий жиҳатдан ходимларнинг пуллик таътиллари ташкил етади. Замонавий туризм, ижтимоий соҳа ва хизмат кўрсатиш соҳасининг юкори даражада ривожланишига асосланади, натижада уни иқтисодиётнинг юкори даромадли тармоғига айлантиради.

Кўпгина мамлакатларда туризм ялпи ички маҳсулотни шакллантиришда, қўшимча иш ўринлари ва аҳоли бандлигини яратишда, ташқи савдо балансини фаоллаштиришда муҳим рол ўйнайди. Туризм иқтисодиётнинг транспорт-коммуникация, қурилиш, қишлоқ хўжалиги, истеъмол товарлари ишлаб чиқариш ва бошқа муҳим тармоқларига қатта таъсир кўрсатади, яъни у ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг ўзига хос катализатори бўлиб хизмат қилади. Ўз навбатида туризмнинг ривожланишига турли омиллар таъсир кўрсатади: демографик, табиий-географик, ижтимоий-иқтисодий, тарихий, диний ва сиёсий-ҳуқуқий. Туризмнинг иқтисодий ривожланиши жаҳон иқтисодий бозорида таъсирчан маълумотлар билан тавсифланади. Улар туризм дунёнинг кўплаб мамлакатларида энг жадал ривожланаётган соҳа эканлигини ва унинг жаҳон иқтисодиётидаги роли доимий равишда ўсиб бораётганини кўрсатади.

Мамлакат ички меҳнат бозорини ривожланишига туризм соҳаси бандликка кучли таъсир кўрсатади. Туризм соҳаси кўп меҳнат талаб қиладиган жараён, шунинг учун унда асосан малакасиз ишчилар ишлайди. Бирок, бу туризм соҳасида юкори малакали ишчи кучидан фойдаланилмайди дегани эмас. Ушбу соҳада янги иш ўринлари иқтисодиётнинг бошқа ривожланаётган тармоқларига қараганда географик жиҳатдан кенгроқ тарқалмоқда. Дунёда туризмнинг ривожланишига илмий-

техник тараққиёт, аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилаш, бўш вақт, таътил, иқтисодий ва сиёсий барқарорлик ва бошқа бир қатор омиллар таъсир кўрсатмоқда¹.

Сўнгги пайтларда туризмда хизмат сафарларининг, шунингдек, ёшлар туризми саёҳатларининг роли ортиб бормоқда. Туризмнинг дунёдаги таъсири ҳажми ва даражасини куйидаги кўрсаткичлар бўйича баҳолаш мумкин. Кўпгина олимлар ва таҳлилчиларнинг фикрига кўра, туризмни ривожлантириш куйидаги омиллар-имкониятларга асосланади:

1. Иқтисодий ўсиш ва ижтимоий тараққиёт нафақат хизмат сафарлари, балки таълим мақсадларида саёҳатлар ҳажмининг ошишига олиб келди.

2. Барча транспорт турларининг такомиллаштирилиши саёҳатларни арзонлаштирди, аҳолининг кўплаб қатламлари учун имкон яратди.

3. Иқтисодий ривожланган мамлакатларда ёлланган ишчилар ва ишчилар сонининг кўпайиши ва уларнинг моддий ва маданий даражасининг ошиши уларнинг маънавий ва когнитив кадриятларга бўлган иштиёқини оширди.

4. Меҳнатнинг кучайиши ва ишчиларнинг узокроқ таътил олишлари янада мазмунли дам олиш зарурлигини англади.

5. Мамлакатлар ўртасидаги давлатлараро муносабатлар ва маданий алмашинувнинг ривожланиши минтақалар ўртасида ҳам, унинг ичида ҳам шахслараро алоқаларнинг кенгайишига олиб келди.

6. Хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиши телекоммуникация соҳасидаги технологик тараққиётни рағбатлантирди, турли мамлакатлар ва минтақаларга ташриф буюришга қизиқиш ортди.

7. Кўпгина мамлакатларда валюта экспортига чекловларнинг юмшатилиши ва чегара расмиятчиликларининг соддалаштирилиши ҳам туризмни ривожлантиришни рағбатлантиради.

Шуни таъкидлаш керакки, ривожланаётган мамлакатларда туризм харажатларининг имконияти ва ҳажми анча юқори. Ривожланган мамлакатлар таърифи бўйича туризмнинг барча харажатларини осонгина қоплайдиган соғлом иқтисодиётга ега. Одатда, бундай мамлакатлар иқтисодиёти диверсификация қилинади ,ва давлат инвестиция дастурлари тўлиқ ривожлантириш қаратилган емас.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Таигибова, Т. Т. туризм саноатининг мамлакат иқтисодиёти ва ижтимоий-маданий соҳага таъсири / Т. Т. Таигибова. - Матн : тўғридан-тўғри // иқтисодий фанларнинг долзарб масалалари: И халқаро илмий конференция материаллари (Уфа, 2011 йил октябр). - Уфа: Ёз, 2011. - pp. 125-128. - УРЛ: <https://moluch.ru/conf/econ/archive/11/1106/> (кириш 03.05.2023).

2. Казыбайқызы А., Муханова А.Е., Смагулова Ж.Б. ОСОБЕННОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В МИРЕ // Успехи современного естествознания. – 2015. – № 1-2. – С. 265-269; URL: <https://natural-sciences.ru/ru/article/view?id=34827> (дата обращения: 03.05.2023).

11. Н.Н. Musayev va M.Q. Pardayevlar tahriri ostida "Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish"

12. O'roqova D.B., Qodirov A. Kichik biznesda innovatsion faoliyat va uni rivojlantirish masalalari // Biznes-ekspert jurnali 2020 1(145)-son, -B. 66-69.

13. Ўроқова Д.Б. Экотуризмни ривожлантириш истиқболлари // «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш» йилига бағишланган Тафаккур ва талқин ва магистратура талабаларининг мақолалар тўплами. Бухоро, 2019й. 20-236

14. O'roqova D.B. Problems and prospects of development of ecological tourism in Uzbekistan // Trans Asian journal of marketing & management research (tajmmr) impact april spl issue 2020, factor: sjif2020=7.209

15. Ўроқова Д.Б. Факторы, влияющие на развитие туризма в Узбекистане // Достижения науки и образования №3(57).2020г <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-vliayuschie-na-razvitie-turizma-v-uzbekistane>

¹ Таигибова, Т. Т. туризм саноатининг мамлакат иқтисодиёти ва ижтимоий-маданий соҳага таъсири / Т. Т. Таигибова. - Матн : тўғридан-тўғри // иқтисодий фанларнинг долзарб масалалари: И халқаро илмий конференция материаллари (Уфа, 2011 йил октябр). - Уфа: Ёз, 2011. - pp. 125-128. - УРЛ: <https://moluch.ru/conf/econ/archive/11/1106/> (кириш 03.05.2023).

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

В современной экономике отрасль телекоммуникаций – это один из быстро развивающихся секторов экономики Республики Узбекистан, которая помогла стране пережить кризис 2020 года, в связи с массовым переходом на удаленный режим учебы и работы, в связи с появлением коронавируса COVID–19. В связи с тенденцией консолидации и повышением требований данная отрасль переживает значительные преобразования. Финансовые показатели телекоммуникационного сектора с 2019 года только растут, что показывает бурное развитие отрасли. Из-за введенной самоизоляции в 2020 году потребность в интернет-сервисах резко увеличилась. В результате чего наблюдались сбои в работе системы, как от перегрузки, так и от отказа оборудования. Рост потребления трафика привел к увеличению расходов телекоммуникационных компаний, чтобы избежать отказа работы системы, из-за перегрузок. По состоянию на январь 2022 года количество пользователей Интернета оценивается в 27,2 миллиона человек, из них 25,3 миллиона пользователей мобильного интернета и 3,2 миллиона пользователей фиксированного широкополосного доступа в Интернет в стране с населением 36,1 миллиона человек [1].

За 2020 год, по итогам мониторинга инцидентов кибербезопасности, совершенных в отношении веб-сайтов доменной зоны «UZ», зафиксировано 342 инцидента, из которых 306 относится к несанкционированной загрузке контента, остальные 36 связаны с несанкционированным изменением главной страницы[2]. Наряду с этим, при мониторинге информационных систем специалистами “Центр кибербезопасности” представили обзор “Кибербезопасность Республики Узбекистан. Итоги 2021 года” государственных органов, в котором выявлено 17 097 478 событий[3]. В Узбекистане по состоянию на 2021 год зарегистрировано 100 015 доменов национального сегмента сети Интернет «.uz», из которых порядка

38 000 являются активными. Из 38 000 активных доменов всего 14 014 являются защищенными, т.е. имеют SSL-сертификат безопасности. В остальных случаях, либо сертификат является просроченным – 613 случаев, либо отсутствует. В 2021 году Центром выявлено 17 097 478 случаев вредоносной и подозрительной сетевой активности, исходящей из адресного пространства национального сегмента сети Интернет. Большая часть данной активности, а именно 76% составляют участники бот-сетей.

В Узбекистане для создания полностью цифровой экономики необходимы новые технологические инновации. Основной проблемой развития сети остается низкий уровень конкуренции на рынке информации и телекоммуникаций, отсутствие конкуренции удерживает цены в этом сегменте искусственно завышенными. Соответственно бизнес и госсектор в регионах не имеют доступа к высокоскоростному интернету и облачной инфраструктуре. По данным Агенства по статистике при президенте Республики Узбекистан на 1 января 2023 года, общее количество предприятий, осуществляющих деятельность в сфере информации и связи в нашей республике, составило 12 204, в 2022 году в этой сфере было создано 2 631 предприятие, из них 2 617 предприятий малого бизнеса. И не менее важной проблемой, с которой сталкиваются экономики развивающихся стран это монополистическое поведение в телекоммуникационной отрасли, которое может иметь негативные последствия для потребителей и экономики в целом. В таких случаях, монополист может устанавливать высокие цены на свои услуги, ограничивать выбор и качество услуг, а также препятствовать внедрению новых технологий и инноваций. Это может негативно сказываться на конкуренции, инвестициях и развитии отрасли. По нашему мнению «Узбектелеком» как монополист должен разрабатывать стратегию и тактику развития сферы, но никак не выступать в качестве коммерческой организации, которая параллельно с провайдерами предлагает свои услуги. То есть необходимо отделить функции регулятора от игрока на рынке. Кроме того, «Узбектелеком» мог бы заняться развитием инфраструктуры, что не всегда по карману частному сектору. В частности, развивать оптоволоконную связь, чтобы в стране был «достойный» интернет [5]. Помимо монополии на внешний канал интернета участники отметили ряд других проблем в отрасли. Первая — устаревшие законы, например «О связи», которые разрабатывались

еще в 90-х годах прошлого века. Как отметил Шухрат Ахунджанов, надо менять порядка 20 нормативно-правовых документов, регулирующих деятельность в сфере телекоммуникаций. Помимо отстающих от времени законов, существует также проблема практики регулирования, которую также необходимо менять. В Узбекистане много контролирующих органов, которые, как нам кажется, избыточны. Достаточно иметь один, который будет отслеживать, что необходимо [5].

Все эти проблемы напрямую влияют не только на игроков отрасли, но и на решение иностранных инвесторов о выходе на узбекский рынок. Инвесторы смотрят не только на исходные данные, которые в Узбекистане отличные — 36 млн населения, что для любой компании связи является огромным плюсом, а также 100-процентная грамотность людей. Но и на картину в целом — как в стране регулируется бизнес, какова защита инвестиций. Когда правила игры похожи на те, что действуют в других странах и к которым они привыкли, тогда решения принимаются быстро и в страну приходят инвестиции [5].

Рассмотрим некоторые возможные решения этих проблем.

1. Для решения роста потребления трафика в телекоммуникационной отрасли можно рассмотреть следующие пути:

- Расширение пропускной способности сети: Увеличение пропускной способности сети позволяет обрабатывать больший объем данных и удовлетворять растущий спрос на передачу трафика.
- Внедрение тарифных планов и ограничений: Компании могут предлагать различные тарифные планы и ограничения для управления ростом потребления трафика.
- Развитие новых технологий: Использование новых технологий, таких как сжатие данных, оптимизация протоколов, потоковая передача и другие инновации, может помочь в управлении ростом потребления трафика.

2. Усиление сетевой защиты и Сотрудничество с другими компаниями и организациями, как пути решения проблем с кибербезопасностью.

Телекоммуникационные компании должны внедрять многоуровневую сетевую защиту для обнаружения и предотвращения кибератак. К примеру использование систем обнаружения вторжений (IDS/IPS), антивирусного программного обеспечения, аутентификации и шифрования данных. А также телекоммуникационные компании могут сотрудничать с другими участниками отрасли, правительственными организациями и общественными группами для обмена информацией о киберугрозах и лучших практиках безопасности. Это может помочь в создании более широкой и сильной защиты от кибератак.

3. Содействие конкуренции и международное сотрудничество.

Одним из важных факторов последовательного развития информационно-коммуникационных технологий является создание благоприятных условий для появления конкурентоспособной продукции и услуг в отрасли, продвижение их на внутреннем и внешнем рынке, стимулирование инновационных разработок. В созданных с этой целью 392 организациях, являющихся резидентами Парка программных продуктов и информационных технологий (IT-парка), работают 4 000 специалистов. 14 из них созданы с участием иностранного капитала, 54 – с нуля. [6] А также обмен опытом и информацией с другими странами и регуляторами может помочь в разработке эффективных мер по борьбе с монополиями. Это может включать согласование и стандартизацию правил и норм в международном масштабе.

4. Обеспечение прозрачности.

Компании должны предоставлять точную и своевременную информацию о своей финансовой деятельности, бизнес-операциях и рисках. Это помогает инвесторам принимать осознанные решения и уменьшает возможность манипуляций и обмана. Обеспечение прозрачности может быть достигнуто путем публикации информации, раскрытия, установления прозрачных процессов, обеспечения доступа к информации, проведения независимой оценки и аудита, а также соблюдения международных стандартов и норм. Настоящий Закон устанавливает гарантии и меры защиты прав иностранных инвесторов, осуществляющих инвестиционную деятельность на территории Республики Узбекистан.

Список литературы

1. Uzbekistan's Mobile and Broadband Internet Speeds /Интернетиздание Speedtest Global Index от 22.08.2022 [Электронный ресурс]. URL <https://www.speedtest.net/global-index/uzbekistan#mobile>
2. <https://uzcert.uz/usefulinfo/kiberbezopasnost-respubliki-uzbekistan-itogi-2020-goda/>
3. <https://tace.uz/ru/news/kiberbezopasnost-respubliki-uzbekistan-itogi-2021-goda/>

4. Данные Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан [Электронный ресурс]. URL <https://stat.uz/uz/>
5. «Лаборатория бизнеса»: эксперты рассказали, как монополия «Узбектелекома» и устаревшее законодательство мешают бизнесу в Узбекистане, отпугивает от страны инвесторов. URL <https://www.spot.uz/ru/2018/11/24/lb-it/>
6. Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан. URL <https://mitc.uz/ru/news/2317>

Aynaqulov Husniddin Abduxamidovich
Jizzax Politexnika Instituti,
“Muhandislik va kompyuter grafikasi”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: abdukhamidov2708@gmail.com

KLASTER DOIRASIDA ISHLAB CHIQRISH KOOPERATSIYASINI TASHKIL ETISH VA YURITISHNING IQTISODIY KONSTITUTSIYASI

Respublikada klaster doirasida ishlab chiqarishni rivojlantirishga va turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning klaster doirasidagi o‘zaro hamkorligini takomillashtirishga muhim ahamiyat berilgan holda, ushbu jarayonlarni rivojlantirishning iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlariga moslashtirgan holda me‘yoriy-huquqiy asoslar yaratilgan. Ularni guruhlarga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruh – xo‘jalik yuritish klasterini tashkil qilish tartibi va mexanizmlarini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar (xizmat ko‘rsatish doirasi, kafolatlar, himoya va h.k.);

Ikkinchi guruh – klaster doirasida turli xildagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro hamkorlik qilish tartibi va mexanizmlarini tartibga soluvchi huquqiy baza;

Uchinchi guruh – klaster doirasida birlashgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi va mexanizmlarini tartibga soluvchi huquqiy baza (soliq solish, hisobot, soliq va bojxona organlari bilan munosabatlar va h.k.);

To‘rtinchi guruh - kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslari.

Asosiy iqtisodiy konstitutsiya sifatida avvalo, 1990 yil 31 oktabrda qabul qilingan va 1993 yil 7 mayda, hamda 1994 yil 23 sentabrda o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilgan O‘zbekiston Respublikasida “Mulchilik to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni klasterlik doirasidagi o‘zaro faoliyatning rivojini belgilab beruvchi muhim qonuniy hujjat bo‘ldi, unda ta‘kidlanishicha *“iqtisodiyotning samarali faoliyat ko‘rsatishiga va xalq farovonligining o‘shishiga ko‘maklashuvchi mulchilikning har qanday shakli mavjud bo‘lishiga ruxsat etiladi”* deyilgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Respublikada tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Ushbu hujjat bilan “O‘zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to‘g‘risidagi” nizom tasdiqlandi. Me‘yoriy hujjatlarning **ikkinchi guruhiga**, birinchi galda, 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan va 1993 yil 7 mayda hamda 1994 yil 23 sentabrda o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida korxonalar to‘g‘risida”gi Qonuni kiradi, unda shunday ta‘kidlangan, *“faoliyatni muvofiqlashtirish, ular huquqlarining himoyalashini ta‘minlash, tegishli davlat va boshqa organlarda, hamda xalqaro tashkilotlarda umumiy manfaatlarni namoyon qilish maqsadida mulchilikning barcha shakllaridagi korxonalar tarmoq, hududiy yoki boshqa belgilar bo‘yicha ixtiyoriy ravishda xo‘jalik uyushmalariga: ittifoq, konsern, konsorsium va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin”*. 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan va 1998 yil 29 avgustda, hamda 1998 yil 28 dekabrda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni xo‘jalik yurituvchi subyektlarning klaster doirasidagi o‘zaro hamkorligini tartibga soluvchi muhim me‘yoriy hujjat hisoblanadi.

Korxonalarining ishlab chiqarishdagi o‘zaro hamkorligini tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi” (45, 48, 353-385 moddalar) O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksi (175, 176-1, 176-2, 212 va 214-moddalar), O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy javobgarlik kodeksi” (175, 181, 186, 205, 207 va 209-moddalar) muhim o‘rin

¹ B.B.Berkinov, M.A.Aynaqulov. “Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi”. Jizzax.: 2004-114 b

tutadi¹. Xo'jalik yuritish klasterlarining davlat bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning **uchinchi guruhidan**, bizning fikrimizcha, o'zaro hamkorlik qiluvchi turli xo'jalik yurituvchi subyektlarini davlat ro'yxatiga olish tartiblarini soddalashtirishga, yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartiblari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 357-sonli qarorini alohida ta'kidlash lozim.

To'rtinchi guruh me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonunini alohida ta'kidlash lozim, unda davlat klasterlik faoliyati doirasidagi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoyalanihini kafolatlaydi, erkin raqobat uchun sharoitlar yaratadi, ularga moddiy, moliyaviy va boshqa resurslarga yo'l topishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Hozirgi kunda respublikada klasterlik faoliyati rivojini nodavlat tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi barpo etilgan bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Jamoat birlashmalari; 2. Moliya-kredit muassasalari; 3. Byudjetdan ashqari fondlar; 4. Tadbirkorlik kadrlarini tayyorlash va axborot-maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi muassasalar; 5. Ta'minot-sotish; 6. Sug'urta agentliklari.

Klasterlik faoliyatini rivojlantirish, unda turli xildagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorlik va ishlab chiqarish kooperatsiyasini yo'lga qo'yishning me'yoriy-huquqiy asosini takomillashtirish quyidagilarni hisobga olib amalga oshirilishi kerak:

- korxonalarni qayta tarkiblash, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kichik biznesni kengaytirish va mustahkamlash, yagona xo'jalik yuritish klasteri doirasida yagona xo'jalik yuritish tizimini tashkil etish jarayonlarini chuqurlashtirish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.B.Berkinov, M.A.Aynaqulov. "Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi". Jizzax.: 2004-114 b.

2. Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

**Saidova Firuza Kamolovna,
Buxoro davlat universiteti,
Agrobiznes va agrologistika kafedrasida katta o'qituvchisi
9 -2BUXS-20 guruxi talabasi, Buranov Daler**

O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA EVROBONDLARNING AMALIY ZARURIYATI VA IQTISODIYOTGA TA'SIRI.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar faoliyatining eng muhim masalasi banklar tomonidan investorlar funktsiyalarini amalga oshirishdir. O'zbekistonda banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida investor sifatidagi faoliyatiga cheklovlar mavjud. Xususan, banklar qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishlari mumkin, agar bank investitsiyalari miqdori:

a) bitta korxonaning ustav kapitalida, shuningdek ushbu korxonaning boshqa qimmatli qog'ozlarida birinchi darajali bankning normativ kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak;


b) barcha emitentlarning ustav kapitalida va boshqa qimmatli qog'ozlarida birinchi darajali bank normativ kapitalining 50 foizidan oshmasligi kerak;

v) bankning sotish va sotib olish uchun nodavlat qimmatli qog'ozlariga qo'ygan investitsiyalarining miqdori birinchi darajali bankning normativ kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak.²

¹ Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов// «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

² https://training-center.uz/banki__na_rynke_cennyh_bumag_uzbeki#:~:text=В%20то%20же%20время%2C%20коммерческие,хранит%20на%20них%20денежные%20средства%2C

O'zbekiston tijorat banklari yuqoridagi tavsiyalardan kelib chiqib, jahon hamjamiyatiga sekin-asta kerib bormoqda. Bunga misol qilib, 2019-yilning fevralida O'zbekiston moliyaviy tarixida birinchi bor, jahondagi nufuzli va boy tarixga ega moliya bozori sanaladigan London birjasida ilk marta yevrobondlarni savdoga chiqarganligini ko'rsatish mumkin.



Bondlar, xususan yevrobondlar – obligatsiyalar qarz instrumenti hisoblanadi. Ular daromadi qat'iy belgilangan moliyaviy instrumentlardan biri. Bondlar mamlakatlar yoki korporatsiyalar tarafidan chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar, ammo aksiya emas. Bondlarning 5,10, 30, hatto 100 yilliklari bo'ladi. Ular olinganidan so'ng muddati tugagach, sarmoyador ushbu instrumentlarni chiqargan tashkilot yoki hukumatga qaytarib beradi, lekin shu bilan birga sarmoyani kiritgan muddati davomida qat'iy belgilangan daromadni olib turadi. Kupon stavkasi hisobidan sarmoyador foyda ko'radi. Kredit olgan tashkilot olgan muddati davomida uni olgan majburiyatlariga tayangan holda o'z loyihalarini amalga oshirishga sarflaydi.¹

O'zbekiston mustaqil tarixida birinchi marta 2019 yilda 5 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni 4,75 foizdan, 10 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni esa 5,375 foizdan joylashtirdi.²

Avvaliga kuponlarning diapazoni 5,625 — 5,75 foiz hamda 6 foiz miqdorida belgilangan edi, ammo talabning yuqoriligi sababli O'zbekiston foiz stavkalarini qayta ko'rib chiqib, ularni 4,75 foiz va 5,375 foizgacha tushirdi.

Obligatsiyalarni xarid qilishga taxminan 150 institutsional investorlardan 3,8 milliard dollarlik taklif kelib tushdi. Jo'g'rofiy nuqtai nazardan, xarid qilingan 5 yillik va 10 yillik obligatsiyalarning katta qismi Buyuk Britaniya investorlari (tegishincha 39 foiz va 32 foiz), amerikalik investorlar esa 23 va 31 foiz obligatsiyalarni xarid qildi. Yevropalik investorlar 32 foiz va 27 foiz, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari investorlari esa 6 va 10 foizni tashkil qildi.

Yevrobondlarning aksariyatini — 75% va 78%ini boshqaruv fondlari, 20% va 16 foizini sug'urta kompaniyalari va pensiya fondlari, 5% va 6% foizini banklar xarid qildi.

MDH mamlakatlari orasida 2019-yildagi ilk suveren obligatsiyalar joylashtirilishidir.³

Prezidentning 2 apreldagi qarori bilan 1 mlrd dollar miqdoridagi 5 va 10 yillik suveren xalqaro obligatsiyalaridan tushgan mablag'larni oluvchilar ro'yxati tasdiqlandi:

889,2 mln dollar auksion orqali tijorat banklarining depozitlariga joylashtiriladi;

- 20 mln dollar «Agrobank» ATBga qarz sifatida beriladi;
- 89,9 mln dollar «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» davlat korxonasi ssuda sifatida beriladi.⁴

Ikkinchi marotaba 2021 yilda O'zbekiston London fond birjasiga 635 mln dollar va 2,5 trln so'm qiymatdagi xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Yevrobondlarning dollar va so'mda asosiy xaridorlari investitsiya fondlari bo'ldi.

Dastlab obligatsiyalarni chiqarish tashkilotchilari yevrobondlardan dollarlik transh uchun 4,25–4,375% atrofida va so'mlik transh uchun 14,5% atrofida daromad bo'lishini kutishayotgandi, lekin keyin bu ko'rsatkichlar pastladi.

Buyurtmalar kitobi ochiq deb e'lon qilinganidan so'ng, dollardagi obligatsiyalarga talab 2,25 mlrd dollardan, so'mdagilarga esa — 350 mln dollardan oshib ketdi.

¹<https://www.amerikaovozi.com/a/4808412.html>

²<https://daryo.uz/2019/02/14/ozbekiston-tarixda-birinchi-1-mlrd-dollarlik-yevrobondlarni-joylashtirdi/>

³<https://daryo.uz/2019/02/14/ozbekiston-tarixda-birinchi-1-mlrd-dollarlik-yevrobondlarni-joylashtirdi/>

⁴<https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/05/yevrobondlar/>

Savdolar natijasiga ko'ra, yiliga 3,9% daromad bilan 635 mln dollarlik dollar transh 10 yil muddatga (to'lov muddati -2031 yil 19 oktyabr) chiqarildi. 2,5 trln so'mlik (taxminan 235 mln dollar) so'mlik yevrobondlar yillik 14% daromad bilan 3 yilga (2024 yil 19 iyul) joylashtirildi. Yevrobondlarning dollar va so'mda asosiy xaridorlari investitsiya fondlari (92%) bo'ldi. Yevro obligatsiyalari dollar bilan eng ko'p AQSh (56%) va Buyuk Britaniyada (23%), so'mda esa Buyuk Britaniyada (43%) va Yevropa mamlakatlarida (24%) sotib olingan.¹

Ozbekiston tijorat banklari ham jahon bozorida evrobondlarni joylashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Tijorat banklari tomonidan joylashtirilgan yevrobondlar qiymati.

(AQSh dollari)

Banklar nomi	2020 yil	2021 yil
O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki	300 million	54 mln
"Ipoteka-bank" aksiyadorlik-tijorat ipoteka banki	300 million	75 mln
O'zsanoatqurilishbank AT	300 million	75 mln

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 2021 yil yakunlariga ko'ra evrobondlarni joylashtirish faol qatnashgan banklar moliya bozorida ham yuqori daromad ko'rgan banklar qatoridan joy olishdi.

Eng daromadli 10ta bankning foydasi qolgan 17 ta bankning umumiy foydasidan 5 barobarga ko'p.

1. «O'zsanoatqurilishbank» — 787,3 mlrd so'm;
2. O'zmilliybank — 676,8 mlrd so'm;
3. Ipoteka-bank — 587,7 mlrd so'm;
4. Trastbank — 323,9 mlrd so'm;
5. Hamkorbank — 303,6 mlrd so'm;
6. Ipak yo'li — 299,9 mlrd so'm;
7. Qishloq qurilish bank — 272 mlrd so'm;
8. «Kapitalbank» — 267,8 mlrd so'm;
9. «Asakabank» — 258 mlrd so'm;
10. «Orient finans» bank — 213,7 mlrd so'm;²

O'zbekiston moliya bozori uchun evrobondlar quyidagi afzalliklarga va kamchiliklarga egadir.

Evrobondlarning afzalliklari	Evrobondlarning kamchiliklari
Chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar kapitalni qadrsizlanishdan himoya qilishga yordam beradi.	Evroobligatsiyalarga investitsiya qilishda barcha qimmatli qog'ozlarga xos bo'lgan risklar, shuningdek, valyuta risklari mavjud.
Evroobligatsiyalar likvid aktivlar hisoblanadi.	Ikkinchisi xavfli, chunki chet el valyutasi ham inflyatsiyaga duchor bo'ladi, natijada evrobondlarning qadri tushib ketadi.
Ularning aksariyati qimmatli qog'ozlari talab qilinadigan ishonchli emitentlar tomonidan chiqariladi.	Agar konvertatsiya paytida dollar yoki evro tushib qolsa, yo'qotish sodir bo'ladi. Valyuta kotirovkalari harakatini oldindan aytish qiyin.
Ko'pincha ularning aksiyalari ko'k chiplar deb ataladi. Likvid aktivni tezda sotib olish va sotish mumkin, va sotish va sotib olish xarajatlari o'rtasidagi narx minimaldir.	Agar siz o'zgaruvchan stavkadagi obligatsiyalarni sotib olishga qaror qilsangiz, u emitent mamlakatidagi va global miqyosdagi voqealar tufayli kamayishi mumkin.
Yevrobondlarning belgilangan stavkasi kutilayotgan daromadni bashorat qilish imkonini beradi.	Yevroobligatsiyalar emitenti yoki boshqa har qanday qarz qimmatli qog'ozlari moliyaviy majburiyatlarini bajara olmaydi.
To'g'ri natijaga erishish uchun kupon rentabelligini va to'lovgacha bo'lgan daromadni hisoblash kifoya. O'zgaruvchan kurs bilan bunday hisob-kitoblar mumkin emas, chunki daromad Markaziy bankning asosiy kursiga bog'liq.	Agar qarz oluvchi majburiyatni bajarmasa, investor kuponlarni olmaydi va qog'ozning nominal qiymati qaytarilmaydi. Korxonaga tugatilgandan so'ng, pul kreditorlar va investorlarga qaytariladi, ammo bu uzoq jarayon.

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/13/bonds/>

² <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/15/banks/>

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Navro`zova K.N. va boshqalar, "Bank hisobi", O`quv qo`llanma, T., "Fan va texnologiya", 2006.
2. SAIDOVA F. O`ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHIT: MUAMMO VA YECHIMLAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
3. SAIDOVA F. ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ РЫНКА УСЛУГ В БУХАРЕ ФК Саидова, преподаватель, Бухарский государственный университет, Бухара МА Ражабова, преподаватель, Бухарский государственный университет, Бухара //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
4. SAIDOVA F. ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИДА САНОАТ ТАРМОҒИНИНГ РИВОЖЛАНИШИНИ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30.
5. SAIDOVA F. Направления повышения эффективности труда и служб занятости //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
6. Rajabova M. O`ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO`LLARI VA SAMARADORLIGINI VAHOLASH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
7. Rajabova M. ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE PROVISION OF FINANCIAL SERVICES IN UZBEKISTAN //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
8. Tursunkulovich S. R. et al. Some Issues of the Formation and Development of Banking Innovations in the Republic of Uzbekistan //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 6. – С. 109-116.
9. Rajabova M. ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ РЫНКА УСЛУГ В БУХАРЕ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
10. Rajabova M. INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY FUTURE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

Shodiyev Bekzod To‘lqinovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti, i.f.f.d. (PhD).

e-mail: bekzod25@bk.ru

QISHLOQ XO‘JALIGI KOOPERATSIYASI RIVOJLANISHINING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

XX asr oxiriga kelib kooperatsiya juda keng tarqalgan ijtimoiy hodisaga aylanib ulgurgan va bozor iqtisodiyotiga moslashib, kooperatsiya aholining tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy missiyasini bajarishda davom etmoqda.

Kooperatsiyaning universal, murakkab tushunchasi ham juda keng talqinga, ham nisbatan tor talqinga ega.

Keng ma’nodagi kooperatsiya, bir tomondan barcha aloqalar va munosabatlarni o‘z ichiga olgan atrofimizdagi dunyoning umumbashariy xususiyatini, ikkinchi tomondan – inson jamiyatining sinonimi, uchinchi tomondan - ijtimoiy hayotni saqlab qolish uchun odamlar tomonidan yaratilgan asosiy ijtimoiy mexanizm yoki ijtimoiy kooperatsiya, o‘zaro yordam, mehnat uyushmasi, hamjihatlikni nazarda tutadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “kooperatsiya” tushunchasi bir necha o‘nlab ta’riflarga ega. Ko‘pincha kooperatsiya huquqiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil korxonalarining mehnat unumdorligini oshirish maqsadida ularning o‘rtasidagi ixtiyoriy kooperatsiya sifatida talqin etiladi. Tor ma’nodagi bu atama uzoq muddatli shartnoma asosida kooperatsiya qilish uchun ishlatiladi.

Ishlab chiqarish va mehnat kooperatsiyasi ishlab chiqarishning texnik va texnologik sharoitlari bilan belgilanadigan va ishlab chiqarishning texnologik unsurlarining bir-biriga nisbatini aks ettiradigan ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslanadi. Bu holda, kooperatsiya ishlab chiqarish funksiyalarining hamkorligi muayyan foydali samarani olish uchun zarur sharti bo‘lib hisoblangan ijtimoiy mehnat taqsimoti bosqichida shakllana boshlaydigan ixtisoslashgan korxonalar o‘rtasida barqaror ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishga hissa qo‘shadi.

Mehnat kooperatsiyasi - mehnat faoliyati birlashmasi. Bu yerda, o‘z navbatida, oddiy kooperatsiya - bir turdagi (bir xil) aniq mehnat kooperatsiyasi (ma’lum miqdordagi ishchilarni bir hil ishlarni bajarish (qishloq xo‘jaligi ekinlarini o‘rish, sabzavot, mevalarni yig‘ish va hokazolar)ga asoslangan) va murakkab kooperatsiya (funktional mehnat taqsimotiga asoslangan) farqlanadi. Murakkab mehnat kooperatsiyasiga

misol qilib, har xil texnologik operatsiyalarni bajaruvchi bo'g'inlarni o'z ichiga olgan o'rim-yig'im va transport majmualarining faoliyati hisoblanadi.

Ishlab chiqarish kooperatsiyasi - qo'shimcha samaraga erishish uchun konsentratsiya va ixtisoslashuv imtiyozlaridan foydalanish maqsadida turli sanoat, ishlab chiqarish kuchlari va korxonalarni birlashtirish jarayonidir. Bu holdagi kooperatsiya yagona ishlab chiqarish jarayonining alohida bo'g'inlari o'rtasidagi barqaror ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlar bilan tavsiflanadi.

Mahsulotning turi va maqsadiga qarab, quyidagi kooperativlar mavjud:

– ishlab chiqarish kooperativlari (mahsulot ishlab chiqarish natijasi hisoblanadi va u bozorga taklif etiladi);

– iste'mol jamiyatlari (tovarlar kooperativlar ehtiyojlari uchun sotib olingan iste'mol tovarlaridir);

– kredit kooperativlari (tovar sifatida pul xizmat qiladi);

– xizmat yoki iste'mol kooperativlari (tovarlar sifatida xizmatlar, masalan, mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish uchun xizmatlar gavdalanadi);

– sotish bo'yicha kooperativlar (tovarlar sifatida ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinadigan resurslar, masalan o'g'itlar xizmat qiladi).

O'z mohiyatiga ko'ra, kooperatsiya ijtimoiy mehnat taqsimotining o'ziga xos shakli bo'lib, ixtisoslashuvning qarama-qarshi hisoblanadi. Agar ixtisoslashuv ishlab chiqarishning texnologik siklini alohida bosqichlarga ajratishga intilsa, kooperatsiya bo'lingan bosqichlarni (faoliyat turlarini) yagona texnologik siklga birlashtirish (sintez qilish), balki kooperatsiya orqali yangi sifat asosida ishlab chiqarishni va uning konsentratsiyasining yuqori darajasida birlashtiradi. U ishlab chiqarishning optimal konsentratsiyasini va uning ketma-ket bosqichlarini o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi yangi tashkiliy shakllarda amalga oshiriladi.

Agar bitta texnologik jarayon bir xil tarmoq (qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati) doirasida ishlab chiqarishning alohida bosqichlarini birlashtirsa, bunday kooperatsiya tarmoq ichki yoki gorizontol deb ataladi. Qishloq xo'jaligida gorizontol ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalar predmet va bosqichli ixtisoslashuv asosida rivojlanadi. Qoramolchilikda bu sut xo'jaliklarining chorva mollarini yetishtirish va boqishga ixtisoslashtirilgan majmualari bilan kooperatsiyasi; parrandachilikda - oziq-ovqat tuxumlarini olish uchun parrandachilik xo'jaliklarining bosqichli kooperatsiyasi; urug'chilik sohasida-tajriba bazalari, ixtisoslashgan urug'chilik va tovar xo'jaliklari kooperatsiyasi va boshqalar. Gorizontol kooperatsiyasi oziq-ovqat sanoatida keng tarqalgan. Masalan, qandolat fabrikasi, un tegirmoni, shakar fabrikalari, sut, meva va konserva sanoati mahsulotlarini iste'mol qilib, barqaror ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi va harakatlarni birlashtirish, vaqtni tejash, xarajatlar va boshqalarni muvofiqlashtirish orqali yuqori natijaga erishiladi. Gorizontol kooperatsiyani rivojlantirish an'anaviy qishloq xo'jaligi korxonalarining ko'p tarmoqli tuzilmasidan ixtisoslashgan tuzilmasiga o'tishda muhim omil bo'lmoqda. O'tishning o'zi esa qishloq xo'jaligi va tutash tarmoqlarda integratsion jarayonlarni rivojlantirish, ishlab chiqarishni yangi texnik va texnologik asosda tashkil etishning real shart-sharoitlarini yaratadi.

Vertikal kooperatsiya (integratsiya) tovar massasining yagona texnologik jarayonda ishlab chiqarishning bir bosqichidan ikkinchisiga optimal o'tishini ta'minlaydigan xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi korxonalar va ishlab chiqarishlarning o'zaro hamkorligi va birlashmasidir. Agrosanoat majmuasida vertikal integratsiya integratsiyalashgan ishlab chiqarishni tashkil etish shakli (qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishini birlashtirish) va markazlashtirilgan boshqaruv va rejalashtirish o'rniga kelgan yakuniy mahsulotlarni ishlab chiqarishning butun zanjiri bo'ylab tarmoqlararo aloqalarni tashkil etish shakli sifatida namoyon bo'ladi. Uning negizida quyidagi bozor tamoyillari yotadi: ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinliklari, raqobat, raqobatbardoshlik, talab va taklif, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash va xarajatlarni kamaytirish hamda sotish bozorini saqlab qolish.

O'ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI

Jahonda o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi ko'tarilib borishi bilan bir qatorda aholining o'sishi, cheklangan iqtisodiy-ijtimoiy resurslar sharoitida tibbiyot tizimi va uning infratuzilmasini yangilashga bo'lgan talabning ortishi, sog'liqni saqlash sohasida davlat va xususiy sherikchilik (DXSH) mexanizmlarini rivojlantirish va tibbiy xizmatlar bozorini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari hisobga olinib innovatsion tibbiyotni rag'batlantirish, aholi barcha qatlamlari uchun sifatli va maqbul tibbiy xizmatlarni taqdim etishni tashkil qilish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mintaqada tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va tibbiy xizmatlar sifati va unga ta'sir qiluvchi omillarini baholash tibbiy xizmatlar bozorining istiqbollari belgilash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda. Sog'liqni saqlash tizimi muhim ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy samaradorlikka ega bo'lgan ustuvor yo'nalish sanaladi. Shu boisdan, mustaqillikning dastlabki yillaridan respublikamizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish dasturlari va chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida davlat tibbiy siyosati olib borildi. Yangilanayotgan iqtisodiyotda ayniqsa, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini tubdan oshirishni ta'minlaydigan sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish va moliyalashtirishning kompleks jihatdan yangi modellarini shakllantirish, zamonaviy, pullik tibbiy xizmatlarni joriy etishga jadal kirishildi.

Sog'liqni saqlash tizimining bevosita davlat tomonidan tartibga solinishi va moliyalashtirilishi shuningdek nodavlat tashkilotlar sohada ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar insonlarning hayoti va salomatligi bilan bog'liq bo'lgan bir qator ilmiy va nazariy tushunchalar va atamalar qo'llash bularning mohiyati va mazmunini ochib asoslab berishni taqozo qiladi. Tadqiqotchilar sog'liqni saqlash sohasi xizmatlarini o'rganishda "sog'liqni saqlash", "tibbiy faoliyat", "tibbiy xizmat", "ijtimoiy samara", "iqtisodiy samara", "tibbiy sug'urta", "tibbiy turizm" kabi bir qator tushunchalarni yangi ta'riflarini bermoqda.

Tadqiqotda sog'liqni saqlash sohasida tibbiy xizmatlar bozori tushunchasiga ayrim xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning tariflarini quyidagi jadvalda keltiramiz..1-jadval

1-jadval

Xorijiy va mahalliy mualliflarning sog'liqni saqlash tizimi va tibbiy xizmatlar bozori tushunchalariga yondashuvlari

Xorijiy va Mahalliy Olimlar	Tariflar
E. Kennet	Tibbiy xizmatlar bozori-bu tibbiy texnologiyalar, tibbiy asbob uskunalar yordamida raqobatbardosh iqtisodiyot sharoitida tibbiy xizmat ko'rsatuvchi erkin faoliyatni tashkil etishdir ¹ .
R.Saltman	Tibbiy xizmatlar bu- mamlakat sog'ligini saqlashda tibbiyot buyumlaridan va soha xodimlarining malakasidan foydalanib tibbiy xizmat sifatida taqdim etishdir. ²
A. Ilyasova	Tibbiy xizmat bu- "aholiga shifokorlar tomonidan tibbiy yordam ko'rsatuvchi davlat, xususiy korxonalar, roliklinika, ambulator davolash markazlari hisoblanadi ³ .
I.Togunov	"Tibbiy xizmat" deganda -"bozor sub'ektlarining o'zaro ta'sirida aholi sog'ligini tiklash, davolash, maqsadida yaratilgan xizmat turlaridan biridip ⁴ "

¹ Kennet J.Arrow Uncertainty and the welfare economics of medical care.Economics and social facotrs/press.American Economic Review^a (1962. Vol. 53 . - P. 941-973).

² R.B.Saltman,J.Figeras/ published by the World health Organization regional office for Europe in 1997 the title europen Health care reform/№72

³ А. Р. Ильясова Основы экономики здравоохранения Учебное пособие Казани 2019г.

⁴ Тогунов И. К вопросу сегментирования рынка здоровья [Электронный ресурс]. - Режим доступа URL:http://www.rusmedserv.com/zdrav/market/article_35.html (дата обращения 05.07.11).

Y. Komarov	Sog'liqni saqlash bu-"aholi kasalliklarini davolash oldini olish tadbirlariga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni olib borish"dir ¹
A. Drozdova	Tibbiy xizmat bu-malakali mutaxassislar tomonidan taklif etiladigan sog'liqni tiklashga xizmat qiluvchi davolash choralari deb talqin qilgan ² .
L. Zenina.	Tibbiy xizmatlar bu-sog'liqni saqlash tizimi ustuvor tarkibiy qismi sifatida tibbiyot xodimlarining profilaktik faoliyati, tibbiy-ijtimoiy faolligi va aholi turli qatlamlarining sog'lom turmush tarziga yo'naltirish hisoblanadi. ³
M. Haydarov	Tibbiy xizmat- moliyalashtirilgan jamiyat osoyishtaligi va aholi turmush darajasini yuksaltiruvchi davolash-profilaktika ishlarini olib borish xisoblanadi ⁴ .
O'.Rajabov	Tibbiy xizmat -diagnostika davolash va reabilitatsiya qilish aholi sog'ligini yaxshilash hisobiga mamlakatda sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishdir ⁵ .
Muallif ishlanmasi	Tibbiy xizmatlar bozori-bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitida aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishda ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmni milliy innovatsiyalardan kelib chiqqan holda tibbiy texnologiyalar jihozlar va malakali tibbiy xodimlar yordamida davlat va nodavlat tibbiy munosabatlarning muvofiqlashtirilgan faoliyati ⁶ .

Tibbiy tovarlar va xizmatlar bozori esa - bu aholi sog'ligini saqlash va yaxshilash uchun tibbiy buyumlar va xizmatlar yetkazib beradigan bozor segmentidir⁷.

Sog'liqni saqlashni boshqarishdagi asosiy yo'nalish – kishilarning salomatligini mustahkamlash va tibbiy-demografik muammolarini yechish uchun davlat va jamiyatning muqobil ijtimoiy, huquqiy tibbiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish deb e'tirof etiladi.

JSST mamlakatda sog'liqni saqlashning holatini 4 ta umumlashgan yirik ko'rsatkichlar bilan baholaydi⁸:

- sog'liqni saqlash sohasidagi siyosatga taalluqli ko'rsatkichlar;
- ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar;
- tibbiy-ijtimoiy yordam bilan ta'minlangan ko'rsatkichlari;

4) aholi salomatligi holati ko'rsatkichlari.

Har bir darajadagi munosabatlar tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega, biroq, sog'liqni saqlashning asosiy maqsadi iqtisodiy nuqtai nazardan, tibbiy xizmatlar bozorida ishtirokchilar o'rtasida o'zaro manfaatli samarali aloqalarni shakllantirish hisoblanadi. Tadqiqotchilarning yuqoridagi taxlililariga asoslanib tibbiy xizmat ko'rsatish va uning bozorini tashkil etishning asosiy iqtisodiy -tashkiliy institutsional vazifalarni shakllantirish 2-rasmda keltirilgan⁹. T1.yu.i.

Umumiy xulosa qilib aytganda, yuqoridagi vazifalar tarkibidan ko'rinadiki, sog'liqni saqlash ijtimoiy tarmoq fan bo'lib, bozor munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida aholi salomatligini tiklash yo'lida yangi iqtisodiy bilimlar yo'nalishlar bilan boyib boradi va ijtimoiy-iqtisodiy fan sifatiga ega bo'ladi. Ya'ni fan-texnika yutuqlariga tayanib rivojlanayotgan menejmant marketing innovatsiya iqtisodiy bilimlar raqamli iqtisodiyot kabi fanlar natijalariga asoslangan tizimda yangi yo'nalishlardan bo'lgan tibbiy xizmatlar bozori kabi yo'nalishlarga tayangan holda takomillashib boradi.

¹ Комаров.Ю.М.Что оказывают медицинские учреждения: медицинскую помощь или медицинские услуги [Электронный ресурс] 05.03.2009.- Режим доступа: URL:www.viperson.ru (дата обращения 05.08.11

² Дроздова А.В. Понятие медицинской услуги как гражданско-правовой категории // Сибирский юридический вестник. – 2004. - №3

³ Зенина, Л.А. Экономика и управление в здравоохранении / Л.А. Зенина. - М.: Издат.центр «Академия», 2008. - 205с.

⁴ М.Т. Haydarov. Sog'liqni saqlash sohasining institutsional taraqqiyoti va moliyalashtirish tizimi // Экономика и финансы № 4, 2013

⁵ O'.Rajabov O'zbekistonda tibbiyot sohasini moliyalashtirish, tashkil qilish, mavjud imkoniyatlardan kengroq foydalanish istiqbollari // Экономика и финансы № 11, 2013


⁶ Manba muallif ishlanmasi

⁷ Kennet J.Arrow Uncertainty and the welfare economics of medical care.Ecomonics and social facotrs/press.American Economic Review^a (1962. Vol. 53 . - P. 941-973).

⁸ Лучкевич В.С. Основы социальной медицины и управления здравоохранением. - С-Пб., 1997 - 234с.

⁹ O'sha joyda qarang:

Tibbiy xizmatlar bozorini tashkil etishning iqtisodiy - tashkiliy vazifalari ti1111(1111



Ruziyeva Gulinoz Fatilloeyvna
 BDU tayanch doktoranti
gulinozfattiloyevna@gmail.com
 +998(91)417-29-82

O'ZBEKISTONDA HUNARMANDCHILIK KLASTERI MILLIY HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISH MODELII SIFATIDA

Anotatsiya. Bugungi kunda hunarmandchilikni rivojlantirish nafaqat ushbu sohani rivojlantirish, balki milliy an'analarni tiklash, ularni asl holida saqlash, ishsizlar bandligini ta'minlashda amaliy asos bo'lib xizmat qiladigan markazlar tashkil etishdir. Klaster modeli asosida hunarmandchilik ishlab chiqarishni rivojlantirish sayyohlar qamrovini oshirishga xizmat qilmoqda. Maqolada klasterlar tushunchasi berilgan va hunarmandchilik klasterlarini tashkil etish yo'nalishlari o'rganilgan.

Hunarmandchilik sohasi ko'p bosqichli bo'lib, turli ishtirokchilarni, mazmun sohasini, tayyorgarlik darajalari va mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Loyiha jamoasi tarixiy tajriba, hunarmandchilik sohasini rivojlantirishning afzalliklari va muammolarini tahlil qilish asosida hunarmandchilik sohasini rivojlantirishni kuchaytiruvchi birlashtiruvchi makon – hunarmandchilik klasterini yaratishni taklif qilmoqda. Maqolada “klaster” tushunchasining mohiyati, Buxoro viloyatida hunarmandchilik klasterini tashkil etish shartlari va usullarini tushunishga yordam beradigan savollarni ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun ushbu maqolada tushunchalarni tahlil qilish metodologiyasi qabul qilindi. Barcha tushunchalar va ularning manbalari keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqish, kutubxonalarni qidirish, bir qator turli veb-saytlar, onlayn jurnal nashrlari, konferentsiya materiallari, tezislari, turli institutsional hisobotlar va nashrlar edi.

"Klaster" atamasi taxminan bundan 150-200 yil oldin paydo bo'lgan bo'lib, nemis iqtisodchisi Alfred Veber ilk marta hodisa – faoliyatning bir turidagi korxonalarining ixcham hududda konsentratsiyasini klaster deb atagan. Klasterning mohiyati - bu "to'plam", muayyan faoliyat turlarining hududda konsentratsiyasi. Klasterlarning shakllanishi bir necha bosqichda sodir bo'ldi. Birinchi bosqichda hudud ma'lum turdagi mahsulotga ixtisoslasha boshlaydi. Bu birinchi navbatda, tabiiy omillar bilan bog'liq:

loy bor joyda kulolchilik, sharob - uzum yetishtiriladigan joyda tayyorlanadi. Tabiiylik ixtisoslik turiga ta'sir qiladi, keyinchalik u to'g'ridan-to'g'ri oddiy ko'payish tizimi orqali - otadan o'g'ilga o'tadi.

Hunarmandchilik bu kapital va jihozlar, qaysiki bob ova ota butun umri davomida yiqqan va avloddan-avlodga me'ros qoldiradi. Tajribani rivojlantirish bilan bir qatorda, izlanishlar ham mavjud, chunki turli xil vakolat markazlari bir-biri bilan raqobatlashadi. Bu bir-biri bilan raqobat jarayoni ishlab chiqarish sifatining oshishiga olib keladi, bu esa mijozlarning barqaror afzalligini belgilaydi va ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Ikkinchi bosqichda o'xshash tarmoqlarning bir joyda to'planishi iqtisodiy samara beradi, chunki mehnat taqsimoti ehtimoli mavjud. Masalan, bir turdagi ishlab chiqarish doirasida ketma-ket operatsiyalardan (bosqichlardan) iborat bo'lgan ma'lum bir texnologik tsikl mavjud. Agar biron bir operatsiya (bosqich) texnologik jihatdan majburiy bo'lsa-da, lekin kamdan-kam hollarda bajarilsa, unda operatsiyani (bosqichni) olib tashlash mumkin emas va uni bajarish foydasizdir.

To'rtinchi bosqichda, odamlar iqtisodiy rivojlanishning tsiklik xususiyatiga duch kelganda, klasterning ijobiy ta'siri - bir xil ishlab chiqarishning bir hududda kontsentratsiyasi - texnologik platformani o'zgartirishda teskari rol o'ynashi mumkinligi tushuniladi. Bozor o'zgardi, texnologik platforma o'zgardi va hudud darhol tushkunlikka tushdi va keyin klaster hodisasining aks etishi boshlandi: u iqtisodiy tsikllarga moslasha olishi uchun qanday tuzilishga ega bo'lishi kerak. Masalan, bir hududda faqat bir xil turdagi ishlab chiqarishni jamlash mumkin emas, bir nechta klaster tashabbuslarini ishlab chiqish kerak yoki klaster tarkibiga universitet (tadqiqot markazi) kerak bo'lib, u doimiy ravishda innovatsion rivojlanishni ta'minlaydi.

Ijodiy klaster (creative cluster) — tushunchasi Saymon Evans tomonidan kiritilgan. Bu yopiq hududda o'zaro aloqada bo'lgan ijodiy yo'naltirilgan tadbirkorlar jamoasi. Oddiy qilib aytganda, bu dizaynerlar, rassomlar, moda dizaynerlari uchun ideal yashash joyi bo'lib, ular uchun baland shiftlar va kechayu kunduz ishlash qobiliyati ba'zan maishiy qulaylikdan ko'ra muhimroqdir. Bunday joylar nafaqat ish uchun, balki hayot uchun, muloqot va umumiy g'oyalarni yaratish uchun hamdir.

Klasterning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- maksimal geografik yaqinlik;
- texnologiyalarning o'zaro bog'liqligi;
- umumiy resurs bazasi;
- innovatsion komponentning mavjudligi.

Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida klaster tushunchasi qonun bilan mustahkamlangan. *Umuman olganda, hunarmandchilik klasterlarini shakllantirishning ikkita modelini ajratib ko'rsatish mumkin:*

1. Birinchi "Yangi joylarni yaratish" modeli:

Prezidentimizning aholi daromadlarining oshirish, band bo'lmagan aholi, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida 2019 yilning 28 noyabr kuni qabul qilgan "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4539-sonli qarori fikrimizning yaqqol isbotidir.

Mazkur qarorga muvofiq, bugun respublika hududlari hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtiriladi va ularga hunarmandchilik mahsulotlarini chet el bozorlarida namoyish etish va sotish uchun ko'maklashish maqsadida O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari birlashtirilgan hamda Respublikaning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari joylashgan va boshqa yirik shaharlarda "savdo uylari" va milliy hunarmandchilik mahsulotlari do'konlari tashkil etilmoqda.

2019-yildan bugungi kunga qadar qaror ijrosini ta'minlash maqsadida "Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogi" joriy etilib katalogga hozirgi kunga qadar nufuzli xalqaro ko'rgazma, ko'rik-tanlov kabi tadbirlarda g'olib yoki laureat sifatida e'tirof etilgan, tegishli sohada san'at va fan arbobi hamda akademiklarning tavsiyasiga ega, «O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi» faxriy unvoniga ega xunarmandlar Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogiga kiritiladigan nomzodlarni tanlash bo'yicha tuzilgan kengash qarori asosida 336 nafar hunarmand kiritilgan.

Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogiga milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati sohasida faoliyat yuritib kelayotgan va soha rivojiga ulkan hissa qo'shgan tajribali, iste'dodli hunarmandlarni kiritish orqali ularni rag'batlantirish nazarda tutilgan bo'lib bu katalogning tashkil etilishi, hunarmandchilik faoliyatidagi ilg'or tajribalarini ommalashtirish, o'zbek xalq amaliy san'ati namunalari o'zbek brendi sifatida xalqaro miqyosda targ'ib qilish, xalq amaliy san'atining noyob va yo'qolib borayotgan turlarini saqlash, qayta tiklash kabilar uchun amaliy asos bo'lib xizmat qildi. Barcha

xoxloxchilar milliy katalogga kiritilgan hunarmandlar ro'yxatini va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni www.handicraftman.uz sayti orqali kuzatib b orishlari mumkin bo'ladi.

«Hunarmand» uyushmasi 2020 yil 1 yanvardan boshlab Milliy katalogni ochiq va umum foydalaniladigan veb-sayt ko'rinishida ishga tushirgan edi. Bu katalogning veb-sayt ko'rinishida ishga tushirish, avvalo hunarmandlar faoliyati bilan jahon bozorini tanishtirish uchun xizmat qilishi mumkin. Chunki xorijiy mamlakatlarning aksariyati yurtimizga tashrif buyurishdan oldin onlayn ma'lumotga ega bo'lish maqsadida web-sahifalarga murojaat qiladi. Ularda hunarmandlar faoliyatini yuritib borish turistlar oqimining ortishiga xizmat qilishi mumkin.

Hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha yangidan davlat ro'yxatidan o'tishda to'lanadigan davlat boji yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun amalda belgilangan davlat boji miqdorining 50 foizi miqdorida o'rnatilishi ham ro'yxatga kiradigan hunarmandlar sonining ortishiga xizmat qiladi.

Shuning bilan birga "Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reestri" yuritila boshlandi. 2023 yil 1 yanvarga qadar Milliy katalog va Reestrda kiritilgan hunarmandlar uchun kalendar yili davomida hunarmandchilik mahsulotlarini (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan tushumi 100 mln so'mdan 1 mlrd so'mgacha bo'lgan miqdori uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yagona soliq to'lov stavkasi 2 foiz miqdorida to'lanadi.

Qisqacha qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 28.11.2019-yildagi PQ-4539-sonli qarori milliy o'zligimiz va asriy an'alarimizni o'zida uyg'unlashtirgan hunarmandchilik mahsulotlarini ko'proq tayyorlash, bu mahsulotlarni yurtimizning tashrif qog'ozi va turizm brendiga aylantirish va albatta «Ustoz-shogird» an'anasini izchil davom ettirib, yoshlarni hunar o'rganishga keng jalb etishda muhim turki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bu raqamlarning oshib borishi, o'z navbatida davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imtiyozlarning va qonuniy jihatdan hunarmandlar huquqlarining himoya qilinganligi bilan bog'liqdir. Shu o'rinda, uyushma a'zolari o'zi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushumi bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashdan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlarga ega bo'ladi, uyushma a'zolari O'zbekiston va chet davlatlarida o'tkazib kelinyotgan ko'rgazmalar, festival va manaviy-ma'rifiy tadbirlarda o'z mahsulotlari bilan qatnashish imkoniyatiga ega bo'ladi, O'zbekiston "Hunarmand" uyushmasi "Ishonch" banklararo sug'urta kompaniyasi bilan shartnoma asosida uyushma a'zolarini ijtimoiy himoya ishlarini amalga oshiradi.

2. Ikkinchi model "Kichik ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasi shaklidagi shartnoma modeli" (Italiya klaster modeli).

Italiyada klaster "sanoat tumani" deb ataladi. Sanoat tumanlari, qoida tariqasida, kichik shaharlarda joylashgan bo'lib, klasterni rivojlantirishda mahalliy munitsipalitetlar katta rol o'ynaydi. Klaster o'z raqobatbardoshligini oshirish uchun turli uyushmalarga birlashgan ko'plab kichik firmalardan iborat. Bu bo'yicha bugungi kunda viloyatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi —Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi PF-5242-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi —Hunarmand uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-3393-son qarori
3. Hunarmand tadbirkorlarni tayyorlashdagi innovatsiyalar: monografiya. / E.F. Zeer, D.P. Zavodchikov, E.G. Lopez, A.M. Pavlova; ilmiy tahrir. E.F. Zeera. Yekaterinburg: FGAOU VPO "Ros. Davlat prof. - ped. un-t", 2011. 216 b.
4. Komarova O.V., Salamatova T.A. Hunarmandchilik, kichik va o'rta biznes va o'rta sinfni rivojlantirish muammolari. Yekaterinburg: nashriyot uyi: FGAOU VPO "Ros. davlat prof. - ped. un-t", 2012. 163 b.
5. Kanadada hunarmandchilik sektorini o'rganish. elektron resurs. Kirish rejimi: <http://canadiancraftsfederation.typepad.com/files/study-of-the-crafts-sector-in-canada.pdf>
6. G.F. Ro'ziyeva "Turizmni rivojlantirishda milliy hunarmandchilik brendini yaratishning iqtisodiy-psixologik ahamiyati" Buxoro muhandislik-texnologiya institutining "Fan va texnologiyalarni rivojlantirish" ilmiy-texnikaviy jurnali. - Buxoro, 2020. - B 313-317
7. G.F. Ruziyeva "Milliy turizm jozibadorligini oshirishda hunarmandchilikning roli" Barqarorlik va yetakchi tadqiqot onlayn ilmiy jurnali – Toshkent, 2021
8. G.F. Ro'ziyeva "Turizmni rivojlantirishda milliy hunarmandchilik brendini yaratishning iqtisodiy ahamiyati" Xorazm Badiiy Akademiyasi axborotnomasi. Xorazm 2021 yil dekabr

Олланазаров Б.Д.
“Туризм ва меҳмонхона хўжалигини
бошқариш” кафедраси доценти, PhD
Файзуллаев Н.Б.
“Бухгалтерия ҳисоби ва аудит”
кафедраси доценти, PhD
Абдуллаев Х.
“Иқтисодиёт” кафедраси
катта ўқитувчиси

МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШДА ТУРИСТИК КЛАСТЕРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Бугунги кунда туризм саноати мамлакат ва унинг минтақалари иқтисодиёти, сиёсати ривожига етарли даражада чуқур ижтимоий-иқтисодий таъсир кўрсата олиши билан ажралиб туради. Шунингдек, туризм соҳасида маданият ва транспорт, экология ва аҳоли бандлигини таъминлаш, меҳмонхона бизнеси ва санатория-курорт мажмуалари, хавфсизлик ва халқаро иқтисодий муносабатларнинг интеграциялашув жараёни амалга ошмоқда.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётида туризм соҳаси тез суръатлар билан самарали динамик равишда ривожлана бошлади. Шу нуқтаи назардан ҳукумат ва минтақавий ҳокимият органларининг туризмга бўлган муносабати ўзгара бошлади. Ўзбекистон Республикаси ва унинг минтақалари юқори туристик салоҳиятга эга, аммо мамлакатимизнинг баъзи минтақаларида, ноёб диққатга сазовор табиий жойларни жаҳон талаблари бўйича аниқлашга имкон берадиган, рақобатбардош туристик кластерлар мавжуд эмас. Ўзбекистон Республикасида ҳудудий кластерларни шакллантириш ва ривожлантириш, миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш, давлат-хусусий шерикчилик механизмларини интенсивлаштириш-нинг муҳим шарт-шароити ҳамда туризм соҳасининг истиқболли йўналишларидан бири ҳисобланади. Туристик кластерларнинг мамлакат ва минтақалар иқтисодиёти рақобатбардошлигини оширишдаги роли катта бўлиб, уларнинг муваффақиятли ривожини минтақада иқтисодий ҳолатнинг мустаҳкамланиши ва ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади¹, жумладан:

- ҳокимият вакиллари аҳоли олдидagi ижтимоий мажбуриятларини бажаришига;
- кластер доирасида тадбиркорлик субъектлари фаолиятини самарали рағбатлантириш бўйича ташаббусларни кўпайишига;
- келгусида рақобатбардошликни реал равишда таъминлаш имкониятларининг оширилишига;
- кадрлар билан таъминлаш инфратузилмасининг яхшиланишига;
- тадқиқотлар ва илмий ишланмалар учун инфратузилманинг шакллантирилишига;
- ҳаражатларнинг камайтирилишига;
- халқаро бозорларга чиқиш имкониятларининг кенгайтирилишига;
- ўхшаш турдаги хизмат кўрсатиш имкониятларидан биргаликда фойдаланиш имкониятларининг оширилишига.

Бундан ташқари кластер тадбиркорлик субъектлари учун юзага келадиган муаммоларни тизимлаштириш ҳамда уларни ечиш йўллари биргаликда танлаш имкониятларини ҳам шакллантиради. Минтақавий ҳокимият вакиллари ва тадбиркорлик субъектлари кластернинг таъсир даражаси ва ваколатларидан биргаликда фойдаланган ҳолда самарали фаолият кўрсатиш мақсадида ўз ташаббусларини давлат ва минтақа ҳокимият тузилмаларига тақдим қилиш орқали меъёрий-ҳуқуқий актларни тайёрлаш даражаларига таъсир ўтказа оладилар. Миллий ва хорижий тажрибалар таҳлилига мувофиқ равишда кластерлар минтақа иқтисодиётига ижобий таъсир кўрсатиб, рақобатбардошликни ошириш, кластер иштирокчилари салмоғини кенгайтирган ҳолда жаҳон бозорларига чиқиш ташаббусларини кенгайтириш имкониятларини юзага келтиради. Кластерлар ўзига хос инновацион тизим сифатида минтақа иқтисодиётининг самарали ривожланиши учун асос бўла олади. Кластер ёндашувининг қўлланиши, билимларни бирлаштиришнинг янги шакллари яратиши, инновацион ва илмий-техник йўналишларнинг юзага келишини рағбатлантириши ҳамда

¹ Багирян В.А. Туристический кластер как механизм привлечения инвестиций в экономику региона. // Финансовые исследования №4(53) 2016. Стр. 182-188.

тижоратлаштирилишига имкон яратган ҳолда бевосита таълим, илм-фан ва тадбиркорлик соҳаларини қўллаб қувватлашга шароит яратади¹.

Туристтик кластерлар муваффақиятли фаолият кўрсатиши учун инновацион технологиялар асосида истиқболли лойиҳаларни инвестициялаш имкониятига эга бўлган кичик тадбиркорлик субъектларини бирлаштира оладиган тузилмаларни шакллантириш лозим².

Минтақавий туризм бозорининг рақобатбардошлигига: давлат манфаатлари, ташқи ва ички талаб даражаси, ижтимоий-иқтисодий тизим, туризм соҳасида амалга оширилаётган сиёсат, тадбиркорлик субъектлари ва аҳоли манфаатлари, ресурсларнинг мавжудлиги ва ҳолати, экологик тизим каби кўплаб омиллар таъсир кўрсатади.

Минтақавий кластер сиёсатининг мақсади айнан инвестицион муҳитни шакллантирилишига, минтақа ижтимоий ва иқтисодий ўсиш сифатининг оширилишига, хўжалик субъектлари рақобатбардошлигининг оширилишига қаратилган бўлиши лозим.

Қоидага кўра, туризм тармоқ сифатида минтақа меҳмондўстлик саноати ривожда мультипликатив самарани шакллантира олиши ҳамда субъектларнинг ижтимоий ва иқтисодий ривожланиш имкониятларини амалга ошириш учун асос бўлиб хизмат қилиши шарт.

Бозор шароитлари доирасида туризмнинг муваффақиятли ривожланиши ва туристик мажмуа субъектлари фаолияти ривожини таъминлайдиган комплекс стратегияни шакллантириш учун маҳаллий ва минтақавий ҳокимият органлари, туристик фирма ва ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш керак. Турли мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, туризм ва давлат ривожини ўртасида бевосита боғлиқлик мавжуд, жумладан, давлат томонидан қўллаб-қувватланиши. Туризм соҳасида давлат сиёсатининг амалга оширилиши туризм соҳасига жаҳон бозори шароитларида тенг ҳуқуқли тармоқ сифатида маҳсулдорлик билан фаолият кўрсатишга имкон яратади.

Фикримизча, минтақа ҳокимият органлари, туристик инфратузилмани ривожлантириш учун зарур шарт-шароитларни яратишлари лозим, бу эса ўз навбатида минтақа инвестицион фаоллигини ошириб, минтақа туристик ресурслари ва имкониятларидан фойдаланиш орқали туристик маҳсулотларнинг миллий ва жаҳон бозорида таклиф қилиш имкониятини оширади.

Минтақада кластер сиёсатини амалга оширишда иқтисодий ва ташкилий-ҳуқуқий жиҳатдан тўғри ёндашувнинг олиб борилиши натижасида алоҳида ҳудудлар ривождаги номуносивликнинг ўзига хос хусусиятларини эътиборга олган ҳолда муваффақиятли ечим топиш, маҳаллий бюджетга кўшимча даромадлар тушумини ошириш ҳисобига минтақа иқтисодиётида жонланишни юзага келтириш, инфратузилмани яхшилаш, аҳоли бандлигини таъминлаш, маҳаллий товар ишлаб чиқарувчилар товарларига талабни ошириш, табиатни муҳофаза қилиш дастурларини кўшимча равишда молиялаштириш эвазига экологик ҳолатни яхшилаш, ҳорижий инвестициялар ва ташқи иқтисодий интеграция активларини жалб қилишни фаоллаштириши мумкин.

Шу нуқтаи назардан, олиб қараганда, минтақада туристик кластерлар муваффақиятли ривожланиши, амал қилиши ва туризм соҳаси тадбиркорлик субъектлари рақобатбардошлигини оширишга қуйидаги шарт-шароитларнинг самарали амалга оширилиши имкон яратади:

- туристик кластерни шакллантиришга қаратилган аниқ ва пухта ўйланган стратегияни шакллантириш;
- минтақанинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини, унинг ташкилий-бошқарув ва молиявий-иқтисодий таркибий қисмларини бошқаришга имкон берадиган махсус механизмни яратиш;
- минтақада қулай экологик муҳитни шакллантириш;
- туризм соҳасида банд бўлган кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини қўллаб қувватлаш.

Ушбу юқорида келтирилган шарт-шароитларнинг минтақада муваффақиятли амалга оширилиши туристик кластернинг истиқболли ривожланишини ва муваффақиятли фаолият кўрсатишини таъминлаши мумкин. Шубҳасиз мавжуд имкониятларга ва алоҳида олинган йўналишларнинг етарлича таъминланганлигига қарамадан, туристик кластер объектлари ягона механизм сифатида, яъни мувофиқлаштирилган ҳолда фаолият кўрсатиши лозим. Қўлланиладиган кластер ёндашуви давлат-хусусий шерикчилигининг турли шакллари ривожланишини, бошқарувнинг дастурий ва мақсадли усулларини амалга оширилишини кўзлайди.

¹ Дмитриева Г.А., Илюхина С.С., Власов А.В. Формирование и развитие туристско-рекреационных кластеров как механизм повышения конкурентоспособности региональной экономики. // Проблемы экономики. №3. 2019. Стр. 91-95.

² Боголюбов В.С., Быстров С.А., Боголюбова С.А. Экономическая оценка инвестиций в развитие туризма. – М.: Академия, 2014. – 296 с.

Кластер сиёсатининг самарали амалга оширилиши минтақада туризм соҳасини сифатли ривожлантириш ва миллий иқтисодиёт ривожланиш даражасини ошириш учун зарур бўлган қатор масалаларни ечиш учун муҳим дастак вазифасини ўташи мумкин.

Шуни таъкидлаш лозимки, табиий диққатга сазовор жойлар, маданий ва архитектура ёдгорликларидан ташқари, катта ҳажмдаги туристлар оқимини жалб қилиш мақсадида форумлар, анжуманлар, конкурслар, тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш лозим.

Фикримизча, минтақа туристик мажмуасининг объектив рақобат устунликларидан тўлақонли фойдаланишга эришиш учун ташкилий, интеллектуал ва моддий воситаларни қуйидаги истиқболли стратегик йўналишларга йўналтириш зарур:

- манфаатларни рағбатлантириш ва уйғунлаштириш, ҳамда меъёрий-ҳуқуқий асосларни, солиққа тортиш тизимини, молия-кредит сиёсатини такомиллаштиришга қаратилган механизмларни ўз таркибига оладиган институционал муҳитни ривожлантириш;
- туризм соҳасида юқори малакали кадрларни тайёрлаш;
- янги туристик маҳсулотларни ва эксклюзив маршрутларни ишлаб чиқиш туризм соҳасидаги тадбиркорликни диверсификациялаш;
- туристик хизматларни, минтақавий туристик маҳсулотларни жаҳон бозорларидаги тарғиботини кучайтириш;
- туризм ресурсларидан самарали фойдаланиш мақсадида чегарадош қўшни минтақалараро ва давлатлараро ҳамкорликни шакллантириш ва ривожлантириш;
- турли категорияга мансуб бўлган жозибатор туристик худудлар мавжудлигини эътиборга олган ҳолда туристик кластерларни шакллантириш.

Хулоса қилиб айтиладиган бўлсақ, қулай ташқи иқтисодий конъюктура шароитида Ўзбекистон Республикаси ва унинг минтақалари туризмни ривожлантириш учун барча истиқболли имконияларга эга ҳисобланади. Туризм соҳасида олиб борилаётган тадқиқотлар мамлакатимиз минтақаларида туристик кластерларни шакллантириш доирасида соҳада фаолият кўрсатаётган тадбиркорлик субъектлари фаолиятида ўзаро бир-бирини тўлдирувчи интеграцион жараёнларни шакллантириш имкониятларининг, ҳамда туризм соҳасида янги билим ва технологияларни тарқатиш тизимини шакллантирувчи инструментлар мавжудлигини кўрсатмоқда. Шу нуқтаи назардан юқоридаларни амалга ошириш учун институционал шарт-шароитлар зарур ҳисобланади, шунинг учун минтақа тадбиркорлик субъектларининг туристик кластерларни шакллантириш бўйича ташаббуслари минтақада туризмни ривожлантиришнинг ягона инновацион стратегиясига интеграциялашган бўлиши лозим.

Исомов Бекмурат Сайфиддинович.

БухГУ, кафедра Бухгалтерского учета и статистики

РОЛЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В РЕШЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

Значение инвестиционной политики в контексте обеспечения устойчивого экономического роста усугубляется тем, что расширение сфер инвестирования, усложнение его структуры в условиях рыночной трансформации экономики Узбекистана сопровождается возникновением угроз экономической безопасности, не имеющих соответствующих и одновременно действенных механизмов их нейтрализации. Поэтому современный инвестиционный процесс предполагает переход к качественно новой системе регулирования, которая должна функционировать на основе принципов и критериев экономической безопасности. Государство объективно вынуждено активнее внедрять механизм инвестиционного обеспечения экономической безопасности, направлять его на взаимосогласованную реализацию национальных экономических интересов, формировать необходимые, в том числе рыночные, условия саморазвития инвестиционных процессов в соответствии с внутренними и международными вызовами. Кроме этого, в процессе становления и развития рыночных отношений эффективная инвестиционная политика, которое обуславливает наличие системности, четкости и обоснованности приоритетов. В 2022-2026 годах новый Узбекистан будет опираться на модернизированную экономику. Для формирования такой экономики необходимо продолжение институциональных и структурных реформ, направленных на снижение государственного участия и налоговой нагрузки, поощрение развития малого бизнеса и частного предпринимательства{1,136} Все вышеизложенное позволяет представить перечень

основных проблем инвестиционной политики реального сектора экономики на современном этапе следующим образом:

- распределение конкретных функций управления инвестиционным процессом и соответствующих прав и ответственности между руководящими структурами пяти уровней (государственного, отраслевого, регионального, муниципального и предприятия). Разработка четкого механизма взаимодействия этих органов управления инвестиционным процессом;
- построение выборочной и адресной системы финансирования инвестиционных проектов;
- реализация "самофинансирования" инвестиционных и хозяйственных решений предприятиями и региональными органами власти в случае сокращения бюджетного финансирования;
- активизация банковской системы кредитования участников инвестиционного процесса;
- разработка системы конкурса инвестиционных заявок и процедуры государственных и банковских оценок сравнительной приоритетности проектов как объектов финансирования;
- разработка законодательной и нормативно-правовой базы, стимулирующей инвестора к инициативной деятельности и снижающей до минимума инвестиционные риски;
- Ликвидировать монополии в более чем 25 видах деятельности за счет отмены эксклюзивных прав и приватизации компаний с государственным участием в целях сокращения участия государства в экономике и создания широких возможностей для частного сектора экономики{2};
- технико-технологическое обновление основного фонда через новое строительство, реконструкцию и модернизацию основной части перспективных предприятий и другие.

Основные направления инвестиционной политики республики Узбекистан на ближайшее будущее во многом определяются необходимостью решения вышеперечисленных проблем. В перспективе инвестиционная политика реального сектора должна быть ориентирована на рыночную систему хозяйствования в развивающейся стране, базироваться на принципиальных положениях правительственной программы развития и стабилизации узбекской экономики.

Рациональная и эффективная инвестиционная политика в современных условиях должна отвечать определенным требованиям и, прежде всего, быть перспективной (а не одномоментной). Для этой политики характерны следующие положения:

- она должна обеспечить объективно достаточный для развития экономики в целом, производственных отраслей и социальных издержек уровень интенсивности капитальных вложений, то есть сначала стимулировать выход из экономических депрессий, а затем не допускать "перегрева" экономики. Это предполагает развитую систему активных экономических рычагов и стимулов воздействия на поведение инвесторов;
- в части государственных вложений она должна основываться на строго сбалансированных бюджетных и внебюджетных ассигнованиях и стимулировать целевое и эффективное использование инвестиционных ресурсов с учетом инфляции;
- она призвана обеспечить нормальные цивилизованные условия для частных инвесторов как в части создания инвестиционных возможностей, так и стимулирования инвестиционных намерений. Это предполагает отказ от фискальных принципов налоговой политики и переориентацию на достаточно продолжительные и устойчивые инвестиционные приоритеты.

В Узбекистане очень важная задача это обеспечение безопасности предпринимательской деятельности для субъектов хозяйствования различных форм собственности.

В целом, современная инвестиционная политика должна быть направлена, прежде всего, на стимулирование инвестиционной активности предприятий, частных инвесторов, иностранных инвесторов. Это является важным условием для развития локомотивных секторов экономики и для осуществления эффективной инвестиционной политики.

Использованная литература.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston - taraqqiyot strategiyasi. T.: O'zbekiston. 2022.B-136.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. Toshkent sh., 2022-yil.

Radjabov Odil Olimovich
Bukhara State University
Lecturer at the Department
of Tourism and hotel management,
PhD student at Valencia Polytechnic university, Spain

PROMOTIONAL MEASUREMENTS OF UZBEKISTAN IN ABROAD FOR SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT

Participated with the national tourism stand "Uzbekistan" in 12 international tourism exhibitions and fairs, in particular: International Travel and Tourism Fair FITUR-2019 (Madrid, Spain), the exhibition ITB-2019 (Berlin, Germany), the exhibition of recreation and travel MITT-2019 (Moscow, Russia). Moscow, Russian Federation), IMTM-2019 (Tel Aviv, Israel), EMITT-2019 (Stam Bull, Turkey), Vacation-2019 (Republic of Belarus), SITIF (South Korea), ATM (Tel Aviv, Israel), Vacation and Travel Fair EMITT-2019 (Stam Bull, Turkey), Vacation-2019 (Republic of Belarus), SITIF (South Korea), ATM (Tel Aviv, Germany). (Dubai, UAE), "IFTM Top Resa" (Paris, France) "ITB Asia 2019" (Singapore), "Tourism Expo Japan" (Osaka, Japan) "WTM" (London, UK).

The State Committee for Tourism in Russia organized an event with the participation of specialists of the State Committee for Tourism "All Experts Recommend Uzbekistan for Travel" with the participation of more than 50 journalists, bloggers, influencers, industry media. On the day of the event, a briefing was held by representatives of the State Tourism Committee, as well as partners of "Ostrovok.ru" and "Avialsales.ru".

About 160 representatives of more than 30 foreign mass media and companies (PBS (USA), Trans7 (Indonesia), REN TV (Russia), Lost Avocado (Italy), Mystery Box (USA)) have made trips to Uzbekistan, of the Turkish film industry "TRT BELGESEL", leading German media headed by the General Director of "Gebeco GmbH & Co", "National Geographic Israel", "Society for Cultural Development of Beijing City Mass Media and Tour Operators of China", etc.), as well as visiting bloggers, the Halilintar family (Indonesia), the Genhalilintar family of bloggers, video blogger Jacob Schwartz, and the travel writer, blogger and co-founder of the leading Italian website "The Lost Avocado" Sarah Izzy.



Picture 1. Promotion of tourist potential through popular Media

(Source: Collection book of Committee of Development of Tourism of republic Uzbekistan for 2019)

Taking into account the importance of mass events in stimulating the attraction of tourists, starting from this year we have organized major mass events in each region, based on the specifics of each of them.

The main achievement in 2018 in this direction can be considered the approval of the Resolution by the President of the Republic of Uzbekistan "On the creation of the international tourism university "The Silk Road"" PD № 3815 from the 28th of June 2018.

Festivals and public events: The First Ziyosiy Tourism Forum (Bukhara region), which was attended by over 120 foreign guests from 34 countries.

The first international tournament "Games of Bogatyrs" (Khorezm region) in cooperation with the World Strongmen Federation (WSF) and the Federation of Bogatyrs' Games and Kettlebell Lifting of Uzbekistan.

International Archeological Tourism Forum "Uzbekistan - the crossroads of civilizations" (Surkhandarya region), attended by about 140 international experts, art historians, researchers of historical and cultural heritage of Central Asia, restorers, representatives of the spheres of culture, tourism and education from our country and almost 80 countries.

RATE	CRITERIA	PLACE TAKEN
Rating "Gallup Global"	Country safe for traveling	5 th among 142 countries
British newspaper "Financial Times"	10 most attractive touristic directions in the coming year	2
Magazine "Travel and Leisure" (PRC)	The best place for tourism	1
"Lonely Planet" (publishing company issuing guide-books for the tourists of modest means)	Popular touristic directions in the coming year	2
Analytical agency "Tour Stat"	Top 5 popular countries for gastronomic tourism	5

Table 1. Uzbekistan in the international rates in 2018

(Source: Collection book of Committee of Development of Tourism of republic Uzbekistan for 2018)

The First International Geotourism Forum (Kashkadarya region) was attended by over 300 scientists and specialists from 14 countries in the field of geology and tourism.

The first international conference "World Influencers Congress" was attended by more than 90 bloggers, influencers and media representatives of the world, with a total audience of over 150 million people.

There were also such events as the Festival of Craftsmen (Ferghana region), "Suzana" celebration in Navoi region, music festival "The magic of dance" and sports tournament "The game of athletes" in Khorezm region, festival "Art of Bakhshi" in Surkhandarya region, Rally "Muynak-2019" and music "Element" in the Republic of Karakalpakstan, the first CIS tourist fair in Samarkand region, festival "Anor" in Kashkadarya region, gastronomic festival "Gastro Bazar", festival of electronic music in the city of Kashkadarya. Tashkent, etc.

Work with our compatriots in foreign counties: in order to organize work with foreign compatriots, a department for work with the diaspora abroad was established in the Committee structure. Direct contact was established with a number of active representatives of diasporas, a mechanism of interaction through social networks was introduced, and further promising measures for cooperation were identified.

The sets of handouts produced by the State Unitary Enterprise "PR Centre" have been distributed among the foreign public, in total - more than 60 thousand handouts.



60 000 spread cards

40 forums



90 actions



Together with the involved foreign institutions and the Diaspora 38 forums have been held for compatriots abroad, in particular, in the Czech Republic, Finland, France, Germany, Japan, Latvia, Mongolia, the Netherlands, Poland, the Republic of Korea, Russia, Switzerland, the United Arab Emirates and the United States.

In addition, together with our compatriots, 90 actions were held in the UK, Germany, India, China, Latvia, Malaysia, UAE, Poland, Russia, USA, Thailand, Turkey, Sweden, Czech Republic, Japan, etc. to

present the tourism potential of Uzbekistan and promote the national brand "Uzbekistan". In total, more than 6 thousand people in 20 countries were involved in the process of promoting the tourist potential of Uzbekistan abroad.

New tourism development: The Plan of Measures for Development of MICE Tourism was developed and approved by the Cabinet of Ministers, within the framework of which the MICE tourism catalogue "Meetings & Events Catalogue" was created.

The Catalogue presents infrastructure facilities for business events, conferences, seminars and various forums.

For holding MICE-events the Committee established the Congress and Exhibition Centre of Uzbekistan. Also, the draft decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures on development of MICE tourism in Uzbekistan" was developed and introduced to the Cabinet of Ministers of Uzbekistan. In addition, the calendar of international and local sporting events held in Uzbekistan has been developed.

The ethnocultural tourist villages "Kumushkon" (Tashkent province) and "Varganza" (Kash Kadarya) have been established.

A Cabinet of Ministers decision on measures to accelerate the development of cinematographic tourism and to promote the country's cinematic appeal in Uzbekistan was drafted and adopted in order to develop the potential of cinematographic tourism on the basis of a study and analysis of cinematographic tourism. (June 14, 2019, No. 499).

REFERENCES

1. UNWTO, International Tourism Highlights, 2020 Edition - <https://www.e-unwto.org/doi/pdf/10.18111/9789284422456>
2. UNWTO, COVID-19 and Tourism. 2020: A year in review , 2021, January-
<https://www.unwto.org/covid-19-and-tourism-2020>
3. Fletcher, R.; Mas, I.M.; Blazquez-Salom, M.; Blanco-Romero, A. Tourism, Degrowth, and the COVID-19 Crisis. Political Ecology Network. Available online: <https://politicalecologynetwork.org/2020/03/24/tourism-degrowth-and-the-covid-19-crisis/> (accessed on 1 April 2021).
4. Jurado, E.N.; Palomo, G.O.; Bernier, E.T. Propuestas de Reflexion Desde el Turismo Frente al COVID-19. Incertidumbre, Impacto y Recuperacion. Universidad de Malaga. Available online: <http://www.i3t.uma.es/wp-content/uploads/2020/03/PropuestasReflexiones-Turismo-.pdf> (accessed on 14 March 2021).
5. SPOT-news. Азиз Абдухакимов: «На самом деле Узбекистан посетило около 200 тысяч туристов, а не 2,5 млн». <https://www.spot.uz/ru/2018/05/01/tourism-stat/>
. № DP-5326 03.02.2018-<https://lex.uz/docs/4119346>

Н.Б. Файзуллаев
УрДУ, Бухгалтерия ҳисоби ва аудит
кафедраси мудири
, и.ф.ф.д. (PhD), nurullabek@mail.ru
Х. Абдуллаев
УрДУ, Иқтисодиёт кафедраси
катта ўқитувчиси
У.Б.Исламов
УрДУ, 2-босқич магистранти

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИНВЕСТИЦИОН САЛОҲИЯТИДАН САМАРАЛИ Фойдаланиш ва инвестицион жозибадорлигини оширишнинг Ўзига хос жиҳатлари

Республикада ижобий инвестицион иқлимнинг мавжудлигига қарамасдан, амалдаги ҳуқуқий кафолатлар ва имтиёзлар тизими ишлаб чиқариш фаолиятини амалга оширишда хорижий инвестиция иштирокидаги корхона(ХИИК)ларга тақдим қилинган имтиёзлардан самарали фойдаланиш имкониятини ҳар доим ҳам яратиб бера олмайди. Иқтисодиётнинг реал секторига инвестицион оқимни тўхтатиб турувчи омиллар таҳлили инвестицияларни жалб этишнинг мавжуд муаммолари миллий ва хорижий инвесторлар учун бир хил эмаслигини аниқлаб берди, бунинг асосий сабаби хорижий инвесторларга қонунчилик томонидан кўпроқ миқдордаги имтиёзларнинг тақдим этилишидир.

Иқтисодийнинг реал секторига инвестициялар оқимини тўхтатиб турувчи омиллар таҳлили янги инвестицияларни жалб қилишдаги кўпгина муаммолар ҳал этилмай қолаётганини кўрсатиб бермоқдаки, бу муаммоларни ижобий ҳал қилиш ва чет эл инвестицияларини ҳудудларга жалб қилишни янада кўпайтириш учун қуйидагиларни амалга ошириш зарур деб ҳисоблаймиз:

- ✓ давлат инвестицион дастурларини тузишда ва катта лойиҳаларни амалга оширишда ҳудуд ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини ва суръатларини ҳисобга олиш;
- ✓ мамлакат ҳудудларининг ривожланганлик даражасига қараб иқтисодий районлаштириш ва бу асосда инвестициялашда ҳудудий муҳимлик даражасини аниқлаш, инвестицион жараёни тартибга солишнинг дифференциал (табақалашган) чора-тадбирларини ишлаб чиқиш, бунда ҳар бир ҳудуд манфаатлари мувозанатлаштирилиши ҳам эътиборга олинади;
- ✓ чет эл инвестицияларини алоҳида султ ривожланаётган ҳудудларга жалб этишни рағбатлантириш, бунда ҳудудий бошқарув органларининг маъсулиятини ҳудудий инвестицион лойиҳаларни реализация қилишга, лойиҳа ғояларидан бошлаб, ишланмалари, банкларда экспертизадан ўтказишдан тортиб, то олинган кредитни қайтаришгача янада ошириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади;
- ✓ давлат бошқарув органлари ва нодавлат ташкилотлари фаолиятини чет эл инвестицияларини жалб қилиш, ташқи бозорни ўрганиш, маркетинг тадқиқотларини йўлга қўйиш ва миллий товарларнинг кейинги ҳаракатини экспортга йўналтириш учун фаоллаштириш;
- ✓ ҳар бир ҳудуд учун ахборот – аналитик маълумотлар базасини яратиш ва ҳудудлар инвестицион имкониятлари тўғрисидаги маълумотлар билан инвесторларни таъминлаш учун амалий чораларни ишлаб чиқиш.

Ҳудудлар инвестицион салоҳиятидан самарали фойдаланишни давлат тасарруфида бор бўлган барча воситалар ёрдамида рағбатлантириши, инвесторни катта самара олиши мумкин бўлган ва қутилаётган ҳудудларга кириб боришга ундайди. Шуниси ойдинки, бундай вазиятларда ҳукумат ўз даромадлари максимал ўсишига ва республика бюджетининг қўшимча тўлдирилиши имкониятларига умид қилади. Шунинг учун Ўзбекистон Республикаси инвестицион сиёсатида асосий эътибор ҳудудларнинг экспорт салоҳияти ривожланишининг даражалари орасидаги номуносивликлар ёки кескин фарқланишларни, уларнинг инвестицион фаолиятини жадаллаштиришга асосланиб бартараф этишга қаратилган.

Республика ҳудудларида инвестицион ва экспорт жараёнларининг кейинги жадаллашуви ҳамда ҳудудлар инвестицион жозибдорлигини янада ошириш учун қуйидагилар таклиф қилинади:

- алоҳида ва султ ривожланаётган ҳудудлар бўйича чет эл инвестицияларини жалб қилиш амалиётини давом эттириш. Бунда ҳудудий бошқарув органларининг ҳудудий инвестицион лойиҳаларни, уларнинг ғоясини тузиш, унга ишлов бериш, банкларда экспертизадан ўтказишдан тортиб, то олинган кредитларни қайтаришгача маъсулиятини янада ошириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади;

- ҳар бир ҳудуд даражасида ахборот-таҳлилий маълумотлар базасини яратиш. Ҳудуднинг ҳали фойдаланилмаган экспорт имкониятлари тўғрисидаги маълумотлар билан инвесторларни таъминлаш, ҳамда ҳар бир ҳудудда тақдимот тадбирлари ва бизнес семинарлари ўтказиш ишларини жадаллаштириш;

- чет эл инвесторлари учун қўшимча имтиёзлар тақдим қилиш, улар тармоқ йўналиши ёки алоҳида тур маҳсулотнинг ўзлаштирилишига боғлиқ ҳолда танлаб эмас, балки тизимли кўринишда бўлиши ва бунда миллий инвесторлар ҳам тақдим қилинган имтиёзлардан тенг шароитларда фойдалана олишлари шарт. Чет эл инвестицияларини жалб қилишга бундай ёндашувнинг бошланиши сифатида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2002 йил 11 июндаги “Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятида кичик ва ўрта корхоналар ривожланишини рағбатлантиришнинг қўшимча чоралари тўғрисида”ги фармони келтирилади. Бунда Қорақалпоғистон республикаси ва Хоразм вилоятида ташкил қилинаётган ХИИКлар устав фонди ҳажми республикада ўрнатилганга нисбатан 2 баробар камайтирилиб (75 минг АҚШ доллари қилиб) белгилаб қўйилди;

- мавжуд имтиёзлар ва афзалликларни танлаш имкониятлари тизимини бир шаклга келтириш ва миллий экспортёрларга тарқатиш. Бунда экспортчи корхоналар учун экспорт учун маҳсулот ишлаб чиқаришда фойдаланадиган, импорт қилинадиган моддий-техник ресурсларга муддати узайтирилган ҚҚС тўловини содаллаштириш;

Мазкур чора-тадбирлар ташқи иқтисодий фаолиятнинг кейинги либераллашувига ёрдамлашиши, ҳудудий номуносивликни йўқотишга ва инвестицион, ҳамда экспорт фаолиятини жадаллаштиришга олиб келиши, чет эл инвестицияларининг ҳудудлар бўйича тенг тақсимланишини ва қўйилмаларнинг ўз вақтида ўз-ўзини қоплашини таъминлаши керак.

IQTISODIYOTDA KORRUPSIYA MUAMMOSI VA IJTIMOIIY OQIBATLARI MASALALARI

Korrupsiya O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan asosiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ko'p yillar davomida korrupsiya muammosiga yetarlicha ahamiyat berilmaganligi natijasida uning davlat iqtisodiyotiga siyosiy, moddiy va ma'naviy ta'siri ko'lami ortib ketdi. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta'kidlanib, "qo'lga tushgan" amaldorlar televideniye va matbuotda namoyish etilganiga qaramasdan, sud, prokuratura, idora rahbarlari hamda oddiy fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan feodalizm sarqitlari, tamagirlilik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yo'qolib ketmayapti.¹

Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi — yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. sababi yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar o'rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirishda, milliy o'zlikni asrash yo'lida kechayu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Korrupsiyaning tarixiy o'zatlari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziyilashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.²

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

NATIJALAR

Fuqarolar orasida korrupsiyaga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabat, ya'ni korrupsiyani butunlay qoralash o'rniga uning jamiyatimizda yanada chuqurroq ildiz otishiga sababchi bo'lishlik achinarli holat. Faqatgina boshqalar oldida bu jamiyat kushandasini qoralab, ammo aytilgan gaplarga va fikrlarga amal qilmagan holda o'z mavqeini suiiste'mol qilish, qonunga zid ravishda ish yuritish va buni berkitish, bu ishda kimnidir sherik qilib uni ham "yostig'ini quritish" takrorlanaveradi. Bu esa ushbu illatni rivojlanishiga katta sabab bo'ladi. Lekin demokratik ruhda tarbiyalangan jamiyatda korrupsiyaga yo'l qo'yilmaydi. Demakki, fuqarolarni demokratik ruhda tarbiyalash lozim. Bundan kelib chiqadiki, tarbiyani avvalo o'zimizdan, ya'ni biz yoshlardan boshlash kerak. Har bir shaxs o'z mehnati evaziga kun kechirishi, o'z mehnati evaziga muvaffaqiyatga erishishi, o'z ishini bajarishda doimo halol bo'lishi va qonunga tayangan holda ish ko'rish zarur. Jahonning ko'zga ko'ringan mamlakatlari ham poraxo'rlik illatiga qarshi kurashib kelmoqda.

XULOSA

Korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina mas'ul xodimlarning vazifasi emas, yoki davlat rahbarlari bunga javobgar degan fikrda bo'lish mutlaqo noto'g'ri, balki bu jarayonda barchamiz birdek harakat qilsak ko'zlangan natijaga erishishimiz mumkin. Iqtisodiy sohadagi korrupsiyaga samarali qarshi kurashish tizimini shakllantirish uchun iqtisodiyotning har bir bo'g'inida tizimli tahlil ishlarini jadallashtirish uchun korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarda axborot-tahliliy faoliyatni takomillashtirishni muammoning yechimi sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Zero, mamlakatimizni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini qurishdagi eng katta harakatlarimizdan biri bu — biz fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashimizdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

¹ Rahimov, Sarvar Abdumutallibjonovich (2021). IQTISODIY SOHADAGI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING DOLZARB MUAMMOLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (9), 743-748.

² Bogdanov I.Ya., Kalinin A.P. Korrupsiya v Rossii: sotsialno- konomicheskiye aspekti. M., 2001; Houston D.A. Can Corruption Ever Improve an Economy // Cato Journal. 2007. Vol. 27. № 3

4. Rahimov, Sarvar Abdumutallibjonovich (2021). IQTISODIY SOHADAGI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING DOLZARB MUAMMOLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (9), 743-748.
5. I Bogdanov I.Ya., Kalinin A.P. Korrupsiya v Rossii: sotsialno- konomicheskiye aspekti. M., 2001; Houston D.A. Can Corruption Ever Improve an Economy // Cato Journal. 2007. Vol. 27. № 3
6. <https://www.standart.uz>

Sag`dullayev Hamidulla
Termiz davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Turizm yo`nalishi 3-bosqich talabasi
e-mail:khamidullasagdullayev053@gmail.com

BUYUK IPAK YO`LI XALQLARI MADANIYATIGA ZAMONAVIY INNOVATSIYALAR JORIY ETISH YO`LLARI (O`zbekiston misolida)

Zamonaviy muhitda yashayotgan har qanday inson sershovqin va stressli shahar hayotidan bir muddat tinch va osuda tabiat bag`rida dam olishni xohlaydi. Tabiat qo`ynida dam olishda asosiy jihatlari esa:

- 1) Xushmanzara joy;
- 2) Toza muhit;
- 3) So`lim tabiat hisoblanadi.

Mana shunday imkoniyatlarga ega bo`lgan O`zbekistonda joylashgan tabiiy rekreatsion hududlarga Boysun Zarafshon Zomin hamda Qoraqalpog`iston Respublikasi ayrim hududlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Ma`lumki, O`zbekistonga tashrif buyuruvchi ko`pchilik xorijiy mehmonlarning asosiy qismi yurtimizdagi tarixiy-me`moriy yorgorliklarining go`zalligi, salobati va tarix silsilasidan hali hanuz bus-butun o`tib kelayotganligini o`z ko`zlari bilan ko`rish uchun kelgan bo`lsa, boshqa tomondan aholining oddiy turmish tarzi, tabiat bilan hamohang tarzda yashayotganligiga qiziqishni oshishi, tabiat qo`ynida dam olishni, alpinizm va tog` sporti bilan shug`ullanishni, yurtimizni respublika va xalqaro maydonda ko`hna qadryatlarimizning ajralmas bir bo`lagi sifatida tanilgan "Boysun bahori,, kabi milliy festivallarimiz bilan yaqindan tanishish, nafaqat tanishish balki o`zlari ham shu milliylikning bir qismi bo`lishni xohlovchilar soni ham kundan-kunga oshib bormoqda.

Tabiat qo`ynida hordiq chiqarishdagi asosiy masala joylashuv masalasi bo`lib, vujudga kelishi mumkin bo`lgan sharoitidan kelib chiqib, mazkur vaziyatda mahalliy mehmon uylariga talab oshadi. Lekin viloyatimiz aholisining asosiy qismi hali mehmon uylar tushunchasiga yetarli darajada e`tibor qaratmaganligi, qabul jarayoni va joylashuv sharoitidagi muammolar va sayyohlarning shikoyatlar va takliflarini inobatga olgan holda mazkur masalaga yechim sifatida tabiat qo`ynida dam olishni istagan hamyurtlarimiz va xorijiy mehmonlarga o`tov-uylarida tunash taklifi ishlab chiqilmoqda. To`g`ri, o`tovda yashashning nimasi innovatsiya? Tarixdan ma`lumki o`zbek, qozoq, qirg`iz xalqlari asosiy qismi o`tovda yashagan va aynan mana shu tarixiylik xorijiy mehmonlarning e`tiborini jalb etmoqda. O`zbekistonga tashrif buyurgan va o`tovda tunagan sayyohlar o`rtasida o`tkazilgan so`rovnoma natijalariga ko`ra odatiy o`tov-uylarining kamchiliklari sifatida uch holatni ko`rsatish mumkin:

- 1) Dastlabki asosiy kamchiliklardan biri yoritish bilan bog`liq bo`lsa,
- 2) Keyingi navbatda issiqlik jamlashni mavjud emasligi va
- 3) Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash imkoni yo`qligi ta`kidlangan.

Prezidentimizning 2020-yil 13-avgustda qabul qilgan „O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi Farmoniga asoslanib, yuqoridagi masalalar va muammolarga yechim sifatida o`tov-uylarining tom qismini milliylik va zamonaviylikni uyg`unlashtirgan holda, hozirgi kunda asosiy elektr bilan ta`minlovchi tizim; egiluvchan monokristalli quyosh fotoelektr panellari bilan qoplash yo`li bilan yorug`likdan yig`ilgan energiya orqali, o`tov konstruksiyasini ham yoritish ham microline mato orqali isitish va oziq ovqat mahsulotlarini tayyorlashda yechim sifatida taklif qilinmoqda.

Ushbu loyiha afzalliklari va foydali jihatlari quyidagilarda iborat:

- 1) Avvalo ushbu loyiha hech qanday ortiqcha jihozlar talab qilmasligi;
- 2) Konstruksiyaning yengil, olib yurish va o`rnatish uchun qulayligi;

- 3) Har qanday landshaft va ob-havo sharoitiga mosligi;
- 4) Moliyaviy jihatdan katta mablag' talab etmasligi juda muhim.

Moliyaviy harajatlar hisobi:

- 1) Monokristalli quyosh panelining quymati 2,475,000 so'm;
- 2) O'tov (tarkibiy qismlari bilan) 3,270,000 so'm;
- 3) Boshqa qo'shimcha harajatlar 250,000 so'm;
- 4) Umumiy xarajatlar hisobi jami: 6,000,000 so'm.

Mavsumiy foyda olish miqdori:

- 1- kunlik turpaket doirasida 200 ming so'm;
- 2- kunlik turpaket doirasida 350 ming so'm;
- 3- kunlik turpaket doirasida 500 ming so'm.

Xulosa o'rnida, monokristalli quyosh fotoelektr panellari bilan qoplash yo'li bilan yorug'likdan yig'ilgan energiya orqali ham yoritiladigan ham isitilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'tov konstruksiyali dam olish maskanlari yurtimizga kelgan turistlar oqimini kutib olish va kuzatib qo'yish jarayonida minimal harajat qilib va maksimal darajada joylashtirish, qulaylik va foyda olish imkoniyatini yaratadi. Statistika ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, O'zbekiston miqyosida ekoturizm uchun sayyohlar tashrif muddati 133 kundan, 270 kungacha davom etadi, bundan kelib chiqadiki, birgina sayyohlar foydalanuviga berish orqali, loyihaning o'z-o'zini oqlash imkoniyati minimal hisobda 12 kundan, maksimal hisobda 30 kungacha o'z xarajatlarini qoplaydi. Risk miqdori: 8/1 ulushda minimal darajada, 6/2 maksimal darajada taqriban olindi. Ushbu ishlanma faqat foydalanish uchungina emas balki, o'z navbatida milliy qadriyatlarimizning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashish asosida integratsiyalashuviga yorqin misol bo'la oladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR :

- 1) O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi prezident Farmoni, Toshkent.2020yil
- 2) A.M.Abduvohidov. Turizmدا innovatsiya. Darslik Toshkent.2011y
- 3) B.Sh. Safarov, I.S.Tuxliyev. M.R. Boltayev, S.A. Abduxamidov, Turizm Nazariya va Amaliyot Toshkent 2018y
- 4) S.R. Safayeva. Turizm va O'zbekiston Milliy me'rosi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2018y
- 6) www.uzbektourism.com O'zbekiston madaniy me'ros va turizm vazirligi rasmiy sayti
- 7) www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasi rasmiy sayti.
- 8) www.glotr.uz Global sun power (GSP) korporatsiyasining O'zbekiston bo'yicha mahsulot yetkazib berish bo'limi rasmiy sayti ma'lumotlari.

Mardonova Dilrabo Shirinboyevna
"Ipak yo'li" xalqaroTurizm va madaniy
meros universiteti
tayanch doktorant

MEHMONXONA BIZNESIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI TAHLILI

Kirish. Turizm va mehmondo'stlik sanoati mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shadigan muhim soha hisoblanadi. Shu sababli yurtimizda ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021 yil 9 yanvardagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonlari¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori sohaga berilayotgan e'tiborga misol bo'la oladi.² Shunday bo'lsada, "O'zbekiston turizm va mehmonxona sohasi bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan,

¹ <https://lex.uz/uz/>

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.11.2018 yil, 954-son.

turistlarga qulay sharoit yaratish, mehmonxona va joylashtirish vositalari, servis xizmatini yaxshilash, jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past”¹.

Yuqoridagi fikrlarni e’tiborga olgan holda, bozorda mehmonxonalar soni ortib borayotgani sababli mehmonxona korxonalarini o’z xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish hamda raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun ilg’or tajribalarni qo’llashlari o’ta muhim sanaladi. Xorijiy mamlakatlarda mehmondo’stlik industriyasi xizmatlari ko’rsatishni yaxshilashda ilg’or tajribalarni joriy etish o’z samarasini bermoqda. Ushbu maqola xorijiy mamlakatlarning mehmonxona biznesidagi ilg’or tajribalarini tahlil qilish va ular sanoatining o’sishiga qanday hissa qo’shganini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada texnologiyalarni integratsiyalash, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni ishlab chiqish va xodimlarni o’qitish kabi xizmatlar ko’rsatishni yaxshilashga qaratilgan turli yondashuvlar o’rganilgan. Ushbu tadqiqot natijalari mehmonxona korxonalariga eng yaxshi tajribalarni joriy etish va o’z mijozlariga mukammal xizmatlarni taqdim etish bilan birga bozorda raqobatbardosh bo’lish uchun tushunchalar berish bilan xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sohaga oid ilmiy-nazariy va metodologik hamda amaliy muammolari xorijlik olimlardan F.Kotler, Dj.Bouen, Dj.Meykens, Dj.Uoker, L.F.Xodorkov, Yu.F.Volkov, A.D. Chudnovskiy, N.M.Kuldoshina, A.Braymer, A.L.Lesnik, I.P.Matsitskiy, A.V.Chernishev, A.B.Kosolapov, V.A.Kvartalnov, M.V.Yakimenko, A.Ye.Saak, Dj.A.Michelli, L.P.Shmatko, L.V.Jolobova, G.I.Lyashko, D.S.Ushakov, V.G.Fedsov, Martin G. Jagelski, Weygandt, Kimmel va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan².

Mamlakatimizda turizm sohasi, uning tarkibiy qismi bo’lgan mehmonxona xo’jaligi muammolarini tadqiq qilish bilan I.S.Tuxliev, M.K.Pardaev, T.Abdullaeva, M.T.Alieva, X.M.Mamatkulov, R.Haitbaev, D.X.Aslanova, A.Toksanov, A.S.Soliev, B.Ruzmetov, B.Sh.Safarov, M.Alimova, A.N.Xalikulov kabi iqtisodchi olimlar shug’ullanmoqdalar.

Biroq, olib borilgan tadqiqotlarda mehmonxona biznesida xizmat ko’rsatish samaradorligini oshirish bo’yicha xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalari asosida mehmonxona va joylashtirish vositalarida ko’rsatiladigan xizmatlar qay darajada rivojlanishi mumkinligiga e’tibor qaratilmaganligi bois, mazkur tadqiqotda bu masalaga ahamiyat berildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mehmonxona va joylashtirish vositalarining xizmat ko’rsatish samaradorligi dinamikasiga ta’sir qiluvchi omillar, sohada sifatli xizmat ko’rsatishning o’ziga xos xususiyatlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Bevosita mehmonxonalarda xizmat ko’rsatish samaradorligi va sifatini tahlil qilishdan oldin ularning nazariy masalalariga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

“Samaradorlik” tushunchasi keng ko’lamli kategoriya sifatida ta’riflanib, u o’z ichiga ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa natijalarni qamrab oladi. L.M.Chistovning fikricha: “Samaradorlik – bu vaqt birligida ishlatiladigan resurslar birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot ko’rinishida foydali xossalarning kontsentratsiyasidir”³. Unga ko’ra, samaradorlik bir xil mohiyatga ega bir nechta ko’rsatkichlarni: resurslar qaytimi, ijtimoiy-iqtisodiy tizim intensivligi va yalpi resurslar sifati ko’rsatkichlarini o’z ichiga oladi. U resurslar qaytimi ko’rsatkichini yalpi foydalanilayotgan resurslar ob’yektlari quvvati summasini o’rtacha yalpi yillik foydalaniladigan resurslar qaytimi birligiga nisbati orqali aniqlashni ilgari suradi.

¹ <https://kun.uz/uz/news/2018/01/02/uzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-uni-rivozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerak-mutahassis-takliflari>:


²Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенс Дж. Маркетинг. Гостеприимство и туризм. / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1998., Уокер Дж. Введение в гостеприимство. Учеб. Пособие / Пер. с англ. – М.: ЮНИТИ, 1999., Ходоков Л.Ф. Мировое гостиничное хозяйство. – М.: 1991., Волков Ю.Ф. Гостиничный и туристический бизнес. – Ростов н/Д: Феникс, 2009. – 637 с., Туризм и гостиничное хозяйство / Под ред. А.Д. Черновского. – М.: Эксмо, 2000., Кулдошина Н.М. Экономика и финансы гостиничного бизнеса. – М.: МАТГР, 2000., Браймер А. Основы управления предприятиями и организациями индустрии гостеприимства. – М.: 1994, Организация и управление гостиничным бизнесом. / Под ред. А.Л.Лесника, И.П.Мациского, А.В.Чернишева – М.: 2000, Саак А.Е., Якименко М.В. Менеджмент в индустрии гостеприимства (гостиницы и рестораны). – СПб.: Питер, 2007. – 432 с., Косолапов А.Б. Теория и практика экологического туризма. – М.: 2005., Кварталнов В.А. Теория и практика туризма. – М.: Совеский спорт, 2004., Мичелли Дж.А. Риц-Карлтон: золотой стандарт гостиничного бизнеса нового тысячелетия / Джозеф Мичелли: пер. с англ. В.С.Ивашенко. – М.: Эксмо, 2009. – 320 с., Туризм и гостиничное хозяйство / Под ред. Л.П.Шматко. – Ростов н/Д: Феникс; Издательский центр «Март», 2010. – 352 с., Федсов В.Г. Культура гостинично-туристического сервиса. – Ростов н/Д: Феникс, 2008. 503 с., BBB.pezj.py? BBB.xpc.py., [BBB.pexcoft.py.](http://BBB.pexcoft.py), VVV.HotelKonkultingGroup.ru, [VVV.allstarshilton.com.](http://VVV.allstarshilton.com), [BBB.allstarshilton.com.](http://BBB.allstarshilton.com)

³ Чистов Л.М. «Теория эффективного управления социально-экономическими системами». Учебник. – СПб.:

Kolens lug'atida "samaradorlik" kam xarajatli omillar hamda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish oraliq munosabatlarida namoyon bo'lishi qayd etilgan.¹


Respublikamizning yetuk olimlari ham samaradorlik bo'yicha o'z qarashlarini shakllantirganlar. Xususan, professorlar A.O'lmasov, A.Vahobov tomonidan: "samaradorlik resurs sarflari bilan ishlab chiqarishdan olingan natijaning taqqoslanishini bildiradi, ya'ni, bu nima sarflab nimaga erishganligini ko'rsatadi".² Q.J.Mirzayev, M.Q.Pardayevlarning fikricha: "mulk shaklidan qat'iy nazar, barcha mavjud resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarning tejamkorligini ta'minlash evaziga jamiyat, davlat, mulkdor, korxonalar, ishchi kuchi sohibi kabi subyektlarning manfaatlari mushtarakligini ta'minlashga qaratilgan ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuidir" ta'riflarini berganlar.³

O'zbekistonda mehmonxonalar, joylashtirish vositalari fondi tahlil qilinganda, 2022-yilda 1209 ta yangi joylashtirish vositalari (29817 ta o'rin), shundan, 149 ta mehmonxonalar, 254 ta xostellar, 734 ta oilaviy mehmon uylari, 13 ta sanatoriy va sog'lomlashtirish obyektlari, 59 ta boshqa joylashtirish vositalari tashkil etilib, ularning jami soni 5029 taga, o'rinlar soni 124,2 mingtani tashkil qilgan⁴.



1-rasm

2022-yilda jami joylashtirish fondi 5029 tani tashkil qilgan bo'lib xonalar soni 55277 tani, o'rinlar soni 124191 tani tashkil qildi. Ya'ni, joylashtirish vositalar fondi 825%ga, xonalar 335% hamda o'rinlar soni 388% oshdi⁵.



2-rasm.

¹ Генкин Б.М., Козлова М.И. «О показателях эффективности и принципиальных схемах мотивации эффективной работы». // Вестник ИНЖЕКОНА. – Сер. Экономика, 2004. – Вып. 4 (5). – с. 4.

² Ўлмасов А., Вахобов А. «Иқтисодий назарияси». Дарслик (тўлдирилган ва қайта ишланган нашри). Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. – 41

³ Xizmat ko'rsatish sohasida sifat va samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish, Usmanova N.A, qo'lyozma huquqida Udk:338.46(575.1)

⁴ Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari asosida ilmiy tadqiqotchi tomonidan mustaqil tayyorlandi.

⁵ Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari asosida ilmiy tadqiqotchi tomonidan mustaqil tayyorlandi.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarga qaraganda, so'nggi yillarda mehmondo'stlik sanoati katta sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunga sabab dam olish yoki biznes maqsadlarida sayohat qiluvchilarning soni keskin oshib borayotganligidir. Bozorda mehmonxonalar sonining ko'payishi bilan mehmonxona korxonalarini raqobatbardosh, samarali va mijozlarga sifatli xizmatlarni taqdim etish uchun eng yaxshi amaliyotlarni qo'llashlari talab etiladi. Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda o'zini oqlagan amaliyotlar joriy etilgan.

Ko'plab xorijiy mamlakatlar xizmatlar ko'rsatishni yaxshilash uchun qabul qilgan yondashuvlardan biri texnologiya integratsiyasidir. Misol uchun, Yaponiyadagi mehmonxonalar robotlashtirilgan xodimlar va avtomatlashtirilgan ro'yxatdan o'tish/chiqish tizimlari kabi ilg'or texnologiyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular kirish/chiqish vaqtini va samaradorligini sezilarli darajada yaxshilagan. Xuddi shunday, Xitoydagi mehmonxonalar mehmonlarga o'z xonalari va boshqa ob'yektlardan uzluksiz foydalanish imkonini beruvchi yuzni tanib olish texnologiyasini joriy qilgan. Birlashgan Arab Amirliklarida mehmonxonalar o'z mehmonlariga noyob va hayratlanarli tajriba taqdim etish uchun virtual reallik texnologiyasini joriy qilgan.

Mehmondo'stlik sanoatida xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashning kaliti shaxsiylashtirilgan xizmatlarni rivojlantirishdir. Singapurda mehmonxonalar mehmonlarning ehtiyojlari va xohishlariga ko'ra moslashtirilgan xizmatlarni ko'rsatishga katta mablag' sarflaydilar, jumladan, mehmonlarga ularning ovqatlanish talablaridan kelib chiqqan holda moslashtirilgan menyu taklif qilishadi. Taylandda mehmonxonalar mehmonlarning umumiy tajribasini yaxshilash uchun ularning xohishlariga mos keladigan moslashtirilgan sayohat marshrutlarini joriy qiladilar.

Mehmondo'stlik sanoatida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradigan yana bir jihat - kadrlar tayyorlashdir. Ko'pgina xorijiy mehmonxonalar mijozlarga ajoyib xizmat ko'rsatish uchun o'z xodimlarini o'qitishga sarmoya kiritadilar. Amerika Qo'shma Shtatlarida mehmonxonalar muloqot ko'nikmalari va muammolarni hal qilish usullarini o'z ichiga olgan o'quv dasturlarini amalga oshirganlar. Bu esa mijozlarning qoniqishini oshirishga olib keladi. Xuddi shunday, Gonkongdagi mehmonxonalar xalqaro sayohatchilarga xizmat ko'rsatish uchun o'z xodimlarini til va madaniy o'qitishga sarmoya kiritganlar.

Ushbu amaliyotlar ko'plab mamlakatlarda mehmondo'stlik sanoatining o'sishi va muvaffaqiyatiga sezilarli hissa qo'shib kelmoqda. Ushbu amaliyotlarni qabul qilish xizmatlar ko'rsatish samaradorligini yanada oshiradi.

Yurtimizdagi mehmonxona korxonalarini raqobatbardoshlikni saqlab qolish va mijozlariga mukammal xizmatlarni taqdim etish uchun ushbu eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish haqida o'ylashlari kerak. Shuningdek, ular o'z mijozlarining mavjud ehtiyojlarini o'rganish holda, ularga oliy darajada xizmat ko'rsatishni joriy etishlari kerak.

Xulosa va takliflar. Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda mehmonxona biznesida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar keltirildi:

- Texnologiyadan keng ko'lamda foydalanish: Singapur, Yaponiya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda mehmonxonalar xizmat samaradorligini oshirish uchun texnologiyani o'z faoliyatiga kiritmoqda. Masalan, onlayn ro'yxatdan o'tish, avtomatlashtirilgan xonalarni belgilash, mobil ilovalar va chatbotlar. Ushbu texnologiyalarni qo'llash orqali mehmonxonalar o'z faoliyatini soddalashtirishi va mehmonlar tajribasini yaxshilashi mumkin.

- Barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilish amaliyotlarini qo'llash: Daniya, Shvetsiya va Norvegiyadagi mehmonxonalar barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilish amaliyotlari nuqtai nazaridan yetakchilik qilib kelmoqdalar. Bu usul bilan mamlakatlar mehmonxona faoliyatida energiya sarfini kamaytirish, suvni tejash va mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlash kabi barqaror amaliyotlarni qo'llash mumkin bo'ladi. Ushbu amaliyotlar nafaqat atrof-muhitga foyda keltirishi, balki mehmonxona mavqeini oshirishi ham mumkin.

- Inson resurslarini to'g'ri boshqarish: BAA va Saudiya Arabistonidagi mehmonxonalar quvnoq va g'ayratli xodimlar yaxshiroq xizmat ko'rsatishini tan olgan holda, o'z xodimlarining sihat-salamatligini birinchi o'ringa qo'yishadi. Bunda ish va hayot muvozanati, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va ijobiy ish muhiti kabi imtiyozlarni taklif qilish orqali mehmonxonalar iqtidorli xodimlarni jalb qilishi va xizmat sifatini oshirishi mumkin.

- Shaxsiylashtirilgan xizmatni joriy qilish: Avstraliya, Kanada va Yangi Zelandiyadagi mehmonxonalar mehmonlarga xuddi shu kabi xizmatlarni taklif eta olishadi. Bunda, mehmonxonalar o'z mehmonlarining xohish-istaklarini tushunish va ularning ehtiyojlarini oldindan bilish orqali raqobatchilardan ajralib turadigan ajoyib mehmon tajribasini yaratishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mehmonxona biznesida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun xorijiy mamlakatlardan ko'plab tajribalarni o'rganish mumkin. Bularga mijozlarga xizmat ko'rsatish

ustuvorligi, texnologiyadan foydalanish, barqaror amaliyotlarni qo'llash, xodimlar farovonligiga ustuvor ahamiyat berish va shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish kabilar kiradi. Ushbu ilg'or tajribalarni qo'llagan holda mehmonxonalar o'zlarining xizmat ko'rsatish samaradorligini yuqori sur'atlarga ko'tarishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi «Turizm to'g'risida» gi Qonuni, № O'RQ-549
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3836-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.11.2018 yil, 954-son.
5. Mejdunarodniy nauchno-issledovatel'skiy jurnal. 2021-yil, ISSN 2227-6017 online, 175-bet.
6. O'lmasov A., Vaxobov A. «Iqtisodiyot nazariyasi». Darslik (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. – 41
7. Xizmat ko'rsatish sohasida sifat va samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish, Usmanova N.A, qo'lyozma huquqida Udk:338.46(575.1)

Sharipova Khadicha Rustamovna

Candidate of Economic Sciences,
Senior Lecturer of the Department of Management and Marketing
of the Tajik National University. Tajikistan, Dushanbe. E-mail:
khadicha.rustamzoda2020@mail.ru.

Fayzulloev Bakhriddin Sayfulloevich

Assistant of the Department of Management
and Marketing, Tajik National University

Kurbonov Azamdjon Jalilovich

Assistant of the Department of Management
and Marketing, Tajik National University

**APPLICATIONS OF THE BENCHMARKING CONCEPT TO IMPROVE THE
QUALITY OF HOTEL SERVICES**

Benchmarking is a method of objective systematic comparison of one's own activities with the work of the best companies (divisions of one's company), understanding the reasons for the effectiveness of partners' business, organizing appropriate actions to improve their own performance and their implementation [5].

Benchmarking tools serve to comparatively study the performance of various objects and highlight the best practical example in the work of competitors. This is a well-known method, originated in the USA, in 1972 by the investigative and consulting organization PIMS (PIMS - Profit Impact of Market Strategy Program "the impact of a marketing strategy on profit" approach consists in searching for instructions developed on the basis of the generalized experience of successful and unsuccessful companies) found that in order to find the optimal solution, it is necessary to know the best experience of other enterprises that are successful in similar conditions.

There are a huge number of interpretations of the concept of benchmarking. The earliest and most famous definition: "benchmarking is a constant process of studying and evaluating goods, services and production experience of the most serious competitors or those companies that are recognized leaders in their fields," is given in the book by R. Camp [1].

And others consider it the product of the evolutionary development of the concept of competitiveness, others - a quality improvement program, while others rank it among the exotic products of Japanese business practice. According to F. Kotler, benchmarking is a powerful theoretical, methodological and practical tool for the survival and development of an enterprise in a strong competitive field, based on marketing management, designated as marketing management [3]. Currently, the range of interest in this topic is growing, and therefore there is a numerous definition of benchmarking. Among the most well-known definitions can be identified, presented in table 1 [7].

Analyzing all the definitions of various authors on the essence of benchmarking, we can conclude that the practical experience of using the benchmarking method in the hotel industry will significantly complement and improve hotel management for the better. Since the essence of benchmarking is proposed by researchers and practitioners to be defined ambiguously both as a concept, and as a process, and as a function (a specialized type of activity), a method for evaluating strategies, a tool, and goals of work.

Table 1.

Summary table of benchmarking definitions.

Authors	Definition of benchmarking
American Center for Performance and Quality (APQC)	The process of identifying, disseminating and using knowledge and best practices to achieve strategic, operational and financial benefits.
Bagiev G.L.	The process, the activity of long-term reflection on an entrepreneurial strategy based on the best experience of partners and competitors at the sectoral, cross-sectoral, national and international levels.
Kachalin V., Rietveldt D., Fukolova Yu.	Comparative analysis of the economic efficiency of one company and the indicators of other, more successful ones.
Salomeeva A.	A systematic activity aimed at finding, evaluating and learning from the best examples, regardless of their size, business area, geographical location.
Shirokova G.V.	The benchmarking hotel business needs to select the best features of each partner company and combine them so that it can come up with a better solution than any of the individual hotel solutions.
Svante Ostoblume, Bengt Karlef	An ongoing, systematic process of comparing one's own performance in terms of productivity, quality and organization of work processes, with businesses and institutions that are "best".
IBM	A tool used to find methods that allow an organization to perform a particular business process at the highest (reference) level.
Source: compiled by the author based on materials.	

Summarizing and analyzing, we propose the following definition of benchmarking in the hospitality industry: it is a method of increasing the competitiveness of hotels or other accommodation facilities by searching, studying competitors and adapting to their own environments, applying and adapting carefully selected management methods in their company, while working out the best examples, methods and the best features of the company, regardless of their field of activity. And in general, the outcome of this study and the implementation of the results obtained should meet the needs of the market and achieve the key goals of the hotel and be competitive

In the hotel business, there are two options for increasing competitiveness. The first one - the technology implements process benchmarking, the second one - supports competitive benchmarking. In the first option, the internal organization of the hotel management system is studied, in the second, information about the work of competing hotels is used to increase competitiveness. In the latter case, information is collected about the competing hotel that you should be like.

Features, are the basic elements (Figure 1) that organize, integrate and lay the foundation for the concept and concept of competitive analysis, are the goals, objectives and principles of benchmarking [6, pp. 36-40].

The basic elements of benchmarking show that this tool is necessary to achieve marketing goals, because, based on proper research, can provide the necessary information to improve hotel services and meet market requirements. The goal of benchmarking is to find and find the best business competitor that is doing better than you. It should be noted that after finding the goal cannot be achieved, since here it is necessary to independently find the answer to the question "what ways and methods to do it better?". Since the principle of benchmarking is "from best to best". Managers making change through benchmarking should remember one of Edward Deming's "Apply but don't accept" advice. In other words, blind copying is not acceptable, since in this case the desired results will certainly not be achieved, and interest in further reference studies in the organization will be lost for a long time.




Figure 1. Basic elements of a benchmarking study of the hotel services market (compiled on the basis of an analysis of literary sources) [4, 8; pp. 28-32]

Depending on the task, benchmarking divides two types of research:

1. Comparative benchmarking.

2. Process benchmarking. Comparative benchmarking is the process of collecting and analyzing the performance of an organization and comparing these data with those of other companies in the industry in order to identify problems and develop strategic programs.

For enterprises, the hotel business, you can use the following indicators as benchmarks (Table 2).

At the same time, the values of the indicators of the analyzed enterprise of the hotel sector must be compared with the indicators of enterprises similar to it in terms of volume, structure, and client orientation. In comparative benchmarking, not only horizontal analysis is calculated (comparison with other hotel enterprises), but also vertical (comparisons with previous periods, month, quarter, year), while taking into account the influence of the seasonal factor.

table 2.

Hospitality indicators used as benchmarks

No	Names of the indicator	Calculation formulas	
1	Revenue Per Available Room - room stock revenue per room for a period of time	Room stock revenue per room for a period of time = revenue / number of hotel rooms	RevPAR = Rooms Revenue/Rooms Available
2	Revenue Per Available Room - room stock revenue per room for a period of time	Room stock revenue per room for a period of time = hotel occupancy * average room price	RevPar = Occupancy (%)* ADR (Average daily room rate)
3	Revenue Per Available Guest - room stock revenue per guest for a period of time	Room stock revenue per guest for a period of time = total hotel revenue, including accommodation, meals,	RevPag = Total Revenue/N guests

Training highly educated economists based on economic research: problems and innovative solutions

		additional services, taxes / number of guests staying for a period	
4	Average Daily Room rate - average cost per room	Average cost of a room = room stock sales revenue / number of rooms sold over a period of time	ADR = RoomRevenue/Rooms Sold
5	Occupancy - hotel occupancy	Hotel occupancy = rooms sold / all rooms, except for rooms under major renovation	Occupancy% = Rooms Sold/RoomsAvailable
6	Gross operating profit per available room - gross operating income per room	Gross operating income per room = gross operating income of the hotel / total number of rooms, except for rooms under major renovation	GOP PAR = EBIT (Earnings Before Interest and Taxes) / Rooms Available

Process benchmarking is the study of business processes of enterprises that have the best results in their field, that have certain directions and business processes.

The study of business processes is based on the study of the mechanism of operation of the business process of interest, and not in comparing its performance with the results of a similar business process in your organization. This study, as a rule, is carried out on the basis of a mutual agreement of the parties, which is governed by a benchmarking code of conduct (in Europe it is "The European Benchmarking Code of Conduct", developed by the European Foundation for Quality Management - EFQM).

The degree of detailing of hotel business processes depends entirely on the goals set at the first stage of the benchmarking implementation procedure. Therefore, benchmarking research can become the basis for developing a strategy for the quality of hotel services. Considering all these factors, we believe that the use of benchmarking research provides an opportunity for the hotel complex to look at its management practices from the outside and identify its potential for improvement in the future.

List of literature used

1. Camp, R.C. Benchmarking: The Search for Industry Best Practices that Lead to Superior Performance. Milwaukee, Wisconsin: ASQC Quality Press, 1989
2. Gornostaeva J.V. Benchmarking v sphere method: monograph J.V. Gornostaeva [i dr.]; GOU VPO "Yuzhno-Ros. Mr. un-t economic and service». - Shakhty: GOU VPO "YURGUES", 2009. - 97 p.
3. Kotler, F. Marketing management / F. Kotler. - SPb. : Peter, 2001. – 856 p.,.
4. Mikhailova E.A. Osnovy benchmarkinga: osnovnye principy konseptsii i planirovanie benchmarkingovogo proekta/Journal "Management v Rossii i za rubejom" No. 3/2001,
5. Starikov V. V. Benchmarking - put k sovershenstvu Marketing v Rossii i za rubejom, No. 4 (54)/ 2006..
6. Sizyx N.V. Otseka effektivnosti raboty hostinichnogo complex i ego podrazdeleniy. Sistema KPI// Gostinichnoe delo. -2007. - #3. - pp 36-40
7. Sharipova H.R. Radjabov, R. K. Benchmarking kak instrument razvitiya konkurentosposobnosti gostinichnyx predpriyatiy / R. K. Radjabov, Kh. R. Sharipova // Vestnik Tajikskogo gosudarstvennogo universiteta prava, biznesa i politiki. Series obshchestvennykh nauk. – 2018. – No. 3(76). - P. 28-38. – EDN YTNZTN.
8. Watson G.Kh. Benchmarking v primerax/Journal. "Delovoe sovershenstvo" No. 6 2008 pp. 28-32.

Azamat Sulaymonov
BuxMTI, Iqtisodiyot kafedrasi, assistenti
E-mail: sulaymonov_azamat@mail.ru

RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR OLDIDA TURGAN STRUKTURAVIY MUAMMOLAR

John Sloman¹ rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning 3 ta strukturaviy muammoli jihatlarini alohida ko`rsatib o`radi:

-qishloq xo'jaligiga e'tiborsizlik

¹ John Sloman, A. W., 2009. *Economics*. Seventh Edition ed. Essex CM20 2JE: Pearson Education.

-samarasiz texnologiya

-ishsizlik.

1. Qishloq xo'jaligiga e'tiborsizlik.

Niderlandiya hukumati rasmiy ma'lumotlariga¹ ko'ra, Qo'shma Shtatlardan keyin Niderlandiya dunyodagi eng yirik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi hisoblanadi. Niderlandiya davlati umumiy maydoni 41,543 km² ni, aholisi esa 18 mlanni tashkil qiladi. AQSh bilan solishtirganda, Niderlandiya AQShdan 240 baravar kichik davlat hisoblanadi. Buxoro viloyati hokimligi² rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, viloyat 39 400 km² ni tashkil etadi. Ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarni ekport qilish bo'yicha 2-o'rinda turuvchi davlat O'zbekiston Respublikasi hududidan 11 baravar kichik, Buxoro viloyatiga hududi jihatdan deyarli teng ekan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga³ ko'ra, O'zbekistonda margarin va o'simlik yog'i, go'sht, kartoshka va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, 2021 yil 1-choragida kartoshkaning import hajmi 38,6 mln dollarni, margarin va margarin mahsulotlarining import qiymati 71,6 mln dollarni tashkil etgan. Niderlandiya hukumati rasmiy ma'lumotlariga ko'ra ushbu davlat sabzavot, meva, gul, go'sht va sut mahsulotlarini eksport qiluvchi dunyodagi eng yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi.

Niderlandiya qishloq xo'jaligi⁴ har yili 65 milliard yevroga yaqin qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiladi, shundan 2 mld AQSh dollardan ortig'i urug'lar hisobiga tog'ri keladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari Niderlandiya eksportining 17,5 foizini tashkil qiladi. Niderlandiya iqtisodiyoti va bandligining 10 foizini tashkil etuvchi qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik tarmoqlari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2. Samarasiz texnologiya. Mamlakatda qo'llaniladigan texnologiya u amalga oshirayotgan rivojlanish strategiyasining turiga bog'liq. Ba'zi strategiyalar nisbatan ko'p mehnat talab qiladigan texnologiyalarni, boshqalari esa nisbatan kapital talab qiladigan texnologiyalarni qabul qilishga olib keladi. Turli sohalarida yangi zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqishda iqtisodchilar emas, balki kimyogarlar, fiziklar, matematiklar, muhandislar, biologlar katta rol o'ynaydi. Fan va texnikaning yanada rivojlanishi ta'lim tizimining yuksak kasbiy va ma'naviyatli olim va muhandislarning yangi avlodini tarbiyalash, ularning ijodiy va samarali mehnat qilishi uchun sharoit yaratish qobiliyatiga bog'liq. Ammo, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi⁵ saytida e'lon qilingan oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat yo'nalishlariga talabalarni qabul qilish uchun o'tkazilgan test sinovlarining ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'tish ballarini tahlili shuni ko'rsatadiki, aynan muhandislik texnologiya yo'nalishlarida kirish ballari eng past o'tish ballarini tashkil qiladi. Matematika, fizika, ximiya, biologiya fanlarini murakkab muhandislik yechimlarini topish, laboratoriyalarda yangi mahsulotlarni, materiallarni yaratish, tajribalar olib borish uchun emas, maktabda dars berish uchun o'rganiladigan fanlar bo'lib qoldi. Misol uchun, O'zbekiston 2022 yilda 80 mln AQSh dollari miqdoridagi kartoshkani import qildi. Qishloq xo'jaligimiz aholi istemol mahsulotlarini ta'minlashga qodir emasmi? Bu uchun yer yetarli, lekin texnologiya yetarli darajada rivojlanmagan. Fermer kartoshkani 5 gertar yerga ekish uchun ishchilarni yollab qo'lda ekishi, hosilni ketmon orqali yig'ib olishi kerak. Bu darajada mehnat va resurs talab qiladigan hosilni yetkazishni fermer xoxlamaydi, uning o'rniga jo'xori yoki beda ekishni afzal ko'radi. Natijada, import qilishga majbur bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi hududidan 11 baravar kichik, Buxoro viloyatiga hududi jihatdan deyarli teng Niderlandiya 2022 yilda⁶ 800 mln AQSh dollari miqdorida kartoshka eksport qilgan paytda, O'zbekiston 2022 yilda o'zida ishlab chiqarildaniga qo'shimcha 80 mln AQSh dollari miqdorida shu mahsulotni import qildi.

3. Ishsizlik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika Agentligi⁷ rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yil 1- iyul holatida mamlakatdagi mehnatga layoqatli yoshdagilar 20382,1

¹ Government of the Netherlands, 2023. *Agriculture and horticulture*. [Online] Available at: <https://www.government.nl/topics/agriculture/agriculture-and-horticulture>

² Buxoro viloyati hokimligi, 2023. *Viloyat haqida ma'lumot*. [Online] Available at: <https://buxoro.uz/information-about-the-province>

³ O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, 2022. *O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari import hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlili*. [Online] Available at: <https://www.agro.uz/11-0165/>

⁴ WorldData.info, 2023. *Netherlands*. [Online] Available at: <https://www.worlddata.info/europe/netherlands/index.php>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2022, <https://mandat.uzbmb.uz/>

⁶ Government of the Netherlands, 2023. *Agriculture and horticulture*. [Online] Available at: <https://www.government.nl/topics/agriculture/agriculture-and-horticulture>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi, 2022. *O'zbekistonda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni qancha?*. [Online]

ming kishini (doimiy aholi sonining 57,2%) tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda daromad solig'i to'layotgan rasmiy band bo'lganlar soni 5 million 100 mingtani tashkil etdi. Mehnatga layoqatli aholining 25% daromad solig'i to'layotgan rasmiy band ekanligi kelib chiqadi. Ishsizlik muammosining sabablari chuqur va murakkab, John Sloman¹ to'rtta muammoni ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda alohida ko'rsatib o'tadi.

3.1 Aholining tez o'sishi. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi soni ko'p yillar davomida tez o'sib bormoqda. Ishchi kuchi ham tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Ishlab chiqarishning o'sishi ushbu qo'shimcha ishchilar uchun yetarli ish o'rinlarini yaratish uchun yetarli darajada tez emas.

3.2 Kapitalni ko'p talab qiladigan texnologiya. Sanoatlashtirish mahsulot ishlab chiqarishga va faqat cheklangan bandlik imkoniyatlarini ta'minlaydigan jarayonlardan foydalanishga olib keldi.

3.3 Qishloqdan shaharga migratsiya. Rivojlanishni ta'minlovchi asosiy cheklov sifatsiz transport, aloqa va energetika infratuzilmasi hisoblanadi. Tuman markazlari, qishloq hududlarida infratuzilma bilan bog'liq kamchiliklar ishlab chiqarish quvvatlarining faqat shahar hududida markazlashishini kuchaytirmoqda. O'z o'zidan ishchi o'rinlariga talab ham faqat shaharda ormoqda. Infratuzilma yaxshilanmas ekan, kommunikatsiya, temir yo'l, elektr toki, tabiiy gaz ta'minoti ta'minlanmas ekan, tumanlarda ishlab chiqarish rivojlanmaydi.

3.4 Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati xalqaro iqtisodiy kuchlarga juda ta'sirchan bo'ladi. Agar jahon iqtisodiyoti tanazzulga yuz tutsa yoki jahon foiz stavkalari ko'tarilsa yoki rivojlangan davlatlar tomonidan proteksionistik siyosat olib borilsa, bu rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Ularning eksporti kamayadi va ishsizlik ko'payadi.

Xulosa. Ko'pgina rivojlanish dasturlarining shahar/sanoat urbanizatsiyaga qaratilganligi qishloq xo'jaligini e'tiborsiz qoldirilishiga olib keldi. Natijada, qishloq qashshoqligining chuqurlashishi va qishloq sektorining shaharlarni oziqlantirishga qodir emasligiga olib keldi. Samarasiz texnologiya va ishsizlik ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham qishloqlarda, ham shaharlar atrofida tobora o'sib borayotgan qashshoqlarda asosiy muammolardir. Qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, texnik yo'nalishlar jozibadorligini oshirish, ishsizlikni keskin kamaytirish davlatning eng ustuvor vazifalari qatorida bo'lishi kerak.

Д.Д.Алимова

г.Бухара, Узбекистан

Бухарский инженерно-технологический институт, докторант

dildora.alimova.2017@mail.ru

ВОЗДЕЙСТВИЕ ПОТЕНЦИАЛЬНОГО РЕСУРСА НА СФЕРУ УСЛУГ

Рынок услуг рассматривается в единстве с товарным рынком как одна из его разновидностей, подчиняющаяся общим законам рыночной экономики. При этом рынок услуг имеет ряд особенностей, среди которых выделяют такие, как высокий динамизм, территориальная сегментация и локальный характер, высокая скорость оборота капитала вследствие короткого производственного цикла, преобладание в производстве услуг малых и средних организаций, особенностями процесса оказания услуг, связанными с личным контактом производителя и потребителя, индивидуальность и нестандартность оказываемых услуг и технологий во многих отраслях, неопределенность результата во многих случаях при оказании услуг.

Любой продукт труда, произведенный для продажи, является товаром. Отсюда, услуги, реализуемые на различных рынках, выступают в виде самостоятельной и весьма разнообразной группы товаров.

Главная роль услуги как товара состоит в возможности удовлетворения потребностей покупателей. Основное отличие услуги от физического товара заключается в следующем:

- любая услуга - это процесс;
- неотъемлемой частью услуг являются люди;
- процессы производства, доставки и потребления происходят одновременно

В теории и практике уже давно используются различные подходы к классификации услуг. Наиболее распространенным является условное деление сферы услуг по областям их проявления:

- услуги в областях материального производства (транспорт, связь, бытовое обслуживание и т.д.);
- услуги в областях духовной жизни (образование, физическая культура, наука, искусство и т.д.);
- услуги в областях социальной сферы (торговля, жилищно-коммунальное обслуживание, здравоохранение и т.д.) [1].

Термин «ресурсный потенциал» в научных исследованиях используется в основном в отношении субъектов Республики Узбекистан, крупных экономических районов, страны в целом. Но, поскольку одними из главных составляющих ресурсного потенциала этих субъектов являются организации, которые обеспечивают производство товаров и услуг, представляется вполне обоснованным применить этот термин в отношении организации.

Конкуренция на потребительском рынке, растущие требования населения к качеству товаров и торговому обслуживанию, повышение заинтересованности собственников и работников в наивысших конечных результатах хозяйственной деятельности требуют от менеджеров торговли разработки конкретных мер по поиску путей повышения эффективности использования ресурсов с целью укрепления рыночного положения организаций.

Потенциал организации выступает как основа конкурентоспособности и ее эффективной деятельности. Недостаточное внимание к анализу ресурсного потенциала организации, конкурентов и других субъектов рынка приводит к тому, что менеджеры решают проблемы только краткосрочного характера. Развитие рынка в условиях острой конкуренции, его нестабильность свидетельствуют о важности укрепления ресурсного потенциала торговой организации как основы эффективной деятельности. Недостаточное внимание уделяется возможностям развития организации. Научные исследования ресурсного потенциала в основном сосредоточены в области производства товаров. Потенциалу торговых организаций уделяется недостаточное внимание.

На основании изучения основных подходов к понятию «ресурсы» предлагается обобщенное понятие «экономический ресурс». Экономические ресурсы – это источники и предпосылки получения необходимых благ и достижения поставленных организацией целей при существующих технологиях и социально-экономических отношениях. Выявлены отличия понятий «ресурс» и «потенциал». В понятие «ресурс» характеризует текущее состояние объекта, а понятие «потенциал» описывает объект в динамике и его возможности развития на перспективу [2].

Обобщая различные подходы, мы можем утверждать, что все рассмотренные взгляды ученых-экономистов в условиях постоянно изменяющейся внешней среды и нарастающей конкуренции не раскрывают сущность понятия «потенциал». Оценка потенциала организации необходима не только для анализа возможностей организации в текущий момент, но прежде всего для определения возможностей дальнейшего развития объекта. С позиции эволюционного перехода, на наш взгляд, целесообразно выделить четвертый – эволюционно-рыночный подход, в соответствии с которым под потенциалом следует понимать возможность развития объекта в заданном направлении в будущем периоде на основе использования имеющихся ресурсов [3].

Под ресурсным потенциалом организации понимается способность экономической системы к эффективному использованию внутренних ресурсов и реализации рыночных возможностей организации с целью обеспечения развития в условиях зависимости от влияния внешней среды. Изучение теории ресурсного потенциала и собственные исследования сущности и содержания ресурсов и ресурсного потенциала в торговле позволяют дать авторское определение понятия «ресурсный потенциал» применительно к торговой отрасли. Ресурсный потенциал торговой организации – способность торговой организации использовать и наращивать имеющиеся ресурсы, целенаправленно мобилизованные в торговый процесс с целью наиболее полного удовлетворения спроса населения на товары и услуги, достижения экономического эффекта и формирования механизма развития организации.

ЛИТЕРАТУРА

1. Латинско-русский словарь [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://dic.academic.ru/>. - Дата доступа: 25.11.2019.
2. Авдеенко, В.Н. Производственный потенциал промышленного предприятия. / В.Н. Авдеенко, В.А. Котлов. - М.: Экономика, 1989. - 240 с.
3. Борзенкова К.С. Оценка экономического потенциала предприятия и повышение эффективности его использования: Автореф. дисс. . канд. экон. наук. Белгород, 2019 – С.25

TURIZMDA KADRLAR QO'NIMSIZLIGINING ASOSIY SABABLARI

Turizm (fransuzcha *tourisme*, *tour* soʻzidan — sayr, sayohat) XIX asrda yangi tushuncha boʻlishiga qaramay, keyin tez surʼatda ommalashgan. Ikkinchi jahon urushi vaqtida esa chuqur tarixiy ildizlarga ega hisoblangan. Mavsumiylik sababli bu sohada kadrlar qoʻnimsizligi boʻlishi shubhasiz.

Kadrlar qoʻnimsizligi - bu xodimning ish joyidan noroziligi yoki tashkilotning maʼlum bir xodimdan noroziligi tufayli ishchi kuchining harakati.

Turizm sohasida boshqaruv jarayonida ushbu sohaning bir qator xususiyatlariga asoslanish kerak. Shunga koʻra, bir qator umumiy xususiyatlarni ajratib koʻrsatish mumkin.

Turizmni boshqarish xususiyatlari:

- 1) turistik faoliyatni rejalashtirishda yakuniy isteʼmolchilarning istaklarining ustuvorligi;
- 2) turistik xizmatning birlamchi boʻlmaganligi;
- 3) turizm sanoatida marketingning katta ahamiyati;
- 4) turistik xizmat koʻrsatishning oʻziga xosligi. [1]

Turizmni boshqarishning eng muhim muammolaridan biri bu kadrlar qoʻnimsizligidir. Ushbu hodisaning bir nechta sabablari bor:

- 1) xodimlar – agar doimiy ishlashga moʻljallanmagan talabalar boʻlsa;
- 2) turizm davlat xizmatlari sohasiga kiradi, odamlar bilan muloqot qilish bilan bogʻliq boʻlgan har qanday biznes, qoida tariqasida, juda katta hajmga ega kadrlar qoʻnimsizligi foiziga egaligi;
- 3) ish tartibidan qoniqmaslik;
- 4) boshliqlar bilan kelishmovchiliklar va boshqalar.

Shuni aytish joizki, liniya xodimlari koʻpincha oʻzgaradi va tashkilotning normal ishlashi uchun magistrallar rahbarlar oʻzgarishsiz qoladi.

Turistik-rekreasion kompleks korxonalarini ishining tahlili shuni koʻrsatadiki, xodimlarning 45 foizi ishga qabul qilingandan keyin 3 oy oʻtgach, 15 foizi esa birinchi oydan keyin mehmonxonada yangi ish joyini tark etadi. Shunday qilib, xulosa shuni koʻrsatadiki, barcha yangi mehmonxona xodimlari oʻzlarining imkoniyatlarini yetarli darajada baholamaydilar, chunki ular bor-yoʻgʻi olti oy ichida mehmondoʻstlik sohasida bosh aylantiruvchi martaba orttirishlari va ish haqining mos ravishda oshishiga erishishlari mumkinligiga ishonishadi. Keling sabablarini koʻrib chiqaylik, mehmonxona biznesida ishlash ijodiy, noodatiy yondashuv, katta masʼuliyat va favqulodda muloqot qobiliyatlarini oʻz ichiga olgan mashaqqatli va uzoq jarayon ekanligidan boshlaylik. Xuddi shunday holat butun turizm sanoati korxonalarida ham shakllanmoqda. Mehmonxona xodimlarining qoʻnimsizligi turli sabablarga koʻra yuzaga keladi. Ishdan boʻshatish foizi nafaqat mehmonxonaning xodimlar darajasiga, balki boshqaruv uslubiga ham bogʻliq. Agar tashqi mehnat bozoriga yoʻnaltirilgan mehmonxona kompaniyasi xodimlarni rivojlantirishga sarmoya kiritmaslikni afzal koʻrsa va xodimlarni doimiy ravishda almashtirish orqali xodimlarning past motivatsiyasini qoplasa, u holda xodimlarning rotatsiyasi 80 foiz va undan koʻp boʻlishi mumkin. Xalqaro mehmonxona boshqaruvi anʼanaviy ravishda mehmondoʻstlik sanoatida xodimlarning tez-tez oʻzgarishini belgilaydigan sabablar sifatida quyidagilarni taʼkidlaydi:

- mehmonxona xodimlarining kam ish haqi;
- rejim va mehnat sharoitlaridan qoniqmaslik;
- xodimlar uchun ijtimoiy kafolatlarning yoʻqligi;
- yangi ishga qabul qilingan mehmonxona ishchilarini moslashtirish tizimining yoʻqligi;
- kasbiy oʻsish istiqbollarning yoʻqligi;
- barqaror xodimlar guruhining (odatda qator lavozimlarida) mehmonxona rahbariyatining umuman xodimlarga boʻlgan munosabatidan hissiy rangdagi noroziligi;
- mehmonxona xizmati (boʻlimi) boshlangʻich mehnat jamoasi doirasida xodimlar oʻrtasida ijobiy hissiy aloqalar va oʻzaro yordamning yoʻqligi;
- mehmonxona rahbariyati tomonidan faoliyat natijalarining adolatsiz baholanishi va tan olinmasligi;
- mehmonxona rahbariyatining xodimning bildirilgan shaxsiy muammolariga beparvoligi yoki rasmiy munosabati;
- ishdan boʻshatilgan xodimning shaxsiyatini hurmat qilmaslik;
- egallab turgan kasbiy lavozimda oʻzini-oʻzi amalga oshirishning mumkin emasligi;

• mavjud funktsional majburiyatlar doirasidagi mehnat faoliyati mazmuni asosli qiziqishni keltirib chiqarmaydi.

Kadrlar qo'nimsizligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi: ma'lum bir vaqt uchun ishdan bo'shatilganlar soni bir vaqtning o'zida xodimlarning o'rtacha soniga bo'linadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bizda yuqori darajadagi kadrlar qo'nimsizligini yangi ishga qabul qilingan ishchilarni moslashtirish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan va xodimlarning mehmonxona korxonasi nisbatan sodiq emasligi yaqqol isbot bo'lib turibdi. G'arbiy mamlakatlar mehmonxona boshqaruvi bu borada quyidagi tavsiyalarni beradi: mehmonxona xodimlarini ijtimoiylashtirish va martaba oshirish bo'yicha samarali dasturlarni ishlab chiqish, har bir turistik korxonada motivatsiya tizimini takomillashtirish qo'nimsizlikni qisman bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Bu usullarni o'zimizning mahalliy mehmonxonalarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Elektron resurs. URL: <http://tourlib.net>
2. <https://www.researchgate.net/profile/Nutfillo-Ibragimov>
3. 2019-yil 05-yanvardagi 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi <https://lex.uz/docs/-4143188>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasida-kadrlar-tayyorlash-hamda-ularga-qo-yiladigan-talablar-va-imkoniyatlar>
5. Аширов Д.А. Управление персоналом / Д.А. Аширов. - М.: ТК Велби, Проспект, 2017. - 432 с.3. Анастасова А.С., Никушина А.Н., Павлова А.С., Сарафанов А.Д. Текучесть кадров как проблема управления персонала // Экономика и социум. - 2016. - № 10 (29). - С. 36-39.
6. Базаров Т.Ю. Управление персоналом / Т.Ю. Базаров. - М.: Академия, 2017. - 224 с.
7. Вострикова Л.А., Буланцева Е.А. Анализ движения и стабильности персонала // Актуальные проблемы учета, экономического анализа и финансово-хозяйственного контроля деятельности организаций (материалы II Международной заочной научно-практической конференции). - 2015. - С. 40-42.

Allonazarov Ollonazar Norbek o'g'li

Urganch Davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.
allonazarovollonazar@gmail.com

MINTAQADA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqada mehmonxona xizmatlarining rivojlanish tendensiyalariga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish muhim zaruriyat hisoblanadi. Jahon tajribasida mehmonxon xizmatlari rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilishda turli hil usullardan keng foydalaniladi. Omillarni tahlil qilishda, mavjud mintaqadagi mehmonxona xizmatlari bozorining kon'yukturaviy holati va o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Mavsumiylik turizm industriyasining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri hisoblanib, mehmonxona industriyasi faoliyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Turistik mehmonxona xizmatlariga bo'lgan talabning mavsumiyligini tahlil qilishda odatda vaqtli qator omillaridan ham foydalaniladi. Bu usul mehmonxona xizmatlari bozorida mavsumiylikni stoxastikligini sinab ko'rish va mavsumiy o'garishlarni kuzatish imkonini beradi.

Xorij va mahalliy adabiyotlarni o'rganish jarayonida, hududlarning turistik salohiyatini baholashning bir qancha yondoshuvlari mavjud ekanligi ko'rsatdi. Mintaqaviy turizm nuqtai nazaridan ushbu yondoshuvlarni to'rtta asosiy guruhga ajratish mumkin:

- turistik rayonlashtirish tamoyillari;
- hisoblash usullari;
- ekspert baholash usullari;
- komp'yuter kartografiyasi usullari asosida baholash mumkin.

Turistik rayonlashtirish sohaviy yoki tarmoq shaklda amalga oshiriladi. Bunday rayonlashtirishda hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuv asos qilib olinadi. Turistik rayonni shakllantiruvchi omillar sifatida tabiat landschaftlari, ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy – tarixiy obektlar va turistik infatuzilmasi bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlari ikkilamchi ma'lumotlar asosida Xorazm viloyatining turizm salohiyatini baholandi (1-jadval).

Xorazm viloyati turizm-reakrasion ob'ektlarining mavjudligi bo'yicha salohiyatiga qarab baholanishi

Xorazm viloyati shahar va tumanlari	Turizm salohiyati bo'yicha ob'ektlarning mavjudligi					Salohiyatiga qarab baholash	
	Madaniy-tanishuv turizmi	Davolash-sog'lomlash-tirish turizmi	Ekologik Turizm	Ishga doir turizm	Ziyorat turizmi	Sifati bo'yicha	ballar
Urganch shahri	+	+		+	+	yuqori	4
Xiva shahri	+		+	+	+	o'rtacha	4
Bog'ot tumani	+	+	+			o'rtacha	3
Gurlan tumani		+	+			o'rtacha	2
Qo'shko'pir tumani			+			past	1
Urganch tumani	+	+	+	+		yuqori	4
Xazorasp tumani	+		+	+		o'rtacha	3
Tuproqqal'a tumani	+	+	+			o'rtacha	3
Xonqa tumani		+	+	+		o'rtacha	3
Xiva tumani	+	+	+		+	yuqori	4
Shovot tumani		+	+		+	o'rtacha	3
Yangiariq tumani			+		+	past	2
Yangibozor tumani		+	+			past	2

1-jadvalga muvofiq, Xorazm viloyatining Urganch va Xiva shaharlari hamda Urganch, Xiva tumanlarini turizm salohiyati yuqori bo'lib, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari ko'pchiligi aynan shu hududlarda joylashgan (deyarli viloyatning 90%dan ko'prog'i). Bugungi kunda viloyatga tashrif buyuradigan xorijiy va mahalliy turistlarning oqimi aynan Xiva va Urganch shaharlari hisoblanadi. Turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, har yili turistik mavsumda Xiva va Urganch shaharlarida mehmonxona xizmatlariga talab oshganini kuzatish mumkin. Bu esa, mehmonxonalar faoliyatini yanada rivojlantirishga o'zining bevosita ta'sirini o'tkazmoqda.

Hudud turizm salohiyatini baholashning yana bir usuli, turizm resurslari monitoringiga asoslanishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondoshuvni soha olimlaridan V.V. Shmatchenko va V.F. Shmatchenkolar quyidagicha ifodalashni taklif qilgan: "Turizm resurslariga nisbatan monitoring - bu resursning haqiqiy holatini, uning rivojlanish dinamikasini va istiqbollarini baholash hisoblanadi" deb e'tirof qilganlar. Mazkur usul hududning raqamli xaritasiga turli xil axborot qatlamalarini joylashtirishni o'z ichiga oladi, xususan:

- hududning tabiiy va geografik ma'lumotlari;
- hududning tarixiy va me'moriy yodgorliklari to'g'risidagi ma'lumotlari;
- hudud infratuzilmasining asosiy ko'rsatkichlari;
- hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid ma'lumotlari;
- hududning ekologik holatini tavsiflovchi ma'lumotlar;
- hududning turizm resurslar, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda

ulardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar.

Shubhasiz, soha samarali ishlashi uchun olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat mutaxassislar fikriga ko'ra, turizm resurslarining holatini tizimli hisobga olish va ularning mintaqada turizmni rivojlantirishdagi zaruratini aniqlash faqat turizm resurslarining yagona kadastrini ishlab chiqishni talab qiladi.

Kadastr – ma'lum bir davrlarda tegishli ob'ektlarni doimiy kuzatish orqali tuzilgan ma'lumotlarning tizimli to'plami hisoblanadi. Kadastrni ishlab chiqishning asosiy maqsadi turli hududlarda turizmni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlardan samarali foydalanish yo'llarini aniqlashdan iborat. Buning uchun kadastr turizm resurslarining to'liq tavsifini, shu jumladan, ularning batafsil hisobi va tasnifini, sifat va miqdoriy bahosini, rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini, foydalanish tahlilini va uning

istiqbollarini, shuningdek, turizm resurslarini muhofaza qilish bo'yicha eng muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mintaqada mehmonxona xizmatlari bozorini rivojlanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatar ekan. Bularga birinchi navbatda hududning turistik salohiyati va turistlar oqimi, ishbilarmonlik faolligi, hududning imidji va an'analari, joylashuvi, transportga qulayligi hamda mahalliy aholi mentaliteti hisoblanadi. Bu o'z navbatida Xorazm viloyatida mehmonxona xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini berdi:

- Xorazm viloyatida mehmonxona xizmatlari rivojlanish omillari tahlil qilish;
- mintaqada mehmonxona xizmatlari samaradorligini baholash va tahlil qilish;
- mintaqada mehmonxona xizmatlari bozorini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishlari
- Xorazm viloyatida mehmonxona xizmatlari rivojlanish istiqbollarini ochib berish;
- Mintaqa mehmonxona xizmatlari bozorida talab va taklif shakllanishining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Жасурбек Салаев
Тошкент архитектура қурилиш
институту тадқиқотчиси,
S_Sanat@list.ru

МИНТАҚАЛАРДА САНОАТ МАҲСУЛОТИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Хоразм вилоятида иқтисодийни модернизациялаш, mavjud ресурслардан самарали фойдаланиш, юқори қўшилган қийматга эга бўлган маҳсулотлар яратиш, худуднинг инвестицион салоҳиятини оширган ҳолда экспорт имкониятларини кегайтиришда саноатни ривожлантириш муҳим йўналишлардан ҳисобланади. Худудда саноатни ривожлантириш, унинг ЯХМдаги улушини оширишда, турли дастаклардан фойдаланиш, хусусан кичик бизнес субъектлари сони, уларни саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришдаги улушини ошириш долзарб илмий масалалардан саналади.

Шу сабабли ҳукуратимиз томонидан худудларда кичик бизнесни ривожлантириш бўйича қатор дастурлар ишлаб чиқарилмоқда ва ижобий натижаларга эришилмоқда. Аммо, ушбу йўналишдаги чора тadbирларни давом эттириш учун mavjud имкониятларни баҳолаган ҳолда келгуси давр учун истиқболдаги прогноз қийматларини замонавий статистик ва эконометрик усуллардан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқиш талаб қилинади. Шу сабабли худудда саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва унда кичик бизнеснинг ролини ифодаловчи муҳим кўрсаткичларнинг прогноз қийматларини ишлаб чиқишга эътибор қаратиб ўтмоқчимиз.

Умумий тенденцияни таҳлил қилиш асосида олинган натижаларга кўра худудда саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда ижобий тенденцияларни таъминланиши худуднинг улушини оширишга хизмат қилган. 2000 йилда худуднинг жами саноат маҳсулотигаги улуши жуда паст бўлиб, 2,6 фоизни ташкил қилган бўлса, 2021 йилга келиб мазкур кўрсаткич 3,9 фоизга қадар ўсиши таъминланган. Мазкур даврда Ўзбекистонда ишлаб чиқарилган саноат маҳсулотлари ҳажми 3 баробарга ошган, аммо, Хоразм вилоятида эса 4,5 баробарга ошиши таъминланган.

Вилоятда саноат маҳсулотларини етиштиришнинг 2022-2026 йилларга прогноз қийматларини ишлаб чиқиш учун 2000-2021 йиллар маълумотларидан фойдаланилди. Шунингдек, 2000 йил базис йил сифатида қабул қилингани ҳолда кейинги йиллар ўзгармас нархларга ўтказилди. Худудда саноат маҳсулоти етиштиришнинг реал қиймати динамикасига кўра, асосий ўзгаришлар 2010 йил ҳамда 2016 йилдан кейинги даврларга тўғри келади.

Ўсиш суръатига эътибор қаратадиган бўлсак 2000-2010 йиллар маобайнида сезиларги ўзгариш кузатилмади, бошқача айганда дастлабки беш йилда ўзгариш кузатилмаган, аммо охириги даврда пасайишни кўриш мумкин бўлса, кейинги беш йилда паст суръатлар билан ўсиш таъминланган, 2010 йилдан кейин 2016 йилга қадар ўсиш суръатини бироз ошганлигини кузатиш мумкин, асосий ўзгариш 2016 йилдан кейин даврга тўғри келади ва ушбу даврда ўсишнинг юқори суръатлари таъминланганлигини кўриш мумкин. Мазкур таҳлил натижаларига асосланган ҳолда таъкидлаш мумкинки прогнозни амалга ошириш учун чизикли моделдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ эмас. Шу сабабли мазкур тенденцияни ифодалаш мақсадида Gretl дастури ёрдамида бир

қатор моделларни ишлаб чиққанмиз ва уларнинг ишончлилигини асослаш бўйича қатор мезонлардан фойдаланилган. Таҳлил натижаларига асосланган ҳолда шуни таъкидлашимиз мумкинки, прогноз қийматларини ишлаб чиқиш учун квадратик модел бошқаларига нисбатан ишончли ва ҳақиқатга яқин эканлиги аниқланди.

$$S_{XOR} = 57,21 - 4,03 * t + 0,51 * t^2 \quad (1)$$

$$t = (11,89) \quad (-4,19) \quad (12,64) \quad R^2 = 0,98$$

Олинган натижаларга кўра ишлаб чиқилган моделнинг барча коэффициентлари келтириб ўтилган Стьюдент мезони бўйича адекват эканлигини кўриш мумкин. Шунингдек, детерминация коэффициентининг 0,98 га тенг эканлиги мазкур модел учун танлаб олинган омилларнинг таъсири юқори эканлигидан далолат беради. Умумий моделнинг ишончлилигини ифодаловчи МАРЕ кўрсаткичига тўхталиб ўтадиган бўлсак, мазкур кўрсаткич 5,66 га тенг бўлиб, абсолют хатоликнинг ўртача даражаси 6 фоизга ҳам етмаслигини кўрсатмоқда. Бу етарли даржада юқори бўлган натижа бўлиб, мазкур моделдан прогноз қийматларини ишлаб чиқишда фойдаланиш мумкинлигини асослайди.

Келтириб ўтилган таҳлил натижаларига асосланган ҳолда Хоразм вилоятида саноат маҳсулотлари етиштиришнинг реал қийматини ишлаб чиқилган квадрат кўринишидаги моделдан фойдаланган ҳолда ҳисоблаб чиқилди (1-жадвал).

1-жадвал

Хоразм вилоятида етиштирилган саноат маҳсулотлари реал қийматининг прогноз кўрсаткичлари¹

For 95фоиз confidence intervals, $t(19, 0.025) = 2.093$

Йиллар	Прогноз қийматлари	Стандарт хатолик	95 фоизлик ишонч оралиғи	ўсиш суръати
2022	236,4	8,4	(218,895, 253,930)	105,6
2023	256,5	8,9	(237,878, 275,221)	108,5
2024	277,7	9,6	(257,633, 297,797)	108,3
2025	299,9	10,4	(278,157, 321,661)	108,0
2026	323,1	11,3	(299,456, 346,810)	107,7

Прогноз натижаларига кўра, агар ушбу йўналишда амалга ошириладиган чора-тадбирларни давом эттирилса кейинги беш йилда вилоятда саноат маҳсулотларини етиштириш ҳажмини юқори суръатлардаги ўсиш таъминланади. Натижада, 2026 йилга бориб етиштирилган саноат маҳсулотларининг реал қиймат 323,1 миллиард сўмни ташкил қилгани ҳолда 2021 йилдагига нисбатан 1,4 баробарга ошиши таъминланади.

Натижаларни кўрсатишича 2022-2026 йилларда ўртача ўсиш суръати 7,6 фоизни ташкил қилгани ҳолда олдинги беш йилдагига нисбатан пастроқ қийматга эга бўлади. Чунки, 2017-2021 йилларда мазкур кўрсаткич 11,4 фоизга тенг бўлган бўлиб, ушбу юқори натижани таъминлашда 2017 ва 2021 йилларда ўсиш суръатлари асос бўлиб хизмат қилган. Ушбу йилларда олдинги йилга нисбатан ўсиш суръатлари мос равишда 18,3 ва 17,2 фоизни ташкил қилган бўлиб, буни қуйидагича асослаш мумкин. 2017 йилдан бошлаб 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси доирасидаги чора тадбирларни бошланиши натижаси бўлса, 2021 йилдаги кескин ўсиш пандемия сабабли олдинги йилларда ўсиш суръатини бироз пасайиши кейинги йилдаги ўсишни юқори бўлишига сабаб бўлган. Умумий хулоса қилганда кейинги даврда вилоятда саноат маҳсулотлари етиштиришнинг барқарор ўсиш суръатлари таъминланади.

Кичик бизнес субъектларини саноатдаги улушини мавжуд маълумотлар асосида кейинги беш йил учун прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиққанмиз. Амалга оширилган регрессион таҳлил натижаларига кўра прогнозни амалга ошириш учун энг мақбул модел ARMA (2 0 1) кўринишига эга бўлмоқда.

$$SB_{shind t} = 34,8 + 1,4 * SB_{shind t-1} - 0,73 * SB_{shind t-2} + \varepsilon_{t-1} \quad (2)$$

Бу ерда: SB_{shind} – саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда кичик бизнес субъектлари улуши (фоизда).

Мазкур моделни адекватлигини асослаш учун зарурий мезонларга алоҳида тўхталмасдан уларнинг барчаси Gretl дастури асосида олинган жадвал кўринишида келтириб ўтишни жоиз топдик. Ушбу натижаларга кўра ишлаб чиқилган модел барча мезонлар бўйича адекват эканлигини кузатишимиз мумкин (2-жадвал).

¹ Манба муаллиф ишланмаси

Хоразм вилоятида саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда кичик бизнес субъектлари улушини прогноз қийматларини ишлаб чиқиш учун амалага оширилган регрессион таҳлил натижалари¹

Model 16: ARMA, using observations 2010-2021 (T = 12)

Dependent variable: SBshind

Standard errors based on Hessian

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>z</i>	<i>p-value</i>	
const	34.8035	1.38101	25.20	<0.0001	***
phi_1	1.37379	0.244095	5.628	<0.0001	***
phi_2	-0.732424	0.189794	-3.859	0.0001	***
theta_1	-1.00000	0.259320	-3.856	0.0001	***
Mean dependent var	34.27500		S.D. dependent var		6.802957
Mean of innovations	0.078022		S.D. of innovations		4.205256
R-squared	0.611492		Adjusted R-squared		0.525157
Log-likelihood	-35.76476		Akaike criterion		81.52952
Schwarz criterion	83.95406		Hannan-Quinn		80.63188
	<i>Real</i>	<i>Imaginary</i>	<i>Modulus</i>	<i>Frequency</i>	
AR					
	Root 1	0.9378	-0.6970	1.1685	-0.1017
	Root 2	0.9378	0.6970	1.1685	0.1017
MA					
	Root 1	1.0000	0.0000	1.0000	0.0000

Жадвал маълумотларига кўра детерминация коэффицентининг 0,61 га тенг бўлиб бироз пастроқ қийматга эга бўлганлиги кузатилади ва буни қуйидагича изоҳлаймиз, тадқиқ қилинаётган даврда Ҳаракатлар Стратегияси чора-тадбирларни амалга оширилиши соҳада туб бурилишни бошлаб берган бўлса, кейинги уч йилда пандемия сабабли иқтисодий жараёнлардаги узилишлар ушбу натижаларда кескин пасайишни келтириб чиқарди.

Мамлакатда йирик саноат корхоналарини ишга туширилиши маҳсулот ишлаб чиқаришни юқори суръатларда ўсишини таъминлаган бўлса, пандемия ва ундан кейинги даврларда кичик бизнес субъектлари улушини кескин камайиши кузатилган. Хусусан, 2021 йилда улушни 22,0 фоизга тушиб олдинги йилдагига нисбатан 7,5 бирликка камайганлиги кузатилади. Бу каби ҳолатларни ҳисобга олдинги бўлсак, ишлаб чиқилган моделдан прогноз қийматларини ҳисоблаш учун фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Прогноз натижаларини келириб ўтамиз (3-жадвал).

Хоразм вилоятида саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда кичик бизнес субъектлари улушини прогноз қийматлари²

For 95фоиз confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$

Йиллар	Прогноз қийматлари	Стандарт хатолик	95 фоизлик ишонч оралиғи
2022	27,8	4,2	(19,5629, 36,0472)
2023	34,6	4,5	(25,7676, 43,3659)
2024	39,6	4,6	(30,6219, 48,5863)
2025	41,6	5,2	(31,4179, 51,7259)
2026	40,6	5,8	(29,1852, 51,9864)

Олинган натижаларга кўра кейинги йилларда кичик бизнеснинг саноатдаги улушини таъминланади. Яъни 2022 йилда 27,8 фоизни ташкил қилгани ҳолда 2020 йилдаги кўрсаткичга яқинлашиши таъминланса, 2024 йилга келиб эса 39,6 фоизни ташкил қилгани ҳолда 2017 ва 2018 йиллардаги кўрсаткичларнинг ўртача қийматига етиб боради.

2025 йилда ўзининг максимал қийматига эришгани ҳолда 41,6 фоизни ташкил қилади, аммо 2016, 2017 йиллардаги улушга нисбатан бироз пастроқ қийматга эга бўлмоқда.

¹ Манба: Муаллиф ишланмаси

² Манба муаллиф ишланмаси

Табиийки кичик бизнес субъектларини саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришдаги улушини ошириш учун уларнинг сонини ҳамда техник технологик ривожлантириш орқали ҳар бир кичик бизнес субъектига тўғри келадиган ишлаб чиқариш ҳажмини ҳам ошириш талаб қилинади.

Буни ҳисобга олган ҳолда саноат соҳасида рўйхатдан ўтган ва фаолият кўрсатаётган кичик бизнес субъектлари сонини прогноз қийматларини ишлаб чиқамиз. Мазкур прогнозни ҳисоблаш учун қатор моделларини ишлаб чиққанмиз ва уларни турли мезонлар асосида қиёсий таҳлилини амалга ошириб ўтган ҳолда энг мақбули таклиф қилинган (4-жадвал).

4-жадвал

Хоразм вилоятида саноат соҳасида рўйхатдан ўтган кичик бизнес субъектлари сонини прогнозлаш учун ишлаб чиқилган моделлар¹

№	Модел	t-статистика	R ²	MAPE
1	$REG_{in} = 2107,97 - 75,98 * t + 583 * d$	b ₁ = 9,09 b ₂ = -0,98 b ₃ = 5,36	0,96	5,59
2	$REG_{in} = 1896,91 + 482,59 * d$	b ₁ = 21,17 b ₂ = 13,32	0,96	5,74
3	$REG_{in} = 2329,90 - 338,59 * t + 65,19 * t^2$	b ₁ = 17,6 b ₂ = -5,57 b ₃ = 11,00	0,99	3,06
4	$REG_{in} = 1656,81 + 32,98 * t^2$	b ₁ = 13,32 b ₃ = 10,95	0,94	7,63

Бу ерда: REG_{in} – Хоразм вилоятида саноат соҳасида рўйхатдан ўтган кичик бизнес субъектлари сони. d – 2017 йилдан кейинги даврдарги ўзгаришларни баҳолаш учун фойдаланилган тренд, яъни 2017 йилдан бошланади ундан олдинги давр учун ноль деб қабул қилинади.

Биринчи модел натижаларига кўра умумий тренднинг саноат соҳасида рўйхатдан ўтган кичик бизнес субъектлари сонига таъсирини ифодаловчи коэффициент адекват эмас, бундан кўринадики ушбу омилдан моделда фойдаланиш мақсадга мувофиқ эмас. Шу сабабли иккинчи модел тузилди ва келтириб ўтилган натижаларга эга бўлинди. Иккинчи модел адекватлигини ифодаловчи мезонлар бўйича олинган қийматлар деярли бир хил, бироқ иккинчи моделда MAPE кўрсаткичини аҳамиятсиз қийматга ошганлигини кўриш мумкин. Аммо, Стьюдент мезони натижаларига асосланган ҳолда ушбу моделдан фойдаланишни мақсадга мувофиқ деб топдик.

Демак, Хоразм вилоятида саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда кичик бизнеснинг улушига кейинги даврдаги иқтисодий тебранишлар таъсири анча юқори бўлиб, уларнинг мослашувчанлигини анча заиф эканлигини асосламоқда. Фикримизча кичик бизнес субъектларини қўллаб-қувватлаш борасида амалга ошириладиган чора тадбирларни ишлаб чиқишда уларнинг турли вазиятларга мослашишига ёрдам бериш масаласига алоҳида эътибор қаратилиши нафат саноат маҳсулотлари етиштиришда кичик бизнеснинг улушини ошириш, балки кичик бизнеснинг умумий ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлардаги улушини ошириш имконини беради.

Гафурова Фаина Семеновна
Ферганский политехнический институт
К.э.н., доцент кафедры «Экономика»

РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ


Отрасли легкой промышленности являются стратегически важными для экономики Узбекистана. Они постоянно развиваются, предлагая потребителям высококачественную современную продукцию. По мнению экспертов в обозримом будущем за легкой промышленностью сохранится ключевая роль в развитии промышленного производства в республике, однако для развития того значительного потенциала, который в ней заложен, многое еще предстоит сделать. Ряд задачи по дальнейшему развитию легкой промышленности республики, определены в Государственной программе по реализации Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в том числе: повышение экспортного потенциала отрасли, дальнейшее увеличение объемов производства готовой, высококачественной потребительской продукции,

¹ Манба: муаллиф ишланмаси

производство экологически чистого текстильного продукта, что потребует создания мобильных производств с обязательным формированием в их составе структур, ответственных за дизайн, маркетинг, быструю переналадку производства с учетом моды и спроса [2]. Практика показала, что успешно решить эти глобальные задачи без повышения инновационной активности отраслей легкой промышленности невозможно.

Главным источником инновационной активности общепризнан человеческий капитал. Именно поэтому в Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 гг. поставлена задача «...развития человеческого капитала с целью увеличения доли инновационно активных предприятий...» [3]

Б.М. Генкин определяет человеческий капитал как «...совокупность качеств, которые определяют производительность и могут стать источниками дохода для человека, семьи, предприятия и общества» [1]. Основываясь на данном определении, человеческий капитал предприятия можно представить наглядно в общем виде: (рис. 1)



Учитывая тот факт, что инновационное развитие отраслей напрямую зависит от человеческого капитала, в перечень проектов, направленных на восполнение существующих пробелов в производственной цепочке отраслей легкой промышленности были включены проекты по формированию и эффективному использованию кадрового потенциала, такие как: создание маркетингового центра на базе Ташкентского текстильного учебно-исследовательского технопарка и организация учебно-практические курсы для отраслевых предприятий и студентов института; создание дополнительных образовательных направлений совместно с Российским государственным университетом имени А.Н. Косыгина; внедрение механизма возмещения затрат на обучение (50 процентов) по подготовке и переподготовке работников республиканских сетевых предприятий за счет средств Государственного фонда содействия занятости Республики Узбекистан (данная система обучения реализуется в отраслевых колледжах, техникумах, моноцентрах страны). Также в рамках первого Ташкентского международного инвестиционного форума был подписан меморандум между Ассоциацией «Узтекстильпром» и Европейской экономической комиссией ООН по организации учебных семинаров, направленных на улучшение знаний и навыков специалистов местных предприятий по «зеленой» экономике.

Проблемы формирования и эффективного использования человеческого капитала стали весьма актуальны и для руководителей отечественных предприятий и инвесторов. Это вызвано тем, что между человеческим капиталом и инновационной активностью предприятия существуют не только тесная взаимосвязь, но и определенные проблемы, одну из которых, на наш взгляд, нельзя игнорировать. Суть ее заключается в том, что не все сотрудники предприятия охотно делятся своими знаниями (особенно уникальными) из-за страха потерять должность, какие-то привилегии, лишиться статуса «незаменимого работника». Полагаем, что анализ факторов восприимчивости сотрудников к инновациям и их готовности делиться своими знаниями, становится весьма актуальным в решении этой проблемы.

На основании выше изложенного полагаем, что задачей предприятия является не только создание для своих работников максимально комфортных условий для труда, развития, интеллектуальной деятельности, но и мотивация их готовность работать в коллективе.

Литература:

1. Генкин Б.М. Экономика и социология труда. Учебник для вузов. Изд. 2-е, НОРМА-ИНФРА, М., 1999г.
2. Государственная программа по реализации Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы. УП-60 от 28.01.2022, НОРМА Уз.
3. Стратегия инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 гг. УП-165-сон 06.07.2022г, НОРМА Уз.
4. Человеческий капитал: содержание и виды, оценка и стимулирование. Под ред. д.э.н., проф.В.Т.Смирнова, М., 2015.

Мухаммадалиев И.И.
Студент факультета «Управление в производстве»
Научный руководитель Жалилов И.И.
Ассистент кафедры «Высшая математика»

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНВЕСТИЦИОННЫХ МЕХАНИЗМОВ РЕГИОНОВ

Обеспечение стабильных темпов экономического развития и повышения устойчивости в рыночных условиях в большей степени определяется уровнем инвестиционной привлекательности, активности и составляющими инвестиционного обеспечения экономики региона.

В ходе ознакомления с различными источниками был собран материал, анализ которого позволяет прийти к заключению, что инвестиционное обеспечение осуществляется с помощью отбора ресурсов, необходимых для инвестиций, использования эффективных механизмов инвестиций и создания сбалансированной инвестиционной программы для обеспечения её дальнейшей реализации.

Необходимо констатировать то, что мониторинг источников финансирования в регионах открывает региональные различия и идентифицирует инвестиционную ситуацию. И так, децентрализация инвестиционного обеспечения способствует расширению независимости субъектов хозяйствования в ходе использования ресурсов инвестиций.

Изучение факторов, способствующих формированию инвестиционной активности на региональном уровне, является немаловажной задачей, решение которой внесёт вклад в развитие теории управления, формирование методологических подходов и методических рекомендаций в рамках реализации экономической политики, направленной на активизацию инвестиционной деятельности в регионах с целью технологического обновления и структурной перестройки экономики региона.

При уточнении источников финансирования для развития производственного процесса в стратегии регионов основное внимание уделяется вопросам максимального использования собственных и привлеченных инвесторами финансовых ресурсов.

В своём исследовании мы бы хотели сконцентрировать внимание и на вопросы инновационного развития регионов.

В заключении следует отметить то, что несмотря на присутствие структурных и институциональных преобразований в национальной экономике, безотлагательного повышения её конкурентных преимуществ в рамках стратегического развития, сложившиеся организационные, экономические условия, в том числе слабая заинтересованность и недостаточность объемов инвестиционных ресурсов у субъектов хозяйствования в ходе осуществления инновационных разработок и их коммерциализацию.

Недостаток чёткой тактики и обоснованной стратегии в политике регионов по активизации процессов нововведений, недостаточная развитость определённой инфраструктуры создают проблемы, требующие безотлагательного и оперативного решения.

В связи с вышесказанным мы хотели бы обратить внимание на следующее:

- необходимость изучения механизмов стимулирования инновационной деятельности с учётом имеющегося местного и использования зарубежного опыта;
- выявление сущностных характеристик инновационного процесса, анализ существующей методики, позволяющей оценить состояние инновационных процессов на территориях, выявить угрозы и возможности;
- исследование организационно-экономических условий и факторов, влияющих на активность региона в разрезе инноваций, разработка теоретико-эмпирических подходов по совершенствованию организационного, экономического механизма управления инновационной активности мезо-экономик;
- совершенствование стратегии инновационного развития региона с учётом налаживания соответствующей инфраструктуры.
- необходимо обобщение зарубежного опыта создания как национальных, так и региональных инновационных систем, определение перспективных направлений его использования в практике хозяйствования для реализации инновационного потенциала территорий;

- на основе мониторинга состояния и актуальных проблем развития инновационной инфраструктуры регионов обоснование алгоритма поэтапного управления процессом инвестирования при создании инновационной инфраструктуры региона, формулировка направлений формирования институциональных преобразований, обеспечивающих её совершенствование и развитие;
- необходимость изучения инновационного и научно-технического потенциала отдельных регионов Узбекистана, обоснование на основе обобщения и систематизации показателей комплексной методики оценки инновационного потенциала регионов;
- разработка концептуальных основ построения современных региональных инновационных систем и реализации институционального механизма комплексного развития инновационных территорий.

Литература

1. Шатохина, С. Ю. (2022). ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНА ПРИ СОЗДАНИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО КЛАСТЕРА. *Наука сегодня: вызовы и решения [Текст]: материалы между*, 62.
2. Усмонов, М. М. (2021). К АКТУАЛЬНЫМ ВОПРОСАМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ. *Наука сегодня: проблемы и перспективы развития [Текст]: ма*, 47.

Муртазаев У.А.
студент строительного факультета
Рахматова О.К.
Научный руководитель

ИССЛЕДОВАНИЕ ВОПРОСОВ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВЫХ ИЗМЕНЕНИЙ

Для целенаправленного практического решения сложных государственных задач на уровне социального сектора целесообразно эффективное использование достижений науки и техники, одним из которых являются цифровые технологии, а так же различных областей знаний, среди которых отдельное место отводится маркетингу.

Основополагающими задачами маркетинга в тесном взаимодействии с цифровизацией и другими направлениями в целях развития сферы услуг являются:

во первых: выявление потенциальных потребностей субъектов рыночных отношений;

во вторых: анализ конъюнктуры рынка и тенденций его развития с использованием цифровых технологий;

Мы бы хотели привести статистические данные по исследуемому направлению.

Таблица 1.

Основные показатели производства услуг по видам экономической деятельности¹
(за январь-февраль 2021 года)

№	Вид услуг	Объём в млрд.сум	Темпы роста к предыдущему году в процентах
1.	Услуги - всего	33 240,9	112,9
2.	в том числе:		
3.	Услуги связи и информатизации	1 895,1	118,3
4.	Финансовые услуги	6 697,7	135,3
5.	Транспортные услуги	9 003,5	111,1
6.	в том числе услуги автотранспорта	4 064,0	103,4
7.	Услуги по проживанию и питанию	960,3	104,2
8.	Услуги торговли	8 082,0	104,9
9.	Услуги, связанные с недвижимым имуществом	1 012,6	103,6
10.	Услуги в сфере образования	1 312,8	114,7
11.	Услуги в сфере здравоохранения	535,6	119,5

¹ Данные stat.uz

Training highly educated economists based on economic research: problems and innovative solutions

12.	Услуги аренды и проката	706,8	104,4
13.	Услуги по ремонту компьютеров и бытовых товаров	526,7	105,9
14.	Индивидуальные услуги	816,6	103,2
15.	Услуги в области архитектуры, инженерных изысканий, технических испытаний и анализа	595,5	102,7
16.	Прочие услуги:	1,0957	104,4

Согласно вышеприведённым данным наибольшие темпы роста отмечены по финансовым услугам (135,3 %), услугам в сфере здравоохранения (119,5 %), связи и информатизации (118,3 %), а также в сфере образования (114,7 %). Незначительный рост зафиксирован по услугам в области архитектуры, инженерных изысканий, технических испытаний и анализа (2,7 %), индивидуальным услугам (3,2 %), услугам, связанным с недвижимым имуществом (3,6 %), по проживанию и питанию (4,2 %).

Для решения данных проблем отдельно взятое предприятие имеет ограниченные возможности и ресурсы. В этой связи именно государство берёт на себя груз, связанный с решением сложных и масштабных задач.

Для обеспечения действенного уровня конкуренции в распоряжении государства имеются наиболее приемлемые инструменты регулирования, которые делятся на прямые и косвенные методы, направленные как на регулирование объемов производства, так и экспорта, импорта групп товаров различной категории [3]. С учётом вышесказанного необходимо отметить, что в данном контексте выделяются вопросы совершенствования механизмов управления персоналом. Таким образом именно маркетинговая концепция государственного управления способна обеспечить более эффективное и качественное выявление, формирование и удовлетворение насущных и потенциальных потребностей общества. Эффективное функционирование социального сектора экономики сегодня возможно на уровне применения достижений цифровизации. С этой точки зрения государство с учётом достоинств цифровой реальности ставит и решает более общие и комплексные задачи в целях обеспечения надёжной, согласованной и эффективной работы социального сектора в целом. Среди основополагающих задач, которые при этом необходимо решить, можно выделить и такие, как:

повышение заинтересованности работников и работодателей в осуществлении проводимых реформ с учётом цифровых изменений;

борьба с теневым сектором экономики с использованием изменений цифровизации;

создание условий для внутренних инвестиционных ресурсов;

В соответствии с вышесказанным, можно прийти к выводу, что маркетинговый инструментарий на уровне государства необходимо использовать в комплексе со всеми инструментами государственного управления, такими как планирование, для выявления реальных потребностей индивидов и способов их удовлетворения.

To'xtayev Zayniddin Egamnazar o'g'li
TTYeSI 1-bosqich tayanch doktoranti
zayniddintoxtayev9@gmail.com

SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI TATBIQ ETISHNING ASOSIY BOSQICHLARI

Yengil sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri ISO 9001 seriyasidagi standartlar bo'yicha sifatni boshqarish sistemasini joriy etishdir. ¹

Korxonaning sifat sohasidagi siyosatiga asosan bo'lim va jarayon rahbarlari sifat sohasidagi maqsadini ishlab chiqadilar, maqsadlarga erishish bo'yicha chora-tadbirlar tuzadilar, bu tadbirlar bajarish uchun mas'ul shaxslar, ularning kutiladigan natijalari va bajarilish muddatlari belgilanadi. Tadbirlar yuzacidan oldindan harajatlar smetasi tuziladi, moliyaviy mablag' ajratish imkoniyatlarini tahlil qilish uchun yuqori rahbariyatga havola etiladi. Bu masala ijobiy hal qilingan taqdirda, bu maqsadlar tasdiqlash uchun korxonaga bosh direktoriga jo'natiladi. Moliyalashtirish masalasi ijobiy hal qilinmasa, ishlab chiqilgan maqsadlar jarayon va bo'limlar rahbarlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish (korrektirovka qilish) uchun qaytariladi.

O'lchash, tahlil ko'rsatishini baholash SMTning faoliyat ko'rsatishini baholash maqsadida rahbariyatni sifat bo'yicha vakili ichki auditlarni rejalashtirish va ularni o'tkazishni tashkil qilish uchun ma'suldir.

Ichki auditlarni rejalashtirish va o'tkazish "Ichki auditlarni boshqarish" protseduraci (CTP-3)ga muvofiq o'tkaziladi. SMTning yaroqliligini va samaradorligini namoyon qilish uchun va tizimni doimo yaxshilashni amalga oshirish imkoniyatlarini baholash uchun korxonaning rahbariyati tegishli ma'lumotlarni aniqlashi, ularni to'plashi va tahlil qilishi kerak.

Tahlil uchun ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash uchun jarayonlar rahbarlari mas'uldirlar. Ular tomonidan quyidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi:

- iste'molchilarning qanoatlanganligi;
- jarayonlar tavsifi;
- mahsulotning muvofiqligi;
- yetkazib beruvchilarning tahlili.

Iste'molchilarning qanoatlanganligi tahlilini korxonaning iste'molchilari talablariga muvofiqligiga taalluqli ma'lumotlarni nazorat osti olish kerak.

Bu ma'lumotlar SMT faoliyati ko'rsatkichlari bo'lishi ham mumkin va iste'molchilarning qanoatlanganligini oshirish bo'yicha tashkilotning maqsadlaridan darak beradi. Iste'molchilar qanoatlanganligining tahlili davriy yoki muntazam ravishda o'tkazib turilishi mumkin. Jarayonlar tavsifi tahlilini jarayonlar rahbarlari o'z jarayonlari bo'yicha mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi belgilangan mezonlarni baholash bo'yicha ma'lumot taqdim etishi va jarayon faoliyati bo'yicha hisobot tuzishlari lozim.²

Mahsulotning muvofiqligi tahlilida yengil sanoat korxonaci mahsulotga taalluqli talablarni aniqlashi va bunda quyidagilarni hisobga olishi lozim:

- iste'molchilarning mahsulotga talablarini;
- iste'molchilar tomonidan qo'yilmagan, ammo zarurat tug'ilganda ma'lum jarayonlarda ishlatilib qolishi mumkin bo'lgan talablarni; korxonada tomonidan belgilangan boshqa har qanday qo'shimcha talablarni. Mahsulotning talablarga muvofiqligining tahlilidan ko'zlangan maqsad – mahsulotlarni yetkazib berishning samaradorligini va mahsulotga quyilgan talablarga erishilganligini tahlil qilishdan iborat.

- Jarayonlar rahbarlari sifat bo'yicha maqsadlarning bajarilishini davriy ravishda tahlil qilib boradilar, shuningdek ajratilgan pul mablag'lariga muvofiq tadbirlarning bajarilishi ham tahlil qilinadi. Korxonada bosh direktori korxonaning moliyaviy samaradorligini tahlil qiladi, qo'yilgan maqsadlarni bajarish va unga erishish uchun moliyaviy mablag'larning o'z vaqtida ajratilishini kuzatib turadi. Bu ma'lumotlarning hammasi SMTni tahlil qilish uchun korxonada yuqori rahbariyatiga kelib tushadi. Rahbariyat SMTning samaradorligini va uzluksiz takomillashuvini ta'minlash maqsadida ma'lumotlarni davriy ravishda tahlil qilib boradi.

Bizning fikrimizcha, Hozirgi kunda yengil sanoat korxonalarida tarmoq standartlariga, me'yoriy hujjatlarga va texnikaviy shartlarga asoslangan sifatli yengil sanoat mahsulotini ishlab chiqarishga qaratilgan kompleks sifatni boshqarish sistemasi joriy etilgan. Jaxon standartlariga javob beradigan yengil sanoat mahsulotini ishlab chiqarish uchun yengil sanoat korxonalariga ISO 9001 seriyasidagi jahon standartlariga asoslangan sifat menejmenti sistemasini joriy etish maqsadga muvofiq. ISO 9001 standartlari yordamida yengil sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish faoliyatining mo'tadilligini, ularning o'zaro bir-biriga muvofiqligini ta'minlash, sifatni ta'minlash va iste'molchining ishonchiga erishish orqali korxonaning salohiyatini oshirishga erishish mumkin.

Safarov Farrux Baxtiyor o'g'li
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi
E-mail: farruhbaxtiyorovich571@gmail.com

AGRAR SOHANI RAQAMLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Raqamli texnologiyalarning eng katta yutug'i — tashkiliy, moliyaviy va inson harajatlarni tejash orqali iqtisodiy samaradorligini keskin ravishda oshirish imkoniyatidir. Hozirda raqamli texnologiyalardan

turli soha va tarmoqlarda keng foydalanilmoqda. Yurtimiz uchun eng dolzarb bo'lgan shunday sohalaridan biri qishloq xo'jaligi sohasidir. Mazkur sohada hozirgi paytda katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Yer hamda ko'chmas mulk munosabatlarini tartibga solish yo'nalishida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali bugungi kunda 8 ta elektron davlat xizmatlari joriy qilingan bo'lib, 50 mingga yaqin arizalar kelib tushgan.

Mazkur yo'nalishda aholiga qo'shimcha qator qulayliklarni yaratish, eng asosiysi mazkur yo'nalishda "inson omili"ni cheklash maqsadida joriy yil yakuniga qadar 5 ta davlat xizmatlari takomillashtiriladi.

"Mac Otacara" vakillarining so'zlariga ko'ra, iPhone 13 nusxasi "Alibaba manbalaridan" kelib chiqqan. Mazkur nusxa ixlosmandlar tomonidan mish-mish, tarqalgan maxfiy informatsiya asosida va o'zlarining fantaziyasiga ko'ra yaratilgani ham ehtimoldan holi emas.

Yer munosabatlari, qishloq va suv xo'jaligi resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida raqamli hamda geoaxborot texnologiyalari tizimini joriy etish yuzasidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldiga ham aniq vazifalar qo'yilgan. Respublikamizda geoaxborot texnologiyalarini rivojlantirish maqsadida sohada yetuk tajribaga ega bo'lgan xorijiy kompaniyalarning tajribasi o'rganildi.

Hozirgi kunda xorijiy kompaniyalarning yerni masofadan zondlash yo'ldoshlari olgan kosmik suratlarni respublikamiz hududida qabul qilish va ularga ishlov berish uchun "virtual" qabul qilish stansiyasi (geoaxborot markazini)ni tashkil etish loyihasi bo'yicha takliflar o'rganilmoqda.

Mazkur loyiha - geoaxborot texnologiyalarini transfer qilish va mahalliy mutaxassislarni xalqaro darajada tayyorlashni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Buning natijasida kosmik suratlarni qabul qilish hamda ularga ishlov berish orqali geodeziya, kartografiya va kadastr yo'nalishlari, noqonuniy qurilishlarning oldini olish ishlari samaradorligi ta'minlanadi.

Aytish joizki, bu borada aniq ishlar izchillik bilan rivojlanib kelmoqda. Masalan, Andijon shahrida yaqinda ochilgan IT-Park filialida — Digital City da "Monterra" nomli pilot loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihaning maqsadi "sun'iy intellekt" texnologiyalarini yordamida Andijon viloyati sharoiti uchun moslashtirish hamda qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining xolatini (sun'iy yo'ldosh tasvirlari tahlili natijasida aniqlash orqali) ob'ektiv baholash hisoblanadi.

Loyiha doirasida Andijon viloyatining jami 6 ta maydonlari tanlab olinib, vektor formatida "Monterra" onlayn platformasiga joylashtirildi.

Shuningdek, yer egalari uchun sun'iy yo'ldosh texnologiyalari yordamida ekinlar holatiga tegishli hulosalar beriladi.

"Monterra" onlayn platformasi orqali qishloq xo'jaligi yerlarini sun'iy yo'ldoshlardan foydalangan holda, xaritalarning turli xil murakkabliklarini yaratish uchun yerning muayyan hududlarini tasvirga oladi va keyinchalik hosildorlikni tahlil qilish uchun tizimda saqlaydi.

Bu loyihaning asosiy ustunlik jihatlari quydagilar:

- qishloq xo'jaligi sohasida tarixiy tasvirlarni yillar kesimida taxlil qilish;
- qishloq xo'jaligi sohasida olingan tasvirlarni ma'lumotlar solishtirish;
- topografik va kadastr xaritalarini yaratish;
- qishloq xo'jaligi maydonlarini relefini tahlil qilish;
- paxta va g'alla o'sish jarayonlarini (vegetatsiya) davrida onlayn kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- yer maydonlarida ekilgan ekinlarning turi va holati haqida ma'lumatlarni to'playdi.

Mazkur loyihani amalga oshirishda Texnopark qoshida yangi rezident tashkil etiladi va 7 nafar malakali dasturchilardan iborat mutaxassislarni qishloq xo'jaligi sohasida malakasi oshiriladi.

Mazkur platforma hozirgi kunda Davergeodezkadastr qo'mitasining "Yer axborot" tizimi bilan o'zaro integratsiya qilindi.

Loyiha sentabr oyida ishga tushadi va Andijon viloyatidagi barcha ekin maydonlarining tahliliy ma'lumotlari shakllantirilib, yer egalari taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

21 iyul kuni Prezidentimiz yer hisobi va davlat kadastrlarini to'liq shakllantirish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Ushbu yig'ilishda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldiga ham bir qator vazifalar qo'yildi.

Jumladan, yig'ilishda, kadastr idoralari zimmasiga yerning hisobi va balansini yuritish, yil yakuniga qadar yer turi, konturi, chegarasi va foydalanuvchisi haqidagi ma'lumotlar jamlangan axborot tizimini ishga tushirish vazifasi yuklandi.

Endi yer ajratish to'g'risidagi qaror mazkur tizimga kiritilsagina haqiqiy hisoblanadi. Shuningdek, sun'iy yo'ldosh kanallarini ijaraga olish va signallarni qayta ishlash tizimini tashkil etishga ko'rsatma

berildi. Bu esa kosmosuratlarini yillar bo'yicha taqqoslash orqali hosildorlikni tahlil qilish, yerlarning meliorativ holatini muntazam o'rganishda qo'l keladi.

Yil yakuniga qadar qishloq xo'jaligi maydonlarini elektron tanlov va auksion asosida ajratish tartibini joriy qilish, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda yer toifalarini optimallashtirish borasidagi ishlar o'z vaqtida bajarilishida vazirligimiz boshqa mutasaddi tashkilot va idoralar bilan yaqindan hamkorlikda ish olib boradi.

Yerning o'lchamidan tortib, tahliligacha bo'lgan amaliy jarayonlarni sun'iy yo'ldoshlar yoki dronlar orqali amalga oshirish mumkin. Shu bois, yil oxiriga qadar ushbu yo'nalishda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar, jumladan, qishloq xo'jaligida kartografiya, yerlarning hisobi, tahlilini raqamlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Zero, bugun qishloq xo'jaligini raqamlashtirmasdan turib sohada raqobatbardoshlikni oshirish, bu boradagi siyosatni belgilash juda qiyin. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi, shubhasiz, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, zamonaviy taraqqiyotning yangi qirralarini o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Kadirova Shaxnoza Ilhomovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
1kurs tayanch doktoranti
e-mail: shkadirova.91@gmail.com

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISHNING TARKIBIY MODELLARI

Taraqqiyot yo'lida muvaffaqiyat qozonish uchun iqtisodiyotning real sektorining sanoat va texnologik tuzilmasida chuqur sifat o'zgarishlari talab etiladi, bu esa davlat jamiyatining mehnat (keng ma'noda) salohiyatida munosib o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. O'z navbatida, bunday o'zgarishlar faqat adekvat iqtisodiy tizim doirasida mumkin bo'lib, uning institutlarini shakllantirish ham strategik yondashuvlar va baholashlarni talab qiladi. Ushbu o'zgarishlar qisqa va uzoq muddatli dasturlardan tashqarida bo'lgan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ham nazarda tutadi.

Kuchli ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyatning yuqori malakali ishchi kuchi bilan uyg'unligi, ulkan va xilma-xil tabiiy resurs bazasi va zarur moliyaviy resurslarning mavjudligi zamonaviy davlatning o'ziga xos xususiyatidir.

Iqtisodchilar oldida 2 ta muqobil masala turadi: neoklassik o'zgarishlar paradigmasi bilan belgilab berilgan yo'lni davom ettirish, yoki taraqqiyotning yangi bosqichini boshlash, uning asosiy maqsadi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot asosida, birinchi navbatda, "iqtisodiy" va "huquqiy" tamoyillarning asosini tashkil etuvchi umumiy tamoyillardan foydalanish orqali mamlakatning o'z salohiyatini rivojlantirishdir. Shunday qilib, sanoatning iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish muammosi birinchi o'ringa chiqadi [1].

Sanoat korxonalarining strategiyasiga ko'ra, xizmat ko'rsatish va tovarlar ishlab chiqarishda salohiyatning kuchliligi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Iste'molchilarning ehtiyojlarni qondirish, xaizmat va tovar sifatini maksimal darajada oshirish dolzarb masalalardan biridir. Undan tashqari, raqobat muhiti haqidagi ma'lumotlar ham iqtisodiy salohiyat uchun muhim. Chunki raqobatbardoshlik ko'p omilli funktsiya hisoblaniob, u eng adekvat va asosli tushunchalarni ya'ni makroiqtisodiy raqobatbardoshlikni jamlangan miqdoriy mezon bilan asosiy ishlab chiqarish fondlarining takror ishlab chiqarish siklining davomiyligi bilan bog'laydi [2].

Iqtisodiy salohiyat turli intensivlik va ahamiyatli ta'sir ko'rsatadigan ko'plab omillarga bog'liq. Potensial (lotincha - kuch) - har qanday sohadagi mavjud mablag'lar va imkoniyatlar to'plami degan ma'noni anglatadi. Mahalliy va xorijiy iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilib, shuni ta'kidlashimiz mumkin, sanoat korxonalarining zamonaviy iqtisodiy salohiyati kontseptsiyasining mohiyatini aniqlashda unga yana bir terminologiya "resurs salohiyati" degan tendentsiyasi mavjud. Bundan tashqari, makroiqtisodiy darajada milliy iqtisodiyot, uning alohida tarmoqlari, guruhleri va komplekslarining iqtisodiy salohiyati aniqlanadi. Mikroiqtisodiy darajada esa alohida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy salohiyati, agregatlar va boshqalarni tushunish mumkin [3].

Iqtisodiy potentsialning mazmuni ikki komponentdan iborat: ob'ektiv - mehnat, nomoddiy, moddiy va tabiiy resurslarning yig'indisi hamda shlab chiqarish va unda ishtirok etish uchun real imkoniyatga ega bo'lishdir; sub'ektiv - resurslardan foydalanish, moddiy ne'matlar va xizmatlarning maksimal miqdorini yaratish qobiliyati va korxonalar, tashkilot, tarmoq mavjud resurslardan unumli foydalanish qobiliyatidir.

Shu bilan birga, iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirishda inson omilining roli ortib bormoqda. Boshqa ma'noda aytganda, inson kapitali bu korxonadagi ega bo'lgan mehnat resurslarining alohida turidir.

Ishlab chiqarishni amalga oshirish bu har doim korxonada ishlaydigan hodimlar bilan bog'liqdir. Ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish tamoyillari, optimal tizimlar va tartiblar muhim rol o'ynaydi. Biroq, ishlab chiqarish muvaffaqiyati bu hodimlarning bilimi, malakasi, intizomi, motivatsiyasi, muammolarni hal qilish qobiliyati bilan birga paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, mehnat munosabatlari, tadbirkorlikning eng muhim masalalaridan biri bo'lib, ayniqsa korxonada xodimlari o'nlab, yuzlab va minglab odamlardan iborat bo'lsa -da, mehnat jarayonini tashkil etish, kadrlarni tayyorlash va ishga olish, maqbul ish haqi tizimini tanlash, ijtimoiy sheriklik munosabatlarini yaratish bilan bog'liq keng ko'lamli muammolarni qamrab oladi [4].

Shunday qilib, korxonaning muvozanatli faoliyati bilan, ishlab chiqarishni o'zaro bog'lashning dinamik tizimi, texnik, iqtisodiy, tashkiliy va ma'muriy yakuniy maqsadga erishishga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlardir. Bozor munosabatlari bilan belgilanadigan yangi iqtisodiy sharoitda korxonalar iste'molchi ehtiyojlarini qondirish va foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tashkil qiladi. Bu ishlab chiqaruvchi o'zining ilmiy, texnik, ishlab chiqarish va marketing rejalarini bozor kon'yunkturasining o'zgarishiga mos ravishda tizimli ravishda tuzatish, o'z moddiy va intellektual resurslarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lganda real bo'ladi.

Bunday imkoniyat korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va umuman iqtisodiy salohiyatini to'g'ri, o'z vaqtida va iqtisodiy jihatdan asoslangan hisob-kitoblarga asoslanadi. Hisob-kitoblar amaliy va fundamental tadqiqotlarni va yuqori samarali yangi kompyuter modellaridan foydalanishni talab qiladi. Bularning barchasi korxonaga ishlab chiqarishni texnik-iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishi va istiqbollarni to'g'ri yo'naltirishga imkon beradi, aks holda u qulashi, raqobatchilardan umidsiz ravishda orqada qolishi mumkin.

Shunday qilib, shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy sharoitda sanoat korxonalari faoliyatining o'ziga xos xususiyati ularning umumiy infratuzilmaning barcha sub'ektlariga doimiy bog'liqligidir. Korxonada ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati jarayonida doimiy ravishda xom ashyo (materiallar), butlovchi qismlar yetkazib beruvchilar, tayyor mahsulot iste'molchilari va raqobatchilar bilan bevosita va bilvosita munosabatlarga kirishadi. Korxonaning iqtisodiy salohiyati uzoq muddatda ko'rib chiqiladi, ya'ni, korxonada maqsadlaridagi o'zgarishlar ta'sirida o'z xususiyatlarini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lishi aniqlanadi. Korxonaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish bu yuqori yakuniy natijalarga erishish va mijozning sifatli mahsulotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun barcha mavjud resurslardan bir vaqtda va oqilona foydalanish imkoniyati hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Afonin I. V. 2002. Korxonani rivojlantirishni boshqarish: strategik menejment, innovatsiyalar, investitsiyalar va narxlar. "Dashkov va Ko" nashriyot-savdo korporatsiyasi.
2. Guskov V. V. 2003. Korxonani innovatsion rivojlantirish strategiyasi: bozor va resurs yondashuvlari. Innovatsiyalar. 46-49 b.
3. Barker A. 2004. Innovatsiyalar kimyosi. Vershina" MChJ. 224 p.
4. Kochetkov S.V. 2011. Sanoat korxonalarini innovatsion potentsialini boshqarish. Dissertatsiya. Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot va moliya universiteti.

Қаҳрамон ОТАЖОНОВ,

Урганч давлат университети тадқиқотчиси, Урганч

АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИ АСОСИДА ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИНИ СИФАТЛИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Маълумки, аутсорсинг хизматлари кейинги йилларда жамиятимизга жадал суръатлар билан кириб келмоқда. **Аутсорсинг**¹ (ингл. *out* - ташқи, *source* - манба) – бу давлат, нодавлат сектордаги ёки бирон бир хўжалик юритувчи субъектдаги фаолиятига хизмат кўрсатиш функциясининг бир қисмини бошқа бажарувчи ташкилотга бериш ҳисобланади.

Ҳозирги вақтда компаниялар бозор томонидан мисли кўрилмаган тазйикқа дуч келишади. Ўз товар ва хизматларини юқори сифатини сақлаган ҳолда операцион харажатларни пасайтиришга эришиб, бизнесни самарали шаклда ташкил қилаётган ташкилотларгина муваффақиятга

¹ http://www.buhgalteriya.uz/outsorsing_uz.html

эришишади ва яшаб қоладилар. Рақобатда устунликка эришиш имконини берувчи замонавий ва муваффақиятли бизнес моделлардан бири – *аутсорсингдир*.

Аутсорсингнинг қуйидаги асосий турлари кенг тарқалган: бухгалтерлик, юридик, кадрлар бўйича, ИТ аутсорсинг, бинони йиғиштириш (*клиннинг*), кўчмас мулк объектларидан фойдаланиш аутсорсинги, логистик ёки транспорт аутсорсинги, ходимлар аутсорсинги.

Аутсорсинг хизматларининг асосий тамойили “ўзимда фақатгина бошқалардан яхшироқ бажара оладиганимни қолдираман, ташқи бажарувчига у бошқалардан яхшироқ бажара оладиганини бераман” қоидаси ҳисобланади.

Аутсорсинг хизматлари бир қатор *афзалликларга* эга. Жумладан:

- *Маблағларни тежаш*. Аутсорсинг хизматининг баҳоси ўзингизда шундай ишни амалга ошириш ёки тузилмани куриш харажатларига қараганда арзон. Сиз ходимларингизга ҳисобланган иш ҳақиға нисбатан ижтимоий суғуртага ажратма қилишингиз, ҳамда даромад солиғи ушлаб қолишга мажбурсиз. Аутсорсер хизматининг қиймати бу сизнинг харажатингиз ҳисобланиб, солиққа тортиладиган базани камайтиради.

- *Иш ўрнини тежаш*. Ўзингизда тегишли тузилмани яратиш сиздан кўшимча офис майдончасини, оргтехникани, канцелярия харажатларини, ахборот-ҳуқуқий тизимларини ва лицензияланган дастурий таъминотни талаб қилиши мумкин

- *Доимий узлуксиз иш*. Ўз ишчи ва ходимларингизга сиз йиллик меҳнат таътили, касаллик нафақаси беришга мажбурсиз. Аутсорсер фирма доимий ишлайди ва буни сизга алоқаси ва масъулияти йўқ.

- *Вақтни тежаш*. Кадрларни танлаш – вақт талаб қиладиган оддий бўлмаган масала ҳисобланади. Сизга зарур бўлган инфратузилма, технологиялар ва мутахассислар бизда етарлича мавжуд.

- *Кафолатланган сифат*. Аутсорсер фирма ўз штатида юқори малакали мутахассислар командаси мавжуд ва бундай лойиҳаларни бажаришда бой тажрибага эга.

Аутсорсинг хизматларини ижтимоий ташкилотларда, хусусан, соғлиқни сақлаш тизимида соғлом овқатланишни ташкил қилиниши бўйича ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июндаги ПФ-6013-сонли Фармони¹ билан белгилаб берилган вазифалардан келиб чиқиб, бюджет буюртмачилари томонидан махсус ахборот порталида жойлаштирилган аутсорсинг хизматларини ташкил этишга оид эълонлар «Давлат харидлари тўғрисида»ги Қонунга мувофиқлиги масофавий мониторинг тартибиде ва ҳудудларга чиққан ҳолда ўрганилган. Таҳлиллар натижаларига кўра, «**dxarid.uz**» махсус ахборот порталида жойлаштирилган маълумотлар таҳлил қилинганида, соғлиқни сақлаш тизимидаги аутсорсинг хизматларини ташкил этишда тизимли хато ва камчиликлар мавжудлиги аниқланган.

Асосий камчиликлар 2019-2022 йиллар давомида ажратилган буюртмалар ҳажми бир неча ўн млрд.сўмни ташкил қилсада, аксарият соғлиқни сақлаш ташкилотларида ишчилар сони 0-3 киши қилиб кўрсатилган. Масалан, “Давлат харидлари тўғрисида”²ги Қонуннинг 36-моддаси талабларида шартномани бажариш учун зарур техник, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги ҳолати иштирокчиларга талаб сифатида қўйилиши белгиланган бўлсада, 2020 йилда 270 та лот бўйича 15 565,7 млн.сўмлик иссиқ овқат тайёрлаш бўйича 109 та танлов ғолиби деб топилган субъектлар ишчи сифатида 0-3 нафар шахсни кўрсатган ҳолос.

Таҳлиллар давомида шу кунгача тиббиёт муассасаларининг бюджет сметасида иссиқ овқат тайёрлаш хизмати учун ажратилган маблағларни аниқ мезонлар билан ҳисоб-китоб қилиш механизми мавжуд эмаслиги сабабли, ҳудудларда бу жараёнда фақатгина Ўзбекистон Республикасида амалда бўлган 1992 йилда қабул қилинган соғлом овқатланиш нормаси бўйича *тахминий ҳисоб-китоблар* қилиниб келинаётганлиги маълум бўлган.

Бундан кўринадики, аутсорсинг хизматини кўрсатувчи субъектлар томонидан расмий равишда ишчиларининг кўрсатмасдан келиниши, ўз навбатида конверт усулида ноқонуний равишда норасмий ишчиларнинг ишлатилишига ҳамда бюджет маблағларининг мақсадсиз сарфланишига шарт-шароит яратилмоқда. Шунингдек, **226 та** тиббиёт муассасалари томонидан аутсорсингга ўтгунга қадар ушбу муассасада ошпаз, кирчи ва турли лавозимларда ишлаган ишчиларни бўшатган

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июндаги ПФ-6013 сонли “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони// lex.uz

² Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Ўзбекистон Республикасининг Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуни// lex.uz

ҳолда, айнан ушбу буюртмачилар билан шартнома имзолаган аутсорсинг хизматини кўрсатувчи тадбиркорлик субъектларига **1315 нафари** ишчи сифатида расмийлаштирилиб, эски тизим давом қилиб келмоқда. Бу каби **сунъий** корхона ташкил қилиш ҳолатлари келгусида манфаатлар тўқнашувини юзага келтирувчи коррупциявий омилларни келиб чиқишига шарт-шароит яратади.

Маълумки, давлат хизматларини аутсорсинг хизматига ўтказишдан асосий кўзланган мақсад, тадбиркорликни ривожлантириш, тиббиёт муассасаларининг иқтисодий самарадорлигини ошириш ва хўжалик фаолияти харажатларини қисқартириш, фаолиятининг асосий бўлмаган турларини ривожлантириш учун инвестицияларга бўлган эҳтиёжини камайтириш ҳамда аутсорсерга берилган ишлар (хизматлар)нинг сифатини оширишга қаратилган

Аммо, айрим жойларда бу хизматни ташкил этиш жараёнида манфаатлар тўқнашувига йўл қўйилаётганлиги, инсофли рақобатни таъминлаш ва қарорлар қабул қилиш чоғида ҳолисона мезонлардан фойдаланилмаётганлиги, тиббиёт бирлашмалари раҳбари ёки бош ҳисобчиси ўзининг яқин таниши ёки қариндоши номига янги корхона ташкил қилиб, танлов савдоларини номигагина ўтказиб, аутсорсинг хизматларини ташкил қилиб келинапти.

Шунингдек, ўтказилган таҳлилларимизга кўра, тиббиёт муассасаларининг биносида ташкил этилган ошхонада иссиқ овқатлар аутсорсинг асосида тайёрланиб, муқаддам тиббиёт муассасасининг ошпази лавозимида ишлаб келган ишчиларнинг аксарияти аутсорсинг хизматини кўрсатувчи корхонага ишчи сифатида расмийлаштирилиб ёки расмийлаштирилмаган ҳолда конверт усулида иш ҳақи бериш ҳолатларига йўл қўйиб келинмоқда.

Бундан ташқари, тиббиёт муассасаларида турли хил тоифадаги беморлар даволанишига қарамасдан, аутсорсинг хизматларини ташкил этиш учун давлат харидларини амалга ошириш жараёнида аниқ ҳисоб-китобларни белгиловчи мезонлар йўқлиги сабабли диетолог врач (ҳамшира) томонидан эски 1992 йилда қабул қилинган тавсиявий соғлом овқатланиш нормаси асосида буюртма шакллантирилиб, шу асосида иш юритилиб келинмоқда.

Бироқ, бу ҳолатлар бўйича ҳам ягона тизим йўлга қўйилмаганлиги, ҳисоб-китоб қилиш механизми мавжуд эмаслиги сабабли ҳудудларда турли хил амалиёт асосида иш юритиб келиниб, бюджет сметаси харажатларини шакллантиришда тахминий ҳисоб-китоблар амалга оширилаётганлиги ҳолатлари бюджет маблағларининг *талон-тороғ қилинишига шарт-шароит яратиш бераётганлиги* маълум бўлди.

Фикримизча, юқоридаги келтирилган маълумотларга асосланган ҳолда ва «Давлат харидлари тўғрисида»ги қонун ининг 36- ва 59-моддаларида қайд этилган мажбуриятларни тўлиқ бажариш мақсадида соҳада коррупциявий хавф-хатарларни олдини олишга қаратилган қуйидаги механизмларни жорий этиш мақсадга мувофиқ:

– аутсорсинг хизмати бўйича ўтказиладиган тендер ва танловларда конвертда тақдим этилган маълумотларнинг ҳаққонийлигини танлов комиссиясида онлайн тарзда кўрадиган умумий тусдаги электрон дастур шакллантириш ва бунда давлат ташкилотларининг раҳбари ёки бош ҳисобчисига махсус логин парол асосида кўриш имкониятини яратиш *(бу орқали корхонанинг ташкил этилган санаси, меҳнат ресурслари билан таъминланганлиги, ҳисобот ёки ўтган давридаги бажарилган ҳамда кўрсатилган ишлар ҳажми, иқтисодий кўрсаткичлари ва бошқа шу каби маълумотларни комиссия аъзолари онлайн кўриш имкониятига эга бўлиб, бунинг натижасида ҳужжатларни сохталаштириб, тендер, танлов комиссияларига тақдим этиш ҳолатларига чек қўйилади ва олди олинади;*

иштирокчиларнинг таклифларини баҳолаш мезонлари ва кўриб чиқиш тартиби, шунингдек шартнома лойиҳасини электрон порталга мажбурий жойлаштириш каби барча маълумотлар шакллантирилмаса, лот рақами биржада рўйхатга олинмаслигини чекловчи қўшимча модулларни яратиш;

– Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва унинг тизимларида аутсорсинг асосида овқатланиш хизматларини ташкил этишда ягона тизим ва амалиёт шакллантирилмаганлиги, беморларни овқатлантириш 1992 йилда қабул қилинган тавсиявий соғлом овқатланиш меъёрлари доирасида амалга оширилаётганлигидан келиб чиқиб, бугунги кун талаблари асосида ва беморларни даволанаётган тиббий муассасаларига мувофиқ тарзда соғлом овқатланиш меъёрларини қайтадан кўриб чиқиб, Соғлиқни сақлаш вазирлигининг тегишли ҳужжати билан тасдиқлаш;

Тиббиёт муассасаларида аутсорсинг хизматларини ташкил қилишда Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 январдаги 16-сонли қарори билан тасдиқланган¹ “Ўзбекистон

¹ <https://lex.uz/docs/4696120>

Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги тузил-масидаги ташкилотларда аутсорсинг хизматлари кўрсатиш тартиби тўғрисида” ги Низоми талабларига риоя қилиниш аҳволини худудларда кўшимча ўрганиш орқали аниқланган тизимли камчиликлар асосида Низом билан тартибга солинмаган коррупцияга сабаб бўлаётган бўшлиқларни тўлдириш ва такомиллаштириш юзасидан Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритиш;

барча бюджет ташкилотлари (*дастлаб соғлиқни сақлаш ва таълим соҳаси*)нинг бош ҳисобчи ва ҳисобчиларини йўл қўйилаётган қонунбузилишларнинг олдини олиш мақсадида Молия вазирлиги ва тегишли вазирлик идораларнинг малакали мутахассислари иштирокида бир ҳафталик масофавий ўқишларни ташкил қилиш ҳамда намунали тарзда аутсорсинг хизматларини ташкил қилган соғлиқни сақлаш ташкилотларида раҳбар ҳамда аутсорсерлар учун сайёр ёки онлайн тажриба алмашув ўқув-амалий семинарларини ташкил қилиш лозим.

Ўйлаймизки, юқорида санаб ўтилган механизмларни нафақат соғлиқни сақлаш, балки барча ижтимоий соҳа субъектларига жорий қилиш аутсорсинг хизматлари сифатини ва давлат харидларининг шаффоғлигини, бюджет маблағларини самарали сарфланишини таъминлайди.

Qutliyeva Mahliyo G'ulomovna
Buxoro Innovatsiyalar universiteti magistranti

O'ZBEKISTONDA IQTISODIY - STRATEGIK TARAQQIYOT JARAYONLAR

Barcha mamlakatlarda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida korxonalar va moliya institutlarining amal qilishi hamda taraqqiy etishi iqtisodiy qonuniyatlar asosida amalga oshmoqda. 2022-2026 yillarda yangi O'zbekiston modernizatsiyalashgan iqtisodiyotga tayanadi. Bunday iqtisodiyotni shakllantirish uchun undagi davlat ishtiroki va soliqlar yukini kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish zarur. (1, 136)

Darhaqiqat, yurtimizda iqtisodiy qonuniyatlar doirasida barcha sub'ektlar ichki va tashqi resurslar va sarmoyalar evaziga tashkil etilmoqda. Mamlakatda kichik va o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli imkoniyatlar vujudga keltirildi. Bugungi kunda, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi bosh vazifa, eng avvalo, davlatning nazorat va boshqaruv funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birincha galda, xususiy biznes faoliyatiga behuda aralashuvini cheklashdan iborat va sub'ektlar ishini qo'llab – quvvatlash hamda tizimlarni shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha tizim tarkibiga esa ishlab chiqarishning shaxsiyinsoniy va moddiyashyoviy omillari kiradi, ularning bir-birini taqozo etishga asoslangan yaxlitligi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari deb yuritiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimga iqtisodiy faoliyat natijasi bo'lgan ijtimoiy, ya'ni jamiyat miqyosida yaratilgan mahsulot ham kiradi.

Odatda, tizimlarda mehnat taqsimoti yuz berib, mehnat, birinchidan, ixtisoslashadi; ikkinchidan, mehnat turlari bir-biri bilan bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Barcha jamiyatlarda mehnat turlari o'rin almashadi, kishilar bir mehnatdan boshqa mehnatga o'tadilar, o'z kasbini o'zgartiradilar. Qayerda bo'lmasin mehnat malaka va mahoratni talab qiladi. Turli tizimlarda, ularni tashkil etuvchi unsurlar bir xil bo'lsada, ularning o'zaro bog'lanishi har xil bo'ladi. Shunday bog'lanishlar orasida ishlab chiqarish omillarining birikishi mulkiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tizimda omillarning birikish usuli asosiy o'rin tutadi, shu jihatdan tizimlar farqlanadi. Turli tizimlarga baho berilganda ularning xalq farovonligi uchun nima bera olganligi bosh mezon bo'ladi. Hozirgi taraqqiyot bosqishida turli tizimlarning samarali ekanligini xalq farovonligining o'sishi ko'rsatib turadi. Farovonlikni oshirish, bilish qobiliyati tizimning yashovshanligi yoki uning boshqasi bilan almashuvi zarurligini bildiradi.

Jamiyatimizda mulkiy munosabatlarning xarakteri, xo'jalikiqtisodiy aloqalar mazmuni, xalq iste'moli darajasi, sinfiy belgilar bilan belgilanadi. Marksizm nazariyasida mulkiy sinf mezonlar asos qilinib, tizimlar formatsiya deb qaralgan. Marksizm ta'limotiga ko'ra besh formatsiya mavjud: ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va nihoyat kommunizm. O'tgan XX asrning 60-chi yillarida marksizمنى almashtira oladigan ta'limot sifatida «rivojlanish bosqishlari» nazariyasi paydo bo'ldi. Mazkur nazariya tizimlarni tahlil etishda ishlab chiqaruvchi kuchlarning yetuklik darajasini mezon qilib oladi. Bu nazariya mualliflari jamiyatni ikki tipga bo'lishadi: an'anaviy jamiyat, industrial jamiyat. Shunga monand ravishda iqtisodiy rivojlanishning olti bosqishi ajratiladi:

➤ traditsion jamiyat;

- o'tkinshi jamiyat;
- industrial jamiyatga o'tish;
- industrial jamiyat;
- ommaviy iste'mol jamiyati;
- yangi turmush tarsi.

Barcha mamlakatlarda iqtisodiy o'sish mulkchilikka asoslangan holda vujudga keladi. Mulkning mavjudligiga qarab, insonlarning jamiyatdagi mavqei, ularning ijtimoiy maqomi yuzaga keladi. Iqtisodiyot doimo mulkiy munosabatlarga asoslanadi. Mulkchilikning rivojlanganlik darajasi u yoki bu mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasini ko'rsatib beradi. O'zbekiston Respublikasida mavjud tabiiy zaxiralar, iqtisodiy, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, cheklangan zahiralardan yuqori samara olish, aholini ish bilan ta'minlash, iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni, ayniqsa, tadbirkorlarni rivojlantirishga oid iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, milliy valutamizni muntazam ravishda mustahkamlab borish, xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun soliq yukini kamaytirish, chetdan olib kiriladigan sarmoyalarga keng yo'l ochib berish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi omillar yaratish demakdir. Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirish, ishlab chiqarishni iste'molchilar talablari asosida tashkil etish hamda fuqarolar erkinligiga keng yo'l ochib berish, ularning mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanishi, yuqori unum, yoshlarimizning tashabbuskorlik va tashkilotchilik asosida tadbirkorlik faoliyati olib borishlarini ta'minlashdir. Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yurtimiz iqtisodiyotini ham moliyaviy ham moddiy jihatdan qo'llashidan kelib chiqib bu sohani mamlakatda rivojlantirish va uni tashkiliy huquqiy asoslarini ta'minlash orqali yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy – moliyaviy siyosatlar zamon talablariga mos keladi.

Mamlakatimizda prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabusi bilan, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda tadbirkorlik va xususiy sektorni shakllantirish hamda rag'batlantirishda katta e'tibor berilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan "Ochiq muloqoti"ni o'tkazish va barcha hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish rejalashtirilgan. Ilg'or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish, 2026-yilga borib esa tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish asosiy vazifa sifatida belgilab olingan. Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish hamda tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Tegishli boshqaruv muassasalari tomonidan mamlakatimizda "Tadbirkorlik to'g'risidagi" va "Tadbirkorlikni rag'batlantirish", "Tadbirkorlik sohasini erkinlashtirish kafolatlari" to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarning qabul qilinishi mamlakatda tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim baza sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston - taraqqiyot strategiyasi. T.: O'zbekiston. 2022.B-136.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. Toshkent sh., 2022-yil.

Навруз-зода Лайли Бахтиёровна
Бухоро давлат университети
Маркетинг ва менежмент кафедраси доценти
lzoda@mail.ru

ТАДБИРКОРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ МАҚСАДИДА УНИНГ СИФАТ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ТАСНИФЛАШ

Инсоннинг касбий муваффақияти 19 асрда ўқиш ва ёзиш маҳорати билан белгиланадиган бўлса, 20 асрда келиб касб-корда омадга эришиш инглиз тили билимдонлиги ва компьютер саводхонлигидан боғлиқ бўлди. “Бугун, 21 асрда *тадбиркор каби фикрлаш ва ҳаракат қилиш қобилияти* айниқса муҳим, чунки ёлланма ишчилар жамиятидан тадбиркорликка ўтиш муқаррар”,

дейди Вена тадбиркорлик ва инновациялар институти рахбари, профессор Николас Франк¹. Тадбиркорлик соҳасида муваффақиятга эришиш учун “тадбиркор инсон ривожланган тадбиркорлик қобилиятига эга бўлиши керак”, деб ўйлаймиз.

Тадбиркорлик қобилиятининг мавжудлиги ва сифат даражаси тадбиркорнинг бир қатор шахсий фазилатлари, касбий кўникмалари ва тадбиркорлик маҳоратидан боғлиқ бўлади. Тадбиркор шахсларнинг тадбиркорлик фазилатлари бўйича адабиётларда турли фикр-ақидалар ва таснифотлар мавжуд. Уларнинг айримларини кўриб чиқамиз.

20 асрнинг энг нуфузли менежмент назарийчиси Питер Друкер тадбиркорлик бўйича куйидаги фикр билдирган: “Бизнеснинг мақсади мижоз яратиш бўлганлиги сабабли, ҳар қандай компания фақат иккита таянч функция – маркетинг ва инновацияга эга бўлади”². Унинг бу фикридан келиб чиқиб, замонавий тадбиркорнинг муҳим фазилати сифатида “маркетинг маҳорати”ни киритиш ўринли, деб ҳисоблаймиз. Дунёда машҳур маркетинг назарийчиси Филип Котлернинг классик таърифига кўра “маркетинг – бу айирбошлаш орқали зарурат ва эҳтиёжларни қондиришга қаратилган инсон фаолият туридир”³. Маркетинг замонавий бизнес фалсафаси ва тадбиркорлик воситаси сифатида хизмат қилиб келмоқда. Маркетингнинг ҳозирги даврда янги бозорларни шакллантириш, янги мижозларни яратиш, харажатларни қисқартириш, фойдани кўпайтириш, рақобатни кучайтириш, тадбиркорлик субъектлари фаолияти сифатини яхшилаш ва самарадорлигини оширишда муҳим роль ўйнайди. Тадбиркор шахснинг маркетинг маҳорати қанча юқори бўлса, унинг тадбиркорлик иши шунча омадли бўлади.

Тадбиркорлик кўникмаларни аниқлаш Халл-Тонна (Hall-Tonna Model) моделига асосланган бўлиб, у тўртта кўйидаги кўникма турларини ажратади⁴: 1.Инструментал қобилиятлар (Instrumental skills). 2.Шахсларо кўникмалар (Interpersonal skills). 3.Тасаввур қилиш кўникмалар (Imaginative skills). 4.Тизимли кўникмалар (Systemic skills). Халл-Тонна модели бўйича ажратилган ушбу тадбиркорлик кўникмалари тадбиркорликни жараён сифатида кўриб чиқиб, унинг учта: тадқиқот, амалга ошириш ва бошқариш босқичларига⁵ хос бўлган компетенциялари сифатида муҳим аҳамият касб этади. Лекин, тадбиркорлик фаолиятини сифат менежменти объекти сифатида тадқиқ этишда тадбиркорларга хос бўлган менежерлик кўникмалари, маркетинг маҳорати, янгиликка интилувчанлиги каби сифат хусусиятларини ҳам инобатга олиш керак, деб ҳисоблаймиз.

Тадбиркорлик қобилиятини таснифлашнинг психологик ёндашувига кўра тадбиркорлик фаолиятига мойиллик ва психологик тайёрликни белгиловчи шахсий фазилатлар учта куйидаги гуруҳга ажратилади⁶: 1.“Асаб тизими ва тафаккурнинг хусусиятларини тавсифловчи фазилатлар” гуруҳи. 2.“Мотивацион соҳанинг хусусиятлари” гуруҳи. 3.“Лидерлик феномени” гуруҳи. Фотекова Т. А., Митрухина С. В., Власова Е. Н. ва бошқалар томонидан ишлаб чиқилган ушбу таснифлашда шахсий ва касбий фазилатлари билан бир қаторда тадбиркорлик қобилиятини функционал (менежмент, маркетинг) ва рақамлаштириш жиҳатларини ҳам инобатга олиш зарур, деб ҳисоблаймиз.

Европа комиссияси доирасида тадбиркорлик соҳасида компетентликнинг тузилиши масаласи бўйича (EntreComp - *Entrepreneurship Competence Framework*) олиб борилган илмий тадқиқотларида Европа фуқаролари ва ташкилотларининг тадбиркорлик салоҳиятини оширишга қаратилган восита сифатида 3 та компетентлик соҳаси ва уларнинг 15 та компетенцияларини тавсия этади. Бунда, компетенция, Entre Comp тадқиқоти доирасида “билим, кўникма ва муносабатлар йиғиндиси” сифатида тушунилади. Тадбиркорлик компетенциясининг соҳалари ва компетентциявийликлари куйидагилардан иборат⁷: 1чи компетентлик соҳаси – “*Ҳоялар ва имкониятлар*”. 2 чи компетентлик

¹Предпринимательство: волшебная формула ПитераДрукера для 21 века.

<https://pmba.vedomosti.ru/entrepreneurship-and-innovation/predprinimatelstvo-volshebnyaya-formula-pitera-drukera-dlya-21-veka>(дата обращения:12.03.2022).

²Питер Друкер, Макьярелло Дж. Менежмент. Перевод с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2010. 704 с. С.:165.

³Филип Котлер.Основы маркетинга. М.: «Вильямс», 2007. 647 с. С: 21.

⁴Hall, V. P. (1994). *Values Shift: A Guide to Personal & Organizational Transformation*. California:Twin Lights Publishing.288 p.

⁵Rodrigo Alda-Varas, Lourdes Villardón-Gallego,ItziarElexpuru-Albizuri.Proposal and Validation of an Entrepreneur Competency Profile: Implication for Education. Electronic Journal of Research in Educational Psychology, 10(3), pp: 1057-1080. ISSN: 1696-2095. 2012, no. 28.


⁶Фотекова Т. А., Митрухина С. В., Власова Е. Н. И др. Исследование профессиональных склонностей к предпринимательской деятельности молодежи Республики Хакасия. Журнал Психология. Серия: Познание №11 ноябрь 2020 г. 107-113 с.

⁷Vacigalupo, M., Kamylyis, P., Punie, Y., Van den Brande, G. (2016).EntreComp: The Entrepreneur-ship Competence Framework. Luxembourg: Publication Office of the European Union; EUR 27939 EN; 39 p doi:10.2791/593884.<https://ec.europa.eu/jrc/entrecomp>.

сахаси – “Ресурслар”. 3 чи компетентлик сахаси – “Харакатлар”. Ушбу таснифлаш тадбиркорлик соҳасига кадрларни тайёрлашда таълим стандартлари, малакавий талабларни шакллантириш, ўқув дастурларни яратишда хизмат қилади. Лекин, улар тадбиркорлик қобилиятини баҳолашда ишончли восита сифатида хизмат кўрсата олмайди, деб ўйлаймиз.

Тадбиркорлик қобилиятини баҳолаш мақсадида биз киритиш орқали инсоннинг тадбиркорлик фаолиятига лаёқатлилиқ кўникмаларини уч гуруҳга: қаттиқ, юмшоқ ва рақамли тадбиркорлик кўникмаларга ажратиб, тадбиркорлик маҳрати моделини тавсия этамиз (1-расм).

В последнее время роль и значение эффективности использования интеллектуального капитала по сравнению с использованием физического капитала в рентабельности компании растет. В связи постоянным ростом важности интеллектуального капитала в деятельности и конкурентной борьбы компаний, большинство из них ищут пути их измерения и корреляцию между человеческим фактором и финансовыми показателями. Это проблема в некоторых отраслях промышленности и отдельных компаний до сегодняшнего дня не нашло своего решения. Менеджеры компании в целях рыночных позиций должны знать, что какие активы является основным внутренним источникам компании и какие активы играют важную роль в улучшение конечных финансовых деятельности.

В данном научном сообщении мы попытаемся раскрыть важность управления интеллектуального капитала и его влияние на финансовую работу. Понятие интеллектуального капитала позволит утверждать, что между рыночной стоимостью и балансовой стоимости (бухгалтерской) компании существует большое расхождение, и достижение лучших финансовых показателей связано с размером интеллектуального капитала.

Значение и необходимость подробного изучения заключается в том, чтобы понять природу, компоненты, модели и методы измерения интеллектуального капитала и тем самым улучшить процесс контроля и эффективного использования этого капитала компании.

Существуют множества определений управления интеллектуального капитала в различных исследователей в области менеджмента. В одной из них, Бернанд Дж, управление характеризуется как «Процесс управления и решения проблем посредством эффективного и рационального использования ограниченных ресурсов в условиях меняющейся окружающей среды»^[1]

В другом определении, Фрай Л. управление характеризуется как «дисциплина, которая включает в себя планирование, организация, руководство и контроль работниками предприятия и использование ресурсов организации для достижения заданной цели».^[2]

Также, Ду Брин Андрию даёт следующее определение управлению: «Управления это использования ресурсов компании для достижения ее целей посредством планирования и принятия решений, организации, руководство и контроля»^[3]

Обобщая вышеприведенные определения, мы приходим к выводу, что управления представляет собой систематический процесс для достижения заданных целей, посредством создания взаимоотношений между существующих материальных и человеческих ресурсов на базе эффективного и действенного планирования, организации, руководства и контроля.

Следовательно, интеллектуальные ресурсы, являются особенными источниками капитала компании, которые заслуживают особого внимания и стоит посвятить больше времени ее исследованию. Интеллектуальный капитал это знания работников компании в определенном периоде времени. Этот капитал является шире и ценнее чем физического капитала, который выступает как источник формирования нематериальных активов фирмы. Те предприятия, которые могут лучше управлять нематериальными активами, имеют лучшую позицию по сравнению со своими конкурентами. Поэтому интеллектуальный капитал становится предметом управления. Интеллектуальный капитал помогает компаниям в создании нематериальных активов и тем самым обогащается стоимость их имущества.^[5] На основе вышеизложенных можем утверждать, что интеллектуальный капитал это часть нематериальных активов, которое складывается из

следующих элементов: интеллектуальные активы, человеческие активы и структурные активы. Интеллектуальный капитал также является основным источником для нововведений, посредством которых компания может начать конкуренцию. Интеллектуальный капитал это те источники знаний, который создают для фирмы стоимость, однако традиционно не отражаются в бухгалтерском балансе (как опыт, мастерство, клиентские отношения, профессионализм работников), а также часть нематериальных активов (авторские права, торговая марка) традиционно отражаемых в балансе компании.

Интеллектуальный капитал является главным элементом человеческих ресурсов компании, так как он создаёт новую стоимость, и он является тем невидимым знанием, упрятанным в мозгах работников компании, который влияет на деятельность предприятий. Конечно, эти скрытые знания работников компании не достаточно и она должна стать доступным, после чего превращаются в интеллектуальный капитал⁶.

Человеческий капитал включает в себя компетентность, мотивация, сообразительность персонала и компетентность охватывает мастерство (навыков) и образование, а сообразительность (проницательность) людей вызывает изменения в организаций.

Человеческий капитал это совокупность знаний работников одной компании направленное на достижение оптимального способа решения какой ни будь проблемы. Таким образом, уход профессиональных кадров с работы приводит к снижению рентабельности компании. ^[6].

Там где, деятельность компании зависит от знания работников, сотрудники являются самым важным активом, однако они не являются собственностью организации. Например, если программист, в недельные выходные дни напишет программу, то компания не имеет права утверждать, что программа принадлежит ему.

Структурный капитал можно рассматривать совокупность знаний и нечеловеческие ресурсы компании. К нему в частности относятся информационные ресурсы, инструкции, процедуры, правила и операционные программы организации.

Другими словами, структурный капитал состоит из инструкции, руководства, политики, ноу-хау и все, что увеличивает стоимость организации больше, чем стоимости его физического капитала. ^[7] Как уже упоминалось, человеческий капитал состоит из знаний и опыта сотрудников одной компании находящихся в его распоряжении в рабочее время. Однако структурный капитала это фактическая способность и знания компании, которое является его собственностью и даже после увольнение работников останется в распоряжение компании. ^[8].

Литература:

- 1.Брукинг Э. Интеллектуальный капитал /Пер.с англ.- СПб, 2014.-288
- 2.Леонтьев Б.Б. Цена интеллекта. М., Изд.Центр.,2017,-200 с.
- 3.Макаров А.М Интеллектуальный капитал организации: сущность, измерение, развитие.-Ижевск: Удмурдский университет, 2010, -245 с
- 4.Радионова Е.М Интеллектуальный капитал научно- инновационных кадров: монография Изд-во орелГТУ, 2012. 300с.
5. Стюарт Томас А. Интеллектуальный капитал. Новый источник богатства организаций. –М.,Поколение,2016.
- 6.Макаров А.М Интеллектуальный капитал организации: сущность, измерение, развитие.- Ижевск: Удмурдский университет, 2010, -245 с

Danabaev Bekjan Ma'rufovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali magistranti
uzb_bek07@mail.ru

TURIZM SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH VOSITASIDA IQTISODIY SAMARAGA ERISHISH YO'LLARI

Kirish. Raqamlashtirish iqtisodiyoti turizm sohasida ma'lumotlarni yaxshilash, tahlil qilish, samaradorlikni oshirish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, turizm sohasining rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Turizmda raqamlashtirish sifatini oshirish, turizm sektori bo'yicha to'plangan ma'lumotlarning sifatini va bu ma'lumotlardan olingan tahlil natijalarining yuqori sifatini ta'minlashga oid jarayonlarni ifodalayadi.

Aksariy turizm tashkilotlari va mamlakatlar, turizm ma'lumotlarini to'plash, saqlash va ularga murojaat qilish uchun raqamlashtirishni amalga oshirishda muhim qadam qilishmoqda.

Turizm raqamlashtirish sifatini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish mumkin ya'ni quyidagi rasmda jarayonlarni tahlil qilib chiqishimiz mumkin.

Ma'lumotlarni to'plashda sifatni ta'minlash: Ma'lumotlar to'plab chiqish jarayonida sifatni ta'minlash uchun ma'lumotlarning yagona to'plamda yig'ilishi, to'plangan ma'lumotlar uchun xato darajasini pastilash, to'plangan ma'lumotlarning yagona standartlarga mos kelishi kabi qoidalarni amalga oshirish kerak.

Ma'lumotlar analizi va tahlil sifatini oshirish: Raqamlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarini ta'riflashda sifatni oshirish uchun tahlil metodlarini to'liq qo'llash zarur. Tahlil usullari, statistikalar, grafiklar, model va dasturlashlar, ma'lumotlar bazalari va boshqa ilmiy-yuridik vositalar orqali natijalar olish va ularga ma'lumotlar qo'shish uchun sifatli usullardan foydalanishni talab qiladi.

Xalqaro standartlarga rioya etish: Turizm sohasidagi raqamlashtirishda xalqaro standartlarga rioya etish sifatni oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu standartlar, ma'lumotlar yig'ilish, saqlash, ma'lumotlar muhokamalari va tahlilini bajarish, xatolar va nusxalanishlarga qarshi himoya turlarini o'rnatish, ma'lumotlarni himoya qilish va ma'lumotlar ulushi sifatini ta'minlash kabi jarayonlarda yordam beradi.

Ma'lumotlar ustunligini ta'minlash: Ma'lumotlar ustunligi, turizm ma'lumotlarining to'g'ri, to'liq va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Bunday ustunlikni ta'minlash uchun avtomatlashtirish, ma'lumotlar bazalari va tizimlar, ma'lumotlar xavfsizligi va himoyasi, ma'lumotlar tarqatishni ta'minlash va ma'lumotlar o'zlashtirish bo'yicha sifatli tizimlar va protseduralar qo'llanilishi kerak.

Ma'lumotlar ulushi va ulush bo'yicha taqsimlash: Turizm sohasidagi ma'lumotlar raqamlashtirilishida ma'lumotlar ulushi va ulush bo'yicha taqsimlashning sifatini oshirish ham muhimdir. Bu, turizmga oid ma'lumotlarni turistlar, sayohat turlari, mamlakatlar, joylar, sayohat davomiyligi va boshqalar kabi kategoriyalar bo'yicha taqsimlashni o'z ichiga oladi. Bu taqsimlash, ma'lumotlar ustida tahlil va taqdimotning samaradorligini oshiradi.

Turizm raqamlashtirish sifatini oshirish, ma'lumotlar yig'ilish, analiz qilish, tahlil qilish, ma'lumotlar ustunligini ta'minlash va ma'lumotlar ulushi bo'yicha taqsimlashni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonlar turizm sohasidagi ma'lumotlarning sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va turizmning strategik rivojlanish va maqsadlarni erishishida yordam beradi.

Turizm samaradorligi turizm sektoriga o'z xizmatini ko'rsatish, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berish asosida keng foyda olib keluvchi bir qator ko'plab faktorlardan iboratdir. Bu samaradorlik, turizm sohasidagi xizmatlar va aktivliklar orqali amalga oshiriladi hamda turizmning mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumotlar beradi. Ushbu samaradorligi bir qancha yo'nalishlardan iborat bo'lib, ular turistlarni tortish, mehnat va kapitalni jalb qilish, mamlakatdagi mahsulotlarni sotish, xizmatlar yaratish va turizm infrastrukturasini rivojlanishini o'z ichiga oladi va mamlakatning iqtisodiy to'g'ridan-to'g'ri daromadiga, ish joylarining yaratilishi va ekologik muhitni saqlashga qaratilgan ko'rsatkichlar bilan o'lchaydi.

Turizm samaradorligi mamlakatning valyuta kirimini oshirishi, ish bilan bandlik darajasini yuqoriga oshirishi, investorlar va tadbirkorlarni tortish, infrastrukturaning rivojlantirishi, mahsulotlarni sotish va xizmatlar yaratishni oshirishi kabi iqtisodiy afzalliklarni o'z ichiga oladi. Turizm samaradorligi turizm sektoriga bo'lgan talabni oshirishi, shuningdek mamlakatning mazkur sohadagi rivojlanishini ham rag'batlantiradi hamda ijtimoiy rivojlanishga ham qo'shimcha ta'sir ko'rsatadi.

Turistlar mamlakatning turizm ob'ektlarini ko'rish, madaniy qobiliyatlar va osonliklar bilan ta'minlash, o'zaro diplomatiya va insonlarning do'stlik va tushunchalarini rivojlantirish imkonini beradi. Turizm samaradorligi orqali mamlakatlar o'zining tarixiy va madaniy bog'larini dunyo jamoasiga taqdim etish va o'zlarini dunyo bo'ylab tanitish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ekologik tarafdagi samaradorlik esa turizm sohasining ekologik ta'sirini minimalga tushirishi, tabiiy resurslarni saqlash, ekologik tadbirlar va energetik samaradorlikni oshirish orqali amalga oshiriladi. Turizm samaradorligi turizm sohasida sifatli va mustahkam ekologik tamoyillarning qo'llanilishini, tabiiy ezguliklarning va biologik tartibotning saqlanishini ta'minlaydi. Umuman olganda, turizm samaradorligi turizm sohasining mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi jarayondir. Bu, turizm sektori uchun investitsiyalar, iqtisodiy ko'rinishlar, ish yaratish va mamlakatning imidjini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, turizm samaradorligi mamlakatning tabiiy resurslarini saqlashga va ekologik tamoyillarning rivojlanishiga ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va taliflar Turizm samaradorligiga erishish uchun raqamlashtirishdan foydalanish quyidagilardan iboratdir.

- ✓ Statistik ma'lumotlar to'plash: Turizm sektoriga oid bo'lgan statistik ma'lumotlar, turistlar soni, ularning mamlakatga kiritgan mablag'lar, xarajatlari, sayohat turlari va boshqa ko'rsatkichlar to'plab chiqiladi. Bu ma'lumotlar turizm sohasidagi holatni, sezgirlikni va tendentsiyalarni tushunishga yordam beradi.
 - ✓ Ma'lumotlarni analiz qilish: Raqamlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, statistikalar, diagrammalar va grafiklar yaratish yordamida turizm sohasidagi muhim ko'rsatkichlarni va xususiyatlarni tushunishga imkon beradi. Bu tahlil natijalari turizmning yo'nalishlari, muvaffaqiyati, istiqbollari va muammolarini aniqlashga yordam beradi.
 - ✓ Rivojlanishni baho berish: Raqamlashtirilgan ma'lumotlar, turizm sohasidagi rivojlanish darajasi va samaradorlikni baholash uchun foydalaniladi. Bu baholar, turizm daromadlari, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, ish joylarining yaratish darajasi, ekologik samaradorlik va turizm sohasidagi boshqa muhim o'lchovlarni o'z ichiga oladi.
 - ✓ Investitsiya va resurslarni yo'nalishlantirish: Raqamlashtirilgan ma'lumotlar, turizm sektoridagi investitsiya qo'yish va resurslarni yo'nalishlantirish bo'yicha qarorlar olish uchun foydalaniladi. Bu ma'lumotlar, turizm sohasida xavfsiz investitsiya muhitini aniqlash, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va turizmga qo'yiladigan mablag'larni belgilashda yordam beradi.
 - ✓ Marketing va reklama strategiyalarini rivojlantirish: Raqamlashtirilgan ma'lumotlar, turizm sohasida marketing va reklama strategiyalarini belgilashda foydalaniladi. Bu ma'lumotlar, turizmga qiziqishni oshirish, turistlarni jalb qilish, sifatli xizmatlar taklif etish va mamlakatning turizmga qiziqishni oshirish uchun qanday yo'l harakat qilish kerakligini tushunishga yordam beradi.
- Turizm samaradorligini oshirishda raqamlashtirish, ma'lumotlarni to'plash, analiz qilish, tendentsiyalarni aniqlash, rivojlanishni baho berish, investitsiyalarni yo'nalishlantirish, marketing strategiyalarini rivojlantirish va boshqa qarorlar qabul qilish jarayonlarida asosiy qo'llaniladigan vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Raximov Z.O., Ismailov N.I. Rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda raqamlashayotgan turizmning ahamiyati./ Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborotnomasi. Nukus 2020 yil 3-son (ISSN 2010-9075). 42-45 bet.
2. SH.M.Mirziyoyev "Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PF-2661-sonli Farmoni, 2016 y 2 dekabr.
3. SH.M.Mirziyoyev "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni, 2021 yil 6 aprel.
4. <http://www.samstat.uz>
5. <http://www.lex.uz>

Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti doktoranti
nafisa.m3434@gmail.com

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI

Kirish.Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar, yangilanishlar va o'zgarishlar iqtisodiyotimizning barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy va ijtimoiy o'sishni ta'minlash va yanada aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish korxonalarini jahon iqtisodiyotining asosiy sohasi sifatida o'zining salmoqli hissasiga ega hisoblanadi. Yurtimizda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish, xususan davlatimiz Prezidentimizning tashabbuslari bilan O'zbekistonni 2030 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish "Konsepsiyasi" yangi O'zbekistonni barpo etishda 2030 yillarda xalqaro bozorlar konyukturasiga moslashuvchan qobilyatini amalga oshirishda muhim o'rin tutdi. Chunki, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ayonki YaIM tarkibida aynan xizmat ko'rsatish korxonalarini yetakchi o'rinni egallaydi ya'ni mahsulotining 60-70 % xizmat ko'rsatish korxonalarini hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohaga imtiyozlar berish, qishloq joylarda xizmatlar korxonalarini rivojlantirish va aholi bandligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon takomillashtirishda avvalombor, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ko'plab korxonalar boshqaruv samaradorligini oshirish va

ularni boshqarilishini tartibga solish borasida ko'plab yangi va muhim qarorlar va qabul qilishni talab etadi. Prezidentimizning 2022–2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmonida ¹


“Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish.

Shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo'lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta'mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko'rsatish punktlarini rivojlantirish va boshqalar.

Tahlil va natijalar

Xizmat ko'rsatish korxonalarini bunda aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratishda ulkan ahamiyatga kasb etadi. Joylardagi aholi daromadlarining real o'sishi bu avvalo, xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatining yo'nalishlari to'g'ri taqsimlanishidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan biz asosiy e'tiborni xizmatlar ko'rsatish korxonalarini rivojlantirishga va iqtisodiyot tarkibida uning rolini kuchaytirishga qaratamiz. Ushbu korxonalar nafaqat, ayniqsa, qishloq joylarida ish o'rinlarini ta'minlashga, balki aholi daromadlarini oshirishga bog'liq hisoblanadi

O'zbekistonda o'sish suratlari yuqori bo'lgan xizmat ko'rsatish yo'nalishlari



Yuqoridagi ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish korxonalarini kun sayin kengayib bormoqda. Bunga sabab, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va iqtisodiyotimizning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning birma-bir davlatimiz rahbari tomonidan nazoratga olinayotgandalolat beradi. Yuqoridagilarni inobatga olib biz Xizmat ko'rsatish jumlasiga quyidagi ta'rifni bersak mubolag'a bo'lmaydi

Hozirgi vaqtda mavjud moliyaviy muammolarni hal qilish jarayonida ishlab chiqarish va mahsulot realizatsiyasi hajmlari, tovar oqimlarining chegaralari mustaqil ravishda belgilanmoqda. Kelgusida bu yo'nalishdagi rivojlanishning salbiy tendensiyalarini pasaytirish uchun maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish asosli hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda ushbu muammolarni bartaraf etilishi iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlarni yo'lga qo'yish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va natijada mamlakat aholisining turmush darajasini ko'tarilishi va daromadlarini oshishiga olib keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni

Har bir mamlakat rivojlanishning muqobil usullarini izlashga harakat qiladi va shu orqali mamlakatda mavjud resurslar, aholining ilmiy salohiyati, innovatsion qobiliyat, fan texnika yutuqlaridan unumli foydalanadi. Bizning mamlakatimiz ham, dastlabki kunlardan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mavjud resurslar va usullardan maqsadli foydalandi. Biroq, aholi talabining turlicha o'zgarishi oqibatida, iqtisodiy resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi kunga kelib, mamlakatda resurslar kam talab etadigan xizmat ko'rsatish korxonalarini tanlash, raqamli xizmatlarni rivojlantirish va keng ko'lamda foydalanish kerak ekanligini ko'rsatmoqda. Sababi xizmat ko'rsatish korxonalari iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda lokomativ vazifasini bajaradi. Shu asosdan kelib chiqib xizmat ko'rsatishning mazmun mohiyatini to'laroq anglash zarurati yanada kuchayadi hamda bugungi kunda xizmatlar eksportni rivojlantirish bu rag'batlantirishga yo'naltirilgan davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining ajralmas bir qismi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni
2. Qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi va aholi bandligi. Monografiya / G'.S.Mustafoev – Samarqand.: SamISI, 2022. – 190 bet.
3. T-75 Transport servisi. Darslik –T.: “Fan va texnologiya” 2015, 264 bet
4. Glazev S.Yu. Teoriya dolgosrochnogo texniko-ekonomicheskogo razvitiya. M.: VlaDar, 2013
5. Gompers P., Lerner J. The Venture Capital Cycle. Massachusetts Institute of Technology. 2014. – P. 555.

Dilshod Gulomovich Yangiboyev
International Strategic Center
for Agri-Food Development, Researcher
e-mail. dilshodgulomovich@gmail.com

ECONOMIC EFFICIENCY OF THE USE OF DRIP IRRIGATION TECHNOLOGIES ON RAIN FED LANDS

It is expected that, by 2050 the world's population will exceed 9 billion people, and today about 1 billion people face the problem of malnutrition. Therefore, until 2050, an additional 1 billion tons of grain and about 200 million tons of livestock products are required annually¹. In addition, more than half of the world's developing population - 3.1 billion people, or 45 percent of the world's population - live in villages. Of these, 2.5 billion work directly in agriculture². At the same time, 850 million people of the world's population live in poor and developing countries, mainly located in the regions of rain fed lands³. Therefore, rain fed land creates an opportunity to improve the standard of living of its population by increasing the efficiency of growing agricultural products on land.

In subsequent years, because of climate change, agricultural production has a serious impact on the efficiency of cultivation. According to data from Uzbek weather forecast (2020), the phenomenon of acute geological drought has observed four times in Uzbekistan over the past two decades (in 2000-2001, 2006, 2008 and 2010-2011). In the regions most affected by one of the most severe droughts, which occurred in 2000-2001 and observed every 100 years, 45-75 percent of the crop lost (FAO, 2017). During the drought of 2000-2001, grain production in the country decreased by an average of 10 percent, cotton production by 17 percent, and rice cultivation by 60 percent, which led to a reduction of 130 million. They knew that there was a loss for US dollars (World Bank, 2006)⁴.

As you know, the amount of precipitation in the conditions of rain fed lands determines the fate of the crop. The amount of precipitation in these regions not distributed according to one norm. In the steppe regions, as usual, from 100 to 200 millimeters of precipitation falls per year. In the foothills and foothills, the annual precipitation reaches 900 millimeters⁵. Drastic climate change has a negative impact on agriculture, especially on the cultivation of agricultural products on rain fed lands.

¹ <http://www.fao.org/3/i1688e/i1688e01.pdf>

² www.fao.org. People and demography.

³ https://en.wikipedia.org/wiki/Rain_fed_agriculture

⁴ Report on the Food and Agriculture Organization of the United Nations on the topic "Detailed analysis of the system of disaster risk reduction in the field of agriculture in Uzbekistan". 7-bet. 2021 y.

⁵ Dilshod Yangibaev. Important aspects of the effective use of irrigated land. Scientific and practical agro-economics journal "Agroeconomics" No. 1 for 2019 59-bet.

Table

Production and economic indicators of the cultivation of grape products on the basis of natural precipitation and drip irrigation to the land area of 1 ha non irrigated land of farms in Kitab District of Kashkadarya region (2021 year)

Resource name	Measurement units	Indicator results				The difference of drip irrigation in natural rain irrigation, +/-	
		For the sake of natural rain irrigation *		For the sake of drip irrigation **		per kg/ha	thousand sums
		the cost of resource	consumption in thousand sums	the cost of resource	consumption, in thousand sums		
Sapling	unit	833	2550	1330	4 000	+497	+1450
Water consumption	m ³	750	68,5	165	15	-585	-53,5
Fuel consumption	l/ha	160	1 088	216	1 469	+56	+381
Mineral fertilizer consumption	kg/ha	500	1 993,1	300	1 233	-200	-760,1
Fight against diseases and pests	Kg\ha	1,5	600	1,5	600	0	0
Salary	1000 sums		1 100		1100		0
Tax	1000 sums		264		264		0
Other costs	1000 sums		2500		2500		0
Total	1000 sums		10163,6		11181		+1017,4
Productive	c/ha	50		150			
Product sales price	1000 sums	2,5		2,5		0	
Income	1000 sums	12 500		37 500		25000	
Net profit	1000 sums	2336,4		26 319		23 982,6	
Profitable	in %	123		335,4		212,4	

Author studies based on the data of *Hakimov Kuvanchbek Kakhharovich and * Rustamova Zebo Abdimuminovna farmer farms in Kitab District of Kashkadarya region

Due to the introduction of drip irrigation technology in densely populated areas of rain fed lands of our country that are not provided with moisture, it is possible to effectively use rain fed lands (Table).

If we pay attention to the data in Table, we will see that the use of drip irrigation technology on rain fed lands is effective. In particular, if the total cost amounted to 10163.6 thousand sums per 1 hectare of rain fed land, 11181 thousand sums for growing products with the introduction of drip irrigation, and if 1017.4 thousand sums more were spent on drip irrigation, then lalmi's productivity created the opportunity to produce 150 quintals due to the introduction of drip irrigation. Also, the proceeds from the sale of the product allowed to receive additional profit in the amount of 12,500 sums, respectively, and 37,500 sums, due to the introduction of drip irrigation, which amounted to 25,000 sums. The amount of net profit shown by rain fed land amounted to 2336.4 thousand sums, while the level of profitability reached 123 percent. If the amount of net profit due to the introduction of drip irrigation system amounted to 26,319 thousand sums, then the rate of return was 335.4 percent. If we compare the amount of net profit with the evasion of natural rain and thanks to drip irrigation on rain fed lands, we can see that 23982.6 thousand sums received a large profit from the introduction of drip irrigation. Also, the level of profitability shows an increase of 212.4 percent.

Based on the above, the following suggestions can be given:

- introduction of drip irrigation technologies on rain fed land;
- modern support for the introduction of drip irrigation technologies on non-cultivated land;
- granting preferences to farms where non-cultivated land has achieved high productivity on the land and so on.

Thanks to the effective use of non-cultivated land, it is possible to increase agricultural production. As a result, it is possible to provide the population of the country with food based on medical standards. Also, as a result of improving the financial capabilities of subjects growing agricultural products, it is possible to be provided with modern techniques and technologies, it is estimated that the constant employment of the population living in the regions of non-cultivated lands leads to an improvement in their living conditions. In addition, the non-cultivated land has received an assessment of the degradation of the soil of the land, and a reduction in violations of the ecological balance has been achieved.

List of used literature

1. <http://www.fao.org/3/i1688e/i1688e01.pdf>
2. www.fao.org. People and demography.
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Rain_fed_agriculture
4. Report on the Food and Agriculture Organization of the United Nations on the topic "Detailed analysis of the system of disaster risk reduction in the field of agriculture in Uzbekistan". 7-bet. 2021 y.
5. Dilshod Yangibaev. Important aspects of the effective use of irrigated land. Scientific and practical agroeconomics journal "Agroeconomics" No. 1 for 2019 59-bet.

Qosimova Hilola Jamshedovna
BDU, Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi
Saidova Mahliyo Oqil qizi
BDU, talaba

XORIJIY MAMLAKATLARDA SANOAT KORXONALARINI IXTISOSLASHUV VA KOOPERATSION ALOQALARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBALARI

Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish kooperatsiyasi, xususan, yordamchi pudratchilik munosabatlari¹ shakllari sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil sifatida keng qo'llaniladi. Yordamchi pudratchilik munosabatlari dastlab Yaponiya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Turkiya kabi davlatlarning yuqori iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini ta'minlashda muhim bo'g'in sifatida xizmat qildi.

Zamonaviy kooperativ harakatlarning hozirgi shakl va turlari asosan Yevropada boshlangan. Bu bevosita yevropaliklarning birlashish qobiliyatiga moyilligi uchun emas, balki ularni sanoat inqilobini birinchi amalga oshirganliklari tufayli yuz berdi. XX asrdagi Yevropadagi iqtisodiy o'sish bilan va XXI asrdagi rivojlanayotgan davlatlar holati o'rtasida o'xshashlik bo'lsa ham, Yevropadagi kooperativchilik harakati rivojlanish tajribasi yevropa mamlakatlaridagi kooperativlarning rivojlanishidagi xatolar tahlilidan xulosa chiqarib, mumkin bo'lgan kamchiliklarni oldini olishga imkon beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 37-bob, 634-modda.

Buyuk Britaniyada XX asr 50-yillardagi iste'mol kooperatsiyasi dunyodagi eng qudratli kooperativ harakatlardan biri bo'lgan. Kooperativ tarmoq o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi 90 foiz do'konlarda va supermarketlarning 1/3 qismida mavjud edi. Ammo, har xil o'lchamdagi do'konlardan iborat 1000 dan ortiq kooperativlarni o'z ichiga oluvchi bu sektor tadbirkorlarning keskin o'sgan raqobati bilan to'qnash keldi va natijada savdo modeli o'zgarib 1964 yilda umumiy kooperativlar sonidagi ulushda 22 foizga tushib qoldi¹.

Bunga 4 ta asosiy sabab bo'lgan:

1. Aholining nisbatan xarid talabi past bo'lgan tarixan eski sanoat xududlarida 30000 dan ortiq kooperativ do'konlar joylashganligi.

2. Boshqaruv malakasining past darajasi. Kooperativlar rahbarlari ichida nafaqat oliy, balki o'rta maxsus ma'lumotli kishilar ham ko'pchilik bo'lishgan.

3. Alohida kooperativning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi kooperativlarning markaziy uyushmasi rolining pasayganligi. Kooperativchilik harakati boshqarilmaydigan bo'lib qoldi.

4. Raqobat tufayli mayda kooperativlar sinib, nisbatan yirik, hatto iqtisodiy zaif kooperativlarga qo'shila boshladi (90-yillarda tashkil etilganlar soni 1000 tadan 50 tagacha pasaydi).

Paychilar oldida majburiyatlarni bajara olmaslik, ularni kooperativlar faoliyatiga bo'lgan qiziqishini susayishiga, rahbariyatga nisbatan ishonch yo'qolishiga olib keldi.

90-yillar o'rtalarida jami chakana savdo aylanmasining atigi 4 foizigina kooperativ sektor ulushiga to'g'ri keldi.

Bugungi kunga kelib qayta rivojlanish belgilari namoyon bo'lmoqda va shu sababli Britaniyalik tadbirkorlar quyidagi tadbirlarni amalga oshirmoqdalar:

- tovar ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlarni sotib, kooperativlar uyushmalari yana chakana savdo birlashmalariga aylanmoqda;

- savdo yetishmovchiligi aniqlandi, ya'ni aholi uchun qulay bo'lgan do'konlarning o'rta va mayda hajmdagi turlari hamda supermarketlar tashkil etildi, savdo tarmog'i qayta tashkil etildi, tovar yetkazib beruvchilar bilan bevosita munosabat o'rnatildi;

- kooperatsiyaga asoslangan sug'urta jamiyatlari banklar faoliyatining eng kuchli qismiga aylandi;

- ma'naviy siyosat tiklandi, kooperativlar dastlabki qadriyatlar va faoliyat tamoyillariga qaytishdi. Paychilar tomonidan kooperativlarga bo'lgan ishonch ortib, ularning soni osha boshladi;

- boshqaruv xodimlarni kasbiy tayyorlashga talab yanada oshdi.

Germaniyada esa kooperativ iqtisodiy tizim tugagandan keyin iste'mol kooperatsiyasi tizimi to'la qayta qurildi. Bu esa 1953 yildayoq kooperativlar tovar aylanmasini 2 marta oshirishga va a'zolar sonini esa 2 mln. kishigacha yetkazishga imkon berdi. Nemis iste'mol kooperatsiyasining Buyuk Britaniya kooperatsiyasidan asosiy farqi shundaki, Germaniyada qonunchilik kooperatorlarga 3 foizgacha bonus to'lovlarni stavkasini pasaytirib, asosiy e'tiborni tadbirkorlarning chakana savdosiga qaratdilar. Shu sababli Germaniyada kooperativ savdoning asosi ulgurji savdo bo'ldi. Ammo, ushbu iste'molchilar kooperatsiyalarining rivojlanish natijalari o'xshash bo'lib, 1965 yilga kelib germaniyalik kooperatorlar 8,5 foiz mamlakat bozorini, 19,5 foiz do'konlarni va 31 foiz ulgurji do'konlarni nazorat qildilar.

Qudratli milliy kooperativ birlashmalar tashkil etishga urinishlar kooperativlar uyushmalarining zaif markaziy hokimiyati va muqobil kooperativlar rahbarlarining uquvsizligi tufayli cheklangan edi. 70-yillar o'rtalariga kelib kooperatsiyadagi ahvol birdaniga yomonlashdi. Nomigagina yagona kooperativ uyushma tashkil etildi, ammo u quyi kooperativ jamiyatlaridan yetarlicha rag'bat, qo'llab-quvvatlash olmadi va natijada milliy kooperativchilik harakati yaxshilanishiga ta'sir ko'rsata olmadi. Ular tomonidan tashkil etilgan mintaqaviy ulgurji do'konlar tizimi zarar ko'ra boshladi. Shu bilan birga, iste'molchilar jamiyatlarining boshqaruvchilari, ochiqlik, shaffoflik yo'qligidan foydalanib, shaxsan o'zi uchun o'z jamiyatlarining katta hajmdagi aksiyalarini olib ularni aksionerlik jamiyatlariga aylantira boshladilar. Buning asosiy sababi bo'lib, paychilar uchun axborotlarning ko'p yillar davomida yopiqligi edi.

Iste'molchilik kooperativlarining 90-yillarga kelib aksionerlik jamiyatlariga aylanishi munosabati bilan Germaniyada 650 ming kishini birlashtiruvchi 37 ta oddiy iste'molchilik jamiyatlari qoldi xolos. Eng qiziqarlisi, tadbirkorlar qo'lga o'tmay qolgan kooperatorlar kooperativ tamoyillariga sodiq qolgan bo'lib, masalan, Dortmund kooperativi bugungi kunda 480 ming a'zoga ega va o'z hududida 14 foiz savdo sohasini

¹ <http://www.dist-cons.ru>

nazorat qiladi (hududdagi har ikki oilaning biri).

Finlyandiyada 2 ta milliy kooperativlar birlashmasi mavjud: sotsial- demokratik (E-harakat) va neytral (SOK).

Har ikkita harakat ham o'z raqiblaridan oldin supermarketlar tarmog'ini rivojlantira boshlandi. SOK kengaydi va mehmonxona hamda universal do'konlarning eng yirik mulkdoriga aylandi. E-harakat esa eng yirik ulgurji savdogarga aylandi. Boshqa mamlakatlardagi kabi yagona milliy markaz tashkil etishga alohida kooperativlarning rahbarlarini e'tirozlari to'siq bo'ldi, ammo Finlyandiyada birlashmalardan birining siyosiylashuvi va shved hamda finn tilida so'zlashuvchi aholining bir-birlariga antagonistik kayfiyatlari ham ko'pincha to'siq bo'ldi. Shunday etnik va iqtisodiy sabablarga qaramasdan E-harakat va SOK birlashishi natijasida EKA deb ataluvchi Finlyandiyadagi eng yirik kooperativlar birlashmasi paydo bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, SOK guruhi biznesda o'z sohasi – qishloq joylaridagi kichik do'konlarni egallagan bo'lsa, uning raqobatchilari katta shaharlarda yirik supermarketlarni rivojlantirishdi. Natijada 1997-yilga kelib SOK ning umumiy kooperativ tovar aylanmasidagi ulushi 35 foizgacha oshdi. Fransiyada kooperativ harakat mintaqaviy xarakterga ega bo'lib, sanoati rivojlangan shimolda ushbu harakat janubiy hududga qaraganda yaxshi rivojlandi. Fransiyada kooperativ chakana savdo rivojlanishining 2 ta asosiy yo'nalishda, ya'ni paychilar, supermarketlar va barcha aholiga xizmat ko'rsatuvchi kichik do'konlar shaklida taraqqiy qildi¹.

Fransiya iste'molchilik kooperatsiyasining ham asosiy muammosi – zaif boshqaruv tizimi edi. Britaniyalik kooperatorlarga o'xshab, fransuzlar ham oliy ma'lumotli kishilarga kam ishonch bildirishar va kooperativlar rahbariyati savdoda yaxshi amaliy bilimlarga ega, ammo zamonaviy biznesda uncha bilimi yaxshi bo'lmagan quyi va o'rta sinf xizmatchilardan tanlanar edi. Bu esa boshqa savdo korxonalarini bilan istiqbolli yo'nalishlarda raqobatda yutqazishga olib keldi. Masalan, 60-yillarda kooperatorlarda atigi 23 ta va raqobatchilarda 1600 ta do'kon bo'lgan bo'lsa, kooperatorlarda – faqat bitta supermarket va raqobatchilarda esa – 76 ta supermarket bor edi.

Bundan tashqari, kooperativlar rahbariyati biznesni bilmaydigan, o'z strategiyasi istiqbollari va o'z paychilari fikrlari bilan hisoblashmaydigan “oliy toifa” ga aylanib qoldi. 1983 yilga kelib, kooperatorlar bozorning atigi 3 foizini egallagan va 40 ming xizmatchini birlashtirgan kichik bir harakat bo'lib qoldi. Rasmiy jihatdan 1,5 mln.oila kooperativlarga a'zo bo'lsada, ular “oliy toifa” ga ishonmas va amalda iqtisodiy jihatdan kooperativlar harakatini inkor qilardilar.

Shvesiyada esa kooperativchilik harakati kuchli markaziy organlarga ega va o'z tarkibiga kiruvchi kooperativlarning faoliyatini yaxshi muvofiqlashtirish bilan farqlanar edi. Bu harakatning paydo bo'lishi ICA savdo guruhi bilan raqobatchilik kurashda yuzaga keldi va yuqoridagi ICA guruhi bozorda eng yirik ulushga ega edi. Shu sababli shved kooperativ harakati g'arbiy yevropa kooperativ harakatlarining ichida eng tezkori hamda innovatsion yo'nalishdaligi bilan farqlanar edi. Shved kooperatorlari eng zamonaviy texnologiyalarni va biznes metodlarini, o'z-o'ziga xizmat qilish usullarini, supermarketlar tizimini joriy qildilar. Bundan tashqari, kuchli muzlatiluvchi mahsulotlar texnologiyalarini keng qo'llanilishi yetakchi eksport qiluvchi iste'mol birlashmasiga aylantirdi. Tarkibiy o'zgarishlar jarayonida shved kooperatorlari jamiyatlari sonini qariyb 3 martaga, do'konlar sonini esa 2,7 marta kamaytirgani hamda, a'zolari sonini 1,6 mln.kishigacha, o'z bozorlari ulushini esa qariyb 18 foizgacha oshirishga erishdilar. Boshqa yevropa kooperatsiyalaridagi kabi XX asr 80 – yillari o'rtalarida Shvesiyada ham iste'mol tovarlari va xizmatlari kooperatsiyasida pasayish bo'ldi, boshqaruv elitasi kooperativlardagi hokimiyatni egallab, paychilarning manfaatlarini hisobga olmasligi sababli, kooperativlarga qiziqish nisbatan pasayib ketdi.

Ushbu salbiy holatlarni oldini olish uchun boshqaruvni demokratlashtirish, iqtisodiy jihatdan zaif kooperativlarni subsidiyalash yo'li bilan paychilarning manfaatdorligi oshirish, yangi savdo guruhlarini tashkil etish evaziga chakana savdo sohasiga asosiy e'tibor qaratish, kooperativlarda bir ishchining boshqasi hisobiga boyib ketishiga yo'l qo'yilmasligiga e'tibor qaratish, kooperativ a'zolari o'rtasida nizomga ko'ra, jamg'armalarga majburiy ajratmalarda iqtisodiy jihatdan qatnashishiga ko'ra foydani proporsional taqsimlash, paylar asosida foyda taqsimlanganda pay kapitaliga qat'iy belgilangan foizda mablag'lar o'tkazish kabi

qator tashkiliy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy chora-tadbirlar qo'llanilib, mamlakatda kooperativchilik harakatini tubdan yaxshilandi. Natijada 90-yillar o'rtalarida kooperativlar a'zolari soni 2,2 mln. kishiga, 105 ta do'konlarni va 500 dan ortiq yoqilg'i quyish shahobchalarini o'ziga birlashtirgan jamoalar soni 102 taga ko'paydi. Bugungi kunda Shvesiyada iste'molchilik kooperatsiyasi eng nufuzli 10 savdo

¹ Ансофф И.Новая корпоративная стратегия. СПб: Питер, 1999, с.127

kompaniyalari qatoridan o‘rin olgan¹.

Norvegiya iste‘mol kooperatsiyasining rivojlanish strategiyasi avvalambor kooperativlarning tabiiy afzalliklaridan foydalanishga hamda kafolatlangan bonus to‘lovlarni berish orqali yangi a‘zolari jalb qilishga qaratilgan. 600 mingdan ortiq paychilar 400 ta iste‘molchilar jamiyatlariga birlashtirgan Norvegiya iste‘molchilar kooperatsiyasi markaziy kengashi o‘z tizimiga ko‘ra, aksionerlik jamiyatlari ittifoqiga o‘xshar edi. Ikkinchi jahon urushigacha Italiyada katoliklar va sotsialistlarning 2 ta, urushdan keyin esa kommunistlar va xristian-demokratlar kooperativlari paydo bo‘lishi bilan shakllangan. Kooperativ uyushmalarning gullab yashnashi Italiyada boshqa yevropa mamlakatlarida kooperatsiyalarning susayishi davriga, ya‘ni 80 yillar o‘rtalariga to‘g‘ri keldi. Natijada 80-yillar o‘rtalariga kelib Italiyada 1,8 mln.kishini birlashtirgan 500 iste‘mol kooperatsiyalari uyushmasi shakllandi. Hozirda Italiyada supermarketlarning aksariyati kooperatsiyalarga bo‘ysunadi.

Mamlakatda kooperativ harakat rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- kooperativlar va o‘zaro yordam kassalarining milliy ligasi – kommunistlar va sotsialistlar (qizillar) mavjudligi;
- italiya kooperativlari konfederatsiyasi – katoliklar (oqlar) mavjudligi;
- italiya kooperativlarining umumiy assotsiatsiyasi – respublikachilar va sotsial-demokratlar (yashil) kooperatsiyalari kabi turlari va shakllari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik rivojlanishi bilan iqtisodiy-ijtimoiy zaminning kengayishi sababli ular o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar va chegaralar yo‘qolib ketdi. Shuningdek, Italiyada kooperativlarning faoliyat tamoyillari yalpi pay miqdorining cheklanganligi (2 mln. lira), minimal nizom jamg‘armasining cheklanmaganligi (ochiq eshiklar tamoyili), 1 ta kishining pay miqdoridan qat‘iy nazar 1 ovozga ega bo‘lishi, tartibga solib turiluvchi ijtimoiy tartib bilan ham kafolatlangan².

Shveysariyada kooperativchilik harakati iste‘mol kooperatsiyasining “noklassik” rivojlanishiga misol bo‘ladi. Qonunchilik yangi filiallarni ochilishiga to‘sqinlik qiladi va kooperativ harakat faqat yangi do‘konlar, o‘z- o‘ziga xizmat ko‘rsatish tizimini kengaytirish hisobiga rivojlanadi. O‘tgan asrning 60-yillarida 486 ta asosiy jamiyat qayd qilingan bo‘lib, ularda 4 mln.kishi va 2 mingdan ortiq do‘konlar mavjud edi. O‘tgan asrning 70-yillarda Shveysariyalik kooperativlar dividend olishdan voz kechib, past baholar siyosatiga o‘tdilar. Iste‘mol jamiyatlari yiriklashtirilib, 1983 yilga kelib ularning soni 41 taga yetdi. Birlashishlar vertikal va gorizon-tal integratsiya yo‘nalishlarida bo‘lishi natijasida Shveysariya kooperativlarining tovar aylanmasi har bir do‘kon hisobiga 45 foizga oshdi. Shveysariya iste‘mol kooperatsiyasining asoschisi G.Damveyler ham o‘z faoliyatini ko‘chma do‘konlar tarmog‘ini rivojlantirishdan boshlagan. U o‘z savdo markasini ishlatgan holda katta chakana savdo tarmog‘ini tashkil etdi, hamda mevali ichimliklar, yogurtlar, keks va shunga o‘xshash oziq-ovqatlar sotishni rivojlantirib yubordi. G.Damveyler siyosiy faoliyatga o‘ta turib, “Migras” nomli kompaniyaning boshqaruvini o‘g‘liga topshirgan paytda kooperativning kapitali 13,5 mln.frankka yetdi va 70-yillarga kelib kooperativ o‘z bankiga, hamda 28 ming ishchi xodimlar ishlaydigan 20 ta zavodiga ega bo‘ldi.

O‘z navbatida ta‘kidlash joizki, Avstriya, Gollandiya yoki Belgiyada iste‘mol kooperatsiyalari tadbirkorlar bosimiga chiday ular tomonidan “yutib” yuborildi va bugungi kunda ular kooperativlar emas, balki aksionerlik jamiyatlari ko‘rinishida faoliyat yuritishmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish kooperatsiyasi, xususan, yordamchi pudratchilik munosabatlari sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning va iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlashning tabiiy vositasi hisoblanadi.

O‘tgan asrning 80-yillarida Yaponiyada yordamchi pudratchilik asosida ishlovchi kichik firmalar umumiy kooperatsiyada ishlovchi biznes sub‘ektlarining 65 foizini tashkil qildi va asosiy tarmoq bo‘lgan elektronika sanoatida esa bu ko‘rsatkich 86 foizgacha yetgan edi. Bugungi kunga kelib, Yel mamlakatlarida sanoat kooperatsiyasiga qariyb 400 mingga yaqin korxonalar jalb qilingan bo‘lib, ular 5 mln.dan ortiq kishilarni ish joylari bilan ta‘minlamoqda. Yel mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan YaIM ning qariyb 15 foizi kooperatsion munosabatlar asosida ishlayotgan korxonalar ulushiga to‘g‘ri keladi. Kichik biznes kooperatsion munosabatlari qurishda ilmiy adabiyotlarda 2 xil amerikacha va yaponcha model farqlanadi. Amerikacha model asosan juda ko‘p sondagi buyurtmachi va ijrochilar o‘zaro munosabatlari, ya‘ni rivojlangan yordamchi pudratchilik munosabatlari bozori bo‘lishini taqozo qiladi. Buyurtma ijrochilarini tanlashda asosiy mezon sifatida taklif etilayotgan baho asos qilib olinadi. Bunday tizim kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi, ijrochi firmalarining innovatsion faolligi, kooperatsiyaga

¹ Ансофф И.Новая корпоративная стратегия. СПб: Питер, 1999, с.127

² Ансофф И.Новая корпоративная стратегия. СПб: Питер, 1999, с.127

kirishayotgan firmalar uchun lizing munosabatlarining oson hamda qulayligi bilan chambarchas bog'liq. Buyurtmachi va ijrochi o'rtasidagi munosabatlar muayyan bir buyurtma doirasida bo'ladi va uzoq muddatli istiqbolni ko'zda tutmaydi. Ijrochilar tomonidan keng miqyosdagi taklifning mavjudligi, buyurtmachi tomonga o'z buyurtmasini bajartirish uchun eng qulay variantni tanlashga imkon beradi.

Odatda, yirik avtomobilsozlik korxonasi 2-2,5 ming yordamchi pudratchilik chilarga ega bo'ladi. Amerika avtomobilsozligining Kraysler, Ford, Jeneral Motors kabi yirik gigantlari odatda, o'z korxonalarida butlovchi qismlarni mustaqil ravishda atigi 37-40 foizinigina tayyorlashadi. Qolgan butlovchi qismlar pudrat shartnomalari asosida yetkazib beriladi.

Kooperatsion aloqalarni rivojlantirishning yaponcha modeli korxonalarining quvvatlari va texnologiyasi darajasiga qarab aralash holda ishlashni nazarda tutadi. Yaponiyada ko'p bosqichli yordamchi pudratchilik munosabatlari rivojlangan bo'lib, unda buyurtmachi buyurtmani bir nechta ijrochilarga beradi va ular ham o'z navbatida pastki bo'g'inlardagi mayda ijrochilar bilan hamkorlik qilishadi. Yirik yapon avtomobilsozlik korxonasi o'rta 300-400 yordamchi pudratchilarga ega. Birinchi bosqichdagi ijrochilar bilan uzoq muddatli bevosita hamkorlik aloqalari o'rnatiladi. Nissan va Toyota kabi avtomobilsozlik gigantlari atigi 2 foiz butlovchi qismlarigina o'zlari ishlab chiqarishadi va qolgan butlovchi qismlarni tayyorlashga buyurtmalar berishadi. Ijrochilarni tanlashda asosiy mezon baho emas, balki birinchi navbatda sifat, detallarning texnik muvofiqligi va sheriklar ishonchliligi hisoblanadi. Dunyo ekspertlari yuqorida tilga olingan sanoat kooperatsiyasining ikkita modelini tahlil qilgan holda, Yaponiya avtomobilsozligi AQSh avtomobil sanoatiga qaraganda har bir ishlab chiqarilgan avtomobildan 300-600 AQSh dollari miqdorida ko'proq yutuqqa ega bo'ladi degan xulosaga kelishdi va bu raqamlar chet ellardagi yapon kompaniyalari uchun ham hos bo'lib, ular faoliyati bilan ham tasdiqlangan.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda KBKAni rivojlantirishning amerikacha va yaponcha modellarining milliy iqtisodiyotimizga xos bo'lgan jihatlarni olib, uyg'unlashgan holda joriy qilish lozim. Biroq, bunda korxonalarining quvvatlari va texnologiyasi darajasiga qarab aralash holda ishlashni, yirik ishlab chiqaruvchi buyurtmachilar va mayda ijrochilarning mustahkam ishlab chiqarish-texnik integratsiyasini ifodalovchi, buyurtmachi ijrochi bilan doimiy aloqada bo'lib, texnik, texnologik, moliyaviy yordam ko'rsatgani holda butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirishda, sifat nazoratini amalga oshirishda bevosita ishtirokini nazarda tutuvchi yapon modeliga ustuvorlik berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uz.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi-28-12-2018>
2. Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. <https://daryo.uz/k/2019/09/06/shavkat-mirziyoyev-qishloq-xo'jaligini-tartiblantirish-ustuvor-yo'nalishlariga-bag'ishlangan-yig'ilish-otkazdi/>
3. Jamshedovna K. H. The Role of Corporate Governance in Bank Management //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – T. 2. – №. 11. – С. 32-36.
4. Данилина Я.В., Клейнер Г.Б. Управление малыми многопрофильными корпорациями. Сб. Микроэкономические предпосылки экономического роста. М., ЦЭМИ РАН, 1999
5. Abdulloyev A. Қишлоқ хўжалигида кластер механизмидан фойдаланишни такомиллаштириш масалалари //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.

Sultanova Nigina Utkurovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
tayanch doktoranti
sultanova-nigina@list.ru

CHAKANA SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Bugungi kunda chakana savdo korxonalari oldida turgan eng muhim muammolardan biri - bu turli xil iste'molchilar segmentlarini maksimal darajada qamrab olish, bir nechta savdo kanallarini parallel ravishda rivojlantirish hisoblanadi. Shu bilan birga, bozorning to'yinganligi sharoitida asosiy xarakterli xususiyatga ega bo'lgan sifatli tovarlarni sotib olish istagidagi zamonaviy xaridor shakllanayotganini

e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Zero, yuqori narx darajalariga qaramay, iste'molchilarning brend tovarlarga bo'lgan qiziqishi kundan-kunga ortib bormoqda.

Ko'pgina chakana savdo korxonalari yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda doimiy ravishda samarali raqobat strategiyalarini izlaydilar, bu chakana sotuvchilar orasida innovatsion strategik rivojlanish g'oyalarini amalga oshirish bo'yicha ko'plab loyihalar bilan tasdiqlanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz davomida olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, chakana savdo korxonasi uchun raqobat strategiyalarini shakllantirish korxonaning korporativ strategiyasi qoidalari va iqtisodiy faoliyat xususiyatlariga asoslanadi. Savdo hajmi va xarajatlar tarkibini joriy tahlil qilish hamda rejalashtirish savdo korxonasining strategik raqobatbardoshligini ta'minlashda raqobatbardosh modelni yaratish uchun yetarli emas, bu o'z navbatida korxonalarining bozordagi raqobatbardosh mavqeini mustahkamlash va strategik maqsadlarga erishish imkonini beradi. Chakana savdo korxonasining strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning kontseptual modeli korxonaning strategik maqsadlari va strategik yo'nalishini tahlil qilish hamda taqqoslash orqali quyidagi mezonlar bo'yicha taqsimlash asosida shakllantiriladi: "Hududiy miqyos", "Savdo shakllari", "Savdo kanallari", "Narx segmenti".

Chakana savdo korxonalarining strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning kontseptual modelini yaratish shunchaki strategik vazifani hal qilish emas, balki u har bir ob'yekt guruhiga qo'llanilishi va yagona kontseptual model doirasida birlashtirilishi mumkin bo'lgan strategiyalarni umumlashtirish natijasida shakllanishi mumkin. Chakana savdoning hududiy miqyosi, shakllari va kanallarini hisobga olgan holda, ushbu yondashuv chakana sotuvchilarning kompleks strategiyalari va bozorning hozirgi rivojlanish tendentsiyalarining murakkabligini asoslaydi.

Raqobat strategiyalarini shakllantirishda chakana sotuvchilarning strategik raqobatbardoshligini ta'minlash uchun oqilona ishlab chiqilgan kontseptual modelning bir qismi sifatida korxonalar guruhlarini aniqlashning asosiy mezonlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval - Chakana savdo korxonalari guruhlarini tanlash mezonlari (muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Korxonasi turi	Mezonlar
Tarmoqli chakana savdo (bir kanalli, bir formatli, keng assortimentli)	Hududiy masshtab, formatlar, narx segmenti
Tarmoqli chakana savdo (ikki kanalli, bir formatli, keng assortimentli)	Hududiy miqyos, Savdo kanallari, Narx segmenti
Tarmoqli chakana savdo (ikki kanalli, ko'p formatli, keng assortimentli)	Hududiy miqyos, Formatlar, Savdo kanallari, Narxlar segmenti
Tor assortimentli matritsaga ega an'anaviy (zanjirsiz) chakana savdo	Narx segmenti

1-jadvalda ko'rsatilganidek, barcha chakana savdo korxonalari sotish tushunchasi va texnologiyasiga (zanjirli chakana savdo, an'anaviy zanjirsiz chakana savdo), taqdim etilgan assortiment matritsasiga (keng assortiment, tor) qarab oltita guruhga bo'lingan. Har bir guruh uchun o'xshash sotuvchilarni birlashtiruvchi asosiy mezonlar aniqlanadi.

Shunday qilib, keng assortimentga ega, ammo bitta savdo kanalini va bitta formatni (masalan, barcha savdo nuqtalari uchun xizmat ko'rsatish darajasi, assortimenti va narxlari uchun yagona talablarni nazarda tutuvchi diskonter) ifodalovchi zanjirli chakana savdo korxonalari uchun asosiy mezonlar chakana savdo korxonasining strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning kontseptual modellarini ishlab chiqish "Faoliyatning hududiy ko'lami" va "Narx segmenti"ga aylanadi.

Bitta savdo kanalini va bir nechta formatlarni (masalan, xizmat ko'rsatish, assortiment uchun turli xil talablarni talab qiladigan diskont va supermarket) ifodalovchi mahsulotlarning keng assortimentiga ega bo'lgan tarmoq chakana savdo korxonasining strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning kontseptual modelini ishlab chiqishning asosiy mezonlariga "Savdo formati" ham qo'shilgan.

Agar keng assortimentga ega bo'lgan chakana savdo tarmog'i korxonasi ikkita savdo kanalini (masalan, statsionar va elektron tijorat yoki statsionar va katalog) va bitta formatni ifodalasa, u holda "Faoliyatning hududiy ko'lami", "Savdo kanallari" hamda "Narx segmenti" mezonlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkita savdo kanali va bir nechta formatlarni ifodalovchi, xizmat ko'rsatish hamda assortimentga bo'lgan turli talablarni nazarda tutuvchi mahsulotlarning keng assortimentiga ega tarmoq chakana savdo korxonalari uchun chakana savdo korxonasining strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning kontseptual modelini ishlab chiqishning asosiy mezonlari "Faoliyatning hududiy ko'lami", "Savdo formatlari", "Savdo kanallari", "Narx segmenti" ni o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- ekspert baholariga ko'ra, konsolidatsiyaning past darajasi, uy xo'jaliklari daromadlarining o'sishi va iste'mol madaniyatining o'zgarishi tufayli o'rtacha narx segmenti eng istiqbolli hisoblanadi;
- chakana savdo korxonasi strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning kontseptual modelini yaratish korporativ rivojlanish strategiyasini chuqur tahlil qilish va uni "Hududiy miqyos", "Savdo formatlari", "Savdo kanallari", "Narx segmenti" mezonlari asosida kichik guruhlar ajratishga asoslangan. (1-jadval).

Demak, chakana savdo korxonasi strategik raqobatbardoshligini ta'minlashning kontseptual modelining eng muhim jihatlaridan biri bu o'rganilayotgan savdo kompaniyalarining xo'jalik faoliyatini miqdor va sifat jihatidan baholashning uslubiy vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirishdir, chunki bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish va istiqbolda strategik rivojlanish vektorini aniqlash uchun axborot manbai hisoblanadi.

Shunday qilib, alohida do'konlar tomonidan taqdim etilgan tor assortimentli matritsaga ega an'anaviy (zanjirsiz) chakana savdo korxonalari, birinchi navbatda, narx segmentiga e'tibor qaratishlari va potentsial mijozlarning ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlariga diqqatni jalb etishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Минцберг Г., Куинн Дж. Б., Гошал С. Стратегический процесс. Концепции, проблемы, решения [Текст] / Г.Минцберг, Дж. Б. Куинн, С. Гошал. — СПб.: Изд-во «Питер», 2001. — 688 с.
2. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов [Текст] / М. Портер. — пер. с англ. И. Минервина. - М.: Альпина Паблишер, 2011. - 454с.
3. Рубин Ю. Б. Тактика конкурентных действий участников рынка [Текст]/ Ю.Б. Рубин // Современная конкуренция. - 2015. - Т. 9. № 2 (50). - С. 111 - 142.
4. Трофимова Г.К. Конкурентная стратегия фирм и банков [Текст] / Г.К. Трофимова, И.В.Сапрыкин. - М.: 2001 - 214 с.

Н. Саидахмедов

**Андижон машинасозлик институти
"Иқтисодиёт" кафедраси ассистенти
Saidahmedovn2691@gmail.com**

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИСЛОХАТЛАР

Мамлакатимизда хусусий мулкка эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш ҳуқуқини бевосита ёки билвосита чеклашни назарда тутувчи, мулккий муносабатларда бозор иқтисодиёти тамойилларини тўлиқ жорий этишга тўсқинлик қилувчи тартиблар, талаблар ва чекловларни олиб ташлаш, ҳамда соғлом тадбиркорлик муҳитини яратиш борасида бир қатор ислохотлар олиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 22 август куни ўтказилган тадбиркорлар билан очик мулоқоти доирасида белгиланган мулккий ҳуқуқларнинг ишончли ҳимоясини яратиш, ушбу ҳуқуқларни чеклаётган омилларни бартараф этиш бўйича вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясига мувофиқ 2002 йил 29 августда қабул қилинган "Мулк ҳуқуқининг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш, мулккий муносабатларга асоссиз аралашувга йўл қўймастик, хусусий мулкнинг капиталлашув даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги" ПФ-198-сонли Фармони мулккий ҳимоя қилишни янада кучайтиришда муҳим аҳамиятга эга бўлди. Фармонда хусусий мулкка эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш ҳуқуқини бевосита ёки билвосита чеклашни назарда тутувчи, мулккий муносабатларда бозор иқтисодиёти тамойилларини тўлиқ жорий этишга тўсқинлик қилувчи тартиблар, талаблар ва чекловлар 2022 йил 1 сентябрдан бошлаб бекор қилиниши ер участкаларига бўлган ҳуқуқни сўзсиз таъминлайди¹. Хусусан, ер участкаларига бўлган ҳуқуқнинг вужудга келиши учун асос бўлган ҳужжатларни, шу жумладан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ҳужжатларини уларнинг ўзи ёки юқори турувчи орган ва мансабдор шахслар томонидан, хусусан прокурор протести асосида бекор

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Мулк ҳуқуқининг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш, мулккий муносабатларга асоссиз аралашувга йўл қўймастик, хусусий мулкнинг капиталлашув даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги" ПФ-198-сонли Фармони

қилиш йўли билан ер участкасига бўлган ҳуқуқни тугатиш асосларининг бекор қилиниши, давлат идорасининг расмий ҳужжатига ишониб мол-мулк орттирган ёки сотиб олган шахснинг мулкга бўлган ҳуқуқини ҳимоя қилинишини аниқ меъзонларини тартибга солади.

Хусусий тадбиркорликни истикболли ривожланиши албатта бу мамлакатдаги солиқ сиёсати билан чамбарчас боғлиқдир. Бу борада илмий тадқиқотларда ўрганилмоқда. Муаллиф Н.Эрназаров “иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар жараёни, фискал сиёсат ва солиқ тўловчилар солиқ салоҳиятини ошириш муаммоларининг жадаллашуви, солиқ тизимини оптималлаштиришнинг самарали дастакларини давлат томонидан қўллаш кўп жиҳатдан солиқлар билан боғлиқдир” деб таъкидлаган¹.

Ўзбекистонда ҳам кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятини қўллаб қувватлаш, барқарор ривожланишини таъминлаш, унинг ялпи ички маҳсулот (ЯИМ)даги, ишлаб чиқариш ва аҳоли бандлигини таъминлашдаги улушини оширишга эътиборни кучайтириш зарурлигини 1-жадвал жадвал маълумотларини тахлили орқали кўришимиз мумкин

1-жадвал

Кичик бизнес ва тадбиркорликнинг иқтисодиёт тармоқларидаги улуши (фоизда)²

Т.р	Кўрсаткичлар	Йиллар					
		2017	2018	2019	2020	2021	2022
1	ЯИМ	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	51,8
2	Саноат	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	25,9
3	Қурилиш	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	71,6
4	Бандлик	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	74,6
5	Экспорт	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	29,5
6	Импорт	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	49,4

Жаҳон тажрибаси кўрсатишича, мамлакат иқтисодиётининг барқарор ривожланишида, аҳоли бандлиги ва даромадини оширишда энг асосийси тадбиркорликни ривожлантириш орқали мамлакатда камбағалликни қисқартиришда тадбиркорлик соҳалари, жумладан, оилавий бизнес соҳаси фаолияти муҳим аҳамият касб этиб, иқтисодий ҳамда ижтимоий муаммоларни ҳал этишда етакчи ўринни эгаллайди. Жаҳон иқтисодиётида оилавий бизнес ва тадбиркорлик соҳасини самарадорлигини ошириш, қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш, уларнинг ташқи иқтисодий фаолиятидаги иштирокини кучайтириш, аҳолини иш билан таъминлаш ва даромадларини ошириш борасидаги имкониятларидан тўлақонли фойдаланиш бўйича илмий тадқиқотлар амалга ошириб келинмоқда.

Ҳозирги вақтда дунё мамлакатларида кичик бизнеснинг аксарият қисми оилавий корхона шаклида иш юритмоқда. Ривожланган давлатлар тажрибасидан ва авлодларимиз анъаналаридан келиб чиққан ҳолда мамлакатимизда ҳам ушбу соҳага эътибор йилдан-йилга ортиб бормоқда. Мустақиллик йилларида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ҳамда қўллаб-қувватлаш, қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш, тадбиркорликка кенг эркинлик бериш, улар фаолиятига асосиз аралашувларга барҳам бериш борасида амалга оширилган изчил ислоҳотлар натижасида, мамлакатимизда кичик бизнеснинг ялпи маҳсулот ишлаб чиқаришдаги улуши йилдан йилга ошиб бормоқда.

Хусусан, тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш ва ҳуқуқий ҳимоясини таъминлаш мақсадида қўллаб қонунлар ва қонун ости ҳужжатлари қабул қилиниши орқали мустаҳкам норматив-ҳуқуқий база шакллантирилди.

Тадбиркорлик субъектларига мамлакатимизда қулай ишбилармонлик муҳити ва инвестицион шароит яратиш, тадбиркорлик субъектларига янада эркинлик бериш борасида амалга оширилаётган кенг қўламли ислоҳотларни янги босқичга олиб чиқиши шубҳасиз.

Сўнгги йилларда юртимизда ишбилармонлик ва инвестиция муҳитини тубдан яхшилаш, жаҳон амалиётида умум қабул қилинган бизнесни юритиш шароитларини баҳолаш мезонлари

¹ Эрназаров Н. АКЦИЗОСТИ ТОВАРЛАРНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШ АМАЛИЁТИНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШДА КРЕАТИВ ЁНДАШУВЛАР: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a26 //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 3. – С. 167-171.

² <https://stat.uz> –сайт маълумотлари асосида тузилди.

тизимини жорий этиш ва шу асосда мамлакатимизнинг халқаро рейтингини янада оширишни таъминлаш бўйича кенг чора-тадбирлар комплекси амалга оширилиб келинмоқда.

Республика иқтисодиётида хусусий мулкнинг ўрни ва ролини тубдан ошириш, хусусий мулк ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш йўлидаги тўсиқ ва чекловларни бартараф этиш, иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш, ялпи ички маҳсулотда хусусий мулк, жумладан, чет эл капитали иштирокидаги улушини изчил оширишнинг ҳуқуқий асослари изчил такомиллаштирилмоқда. Мамлакатимизда хусусий мулкни ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асоси Конституциямизнинг 53-моддасида белгиланган. Унга кўра, хусусий мулк бошқа мулк шакллари каби дахлсиз ва давлат ҳимоясидадир. Мулкдор фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибдагина мулкдан маҳрум этилиши мумкин. Мулк ҳуқуқи — шахснинг ўзига қарашли мол-мулкка ўз хоҳиши билан ва ўз манфаатларини кўзлаб эғалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш, шунингдек, ўзининг мулк ҳуқуқини, ким томонидан бўлмасин, ҳар қандай бузишни бартараф этишни талаб қилиш ҳуқуқидан иборат. Мулк ҳуқуқи муддатсиз.

Айтиш керакки, хусусий мулкнинг давлат томонидан қонунлар билан кафолатланган ҳуқуқий ҳимоясини таъминламасдан туриб, кичик бизнес ва оилавий тадбиркорликни ривожлантириш, иқтисодиётни либераллаштириш қийин кечиши жаҳон амалиётидан яхши маълум.

Ҳалол меҳнат билан эришилган мулк эгаси ўз мулкнинг ҳақиқий соҳиби бўлиши, яъни хусусий мулк дахлсиз бўлиши керак. Бу инсон ҳуқуқ ва манфаатлари ҳимоясининг узвий бир қисмидир.

Қонуний йўл, ҳалол меҳнат билан топилган хусусий мулк дахлсизлиги ва унинг кафолатли ҳимояси жамиятимиздаги ҳар бир фуқаро, ҳар бир оила манфаати учун хизмат қилиши шубҳасиз. Қолаверса, бундай дахлсизлик ва кафолатли ҳимоя жамият фаровонлиги ҳамда давлат иқтисодиёти реал сектори барқарорлашувини таъминлашда ҳам муҳим ўрин тутаяди.

Бу борада Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг ташаббуси билан сўнгги йилларда тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлаш, хусусий мулкни ҳар томонлама муҳофаза қилиш ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга қаратилган муҳим ислохотлар амалга оширилаётганини таъкидлаш лозим.

Жумладан, Мухтарам Президентимизнинг 2016 йил 5 октябрда қабул қилинган «Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлашга, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя қилишга ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони хусусий мулкни ҳуқуқий ҳимоя қилишни янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик учун қулай шарт-шароитлар яратиш ва ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, мамлакатимизнинг инвестициявий жозибадорлигини оширишга йўналтирилган.

Хусусан, Фармонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликка кенг эркинлик бериш, уларнинг фаолиятига аралашувни тубдан қисқартиш энг муҳим устувор йўналиш ва давлат органларининг биринчи даражали вазифаси сифатида белгиланди.

Шу билан бирга кейинги йилларда мамлакатимизда фуқаролар ва тадбиркорлик субъектларига тегишли бўлган бино ва иншоотлар жойлашган ер участкалари олиб қўйилиши муносабати билан мулкдорларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатлари кафолатларини янада мустаҳкамлашни таъминлаш ҳамда етказилган зарарларни қоплашда йўл қўйилаётган камчиликларни бартараф қилиш, хусусий мулкнинг дахлсизлигини таъминлашга қаратилган муҳим чора-тадбирлар амалга оширилди.

Давлатимиз раҳбарининг 2019 йил 13 августдаги «Хусусий мулкни ҳимоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатларини кучайтириш, тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш борасидаги ишларни ташкил қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар, шунингдек, тадбиркорлик субъектларининг молиявий ресурслар ва ишлаб чиқариш инфратузилмасидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш тўғрисида»ги Фармонига кўра, 2020 йил 1 январдан бошлаб жисмоний ва юридик шахслар эғалигида бўлган, улар фойдаланадиган ва мулки бўлган ер участкаларини жамоат ва давлат эҳтиёжлари учун олиб қўйиш бўйича ваколатлар тегишли халқ депутатлари Кенгашларига берилди.

Яна бир муҳим янгиланиш 2020 йил 23 декабрда қабул қилинган «Мулкдорлар ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларининг кафолатлари янада кучайтирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонунда хусусий мулк дахлсизлигини таъминлашга оид нормалар ўз аксини топди.

Бинобарин, мустақиллик шарофати билан эришилган хусусий мулк ҳуқуқи дахлсизлигини таъминлаш, хусусий мулкдорлар ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишнинг конституциявий кафолатларини кучайтириш, мамлакатимизда қулай ишбилармонлик ва

инвестициявий муҳитни шакллантириш чораларини изчил давом эттириш бугунги шиддатли ислохотлар даврида муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 декабрдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 13 августдаги «Хусусий мулкни ҳимоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатларини кучайтириш, тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш борасидаги ишларни ташкил қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар, шунингдек, тадбиркорлик субъектларининг молиявий ресурслар ва ишлаб чиқариш инфратузилмасидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш тўғрисида»ги ПФ-5780-сонли Фармони
3. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 декабрда қабул қилинган «Мулкдорлар ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларининг кафолатлари янада кучайтирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонуни
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 5 октябрда қабул қилинган «Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлашга, хусусий мулкни ҳар томонлама ҳимоя қилишга ва ишбилармонлик муҳитини сифат жиҳатидан яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-4848-сон Фармони
5. Bakhodir Abdullaev, Ziyoydin Israilov, Alisher Sotvoldiev, Muhiddin Hojiboev, & Mukhamadieva Makhliyokhon. (2023). Leading research trends on innovation funding: a bibliometric analysis approach. <https://doi.org/10.5281/ZENODO.7656995>

Феруза Азизтеева Алпомишевна
Старший преподаватель,
Джизакского политехнического института
e-mail: feruza@mail.ru

РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ

По данным Всемирного Совета по туризму и туризму, в этом секторе создано более 292 миллионов рабочих мест, что принесло в мировую экономику 7,6 триллиона долларов, а его доля в ВВП составляет 10,2 % [4,7].

Диверсификация туристических услуг и создание новых туристических маршрутов, в том числе: изучение туристического потенциала всей страны и формирование туристических продуктов, маршрутов, реализация комплекса мероприятий по организации туров и экскурсий для населения, открытие новых внутренних рейсов, создание новых туристических маршрутов для региональных и международных маршрутов на основе маркетинговых исследований, меры по дальнейшему совершенствованию современного туризма и реформированию его привлекательности включение Стратегии действий Республики Узбекистан в развитие Республики Узбекистан на 2017-2020 годы еще больше расширяет возможности поставщиков туристических услуг.

В то же время мы сосредоточились на изучении региональных аспектов экономики туризма. Джизакская область характеризуется высокими производственными мощностями и благоприятными природно-экономическими условиями.

Джизакская область была образована 28 декабря 1973 года. Граничит с Республикой Казахстан на северо-востоке и в Сырдарьинской области, на юго-западе с Самаркандской, Навоийской областями и на юго-востоке с Республикой Таджикистан. Площадь 21,1 тыс. кв. км. Регион состоит из 12 районов, включая Арнасай, Бахмал, Дусллик, Галляарал, Джизак, Зарбдор, Зафарабод, Зомин, Мирзачул, Пахтакор, Фориш и Янгиабод, 1 региональный город и 7 подчиненных городов (Джизак, Гагарин, Дусллик, Марджонбулак, существуют 8 городов (Бустон, Зарбдор, Зафарабод, Заамин, Усмат, Уччулох, Янгикишлох и Койтош).

В Джизакской области 372 объекта культурного наследия, в том числе 42 исторических памятника и святыни, 267 археологических памятников, 63 монументальных памятника (статуи, бюсты, мемориалы) включены в состав списка государственной охраны.

Объем средств, предусмотренных планом мероприятий по развитию туризма в Джизакской области на 2016-2017 годы, составляет 10493,1 млн. долларов США. Средства инициаторов и ответственных исполнителей 5731,0 млн. сумов, кредиты коммерческих банков 4270,0 млн. сумов, бюджетные средства 492,1 млн. сумов.

В результате этих мероприятий в 2018 году побывало 5190 иностранных туристов (таблица 1). Учитывая, что большинство из них из стран СНГ, 3060 (72,0 %), дальнейшие планы и правительственные программы должны быть широко доступны в Европе, Америке и Юго-Восточной Азии. Достопримечательности в разных регионах Джизакской области посетили 5190 туристов разных государств по всем видам туризма. **Таблица-1**

Изменение показателей туристического потенциала Джизакской области¹

Годы	Иностранные туристы, в том числе	Из Европейских государств	Восточные и Юго-восточные страны Азии	Страны СНГ	Северная и Южная Америка	Местные туристы кроме населения Джизакской области
2015	3815	124	759	1832	23	12.350
2016	4199	207	908	3060	42	20.012
2017	4867	256	1037	3755	59	29.568
2018	5190	374	1556	4131	74	32.294

Участие местных туристов в туризме, помимо местного населения и населения региона, повышает уровень защиты окружающей среды, культуры, сохранение многолетних традиций, более глубокое знание его истории, национально-культурного самосознания. Это представляет собой комплекс мер, которые повышают уважение туристов и местного населения к традициям, обычаям, культуре и социальным традициям местного населения (см. Рис. 1).

Развитие свободных туристических зон	Развитие внутреннего туризма	Развитие современной туристической инфраструктуры
Создание новых туристических зон	Улучшение туристических услуг	Развитие объектов обслуживания
Целевое направление инвестиций	Формирование уважения к традициям, обычаям, культуре	Информационные центры, увеличение интернет-портала
Внедрение инноваций по туризму	Сохранение природных ресурсов	Пропаганда здорового образа жизни
Организация туристических кластеров	Введение административных мер по обеспечению безопасности туризма	Установка дорожных знаков, карт, туристической информации

Таблица-2. Комплексные меры воздействующие на развитие туристических услуг

Список использованной литературы:

1. Данные Главного управления экономики и комплексного развития Джизакской области.
2. Азизтоева Ф. А., Абдуллаев А. А. Перспективы развития туристических услуг в регионах //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 734-740.
3. Приложение 1 к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП 4947 Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы. <http://strategy.gov.uz>. -7 с.
4. Пардаев М.К. и другие Развитие услуг, услуг и туризма: проблемы и решения. Ташкент, IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 20-23 с.

¹Составлено по данным Главного Управления экономики и комплексного развития Джизакской области.

РЕФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Реформирование системы образования является главным приоритетным направлением при переходе на цифровую экономику.

В Узбекистане 2020 год был назван Годом развития науки, просвещения и цифровой экономики. Начиная с этого года увеличилось число государственных грантов и вдвое увеличилось число поступающих в вузы. Вузам поэтапно была предоставлена академическая и финансовая самостоятельность. Во многих вузах проведена трансформация совместно с зарубежными вузами. При этом львиную долю финансирования государство взяло на себя. «Инновационное развитие нужно нам как воздух, — заявил президент. — Мы поставили цель войти в ряд развитых государств, и сможем войти в этот список только за счет ускоренных реформ, развития науки. Для этого нам нужны кадры новой формации. Поэтому мы начали реформирование всех звеньев образования», — отметил он. Подход к развитию образования можно увидеть и в обращении Президента республики Узбекистан Шавкат Мирзиёева к Олий Мажлису назвал 2023 год, Годом заботы о человеке и качественного образования.

Страны с развитой экономикой связывают свою конкурентоспособность с развитием цифровой экономики, в условиях которой информация стала важнейшим ресурсом наравне с природным, трудовыми и финансовыми ресурсами. Современная виртуальная среда является не только носителем большого объема информации, но и обладает специфическими инструментальными возможностями. В ней моделируются или воспроизводятся все ранее освоенные человечеством формы и способы потребления и обработки информации, а также появляются новые. Это стало возможным благодаря уникальному потенциалу цифровых технологий, масштабное и стремительное развитие и внедрение которых оказывает серьезное влияние на устоявшиеся бизнес-модели, а также вызывает изменения в экономике и общественной жизни.

Интеллектуальный капитал является важнейшим ресурсом цифровой экономики, система образования напрямую участвует в формировании этого важного ресурса.

Основной подход к современному образованию можно определить так: высокопрофессиональная подготовка с овладением цифровыми технологиями будущей профессии, языковая подготовка по профессиональной лексике, непрерывность образования. Цифровые технологии и образование прекрасно сочетаются друг с другом, предоставляя новые интересные возможности для обучения и преподавания. Цифровые технологии трансформируют образовательный сектор по двум направлениям:

- 1) цифровые компетенции по будущей профессии;
- 2) цифровые технологии в преподавании всех предметов.

Основной подход к современному образованию можно определить так: высокопрофессиональная подготовка, владение современными цифровыми технологиями, языковая подготовка, непрерывность образования.

1. Адаптация системы образования к изменениям на рынке труда под влиянием цифровизации.

2. Переобучение абсолютно всех преподавателей и учителей с целью освоения цифровых образовательных технологий. *Должны быть предприняты решительные меры для профессионального развития преподавателей в области цифровой трансформации.*

3. Смешанное обучение. *Необходимо сократить число аудиторных лекций и их продолжительность минимум вдвое, сведя их к дискуссиям, обсуждению домашних заданий, выполненных в форме презентаций, и ответов на вопросы по теме. Обучение следует адаптировать также к такой реалии, как работа без отрыва от учебы. Неизбежны индивидуализация и автономность обучения.*

4. Интеграция корпоративного и университетского образования. *Корпоративные университеты дают сверхсовременное, но недостаточно системное и фундаментальное образование, классические университеты далеки от современного образования и новых технологий*

преподавания.

5. Повышение уровня цифровой и предпринимательской грамотности абсолютно всех школьников и студентов. *За время обучения все школьники и студенты должны подготовиться к работе в условиях цифровой трансформации общества и рыночной экономики, т. е. должны научиться вести цифровое предпринимательство в своей сфере.*

6. Всеобщая информатизация образования. ИТ-образование должно быть буквально в каждом предмете – сегодня нет науки, не использующей информационные технологии. На первых курсах всех специальностей должен изучаться современный курс «Информационные технологии», включающий в

себя интернет вещей, облачные вычисления, большие данные, блокчейн и т. п.

7. Внедрение в вузах систем разноскоростного обучения. Сегодня при значительной доле платных и иностранных студентов скорость обучения не может быть одинаковой, поэтому необходимо упразднить переводы с курса на курс и разрешить обучаться вместо четырех лет столько, сколько потребуется.

Аргументом в пользу такого типа обучения также является новая система адаптивного образования, которая позволяет менять сложность и содержание курсов в зависимости от интеллектуального уровня студента.

8. Трансформация вузов в цифровые университеты. Сами вузы и их структура управления должны подвергнуться цифровой трансформации.

9. Преподаватели и руководство вузов должны общаться в социальных сетях. Вся воспитательная и идеологическая работа со студентами должна быть перенесена в социальные сети, которые помогают мгновенно распространять информацию о событиях, происходящих в коллективе, лучших публикациях, грантах, поездках за рубеж, мировых профессиональных достижениях; это средство объединения студентов и выпускников, содействующих получению первого рабочего места.

10. Университеты должны стать драйверами цифровой трансформации экономики и общества. Важно, чтобы структура университетов, их технопарки и бизнес-инкубаторы совместно с преподавателями способствовали зарождению и становлению университетских молодежных стартапов.

Цифровые технологии и образование прекрасно сочетаются друг с другом, предоставляя новые интересные возможности для обучения и преподавания. Цифровые технологии трансформируют образовательный сектор по двум направлениям: 1) цифровые компетенции по будущей профессии; 2) цифровые технологии в преподавании всех предметов. Цифровые технологии постепенно изменяют сегодняшние школьные классы и студенческие аудитории. Учащиеся начальных школ используют планшеты для выполнения классных и домашних заданий, а учителя всё чаще применяют электронные панели для пояснения и иллюстрирования содержания своих уроков. Позитивная роль цифровых технологий в образовании огромна. Исследования, которые когда-то проводились исключительно в библиотеках, в поисках нужных книг и журналов, теперь проводятся онлайн. PDF-журналы и электронные книги загружаются на ноутбуки, планшеты, электронные книги и смартфоны. Появление благодаря интернету массовых открытых сетевых платформ обучения, таких как Coursera, Khan Academy, Udemy, edX, FutureLearn, многие из которых являются онлайн-версиями популярных университетских курсов, означает, что каждый может сам изучать практически всё. В настоящее время существует гораздо меньше ограничений на непрерывное образование, чем когда-либо в истории человечества. Единственное препятствие – отсутствие привычки постоянно учиться. Люди могут изучать всё, что хотят, либо бесплатно, либо за сравнительно небольшое вознаграждение, по сравнению со стоимостью традиционного образования. Существуют десятки приложений и платформ, которые обучают новым навыкам – от кодирования и компьютерной инженерии до дизайна, электронного маркетинга и иностранных языков, соединяя творческими цифровыми способами обучающихся с преподавателями, либо с онлайн-ресурсами, либо с их комбинацией.

Заключение. С систематическим и целенаправленным внедрением цифровых технологий в процесс обучения связаны надежды педагогического и научного сообщества ускорить овладение новыми знаниями, сделать образование более эффективным и связанным с практикой. Вошедший в школы и университеты EdTech стал источником новых резервов самостоятельного обучения и уже доказал свою незаменимость, а работа с цифровыми технологиями позволила приобретать новые, практически значимые знания и навыки, совершенствовать учебный процесс. Компьютерные игры, используемые в обучении, развивают абстрактное логическое мышление, улучшают память и

внимание. Игровая мотивация переходит в учебную. В руках педагога-инноватора применение EdTech в образовательном процессе поможет устранить проблемы неуспеваемости, будет способствовать налаживанию сотрудничества между преподавателями и учащимися, окажет содействие дифференциации и персонализации обучения, скорректирует урочно-лекционную систему, оптимизирует расходы на образование. Организация цифрового кластера из университетов, НИИ в цифровой среде и почти 900 фирм ПВТ с более чем 60 тыс. профессионалов преобразовала бы наше государство в IT-страну – одного из мировых лидеров в цифровой экономике. Для этого необходимо заинтересовать компании ПВТ во внедрении своих инновационных продуктов не только за рубежом, но и дома.

Для того чтобы адаптация рынка труда к революционным изменениям прошла успешно, важно, чтобы Узбекистан заблаговременно выработала действенные ответы на вызовы цифровой эпохи. Достигнутых успехов пока недостаточно, чтобы говорить о готовности *узбекской* системы образования к решению необходимых задач в условиях цифровизации. Одним из первых шагов государства по адаптации системы образования к потребностям цифровой экономики может стать обновление устаревших программ профессионального образования и повышения квалификации для ликвидации пробелов в цифровых навыках, необходимых в современной экономике.

Список литературы.

1. Головенчик, Г. Г. Современные тенденции цифрового реформирования образования / Г. Г. Головенчик // Цифровая трансформация. – 2020. – № 4 (13). – С. 5–20.
2. Позов А.А. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ РЕФОРМЫ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ // Интернаука: электрон. научн. журн. 2021. № 16(192).

Davronov Istamxo'ja Olimovich
tayanch doktorant

Buxoro davlat universiteti

E-mail: i.o.davronov@buxdu.uz

Jo'rayev Abror Turopovich

i.f.n., dotsent,

xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor

Buxoro davlat universiteti

E-mail: a.t.juraev@buxdu.uz


BUXORO VILOYATIDA MEHMONXONA XO'JALIKLARI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI

Mehmonxona xo'jaligi iqtisodiyot tarmog'ining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, uning ta'siri yuqori baholanib kelmoqda. Chunki ko'pgina turizm rivojlangan va endi rivojlanayotgan regionlar uchun bu soha juda muhim daromad keltiruvchi manba sifatida qarash mumkin. Chunki tashrif buyuradigan har qanday chet ellik sayyoh kamida bir kecha qolib, mehmonxona xizmatlaridan foydalanadi va o'z-o'zidan o'sha regionda mablag' sarf qilib, iqtisodiy naf keltiradi. Shuning uchun ko'pgina mintaqalar bor resurslardan maksimum foydalangan holda turistik potensialni rivojlantrishga harakat qilishadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-noyabrdagi 954-sonli qarorida O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar berilgan. Unda asosan Respublika hududlarining turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, hududlarda zamonaviy turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta'minlash, mehmonxona xizmatlarini kengaytirish va sifatini yaxshilash, mehmonxona sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish, shuningdek, joylashtirish obyektlarining mavjud kamchiliklarini bartaraf etish masalalari qo'yilgan¹.

Hozirgi kunda mehmonxona rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muammolarni quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, 24.11.2018 yildagi 954-son



Pandemiya keyin ko'pgina mehmonlar asosan sayohat davomida xavfsiz turizm xizmatlarini kutishdi. Bu xizmatlarni ko'rsatishda ko'pgina Buxoro viloyatida joylashgan mehmonxonalar qiyinchilikka uchradi. Asosiy sabablardan biri ko'pgina mehmonxonalar zamonaviy texnologiyalardan orqada qolgan hisoblanadi. Chunki ko'pgina mehmonxona biznesi rivojlangan mintaqalarda yangi texnologiyalarni rivojlantirishi orqali qayta mehmonlarning doimiy kelishini ta'minlandi. Misol qilib quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin: kontaktsiz xizmat ko'rsatish va asosan qat'iy sanitariya qoidalariga rioya etish.

2-chizma



Shuningdek, viloyatimizda iqtisodiyotning muhim drayveri bo'lmish mehmonxona biznesida, asosiy muammolardan biri bo'lib kelayotgan, mehmonlar kutadigan xizmatni ko'rsata olmaslik hisoblanadi. Chunki bu muammo raqobatbardosh turizm bozorida asosiy rol o'ynaydi. Asosiy muammolarning vujudga kelishida asosiy sabab, mehmonxonalar o'z xizmatlari haqida noto'g'ri ma'lumotlarni kiritilishida bo'lgan. Tadqiqot davrida olib borilgan izlanishlar natijasida shunga amin bo'ldikki, Buxoro viloyatidagi bronlash tizimlarida (booking.com, ostrovok.ru, expedia.com) 45%i mehmonxonalar bu platformalarda o'zlari ko'rsatadigan xizmatlar haqida ma'lumotlarni xato kiritganlar. Platformalarda mehmonxonalarda mavjud bo'lmagan xizmatlar bor deb ko'rsatilib, mehmon kelgandan keyin bu xizmatlarni ko'rsata olmaslik muammolariga olib kelgan. Albatta, bundan mehmonlar ishonchini oqlamaslik, ya'ni kutilayotgan natijaning ko'rsata olmaslik holatlari bo'lgan.

Keyingi mehmonxona xo'jaligi rivojlanishi uchun to'siq bo'layotgan muammolardan biri bu marketing tadqiqotlaridan to'g'ri yo'lda foydalana olmaslik sanaladi. Buxoro viloyatida qariyb 40%

mehmonxonalar marketing tadqiqotlaridan foydalangan holda, o'z bizneslarini yurgaza olyapti xolos. Qolgan mehmonxonalar asosan eski tizim ya'ni faqatgina turfirmalar bilan shartnoma qilgan holda, ko'pgina vaqtlarini mehmonlarni kutish bilan o'tkazishyapti. Chunki bu yo'nalish yangi mehmonxonalar uchun aniq bir natija berish juda qiyin hisoblanadi, negaki turfirmalar asosan o'zlarining doimiy hamkor mehmonxonalar bilan ishlashga harakat qilishadi. Shu sababli faqatgina tur firmalar bilan emas, balki har xil marketing tadqiqotlaridan foydalangan holda boshqa usullar bilan mehmonxonalar xonalarini sotishni rag'batlantirish kerak bo'ladi.

Navbatdagi muammolardan biri bo'lib butun dunyo bo'ylab pandemiyaning yoyilib ketishi ham sabab bo'ldi. Pandemiya sabab ko'pgina davlatlarda turistik oqim keskin tushib, mehmonxonalar ham birin ketin yopilib, ba'zilar esa vaqtincha ish faoliyatini to'xtatib qo'ydi. Ko'pgina tadbirkorlar asosan bizning viloyatimizda 2019- yilgi turistik oqimning yuqoriligini inobatga olgan holda mehmonxona biznesini rivojlantirish orqali iqtisodiy naf keltirish maqsadida juda ko'plab joylashtirish vositalarini qurishni boshlashdi. Ammo pandemiya ko'pgina tadbirkorlar uchun juda katta muammolar keltirdi. Va hozirgi qadar ba'zi mehmonxonalar ta'sir etib kelmoqda. Ammo davlatimiz tomonidan pandemiyadan keyin ko'plab mehmonxonalar uchun ko'pgina yegilliklar berildi ya'ni yangi mehmonxonalar uchun subsidiyalar berish, soliq tizimini yengillashtirish orqali tadbirkorlar uchun o'zlarining bizneslarini qayta tiklash uchun imkoniyatlar yaratildi.

Xulosa o'rniida shuni ta'kidlash kerakki, mehmonxona xo'jaligini rivojlantirish va raqobatbardosh bozorda o'z o'rnini saqlash uchun mehmonxona avvalo ko'rsatiladigan xizmatlar sifati, xodimlarning malakasi, narx siyosati va marketing tadqiqotlariga katta e'tibor berishi lozim. Chunki yuqorida to'xtab o'tilgan muammolarning ketma-ketligi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularga yechim topgan taqdirda, mehmonlar oqimining oshishini ta'minlash mumkin. Hozirgi paytda turizm bozorida mehmonxonalar o'z o'rnini toppish uchun texnologiyadan foydalangan holda xizmatlar sifatini oshirib kelmoqda, shu orqali ular raqobatbardoshlikni ham saqlashga muvaffaq bo'lishmoqda. Mehmonxona menejrlari marketing tadqiqotlaridan aniq maqsadda foydalanganligi bois, viloyatimizdagi ko'pgina joylashtirish vositalari o'zlari xoxlagan natijaga erishishmoqda desak xato bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Iroda N. Mehmonxona xo'jaligini rivojlantirish usullari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 250-253.
2. Nigina R. Mehmonxona korxonalarida sifatlil xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qilish //Tafakkur manzili. – 2023. – T. 1. – C. 104-108.
3. Davronov I. O. Opportunities to improve service quality in the hotel industry //Современная наука и образование: актуальные вопросы теории и практики. – 2023. – С. 62-65.

Mohinur Kurbanova

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: mohinur.kurbanova@mail.ru

ZIYORATGOH - MA'NAVIY VA IQTISODIY TARAQQIYOT YODGORLIGI

Bugungi kunda O'zbekistonda jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, o'zbek xalqi farovonligini yuksaltirishdir. O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti va yuksalishida turizm muhim ahamiyatga ega bo'lib, keyingi yillarda mamlakatimizda turizmning boshqa sohalari qatori ziyorat turizmini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Ayni paytda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri - bu turizmdir.¹ Mamlakatimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning aksariyati YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan. O'zbekistonda 784 ta islom ziyoratgohi, 19 ta xristian ziyoratgohi va 8 ta buddizm madaniy merosi obyekti mavjud.²

XX asr boshlarida Buxoro hududida 232 ta masjid va xonaqoh mavjud edi. Bugungi kunda Buxoroda masjid va xonaqohlar - 65 ta (namozgox, jome' masjidi - 5 ta, xonaqoh - 20 ta, bozordagi masjidlar - 7 ta, mahalla masjidlari - 34 ta). Bundan tashqari, 29 ta madrasa binosida ham masjidlar mavjud. Madrasalar binosi 34 ta, shulardan ikkitasi XV asrda, beshtasi XVI asrda, XVII asrda, oltitasi

¹ <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-o-22-12-2017>

² <https://uzbektourism.uz/news/view?id=2177>

XVIII asrda, 11 tasi XIX asrda, 7 tasi XX asr boshlarida barpo etilgan. Me'moriy obidalar xronologik ko'lamida IX-X asrlar hamda XX asr boshlarini qamraydi.

Umuman olganda, Buxoro viloyatida 997 ta me'moriy va arxeologik yodgorlik mavjud bo'lib, ularning 660 tasi madaniy meros obyekti sanaladi. Shunday bo'lsada, tabarruk qadamjolar to'g'risidagi ma'lumot xalq orasida keng tarqalmagan.

O'zbekiston Jahon musulmon sayohatlari indeksi (Global Muslim Travel Index) ro'yxatida yil sayin ko'tarilib, 2021-yilda 16-o'rinni,¹ 2022-yilda 9-o'rinni² egalladi. 2018-2019-yillarda vizasiz rejim joriy etilishi bilan Indoneziyadan sayyohlar o'qimi 170 foizga, Malayziyadan 158 foizga, Turkiyadan 154 foizga, BAAdan musulmon turistlar o'qimi 153 foizga oshdi. Shu bilan birga, mamlakatimiz "Halal Travel Frontier 2020" hisobotida musulmon turizm bozorida islom merosini tiklash bo'yicha yangi tendensiyani boshlagan davlat sifatida e'tirof etildi.

O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi, Xalqaro islom akademiyasi, Mir Arab oliy maktabi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari O'zbekistonning boy ilmiy-tarixiy merosini o'rganish va targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

Iqtisod fanlari doktori, professor Baxtiyor Navro'z-zodaning ilmiy izlanishlarida O'zbekistonda diniy turizmning rivojlanishi chuqur o'rganildi. Jumladan, olim O'zbekistondagi ziyoratning asosiy maqsadlari, ziyorat turizmi,³ jumladan, marketing usullari, geografiyasi, ziyoratchilarning demografik, xulq-atvori, psixologik xususiyatlari, ziyoratchilar guruhi ehtiyojlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordi.⁴ Shuningdek, u ziyoratchilarning sayohatlari davomida mehmonxona, restoran, transport va gid xizmatlaridan foydalanish bo'yicha ilmiy ishlanmalar qilgan. Olim mamlakatimizda ziyoratchilar uchun infratuzilma qanchalik qulay bo'lsa, sayyohlar shunchalik ko'p tashrif buyurishini ta'kidladi. Xususan, uning fikricha, mamlakatimizdagi mehmonxonalarining aksariyati Yevropa uslubida qurilgan va ular ziyoratchilar uchun ixtisoslashtirilmagan. Mamlakatimizda mehmonxonalar ikki qismdan iborat bo'lishi kerak: tashqi hovli (erkaklar uchun) va ichki hovli (ayollar uchun).⁵ Bundan tashqari, mamlakatda juda ko'p restoran va kafelar mavjud, ammo mehmonlar halol ovqatlanishlari uchun juda kam restoranlar mavjud.

Olim O'zbekistonda ziyoratgohlar katalogini yaratish maqsadga muvofiqligini ham ta'kidladi.⁶ Ushbu katalogga muqaddas joylarning rang-barang fotosuratlarini kiritish, ular haqida aniq tushuntirishlar berish kerak. Kelayotgan ziyoratchilarga bunday kataloglarning taqdim etilishi ziyoratgohlarni xorijiy mamlakatlarda targ'ib qilish, turizmni rivojlantirishga ishonch hosil qiladi. Shu bilan birga, diniy turizmga ixtisoslashgan sayyohlik agentliklarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lishi ta'kidlangan. Mamlakatimizdagi turistik firmalar asosan madaniy va shahar turizmiga ixtisoslashgan. Ular diniy ziyoratning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaydilar. Mamlakatimizda turizmga yo'naltirilgan marketing xizmatlarini yo'lga qo'ysak, tashrif buyuruvchilar soni sezilarli darajada oshadi, degan g'oyani ilgari surdi.

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish, uning jozibadorligini oshirish uchun O'zbekistondagi muqaddas qadamjolarining turistik xaritasini ishlab chiqish, ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, targ'ibot-tashviqot ishlarini yaxshi olib borish, transport xizmatini yaxshilash, gid-tarjimonlar tayyorlash masalasiga e'tibor qaratish zarur.

Ziyoratgohlarga borish va ziyorat qilish uchun xalqaro andozadagi shart-sharoitlarni yaratish; oliy ta'lim dargohlari huzurida O'zbekiston hududida yashab ijod qilgan avliyo, alloma, olim va shayxlar hayotini o'rganishga yo'naltirilgan Ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil qilish; Buxoro viloyatida Ziyorat turizmni boshqarish tashkiloti (Pilgrimage tourism management organization) ga asos solish; Buxoro viloyatidagi ziyoratgohlarda jahon hamjamiyati olimlari ishtirokida o'tkaziladigan xalqaro darajadagi forum va konferensiyalarni uyushtirish; O'zbekiston Respublikasi hududidagi ziyoratgohlar bo'ylab ma'lum bir yo'nalishga ixtisoslashtirilgan maxsus turlarni yo'lga qo'yish, masalan, tibbiy ziyorat turizmi; Ziyoratchilarning shaxsiy yoki ijaraga olingan transport vositalarida sayohat qilishini inobatga olib,

¹ <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2021.html>

² <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2022.html>

³ Navruz-Zoda, B., & Navruz-Zoda, Z. (2016). The destination marketing development of religious tourism in Uzbekistan. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, 4(7), 3.

⁴ Navruz-Zoda, B., & Ibragimov, N. (2015). Ways of Applying Destination Management Concepts to the Development of Internal Tourism in Uzbekistan. In *International Tourism and Hospitality in the Digital Age* (pp. 172-190). IGI Global.

⁵ Navruz-Zoda, B. N., Ibragimov, N., & Rakhmanov, A. (2019). Perspectives on the improvement of Uzbekistan as a destination for multi-confessional self-organised pilgrims. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, 7(4), 11.

⁶ Navruz-Zoda, B. N., Ibragimov, N., & Rakhmanov, A. (2019). Perspectives on the improvement of Uzbekistan as a destination for multi-confessional self-organised pilgrims. *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*, 7(4), 11.

to'xtash joylarini boshqarish rejalarini amalga oshirish, shuningdek, ziyoratgohlar yaqinida oromgohlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mustaqil tashrif buyuruvchilar uchun mamlakatimizning jozibadorligini ta'minlaydi va shu orqali O'zbekistonda turizm va sayohatning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Xalliyeva Nargiza Rozikovna
BuxMTI, "Menejment" kafedrası assistenti, PHD


BUXORO VILOYATIDA TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING VA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Turizm – bu turist tashrif buyurgan davlat uchun ham, turistlarning kelib chiqqan davlati holati uchun ham mehnat bozoriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan sohadir. Turizm sohasida ish bilan ta'minlashga qaratilayotgan e'tibor, turizm sohasi global va milliy raqobatning kuchayishi, bozor tebranishi va iste'molchilar talabining o'zgarishi hisobiga iste'mol bozoriga aylanganligini anglatadi. Bu nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatiga, balki turizm sohasining asosiy boylıklaridan biri bo'lgan kadrlar sifatiga ham katta e'tibor berishni talab qiladi. Biroq, turizmning ish joylarini yaratish salohiyati uzoq vaqtdan beri tan olinganiga qaramay, turizm sohasida bandlik hozirgi kunga qadar turizmning eng kam o'rganilgan jihatlaridan biri bo'lib kelgan. Faqatgina bir nechta davlatlar turizm sohasida mehnat bozorining samarali siyosati va harakatlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilish uchun juda zarur bo'lgan turistik sohalarda bandlikning ko'plab jihatlarini o'lchash va tahlil qilish uchun rivojlangan statistik modellar va dasturlarini to'liq ishlab chiqdilar. Biroq, turizmning mehnat bozoriga ta'sirini aniqlash uchun biz turizmni rivojlanishini belgilaydigan omillarni hisobga olishimiz kerak. Turizm orqali davlat yangi ish o'rinlarini yaratishi, shu bilan boshqa tarmoqlardan ortiqcha ishchi kuchini jalb qilishga yordam berishi va ishsizlikni kamaytirishga yordam berishi mumkin.

Bugungi kunda biror-bir sohasining rivojlanish tendensiyasini inobatga olgan holda kelajakdagi rivojlanishi uchun choralarni ishlab chiqish maqsadida bir qator tahlillarni amalga oshirish mumkin. Ushbu tahlillardan eng samaralilari SWOT hamda PEST tahlillari hisoblanadi. Ushbu tahlil uslublaridan foydalangan holda Buxoro viloyatining turizm salohiyatini hamda ushbu sohadagi bandlikni ta'minlash bo'yicha SWOT hamda PEST tahlillari amalga oshirildi(1- rasm).

O'zbekistonda keyingi yillarda turizm industriasini rivojlantirish, shu jumladan, imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy turistik mahsulotni faol tanitib borish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish belgilangan.

Buxoro viloyatida turizm sanoatini rivojlantirish hamda u orqali aholi bandligini oshirish bo'yicha olib borilgan SWOT tahlili orqali shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Buxoro viloyati o'zining bor imkoniyatlaridan foydalana olmaydi, agarda biz bu omillarni ikki guruhga bo'ladigan bo'lsak, ya'ni tashqi va ichki omillar sifatida, kuchli tomonlar hamda imkoniyatlar ichki omillar hamda zaif tomonlar va xavflar esa tashqi omillar sifatida ham o'rganilishi mumkin. Zaif tomonlarni o'rganish orqali ularni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Zaif tomonlar sifatida keltirilgan ziyoratgohlar oldida mehmonxonalar yoki zamonaviy ovqatlanish maskanlarining mavjud emasligi muammosi ziyorat turizmiga bo'lgan talab oshib borayotgan vaziyatda zudlik bilan hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa hisoblanadi. Bundan tashqari turistlarning e'tiborini jalb qiladigan manzillarni hamda ma'lumotlarini o'z ichiga olgan mobil ilova yoki platformani ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari bir qarashda imkoniyatdek tuyuladigan ammo bir vaqtning o'zida xavf ham bo'lgan Xiva shahrida turizm infratuzilmasining rivojlanganligini ham inobatga olish lozim. Yana bir jihat hozirda hunarmandchilikni brend darajasiga olib imkoniyati mavjud bo'lgan sharoitda bundan unumli foydalanaish zarur. Ijtimoiy tarmoqlardan, har xil festivallarni, musobaqalarni o'tkazish orqali boshqa viloyatlar va davlatlarga bu haqidagi ma'lumotlarni yetkazish lozim.



1-rasm. Buxoro viloyatida turizm sanoatini rivojlantirishning va aholi bandligini oshirishning SWOT tahlili¹

Ikkinchi tahlil sifatida biz PEST usulidan foydalanishimiz lozim. Bunda to'rtta element ya'ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda texnologik elementlarga mos keluvchi omillarning ta'sirini o'rganamiz. O'rganishimiz natijasida quyidagilarni shakllantirdik (1-jadval):

1-jadval

Buxoro viloyatining turizm salohiyati bo'yicha PEST tahlili

Element	Omillar
Political - siyosiy	- Qo'shni davlatlardagi holatlarning O'zbekistonga ta'sir qilishi; - Pandemiyaning uzaytirilishi;
Economic - iqtisodiy	- Buxoro aholisining daromadlarini pandemiya sababli kamayishi; - Xorijiy valyuta kursining oshishi;
Sociological - ijtimoiy	- Aholining yoki xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchilarning xorijiy tillarni o'zlashtirganlarining ulushini kamligi; - Belgilangan marshrut orqali yuradigan davlat avtotransportlarining mavjudligi;

¹ Muallif tomonidan tahlil qilindi.

Technological - texnologik

- Jamoat joylarida Wi-Fi ning yo'qligi;
- Turizm hududlarini ko'rsatuvchi mobil ilova yoki platformaning mavjud emasligi

PEST usuli orqali tahlil natijalarini o'rganadigan bo'lsak, hozirgi vaqtda butun dunyo yoki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ta'sir qilayotgan omil Qozog'istondagi notinchlik hamda koronavirus pandemiyasining cho'zilganligi hisoblanadi. Pandemiya natijasida aholi daromadlarining ham kamayishi bunga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda tezkor sur'atlar orqali oshib borayotgan valyuta kursi ham ijobiy ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa ularning qancha muddat O'zbekistonda turishlariga bog'liq hisoblanadi. Ijtimoiy omillar sifatida esa aholining yoki xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlarning xorijiy tillarni mukammal bilmasligini ta'sir sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Ergasheva Aziza Farmonovna
BuxDU tayanch doktoranti

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasini o'qituvchisi
azizaergasheva1986@gmail.com

HUNARMANDCHILIK SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Hunarmandchilik nafaqat davlatning qadriyat va an'analarni saqlash shartlaridan biri, balki hududni rivojlantirishning strategik resurslaridan biri bo'lib ham xizmat qiladi. Hunarmandchilik tashkilotlari sanoatning turli tarmoqlarida ish o'rinlari yaratib, hududiy yalpi mahsulotni takror ishlab chiqarishda ishtirok etishi bilan hudud iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Hunarmandchilik mahsulotlari an'anaviy san'at namunalari tashqi bozorlarda namoyish etish orqali hudud qiyofasini shakllantirishda ishtirok etadi. Bundan tashqari, hududning yuksak badiiy qiymati va badiiy hunarmandchilik va hunarmandchilikning mahalliy lazzatining mavjudligi turistik bozorning o'sish omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Chunki bunday imkoniyat mintaqaviy madaniyat xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi. Hunarmandchilik mahsulotlari xalq san'atining ajralmas qismi bo'lgan xalq amaliy san'atini ko'paytirishni qo'llab-quvvatlash har qanday mintaqaning iqtisodiy va madaniy siyosatida muhim yo'nalish hisoblanadi. Biroq, badiiy hunarmandchilik sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash muammosining yuqori ahamiyati va dolzarbligiga qaramay, bugungi kunda to'liqligicha rivojlantirilmagan.

Keling hunarmandchilik sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini birma-bir ko'rib chiqaylik:

- sotish bozorlarini kengaytirish zarur. Deyarli barcha hunarmandlar badiiy hunarmandchilik sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining asosiy muammosi sifatida savdoni ta'kidlaydilar. Hunarmandchilik mahsulotlarining asosiy xaridorlari shahar tuzilmalari vakillari, tadbirkorlar, mamlakat mehmonlari va mahsulotlarni esdalik yoki sovg'a sifatida sotib oluvchi sayyohlar, ijodiy jamoalar va san'atkorlar hisoblanadi. Ammo bu talab juda cheklangan. Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati yo'nalishidagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tahlil etilganda marketingni boshqarishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani aniqlandi.

Birinchidan, hunarmandchilik mahsulotlari ko'pincha asosan suvenir sifatida qabul qilinadi va bu savdo bozorini cheklaydi. Shuning uchun badiiy hunarmandchilik mahsulotlarini nafaqat xalq amaliy san'atining noyob asarlari, balki utilitar funktsiyani bajaradigan mahsulotlar sifatida ham joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, yoshlar an'anaviy texnologiyalardan foydalangan holda tayyorlangan original, ammo zamonaviy dizayndagi mahsulotlarga qiziqishi mumkin bo'lgan xalq amaliy san'ati ishlab chiqaruvchilari e'tiboridan chetda qolmoqda.

Etnografik turizmni rivojlantirish zarur, chunki har qanday sayyoh ma'lum bir xalqning atrof-muhitiga o'ziga xos mahalliy milliy urf-odatlarini, madaniyati, turmush tarzi bilan qiziqadi. Turistik etnografik dasturlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi mumkin: mahalliy an'analar, marosimlar, urf-odatlar, turmush tarzi, turmush tarzi, milliy taomlarni ochib berish; milliy musiqa, ashula va raqs madaniyati bilan tanishtirish; turistlarga milliy bayramlar, tantanalar, yarmarkalarda qatnashish imkoniyatini berish; interfaol ustaxonalarga tashrif buyurgan holda mahalliy xalq amaliy san'ati va hunarmandchilikni namoyish etish, xalq amaliy san'ati va amaliy san'ati mahsulotlarini yaratish jarayonida ishtirok etish kabi tadbirlarni amalga oshirish mumkin;

- badiiy xalq hunarmandchiligi markazini tashkil etish. Hududda hunarmandlar, havaskor va professional rassomlarni aniqlashga ko'maklashish, an'anaviy xalq hunarmandchiligini tiklash va

rivojlantirish bo'yicha ekspeditsiya, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishdan iborat bo'lgan Badiiy xalq hunarmandchiligi markazini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Markaz negizida ustaxonalar, milliy liboslar tikish ustaxonasi, dizayn ustaxonasi, xalqning amaliy san'ati va hunarmandchiligiga oid ma'lumotlar banki va fotofondga ega uslubiy kabinet, ko'rgazma zali, ko'rgazmalar tashkil etish mumkin.

Xulosa va takliflar:

O'zbekistonda hunarmandchilik sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning ikkita asosiy muammosi borligi ma'lum bo'ldi: mahsulotlarni bozorga chiqarishning qiyinligi hamda hududiy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmayotganligi. Aniqlangan muammolarni badiiy hunarmandchilik sohasida institutsional muhitni shakllantirish orqali hal qilish mumkin, jumladan:

- 1) Yoshlarning maqsadli auditoriyasini jalb qilish orqali savdo bozorlarini kengaytirish;
- 2) Etnografik turizmni xalq amaliy san'ati sohasi infratuzilmasiga kiritish;
- 3) Hunarmandchilik markazini tashkil etish;
- 4) hunarmandchilik va hunarmandchilik sohasini huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish;
- 5) Axborot-maslahat markazi orqali bayram, tadbir va vakillik xarakteridagi tadbirlarni o'tkazish

uchun esdalik sovg'alari va badiiy mahsulotlarga viloyat hokimliklaridan buyurtmalar tizimini shakllantirish;

6) hunarmandchilik korxonalarini va tadbirkorlari uchun quyidagi shartlarda kredit liniyalarini tashkil etish: mikrokredit, pasaytirilgan kredit stavkasi; nafaqat sohadagi korxonalar va tadbirkorlarni, balki ularning hamkorlarini ham jalb etgan holda kredit kooperativlari tizimini yaratish.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlar korxonalar va tadbirkorlarning nafaqat tashqi, balki ichki muammolarini ham hal etish imkonini beradi, chunki O'zbekistonda hunarmandchilik tashkilotlarining bozor iqtisodiyotiga kirishi va tadbirkorlik faoliyati natijalarini yaxshilash imkonini beruvchi sharoitlar yaratiladi.

Nargiza Baxriddinovna Talapova

talapovanargiza@mail.ru

Namangan davlat universiteti doktoranti

IJTIMOIIY SOHALARNI MOLIIYAVIIY TA'MINLASH TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ma'lumki, aksariyat mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish, mavjud ijtimoiy infratuzilmani yanada yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish kabi muammolar asosan byudjet mablag'lari orqali ta'minlanmoqda. Xalqaro tajribalarga asosan shuni aytish mumkinki, ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minoti tizimini takomillashtirish davlat hokimiyati zimmasidagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni samarali ijrosining ta'minlanishiga imkon beradi.

Mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasida bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2030 yilga kelib 50 foizga yetkazish belgilandi¹.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramay, oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishga oid quyidagi bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, jumladan:

oliy o'quv yurtlari bilan kadrlar buyurtmachilari o'rtasida o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali tashkil etilmagan. Buning natijasida nafaqat nazariya va amaliyot bog'lanmagan, balki ish beruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga investitsiyalar kiritishi, homiylik yordamlarini ko'rsatishi, amaliyot jarayonida mavjud muammolarni olimlar bilan hamkorlikda bartaraf etishda muammolarga olib kelmoqda;

oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga iqtidorli yosh olimlar va talabalarni jalb etish natijadorligi yetarli darajada tashkil etilmagan, shuningdek oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi ta'minlanmagan;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni.

oliy o'quv yurtlari mablag'larining asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o'quv va ilmiy laboratoriyalarni modernizatsiyalashga, bino va inshootlarni kapital va joriy ta'mirlashga yetarlicha mablag' yo'naltirilmagan;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiya qilinmaganligi, uning asosiy manbasini to'lov-kontrakt summalari tashkil etishi;


oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda hududiy omillarni hisobga olmaslik va mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanmaslik;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda ishchi-xodimlarining ish haqi va unga ustamalar hisoblashning samarali mexanizmi ishlab chiqilmaganligi;

xorijiy fuqarolarning respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishga keng jalb qilish borasidagi targ'ibot ishlari, jumladan PR-loyihalar, nafaolligi hamda ma'lumotlarning asosan o'zbek tilida ekanligi va boshqalar.

Mazkur muammolarning bartaraf etilishi nafaqat oliy ta'lim muassasalarining reytingini va ta'lim sifatini oshishiga olib keladi, balki ularning moliyalashtirish mexanizmiga ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, respublika oliy ta'lim muassasalariga byudjetdan tashqari mablag'larning jalb qilinishini hamda xorijiy talabalar ulushini oshishiga, shuningdek xalqaro yuqori reyting ko'rsatkichlarga erishishga ham sabab bo'ladi.

Albatta mavjud muammolarni bartaraf etish bevosita moliyaviy mablag'lar bilan ham bog'liqdir. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish maqsadida endowment fondlarini tashkil etish o'quv yurtlariga investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantiradi (1-rasm).



1-rasm. Endowment fondlar va ularning boshqaruvi¹

¹ Muallif ishlanmasi

Quyidagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalari endaument fondiga yig'ilgan mablag'larni ulardan investision maqsadlarda foydalanish uchun Boshqaruv kompaniyasiga topshiradi, boshqaruv kompaniyasi undan tijorat maqsadida foydalanib, foizi bilan oliy ta'lim muassasalariga qaytaradi. Oliy ta'lim muassasalari bu mablag'lardan professor-o'qituvchilar, ishchi va rahbar xodimlar, shuningdek talabalarni rag'batlantirishga, moddiy-texnik bazani mustahkamlashga, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga yoki endaument fondlarga reinvestisiya qilishga sarflashlari mumkin.

Mazkur mexanizmni joriy qilish oliy ta'lim muassasalari faoliyatining rag'batlantirilishiga olib keladi va qo'shimcha moliyaviy mablag'larning jalb qilinishini kengaytiradi.

Oliy o'quv yurti oldida raqobatbardosh, yuqori sifat talablariga javob beradigan, davlat va bozor tamoyillari hukm surib turgan sharoitda ta'lim xizmatlarini ko'rsatish masalasi o'ta jiddiy masalalar sirasiga kiradi. Ta'lim tizimi yangi sharoitga o'tayotgan pallada baholashning amaldagi mavjud usullari ham zamonaviylashmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni.
2. Raxmonov D.A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2018. -11-b.
3. Ройтер В. Финансирования образования: международные модели, пути, опыт и мышление. // Университетское управление практика и анализ. №4(15) 2005. Екатеринбург. – С.39.
4. Николаев В., Дудкевич Я. Механизм финансирования высшего образования. Монография. - М., 2002. –С.77

Qudratova Dilxumor
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Biologiya yo'nalishi
2-bosqich talabasi

RAQAMLI IQTISODIYOTNI MAMLAKATIMIZDAGI ROLI VA AHAMIYATI

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi".

Raqamli iqtisodiyotning yuksalishi 21-asrning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar jamiyat va iqtisodiyotga ko'p jihatdan ta'sir qiladi, shu jumladan yangi aloqa va hamkorlik vositalari orqali; xizmat ko'rsatishning kuchli tarkibiy qismiga ega bo'lgan yangi mahsulotlar; ma'lumotlarning iqtisodiy o'sish omili sifatida roli; sun'iy intellekt (AI) yordamida vazifalarni avtomatlashtirish; va platformalar kabi yangi biznes modellarining paydo bo'lishi. Shu sababli, raqamlashtirish bizning hayotimiz va birgalikda ishlash tarzimizni tubdan o'zgartiradi. Bu butun jamiyat farovonligi va birlashishi uchun oqibatlariga olib keladi; shuningdek, barcha sohalaridagi korxonalar uchun samaradorlik, bandlik, ko'nikmalar, daromadlarni taqsimlash, savdo va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi ta'sirlar. Hukumatning an'anaviy tartibga solish funksiyalari, shu jumladan ilg'or tartibga solish amaliyotlari ushbu transformatsion o'zgarishlar bilan qanday rivojlanishi kerakligi to'g'risida kamroq narsa tushuniladi va aytiladi. Shuning uchun bunday ish bilan shug'ullanish juda muhim,

So'ngi vaqtlarda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko'p marta qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiy ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi.

Demak, ushbu maqola raqamli iqtisodiyot haqida bo'ladi. Unda "Raqamli iqtisodiyot nima?", "Raqamli iqtisodiyot vazifalari va maqsadlari", "Raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishdagi to'siqlar" kabi muhim savollarga javob izlashga harakat qilamiz.

Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan. Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiriq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding

va boshqa turdagi sohalarini raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2022-yilga kelib global YalMning chorak qismi raqamli sohada bo'lishini taxmin qilinmoqda. Lekin, xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish indeksi bo'yicha O'zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-o'rinni egallab turishining o'zi mamlakatimizda bu sohada hali o'z yechimini kutayotgan masalalar va qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'pligidan dalolat beradi.

O'z o'rnida qayd etib etish lozimki, mamlakatimiz hayotida raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o'tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o'tkazilmoqda. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning ta'biri bilan aytganda, "raqamli iqtisodiyot yangi xavf-xatarlarni vujudga keltirishi mumkin, shu jumladan, kiberoxafsizlikka tahdidlar, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning yengillashuvi, shaxsiy hayot daxlsizligini buzilishi bilan bog'liq sabablarni keltirish mumkin. Yangi qarorlar qabul qilish hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademik guruhlar, ilmiy hamjamiyat va texnologik sektorlarning hamkorlikdagi harakatini talab etadi".

Foydalanilgan adabiyot

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-6079-son Farmoni
2. <https://texnoman.uz>
3. <https://cyberleninka.ru>

Ostonov Ma'ruf Komilovich

*Buxoro Davlar Universiteti qtisodiyot va turizm fakulteti
Turizm(faoliyati va turlari bo'yicha) 1 -kurs magistranti*

MEHMONXONA XO'JALIGI XARAJATLARI VA MOLIYAVIY NATIJALARNI REJALASHTIRISH

Mehmonxona faoliyati samaradorligini oshirishda xorijiy sarmoyalarning ahamiyati katta. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridan tashqari Shahrisabz, Farg'ona, Qo'qon shaharlarida ham turizmni faol rivojlantirish mumkin. Ayniqsa Farg'ona vodiysi o'zining serhosil bog'lari, paxta dalalari, ipakchiligi, tog' bilan o'ralganligi va sharqona bozorlari bilan turistlarda katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Ipakchilik markazi hisoblangan Marg'ilon shahrida "Ipak olami" marshrutini ishlab chiqish mumkin. Unda ipak qurtidan boshlab to'quvchilik jarayonlarigacha bo'lgan bosqichlarni hikoya qilib berish, ipak gazlamalari va kiyimlarni ishlab chiqarishning madaniy hamda ishlab chiqarish tarixini yoritib berish mumkin bo'ladi. O'zbekistondagi tarixiy, me'moriy va arxeologik yodgorliklarning hozirgi kundagi holati, unga turistlar bora olishi darajasiga ko'ra baholanib, to'rt guruhga bo'lingan. Yodgorliklarni bunday guruhlarga bo'lish respublikada mavjud yodgorliklardan to'g'ri foydalanish darajasi qanday ekanligini, ulardan foydalanishni noto'g'ri yo'lga qo'yish mamlakatga qo'shimcha valyuta kelishga to'sqinlik qilishini aks ettiradi. Turistik yodgorliklar guruhlarga quyidagicha bo'linadi:

1. Turistlarda katta qiziqish o'yg'otuvchi, eng ommabop yodgorliklar 140 tani tashkil qiladi. Ular a'lo darajada saqlangan bo'lib, to'liq faoliyat ko'rsatadi. Yil davomida O'zbekistonga Yevropadan keluvchi turistlarning deyarli 80 % ularga albatta borib kelishga harakat qilishadi.

2. Yil davomida faoliyat ko'rsatmaganligi sababli turistlar tomonidan ba'zida ziyorat qilinishi mumkin bo'lgan yodgorliklar 180 tani tashkil qiladi. Mazkur guruhdagi tarixiy va me'moriy yodgorliklar xorijiy turistlarda o'rtacha qiziqish o'yg'otadi. Ular mavsumiy faoliyat ko'rsatib, zudlik bilan ta'mirlashni talab qiladi.

3. Ta'mirlanayotgan va hozirgi kunda turistlar tomonidan ziyorat qilinmayotgan yodgorliklar mavjud. Ular 200 tadan ortiq. Turli moliyaviy manbalar yordamida ta'mirlash ishlari faol olib borilmoqda. Respublikada ushbu maqsadlarda davlat byudjetidan maqsadli mablag'lar ajratiladi. Xuddi shunday yo'l bilan o'tgan 2003 yilda Samarqand shahridagi 30 tadan ortiq yodgorlik ta'mirlandi. Bunday maqsadli mablag'lar barcha viloyatlardagi tarixiy va me'moriy yodgorliklar uchun ajratilgan.

4. Ta'mirlash ishlari olib borilayotganligi sababli ya'ni 3-5 yillar davomida faoliyat ko'rsatmaydigan yodgorliklar. Hozirgi kunda ularni ta'mirlash uchun mablag'lar yetishmayapti. Ular taxminan 500 tadan ortiqni tashkil qiladi. Lekin kelajakda ular turistlarda qiziqish o'yg'otishi lozim. Xukumat tomonidan mazkur yodgorliklarni ta'mirlash uchun moliyaviy manbalarni shakllantirish ishlari

olib borilmoqda. Ushbu yodgorliklarning ko'plari arxeologik bo'lib, oldin izlanishlar olib borish, so'ngra esa ta'mirlashni talab qiladi. Masalan, Afrosiyob, Varaxsha, Chust va boshqalar.

O'zbekistonga kelgan xorijiy turistlarning umumiy sonidan 61,1 % Samarqandga, 34,5 % Buxoroga va 24,5 % Xivaga tashrif buyurganlar. Bitta turist bir necha shaharga tashrif buyurishini hisobga olgan holda quyidagilarni belgilash mumkin: ikkita shaharga (Toshkent-Samarqand va Toshkent-Xiva) 59% borgan, uchta shaharga (Toshkent-Samarqand-Buxoroga)-40,3% borgan. Bundan barcha kelayotgan turistlarning yarmidan ko'pi Toshkent shahridan tashqari faqatgina bitta shaharga tashrif buyurib ortlariga qaytadilar degan xulosaga kelish mumkin. Xorijiy turistlarning mamlakatga va yodgorliklarga qayta tashrif buyurishi quyidagi ma'lumotlarda aks ettirilgan:

yil davomida 5 % turistlar O'zbekistonga qayta tashrif buyurishgan ulardan 20-30 % gina Toshkent shahriga qayta kelishgan. Bu qayta tashrif buyurishning juda past darajasini tashkil qiladi. Shuning o'zigina turistlarni jalb qilish uchun qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish lozimligini ko'rsatadi. Mehmonxona va servis xizmatlarini kengaytirish yordamida turmahsulot sifatini oshirish, shuningdek mavjud yodgorliklarning qabul qila olish imkoniyatlarini oshirish kabi tadbirlar shular jumlasidandir. Mehmonxonaning qabul qila olish imkoniyatlariga baho berish ham katta ahamiyatga ega. Mehmonxonalarda joy taklif qilish imkonlari tahlil qilinganda mehmonxona hujaligini ta'mirlash birlamchi vazifalardan biriga aylanishi lozimligini ko'rsatdi. Restoranlar, barlar, bufetlar va boshqa qo'shimcha xizmatlardan qo'shimcha fonda olishga harakat qilinmaganligi sababli ko'p hollarda har bir turistdan yoki har bir mijozdan qo'shimcha daromad olish imkoni boy berilmokda. Barlar ko'p hollarda qorong'i va toza bo'lmagan holda, mijozlar uchun taklif qilinayotgan xizmatlar va tovarlar bilan tanishish uchun sharoitlar yaratilmagan bo'ladi. Ofitsiantlar ko'p hollarda sekinlik bilan va e'tiborsiz xizmat ko'rsatadilar, bu esa mijozlarning kamayishiga olib keladi. Xizmat ko'rsatish byurosi xodimlari mijozlar bilan ishlashni bilmaydilar. Mijozlar bilan kelisha olmaslik va qo'shimcha sharoitlar yarata olmaslik natijasida qo'shimcha daromad olinmay qoladi. Turistlar va mijozlarning e'tiborini o'zlariga jalb qilish choralari ko'rgan holda, mehmonxona boshqaruvchilari va xodimlari kam harajat qilgan holda ko'proq daromad olishga erishishlari mumkin. Mehmonxona va restoran boshqaruvchilari turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishda malakali xodimlar tanlash naqadar muhim ekanligini yaxshi tushunishlari lozim. Xodimlarning mehmonxona va restoran sohasidagi bilimlarini kuchaytirish turizm infratuzilmasini rivojlantirishda, yangi mehmonxonalar va restoranlar paydo bo'lgani sayin va turistlar soni ko'paygan sayin juda muhim ahamiyatga ega bo'lib boradi. Mehmonxona va restoran boshqaruvchilari malaka oshirish bo'yicha tashabbus ko'rsatishlari ularning bizneslariga, shuningdek O'zbekistonning turistik biznesiga foyda keltiradi. Ovqat tayyorlash bilimi asosi hisoblanadi. Lekin ko'p turistlar O'zbekistonda mavjud mahsulotlardan to'liq foydalana bilish tajribasi yetishmayotganligidan shikoyat qiladilar. Tayyorlangan taomlar ko'pincha ishtaxa ochuvchi bo'lmay, mijozlarda yaxshi taassurot qoldirmaydi. O'zbekiston restoranlarining xodimlari zamonaviy turistlarning ovqatlanish borasidagi talablarini bilishlari va o'z ish faoliyatlarida ulardan foydalana olishlari lozim. Masalan, taomlar turkumiga yog'i kam bo'lgan yoki umuman yog'siz bo'lgan taomlarni, shuningdek parhez taomlarini kiritishlari lozim. Ovqatlarning turlari juda kam, ularning turlari va ko'rinishlari o'rtasida katta farq yo'q. Masalan, bir ko'rinishda juda yog'li bo'lib ko'rinadigan taomlar, go'shtli taomlarning bir - biriga o'xshash turlari, bir-birini takrorlovchi salatlar, sifatsiz desertlar va h.k. . Bir qator mehmonxonalarining restoranlarida mijozlarga tanlash imkonini qoldirmagan holda turkum taomlar taklif qilinadi. Restoranlarda xizmat ko'rsatish darajasi juda past bo'lganligi sababli mijozlarni qondira oluvchi darajada boshqaruvchilik qobiliyati degan taassurot qoladi. Ofitsiantlar o'z e'tiborlarini asosan faqat bitta vazifaga, u ham bo'lsa mijozga taomni yetkazib berishga qaratadilar, ammo mijozga e'tiborli munosabatda bo'lgan holda ularga quvonch olib kelib, ehtiyojlarini qondirishlari mumkin ekanligi haqida o'ylamaydilar. Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash bo'yicha reja asosida ish olib borish, muammoni yaxshi hislatlardan biriga aylantiribgina qolmay, balki restoranlarning daromadlarini ko'paytirishga olib keladi. Bo'lajak turistlarning ovqatlanishi masalasiga kelsak, yangi restoranlar va ovqatlanish shahobchalariga ko'proq e'tibor karatish, yangi korxonalar barpo qilish, yangi ish joylari va turistlar uchun yangi ob'ektlarini yaratish uchun yaxshi imkon beradi. Turizm va mehmonxona ho'jaligi sohalarida statistika talab darajasida tashkil qilinmaganligi sababli o'z vaktida zarur choralarni qo'rish uchun mehmonxona hujaligidagi axvolni ko'zatiib borish muammoga aylanib qolgan. Boshqaruvchilarning hisobotlari va statistik ma'lumotlar eskirgan. Ushbu hisobotlarda mehmonxonada ish faoliyati qanday borayotganligini aks ettiruvchi va tezkor qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar (nomerlarning 16 bandligi va ularning kundalik, xaftalik, oylik, chorakdagi va yil davomidagi bandliklarining foiz darajalari) berilmaydi. Aynan shu ma'lumotlar kelajakdagi maqsadlar va byudjetlarni belgilashda o'ta muhim ahamiyatga egadir. Mehmonxonalar mijozlar haqidagi ma'lumotlarni saqlamaydilar va tartibga solmaydilar va natijada bozorning turli sektorlaridagi faoliyat haqida to'liq ma'lumot ololmaydilar. Mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishning mintaqaviy imkoniyatlari Turistik, shu jumladan mehmonxona xizmatlarini tashkil qilish modelini Janubiy Koreya misolida qo'rib chiqib, uni O'zbekistondagi turistik va mehmonxona

xizmatlari bilan solishtirar ekanmiz, biz mehmonxona xizmatlarining samarali marketingini ishlab chiqarishga yordam beruvchi imkonlarga baho berishimiz zarur. Bunda turizm va mehmonxona hujaligining rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi imkonlariga baho berish, ishlab chiqarishni mehnat, yer va kapital kabi omillaridan kelib chiqqan holda tahlil qilinishi lozim. Turistik biznesda yer omilining o'rnida milliy iqtisodiyotning geografik hududi yoki agarda turistik ob'ektlar mamlakat ichida alohida chegaralangan holda joylashgan bo'lsa, u holda mana shu ob'ektlarning geografik joylashgan o'rinlari hisoblanadi. Iqtisodiy omillar bilan bir qatorda tarixiy-madaniy yodgorliklarning tarkibi va ahamiyati orqali belgilanuvchi omillarni kapital deb hisoblash mumkin. Ochiq osmon ostidagi qadimgi muzey-shaharlar Samarqand, Buxoro, Xiva, Fargona va Toshkent O'zbekistonda turizm rivojlanishi uchun qulay maskanlar hisoblanadi. Chunki IX, XIV, XVI asrlardagi me'moriy yodgorliklarning asosiy qismi aynan mana shu shaharlarda joylashgan. Aynan shu joylarda tarixiy turizmni, bilish turizmni rivojlantirish maqsadga muvofikdir. Undan tashqari mutaxassislarni e'tiborlarini jalb qilishi mumkin bo'lgan boshqa joylar ham mavjud, masalan, Surxondaryodagi Budda sajdagoxi qazilmalari, shuningdek O'zbekistonda dam olish, davolanish va sport maskanlari juda ko'p. Binobarin, sport turizmining tog' turizmi, alpenizm, tog'-chang'i sportining barcha ko'rinishlari, deltaplanerizm, tog' daryolari bo'ylab qayiqlarda so'zish kabi aynan keng tarqalmagan turlarini rivojlantirish imkonlari mavjud. O'zbekistonda turli millatlarning istiqomat qilganligi sababli O'zbekistonda turistlarning millatlariga nisbatan sog'lom muhit bo'lganligi sababli, xalqaro turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ijtimoiy-psihologik sharoit mavjuddir.

Hozirgi paytda barcha ko'rsatkichlar amaliy ma'lumotlar asosida aniqlanadigan, mehmonxona xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilganda o'rganadigan va samaradorlikni oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladigan bo'lishi lozim. Shu tufayli yuqorida keltilgan barcha ko'rsatkichlarning aniqlanish yo'llarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda keng foydalanish uchun tegishli tadbirlarni belgilab berish lozimdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, mazkur ko'rsatkichlarni mehmonxona xo'jaliklariga mos holda aniqlash yo'llari ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adbiyotlar:

- 1.Маматқулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати. Т., «Иқтисод-молия», 2010.
- 2.Маматқулов Х.М. Меҳмонхона ва туристик комплексларда хизматларни ташкил этиш. Ўқув-услубий қўлланма. Самарқанд, СамИСИ, 2011.
- 3.Сорокина А.В. Организация обслуживания и гостиницах и туристических комплексах. М., 2007.
- 4.Филипповский Е.Е., Шмарова Л.В. Экономика и организация гостиничного хозяйства. М., 2005.

Лунева Татьяна Викторовна

заведующая кафедрой «Экономика и управление предприятием»
Астраханского государственного технического университета,
доцент кафедры «Общая экология и экономика» Филиала ФГБОУ ВО АГТУ в
Ташкентской области (по совместительству), кандидат экономических наук;

Муратов Абдулазиз Уктамович

начальник отдела Международного центра
стратегического развития и исследований
в сфере продовольствия и сельского хозяйства
при Министерстве сельского хозяйства,
кандидат экономических наук.
e-mail. muratovabd@gmail.com

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕХОДА К УСТОЙЧИВОМУ СЕЛЬСКОМУ ХОЗЯЙСТВУ

В Узбекистане с 2017 году начался новый этап реформ во всех сферах жизни. В настоящее время происходит переход от модели экономического роста к модели, направленной на создание большего количества рабочих мест, уменьшение воздействия на окружающую среду, а также проведение диверсификации отраслей экономики.

Принятая в 2019 году Стратегия развития сельского хозяйства на 2020-2030 гг. обеспечивает основу для проведения реформ по 9-ти приоритетным направлениям развития и вносит существенный вклад в нашу общую программу перехода к устойчивому сельскому хозяйству.

Реформы начаты с пересмотра рынка сельскохозяйственной продукции. На протяжении ряда лет действовала система «госзаказа», в рамках которой фермерские хозяйства обязаны были, выращивая хлопок и пшеницу, заниматься монокультурным производством, продавая урожай по установленным правительством ценам.

Вместо системы «госзаказа» осуществляется переход на рыночные принципы договорных отношений между кластерами, фермерами и государством.

Отпускные цены на хлопок были либерализованы в 2020 г., а на пшеницу - в 2022 г. С 2022 г. фермеры получили право свободно продавать всю свою продукцию по рыночным ценам.

В соответствии со «Стратегией развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» взят курс на производство сельхозпродукции на основе специализации районов на выращивании конкретного вида продукции. 51 район был специализирован на плодоовощеводстве, 48 - на виноградарстве, 40 - на картофелеводстве.

В стране в целях обеспечения продовольственной безопасности и стабильности цен на внутренних рынках, увеличения доходов населения путем поддержки его инициатив в аграрном секторе в 2022-2023 годах на территориях, высвобожденных из-под хлопка и зерна, передаются населению в аренду посредством открытого электронного конкурса в общей сложности 200 тысяч гектаров земельной площади.

В общей сложности на высвобожденных землях организуются дехканские хозяйства, которые обеспечат посадку на 71 тыс. га овощей, 30 тыс. га картофеля, 34 тыс. га бахчей, 22 тыс. га масличных культур, 43 тыс. га бобовых с организацией 856 тыс. новых рабочих мест. При этом принимаются меры по закупке, переработке, хранению, направлению на внутренние и внешние рынки выращенной готовой продукции с привлечением агропромышленных кластеров и предприятий, занимающихся заготовкой, переработкой и экспортом. Намечена организация 69 холодильных склада емкостью 70 тыс. тн., 46 предприятия по переработке продукции мощностью 69 тыс тн.

В связи с тем, что государство уделяет большое внимание развитию сельского хозяйства и садоводства, качество и объем экспортируемой продукции увеличиваются из года в год. В частности, объем экспорта плодоовощной продукции в 2022 году составил 1 743,7 тыс. т и, в стоимостном выражении, достиг 1 145,8 млн. долл. США (темпы увеличения по сравнению с 2021 годом составили 18,5 %).

Особое внимание уделяется повышению эффективности и поэтапное перераспределение государственных расходов на развитие сельского хозяйства.

Создана новая модель государственной поддержки сельского хозяйства. В 2019 – 2022 годах выделены субсидии на сумму 2,9 трлн. сум. Внедрена единая электронная интеграционная система предоставления субсидий «Агросубсидия».

На выращивание хлопка, зерна, плодоовощных культур выделяются в значительных объемах кредитные ресурсы. В качестве обеспечения по выдаваемым кредитам предлагается выделение полиса страхования будущим урожаем, залог права аренды земельных участков.

Предлагается исходя из международной практики разработать и внедрить наиболее действенный, подходящий для страны механизм страхования от рисков при выращивании сельскохозяйственных культур, связанных с изменением климата, засухой, маловодьем, болезнями сельскохозяйственных растений и животных.

Государственные сельскохозяйственные программы становятся все более разнообразными с точки зрения оказания поддержки всем другим секторам.

Одним из наглядных примеров государственных расходов является внедрение системы сельскохозяйственных знаний и инноваций (AKIS).

В настоящее время разрабатываются планы по созданию консультационных услуг для фермеров и предоставлению продуктов электронного обучения и знаний, доступных для фермеров. Опубликовано и распространено среди фермеров Руководство по надлежащей сельскохозяйственной практике (GAP), которое посредством круглых столов и тренингов в региональных центрах AKIS дает рекомендации по природным решениям и традиционным методам ведения сельского хозяйства, устойчивым к изменению климата.

Неотъемлемой частью перехода к устойчивому сельскому хозяйству является экологическая устойчивость сельскохозяйственной и пищевой деятельности. Только благодаря более широкому применению передовых методов ведения сельского хозяйства и производства продуктов питания, можно действительно защитить наши драгоценные природные ресурсы для будущих поколений.

Насущной задачей является разработка и внедрение региональных и отраслевых балансов продовольственных систем, повышение квалификации работников и специалистов сельского хозяйства по использованию IT технологий и инноваций для принятия управленческих решений.

Увеличение объема выбросов парниковых газов в сельском хозяйстве, продолжающиеся засухи и нехватка воды, сельскохозяйственное образование и научные исследования также не в полной мере соответствуют потребностям и запросами нынешних фермеров и агробизнеса.

Согласно прогнозам специалистов, ожидается, что выбросы парниковых газов в сельском хозяйстве в ближайшие годы могут привести к снижению урожайности сельскохозяйственных культур на значительной части территории страны на 12-50%.

В этой связи в настоящее время республике необходимо привлекать и направлять больше инвестиций на развитие человеческого потенциала, тестирование почв, цифровизацию сельского хозяйства, мониторинг использования земельных и водных ресурсов, развитию правовой базы по обеспечению продовольственной безопасности, кооперации в сельском хозяйстве.

**Niyozova I.N – BuxDU, Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi
Narziyeva N. – BuxDU, Iqtisodiyot 1-bosqich talabasi**

MAMLAKATIMIZDA KORXONALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH

Globalashuv jarayonida korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi muhim masalalardan biri tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarish hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning samarali tashkil etilishi korxonaning jahon bozoridagi o'rini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada mamlakatimiz ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi va mustahkamlashi, jahondagi turli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilishi muhim ahamiyatga ega.

Tashqi iqtisodiy aloqa - bu turli mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar bo'lib, iqtisodiy naf ko'rish maqsadida olib boriladi.

Binobarin, tashqi iqtisodiy aloqalar - aniq bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan xalqaro mehnat taqsimotiga, fan va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishga hamda boshqa omillarga asoslangan ishlab chiqarish, savdo, siyosiy va boshqa xii munosabatlaridir.

Bu munosabatlar quyidagi shakllarda bo'ladi:

- xalqaro savdo-sotiq;
- ishlab chiqarish kooperatsiyasi;
- kapital migratsiyasi;
- ishchi kuchi migratsiyasi;
- o'zaro to'lovlar va hisob valyuta operatsiyalari va boshqalar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarish jarayoni.

Tashqi iqtisodiy aloqalar birinchi navbatda korxonalarining xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishi natijasida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish jarayoni tashqi bozor bilan bog'liq bo'lgan korxonalar, mavjud imkoniyatlaridan har tomonlama foydalangan holda dunyo bozoridagi pozitsiyalarini raqobatchilarga nisbatan mahkam ushlab qolishga intiladilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat shakllari:

1. Bevosita eksport, bunda faqat firma va uning sotuvchilari chet elda vositachilarning yordamisiz faoliyat ko'rsatadi va bu eng sodda shakl hisoblanadi. Bu yerda bozorni sinchiklab o'rganish talab qilinmaydi, xorijiy bozorlarni bilish cheklangan, keyingi yetkazib berishlar va sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish mavjud emas.

2. Haq to'lanuvchi savdo vakili – bozorda faoliyat yuritishning yuqoridagi usulining biroz rivojlangan turi bo'lib, ayniqsa, vaqtincha chet elga komandirovkaga yuborilgan xodim to'g'risida gap borganda o'rinli bo'ladi.

3. Chet elda texnik yordam – xizmatlar savdosi bo'lib, asbob-uskunalar savdosiga qo'shimcha sifatida qabul qilinadi. Turli xil shakllarda bo'lishi mumkin: loyihani tuzishga ko'maklashishdan to asbob-uskunalarini ekspluatatsiyaga topshirish, xodimlarni o'qitish, ishlab chiqarishni tashkil etishga tegishli bino va inshootlar hamda ishlab chiqarish usullarini berishgacha.

4. Boshqaruv to'g'risidagi shartnoma xizmatlarni eksportga sotish hisoblanadi, chunki bu yerda gap ishlab chiqarish majmuasini cheklangan yoki chekalnmagan muddatga boshqarishni ta'minlash yoki mazkur eksportchi yoki boshqa shaxs tomonidan ko'rsatiluvchi xizmatlar yig'indisi haqida boradi. Bunga misol qilib xalqaro mehmonxona majmualarini keltirish mumkin. Ular ko'pincha xususiy yoki davlat kapitaliga tegishli bo'lib, xalqaro miqyosda joriy foydalanish esa firmaga topshiriladi.

5. Korxonada vakolatlarini investitsiyalashsiz chet elga jo'natish, bunda: chet elda savdo tarmog'iga ega bo'lgan firma ma'lum miqdordagi haq evaziga savdo tarmog'ini boshqa firmaga berib turishi mumkin;

Franchayzer-korxonada xalqaro bozorda faoliyat ko'rsatuvchi korxonaga haq to'lash evaziga o'z mahsulotlarini sotish huquqini beradi. Bu mahsulot ishlab chiqaruvchiga o'z mahsulotlarini chet elda ularni bozorga kiritish uchun qo'shimcha xarajatlarsiz sotish imkoniyatini beradi.

6. Xalqaro vositachilar xizmatidan foydalanish:

- eksportchi-sotuvchidan ham importchi-xaridordan ham hech qanday vakolat olmagan holda shartnomalar izlovchi va o'rnatuvchi hamda bitimda ishtirok etuvchi ikkala tomondan komission mukofot oluvchi maklerlar;
- xaridordan uning uchun chet elda belgilangan sifatda belgilangan narxda va belgilangan muddatda etkazib berish sharti bilan tovar izlab topish topshirig'ini oluvchi xarid bo'yicha agentlar;
- eksportchidan bozorni o'rganish, tovarni etkazib berish va sotish topshirig'ini oluvchi, narx foizida komission mukofotlarga ega bo'ladigan sotish bo'yicha agentlar;
- o'z nomidan vaziyatga qarab mahsulotlarni sotib oluvchi va sotuvchi, doim ham yuuyurtmachi va ta'minotchilar bilan aloqalarni saqlab qolishi shart bo'lmagan xalqaro savdo agentlari;
- eksportchi hamkor bilan xalqaro bozorda hamkorlik qilish shartlarini belgilab beruvchi shartnoma imzolovchi konsessionerlar, mustaqil savdogarlar;
- ta'minotchilar va ulgurji xaridorlar bilan uzoq muddatli shartnomalarga asosan tijorat munosabatlariga kirishuvchi hamda mustaqil savdo vositachilari hisoblanuvchi importchi-distributorlar.

7. Nou-xauni berish yoki eksport qilish

- patent litsenziyasini berish, bunda eksportchi vaqtinchalik yangi mahsulot tayyorlash bilan shug'ullanmayotgan hollarda ixtirodan foydalanishni boshqa bozor sub'yektiga beradi, mazkur yangilikning tez tarqalishi va xalqaro bozorda raqobatchilarga nisbatan ustunlikka ega bo'lishni ta'minlashga yo'naltiriladi;
- xorijiy texnologiya transferti, ishlab chiqarishning yangi nuqtalarini yaratish yoki mazkur texnologiyadan chet elda foydalanishdan iborat;
- eksport mahsulotiga subpodryad, bilvosita eksport bo'lib, mamlakatdagi yoki chet ellik buyurtmachi hisobiga amalga oshiriladi;
- xorijiy firma bilan imzolangan subpodryad, bunda kiritilgan yangilik bozordagi eksport bo'yicha chet ellik sub'yektga investitsiyalash bilan birga beriladi. Uning vakolatlari mamlakatda yangi ishlab chiqarish bazasini (zavod, sex) yaratish, olish, o'rnatish, eksport qilingan asbob-uskunalar, mashinalar, materiallar, nou-xau elementlari va boshqalardan foydalanishdan iborat.

8. Qo'shma korxonada, uning vositasida eksportchi xalqaro bozorga chiqishda eksport bo'yicha hatti-harakatlarini xorijiy (mahalliy) firma va kompaniyalar bilan birlashtiradi. Bunda tajriba va aloqalar, chet el hukumati tomonidan beriluvchi imtiyozlar birlashtiriladi.

9. Xorijiy mamlakat hududida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi sho'ba korxonasini tuzish. Bu huquqiy, moliyaviy, savdo, soliq, bojxona, siyosiy va boshqa imtiyozlardan foydalanish, mahalliy talab va mehnat bozoriga tezroq moslashish imkonini beradi.

10. Investitsiya siyosati elementlariga ega bo'lgan, nazorat qilinuvchi savdo filialini tuzish. Bunday filial joylarda mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanmasdan, mahalliy vositachilar va turli xil savdogarlar tarmog'i rivojlanuvchi va nazorat qilinuvchi sharoitlarni yaratish asosida xorijiy bozorga kirib borish imkonini beradi. Ularning faoliyati filial joylashgan mamlakat qonunlariga bo'ysunadi.

11. Bevosita egalik qilish boshqa mamlakatlar hududida hech qanday vositachilarsiz joylashish, mahsulot ishlab chiqarish va sotishni, ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyatni mustaqil amalga oshirish va nazorat qilishni nazarda tutadi.

Milliy strategik maqsadlarni bajarishni tashkillashtirish uchun tegishli nazariy va metodologik tadqiqotlarni o'tkazish, shuningdek, har bir boshqaruv darajasida ularni ijro etilishini ta'minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish zarur. Iqtisodiyotning zamonaviy nazariyalarini tahlil qilish natijalari bo'yicha umumlashtirilgan boshqaruvga yondashuvlarning quyidagi ta'riflari taklif etiladi¹:

1) tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish – iqtisodiy nazariyalarni qo'llash va qiymat ifodasiga ega faoliyat samaradorligi mezonlarini aniqlash asosida boshqaruv ta'sirlarini ishlab chiqishdir.

2) xalqaro menejment – faoliyatni amalga oshirish muhitini tahlil qilish, turli mamlakatlarda biznes yuritishning farqli omillarini hisobga olish, o'zgarishlar bo'yicha boshqaruvdir.

At the initial stage, the public-private partnership (PPP) of development opens up great opportunities in revealing the specific aspects of the regions, in choosing the development paths of the region, in developing promising directions. Tourist-recreational complexes on the basis of state-partnership in regions with limited natural resources independently choose the types of activity of tourist-recreational objects and achieve effective operation. The development of regional production systems, opportunities to enter international and local markets are the reason for the development of new directions of economic development.

There are many models of the experiences of foreign countries in the establishment of tourist and recreational complexes based on public-private partnership.

First, models aimed at performing specific tasks on the basis of strategic cooperation - service contract, touristic-recreational cluster, agreement on the movement of products;

Secondly, the model of financed projects includes development programs of public-private and mixed forms of ownership (rental, leasing, targeted programs);

Thirdly, based on the partial and complete change of ownership forms, the models of cooperation are formed - touristic-recreational special economic zones, production organizations, international organizations [4].

Conclusion. In conclusion, it can be said that in practice this process is more complicated.

Firstly, problems in ensuring full rights under the agreement with the investor in the establishment of tourist and recreational complexes;

Second, the concept agreements do not clearly specify the guarantee provided by the state and local authorities in the budget legislation.

The establishment of public-private partnerships in the field of tourism and recreation is considered one of the most promising directions. This direction plays an important role in bringing the regional economy to a new level. Through this, entrepreneurship will develop in the region, tasks of general importance will be solved, and the well-being of the population of the region will increase.

REFERENCES

1. Yu.A.Dmitriev, A.I.Shustrov, A.B.Baykov. Features of the development of public-private partnership in the regional tourist and recreational complex. Question of economics and law. 2015, no. 4.
2. Russian State University of Tourism and Service: Scientific Interactive Portal. URL: [http://students, rguts.ru](http://students.rguts.ru)
3. A.N. Zakharov, A.A. Ignatiev. Development of public-private partnership in Russian tourism // Russian Economic Bulletin. 2011 №3
4. O.B. Kharitonova. The content of the concept, "public-private partnership" in the field of regional tourism // socio-political sciences. 2013 №2
5. Kropina E.G. Theory and practice of formation and development of cross-border tourist and recreational regions. dis. on uch.step. g.f.d. Kaliningrad.2016

Атоева Мехригё Илхом кизи

Магистрант Бухарского инженерно-технологического института

Хайитов Шербек Наимович

кандидат экономических наук, доцент, доцент кафедры «Менеджмент»

Бухарского инженерно-технологического института

РАЗВИТИЕ МЕНЕДЖМЕНТА ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Цифровая экономика – это система экономических, социальных и культурных отношений, основанных на использовании цифровых информационно – коммуникационных технологий.

Сегодня цифровая экономика занимает всё более значимое место в экономике многих стран мира. Цифровая экономика определяется как экономическая деятельность, основанная на цифровых технологиях. Внедрение информационно-коммуникационных технологий и развитие элементов цифрового общества рассматривается в большинстве стран современного мира как одна из приоритетных стратегических задач и общенациональных приоритетов.

Электронная экономика (или «цифровая экономика») представляет собой экономическую деятельность, которая построена на основе электронной коммерции и денежного обмена. Под данными терминами подразумевают работу электронных сервисов, ориентированных на реализацию электронных товаров и услуг, с осуществлением обмена электронными деньгами между участниками электронных сделок [4].

На сегодняшний день правительство Республики Узбекистан уделяет особое внимание развитию информационных технологий и его массовому внедрению во все сферы жизнедеятельности общества.

Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев в своём послании Олий Мажлису отметил, что «нам следует разработать национальную концепцию цифровой экономики, предусматривающую обновление всех сфер экономики на базе цифровых технологий, и на этой основе внедрить программу «Цифровой Узбекистан – 2030». Цифровая экономика позволит обеспечить рост валового внутреннего продукта как минимум на 30 процентов и резко снизить коррупцию» [3].

Цифровой сегмент экономики актуален в силу произошедших качественных изменений в экономике и обществе. Сокращение транзакционных издержек позволяет предприятиям и физическим лицам в больших масштабах осуществлять тесный контакт с государственными структурами и хозяйствующими объектами благодаря новым технологиям и платформам, вследствие чего формируется цифровая или электронная экономика, основанная на сетевых сервисах [5].

Понятие «цифровизация» указывает на создание совершенно новой стадии управления производством товаров и услуг и самого производства на основе «сквозного» применения современных ИТ, начиная онлайн продажей товаров и услуг и заканчивая технологиями электронного правительства [2].

Цифровизация повышает эффективность и качество производства, дает простор для применения новых моделей управленческих решений на основе прогностических технологий, поэтому включение данных технологий в программу развития промышленных предприятий позволит обеспечить им конкурентные преимущества [1].

Менеджмент предприятий в условиях цифрового экономического уклада должен активно реагировать на изменения во внешней среде, выстраиваться с учетом прозрачности и структурированности всех бизнес-процессов, применять эффективную систему управления знаниями, осуществлять контроль и мотивацию персонала, а также учитывать особенности управления предприятием в условиях цифровизации.

В основе исследований лежат системный подход, диалектический метод познания, а также общенаучные методы экономического и сравнительного анализа, оперативного и стратегического управления и информационного обеспечения управленческих решений [1].

Подводя итоги, можно сделать вывод, что цифровая экономика – это новый вид экономических отношений во всех отраслях мирового рынка, который сейчас развивается стремительными темпами и уже в ближайшем будущем, с ростом высоких технологий, может стать основным видом товарно-денежных обменов на глобальном мировом уровне.

Список литературы:

1. Нечеухина Н.С., Полозова Н.А., Буянова Т.И. «Контроллинг как механизм успешной трансформации промышленности в цифровую экономику» // «Цифровая трансформация экономики и промышленности: проблемы и перспективы», Федеральное государственное автономное образовательное учреждение высшего образования «Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого» (Санкт-Петербург). 2017.
2. Панышин Б. «Цифровая экономика: особенности и тенденции развития» // ИД «Белорусская наука», Наука и Инновации. Март 2016. № 157.
3. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/2228>.
4. Тютюнин В.В., Зелинская Е.В., Конюхов В.Ю., Кочнева Е.В., Пивоварова В.О., Холодилова Е.В. «Разработка стратегии развития инжинирингового предприятия»//Молодежный вестник ИрГТУ. 2015. № 2.
5. Электронная экономика. Википедия. URL:https://ru.wikipedia.org/wiki/Электронная_экономика.

Zayavitdinova N.M.

«Menejment» kafedراسи dotsenti

Xolova Zebiniso

M10-21 MNT guruhi magistranti

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING O'RNl

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda xotin-qizlarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan sharoitda xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik hamda kichik biznesga keng jalb qilish masalalari dolzarb ahamiyatga egadir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida “Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xoxlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa jamiyat rozi bo'ladi” deb alohida ta'kidlab o'tganlar. Bu maqsad 2022-2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Xususan, taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadida xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifalari belgilangan.

2021 yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. 190 ming nafar ayol kasb-

hunarga o'qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi.

2022-2024 yillar uchun "Biznes ayollar" dasturi qabul qilinishi belgilandi. Uning ijrosiga jami 8 trillion so'm yo'naltiriladi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etilishi, imtiyozli kreditlar ajratilishi, ko'plab soliq va savdo imtiyozlari berilishi belgilandi.

Shu maqsadda, mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularda tadbirkorlik va biznes ko'nikmalarini shakllantirish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish masalalari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, AQShda ayollar biznesini qo'llab-quvvatlash va ularga yordam berish uchun bank tashkil etilgan. Moliyaviy tashkilot asoschilari ishbilarmonlik muhitidagi gender tafovutini bartaraf etish va ayollarning biznes uchun pul olishlarini osonlashtirish maqsadida 1975 yilda ushbu "Birinchi ayollar banki" (First Women's Bank) bankini tashkil etishdi. Mutaxassislarning fikricha, AQSh biznes muhitida ayollar va erkaklar kapitalidan foydalanish bo'yicha teng imkoniyatlarga ega bo'lmagan. Ayollar boshchiligidagi korxonalariga, odatda banklar tomonidan kreditlar kamroq beriladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda erkaklarga nisbatan ayollar kreditlarni o'z vaqtida qaytaradilar.

First Women's Bank faoliyatida pul chiqarishdan tashqari, bank xodimlari amerikalik xotin-qizlarga biznes masalalari bo'yicha maslahat beradilar va o'z bizneslarini rivojlantirishning barcha bosqichlarida yordam berishadi. Birinchi ayollar banki yirik kompaniyalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, shuningdek bank tomonidan qora tanli ayollarga alohida e'tibor beriladi.

Kanadada faoliyat olib borayotgan kichik va o'rta korxonalarining 16 foizigina ayollarga tegishli ekan. Kanada hukumati tadbirkorlik va kichik biznes xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi rolini yaxshilash va o'rta sinfni mustahkamlashda muhim rol o'ynashini tan oladi. Kanada hukumati tomonidan 2018 yilgi Byudjetda e'lon qilingan yangi investitsiyalar asosida 2025 yilgacha ayollarga tegishli tadbirkorlik sub'yektlari sonini ikki baravar oshirish maqsadi belgilandi [3].

Shuning uchun Kanada hukumati tadbirkor ayollarga e'tibor qaratib, o'z iqtisodiyotini jonlantirish maqsadida "Ayollar tadbirkorligi strategiyasi" (Women Entrepreneurship Strategy, WES)ni ishlab chiqdi. Ushbu strategiya 2 mlrd. dollarlik sarmoyani o'z ichiga oladi. Kanada YAImni 150 mlrd. AQSh dollargacha oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, bunga erishishda ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish juda katta ahamiyatga ega" [4]. Dastur tadbirkor bo'lishni xoxlovchi kanadalik ayollar orasida talabning ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kanadalik ayollar boshqa G20 mamlakatlaridagi hamkasblariga qaraganda tezroq biznes boshlashadi. So'nggi 20 yil ichida Kanada iqtisodiyotida tadbirkorlik muntazam o'sib bordi va bunda ayollarning ulushi ancha yuqori. Kanadada tadbirkorlik faoliyatida venchur kapitalini jalb qilish hamma uchun qiyin, lekin ayollar uchun bu ancha mashaqqatli hisoblanadi. O'z tadbirkorligini kengaytirmoqchi bo'lgan Kanada kompaniyalarining atigi 10 foizini ayollar boshqaradi. Ayollar boshchiligidagi kompaniyalarning yuqori mahsuldorligiga qaramay, erkak venchur kapitalistlar ayollar boshchiligidagi kompaniyalarga kamroq sarmoya kiritadilar. So'nggi yillarda Kanadada yirik firmalardagi venchur kapitalist ayollarning ulushi ikki baravar ko'paydi, ammo bu ko'rsatkich hali ham juda past (14 foiz). Kanada biznesni rivojlantirish bankining (Business Development Bank of Canada, BDC) Texnologiya sohasida ayollar kapitali jamg'armasi (Capital Women in Technology Fund, WIT) ushbu ko'rsatkichni oshirish uchun kelgusi besh yil ichida 200 mln. AQSh dollar sarmoya kiritadi. U boshqaruvida to'liq yoki qisman ayollar bo'lgan texnologiya kompaniyalariga sarmoya kiritadi [5].

Finlandiya ayollar o'rtasida tadbirkorlik ulushi bo'yicha xalqaro reytingda birinchi o'rinlardan birini egallab turibdi, bu Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari uchun yaxshi namuna bo'lmoqda. Finlandiyalik ayollar yaxshi ma'lumotga ega va yildan-yilga OECD ta'lim so'rovlarida birinchi o'rinni egallab kelmoqdalar. Finlandiya ayollari boy ish tajribasi, malakasi va keng aloqalariga ega. Ayollar Finlandiya aholisining qariyb yarmini tashkil qiladi, biroq ularning tadbirkorlikdagi ulushi so'nggi o'n yil ichida deyarli 30 foiz ulushga ega bo'ldi. Aytish joizki, xotin-qizlarning bilim darajasi juda yuqori, tadbirkorlikka intilish, tadbirkorlik faoliyati to'g'ri yo'nalishda rivojlanmoqda. Finlandiyada ayol tadbirkorlar uchun mavjud bo'lgan moliyalashtirish, maslahat va biznes xizmatlari kabi vositalar ham ularning tadbirkorlar faoliyatini yanada rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. E'tiborli jihati shundaki, Finlandiyada ayollar tomonidan boshqariladigan firmalarda faqat bir ayol boshqaruvchi bo'lgan korxonalar ustunlik qiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik ayollar orasida keng tarqalgan [6].

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, berilayotgan imtiyozlar natijasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida ancha ijobiy natijalarga erishilmoqda. Lekin shunga qaramay, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha mamlakatimiz va uning hududlarida imkoniyatlar juda katta. Mazkur

imkoniyatlardan samarali, izchil foydalangan holda xotin-qizlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish va uning milliy iqtisodiyotdagi salmog'ini yanada oshirish va bu orqali xotin-qizlar bandligini oshirish mumkin. Buning uchun, xotin-qizlarni tadbirkorlik sohasida o'qitish va kasbga tayyorlashni yo'lga qo'yish; tadbirkor va ishbilarmonlarning me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlashini takomillashtirish uchun axborot-maslahat xizmati markazlarini rivojlantirish; tadbirkorlik sohasida puxta tayyorgarlik ko'rgan, professional tashkilotchi-rahbarlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun qisqa muddatli kurslarni tashkil etish; tadbirkorlarni kreditlar bozorida biznes xizmatlari, tenderlar, chet el investorlari takliflari haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishlari uchun imkoniyatlar yaratib berish; tadbirkorlarni innovatsion g'oyalar bo'yicha o'tkaziladigan tanlovlarda ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratib berish.

Umuman olganda, xotin-qizlar bandligini oshirishda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining o'rni beqiyosdir. Mamlakatimizda kichik biznes tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratish, tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Xususan, xorijiy davlatlar tajribasidan foydalangan holda, aynan bugungi zamonaviy bozor talablaridan kelib chiqqan holda, xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi moliyalashtirish dasturlarini joriy qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: 2021 yil 5 mart.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir. 20.08.2021. <http://t.me/uzmetaxborotxizmati>.
3. Women's Entrepreneurship Strategy SEA Public Statement. URL: <https://www.ic.gc.ca/eic/site/seaees.nsf/eng/ey00049.html> (07.02.2022)
4. <https://immigrant.today/canada/14416-novye-vozmozhnosti-dlja-zhenshhin-predprinimatelej-v-kanade.htm>
5. Impact to-date: BDC Capital's Women in Technology Venture Fund invests in 25 companies. URL: <https://www.bdc.ca/en/about/mediaroom/news-releases/bdc-capital-women-technology-venture-fund-invests-in-25-companies>
6. <https://www.goodnewsfinland.com/ru/opinion/o-zhenshhinah-redprinimateleyah/>

Норова Саломат Юсуповна

PhD, БухМТИ «менеджмент» кафедраси
катта ўқитувчиси
norova-s@mail.ru

Кадирова Рано Хамидовна

М10-21 МНТ гуруҳи магистранти

ТУРИЗМ- АҲОЛИ ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Жаҳонда глобал рақобат кучайиб бораётган шароитда туризмни ривожлантириш, унинг иқтисодийнинг бошқа тармоқ ва соҳалари билан алоқаларини кенгайтиришга эътибор кучайтирилмоқда. Айни вақтда халқаро туризм иқтисодийнинг энг йирик секторига айланиб бораётган бўлиб, дунё мамлакатларида кузатилаётган табиий, иқтисодий ва сиёсий инқирозларга қарамай Covid-19 пандемиясигача бўлган сўнгги 10 йил мобайнида халқаро туристлар сони жадал суръатларда ўсиб борди. Бутун жаҳон туризм ташкилотининг маълумотларига кўра, халқаро туристлар сони 1950 йилда 25 миллион, 1980 йилда 278 миллион, 2000 йилда 674 миллион, 2016 йилга келиб эса 1 миллиард 235 миллион кишини ташкил этган. 2019 йил декабрь ойининг охирида Хитойда COVID-2019 касаллигининг тарқалиши қайд этилди, бу ҳолат бугунга келиб бутун дунёни ижтимоий-иқтисодий сиёсатга муносабатини ўзгартиришига мажбур қилди. Коронавирус эпидемиясининг глобал таъсири дунёнинг барча жабҳаларига – иқтисодий, ижтимоий ривожланиш ва бошқа соҳаларга жиддий таҳдид солди. Дунё иқтисодий фаолиятининг деярли 90 фоизи коронавирус пандемиясидан қайсидир даражада таъсирланган. Коронавирус пандемияси келтириб чиқарган иқтисодий зарар асосан ялпи талабнинг пасайиши билан боғлиқ. Ушбу таъсир айниқса авиокомпаниялар иқтисодий ҳолатига, туризм ва меҳмондорчилик соҳасига ўз жиддий таъсирини намоён этди. Шу сабабли 2022 йилда халқаро туристик саёҳатлар сони 2021 йилга нисбатан икки мартага ошиб 900 млнни ташкил этган бўлсада, ушбу кўрсаткич пандемиягача бўлган 2019 йилга

нисбатан 37 фоизга кам ҳисобланади. Таъкидлаш жоизки, ҳозирда дунё бўйича энг яхши динамика Яқин Шарқда кузатилган бўлиб, ушбу ҳолат Қатарда ўтказилган футбол бўйича жаҳон чемпионати билан изоҳланади. Туризм соҳасида 2019 йилга нисбатан Албания ва Виржиния оролларида -17 фоиз, Доминикан Республикасида - 10 фоиз, Салвадорда - 7 фоиз, Лихтенштейнда 2 фоизга халқаро саёҳатлар сонининг ўсиши қайд қилинди.

Хизматлар соҳаси аҳоли турмуш сифати ва иқтисодий ўсишнинг асосий омили бўлиб, ҳамда Жаҳон банки маълумотларига кўра, ушбу сектор ривожланган мамлакатлар ЯИМда 74 фоизни ташкил қилади. Ушбу ҳолатлар миллий иқтисодиёт ривожланишини таъминлаш учун хизматлар соҳасининг етакчи элементи ҳисобланган туризмни такомиллаштиришни тақозо этмоқда. Айнан шу сабабли мамлакатимизда иқтисодиётни янада либераллаштириш, трансформация жараёнларини жадаллаштириш, инвестиция муҳити ва рақамли инфратузилмани такомиллаштириш, туризмни ривожлантириш орқали аҳоли даромадлари ва фаровонлигини оширишга кенг эътибор қаратилмоқда. Жумладан, 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили”да амалга оширишга оид давлат дастурига мувофиқ Бухоро вилоятида туризм соҳасини жадал ривожлантириш бўйича алоҳида дастурни амалга ошириш белгиланган. Шу билан бирга мамлакатимиз ҳудудларида 20 тадан кам бўлмаган оилавий меҳмон уйлари яратилиб, сайёҳларга беш хил хизмат тури (яшаш ва овқатлантириш хизматларидан ташқари) кўрсатилганда, уларга “Туризм маҳалласи”, “Туризм қишлоғи” ёки “Туризм овули” мақоми берилиши белгиланди¹.

XXI асрга келиб туризм ҳар бир инсоннинг ҳаёт тарзига айланиб бўлди ҳамда сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий инқирозлардан кейин тез тикланиш хусусиятига эга. Шундай экан, бугунги кунда туризм соҳасини қайта тиклаш ҳамда соҳада шиддат билан олиб борилаётган иқтисодий ислохотларни дунёда вужудга келган санитария-эпидемиология ҳолатидан келиб чиқиб олиб бориш, бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Таъкидлаб ўтиш жоизки, мамлакатимизнинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Тараққиёт стратегиясида ҳам туризм соҳасини тубдан такомиллаштиришга қаратилган вазифалар белгилаб берилган. Хусусан, ушбу стратегиянинг 35-мақсадида «Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг» дастури доирасида маҳаллий сайёҳлар сонини 12 миллион ҳамда хорижий сайёҳлар сонини 9 нафардан ошириш вазифаси белгиланган.

Мамлакатимизда 2019-2025 йилларда туризмни ривожлантириш миллий концепциясини ишлаб чиқиш ва шу асосда 2025 йилда юртимизга ташриф буюрадиган хорижий сайёҳлар сонини 7 миллион нафарга, туризм экспортидан келадиган йиллик даромадни эса 2 миллиард АҚШ долларига етказиш вазифаси ҳам белгилаб берилган.

Ҳар бир ҳудудда туризмни ривожлантириш дастурлари мазкур ҳудудда мавжуд туристик тесурслар кўлами ва салоҳиятидан келиб чиқиб ишлаб чиқилиши лозим. Бу борада ҳудуднинг туристик ресурслари салоҳиятини баҳолашнинг методик асосларини тадқиқ этиш ва такомиллаштириш масалалари алоҳида аҳамиятлидир. Бугунги кунда ҳудудларнинг туристик салоҳиятини баҳолаш борасидаги мавжуд барча услубиётларни қуйидаги гуруҳга бўлишимиз мумкин:

Олинган натижалар мўлжалидан келиб чиққан ҳолда: миқдорий баҳолаш, сифат жиҳатдан баҳолаш ва аралаш; Ёндашувлар услубиётига боғлиқ равишда: компонентли баҳолаш ва комплекс баҳолаш.

Компонентли баҳолаш фақатгина баҳоланаётган туристик ресурсни тавсифлаш имконини берсада, туристик салоҳият тўғрисида тўлиқ тасаввур ҳосил қилишга имкон бермайди. Айнан шу боис, ҳудудларнинг туристик салоҳиятини баҳолаш ва ҳисоб-китоб қилишда баҳолашнинг комплекс услубиётдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Туристик салоҳиятни тадқиқ қилиш ва уни баҳолаш масалаларига бағишланган кўп сонли ва турли-туман илмий изланишлар мавжуд. Бундай илмий изланишларларни ўрганиш шуни кўрсатадики, туристик салоҳиятни баҳолаш борасида янгидан-янги услубиётлар таклиф қилинмоқда, улар муттасил тарзда қайта ишланиб, тўлдириб борилмоқда. Худудий туристик ресурслар салоҳиятини баҳолаш борасидаги маҳаллий ва хорижий ёндашувларни ўрганиш бу борада мавжуд машҳур услубиётларнинг аксарият қисмидан Ўзбекистон шароитида уларнинг бошланғич шаклида ёки уларга муайян бир ўзгартириш ва қўшимчалари киритиш орқали амалда кенг фойдаланиш мумкинлигини кўрсатади. Шу билан бир қаторда, мамлакатимизда туризмга оид

¹ <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-turistik-mahallalar-qishloqlar-va-ovullar-pajdo-boladi>

статистиканинг юритилиши имкониятларидан келиб чиққан ҳолдаги ҳудудий туристик ресурслар салоҳиятини баҳолаш услугиётини ишлаб чиқиш давр талаби ҳисобланади.

Шундай қилиб, ҳудуд иқтисодиётининг муҳим тармоғи сифатида туризм индустриясини шакллантириш ва уни барқарор ривожлантиришни биргина, бозор механизмлари орқали таъмин этиб бўлмайди, бунинг учун албатта давлат кўмаги талаб этилади. Айнан шу ўринда Португалия, Туркия, Малайзия, Испания каби мамлакатлар тажрибаларига асосланган ҳолда давлат-хусусий шерикчилик алоқаларини кўзда тутувчи ҳукумат, бизнес сектори, таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларининг ўзаро манфаатли ҳамкорлигини йўлга қўйиш асносида, ҳудуд даражасида ижтимоий аҳамиятга эга бўлган, барқарор ривожланиш мақсадларига асосланган дастурлар ва инновацион лойиҳаларни изчил жорий этиш аҳоли турмуш фаровонлигини оширишда муҳим ҳисобланади.

Giyazova N.B.

Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi

n.b.gizazova@buxdu.uz

Giyazov B.B.

Buxgalteriya hisobi va statistika

kafedrası o'qituvchisi

b.b.gizazova@buxdu.uz

SANOAT KORXONALARI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA MARKETING STRATEGIYALARINING ROLI

Jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va raqobatning keskinlashuvi sharoitida zamonaviy O'zbekiston iqtisodiyoti uchun eng dolzarb muammolar sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash sanaladi. Sanoat ishlab chiqarishi innovatsion o'sish sharoitida samaradorlikni yanada oshirish faqatgina mavjud moddiy resurslardan foydalanish orqali moddiy boyliklarni yaratishgina emas, balki moddiy bo'lmagan soha tomonidan ishlab chiqarilgan yangi ishlanmalarni qo'llashga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasi korxonalarini ham rivojlangan mamlakatlar korxonalaridan rivojlanishda orqada qolmasligi zarur. Milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishida ulkan vazifalarga duch keladi. O'zbekistonning global iqtisodiyot va siyosatdagi mavqei bu vazifaning qanchalik muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usulidan samarali foydalanish asosida tayyor va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, ayniqsa jahon bozorlarida raqobatbardoshli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uning eksport salohiyatni oshirish, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «To'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish»¹ vazifasi belgilangan bo'lib, ***mazkur vazifani muvaffaqiyatli bajarilishi respublika*** to'qimachilik sanoati korxonalarida raqobat ustunligi asosida to'qimachilik korxonalarini barqaror rivojlanish marketing strategiyasini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Bu borada milliy to'qimachilik korxonalarini barqaror rivojiga strategik omillar ta'sirini baholash yondashuvlarini takomillashtirish, moslanuvchan raqobat strategiyalarini ishlab chiqish, to'qimachilik korxonalarida strategik raqobat ustunligini ta'minlaydigan barqaror rivojlantirish tadbirlari samaradorligini oshirishda xodimlarini rag'batlantirish tizimini takomillashtirish yuzasidan uslubiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish ***kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.***

To'qimachilik korxonalarini boshqarishda marketing yondashuvini amalga oshirish kompleksli marketing strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish vositalarini tanlashni taqozo etadi. Bunda shuni e'tiborga olish kerakki, marketing strategiyasi strategik marketing emas. Marketing strategiyasi ishlab chiqarish va boshqaruvda marketing nigohi ustuvorligi bilan ajralib turadi, ya'ni yuqorida aytib o'tilganidek, korxonalar faoliyati iste'molchilar talablariga bo'ysundirilgan bo'lishi lozim.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. // www.lex.uz.

“Strategiya” atamasi biznes nazariyasi va amaliyotiga harbiy soʻzlardan kirib kelgan boʻlib, u quyidagi maʼnoni anglatadi: “barcha mumkin boʻlgan mavjud vositalardan foydalanib, mamlakat yoki mamlakatlar harbiy-siyosiy ittifoqi siyosatini rejalashtirish va uni amaliyotga tadbiq etish”¹.

“Strategiya” atamasi qadimgi yunon soʻzidan olingan boʻlib “stratos” (armiya) va “agein” (olib borish) soʻzidan kelib chiqqan. Ular birgalikda “strategia” soʻzini yoki “strategos” soʻzini keltirib chiqarib, mos ravishda “polk boshligʻi” va “armiya qoʻmondoni” kabi maʼnolarni anglatadi².

Biznes soharida “strategiya” atamasidan foydalanish oʻtgan asarning 50-yillaridan boshlangan. Strategiyani ishlab chiqish va uning nazariy asoslarini yaratishga koʻplab ilmiy-tadqiqot ishlari bagʻishlangan³.

Har bir korxonada aslida unga daromad keltiruvchi bir qancha faoliyat turlari bilan shugʻullanadilar, yaʼni biznes portfeliga ega boʻladilar. Biznesning har turi uchun maʼlum *biznes strategiyasi* belgilanadi.

Biznes strategiyasi – bu harakatlar majmui boʻlib, maʼlum bir tarixiy davr mobaynida ishlab chiqarish-sotish korxonasi belgilangan va nisbatan mustahkam harakatlar chizigʻini aks etadi. Bunday harakatlar majmui maʼlum bir tamoyillar, qoidalar va manfaatlar tuzilmasi meʼyorida boʻlib, harakatlarning joyi (qayerda), vaqti (qachon), sababi (nima uchun), uslubi (qanday) va maqsadi (nima uchun) kabi sharoitlarning sharti bilan namoyon boʻladi.

Nihoyat, korxonada marketing, ishlab chiqarishni tashkil etish, moliya, investitsiya va kadrlar borasida maʼlum strategiyaga ega boʻlishi kerak. Bular *vazifaviy strategiyalar* deb nomlanadi⁴.

Vazifaviy strategiyalar tashkilotning moliya, marketing, ishlab chiqarish, inson resurslarini boshqarish, ilmiy tadqiqot ishlari kabi funksional doiralarda faoliyatlar yoʻnalishini aniqlaydi. Ularning vazifasi - maksimal samarali ravishda korporativ va biznes darajasidagi belgilangan vazifalarni xalqaro taʼminlashdir. Ularning korporativ va biznes strategiyalardan asosiy farqi uning korxonada ichki yoʻnalishidir. Marketing strategiyasi, korxonada ichki menejmenti strategiyasi, moliyaviy strategiya, tashkiliy strategiya, ishlab chiqarish strategiyasi va boshqalar – bularning barchasi korxonaning oʻziga nisbatan markazga intilish faoliyatiga ega⁵.

Sanoati korxonalarining korporativ strategiyasi darajasidagi asosiy strategik maqsad va vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- toʻqimachilik sanoatini yanada rivojlantirish;
- «Oʻztoʻqimachilik sanoat» uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarining eksport salohiyatini yanada mustahkamlash.

Sanoati korxonalarining biznes strategiyasi darajasidagi asosiy strategik maqsad va vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- xom ashyo eksportini chuqur qayta ishlashni amalga oshirish orqali tayyor buyumlar eksporti bilan almashtirish;
- xalqaro standartlarga muvofiq sifatni boshqarish tizimini joriy etish uchun kerakli sertifikatlariga ega boʻlish;
- yangi bozor segmentlarini izlab topish va ularga chiqishda qulay transport va kommunikatsiya tizimini tashkil etish.

Sanoati korxonalarining marketing strategiyasi darajasidagi asosiy strategik maqsad va vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- toʻqimachilik mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish;
- toʻqimachilik mahsulotlariga boʻlgan isteʼmolchilarning ehtiyojlarini toʻlaroq qondirish;
- toʻqimachilik mahsulotlarining maqsadli bozorlardagi mavqei va ulushlarini oshirish.

Korxonalar raqobat strategiyalarini tizimlashtirish hozirgi kunning muhim ahamiyatli tomonlaridan biridir. Ushbu jadvalda korxonalar raqobat strategiyasini tizimlashtirish uchun zarur boʻlgan strategiyalar va uning turga ajratish belgilari haqida maʼlumotlar berilgan.

¹ Карлоф Б. Деловая стратегия. – М.: Экономика, 2014. – 239 с.

² Скинер В. Разработка корпоративной стратегии. – М.: Юнвес, 2014. – 812 с.

³ Hoffer C.W. and Shendel D. Strategy Formulation: Analytical Concepts. St. Paul, MN: West Publishing Company, 2018.

⁴ Стратегический маркетинг: учебник и практикум для вузов / Н. А. Пашкус [и др.]. – Москва : Издательство Юрайт, 2020. – 225 с.

⁵ Стратегический маркетинг: учебник и практикум для вузов / Н. А. Пашкус [и др.]. – Москва : Издательство Юрайт, 2020. – 225 с.

Korxonalar raqobat strategiyalari turlari¹

Turga ajratish belgisi	Strategiya turlari
Asosiy strategiyalar	Xarajat bo'yicha yetakchilik Keng tabaqalashtirish Muqobil xarajatlar Tabaqalashtirish asosida fokuslashtirilgan Pact xarajatlar asosida fokuslashtirilgan
Raqobatda ustunlikka boruvchi strategiyalar	olib Keng tabaqalashtirish Bozor och uyasida yiriklashish Xarajat bo'yicha yetakchilik Ijodiy hujum strategiyasi Barcha frontlar bo'yicha keng miqyosdagi hujum Egallanmagan muhitni egallash Ogohlantiruvchi hujum: - raqibning kuchli tomonlariga hujum - raqibning kuchsiz tomonlariga hujum
Korxonaning bozordagi holatiga tayaniladigan strategiyalar: Bozor yetakchisi	Tabaqalashtirishga asoslangan shiddatli hujum strategiyasi Yetakchi orqasidan borishga majburlik strategiyasi Faol mudofaa Qulay joyga egalik mudofaasi Qanot mudofaasi Oldindan zarb berish Keng miqyosli mudofaa
Talabgor kopxona	Hujum strategiyasi Yonbosh bo'yicha hujum Qanot hujumi Partizan urushi Raqibning kuchsiz tomonlariga hujum
Izdan boruvchi korxonalar	Vakant uyasi Ixtisoslashuv Muqobil harajat Yetakchi orqasidan boruvchi Egalik qilish hisobiga o'sish Individual imij
Bozor och uyacida xizmat qiluvchi	Vertikal ixtisoslashuv Geografik ixtisoslashuv Iste'molchilar tipiga ixtisoslashuv Narx darajasiga ixtisoslashuv
Tarmoq strategiyalari: paydo bo'layotgan tarmoqlarda	Ijodiy shiddatli hujum strategiyasi Barcha frontlar bo'yicha keng miqyosli hujum Bir qancha bozor och uyalari strategiyasi Tabaqalashtirishga asoslangan yonbosh bo'yicha hujum
Yetilgan tarmoqlarda	Keng miqyosli tabaqalashtirish Ega bo'lishlik strategiyasi Xalqaro bozorga chiqish Xarajat bo'yicha yetakchilik Muqobil xarajat
Turg'un va tugab borayotgan tarmoqlarda	Tarmoq ichida yangi segmentlarni yaratish yo'li bilan Yiriklashish strategiyasi Muqobil xarajat Xarajat bo'yicha yetakchilik Tezda qutulish Hosilni yig'ish

¹Muallif ishlanmasi.

Fragmentlashgan tarmoqlarda	Bozor uyasiga yiriklashish Xarajat bo'yicha yetakchilik Integratsiyalashuv (oldinga-orqaga) Iste'molchilar tipiga nisbatan ixtisoslashuv Mahsulot tipiga nisbatan ixtisoslashuv
Xalqaro bozorlarda amalga oshiriladigan strategiyalar	Tabaqalashtirishning global strategiyasi Pact xarajatlarning global strategiyasi Yiriklashish global strategiyasi Ko'p milliylik strategiyasi Milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va milliy bozorlarda tovar eksporti Kompaniya texnologiyalaridan foydalanish uchun xorij firmalariga litsenziyani berish
Diversifikatsiya strategiyalari	Yangi tarmoqqa tadbqiq etish: ega bo'lish, yangi kompaniyani yaratish, qo'shma korxonona O'xshash diversifikatsiya O'xshash bo'lmagan diversifikatsiya Rad etish va tugatish Yangilash, qisqartirish va tarkibiy yangilash Xalqaro diversifikatsiya

Xulosa va takliflar. Ma'lumki, iqtisodda raqobat ko'p qirrali hodisa bo'lib, yaxshi daromad ko'rish, o'z qobiliyatini to'laroq ishga solish, o'zi mashg'ul ishni rivojlantirish, o'z sohasida nufuzga ega bo'lish uchun kurashni bildiradi. Raqobat firma, korxonona tovarlari sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori foyda olish uchun uzluksiz kurashda bo'lishni toqazo etadi. Kishilarning iqtisodiy faoliyati boshqa faoliyatlarining asosini tashkil qilgani uchun kishilik jamiyati hayotida iqtisodiy sohadagi raqobat muhimdir. Iqtisodiyotda raqobatning kuchayib borishi sanoat korxonalarini boshqarishning yangi usul va vositalari hamda uning raqobatbardoshligini oshirishning yangi qurollarini izlab topishni talab etmoqda. Iqtisodiyotga oid nazariyalarda raqobat, raqobatbardoshlik, raqobatda ustunlik kabi kategoriyalar bir-biridan ajratiladi. Umumiy ko'rinishda raqobat bir tizim elementining boshqasiga salbiy ta'siri ko'rinishida tavsiflanadi. Raqobatbardoshlik alohida toifadagi ob'yektlarning bozordagi talabga qay darajada mosligini xarakterlaydi, ya'ni, taklifning (tovarning) talabga mosligini, korxonaning raqobat ustunligini ta'minlash imkoniyatini, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy modelini xarakterlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. // www.lex.uz.
2. Карлоф Б. Деловая стратегия. – М.: Экономика, 2014. – 239 с.
3. Скинер В. Разработка корпоративной стратегии. – М.: Юнвес, 2014. – 812 с.
4. Hoffer C.W. and Shendel D. Strategy Formulation: Analytical Concepts. St. Paul, MN: West Publishing Company, 2018.
5. Стратегический маркетинг: учебник и практикум для вузов / Н. А. Пашкус [и др.]. – Москва : Издательство Юрайт, 2020. – 225 с.

Samandarov Ogabek Alisher o'g'li
Urganch davlat universiteti
Turizm va mehmonxona xo'jaligini
boshqarish kafedrası stajor-o'qituvchisi
ogabek@urdu.uz

MARKETINGDA B2B BOZORINGING AHAMIYATI VA NAZARIY TUSHUNCHALARI

Kirish. So'ngi yillarda mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish jadallashmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli farmoni doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqildi. 29-maqsadga ko'ra "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar

yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" kabi vazifalar qo'yilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda kichik biznesni rivojlantirish va xorij tajribalarini qo'llash muhim omil sanaladi¹.

Tahlil natijalar. Biznes-to-biznes marketingi mahsulot yoki xizmatni boshqa kompaniyaga sotish va tarqatish bo'yicha barcha harakatlar va jarayonlarni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, bu iste'molchilarga emas, balki boshqa korxonalariga qaratilgan marketingdir. Iste'molchilarga qaratilgan marketing shuning uchun B2C marketing deb ataladi. B2B va B2C o'rtasida juda ko'p farqlar mavjud. Ko'rib turganimizdek, B2B marketing marketingning faqat bir qismidir. Boshqa marketing turlaridan farqi maqsadli guruhga asoslanadi. Demak, birinchi navbatda marketing ta'rifiga qarash mantiqan to'g'ri keladi. Marketing "mahsulot yoki xizmatlarni ilgari surish va sotish, shu jumladan bozorni o'rganish va reklama qilish harakati yoki biznesidir"². Bu keng mavzuning oddiy, ammo nisbatan sayoz ta'rifidir. Jerom Makkarti tomonidan 1960 yilda yaratilgan klassik ta'rifda asosiy ta'rif sifatida marketing aralashmasining "4P" dan foydalaniladi.³ Marketing quyidagilardan iborat:

- mahsulot yoki xizmat
- narx
- joy yoki tarqatish
- rag'batlantirish yoki aloqa

Yana bir mashhur ta'rif 1991 yildagi P. Kotler tomonidan berilgan:⁴ "Marketing - bu ijtimoiy va boshqaruv jarayoni bo'lib, u orqali odamlar va guruhlar o'zlari xohlagan va kerakli narsalarni yaratish, taklif qilish va boshqalar bilan almashish orqali oladilar." Bundan tashqari, ushbu yondashuv Marketing kompaniyana uchun nima qilishi mumkinligining mohiyatini qamrab olmaydi. Hubspot ta'rifi marketingning strategik ahamiyatini o'z ichiga oladi:

"Marketing deganda kompaniya yuqori sifatli xabarlar orqali kompaniya mahsuloti yoki xizmatlariga auditoriyani jalb qilish uchun qiladigan har qanday harakatlar tushuniladi. Marketing mahsulot qiymatini namoyish etish, brendga sodiqlikni mustahkamlash va pirovardida sotuvni oshirishdan iborat uzoq muddatli maqsad bilan kontent orqali istiqbollar va iste'molchilar uchun mustaqil qiymatni taqdim etishga qaratilgan.

Marketing adabiyotida B2B marketing atamasining turli ta'riflari mavjud. Yuqorida aytib o'tilganidek, kompaniya va uning maqsadli auditoriyasi o'rtasidagi munosabatlar barcha marketing faoliyatiga ta'sir qiladi. Shuning uchun maqsadli auditoriya turi (biznes va iste'molchi) marketingni toifalarga ajratadi. Bu B2B marketingining mavjudligining sababi. B2B marketing - bu ikki kompaniya o'rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadigan o'ziga xos intizom.⁵

Makkarti, Kotler va Hubspotning klassik marketing ta'riflarini o'z ichiga olgan holda, biz quyidagi tamoyillar bilan asos yaratishimiz mumkin:⁶

- marketing odamlarga qaratilgan;
- marketing - bu jarayon;
- marketing ijtimoiy jihatga ega bo'lib, u alohida shaxslar yoki guruhlar tomonidan amalga oshiriladi;
- marketing - bu qiymat yaratish va taklif qilishdir;
- marketing - bu mahsulot yoki xizmat haqida;
- marketing ushbu mahsulot yoki xizmatning taqsimlanishi va narxini qamrab oladi;

B2B sotuvchilari har bir tovarni boshqacha sotishlari kerak. Mashinaning o'zi videoda ko'rsatilishi va ma'lum texnik xususiyatlar bilan aniqlanishi mumkin. Biroq, to'lov xizmatini oldindan ko'rish yoki unga teginish mumkin emas. Dasturiy ta'minot qismi shunga o'xshash. Katta mashinani osongina namoyish qila olmasa ham, dasturiy ta'minot demosini bir marta bosish kifoya. Biroq, bu jihat B2B bozorlariga xos emas. Mahsulot to'plamlari deb ataladigan narsa B2C bozorlarida ham keng tarqalgan. Shunga qaramay, bu marketing strategiyasida e'tiborga olish kerak bo'lgan muhim jihatdir.

Ko'pgina sotuvchilar B2B va B2C marketingi o'rtasida farq yo'qligini ta'kidlaydilar. Ushbu maqolada B2B bozori iste'mol bozorlaridan qanchalik farq qilishi ko'rsatilgan. Ko'pgina marketing amaliyotlari ikkala bozor turida ham mavjud bo'lsa-da, ular individual talablarga moslashtirilgan.

¹ 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

² A. Hadjikhani, P. LaPlaca / Industrial Marketing Management 42 (2013) 294305

³ Effective Marketing Strategies of Profitable Small Businesses 2006

⁴ Thatte, A., Dhupal, P., & Agrawal, V. (2018). Competitive advantage through operations system and supplier network responsiveness. *Journal of International Business*

⁵ Tomczyk, P., Doligalski, T., & Zaborek, P. (2016). Does customer analysis affect firm performance? Quantitative evidence from the Polish insurance market. *Journal of Business Research*

⁶ Tran, V.-T., Porcher, R., Tran, V.-C., & Ravaud, P. (2017). Predicting data saturation in qualitative surveys with mathematical models from ecological research. *Journal of Clinical Epidemiology*

B2B marketingning B2C marketingidan qanday farq qilishini.¹

	B2B marketing	B2C marketing
Maqsadli guruh	Korxonalar yoki tashkilotlarda ishlaydigan odamlar guruhi. Sotib olish markazi	Yakka tartibdagi iste'molchilar
Jalb etgan odamlar soni	Bir nechta odam sotib olish to'g'risida qaror qabul qiladi. Odatda, sotib olish qarori xarid markazi tomonidan tasdiqlanadi.	Bir kishi qaror qabul qiladi, ko'pincha do'stlar yoki oila a'zolari bilan maslahatlashadi: mo'ljallangan xaridni muhokama qilish yoki ular allaqachon qabul qilgan qarorni oqlash uchun.
Mahsulot / Xizmat	Batafsil tushuntirishni talab qiladigan murakkab mahsulotlar yoki xizmatlar. Ko'pincha uzoq muddatli investitsiyalar.	Kamroq murakkab mahsulotlar yoki xizmatlar. Ko'pincha kundalik foydalanish uchun iste'mol tovarlari.
Narx	Yuqori hajmli investitsion tovarlar. Ko'pincha byudjet chegaralari bilan belgilanadi.	Mutlaq narxlarni pasaytirish. Daromad bilan solishtirganda, B2C narxlari ham yuqori bo'lishi mumkin.
Joyi / Tarqatish	Murakkab tarqatish jarayoni. Ko'pincha xalqaro yoki global.	Tez yetkazib berish, ko'pincha 24/7 Odatda hamma joyda mavjud.
Aksiya / Aloqa	Odatda faktlarga asoslangan, kamroq hissiy savdo bilan. Ko'p kanalli aloqa hali keng qo'llanilmaydi.	Tuyg'ular, ehtiyojlar va istaklar bilan boshqariladi. Kuchli brend va narxga yo'naltirilgan aloqa. Ko'p kanalli aloqa standart hisoblanadi.

Yuqoridagi jadvalda har ikkala bozorning farqi tushuntirilgan bo'lib, ulardagi kamchiliklari va ulardagi imkoniyatlar mazmunini tushinib olish uchun imkon yaratadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki bugungi kunda kichik biznes faoliyatini shakllantirishda B2B bozori mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi, mamlakatni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, va boshqa ko'plab omillari mavjud hisoblanadi. Biznesdan biznesga marketing (B2B) va biznesdan iste'molchiga marketing (B2C) bir-biridan farq qiladi. Klassik 4P marketing nuqtai nazaridan va kengroq 7P ni hisobga olgan holda farqlar mavjud. Eng keng tarqalgan marketing kanalini diqqat bilan ko'rib chiqish, maqsadli guruh va mahsulotning tabiati marketingga katta ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi sohalarda bu ta'sir boshqalarga qaraganda ko'proq bo'ladi. Asosiy qabul qilish xabari maqsadli guruhni va ularga qanday erishishni bilish va tushunishdir. Ushbu oddiy istiqbol marketing strategiyasi, kontenti va kanallar qirralarini belgilaydi. Ko'pincha, B2C marketing tendentsiyalari vaqt o'tishi bilan B2B marketing tomonidan moslashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi
2. A. Hadjikhani, P. LaPlaca / Industrial Marketing Management 42 (2013) 294305
3. Effective Marketing Strategies of Profitable Small Businesses 2006
4. Thatte, A., Dhumal, P., & Agrawal, V. (2018). Competitive advantage through operations system and supplier network responsiveness. *Journal of International Business*
5. Tomczyk, P., Doligalski, T., & Zaborek, P. (2016). Does customer analysis affect firm performance? Quantitative evidence from the Polish insurance market. *Journal of Business Research*
6. Tran, V.-T., Porcher, R., Tran, V.-C., & Ravaud, P. (2017). Predicting data saturation in qualitative surveys with mathematical models from ecological research. *Journal of Clinical Epidemiology*

¹ Effective Marketing Strategies of Profitable Small Businesses 2006

Tolibova Aziza To'liq qizi
3-bosqich talabasi
Giyazova Nozima Bayazovna
Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi
Buxoro Davlat Universiteti

ISTE'MOLCHILAR ORQALI ONLAYN MARKETING

Ushbu zamonaviy davrda an'anaviy marketing onlayn marketingning kirib borishi bilan yo'qolib bormoqda, u ko'plab turli tarmoqlarni, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, chat forumlari va muammolarni bartaraf etish bo'yicha umumiy forumlarni tarqatdi. Axborot almashish tezligi hech qachon bu davrda bo'lgani kabi tez bo'lmagan va yangi o'zgaruvchan ma'lumotlarning portlashini osonlashtirish uchun onlayn marketing muhim rol o'ynaydi. Onlayn marketing iste'molchilarga o'zlari sotib olishga arziydigan mahsulotlarni bozorga chiqarish imkoniyatini beradi, shuningdek, turli xil mahsulotlarning xususiyatlari, sifati, chidamliligi, dizayni va funktsionalligi haqida batafsil muhokamalar olib boradi. Marketing menejrlari turli sabablarga ko'ra onlayn marketingdan tobora ko'proq foydalanmoqdalar, jumladan; geografik cheklolarni bartaraf etish, foydalanish qulayligi, katta hajmdagi ma'lumotlarni ixcham onlayn veb-saytga birlashtirish, atrofda potensial va haqiqiy iste'molchilarga kirish intensivligi.

Onlayn marketing iste'molchining sotib olish qaroriga ta'sir qilishi va turli sohalarning turli xil mahsulotlari to'g'risidagi brend tushunchalarini o'zgartirishi mumkin. Ushbu tadqiqotning maqsadi marketing menejrlari iste'molchilarni marketing aktivi sifatida ishlatish orqali iste'molchilarning xarid qilish qaroriga va brendni idrok etishga ta'sir qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan turli xil vositalar va usullarni o'rganishdir.

Onlayn marketing haqida so'z yuritilarkan, quyidagi tushunchalarni mulohazaga olish muhim ahamiyat kasb etadi va ular asosiy unsurlar hisoblanadi.

1. Iste'molchining sotib olish qarori: Iste'molchining sotib olish to'g'risidagi qarori iste'molchining shaxsning daromadi, mahsulot sifati, kompaniyaning tovar qiymati va boshqalar kabi barcha omillarni hisobga olgan holda, sotib olingan mahsulot uchun to'lovni amalga oshirish uchun qabul qiladigan yakuniy qarorni anglatadi.

